




filologiya fanlari doktori, professor  
Hamid G'ulomovich Ne'matov  
tavalludining 80 yilligiga bag'ishlanadi



# **FILOLOGIK TADQIQOTLAR: MUAMMO VA YECHIM**

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

## **MATERIALLARI**



2021-yil 22-noyabr

**Imprint**

Any brand names and product names mentioned in this book are subject to trademark, brand or patent protection and are trademarks or registered trademarks of their respective holders. The use of brand names, product names, common names, trade names, product descriptions etc. even without a particular marking in this work is in no way to be construed to mean that such names may be regarded as unrestricted in respect of trademark and brand protection legislation and could thus be used by anyone.

Cover image: [www.ingimage.com](http://www.ingimage.com)

Publisher:

GlobeEdit

is a trademark of

Dodo Books Indian Ocean Ltd., member of the OmniScriptum S.R.L  
Publishing group

str. A.Russo 15, of. 61, Chisinau-2068, Republic of Moldova Europe

Printed at: see last page

**ISBN: 978-620-0-62760-5**

Copyright © Guli Tairova

Copyright © 2021 Dodo Books Indian Ocean Ltd., member of the  
OmniScriptum S.R.L Publishing group

FOR AUTHOR USE ONLY

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
DAVLAT TILINI RIVOJLANTIRISH DEPARTAMENTI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI  
UNIVERSITETI  
BUXORO VILOYATI PEDAGOG XODIMLAR MALAKASINI OSHIRISH  
VA QAYTA TAYYORLASH INSTITUTI**

**“FILOLOGIK TADQIQOTLAR: MUAMMO VA YECHIM”  
mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman  
materiallari**

(filologiya fanlari doktori, professor Hamid G‘ulomovich Ne‘matov  
tavalludining 80 yilligiga bag`ishlanadi)

**«ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ПРОБЛЕМА И  
РЕШЕНИЕ»**

**материалы международной научной конференции  
(доктор филологических наук, профессор Хамид Гуломович  
Нематов  
посвящается к 80-летию со дня рождения)**

**“PHILOLOGICAL RESEARCH: PROBLEM AND SOLUTION”  
international scientific conference**

(doctor of Philology, Professor Hamid Gulomovich Nematov  
dedicated to the 80th birthday anniversary)

**Buxoro – 22-noyabr, 2021-yil**

Anjuman O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 16-iyundagi oliy ta‘lim tizimidagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi, “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi hamda “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlariga muvofiq tashkil etilmoqda.

**Anjumanning maqsadi:** filologiya fanlari doktori, professor Hamid G‘ulomovich Ne‘matov tavalludining 80 yilligini keng nishonlash va o‘zbek tilshunosligi XXI asr birinchi choragida, filologiyada o‘z yechimini kutayotgan dolzarb masalalar, til ta‘limida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o‘zbek va xorijiy tillarni qiyosiy o‘rganish masalalarini ta‘limning yetakchi mutaxassislar bilan tajriba almashish hamda ushbu sohadagi so‘nggi tadqiqot usullarini ommalashtirishdan iborat.

### **DASTURIY QO‘MITA**

**Xamidov O. X.** – BuxDU rektori, i. f. doktori, professor, rais;

**Qahhorov O.S.** – BuxDU ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, i.f.doktori, rais o‘rinbosari;

**Jamoliddinova O.** – Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi maslahatchisi, a‘zo;

**Jumayev R.G‘.** – BuxDU o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori, i.f.doktori (PhD), dotsent, a‘zo;

**Qahhorov S.Q.** – BuxDU kasaba uyushmasi raisi, p.f.doktori, professor, a‘zo;

**Rajabov D.Z.** – BuxDU filologiya fakulteti dekani, f.f.doktori (DSc), dotsent, a‘zo;

**O‘rayeva D.S.** – BuxDU filologiya fakulteti professori, f.f.doktori, a‘zo;

**Abuzalova M.Q.** – BuxDU filologiya fakulteti professori, f.f.doktori, a‘zo;

**Axmedov A.R.** – BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasini mudiri, f.f.nomzodi, dotsent, a‘zo;

**Eshonqulov H.P.** – BuxDU o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, f.f.doktori, dotsent, a‘zo;

**Yuldasheva D.N.** – BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasini professori, p.f.nmzodi, a‘zo;

**Nazarova S.A.** – BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasini dotsenti, f.f.nomzodi, a‘zo.

**Toirova G.I.** – BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasini dotsenti, f.f.f.doktori (PhD), a‘zo;

### **TASHKILIY QO‘MITA**

**Axmedov A.R.** – BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasini mudiri, f.f.nomzodi, dotsent, rais;

**Toirova G.I.** – BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasini dotsenti, f.f.f.doktori (PhD), rais o‘rinbosari;

**Safarov A.K.** – Buxoro viloyati PXMOQTI rektori, p.f.nomzodi, dotsent, a‘zo;

**Mengliyev B.R.** – Toshkent DO‘TAU professori, f.f.doktori, a‘zo;

**Ne‘matova G.H.** – Buxoro viloyati PXMOQTI prorektori, f.f.nomzodi, dotsent, a‘zo;

**Hamroyeva Sh.M.** – Toshkent DO‘TAU doktoranti, f.f.doktori (DSc), dotsent, a‘zo;

**Qilichev B.E.** – BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasini dotsenti, f.f.nomzodi, a‘zo;

**Ne‘matova L.H.** – BuxDU rus tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, f.f.nomzodi, dotsent, a‘zo;

**Asadov T.H.** – BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasini dotsenti, f.f.nomzodi, a‘zo;

**Hojiyeva M.Y.** – BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasini o‘qituvchisi, a‘zo.

**Yoqubova Sh.** – BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasini o‘qituvchisi, a‘zo.

### **Mas‘ul muharrir:**

Axmedov A.R. – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

### **Taqrizchilar:**

Abuzalova M.Q. – filologiya fanlari doktori, professor

Yuldasheva D.N. – pedagogika fanlari nomzodi, professor

Toirova G.I. – f.f.f.doktori (PhD), dotsent

# INSON XOTIRASI AZIZ

HAMID NE'MATOV – BUXOROYI SHARIF FARZANDI

*Xamidov Obidjon Xafizovich,*

*BuxDU rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Qahhorov Otabek Siddiqovich,*

*BuxDU ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori*

Bu yorug' dunyoda ilm bo'lmaganda, insoniyat umr yo'lini ilm nuri bilan yoritmaganda, bu yorug' olamda kishilar faqat qorin g'ami bilan kun o'tkazgan, zulmat va nodonlik ko'chasida qolib ketgan bo'lardi. Inson ma'naviy olamining beqiyos quvvat manbayi, Yaratmishning betakror tajallisi ekanligining isboti, uning qalbini yoritguchi cheksiz nur ilm va ma'rifatdir. Insoniyatning qadr-qimmati ilm bilan hosil bo'ladi. Haqiqiy ilm odamzodga zarar keltirmaydi. Ilmni qunt bilan o'rganish, uni egallash, ilmni izlash, topish, xulosalar chiqarish, o'rni kelganda boshqalarga o'rgatish oliy san'at namunasi.

Buxoroyi sharifda ana shunday oliy san'at namunasi, ibrat maktabi bo'la oladigan ko'p-ko'p haqiqiy olimlar, urfoni ulamolar, zakiy bilimdonlar yashashgan, yashashmoqda va, ishonamizki, bundaylar kelajakda ham shu zaminda umrguzaronlik qilishadi. O'zbek tilshunosligi ilmining zabardast vakili, turkolog olim, filologiya fanlari doktori, professor HAMID G'ULOMOVICH NE'MATOV ona-Buxoroning butun shuuriga ilm shu'lasini tushgan asl farzandlaridan biri edi...

Milliy istiqlolning ilk nasimi esa boshlaganda Xalq ta'limi Vazirligi va "Ma'rifat" ro'znomasi "O'zbek tilshunosligi va o'zbek tili ta'limi nazariy asoslarini yangilash imkoniyatlari" yo'nalishida 1987-yil oktabr–1988-yil yanvar oylarida katta so'rovnoma o'tkazdi. So'rovnoma natijalari Vazirlik va tahririyat tomonidan tayyorlangan "Talab, ehtiyoj va imkoniyat" sahifasida umumlashtirildi, gazetaning 1988-yil 5-mart sonida e'lon qilindi. Bu sahifada:

–o'zbek nazariy tilshunosligini 1930-yillarda o'z oldiga qo'ygan vazifalarni, ya'ni zamonaviy adabiy til me'yorlarini ishlab chiqish va keng ommalashtirishni 1970-yillarga kelib o'tab bo'lgan formal tahlil usullaridan til va til birliklarining tizimiy imkoniyatlarini ochish va tavsiflashga xizmat qiladigan substansial tahlilga ko'chirish;

–ona tili ta'limining maqsadi bilimdon, nutqi ravon shaxsni tayyorlashdan iborat bo'lgan retroskopik (reproduktiv) usuldan mustaqil fikrli ijodiy tafakkur sohibini yetishtirishni ko'zlaydigan kognitiv-pragmatik (zamona zayli bilan o'sha davrda induktiv deb nomlangan) yo'nalishda yangilash zarurati asoslangan, buni amalga oshirish imkoniyatlari, bosqichlari, kuchlari ko'rsatib berilgan edi.<sup>1</sup>

Munozarali masala – taklif etilgan maqsad, unga erishish yo'llari – muhokamasi va yechimi uchun ta'lim vazirliklari huzurida ish olib boradigan, o'zbek tilshunoslari, didaktlari hamda ona tili o'qituvchilarini birlashtiradigan "O'zbek tili doimiy anjumani"(O'TDA)ni ta'sis etish bilan yakunlandi, anjuman "Nizom"i tasdiqlanib, muhokamaga chiqarildi.<sup>2</sup>

Hozirda ham (2015-yilgacha o'n uchta yig'ini o'tkazilgan) mazkur anjuman samarali faoliyat ko'rsatmoqda.

Substansial tilshunoslik va ona tilining kognitiv-pragmatik ta'limi–bularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi: tilshunoslik tilimiz hamda birliklarining tizimiy imkoniyatlarini ochib beradi, ona tili ta'limi shu imkoniyatlardan samarali foydalanib, ayni bir axborotni yuzlab usul-u vositalar bilan ifodalash yo'llarini, shulardan aniq bir sharoitda qay biri eng qulay va ta'sirchan ekanligini to'g'ri aniqlay olish va qo'llashni o'rgatadi. Har ikki yo'nalishning qadri-yu ahamiyati mustaqilligimizning ilk qadamlaridayoq O'zbekiston hukumati tomonidan ijobiy

<sup>1</sup> (Qarang: «Ўқитувчилар газетаси» 1987 йил 11 октябрь; 1988 йил 5 март; 1988 йил 23 июль; 1989 йил 3 январь; «Учитель Узбекистана» 1988 йил 19 март sonlari.)

<sup>2</sup> «Ўқитувчилар газетаси» 1990 йил 3 февраль soni.

baholandi, mustaqillik davrida o'zbek tilshunosligi hamda ona tili ta'limi shu yo'nalishlarda izchil rivojlanayotganligining guvohimiz.

O'zbek tilshunosligida hamda ona tili ta'limi borasida ro'y bergan bunday katta o'zgarishlar o'zbek lisonshunosligida o'z maktabini yarata olgan olim, yoshlarning ardoqli murabbiyi, shogirdlari kamolini o'zining baxti, iqboli deb bilgan ustoz, kamtarin va fidoyi inson, filologiya fanlari doktori, professor, "El-yurt hurmati" ordeni sohibi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi, O'zbekiston maorifi a'lochisi **NE'MATOV HAMID G'ULOMOVICH** nomi bilan ham bog'liqdir.

Ne'matov Hamid G'ulomovich 1941-yil 22-noyabrda Buxoro shahridagi Modarixon g'uzarida o'z davrining ma'rifatli kishisi G'ulomqodir Ne'matulloboev oilasida tug'ildi.

O'rta maktabni Buxoroda tugatib, universitet, aspirantura va doktorantura ta'limini 1961-1976-yillarda Leningrad davlat universiteti va Sharqshunoslik institutida mashhur o'zbekshunoslar akademik Andrey Nikolayevich Kononov va professor Sergey Nikolayevich Ivanovlardan oldi.

1970-yilda "Qoshg'ariy "Devon"i materiallari asosida fe'l morfologiyasi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini, 1978-yilda "XI-XII asr sharqiy turkcha morfologiyasi" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Ma'lumki, sovet davrida butun Ittifoqda ta'lim tizimi yagonaligi niqobi ostida rus va milliy maktab darsliklarining mazmunan bir xilligi talab qilinardi. Shuning uchun nafaqat aniq va tabiiy fanlar bo'yicha, hatto tarix-u geografiya darsliklarini ham rus tilidan tarjima qilib, milliy maktablarda qo'llash va ommalashtirish keng amalda edi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi uchun Moskva har bir o'quv fanidan barcha respublikalar uchun majburiy namunaviy dasturlar ishlab chiqar, shu usul bilan ta'lim maqsadi, mazmuni va usulidagi yagonalikni ta'minlar edi. Bu tazyiq o'sha paytlarda shu darajaga yetdiki, namunaviy dasturlardan milliy ruh hamda sharoitni berish uchun har qanday chetga chiqish millatchilik va Ittifoq birligini buzishga qaratilgan davlat jinoyati sifatida baholanardi, qattiq ta'qib qilinardi. Pirovard oqibatda, hatto ona tili darsliklarida milliy tilning qurilishi talqinlari ham rus tili qurilishiga mumkin qadar "yaqin"lashtirildi.

1950-yillardan keyin milliy tillar qurilishi talqinini rus tili grammatikasi bilan aynanlashtirish— fanga xilof va tadqiq manbayini noto'g'ri talqin qilish sifatida—fan olamida asta-sekin qoralana boshlandi. O'zbek tilshunosligida bunday harakatning peshqadamlaridan biri 1951-1953-yillarda BuxDUda avval o'qituvchi, keyinchalik o'quv ishlari prorektori, ilmiy ishlar prorektori lavozimlarida ishlagan, "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi va madaniyat xodimi" faxriy unvonlariga sazovor bo'lgan zakovatli tilshunos olim, shoir va iste'dodli ("Qutadg'-u bilig"ni va Mir Alisher Navoiy asarlarini, jumladan, "Lison-ut tayr"ni asliyatdan rus tiliga o'girgan) tarjimon, professor Sergey Nikolayevich Ivanov (1922-1999) edi.

Professor S.N.Ivanovning yetti tilni o'z ona tilidek biladigan iqtidorli shogirdi H.G'.Ne'matov respublikamiz tilshunosligi va ona (o'zbek) tili ta'limi yangilanishining yalovbardorlaridan bo'ldi...

Ne'matov Hamid G'ulomovich 1982-yildan 2004-yilgacha Buxoro davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasining mudiri lavozimida ishladi. 2004-2009-yillarda shu kafedra professori sifatida faoliyat ko'rsatdi. 2009-yildan 2015-yilgacha Buxoro viloyati pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti professori bo'lib ishladi.

O'tgan davr mobaynida daqiq olim H.G'.Ne'matov va uning izdoshlari o'zbek tilshunosligini bundan qariyb 30 yil oldin "Talab, ehtiyoj va imkoniyat" sahifasida qo'yilgan cho'qqilarga ko'tardi, umumiy o'rta, o'rta maxsus, oliy ta'lim tizimi muassasalarini substansial grammatik talqin asoslarida yaratilgan, yangi maqsadlarni ko'zlaydigan dastur-u darslik, qo'llanmalar bilan ta'minlay oldi.

Iftixor bilan qayd etish mumkinki, S.N.Ivanov boshlab bergan, uning izdoshi H.G'.Ne'matov amaliy tatbiqini ta'minlagan o'zbek substansial tilshunosligining yutuqlari "ichki bozor"ning zamonaviy ehtiyojlarini qondirish bilan chegaralanib qolmadi—xorijga ham yuz tutdi. Jumladan, o'zbek germanistlari Nofiza Vohidovanning nemis, Jamila Jumaboyevaning

ingliz tili leksikasiga o`zbek substansial tilshunosligi yutug`i bo`lgan graduonimiya hodisasini olib kirdi.

Bevosita H.G`.Ne`matov nomi bilan bog`liq bunday yutuqlar bisyor...

Ne`matov Hamid G`ulomovich 40dan ortiq darslik, dastur, o`quv qo`llanma, metodik tavsiyalar kabi alohida nashrlarning, 250dan ortiq ilmiy maqolalarning muallifi va 100dan ortiq ilmiy-metodik ishlarining muharriri hamda taqrizchisidir.

Olim ilmiy faoliyati davomida 40dan ortiq fan nomzodi va beshta fan doktori tayyorladi. Ular Buxoro, Toshkent, Qarshi, Andijon, Farg`ona, Samarqand shahar va viloyatlaridagi oliy ta`lim o`choqlarida ishlamoqdalar.

Olim rahbarlik qilgan ilmiy ishlar – o`zbek substansial tilshunosligi hamda uning asosida ona tili ta`limini yangilashga qaratilgan va bu sohada katta ilmiy-amaliy yutuqlarga erishilgan. Respublikamizda o`zbek tili bo`yicha maktab dasturlari ham, oliy filologik ta`lim dastur va qo`llanmalari ham shu mazmun hamda yo`nalishda amaliyotda ekanligi, o`zbek substansial tilshunosligining g`arbda ham e`tirof etilishi, Yevropa faniga o`z ta`sirini o`tkazayotganligi<sup>1</sup> H.G`.Ne`matovning ilmiy rahbar sifatida faoliyati ko`zguisidir.

Ustozning samarali mehnatlari hukumatimiz tomonidan ham munosib taqdirlangan. Jumladan, ustoz 1996-yilda “O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan xalq ta`limi xodimi” faxriy unvoni, 2010-yilda “El-yurt hurmati” ordeni, Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining faxriy yorliq va diplomlari bilan taqdirlangan.

O`zbekistonning asl farzandi, o`zini ona-Buxorosining bir zarrasi deb bilgan, o`rni kelganda sharif shahrining Machiti Balandini Yevropaning huzur-halovatli go`shalaridan ustun qo`ya olgan, milliy grammatikamizni jahon andozalariga moslay olgan, yuzlab shogirdlarni yetishtirib, yurt xizmatiga hamma vaqt “labbay” deb javob bera olgan Ne`matov Hamid G`ulomovich butun umrini, kuch-g`ayratini, olloh ato etgan buyuk iste`dodini, ilm-u tajribasini mamlakatimizning iqtisodiy qudratini mustahkamlashga, madaniy yuksalishiga munosib hissa sifatida qo`sha olgan, yurtimizda tinchlik va barqarorlikni ta`minlash hamda xalq farovonligini oshirishda fidoyilik namunalarini ko`rsatib yurtdoshlariga ibrat bo`la olgan umr sohibidir.

Filologiya fanlari doktori, professor, lison ilmining darg`asi, sermahsul ilmiy faoliyati bilan o`z nomini mangulikka muhrlagan olim Ne`matov Hamid G`ulomovich 2016-yilning 28-aprelida 75 yoshda bu yorug` olamni jisman tark etdi...

Ulug` ustoz xotirasi qalblarimizda mangu yashaydi.

## УСТОЗ ҲУКМИДА Ф.ҲЕГЕЛ УМУМЛАШТИРГАН ДИАЛЕКТИК ТАМОЙИЛЛАР

*Абузалова Мехринисо Кадировна,  
Бухоро давлат университети ўзбек  
тилишунослиги кафедраси профессори,  
ф.ф. доктори*

Ҳар йўл, ҳар соҳанинг бир пири бўлур,  
Эҳтиром дил аҳлин тадбири бўлур,  
Ҳар ишда устознинг бир сири бўлур,  
Кашфи асрор бўлмас, устоз бўлмаса.

### **Мирзо Кенжабек**

Неъматов Ҳамид Гуломович 1941 йил 22 ноябрда Бухоро шаҳридаги Модарихон гузарида ўз даврининг маърифатли кишиси Гуломқодир Неъматуллобой оиласида туғилди. Ўрта мактабни Бухорода тугатиб, университет, аспирантура ва докторантура таълимини 1961-1976-йилларда Ленинград давлат университети ва Шарқшунослик институтида машҳур туркийшунос олимлар академик Андрей Николаевич Кононов ва профессор Сергей Николаевич Ивановлардан олди. 1970 йилда “Қошғарий “Девон”и

<sup>1</sup> “Ўзбекистон овози” газетасининг 2008 йил 29 январь сони.



материаллари асосида феъл морфологияси” мавзусида номзодлик диссертациясини, 1978 йилда “XI-XII аср шарқий туркча морфологияси” мавзусида докторлик диссертациясини ҳимоя қилди.

## Ўзбек субстанциал тилшунослиги асосчилари

**С.Н.Иванов**



**Ҳ.Ғ.Неъматов**



Ҳ.Ғ.Неъматов республикамиз тилшунослиги ва она (ўзбек) тили таълими янгилашнинг яловбардорларидан бўлди. Неъматов Ҳамид Ғуломович 1982 йилдан 2004 йилгача Бухоро давлат университети ўзбек тилшунослиги кафедрасининг мудир лавозимида ишлади. 2004-2009 йилларда шу кафедра профессори сифатида фаолият кўрсатди. 2009 йилдан 2015 йилгача Бухоро вилояти педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти профессори бўлиб ишлади. Ўтган давр мобайнида дақиқ олим Ҳ.Ғ.Неъматов ва унинг издошлари ўзбек тилшунослигини бундан қарийб 30 йил олдин “Талаб, эҳтиёж ва имконият” саҳифасида қўйилган чўкқиларга кўтарди, умумий ўрта, ўрта махсус, олий таълим тизими муассасаларини субстанциал грамматик талқин асосларида яратилган, янги мақсадларни кўзлайдиган дастуру дарслик, қўлланмалар билан таъминлай олди.

Тилшунос 40дан ортиқ дарслик, дастур, ўқув қўлланма, методик тавсиялар каби алоҳида нашрларнинг, 250дан ортиқ илмий мақолаларнинг муаллифи ва 100дан ортиқ илмий-методик ишларнинг муҳаррири ҳамда тақризчисидир. Олим илмий фаолияти давомида 40дан ортиқ фан номзоди ва 5 та фан доктори тайёрлади. Улар Бухоро, Тошкент, Қарши, Андижон, Фарғона, Самарқанд шаҳри ва вилоятларидаги олий таълим ўчоқларида ишламоқдалар.

Субстанциал тадқиқ йўналишида унинг раҳнамолигида М.Абузалова, Д.Абдуллаева, Ш.Акрамов, Т.Асадов, Б.Бадриддинова, Е.Бегматов, Ш.Бобожонов, Р.Бобокалонов, О.Бозоров, И.Мадраҳимов, Б.Менглиев, М.Нарзиева, С.Назарова, Г.Неъматова, Л.Неъматова, А.Нурмонов, Д.Нурмонова, Ш.Орифжонова, Р.Расулов, Р.Сайфуллаева, Р.Сафарова, Ҳ.Саидова, Л.Раупова, Б.Қиличев, С.Ғиёсов, Ш.Шаҳобиддинова, Н.Ширинова, О.Шукуров, М.Қурбонова, З.Юнусова, Н.Йўлдошева, Н.Воҳидова, Г.Тоирова каби тадқиқотчиларнинг номзодлик ва докторлик ишлари яқунланди; Д. Йўлдошевнинг номзодлик ишида эса она тилидан таълим мақсадининг тадрижий тараққиёти ва она тили таълими олдида қўйилган мақсад алоҳида тадқиқ манбаи бўлди.





Ўзбек тилшунослигининг Европа тилшунослиги таҳлил тамойиллари асосида энг янги тарих – XX-XXI асрларда ривожланиш хусусиятларини ҳеч иштибоҳсиз икки – миллий истиқлолдан олдинги (XX асрнинг биринчи чорагидан 1991 йилгача) ва миллий истиқлолдан кейинги (1991 йилдан ҳозиргача) – даврларга бўлиш мумкин. Ҳар бир даврнинг етакчи илмий-методик тамойилини қуйидагича белгилаш мумкин:

1. Биринчи даврда - фанимизда тилимиз таҳлилу қурилиши талқинига ўз даври учун замонавий бўлган европавий тилшунослик таҳлил тамойилларини татбиқ этиш.

2. Иккинчи даврда – европавий тилшунослик таҳлил тамойиллари асосида тилимиз ва унинг қурилиши ўзлигини, ўзбекона (туркона) табиатини очиш ва шарҳлаш ҳамда тилни “эгаси”, соҳиби билан ажратмаган ҳолда ўрганиш.

Ўз-ўзидан англашилиб турадики, биринчи давр учун маълум даражада тақлидчилик, эклектизм, уқиб-уқмай эргашиш ҳолатлари тарихий ва ижтимоий-илмий зарурат бўлган ва бундай ёндашишнинг айрим камчиликлари иккинчи даврда бартараф этилди. Иккинчи давр субстанциал (формал-функционал, зотий) таҳлил йўналиши билан боғлиқ бўлиб, тил ҳодисалари фалсафий-методологик тамойиллар асосида тадқиқ этилди. Устоз ўз хотираларида тадқиқ методологияси ва диалектик тамойиллар ҳақида қуйидагиларни ёзган: “Диалектиканинг Ф.Ҳегел умумлаштирган қуйидаги 16 тамойили менинг ҳар бир илмий тадқиқ ишимда – нима ҳақида фикр юритмасам қатъи назар – тарозу тошидек, ўлчов меъёри бўлган эди. Ҳар фикримда, ҳар бир хулосаю ҳукимда уларнинг ҳозир у нозир бўлишига интилган эдим.

*\*Нарса (ўрганиш объекти, манба)нинг ҳаққонийлиги. Уни қандай бор бўлса, шундай қабул қилиши.*

*\*Нарсанинг мажмуи асмо, сифот ва муносабат эканлиги.*

*\*Нарса ҳамиша тараққиёт, ўзгаришда.*

*\*Нарсада ҳамиша ички зиддият (бир-бирига зид хусусиятлар) бўлиши.*

*\*Нарса бир-бирини инкор этувчи томон (хусусият)лар бирлиги.*

*\*Бу зиддиятларнинг ўзаро кураши ва бир- бирисиз бўла олмаслиги.*

*\*Ҳукмда анализ (таҳлил, ажратиш) ва синтез (умумлаштириш, бирлаштириш) зарурлиги.*

*\*Нарса алоқа-муносабатларининг чексизлиги ва ранг-баранглиги.*

*\*Нарсанинг ўз зиддиятига ўтиши.*

*\*Нарсада янги-янги томонларнинг очилиб бориши.*

*\*Онгнинг нарса моҳиятига боқичма-босқич чексиз чуқурлашиб бориши.*

*\*Онгнинг нарса муносабатларининг ранг-баранглиги сабабларига босқичли чексиз чуқурлашиб бориши.*

*\*Тараққиёт жараёнида ўтмиш ҳолатларнинг такрорланиши.*

*\*Тараққиёт натижасида аввалги ҳолатга қайтиши.*

*\*Мазмунни сақлаган ҳолда шаклни, шаклни сақлаган ҳолда мазмунни ўзгартириши.*

*\*Миқдорий ўзгаришларнинг сифат, сифат ўзгаришларнинг миқдорий ўзгаришларга ўтиши.*

Шунинг учун «Диалектика–теория познания. М.:Наука, 1965» ва «Лисонут-тайр»нинг «Маърифат водийси» васфу тавсифи-ю кўр-у комил ҳикоясига кўп мурожаат этардим”.

Фалсафий тамойиллар билимдони Ҳ.Ғ.Неъматов докторлик диссертациямда субстанциал морфология, яъни грамматик шакл ва сўз шаклини имкониятлар мажмуаси сифатида қараш ҳамда имкониятларнинг синтаксисда воқеланиши масаласи, субстанциал ёндашишнинг валентлик назарияси билан алоқалари, синтактик қурилмаларнинг морфологик шакл билан алоқалари масалаларини ечишда айнан юқорида берилган 16 тамойил асосида ёндашишимни алоҳида таъкидлаган эдилар. Мазкур тамойилларнинг ҳар бири нарсани ўрганишда, тадқиқ жараёнида йўлдан адашмасликда асосий таянадиган ўлчов бўлиши мени ҳайратга солган эди.

1990 йиллардан кейин фанимизда субстанциал таҳлил асослари ва талқин тамойилларига бағишлаб 50 га яқин номзодлик ва докторлик диссертациялари ёқланди, уларнинг хулосаю тавсиялари асосида она – ўзбек тилининг таълим тизимида талқини тубдан янгиланди. Субстанциал таҳлил билан бевосита алоқадор бўлган ва бу даврда яқунланиб ёқланган докторлик ишларини маълум даражада шартли равишда икки катта гуруҳга ажратиш мумкин: биринчи гуруҳга О.Бозоров, Ш.Искандарова, Р.Расулов, Р.Р.Сайфуллаева, А.Собиров, Ш.Шаҳобиддинова, Ҳ.Усмонова, М.Қурбонова каби тилшуносларнинг ишлари киритилиши мумкин. Бу тадқиқотларда ўзбек тили қурилиши айрим бўғинларининг (сатҳларининг, йирик ҳодиса ва қонуниятларининг) субстанциал таҳлил масалалари марказда турган бўлса, иккинчи гуруҳга мансуб бўлиши мумкин бўлган профессор Б.Менглиев тадқиқот ишида ўзбек тили бутун сатҳлари билан яхлитликда тадқиқ манбаи бўлди. Менинг томонимдан бажарилган илмий тадқиқот иши ҳам мана шу – иккинчи гуруҳга мансуб ишлар жумласидан ўрин эгаллади.

Диссертацияда синтактик қурилмада ҳар бир актантининг ифодаланиши, валентлик қобилиятини кузатарканман, генетика билан алоқадор бир неча гектар ерга соя солиб турган улкан ёнғоқ дарахтининг қобилият ҳамда имконияти радиуси 0,5 смгина бўлган ёнғоқ донасида мужассамлашгани каби, ҳар бир грамматик шаклда ҳам мавжуд зотий кенгайиш, валентлик қобилияти ва шу имкониятнинг юзага чиқишини субстанциал асосларда англаш мумкинлигини билдим.

Ҳа, устозимиз Ҳ.Ғ.Неъматов мактабининг асосий ғояси моҳиятга қараб интилиш эди. Биз бунини тадқиқотларимизда баҳоли қудрат қўллашга ҳаракат қилдик.

Филология фанлари доктори, профессор, лисон илмининг дарғаси, сермахсул илмий фаолияти билан ўз номини мангуликка муҳрлаган олим Неъматов Ҳамид Ғуломовичнинг порлоқ хотиралари қалбларимизда мангу яшайди.

*Дунёда кўп нарса унутилади.*

*Қашишоқлик, мартаба, қувонч, қайғулар.*

*Унутилиб борар муҳаббат дарди,*

*Унутилар йиллар, йўллар, туйғулар.*

*Қирқ йиллик адоват унутилар секин,*

*Унутилар ҳатто юракдаги дарз.*

*Яхшиларнинг меҳри унутилмас лекин,*

*Унутилмас улар олдидаги қарз.*

## **ЗИЁЛИ ОИЛАНИНГ ФАРЗАНДИ**

*Алимова Muharrama Hayatovna,  
Тошкент жаҳон тиллари олийгоҳи  
доценти, ф.ф.н.*

Ўзбекистонда хизмат кўрсатган халқ таълими ходими, «Эл-юрт ҳурмати» ордени соҳиби бўлган Ҳамид Ғуломович Неъматов билан бир маҳаллада яшаганмиз. Бу кишининг ота-оналари ҳам ўз даврининг маърифатли инсонлари эдилар. Ҳамид Неъматовнинг сийратида ҳам, суратида ҳам, маънавиятию маърифатида ҳам зиёли оиланинг фарзанди эканликлари сезилиб турарди. Одамохун, хушмуомала, қадимий урф-одатларимиз, маданиятимиз ва ўтган донишмандларимизни кадрлайдиган бу инсон билан илмий ишим юзасидан кўп бора маслаҳатлашганман, зарур бўлганда қимматли маълумотлар олганман.

Эсимда... «Сопоставительные каузативных форм в английском, узбекском и таджикском языках» номли номзодлик диссертациямга профессорлар М.Мирзаев ва Ҳ.Неъматовлар тақризчи этиб тайинландилар. Устозларнинг тақризлари илмий раҳбарим МоскваДУ профессори Ю.В.Рождественский томонидан «юқори савияда ёзилган тақриз»лар сифатида баҳоланган эди.

1982-2004 йиллар оралиғида мен БухДУнинг инглиз филологияси кафедрасида, устоз Ҳ.Ғ.Неъматов ўзбек тилшунослиги кафедрасида бақамти фаолият кўрсатдик. У кишидаги олимлик ва устозлик маданиятини, илмга ва илм аҳлига бўлган ҳурматини, таълим жараёнига масъулият билан ёндашишларини барча ҳамкасблар бирдек кадрлар эдик. Домланинг ҳар доим дарсларга ўз вақтида етиб келишлари, маърузаларни бир неча тил(ўзбек, тожик, рус ва хорижий тиллар, хусусан, немис тили)да олиб боришлари шогирдларга шахсий намуна эди.

Ички маданият, хушмуомалалик, шахсий ибрат домланинг оилавий ҳаётида, хусусан, фарзандлар ва набиралар тарбиясида ҳам муҳим тамойил эди. Устоз оиласидаги, фарзанду невараларидаги юқори даражадаги маданият, хушмуомалалик, одамохунлик, бағрикенглик, камтаринлик, ижтимоий фаолият ва фарзанд таълим-тарбиясига жиддий эътибор ҳам устознинг тарбиялари билан боғлиқ.

Узоқ йиллар кафедраларимиз ёнма-ён хоналарда жойлашганлиги туфайли раҳматли домла билан таълим-тарбия, илм, ижтимоий ва оилавий мавзуларда тез-тез суҳбатлашардик. Устозда сермазмун ва пурмаъно сўзлаш хусусияти бор эди. Ҳар қандай ўринда керагича гапирар, бирор кишининг дилини оғритмас, беҳуда ва миш-миш гапларни эътиборсиз қолдирар эдилар. Баланд гапириб, баланд кулганларини эшитмаганман. У киши ўта самимий, кибрдан узоқ, оилаларига, фарзандларига, невараларига, қавм-қариндошларига, ҳамкасбу шогирдларига бирдек меҳрибон, очиқ инсон эдилар. «Қуръон»ни жуда чиройли тиловат қилиб, оятларнинг мазмунини шарҳлаб бера олар эдиларки, бу устознинг тасаввуф борасидаги илмлари ҳам юксак савияда эканлигидан далолат эди...

Номи ўз илмий тилшунослик мактабига эга олим сифатида мангуликка дахлдор олим, жонқуяр устоз, ибратли ва садоқатли устозга боқий дунё ҳаловати ёр бўлсин.

## **HAYRAT DUNYOSINI OCHGAN SUHBAT**

*Ahmedov Atoulllo Rahmatovich,  
Buxoro davlat universiteti o'zbek  
tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f. n.*

Ustoz Hamid G'ulomovich Ne'matov biz – talabalarga (o'shanda 5-kursga o'tgan chog'imiz edi) qo'shimcha dars (bizning ixtiyorimizga ko'ra ma'lum bir fanni) o'tishlarini aytib qoldilar. Bizlarga qaysi yo'nalishda ko'proq ma'lumot kerakligini so'radilar. Biz esa o'zimizni qiynab yurgan ayrim bir savollarni berdik. Shulardan biri:

–Nima uchun Alisher Navoiyni bunchalik ulug'laymiz-u, asarlarini oddiy tilda tushuna olmaymiz? Buning sababi nimada?

Ustoz:

–Sizlar mumtoz adabiyotni o`qimaganmisizlar?– deb so`radilar.

Talabalar:

–O`qiganmiz. O`qigan bo`lsak-da, aynan mir Alisher Navoiy ijodini yetarlicha tushunmaganmiz, – deyishdi.

Shunda, ustoz:

–Islom dinini anglamay turib, hazrat Navoiyni, umuman, mumtoz adabiyotni tushunish mumkin emas,–dedilar.

Talabalar hayrat bilan so`rashdi:

–Islom dini bilan mumtoz adabiyot bir-biriga shu darajada yaqinmi?

Professor ustozimiz bizning savolimizga O`zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning “Turkiston-Press” axborot agentligi muxbirlarining savollariga bergan javoblari asosida izoh berdilar: “Biz o`z millatimizni mana shu muqaddas dindan ayri holda aslo tasavvur qila olmaymiz. Diniy qadriyatlar, islomiy tushunchalar hayotimizga shu qadar singib ketganki, ularsiz biz o`zligimizni yo`qotamiz: har bir so`zimizni, ishimizni “bismilloh” aytib boshlaymiz. Yaxshi-yomon kunlarimizda Xudoga shukrona keltiramiz, tavba qilamiz “shukr” va “tavba” degan so`zlarni eng ko`p ishlatar ekanlar...”

Anglab yetgan bo`lsangizlar kerak, VIII asrdan buyon xalqimizning madaniyati ong va shuurini islom ta`limotisiz tasavvur qilib bo`lmaydi. Shuning uchun islomiy tushunchalar va g`oyalar ijodkorlar – shoirlar tomonidan mumtoz adabiyotimiz misolida targ`ib qilingan. Shuning uchun bunday ma`rifiy asarlar omma uchun emas, balki xos kishilar uchun yaratilgandir. Chunonchi, mir Alisher asarlarini ham maxsus tayyorgarlikka ega bo`lmagan kishilar tushunmaydi...

Biz – talabalarning ko`zlarimizda yana hayrat porladi. Hayratimiz savollarga ko`chdi:

–Ustoz, mir Alisher Navoiyning asarlari Siz aytgandek bo`lsa, nega u kishining ayrim ijod mahsullarida ma`rifatsizlik ko`rinadi? Masalan, “Xazoyin ul-maoniy”da shunday baytni uchratamiz:

*Mayda afyun ezg`il, ey mug`kim bu eski dayr aro,  
Telbarormen g`ussadan bir nafas hushyormen.*

Yoki “Soda shayx” g`azali va boshqalar.

Ustoz bosiqlik bilan javob berdilar:

–To`g`ri, hazrat ijodlarida bunday baytlar, g`azallar uchrab turadi. Ammo bundagi istilohlar (atamalar) o`z ma`nosida bo`lmay, ko`chma ma`nodadir. Buni sizlar omonim yoki tajnis so`zlar deb ham tushunishingiz mumkin. Mumtoz adiblarimizning, jumladan, Mir Alisherning ham bunday istilohlardan foydalanishlariga asosiy sabab shuki, o`zlarining ma`rifatparvar g`oyalarini davrning johillaridan, mutaassib shayx-u zohidlaridan himoyalaniish uchun foydalanganlar...

–Demak, tushunishimcha, sizlarga mumtoz ma`rifiy atamalar sharhini o`tishim lozim ko`rinadi,– dedilar ustoz. – Bu harakatimiz mumtoz adabiyotni sof ma`rifiy shaklda talqin etuvchilarni shakllantirishidan umidvorman. Chunki Islom Karimov aytganlaridek: “Ma`naviyat, ma`rifatni targ`ib qilish har bir ziyolining vijdon ishidir...”<sup>1</sup> Xabarlaringiz bor, Prezidentimiz I.Karimov 1991-yilni “Alisher Navoiy yili” deb e`lon qilgan edilar. Shunga munosib javob qaytarmog`imiz lozim.

Biz talabalar uchun hayrat dunyosini ochgan shu suhbatdan so`ng ustozimiz Hamid G`ulomovich bizlarga mumtoz ma`rifiy atamalar kursini o`tdilar. Bu kursni hazrat Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asari asosida o`rganganmiz. “Lison ut-tayr”ni sharhlash davomida mumtoz adabiyotning asl mohiyatini tushunganmiz.

O`sha yilda, kursdoshimiz Gulira`no ma`rifiy adabiyotda “Haq, solik va mushkulot ramziyati” mavzusida malakaviy bitiruv ishi yozdi. Bunda, asosan, mumtoz badiiy atamalardan bo`lgan **Haq** timsolida yor, gul, may, quyosh... **Mushkulot** (nafs yoki o`zlik) – ag`yor, tikan,

---

<sup>1</sup> Muloqot. 5-son 1998-yil. 4-bet.

shayx... **Solik** – oshiq, rind, zarra...larni sharhlab berdi. Keyinchalik esa bu kursimiz “Soʻz bagʻridagi maʼrifat” nomi ostida ajoyib bir risola sifatida nashr qilindi. Shu kurs tufayli men mumtoz adabiyotdagi tasavvufiy (maʼrifiy) atamalarni maʼlum darajada anglash va mumtoz ijodkorlarimizning fikrlarini yanada aniqroq tushunishga erishdim. Oʻylaymanki, mening safimda boʻlgan kursdoshlarim ham mendan ortiq tushunsa tushundiki, kam bilgani yoʻq.

Hazrat Alisher Navoiy aytganlaridek:

*Haq yoʻlida kim sanga bir harf oʻqitmish yuz ranch ila,*

*Aylamak boʻlmas ado oning haqin yuz ganj ila.*

Shogirdlarini ilim-maʼrifatga oshno qilish yoʻlida shunday jonkuyarlik qilgan fidoiy ustozim oldida taʼzimdaman. Olloh u kishining joylarini jannatdan qilsin!

## **BUYUK TILSHUNOS OLIM, AJOYIB INSON**

*Axmedov Bahodir Yaxshimurodov*

*Buxoro viloyat xalq taʼlimi xodimlarini qayta  
tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy  
markazi dotsenti*

“Hayot degani shu – dara-yu-dovonlar osha, sahro-yu muzliklar osha vohadan vohaga koʻchib yurgan bir karvon. Sahroning boshi – uchi bor, hayotniki – yoʻq. Yomonlikdan chiqqan aks sado har qadam zaiflashaveradi, bora-bora yoʻq boʻladi. Yaxshilikdan yaralgan qoʻshiq va afsonalar vohalararo yurgan karvonlar singari avlodlar qalb va xotirasidan joy olib, abadiyatga yoʻl soladi”.

Atoqli davlat rahbari, yozuvchi Sharof Rashidovning “Kashmir qoʻshigʻi”dagi ana shu ajoyib soʻzlar buyuk tilshunos olim, haqiqiy inson, mehribon ustoz Hamid Gʻulomovich Neʼmatov hayot yoʻlini yaqqol namoyon etadi.

Hamid Gʻulomovich butun umrlarini oʻzbek tilshunosligini rivojlantirish, isteʼdodli shogirdlar tayyorlashga bagʻishladilar. U kishi insonlar bilan muloqotda oddiyligi, samimiyligi, nutqining goʻzalligi, madaniyligi, yuksak bilimdonligi, tafakkurining keng koʻlamliligi bilan hamkasblari, talabalari va shogirdlariga oʻrnak boʻlar edi.

Hamid Gʻulomovichning oʻzbek tilshunosligining jamiyatimizdagi oʻrni va mavqeyini koʻtarishdagi xizmatlari juda katta. 1985- yil xalq taʼlimi vazirligida tillarni oʻqitish masalalariga bagʻishlangan yigʻilishda ona tili (oʻzbek)ni oʻqitishga yetarli eʼtibor berilmayotganligi, uning nazariyasi asosan rus tili grammatikasi asosida shakllanib borayotganligi, metodikasi faqat nazariy bilimlarni egallashga qaratilganligi toʻgʻrisida kuyinib gapirdilar. Bu fikrlar yigʻilishni boshqaruvchi vazirga yoqmagani boʻlsa-da, oʻz fikrlariga qatʼiy turib oʻzbek tiliga davlat tili maqomi berish toʻgʻrisidagi taklifni birinchi boʻlib katta minbarga olib chiqqanlariga shaxsan guvoh boʻlganman.

Mustaqillik yillarida ona tili oʻqitish metodikasining rivojlanishiga alohida eʼtibor qaratdilar. Pedagogika fanlari doktori, professor Askar Qodirovich Gʻulomov bilan hamkorlikda oʻzbek tiliga oʻqitishning “induktiv” yoʻnalishi dasturini ishlab chiqib, shu asosda maktab darsliklarini yaratdilar. Kuchli nazariya va amaliyotning natijasi boʻlgan ushbu darsliklar kelajak avlodning oʻzbek adabiy tilini chuqur oʻrganishlari, bolalarni mustaqil fikrlash, mantiqiy xulosalar qilishga oʻrgatish uchun mustahkam asos boʻldi.

Ustoz Hamid Gʻulomovich Gyotening taʼrifi bilan aytganda juda samarali inson edilar. Gyotening fikricha, samarali inson va daho inson deyarli sinonimlardir. Uning nazarida daholik har qanday samaradorlikning yuqori darajasidir. Ustozning samarali mehnatlari natijasida oʻzbek, turk, rus tilshunosligining rivojiga hissa qoʻshgan koʻlamli ilmiy ishlar, yuzlab shogirdlarning ilmiy darajaga ega boʻlishi bilan tasdiqlanadi. Bu esa, bu aziz insonni daho deyishimizga asos boʻla oladi.

Ustoz - yoqrin shaxs edilar. U kishining nihoyatda yuksak ichki va tashqi madaniyati, bilimdonligi, kamtarligi, insonlarga xayrixohligi, ishdagi professionalligi xalqimizning, ayniqsa, shogirdlarining mehri muhabbati va hurmatini qozongan.

Ustoz boshlagan ishlarni u kishining aziz farzandlari :Gulnozaxon, Lolaxon va iqtidorli shogirdlari Baxtiyor Mengliyev, Mehriniso Abuzalova, Dilorom Yo‘ldosheva, Bayramali Qilichev, Shohida Shahobiddinova, Shahlo Hamroyeva (hammalarini sanash imkoniyati yo‘q) lar davom ettirib, fanimiz rivojiga o‘zlarining katta hissalarini qo‘shmoqdalar.

“Insondan yaxshi nom, xayrli ishlar, mazmunli kitoblar, oqil farzandlar va iqtidorli shogirdlar qoladi”. Hamid G‘ulomovichning shiorlari shu edi. Hayotlari davomida shu shiorga amal qildilar va o‘zlariga tiriklik davrlaridayoq buyuk haykal yaratib ketdilar.

Uztozning xotiralari biz uchun bir umr abadiy bo‘lib qoladi.

## **MENI HAYRATLANTIRGAN SUHBAT**

*Ashurbayeva Ruqiya Qahhorovna,  
Buxoro tibbiyot oliygohi o‘qituvchisi*

Ustoz, o‘zbek tilshunosligining zabardast vakili, Benazir iste‘dod egasi, professor Hamid Ne‘matovga shogird bo‘lishni ko‘pchilik kursdoshlarim havas qilardi. Men ham magistrlik boqichida ilmiy rahbar sifatida ustozni tanladim va magistrlik ishim uchun mavzu berishlarini so‘radim. Ustoz mavzu berishdan oldin bugungi kunda o‘zbek tilshunosligi va uning tadrisi rivojiga salmoqli hissalarini qo‘shib kelayotgan –professorlar Baxtiyor Mengliyev, Shohida Shahobiddinova, Mehriniso Abuzalova, Dilorom Yo‘ldosheva va dotsentlar Saida Nazarova, Bayramali Qilichev, Atoulllo Axmedov, To‘lqin Asadov – shogirdlarini faxr bilan o‘rnak olishga arziqli izdoshlari sifatida tilga oldilar.

Mana shu suhbat debochasi o‘sha paytdayoq yuragimni jizillatib o‘tdi: men ham kelajakda ustoz sanagan izdoshlar safidan o‘rin egallashga astoydil kirishaman, degan fikr, orzu tafakkurimda yiltilladi...

Ustoz Hamid Ne‘matovning tezarus-lug‘atlar tuzish haqidagi suhbatlarni eslayman. Bu turdagi lug‘atlar nechog‘lik muhimligi va o‘zbek tilida shunday lug‘atlarni yaratish dolzarbligi haqida kuyunib gapirishlaridanoq mavzuga “mehrim uyg‘ongan” edi. Magistrlik ishimning mavzusini tanlashda yordam berar ekanlar, bu ishni Shahlo Hamroyeva bilan boshlaganliklarini aytib, meni Atoulllo Ahmedovga yunaltirdilar. Men o‘zbek lug‘atchiligining buguni va ertasi bilan bog‘liq mavzuni ustozning sevimli shogirdlaridan biri Atoulllo Ahmedov rahbarliklarida tadqiq qilishga kirishdim...

Taqdir taqazosi bilan ustozga yaqin ko‘chalarning biriga kelin bo‘lib tushdim va bir kuni qaynsinglim (turmush o‘rtog‘imning singillari) bilan ustozning uylariga bordik. (O‘sha paytda men magistratura talabasi ekanligimdan faxrlanar va oliy ma‘lumoti bo‘lmagan qaynsinglim Fotimadan o‘zimni ancha yuqori darajada deb hisoblar edim.) Ustoz kompyuterlarida arab yozuvidagi matnni o‘qib o‘tirgan ekanlar. Salom-alikdan so‘ng qaynsinglim Fotima qiziqsinib ustozning kompyuterlari monitoriga qaradi va kulimsirab ustozdan: “Qur‘oni Karimni o‘qiyapsizmi, domla?” deb so‘radilar.

Ustoz jiddiy qiyofada Fotimaga biroz qarab turdilar-da, so‘ng: “Qani, matnni o‘qingchi”, deb qoldilar. Qaynsinglim Fotima kompyuterdagi yozuvlarni chiroyli qiroat bilan (qandaydir ichki zavqqa to‘lib) o‘qidi. Ustoz hayratlandilar va bunday ilmni kimdan o‘rganganligini so‘radilar, diniy bilimlardan savol-javob qila boshladilar...

Meni goh Fotimaning arab yozuvidagi savodxonligi-yu go‘zal qiroati hayratlantirsa, goh ustozning Fotima o‘qigan oyatga berayotgan sharhlari, izoh-u keltirayotgan iqtiboslari aqlimni shoshirar edi. Men o‘sha suhbat asnosida Hamid Ne‘matov shunchaki oliy ta‘lim domlasi emas, balki ulkan tafakkur, iste‘dod sohibi bo‘lgan, ham diniy, ham dunyoviy bilimlari aql bovar qilmas darajada yuksaklikda turuvchi daho inson ekanliklarini yurak-yurakdan his etganman. Inson tafakkuri sarhadlarining bu qadar kengligidan hayratlanganman.

Qaynsinglim Fotimaga ham alohida mehrim tushgan...

Yoshim ulg‘ayib tushunib yetdimki, olloh suygan qalblardagina o‘ziga mehr-muhabbat uyg‘otar ekan. O‘sha damda ustozning chehralarida ollohga limmo-lim qalbning aksi mavjlanganini bir umr unuta olmasam kerak.



O'zbek tilshunosligiga ulkan hissa qo'shgan Buxoroyi sharif farzandi professor Hamid Ne'matov butun iymon-e'tiqodlari, ilm-u urfonlari ila olloh rahmatiga musharraf bo'lganliklariga aminman.

## ХАМ ЛИСОН, ХАМ ХАЁТ ИЛМИНИ ЎРГАТГАН УСТОЗ

*Бақохўжаева Муҳиба,  
нафақадаги ўқитувчи*

Улуғ устоз Ҳамид Неъматов билан узоқ йиллар бир кафедрада ишладик. Ўтган йиллар давомида устоздан ҳам лисон илмини, ҳам ҳаёт илмини ўргандик, десам муболаға бўлмас.

Эсимда, 1995 йиллар эди. Турмуш ўртоғим Шукуржон Бақоев ноҳос юрак инфаркти билан бу ёруғ оламни тарк этдилар. Фарзандларим ёш, ҳали мактаб ўқувчилари эдилар. Бу жудолик мени ҳам, фарзандларимни ҳам қарахт аҳволга солиб қўйди. Ўша оғир дамларни кўз ёшларимга ғарқ бўлиб ўтказаверган эканман. Мотам либосларига бурканиб олиб уйга келаман, йиғлайман, ишхонага бораман кўз ёш тўкаман. Мен учун ҳам гўёки ҳаёт ниҳоясига етган эди. Ҳеч нарсани кўришни, ҳеч кимни ўйлашни истамасдим...

Фарзандларим нима еди, нима ичди?! Мактабларига қандай бориб келишди, билмайман. Кафедрадошларнинг далдаси, таниш-билишларнинг таскини мени баттар эзарди.

Ўша пайтда ўзбек тилшунослиги кафедрасини профессор Ҳамид Ғуломович бошқарар эдилар. Устоз менга бир неча марта ўзимни қўлга олишим кераклигини уқтирдилар. Табиийки, ўша аҳволда менга гап қор қилмасди. Бир куни йиғлаб ўтирганимни кўрдилар-да, кабинетларига чақирдилар. Истамайгина мудирнинг хонасига кирдим. Шунда юзимга тушган шапалоқдан гангиб қолдим. Устоз жиддий қиёфада насиҳат қила бошладилар:

– Нима, ногиронмисан? Қўл-оёғинг ишламайдим? Нега ўлганнинг руҳини тинч қўймайсан? Болаларингни ўйлайсанми, йўқми?!...

Устоз икки нафар ўғлимнинг энди отаси ҳам, онаси ҳам ўзим эканлигимни, болаларни ўқитмаслик учун ҳам ота, ҳам она ўрнини боса олишим шартлигини, бу учун кўз ёшларимни йиғиштириб, оилам, болаларим келажагини ўйлашим, айниқса, шу дамларда зарурлигини жуда қаттиқ уқтирдилар... Бу устознинг менга, менинг оиламга қилган энг катта яхшиликлари бўлди.

Шукурки, бугун фарзандларим олий маълумотли ўқитувчилар. Эл хизматидаги мутахассислар. Фарзандларим, келинларим, невараларим ардоғидаман.

Мени оғир аҳволдан қутқариб, тўғри йўлга солган устознинг ўша бир тарсакилари таъсири фарзандларим келажагини белгилашда муҳим туртки бўла олди.

## USTOZIMIZ YO'LIDAN

*Bozorov Odiljon,  
Qo'qon DPI professori, f.f. doktori*

Filologiya fanlari doktori, professor Hamid G'ulomovich Ne'matov o'z davrining kuchli tafakkur sohiblaridan biri bo'lganlar. Ularning tafakkuri falsafa va dialektik mantiqqa asoslangan edi.

Men 1992-yilda doktorlik dissertatsiyasi mavzusi munosabati bilan ustozimizning xonadonlariga bordim. U kishi menga mavzuning falsafiy va dialektik mantiq kategoriyalar bilan bog'liq ekanligini aytishdi. Xususan, menga dialektik mantiqning oraliq uchinchi yoki uchinchi mavjud qonuniga katta e'tibor berishimni so'rashdi. Tabiiyki, biz institutda formal (oddiy) mantiqni o'rganganligimiz uchun dialektik logika ta'limoti bilan tanish emas edim. Ustoz ayni paytda lingvistikadagi oppozitsiya nazariyasi bilan tanishishim zarur ekanligini uqtirishdi. Men shundan so'ng Buxoro shahri markaziy kutubxonasiga borib, uch oy davomida

«Вопросы философии», «Вопросы языкознания» va dialektik logika asarlari bilan tanishdim. Shundan so'nggina men Hamid G'ulomovich tavsiya etgan "O'zbek tilida graduonimiya" mavzusi ustida ish boshladim. Biz pirovard natijada o'zbek tili misolida barcha tillarga xos bo'lgan darajalanish (graduonimiya) yoki lisoniy birliklarning miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga aylanishi natijasida hosil bo'lish qonunini aniqladik. Bu qonun tilshunoslarning til falsafasini tushunishlariga yo'l ochadi. Graduonimiya qonuni til birliklari, munosabatlari, tizimlari shakllanishi va taraqqiy etishining asosidir. Hozirgi davr lingvistikasining yetakchi yo'nalishi hisoblanuvchi antroposentrizm tadqiqotlari ham tilning darajali tizimini tashqi, ekstralingvistik omillar asosida o'rganuvchi oqimdir.

Hamid G'ulomovich o'z faoliyati davomida til, mantiq, psixologiya kategoriyalari bilan bog'liq bo'lgan til (lison) va nutq dixotomiyasi yoki oppozitsiyasiga katta e'tibor berdi. Asosiy til birligi bo'lgan so'zning lisoniy (til) va nutqiy maqomi haqida ko'plab asarlar yozdi. Afsuski, bu muammo nafaqat o'zbek, balki jahon tilshunosligida ham hozirga qadar qoniqarli darajada hal etilmay qolayotir. Xususan, til (lison)-nutq oppozitsiyasi fonologiya / fonetika sohasida mukammal aniqlangan (ajratilgan) bo'lsa ham leksikologiya, morfologiya, sintaksis kabi sohalarda jiddiy belgilanmagan. Ularda til va nutq birliklarini chegaralovchi ( fonologiya / fonetikadagi fonema / allofon kabi) maxsus lingvistik terminlar to'liq va tizimli aniqlanmagan.

Hamid G'ulomovich o'z faoliyati davrida til tadqiqotlarida dialektik mantiq metodologiyasidan foydalanish lozim ekanligiga e'tibor berdi. Xususan, uning «Советская тюркология» jurnalida nashr etilgan "Turkiy tillar morfologiyasida oraliq uchinchi masalaning qo'yilishiga doir" maqolasi yangi struktur tadqiqotlar nazariyasining shakllanishiga metodologiya bo'lib xizmat qildi.

Dialektik mantiqning oraliq uchinchi yoki uchinchisi mavjud qonuni formal (oddiy) mantiqning uchinchisi istisno qonuni metodologiyasining mohiyati shundaki, u uch va undan ortiq miqdordagi tizim (paradigma) tashkil etuvchilari o'rganilganda avval bu paradigmadagi bir-biridan uzoq turgan, farqlanishi kuchli bo'lgan ikki birlikni olish va ularni qiyoslash orqali o'rganish tavsiya etiladi. Masalan, kambag'al – o'rtahol – boy so'zlari paradigmasini olib ko'raylik. Bu paradigmaga uchinchisi istisno qonuni metodologiyasi asosida yondashilganda oraliq uchinchi (o'rtahol) istisno etilib, e'tibor bir-biridan uzoqroq turgan, kuchli farqlilik ega bo'lgan zidlikka kambag'al ... boy a'zolar taqqosiga qaratiladi va shu asosda bu ikki a'zo (so'z)ning antonimiya munosabati aniqlanadi. Dialektik mantiqning uchinchisi mavjud (oraliq uchinchi) qonuni metodologiyasi uchinchisi istisno qonuni metodologiyasidan keyin qo'llanadi. U endi o'rganilgan chet a'zolar oralig'idagi a'zoga e'tibor berilishi lozimligi va shu asosda paradigm a'zolari to'liq o'rganilishi lozimligini ko'rsatadi. Xususan, kambag'al – o'rtahol – boy paradigmadagi kambag'al – o'rtahol, o'rtahol – boy munosabatlarni tekshirishga o'tiladi, shu yo'l bilan paradigm a'zolarining to'liq o'rganilishi ta'minlanadi. Ma'lum bo'ladiki, an'anaviy jahon tilshunosligi uchinchisi istisno qonuni metodologiyasi bilan qurollangan holda yuqorida keltirilgan paradigmasidagi antonimiyani chala aniqlagan. Aniqrog'i boy va kambag'alning antonim ekanligini e'tirof etgan holda kambag'al – o'rtahol, o'rtahol – boy juftliklari orasidagi semantik munosabatga e'tibor bermagan. Aslida, kambag'al – boy o'rtasida kuchli farqlilik (ziddiyat) bo'lgani holda juftliklar orasida kuchsizroq farqliliklar mavjud. Shuning uchun leksik antonimiyaning aniqlanish mezonini zidlik emas, balki farqlilik (zidlik farqlilikning kuchli holati) deb olish va shu asosda yuqorida keltirilgan leksik paradigmadagi kuchli ( kambag'al-boy) va kuchsiz (kambag'al-o'rtahol, o'rtahol-boy) antonimlarni ajratish haqiqatga to'g'ri keladi. Ko'rinib turibdiki, formal mantiqning uchinchisi istisno va dialektik mantiqning oraliq uchinchi (uchinchisi mavjud) metodologiyalari o'zaro uzviy bog'liq, biridan keyin ikkinchisi ishga solinadigan metodologiyalardir. Uchinchisi istisno qonuni metodologiyasi asosida privativ, ekvopotent va oraliq uchinchi qonuni metodologiyasi asosida esa gradual yoki politomik (ko'p a'zoli) oppozitsiyalar hosil qilinadi. Oraliq uchinchi qonuni metodologiyasi sistemani to'liq o'rganishga xizmat qiluvchi metodologiyadir.

Hamid G'ulomovich o'z ilmiy faoliyatida tildagi nisbiylik, relyativizm, munosabat masalalariga katta ahamiyat bergan. Til / nutq tizimining mohiyati uni tashkil etuvchilarning

bog'lanish yo'llari, munosabatlariga bog'liq ekanligi, shuning uchun tilshunoslar falsafiy munosabat kategoriyasi mazmuniy belgilarini yaxshi bilishlari, bu umumiy (falsafiy) belgilarning tilda qanday xususiylanganliklarini anglashlari lozimligini aytgan.

Hamid G'ulomovich tilshunoslarga o'z tadqiqotlarida nafaqat nutqni abstraksiyalash (nutqdan lisonga, induksiyadan deduksiyaga boorish), balki lingvistikaning eng so'nggi yutuqlari asosida tildan (invariantdan, qolipdan, konstruksiyadan) nutqqa, deduksiyadan induksiyaga borish yo'nalishini ilgari surdi va bunday tilshunoslikni substansional tilshunoslik deb nomladi.

Hamid G'ulomovich hayotining so'nggi yillarida til graduonimiyasini tilshunoslikning fundamental muammosi deb bildi. Uning fikricha, til birliklari, munosabatlari, sathlarining qay ehtiyojlar, zaruriyatlar, miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga aylanishlari asosida hosil bo'lganligini tadqiq etish ham ichki (til tizimini o'rganuvchi), ham tashqi (til shakllanishini shartlovchi, tashqi, ekstrolingvistik, antroposentristik omillarni o'rganuvchi) lingvistika uchun o'ta muhimligini ta'kidladi.

Hamid G'ulomovich XX asrning 70-yillaridan boshlab formal mantiq metodologiyasi yetakchi bo'lgan an'anaviy tilshunoslikni dialektik mantiq metodologiyasi yetakchi bo'lgan zamonaviy tilshunoslikka aylantirish uchun ko'p metodologik asarlar yozdi.

Hamid G'ulomovich nafaqat nazariy o'zbek tilshunosligini, balki amaliy tilshunoslikni rivojlantirish uchun ham ko'p harakatlar qildi. U kishining tashabbusi bilan ona tili ta'limi muammolarini hal etuvchi ona tili o'qituvchilarining Doimiy Anjumanlari, mustaqillik davri ona tili ta'limining konseptual asoslarini ishlab chiqish, yangi davlat ta'lim standartlarini yaratish, noan'anaviy dasturlar, o'quv qo'llanmalari, darsliklar barpo etish, yangi ta'lim metodlarini qo'llash, o'quv lug'atlari laboratoriyalarini tashkil etish kabi tadbirlarni amalga oshirishda Hamid G'ulomovich yetakchilik qildi.

Xalqimizda yaxshidan bog' qoladi degan naql bor. Hamid G'ulomovich Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchilarining bir guruhini o'z universiteti aspiranturasi va doktoranturasiga taklif etib, ularning fan nomzodlari va doktorlari ilmiy darajalarini olishlariga imkoniyat yaratdilar va o'zlari ilmiy rahbarlik qildilar, Qo'qon DPI o'zbek tilshunosligi kafedrasini professor o'qituvchilari uchun ko'p yillik lingvistik muammo tavsiya etdilar. Shundan so'ng Qo'qon DPI o'zbek tilshunosligi huzurida aspirantura ochilishiga yordam berdilar. Hozirgi kunda ham bu doktorantura o'z faoliyatini samarali davom ettirmoqda.

Umuman, filologiya fanlari doktori, professor Hamid G'ulomovich Ne'matov o'z ilmiy faoliyati davrida o'zbek nazariy va amaliy tilshunosligi taraqqiyotini yangi sifat bosqichiga ko'tarishga harakat qilgan va bunga erishgan iste'dodli olimdir. Ustozimiz tomonidan bizga qoldirilgan barcha asarlar nafaqat lingvistik, balki metodologik ahamiyatga ega bo'lib, bizning tadqiqotlarimiz uchun dasturamal, rahnamo bo'lib xizmat qilmoqda.

Men Hamid G'ulomovich tavalludining 90 yilligiga U kishining ruhlarini shod qiladigan ilmiy sovg'a tayyorladim. Bu mening "Tilshunoslikning falsafiy metodologiyasi" asarimdir (Toshkent, 2012, "Fan" nashriyoti). Asarimning muqaddimasi bag'ishlov bo'lib, unda quyidagi dil so'zlarimni bitdim: "Ushbu asarimni o'zbek tilshunosligida substansional va system-struktur yo'nalishlari tadqiqotlariga ustuvorlik maqomini bergan, tilshunoslarning falsafiy metodologiya bilan qurollanishlarini zaruriyat deb bilgan, mustaqillik davri ona tili ta'limining yangi konseptual yo'nalishlari va Davlat ta'lim standartlarining barpo etilishiga ulkan hissa qo'shgan, qomusiy bilimlar sohibi, faylasuf tilshunos, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan murabbiy, "El-yurt hurmati" ordeni sohibi, filologiya fanlari doktori, professor ustozimiz Ne'matov Hamidjon G'ulomovichga va ustozimizning umr yo'ldoshlari, o'z xonadonlarida "aspirantlar onasi" bo'lib qolgan, ilmni hurmat qiluvchi bag'rikeng, olijanob inson Tamara Yahyayevna Hafizofaga bag'ishlayman".

Ustozimizning u dunyolari obod, yotgan joylari jannat bog'laridan ato etilgan bo'lsin!

## УСТОЗ ЁДИ – МАНГУ

**Воҳидова Нофиза,**

*филология фанлари доктори (Dr. phil.)*

*Таълим муассасаларида немис тили эксперти, доцент*

*“NoVo Agency” компанияси директори*

*Мангейм, Германия*

Она Бухоро! Сенинг номинг билан Исломиё дунёнинг «Ҳадис олами» мангуликка чамбарчас боғлангандир! Бир шоира кизинг ёзганидек:

*Исломиё оламни айласангиз сайр,*

*Сизни атамаслар: “Ўзбек”, “Тоҷик”, деб.*

*Иззат, эъзоз билан “Бухроийсиз!”, - дер,*

*Шунда фахрларга кетасиз тўлиб...*

Ҳа, шубҳа йўқки, гап ҳазрат Исмоил ал-Бухорий ҳақида бормоқда! Шундай даҳоларинг сабаб, мен каби фарзандларинг фаҳри – титроқдан ҳамиша бедор! Сенинг муборак тупроғинг, улуғларингга бешик, буюк зурриётларингга беланчак бўлган! Шулар ҳақида ўйлар эканман, улар қаторида устозим – азиз ва мўътабар инсон, феноменал талант соҳиби ва етук тилшунос олим Ҳамид Ғуломовичнинг борликлари ўзгача сурурлидир.

Устозни болалигимдан танисам-да, улар билан 2000-йилларнинг бошида, илмий иш бошлаш арафасида яқиндан мулоқот қилганман. Илк суҳбатдаёқ, устоздаги чексиз билим, ниҳоятда кенг дунёқараш ва кучли мотиваторлик каби хислатларини сезганман. Айтишадик, 3 тоифа устозлар бор: биринчи тоифа – яхши устозлар, яъни шогирди ўрнида ҳам ишлайди, иккинчи тоифа – ёмон устозлар, яъни шогирд улардан қандай яшамаслик кераклигини ўрганади ва учинчи тоифа – буюк устозлар, яъни шогирдларини мудом илҳомлантириб, уларни улкан ишлар сари етаклайдиган устозлар бўлади. Шубҳасиз, Ҳ.Ғ.Неъматов мана шундай улуғ устозлар сирасига кирадилар.

2003 йилда устоз раҳбарликларида “Олмон ва ўзбек тилларида градуономик қатотлар ва даражаланувчи семаларнинг қиёсий таҳлили” мавзусида илмий иш бошладим. Иш жараёнида Ҳамид Ғуломовичнинг устозлари академик А.Н.Кононов ва С.Н.Ивановга юксак эҳтиромлари, улар илмий мактабини муносиб давом эттираётган бўлсалар-да, яна тинмай изланишлар, мазкур йўналишнинг нақадар долзарблигини шогирдларга сингдириш йўлидаги жонқуярликлари менда таассурот қолдирган. 2007 йилда Германиянинг Тюбинген шаҳрида дунё тилшунослари илмий анжуманида қилган маърузамдан сўнг ишонч ҳосил қилганман. Устоз тавсия қилган мавзу ва унинг немис тили луғатларини қайта тузишни тақозо этгани илмий анжуманда иштирок этаётган Немис тили институти Лексика бўлими раҳбари проф. Стефан Энгельбергни бефарқ қолдирмади. Бир неча саволлар бергач, жавобини ёзма тарзда юборишимни айтди. Устоз билан немис тили луғатлари градуономия талабларини инobatга олинмай тузилгани ва уларда қўплаб сўзлар киритилмаганини исботлаб бердик. Илмий ишимнинг Германияда ҳимоя қилиниши, мақолалар ва монографиямнинг нуфузли илмий нашрларда чоп этилиши, айтиш жоизки, устозим Ҳ.Ғ.Неъматов илмий ғояларининг дунё тилшунослигида тан олинисидан дарак эди. Таъкидлашим керакки, устоз менга бу ҳақда кўп бор ёзганлар, мактубни тўлалигича келтиришни жоиз топдим:

*“... Мен Сизда кимни/нимани кўраман? Биласизми, БАХТИЁР КИМСАНИ кўраман. Бу кимсага бахт келишига боис эса УСТОЗларим берган йўл ва масъулият. Мен Сизнинг тимсолингизда ўз бурчимни устозларим олдида – агар ота-онам учун мен дунёвий ва руҳоний-инсоний нафсни қондириши маҳсули бўлган бўлсам – РАҲМОН ЭГАМдан кейин оламда иккинчи ўринда бутун борлигим билан қарздор-у миннатдор бўлган энг улуғ сиймолар олдида улкан қарзимни қисман адо этишимга имкон берган, боис бўлган СИЙМОНИ кўраман. Нега мен УСТОЗЛАРИМНИ ШУНЧАЛИК УЛУҒЛАЙМАН? Менинг 80-йиллардаёқ жаҳоннинг машҳур туркийшунослари сирасидан ўрин олишим ҳам, 90-йилларда ўзбек тилшунослиги реформатори мавқеини олишим ҳам, мана Сиз туфайли*

*жаҳонда янги – градуономик тилшунослик асослари назарийтчиси бўлишим, ҲАҚ марҳаматидан кейин, шу устозлар туфайлидир. Шукрлар бўлсинки, Сиз ҳам ҲАҚқа етдингиз, мен ҳам мақсадимга эришдим...” (2009 й.)*

Проф. Ҳ.Ғ.Неъматов ниҳоят даражада кадршунос инсон эдилар. Устозлари, шогирдлари ютуғидан фахрланиш, уларни руҳлантириш уларга хос эди. Хотира ёзиш баҳонасида архивни қараб чиқиб, хайратда қолдим! Унда устозимнинг тилшунослик назарияси, муаммолари, қилиниши лозим бўлган вазифалар, ва албатта, мени руҳанмаънан қўллаб йўлланган минглаб мактублари сақланган экан! Мана яна улардан бири:

*“... назарийтчи устозим Сергей Ивановнинг яширин – тилга олиб бўлмас ва хаёлга келтириш мумкин бўлмаган орзуларини – “қани энди европеистлар бизнинг назария-ю талқинларга эътибор бериб, ҳеч бўлмаса, оқилона танқид қилсалар” – воқелантиришига бел боғлади ва энг даҳшатли уя – XIX-XX аср тилшунослиги асосчилари ва бунёдчилари – немис тилшунослари уясига чўп тикди ва – ФОЛИБ чиқди” (2012 й.).*

Мени хайратга солган жиҳат шу эдики, устоз полиглот эдилар, айниқса, немис тилини мутахассис даражасида билардилар. Бир суҳбатимизда “... тил ўрганиш учун махсус ўқиш шартмас, бир ҳафта етарли...”, дегандилар. Уларнинг хотиралари бағоят кучли, кенг қамровли эди. Эҳтимол, улар болаликдан Ислом асосларини ўрганиб, эслаб қолиш қобилиятларини машқ қилганликлари билан боғлиқдир. Ҳамид Ғуломовичнинг ғайриоддий, чин инсоний фазилатлар соҳиби бўлганлари, шубҳасиз, улар дунёга келган оила муҳити ва босиб ўтган умр йўли билан боғлиқдир. Устоз тинмай изланардилар ва шогирдларидан ҳам шуни талаб қилардилар. Шу сабаб бўлса керак, устоз ҳар бир шогирдларининг ютуғидан фахрланардилар.

Эсимда, Германияда илмий ишимни давом эттираётган илк йиллар руҳан қийин бўлган. Шундай пайтларда устоз фарзандларимга совға-саломлар улашиб, уларни эски шаҳар бўйлаб айлантирган эканлар. Буларнинг барчаси мени устозим олдидаги масъулиятимни оширар ва янги куч берарди. Шогирдларнинг устоз ҳақидаги шеърларини кўп учратамиз, аммо устоз Ҳ.Ғ.Неъматов шу қадар дарёдил, бағрикенг эдиларки, мени маънан қўллаш учун “Бургутнома” деган бағишлов битиб, уни менга юборган эдилар. Уни ўқир эканман, ўзимга ишончим ошиб, Ватаним, яқинларим, фарзандларим соғинчини енгилга куч топганман ва устозим раҳнамолигида самарали ютуқларга эришганмиз. Муқимийнинг “Саёҳатнома”сига ўхшатиб ёзилган мазкур бағишлов устознинг тузуккина шоирона табиатларини кўрсатиб берган. Профессор Ҳ.Ғ.Неъматов мана шундай санокли беғараз, софдил олимлар сирасига кирар эдилар.

Айтишларича, ота-онамиз бизни осмондан ерга туширса, билъакс устозларимиз бизни ердан осмонга кўтарардилар. Шу сабаб бу муқаррам инсонлар олдидаги қарз узилмасдир. Мен бу мўътабар инсонлардан ҳаёт дарсини, некбин бўлиб яшаш илмини ва илм кишиси бўлишдек ноёб илмларни олдим. Илоҳим, охиратлари обод бўлсин. Тарихда исмлари А.Н.Кононов, С.Н.Иванов, германист академик В.М.Жирмундский сингари олимлар қаторида турган олимдан илм ўрганишдек саодат насиб этганидан шукрона айтаман. Устоз Ҳ.Ғ.Неъматовнинг қуйидаги мактублари эса мени ҳамиша олға қадам ташлашга ундайди:

*“...Сиз мен устозлар вазифасини, бу валиюллоҳлар таъбири билан айтганда илоҳий МИССИЯни, қаерга келтириб, мен тугатдим, тўхтатдим деб, ҲАҚқа шунча берган имконият-у зафар-у юксаклаикларига шукрона қилишига ўтганимда, ўша мен тўхтаган нуқтадан олий чўққига – халқдан миллатдан, Ватандан ИНСОНИЯТ ва ОЛАМ нуқтасига кўтаришига, ҳам ўзингизни, ҳам мен-у фарзанд-у шогирд-у маслакдошларимни, Ватаним, халқимни, миллатимни юксалтиришига бел боғладингиз ва БУЮК ТАНГРИ ТАОЛО ҳиммату инояти билан бу чўққи сари устозлариму мену фарзанду, шогирду, Ватану, миллату шуқуҳимизни мана шу нозик елкаларда олиб шаҳдам кўтарилмоқдасиз. Аллоҳ сизга зафарлар берсин, шикасту суққу ҳасуду офатлардан ўз паноҳида асрасун,*

*заковатни, ақлу идрокни, иқболу омадни сиздан дариг тутмасун, омин ва раббулоламин” (2011 й.)*

Азиз ва дарёдил устозим! Сиздек шоиртабиат олимга, навоийсифат мураббийга шогирд бўлганим – бу менинг бахтим. Ёрқин хотирангиз ҳамиша қалбларимизда, дуоларимизда, шогирдлар ва фарзандларнинг эзгу ишларида мангу яшайди!

## **ОЛИС ИЛМ ЧЎҚИЛАРИГА ЧОРЛОВЧИ УСТОЗ**

*Жабборов Хўжамурод Жабборович,  
ҚарДУ ўзбек тилишунослиги кафедраси  
профессори, ф. ф. д.*

Муҳтарам ўқувчим: сизнинг ҳаётий тақдирингизга яхши инсонлар ва истеъдодли олимлар қандай таъсир этиши ҳақида ҳеч ўйлаб кўрганмисиз? Норасмий устозим, номзодлик диссертациямга самимий ва холис расмий оппонентлик қилган, филология фанлари доктори, профессор Ҳамид Ғуломович Неъматов таваллудининг 80 йиллигини кенг нишонлаш мақсадида ”Филологик тадқиқотлар: муаммо ва ечим” мавзусида халқаро илмий-амалий конференция ўтказилиши тўғрисидаги хабарномани ўқиб бўлганимдан кейин шу ҳақда кўп ўйладим. Хулоса шу бўлдики, – улар сизнинг тақдирингизга, албатта, таъсир ўтказди... Ана шундай бағридарё, илмидарё инсонлардан бири Неъматов Ҳамид Ғуломовичдир.

Айниқса, Ҳамид Ғуломович каби инсонлар сизга устоз бўлиши ва бўлмаслигидан қатъий назар сизда озгина илм учқунини сездими сизни илм йўлига киришга чорлайди ва беминнат маслаҳатларини ҳеч қачон аямайди. Буни мен кўп бора жонли гувоҳи бўлганман. Ҳамид Ғуломович билан учрашув ва танишувнинг ўзи сизга тақдирнинг инъомидир. Мен шундай киши билан танишганимдан расмий шогирди бўлмасамда, менинг номзодлик ишимга расмий ҳакамлик қилганидан сўнг ўзимни у кишининг шогирдиман деб мағрурланиб юрганимдан Яратганга доимо шукур қиламан. Нега дейсизми?

Келинг, унда у киши билан илк бор қандай танишганимни сўзлаб берай. 1988 йилнинг октябрь ойлари эди. Мен ўшанда яқиндагина Қарши давлат институтининг ўзбек тилшунослиги кафедрасига ўқитувчи сифатида ишга қабул қилинган пайтларим. Кафедрамиз мудир, раҳматли устозим жойлари жаннатда бўлсин, профессор Тўра Нафасов Тошкентда Ўзбекистон Фанлар академиясининг Тил ва Адабиёт институтида икки тиллилик масаласида илмий-анжуман уюштирилаётганлигини, кафедрадан профессор – ўқитувчилар таклиф этилгани ҳақидаги хабарни айтиб қолди.

Ўзбекистонлар Фанлар академияси Тил ва Адабиёт институтида уюштирилган конференцияга профессор Тўра Нафасов, филология фанлари номзодлари Қўйли Хуррамов, Қурбон Сулаймонов, мен ва немис тили кафедрасидан филология фанлари номзоди Комилжон Марқаев, Бухоро давлат университетидан Ҳамид Ғуломов, профессор Эргаш Қиличев ва бошқа тилшунослар қатнашган эдик...

Конференцияда иштирок этиш учун Москвадан собиқ СССР Фанлар академиясининг Туркология ва Монголистика лабораторияси бўлими мудир академик Эдгем Раҳимович Тенишев, Қозоғистон Фанлар Академиясининг ҳақиқий аъзоси профессор Кенесбай Мусаев, филология фанлари докторлари, профессорлар Николай Александрович Баскаков, Галина Дмитриевна Благова ва бошқа олимлар келишганди.

... Илмий-назарий анжуманда кўплаб олимлар икки тиллилик масаласини қизгин муҳокама қилишиб, хулосада ўзбек тилининг давлат тили сифатида қабул қилиш лозимлиги ҳақида ўз фикр ва мулоҳазаларини билдиргандилар. Лекин баъзи олимлар рус тилини ҳам давлат тили сифатида қабул қилиш фикрида эдилар...

Профессор Тўра Нафасов конференция бошланиши олдида мени Ҳамид Ғуломович билан таништирди. – Бу йигит Эрнст аканинг шогирдлари, – Хўжамурод Жабборов бўладилар, яқинда кафедрага ўқитувчи сифатида ишга қабул қилдик деб, -



Ҳамид Ғуломовичга таништирдилар. Шунда бирданга Ҳамид Ғуломович менга Москвадан келган меҳмонларга қарашга ёрдамчи керак. Рус тилини биласизми? Мен Хўжамуродни Эдгем Раҳимович билан таништириб қўяман. Хоҳласа Москвада стажировка ўташи мумкин деб, - қолдилар. Мени Эдгем Раҳимович Тенишев билан таништирди... Бу танишув мени уч ойлик собиқ СССР Фанлар академиясининг Туркология ва Монголистика лабораторияси бўлими мудири академик Эдгем Раҳимович Тенишев илмий консультантлигида стажировкада бўлишимга туртки бўлди. Мен ҳеч қачон Ҳ. Ғуломовичнинг бу яхшиликларини унутмаман.

Ҳа, Ҳамид Ғуломовични нафақат Ўзбекистонда, балки мамлакатимиздан ташқарсида, яъни Туркия, Қозоғистон, Озарбойжон, Қирғизистон, Туркменистон, Россия, Америка, Германия, Япония ва бошқа мамлакатлардаги тилшунос-туркологлар йирик тилшунос олим, ғамхўр мураббий ва устоз ҳамда фаол жамоатчи сифатида яхши билишади. Бухорача каломи (лутфи) ва саломи, самимийлиги, ҳозиржавоблиги, меҳрибон ва меҳмондўстлиги, айниқса, илм йўлига бошқариш ва чорлаш устознинг ўзига хос характерли жиҳатларидандир.

Ҳамид Ғуломович томонидан яратилган ва нашр этилган китоблар бугун ўзбек тилшунослари ва адабиётшунослари, ёш тадқиқотчиларнинг китоб жавонидан жой олишга улгурган. Мен ҳам институтга келганимда у кишининг чоп эттирган мақолалари ва китобларини ўқиб, шу киши билан танишиш истаги пайдо бўлган эди. Албатта яхши ният ўз ижобатини топаркан. Буни ҳаётим мисолида яққол кўрдим.

1996 йилнинг 13 сентябрида заҳматкаш ва забардаст профессор Бахтиёр Менглиев билан бир кунда номзодлик ҳимоямиз бўлиб ўтди. Ўшанда Ҳамид Ғуломович менинг “Ўзбек тилининг суғориш лексикаси” маузусидаги номзодлик ишимга расмий оппонентлик қилдилар. У киши менинг тадқиқотимга 10 саҳифалик тақриз ёзганди. Ушбу тақриздан ва бу тақризга менинг фикр-мулоҳазаларим билдирилган маълумотлардан баъзи бир фикрларни келтиришни лозим топдим ва ўқувчиларга фойдали бўлар деган умиддаман:

**Х. Неъматов:** ... *Тақризланаётган диссертация матни сув ва унга алоқадор бўлган жуда кўп туркий сўзлар тилшуносликка бевосита алоқадор бўлмаган кўпгина тарихчилар, археологлар, жузрофлар, сайёҳлар, топонимистлар томонидан таҳлил этилиб, ўрганилганлигидан, бундай ишларни диссертант чуқур ўрганганлигидан далолат беради. Бундан ташқари сув ва суғоришга алоқадор бўлган сўзларнинг алоҳида – алоҳида қисмлари деҳқончиликнинг турли йўналишларига (пахтачилик, боғдорчилик, обчакорлик ва ҳ.), ирригация ва гидротехникага айрим шевалар лексикасига бағишланган ранг- баранг ишларда тавсифланган ва шарҳланган. Бу юзлаб тарихий, этнографик, топонимик, диалектологик, географик, техник асарлардаги тарқоқ материалларини йиғиш ва тилшунослик нуқтаи назаридан умумлаштириш зарурати фанимизда алақачон пайдо бўлган эди, лекин бу оғир ишга ҳар қандай тадқиқотчи журъат қила олмасди. Диссертантимиз мана шундай катта ишга бел боғлади ва айтиш мумкин масала ечимига ўзининг салмоқли ҳиссасини қўшди. Шунинг учун диссертация учун танланган мавзу долзарб ва фанимиз тараққиётида муҳим аҳамиятга эгадир.*

*Диссертант VIII-IX ёзма ёдгорликлари замонавий археологик, тарихий, географик, топонимик, лексикографик асарлардан бошлаб диалектографик асарларгача бўлган кўламдаги илмий тадқиқотларда қайд этилган, шарҳланган суғоришга оид сўзларни синчиклаб ўрганган ва тўплаган. Бу билан кифояланиб қолмай, у Жанубий Ўзбекистон воҳасини пойма пой кезиб миришкор ва тадбиркорлардан мироб ва миробзодалардан каттагина бирламчи материал тўплаган. Шунинг учун тадқиқотчи “ўз ўрганиши манбаи материалларини мумкин қадар тўлиқ қамраб ола олган” десак, хато бўлмайди. Масаланинг ҳар томонлама ўрганилишига бағишланган каттагина кириш қисм, иш матнидаги жуда кўп ҳаволалар, илова қилинган “Ахборотчилар рўйхати” бунинг ёрқин далилидир. Хўжамурод Жабборов тадқиқ манбаининг турли қирраларини, томонларини ўрганиш мақсадида ўз ишида турли тадқиқ усулларидан фойдаланади. Булардан*

асосийлари 1) қиёсий-тарихий усул 2) системавий таҳлил усули 3) синхроник тавсифлаш усули 4) ономасеологик таҳлил усули.

Бу усулларнинг ҳар биридан фойдаланишда диссертантнинг ютуқ ва муваффақиятлари билан бир қаторда йўл қўйган айрим бир ёқламаликлари устида алоҳида-алоҳида тўхталамиз, чунки айнан шунинг ўзи илмий ишини бутун моҳиятини очиб беради. Ҳимоя қилинаётган диссертацион иш таҳлилини шундай тузишни талаб этган ҳолат шундан иборатки, муаллиф тадқиқотининг ҳар бир боб, боб ичидаги бўлим, бўлим ичидаги бўлимчаларда бу таҳлил усулларининг ҳар биридан фойдаланади. Ишни боблар бўйича таҳлил қилишдан кўра, унда қўлланган усуллар воситасида шарҳлаш мақсадга мувофиқ.

**Қиёсий-тарихий усул.** Бу усулдан диссертант тадқиқ сўзларининг тарихий-этимологик мансублигини, ҳар бир сўзнинг туркийзабон минтақаларда тарқалиш жараёни, унинг қадимийлик ҳамда муштараклик даражасини аниқлашда, сўз ясаш структураси таҳлилида, диққатга сазовор жуда кўпдан кўп этимологик изоҳлар беришда жуда ўринли ва муваффақиятли фойдаланади. Тадқиқотчи қиёслашни уч йўналишда олиб боради: биринчидан, муосир туркийзабон ареал бўйича, иккинчидан, тарихий ёдгорлик ва ёдномалар доирасида, учинчидан, муосир ўзбек шевалари материаллари асосида. Агар биз диссертант тадқиқотга сугориш лексикасига оид 1000 дан зиёд сўзни, 23 тилни, 20 дан ортиқ турли давр тарихий ёдгорликларни, ўн тача шевани жалб этганлигини ҳисобга олсак, бундан тавсиф тадқиқотчидан қанча вақт, куч ва меҳнат талаб қилиши ҳақида тасаввур ҳосил қилишимиз мумкин. Шубҳасизки, 1000 зиёдроқ лексеманинг мазкур йўналишларида тугал тавсифини беришга бир олимнинг умри камчилик қилади. Шунинг учун диссертант ҳар бир бобнинг бўлим ва бўлимчаларида 10-15 сўзнинг муфассал тавсифини бериши билан чекланади. Шунда ҳам ишда 200 дан ортиқ сўзнинг туркийзабон минтақа, туркий ёзма ёдномалар, ўзбек шевалари бўйича тавсифи, шакли, маъновий хусусиятлари, этимологик таркиби ҳақида фикрлар муфассал баён этилган. Албатта, бундай умумлаштирувчи ва қиёсловчи материаллар фойдадан ҳоли эмас...

**Х. Жабборов:** ... устознинг қўлларида бевосита ўқимаган бўлсам ҳам, ўзимнинг маънавий устозларимдан бири сифатида билганим профессор Ҳамид Ғуломовичнинг ишимга берган холисона баҳолари мен учун жуда қадрли. Чунки домла тўғри таъкидлаганларидек, мен тадқиқотни қиёсий-тарихий усулда бошлаганман ва ҳақиқатдан ҳам узоқ изланишлардан кейингина системавий таҳлил усулларига келганман. Мана шу системавий таҳлил усуллари ўзлаштириш жараёнида Ҳамид Ғуломовичнинг ишлари менга катта таъсир кўрсатди. Шунинг учун устоздан шундай баҳони олиши мен учун шарафдир.

Домланинг мен учун жуда азиз ва қадрли бўлган тақризларини мен қанчалик диққат билан ўрганмасам, унда бевосита танқидга ва камчиликларни санашга учрамадим. Устозни берган маслаҳатлари албатта, мен учун келгусида дастуруамал бўлади. Фақат шуни алоҳида айтмоқчиманки, устознинг тақризлари мени бир хусусияти билан – менинг, аслан тилишунос бўлмаган шахснинг, тилишуносликка кириб келишим ва унда олиб борган изланиш ва адашишимни ишдан илгай олинishi билан ҳайратлантирди. Ҳақиқатдан ҳам, мен ирригаторман, этимология, ономонология ундан кейин қиёсий-тарихий тилишунослик билан қизиққан ва ҳақиқатдан ҳам узоқ изланишлардан кейингина системавий таҳлил усуллари ўзлаштирган тадқиқотчиман. Лекин комил ишонч билан айтаманки, энди системавий таҳлил усуллари менинг дунёқарашимга айланди, энди мен ундан четга чиқмайман. Шунинг учун шу ҳолатда ишимни қайтадан ёзганимда, аминманки, у тамоман бошқача бўлар ва бўлади ҳам. Бу ишлар менинг режамда турибди. Яна бир марта сизга миннатдорлик билдириб, сизни ишонтираманки, кўп поғонали жадвал ва синонимик, гипонимик, градуонимик маъновий зиддиятлар тизимидан иборат бўлган микросистемалар доминантлари структур чизмасини бунёд этиш ҳамиша менинг кўз олдимдадир...

Устоз ҳақида сўз айтишнинг масъулияти оғир. Айниқса, дақиқ тилшунос, олис ва поёнсиз илм чўққиларига шогирдларини чорловчи, нотиқлик ва етуклик илмининг фидойиси ҳақида. Ҳамид Ғуломович – ўзбек тилшунослигининг етук билимдони, ўзбек тилининг жонкуяри ва тарғиботчиси. У киши Ленинград шаҳрида А.Н. Кононов, С.Н.Иванов каби тил фидойилари туркологлар раҳбарлигида илмий изланишлар олиб борди. У киши шу ерда илмга меҳр қўйди ва олимлик шарафига муяссар бўлди. Ҳамид Ғуломовичнинг юксак чўққиларга кўтарилишида унинг ўзбек, тожик, турк, рус, немис, инглиз, форс, араб тилларини билиши муҳим ҳисса бўлиб қўшилди. Албатта илм йўли машаққатлидир. Аммо устоз бу йўлда собитқадам бўлди. Улуғ инсонлар, устозлар этагини маҳкам тутиб, уларнинг ишончларини оқлади.

Бобокалонимиз Алишер Навоий ҳазратлари устоз-шогирд муносабатлари ҳақида шундай деганлар:

*Шогирд агар шайхул-ислом, агар қозидур,  
Агар устоз андин розидур, Тангри розидур.*

Бугун биз каби шогирдлар эл орасида обрў топиб юрганимизнинг сабабчиси ҳам – бу, устозлардир! Устозлардир! Устозлардир!

## **ЎЗБЕК ТИЛШУНОСЛИГИ ВА УНИНГ ТАЪЛИМИНИ ЯНГИ БОСҚИЧГА ОЛИБ ЧИҚА ОЛГАН ОЛИМ**

*Йўлдошева Дилором Неъматовна,  
БухДУ ўзбек тилшунослиги кафедраси  
профессори, п.ф.номзоди*

«Ўқитувчилар газетаси»нинг 1991 йил 3 январь сониди (газета мустақилликдан қарийб етти ой илгари чиққан) республика таълим маркази директори Н.М.Мирқурбонов, БухДУ профессори Ҳ.Ғ.Неъматов ҳаммуаллифлигидаги «Қонун ва тил муаммолари»<sup>1</sup> номли мақола чоп этилган эди.

XIX асрда яшаган француз олими М.Беллин ҳазрат Алишер Навоийнинг «Муҳокамат ул-луғатайн» китобидаги «Тилга ихтиёрсиз – элга эътиборсиз» деган ҳикматли сўзларидан таъсирланиб, 1861 йилда яратган «Мир Алишер Навоий биографияси ва ижоди» китобида шундай ёзади: «Алишер Навоий ўз миллий тилининг афзалиятларини инкор этиб бўлмайдиган далиллар билан исбот этганлиги – ўз халқи орасида ватанпарварликни бошлаб берганлигидан далолотдир»<sup>2</sup>. «Ўқитувчилар газетаси»даги мазкур мақолада ҳам ватанпарварлик туйғуларини ҳис этасиз. Сабабки, исталган тилнинг яшовчанлиги, ҳудудий кенглиги ҳукмрон сиёсатнинг диққат марказида бўлиши, унинг таълимига эътибор қаратилиши билан чамбарчас боғлиқлиги ҳеч биримизга сир эмас. Ҳар бир даврда ҳам тил жонкуярлари бўлар экан, шукурки, она тилимиз ўлмайди, таназулга юз тутмайди...

Мақола Давлат тили ҳақидаги Қонун қабул қилинганлигининг иккинчи йилида ёзилган бўлиб, унда совет таълимида ҳукмрон бўлган ва жаҳонда энг илғор, самарали деб тарғиб этилган, аслида, моҳиятан чириган ёндашувни – «юқори»нинг буйруқ-кўрсатмаларини кўр-кўрона «лаббай» деб, бироқ садоқату эпчиллик билан амалга оширувчи «манқурт»ни тайёрлашга хизмат қилувчи ретроскопик-репродуктив усул ҳукмронлигидан воз кечиш ҳақида мулоҳаза юритилган эди.

Маълумки, репродуктив (лотинча:re–такрорлаш, produco–яратаман) усул таълимда берилган билимни эгаллаш ва хотирада айнан сақлаш йўли бўлиб, бу ўқувчига маълум миқдордаги билимни олувчи, ўқитувчига эса таълим жараёни субъекти сифатида муносабатда бўлади. Таниқли дидакт олимлар И.Я.Лернер, М.Н.Скаткин ўз тадқиқотларида репродуктив усулнинг моҳиятини атрофлича ёритганлар. Бу усул

<sup>1</sup> Мирқурбонов Н., Неъматов Ҳ. Қонун ва тил муаммолари// Ўқитувчилар газетаси. – 1991 йил, 3 январь.

<sup>2</sup> Қодиров П. Тил ва эл. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2005.

билишнинг дедуктив кўринишига асосланиб, унга мувофиқ, ўқувчиларда тайинланган қоида ва таърифлардан амалий ишларга ўтиш, тайёр хулосаларни амалиётга татбиқ этиш кўникмалари шакллантирилади. Кўринадики, бу таълимнинг пировард мақсади таълим олувчида эргашувчанлик, бўйсунувчанлик, идрокий ялқовлик ҳиссини қарор топтириш ва ривожлантиришга олиб келишдан иборатдир. Зеро, совет мафкуриси билим қамрови кенг, турли фанларни ва ўз ихтисослигини чуқур эгаллаган, кўрсатилган масалаларни белгиланган тарзда еча оладиган мутахассисларни талаб қилиб, омманинг мустақил фикрлашини тақозо этмас эди. Яъни, шўро мафкурасининг давлат сиёсий тузуми ва идеологик структураси ҳамда пировард мақсади (коммунизм) мустақил фикрловчи шахсга эмас, “Бўл тайёр!” шиорига ҳар доим шай “содиқ солдат”га кўпроқ эҳтиёж сезар эди. Натижада, давлатнинг таълим сиёсати, таълим мақсади, усули ва мазмуни шунга монанд равишда ташкил этилган бўлиб, таълимда репродуктив усул, ўқитишда ретроспектив воситаларга устувор аҳамият берилган эди. Социалистик иқтисод ва мафкуравий муҳит эҳтиёжи сифатида шаклланган бу усул собиқ шўро таълим тизимида узок йиллар ҳукмронлик қилганлигининг боиси ҳам шунда.

1991 йил 3 январда чиққан «Ўқитувчилар газетаси»даги Н.М.Мирқурбонов, БухДУ профессори Ҳ.Ғ.Неъматовларнинг «Қонун ва тил муаммолари» номли мақоласи тил таълимида узок йиллар ҳукмронлик қилган «қизил ип» билан ўралган мазкур ўқитиш тизимидан воз кечиш муаммосини дадиллик билан кун тартибига қўяр эди.

Мақола муаллифлари тил таълимидаги муаммони кун тартибига қўйиш билангина чекланиб қолмай Давлат тили ҳақидаги «Қонун жумҳурият ҳукумати раҳбарлари зиммасига она тилимизнинг ҳуқуқий мавқеини мустаҳкамлаш масулиятини юклайди. Бироқ Қонуннинг биргина ўзи бундай масъулиятни ҳал этишга қодир эмас»лиги уқтирилади ва бу борада она тили таълимининг ўрнига алоҳида аҳамият берилади. Тил таълимида когнитив-вербал-прагматик (индуктив) усулга ўтиш зарурлиги асосли мисоллар билан далилланади. Маълумки, когнитив (ингл.: cognition – билишга оид, идрокий) таълим ўқувчини изланишга, қиёслашга, хулоса чиқаришга ва зарурини танлашга йўналтиради. Демак, репродуктив таълим билим берса, когнитив таълим билим олишга ундайди, билим олиш йўллариини ўргатади, усуллариини тавсия этади – ўқувчи қўлига билим калитини тутқазади. Чунки билим чексиз, унинг барчасини ўқувчига ўргатиб бўлмайди. Онгли ижодий фаолиятни акс эттирувчи когнитив таълим *индуктив, муаммоли, вербал, прагматик* каби қатор атамалар билан номланган. Бу атамалар моҳиятан бир хил бўлиб, ўзида «ўргатиш»ни эмас, балки «ўрганиш»ни акс эттиради. (Бу таълим усули ғарб педагоглари А.Озбель, П.Флагг, А.Рейнольдлар томонидан кўтарилган ва илмий асосланган.)

Мақолада умумий ўрта таълим жараёнида она тилидан ўқувчига тақдим этиладиган билимлар амалийлиги, прагматик қиймати билан белгиланиши зарурлиги, когнитив таълимнинг асосий воситаси алгоритмик дарслик-дастурлар эканлиги, у фақат йўналтирувчанлик, бошқариш вазифасини бажариши ва ўқувчиларнинг амалий билим эгаллашларини таъминлашга қаратилган бўлиши, ўқувчи алгоритмик дарслик-дастурда берилган топшириқларни бажариш учун турли лугат, қомус, маълумотнома, сўзлик, матнлар тўплами, машқлар тўплами билан иш кўриши, улардан фойдалана олиши – изланиши ҳақида гап боради.

Кўринадики, мазкур мақола она тили таълимининг янги мақсади ва мазмуни белгиланиши зарурлигини, шу мақсаду мазмунга мувофиқ усул, воситалар танланиши шартлигини, буларнинг барчаси соҳа мутахассисларидан катта масъулиятга тайёргарлик талаб қилишини «башорат» этади. Мустақиллик шарофати ила бугунги кунда давлат ва жамият билимли шахсни эмас, балки билимларидан жамият талабларига мос фойдаланувчи, бундай одат унинг табиатига айланган, яъни тарбияланган, маданиятли, маънавиятли шахсни етиштириб чиқаришни мактаб таълими олдига мақсад қилиб қўйди.

Дидакт олим И.Я.Лернер ўқувчиларда ижодий тафаккур кўникмаларини шакллантириш масаласига бағишланган тадқиқотида: «Билим эгаллаш тафаккурни

ривожлантирадимми?» («Развивается ли мышление усвоением знаний?») деган муаммони кўяди ва бу саволга «йўқ» деб жавоб беради. Таълим мақсади тўғри белгилангач, англадикки, бугун мактаб партасида ўтирган ўқувчига фақат билим бериш жиноятдир, шунингдек, таълим усули ҳеч қачон умумий, қатъий, қотиб қолган ва ягона бўлиши ҳам мумкин эмас. Билимлар тизимида ўзаро алоқадорлик – боғланиш, таққослаш, сабаб-натижа муносабатлари бўлмаса, у ўқувчи шахси тафаккурини ривожлантира олмайди.

Ўқувчи шахси тафаккурини ривожлантириш эса, мақолада таъкидланганидек, **янги типдаги алгоритмик дарсликлар воситасидагина амалга оширилиши мумкин. Бундай дарслик ёрдамида тадбиркор, ахборот манбаидан тўғри, оқилона, унумли, самарали ва тез фойдалана оладиган, ўз шароитида уларни онгли ва мақсадли қўллай биладиган баркамол шахс вояга етади.**

Бугун онадек мўътабар тилимизга Давлат тили мақоми берилган, она тили таълими мақсади, мазмуни, усулу воситалари янгиланган бир даврда; ўзбек тилшунослиги ва унинг таълимини янги босқичга олиб чиқа олган салафлардан бири – тил жонкуяри Ҳамид Ғуломович Неъматов хотирасига бағишланган анжуман арафасида туриб, «эртак ҳақиқатга айланган» мақолада кўрсатилган ишлар амалга ошганлигидан қалбим ифтихорга тўлади.

Ўзбек тилшунослиги ва унинг таълимини янги босқичга олиб чиқа олган устозимиз хотираси ҳамиша ўзбек лисоншунослигида, фарзандлар, шогирд-издошлар хотирасида яшайди.

### УСТОЗНИ СОҒИНАМАН...

*Каримов Суюн Амирович,*

*Самарқанд давлат университети профессори*

Ҳамиша муборак номларини ҳадсиз ҳурмат ва эҳтиром билан тилга олаётганимиз устоз Ҳамид Ғуломовичнинг номи нафақат туркология ва ўзбек тилшунослиги илми ихлосмандларининг, балки ўзбек илму маърифатидан хабардор барча инсонлар учун ҳам азиз ва мўътабардир. Бу улуғ инсонни таниш, суҳбатлари ва илмидан баҳраманд бўлишга Самарқанд Давлат университетида фаолият кўрсатган, филология соҳасида илмий даража беришга Ихтисослашган кенгаш сабаб бўлган.

Гарчи Ҳамид Ғуломовичдек йирик олимга яқин боришга журъат этолмаган бўлсак-да, Аллоҳнинг ўзи изн берди. Устоз мени ўз шогирдларидек қабул қилиб, илми ва маънавиятидан бир чимдим бўлса-да, баҳраманд этдилар. Устоз суҳбатларининг дилкашлиги ва самимийлиги, у зотдаги бағрикенглик ва донишмандлик ҳар сафар хайрлашишимизни қийинлаштирган, кейинги урашувларга орзуманд қилган. Устознинг менга «Амирзодам» деб мурожаат қилганларидан ўзимда олам-олам ҳаловат ҳис қилганман, шу боис бу азиз инсонга нисбатан меҳр-муҳаббатим ҳадсиз бўлган. Мирфайз мирзога кўрсатган иззат-икромларидан невараларга муомала қилиш одобини ўргандим.

Дунёвий ва диний илмларнинг мужассамлигини шу азиз инсонда кўрдим. Неваралари боболари билан навбатма-навбат Қуръон оятларини ўқиганларида хайратга тушдим. Шогирдларга муносабатда шу табаррук зот ибрат бўлди. Деярли барча шогирдлари билан бирма-бир таништириб, улар билан дўстлаштириб, илмий ҳамкорликни йўлга қўйиб бердилар. Менинг атрофимда бўлганларга ҳам устозлик мурувватини, маслаҳатини аямадилар.

Оддийлик ва камтарликлари билан қойил қилдилар. Оиламиз билан Бухорога борганимизда устоз эринмасдан ҳар бир қадамжогога ўзлари олиб бордилар, азиз авлиёларнинг тарихи билан бирма-бир таништирдилар. Самарқандга келганларида хонадонимиз аҳлидан хабар олдилар. Байрамлар муносабати билан биздан олдин табрик йўлладилар. Табригида албатта «Амирзодам» ва «хонаободлик» деган сўзлар бўларди.

Мен бугун устозни соғинаман, отамни соғингандай соғинаман. Пурҳикмат сўзларини, меҳрибончиликларини соғинаман. Илму маърифат билан йўғрилган

суҳбатларини соғинаман. Эл-юртни дунёга унинг олиму фозиллари танитишини хис қилиб, Аллоҳдан халқимизга Ҳамид Ғуломович сингари алломаларни кўпроқ юборишларини сўрайман. Устоз билан дийдорлашмоқ энди қиёматда бўлади. У зотнинг руҳлари шод, охиратлари обод бўлсин. Менинг вазифам эса бу улўғ инсон ҳаққига шогирдлик дуоларини етказиб турмоқдир.

Домланинг илмини, одамийлик фазилатларини, яшай олмай кетган умрларини фарзанди аржумандларига, невараларига, шогирдларига берсин. Устознинг оила аъзолари соғ-омон бўлсинлар.

## **ЎЗБЕК ТИЛШУНОСЛИГИНИНГ ИСЛОҲОТЧИСИ**

*Менглиев Бахтиёр,  
ТошДЎТАУ профессори,  
филология фанлари доктори*

Машҳур туркийшунос А.Н.Кононов ва файласуф тилшунос С.Н.Ивановларнинг шогирди бўлган Ҳамид Неъматов ўзбек тилшунослиги, туркология, умумий тилшунослик назарияси ривожига, тил тадқиқотлари сифатини янада юқорироқ босқичга кўтаришга муносиб ҳисса қўшган олимдир.

Ҳамид Неъматов ўз маслакдошлари ва шогирдлари билан формал–функционал ёки субстанциал оқимни шакллантиришга ҳаракат қилди. Бу йўналишнинг моҳияти шундаки, унда тил бирлигининг ички моҳияти, мазмуни, ташкил этувчиларига катта аҳамият берилади, ҳар бир микроэлементниг хусусиятлари ўрганилиб, унинг ўз бутунлиги (тил бирлиги) фаолиятида тутган ўрни, ҳиссаси, имкониятлари кабилар аниқланади. Субстанциал оқимнинг тадқиқ объекти тил бирлигидаги имкониятнинг воқеликка, лисондан нутққа йўналиши масалаларидир. Шу боис ушбу оқимда қолип (модел), формула, инвариант тушунчалари етакчилик қилади ҳамда логик, психоллингвистик, когнитив, экстралингвистик омиллар билан иш кўрилади. Профессор Ҳамид Неъматовнинг кўрсатишича, ўзбек тилшунослигида бундан кейин бажариладиган тадқиқотларининг тараққиёти тилшуносларнинг замонавий гносеология, диалектик мантик, диалектик фалсафа, табиий фанларнинг методологик асосларини билишлари ва уларни тил тадқиқотларига тадбиқ эта олиш даражасига ҳам боғлиқ.

Ҳамид Неъматов ўзбек тилшунослиги ва туркологиянинг тараққиётини белгилаб берувчи истиқболли дастурлар ҳам қолдириб кетди. Унинг лексик микросистема ҳамда туркий тиллар синтаксисини ўрганишга оид илмий-назарий дастурлари шулар жумласидандир.

Ҳамид Неъматов сўнгги йилларда тилда релятивлик, антрополингвистика, прагмалингвистика каби соҳалар бўйича ҳам мақолалар эълон қилиб, шунингдек, тамал тошлари ватанимизда қўйилган ўзбек градуал тилшунослигини замонавий лингвистика аренасига олиб чиқиш учун ҳаракат қилаётган эди.

Профессор Ҳамид Неъматов она тили таълимининг том маънодаги жонкуяри эди. У мустақиллик бўсағасида РУМЦ (ҳозирги Республика таълим маркази)нинг етакчи мутахассиси мақомида “Ўқитувчилар газетаси” (ҳозирги “Маърифат”)да она тили таълими мазмуни, мақсади, усули ва воситаларини ўзгартиришга оид баҳс-мунозаралар ташкил этишга бошчилик қилди. Натижада она тили таълимига республика ўқитувчиларининг нуқтаи назарларини ифодаловчи “Ўқитувчи”, “Ижод”, “Индуктив” каби янги муқобил дастурлар яратилди ва у туман, шаҳар, вилоят, республика босқичларида муҳокама этилди ҳамда бунда Ҳ.Неъматов етакчилигида тайёрланган “Индуктив” дасурига катта ишонч билдирилди.

Шунингдек, долзарб илмий-методик муаммоларни изчил ҳал этиб бориш учун “Ўзбек тили” Доимий анжумани таъсис этилди ва ушбу ҳар икки йилда бир марта ўтказиладиган анжуманга профессор Ҳамид Неъматов ўн йилдан ортиқ раислик қилди. Натижада мақсадга мувофиқ таълим стандартлари (ДТС), дарсликларнинг янги авлоди



вужудга келди. Ҳ.Неъматов ғояси амалга ошириб она тили таълими индукциядан дедукция томон амалга оширилади бошлади.

Ҳамид Неъматов етакчилигида яратилган мактаб дарсликлари ва қўлланмалар ўзларининг янгилиги, мантиқийлиги, юксак дидактик кўрсатмаларга бойлиги билан ажралиб туради. Муаллифнинг ўз маслақдошлари билан яратган олий талим дарсликлари ҳозирги лингвистиканинг сўнгги ютуқларини ақс эттирганлиги, бўлғуси она тили ўқитувчиларининг фалсафий-мантиқий мушоҳадаларини ҳам оширишга қаратилганлиги билан қимматлидир.

Олим нафақат тилшунос сифатида, балки филолог, турколог сифатида республика ва ундан ташқарида – ҳамдўстлик давлатларида, хорижда ҳам эътироф этилган. У ислом фалсафасини ҳам мукамал билар ва лисоний ҳодисалар талқинига асосли ҳамда ишонарли татбиқ қилар эди. Ҳамид Неъматов ҳақиқий филолог эди. Унинг мумтоз ўзбек адабиёти бўйича хорижда маърузалар ўқиганлиги ҳаммамизга маълум. Олим фалсафа, мантиқ, гносеология фанларини чуқур эгаллаган ва улардан ўз тадқиқотлари, она тили таълими тизимида методология сифатида фойдаланар эди.

1996 йилда олимга Ўзбекистонда хизмат кўрсатган халқ таълими ходими фахрий унвони берилди. 2010 йилда эса “Эл-юрт ҳурмати” ордени билан тақдирланди.

### **БАҒРИКЕНГЛИК**

(профессор Ҳамид Ғуломович НЕЪМАТОВ ҳақида  
бир чимдим хотира)

*Мўминов Сиддиқжон,  
ФарДУ профессори, ф.ф. доктори,  
Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмасининг аъзоси*

Бир қоп шакар, бир бочка асал ёки бир сават узумнинг таъминини билиш учун унинг ҳаммасини еб тугатиш шарт бўлмаганидек, бирон бир одам, айниқса, яхши одам ҳақида фикр айтиш учун унинг барча фазилатларини санаб ўтириш шарт эмас. Зеро, умр лаҳзалардан иборат ва мана шу лаҳзалар мужассамлашиб, бир бутунликни – умрни ҳосил қилади.

Бу кириш жумлалардан мурод шуки, мен ўзбек тилшунослигида ўзига хос илмий, ўзбек инсоншунослигида ўзига хос бағрикенглик мактабини яратиб кетган УСТОЗимиз ҳақида икки оғиз фикр билдиришга оғиз жуфтладим.

Ер қуррасида номи тилга олинганда “шариф” сўзи қўшиб айтиладиган санокли шаҳарлар борки, уларнинг қаторида “Бухори шариф” ҳам борлиги ҳаммамизни бирдек қувонтиради. Бу кўҳна ва ҳамиша навқирон шаҳар бундай улуғ унвонга энг аввало ўз бағридан етишиб чиққан олиму уламолари орқали муяссар бўлган, албатта. Шулардан озми-кўпни хабардор бўлганлигим учун бутун илмий фаолиятимнинг маҳсули бўлган докторлик диссертациям муҳокамаси чоғида ташқи тақризчи сифатида Бухоро давлат университети белгиланганида мени қаттиқ ҳаяжон босган, бу муқаддас даргоҳга минг хил андишалар билан кириб борган эдим.

Аниқ эсимда: 1999 йилнинг 18 июнь – ҳафтанинг жума куни докторлик диссертациямни қўлтиқлаб Бухоро давлат университетининг тилшунослик кафедрасини топиб бордим. У ерда мени пойтахтимиз Тошкентда малака ошириш курсида уч ой ҳамкурс бўлган касбдош устозимиз Насрулло Шукруллаев домла жуда илиқ кутиб олдилар. Кафедра мудирини – филология фанлари доктори, профессор Ҳамид Ғуломович Неъматов ўша куни кафедрага келмаган, уйларида илмий иш билан жуда банд эканлар.

Насрулло домла билан Ҳамид Ғуломовичнинг университетдан унча узоқ бўлмаган ҳовлиларига ийманибгина кириб бордим. Устоз бизни жуда самимий кутиб олдилар. Ташқаридаги сўрида ўтириб, дуо қилинганидан кейин бизни тўғри дарсхоналарига

бошладилар. У ердаги катта столнинг усти тил назариясига оид китоблар билан тўла – устоз қаттиқ банд эканлар.

Биз муддаони айтганимиздан кейин профессор диссертацияни қўлимдан олиб кўрдилар ва фикрини душанба куни билдиришларини айтиб, ишни столнинг устига қўйдилар.

Шанба ва якшанба кунлари биз Насрулло домланинг Олот туманидаги ҳовлиларига бордик.

– Сира илҳақ бўлманг, ишингиз Ҳамид Ғуломовичга албатта маъқул келади, – дея кўнгилимни кўтаради Насрулло Шукруллаев Бухоро қишлоқларини сайр қилдиран экан.

Ниҳоят, душанба куни Ҳамид Ғуломович билан кафедрада учрашдик.

– Ишингизни ўқиб, тақриз ёзиб қўйдим. Котиба машинка қияпи. – деган жумлани эшитдим-у, Насрулло домлага қарадим.

Насрулло домла икки бош бармоғини тепага қилиб, аста шивирлади:

– Мен сизга нима деган эдим. Домлага иш ёқмаганида ўқимаган ва тақриз ҳам ёзмаган бўлар эдилар!..

Бу менинг бир неча ўн йиллар давомида қилинган илмий фаолиятимга берилган энг қисқа ва энг юқори баҳо эди!

Ўзларининг розиликлари билан мен Ҳамид Ғуломовичнинг машинкадан кейин имзолаб, тасдиқлатилган етти бетли тақризлари асли – қўлёзма нусхасини ҳам сўраб олдим.

Бугунги тилшунослигимиз, қолаверса, ёзаётган мақоламиз мавзусига ҳам бевосита алоқадор бўлганлиги учун тақризнинг биринчи ва охириги абзацни айнан келтираман: “Асримизнинг 20-йилларида рус тилшунослиги (асосан, Қозон тилшунослик мактаби) ва Соссюр таълимоти асосида шакланган функционал лингвистика (Прага тилшунослиги) кейинги тараққиёт натижасида икки йўналишда ривожланди...” // “...Хулоса қилиб айтиш мумкинки, С. Мўминовнинг тадқиқоти ўзбек фанида алоҳида бир йўналишни бошлаб берувчи иш сифатида докторлик диссертациялари олдига қўйиладиган талабларга жавоб беради ва унинг муаллифи бу юксак илмий даражага лойиқдир.” Имзо (Ҳ.Неъматов) 19 июнь 1999.

Ҳозир мен бу қўл ёзмани кўзим билан кўриб, қўлимда ушлаб турибман. Бу дарсхонадаги мен учун энг ноёб қўл ёзмалардан бири саналади: ундан УСТОЗнинг табаррук бармоқ излари орқали илмга, фанга нисбатан юксак масъулияти, шогирдларга нисабатан меҳри, бағрикенглиги уфуриб турибди...

## ИЛМДАН ҲАҚНИ ТОПГАН ОЛИМ

*Назарова Саида Ахмеджановна,*

*Бухоро давлат университети доценти, ф.ф.н.*

Устозимни сўраганларида чексиз ифтихор ва умрим чечаклари сўнгунча миннатдорлигиму қарздорлигим сабабчиси Ҳамид Неъматов номи тилимга кўчади. Боиси илм кудуғини игна билан қазиган юзлаб шогирдлари таржимаи ҳолининг биргина сатрини исми-шарифи илмий раҳбар сифатида тўлдирадиган бу инсон Ҳақнинг нафақат биз–шогирдлар, балки ўзбек миллати, шу жумладан, миллионлаб илм толибларига берган неъматидир.

Бу неъматдан баҳрамандлик Р.Расулов, А.Ғуломов, Р.Сайфуллаева, О.Бозоров, Р.Сафарова, Б.Менглиев, Ш.Шаҳобиддинова, С.Ғиёсов, З.Хусаинова, М.Тўқсонов, М.Бошмонов, Н.Аҳматов, М.Абузалова, Ҳ.Саидова, Р.Салоев, И.Мадраҳимов, С.Назарова, Ш.Акрамов, Б.Қиличев, М.Саидова, Ё.Саидов, М.Файзуллаев, З.Юнусова, Д.Абдуллаева, З.Акобиров, А.Аҳмедов, Т.Асадов, Н.Ширинова сингари шогирдлар ва айни пайтда, Н.Қосимова (А.Ғуломов), И.Тошов (А.Ғуломов), М.Қурбонова (Р.Сайфуллаева), Г.Неъматова (Э.Умаров), Л.Раупова (Р.Сайфуллаева), Б.Ёров (Р.Сайфуллаева), Р.Бобокалонов (Р.Сайфуллаева), Л.Неъматова (Р.Сайфуллаева), Д.Йўлдошева

(Р.Сафарова) каби устозга издошларнинг шогирдларини илмий фаолиятда ўзбек тилшунослигининг назарий умумлашмалар босқичига кўтарилиш – Ҳамид Неъматов асос солган субстанциал, субстанциал-прагматик, градуал лингвистик таълимотларни бунёд этиш шарафига етказди. Илм аҳли эътироф этганидек, XX асрнинг 70-80 йилларида Ҳамид Неъматов тамал тошларини кўйган Бухоро тилшунослик мактабининг Мустақиллик даври ўзбек тилшунослиги тараққиётидаги тарихий ўрнини белгилаб берди.

Илм – Ҳақни излаш. Ҳақни излаш эса ўзликни излашдир. Ҳақни излаган абадиёт қонунларини топади: илмий ҳақиқатлар оламида ўзлигини кашф этади, демак, илм орқали ўзининг яралиш ва Ҳақнинг яратиш сабабиятию моҳиятини англайди. Ҳамид Неъматов лисон илми ҳақиқатларини излаш ва унинг қонуниятларини кашф этиш поёнида Ҳақни ва ўзини топган буюк инсондир. Устоз илм оламига кириб, ҳақиқат манзилларини кўзлаган шогирдлари – илм толибларига илм ўрганишдан мақсад – ўзини ва Ҳақни топиш машаққати алал-оқибат комиллик бахтига муяссар этишини ҳар бир сўзи, ҳар бир амали билан исботлаган чинакам олимдир. Илмий ишимнинг илк муҳокамасидан сўнг (Низомий номидаги ТДПИ ўзбек тилшунослиги кафедрасида ўтган) профессор М.Асқарова: “Сизни кўриб, нутқингизни тинглаб, устозингизни кўргандек бўлдим”, – деб айтганларида олимнинг сиймоси, умри, илмдаги “мен”и шогирдларида тажаллиланишига ишонч ҳосил қилдим. Лаҳзалик ҳайрат ва қувонч сабаби–аниқланган илмий ҳақиқатнинг тафаккурни ёритиб, қалбни тўлқинлантириши–бир умрлик лисоний тизим қонуниятлари моҳиятини англаш бахти эканлиги, инсон ҳаёти давомида тўқнашадиган барча муаммолар оддийгина диалектик қонуниятлар “калит”и билан ечилишини тушунган эдим. Профессор Неъматовнинг шогирди эканлигим эътироф этилганлигидан бўлса керак, жуда бахтиёр эдим ўшанда. Кейин ҳам Устоз билан ҳар бир суҳбатда, Устоздан сабоқ олиш асносида жонланиб, изланиш ва яратиш завқини бағишлаган кечинмалару ўйлар ҳаёт йўлимизни белгилаб берди.

Зеро, мен ва номлари тилга олинган шогирдлар Ҳақ берган неъмат – яратганнинг ўзинию ўзни таниш ва англаш бахтини Устоз Ҳамид Неъматов сиймосида – улуғвор инсон тақдирида илмнинг бемисл қимматию қудратини кўриш ва унга издошлик насиб этганлигидан бахтиёрмиз.

Ҳозир Устоз руҳан ва жисман Ҳаққа бирлашиб, абадий қонунлар мутлақлиги исботланганда ҳам буюк инсон, фавкуллода шахс, миллат фидойиси, моҳир педагог, зукко тилшунос, қомусий билим соҳиби, она тили таълими ислохотчиси, забардаст олим Ҳамид Неъматовнинг маърифатпарвар ғоялари мамлакатимиз илм-фанининг юксалиши ва таълим-тарбия тизимининг тараққиётига хизмат қилмоқда. Устоз ғояларининг тил илми ва таълимида бардавомлигини таъминлаш ҳамда бунёдкорлик анъаналарини давом эттириш издошлару шогирдларга масъулият бўлса, “Эл-юрт ҳурмати” ордени соҳиби Ҳамид Неъматов босиб ўтган йўл – элу юрт ҳурматини қозониш ибратдир.

Устоз хотира дафтарида *“Ўзини Ҳақ халифаси деб биладиган шахслардан ижтимоий зарурат ва тараққиёт йўналишини тўғри аниқлаган ва уққан, фаолияти билан бу тараққиётни тезлаштиришига интилганлар даҳо даражасига кўтарилади”*, деб ёзган эканлар. Назаримда, Ҳамид Неъматов *“ижтимоий зарурат ва тараққиёт йўналишини тўғри белгиланган ва уққан, фаолияти билан бу тараққиётни тезлаштиришига интилганлар”* сафида туришга ҳақли. Зеро, Ҳамид Неъматов қолдирган мерос – ўзбек тилининг жаҳон илму фани андазаларига тенглашувчи илмий-амалий тадқиқи жамулжам лингвистик таълимоти ҳамда унинг миллат онгу шуури ва маданиятини дунё тамаддуни чўккиларига кўтаришга арзигулик фаолияти билан бунга лойиқдир.

## УЧИНЧИ АВЛОД ТИЛШУНОСЛАРИНИНГ САРДОРИ

*Расулов Равшанхўжа,  
Ўзбекистон МУ профессори*

Ҳамид Ғуломович Неъматов – ҳақиқатан ҳам улуғ, буюк устоз, ҳазрати инсон, тенги йўқ олим эди. Ҳамид Ғуломович туркийшунос – тилшунос, адабиётшунос, методист ва шарқшунос сифатида ўз сўзига, ўз йўлига, ўз қарашига эга бўлган, илмий мушоҳадаси ниҳоятда кенг забардаст аллома эди.

Устоз ўзбек тилшунослигининг улкан дарғаларидан бири сифатида айнаи фанни ҳам диахрон, ҳам синхрон жиҳатдан мукаммал билувчи, ушбу йўналишларда баракали ижод қилган қалам соҳиби эди.

Устознинг лисоний ҳодисаларга фалсафанинг – диалектиканинг қонун ва категориялари нуқтаи назаридан ёндашиши, илмий тадқиқот йўналишида методология, методика ва методлар ҳақидаги ғоялари, тил ва нутқ диалектикаси юзасидан яратган ишлари, систем тилшунослик ҳақидаги ва бошқа асарлари унинг улкан олимлигининг яққол исботидир.

Биз – шогирдлар Устози аъзам бошлаб берган ғояларнинг давомчиси, тарғиботчиси сифатида алломанинг руҳи поклари олдида доимо таъзимдамиз.

## ТУРКОЛОГ ОЛИМ

*Қиличев Эргаш Ражабович,  
Бухоро давлат университети профессори*

Кафедранинг навбатдаги йиғилишини яқунлаб бўлгач, шу ҳафта орасида кафедрамизнинг яна бир аъзоси доцент Ҳ.Ғ.Неъматовнинг Боку шаҳрида докторлик диссертациясини ҳимоя қилиши ҳақидаги хушxabарни барча аъзоларга етказдим. Касбдошимизни моддий ва маънавий жиҳатдан қўллаб қувватлаш мақсадида уч-тўрттамининг Бокуга боришимиз кераклигини айтдим. Кафедра аъзоларининг таклифига мувофиқ мен, доцент В.Эгамбердиев, ўқитувчилар – З.Хусаинова, С.Ғиёсов, З.Қосимзодалар 1978 йил 18 ноябрда Боку шаҳрига етиб бордик. Аэропортда бизларни Ҳ.Неъматов кутиб олди ва шаҳардаги шинам меҳмонхоналардан бирига жойлаштирди. Худди шу куни Петроград шаҳридан диссертантнинг илмий раҳбари проф. С.Н.Иванов ҳам етиб келди.

Профессор С.Н.Иванов бизлар билан қисқача суҳбат қилиб бўлгач: «Биродарлар, мана, эртага Ҳ.Неъматов докторлик диссертациясини ҳимоя қилади. Унинг муваффақиятли чиқиши учун бугун бизнинг олдимизда қилинажак маъруза матнини яна бир қарра ўқитиб, машқ қилдиришимиз лозим», деб Ҳ.Неъматовга сўз берди.

Диссертант илмий тадқиқоти «XI-XII аср Шарқий Туркистон ёдномаларининг морфологияси» мавзуидаги диссертациясининг қисқача мазмуни билан таништирди. Қизгин савол-жавоб ва мунозаралар бўлиб ўтди, оқ йўл тиланди.

Касбдошимиз узок йиллар давомида ўзбек тили тарихий морфологияси масалалари билан тинмай шуғулланиб келарди. Ўз илмий изланишларини яқунлаб, 1978 йилнинг 20 ноябрида Бокуда Озарбайжон ФАнинг Насимий номидаги тилшунослик институти Илмий кенгашида «XI-XII аср Шарқий Туркистон ёдномаларининг морфологияси» мавзуидаги докторлик диссертациясини муваффақиятли ҳимоя қилди.

Диссертацияда XI-XII асрларда яшаб ижод қилган Юсуф Хос Хожиб, Маҳмуд Кошғарий, Аҳмад Югнакий асарлари морфологияси таҳлил этилади. Қадимги обидаларда сўз туркумлари, сўз ва форма ясалиши, айниқса, от ва феъл категорияларига хос хусусиятлар, уларнинг бугунги тилимизга муносабати кенг ёритиб берилади. Ана шу илмий муаммоларни ёритишда Ҳ.Неъматов туркологияда биринчилар қаторида янги –

диалектик методни қўлади. Ўзбек тилшунослигида эса «учинчи оралик» муаммосини биринчи бўлиб ҳал қилиб берди.

Диссертациянинг илмий ва амалий қимматини ўз вақтида академиклар – А.Н.Кононов, М.Шералиев, филология фанлари докторлари, профессорлар – С.Н.Иванов, Ж.В.Каграмонов, А.А.Ахундов, А.Ғ.Ғуломов, Ф.Абдуллаев, М.Мирзаев ва бошқа қатор олимлар объектив баҳолаган эдилар. Уларнинг фикр ва ишончлари тўла оқланди. Сафимизга ОАКнинг 1979 йил 14 сентябрдаги қарорига асосан яна бир фан доктори қўшилди.

Профессор Ҳ.Ғ.Неъматов Республикамизда маҳаллий тилшунос кадрлар етиштиришда улкан ҳисса қўшган олимдир. Унинг илмий раҳбарлигида жуда кўп фан доктори ва номзодлари етишиб чиқдилар. Айниқса, улар орасида олимнинг ҳар иккала кизи – филология фанлари номзоди Гулноз ва Лола Ҳамидовналарнинг борлиги қувонарлидир. Ҳозирги кунда бу иккала олима ота изидан бориб, унинг тугалланмай қолган илмий ишларини давом эттирмоқдалар.

Устознинг порлоқ хотираси унинг оиласи, шогирдлар ва дўстлари қалбида узок яшайди.

## **СЕРФАЗИЛАТ ИНСОН, БАҒРИКЕНГ УСТОЗ ВА ЗАБАРДАСТ ФИЛОЛОГ**

*Кувватова Дилрабо,*

*БухДУ профессори, ф.ф.доктори*

Талабалик ва аспирантлик хотираларимда ёрқин из қолдирган устозларим қаторида машҳур турколог олим, филология фанлари доктори, профессор, Бухоро тилшунослик мактабининг асосчиси Ҳамид Неъматовни ниҳоятда илиқлик билан эслаймман. Устоз бизга “Қадимги туркий тил” фанидан маърузалар ўқирдилар. Бу маърузалар кўпроқ бугунги ҳаёт билан боғланарди. Санкт-Петербург туркология мактабидан етишиб чиққанлари боис, уларнинг маърузалари эркин руҳда ўтарди. Домла Санкт-Петербургдаги устозлари номини оғиздан қўймасдилар. Мен ўшанда чин шогирдлик ва садоқат туйғуси ҳис этганман.

Пахта даврини жуда яхши эслаймман. Домла биз билан пахтага борардилар. Кечкурунлари шеърят давралари бўларди. Ҳамид Неъматов бу даврага фойз бағишлаб, Бедилдан тортиб Навоий ғазалларигача жуда гўзал ифода билан ёддан ўқир, биз, талабалар бундан ҳайратга тушардик. Ўша жозиб байтлар ҳали ҳам қулоқларим остида жаранглаб туради.

Ҳамид Неъматов ниҳоятда талабапарвар эдилар. Баҳо олиш масаласида домла бошқа устозларга деярли ўхшамасдилар. Эсимда, 2-курса домланинг раҳбарликларида курс иши ёздим. Гапнинг очиғи, домланинг кўрсатган йўл- йўриқлари туфайли мен грамматикага оид бир неча русча ва ўзбекча манбаларни сўз туркумлари бўйича солиштириб чиққанман ва шу асосда мўъжазгина ижодий иш пайдо бўлган. Курс иши маъкул бўлди, шекилли, устоз мавзуни давом эттиришимни таклиф қилдилар. Бироқ мен адабиётдан филология фанлари доктори, профессор Охунжон Сафаров билан ишлаётганимни айтдим. Домла бунга қаршилиқ қилмадилар, аксинча, мени руҳлантирдилар.

“Зиҳи ҳуснунг зуҳуридин тушиб ҳар кимга бир савдо”, деб бошланадиган ғазалнинг тасаввуфий моҳиятини домла орқали англашга ҳаракат қилганман. Аслида тасаввуф ҳақида озми-кўпми билганларим домла туфайлидир. Биз ҳозирги талабалар уйининг “Аспирантлар уйи” қисмида яшардик. Ҳозиргидай домлаларнинг навбатчиликлари ташкил этилган эди. Устоз Неъматов ҳам аввал талабалар томонни кўриб, сўнг биз томонга келардилар. Улар келишлари билан илмий ва адабий суҳбат бошланиб кетарди. Шоҳида Шаҳобиддинова (ҳозирда ф.ф. доктори, АнДУ профессори), Дармоной Ўраева (ҳозирда БухДУ профессори, ф. ф. доктори), Саида Назарова (ҳозирда

БухДУ доценти, ф. ф. номзоди), Илҳом Мадрахимов (ҳозирда Кўкон ДУ доценти, ф. ф. номзоди), Башорат Жамилова (ҳозирда БухДУ доценти, ф. ф. номзоди), Лайло Шарипова (ҳозирда БухДУ доценти, ф. ф. доктори)лар билан бирга бу қизгин баҳс бир пиёла чой устида узоқ давом этарди. Албатта, бу суҳбатларни устоз бошлаб туриб, бизнинг ақлимиз етмаган жиҳатларни байтлар, илмий манбалар орқали тушунтириб берардилар. Номзодлик ишимдаги фантастик асарларда комил инсон образи билан боғлиқ фаслни ёзишимда ана шу суҳбатлар туртки бўлган.

Мен устознинг ҳақиқий олим сифатидаги яна бир фазилатларини таъкидлагим келади. Ҳамид Неъматов бир неча тилни мукаммал эгаллаганлари билан бирга адабиётни, хусусан, Шарқ мумтоз адабиётини жуда чуқур билардилар ва замонавий адабиётга ҳам ўша юксакликдан туриб ёндашардилар.

Мен эътироф этишим керак бўлган яна бир жиҳат шундаки, узоқ йиллар домла билан Бухоро давлат университетиде устоз-шогирд бўлиб бақамти ишладим.

Юзида нур, бугун салобатида чин олимлик балқиб турган профессор Ҳамид Неъматов сиймосида серфазилат инсон, бағрикенг устоз ва забардаст филологни кўраман. Бугунги кунда мен илмда озми-кўпми ютуққа эришган бўлсам, олий мактабда сабоқ берган Ҳамид Неъматовдай фидойи устозларнинг заҳматли меҳнатлари туфайли деб биламан. Устознинг руҳлари шод бўлсин.

### УСТОЗДАН МЕРОС БИЛИМ

*Шаҳобиддинова Шоҳида,*

*Андижон давлат университети профессори,  
филология фанлари доктори*

Тоғларнинг баландлиги, улардан узоқлашганда, билинади. Ҳамид Ғуломович Неъматов ана шундай тоғлардан эди. Узоқлашган сари буюклашиб борувчилардан эди. Хотира қолдириш қийин. Инсонларнинг кундалик ҳаёти жуда тифиз кечмоқда. Нафақат ўтганларни, ёнимиздагиларни ҳам унутиб қўямиз гоҳида. Лекин Ҳамид Ғуломовични унутиб бўлмайди.

Биз ҳам анча ҳаёт йўлини босиб қўйибмиз. Домлани таниганимда 20 ёшли қизча эдим, бугун ярим асрлик довондан ўтдим. Ҳаёт йўлимда кўп инсонларни учратдим. Аммо Ҳамид Ғуломович феномени мени тоборо кўпроқ хайратга солмоқда. Мен билган инсонлар ичида хотирасининг кучлилиги, мушоҳадасининг ўткирлиги, меҳнатда ҳормаслиги билан бу шахсга тенг келувчилар кам. Шахс сифатида ҳам ноёб эдилар: шунча билимлари бўлгани ҳолда маиший соҳада жуда содда эдилар: савдо-сотикданку умуман йироқ эдилар. Олдиларига келган шогирдларига баъзан: “Манави ғаладонда пул бор, керак бўлса, олинг” – деб ҳам қўярдилар. Турмуш ўртоқлари, қизлари домланинг шогирдларига жуда хайрихоҳлик билан қарардилар.

Илм борасида Домладан мутолаа сирларини ўргандим, ҳаётда моҳият ва ҳодисани фарқлаш – нафақат илмда, балки ҳаётда ҳам масаланинг ботинига қарашга интилиш ҳаётини қатъиятим бўлиб қолди. Бугун ўйлаб кўрсам, Устоз ҳаётнинг кўпчилик билмайдиган сир-синоатларини англаб етган эканлар. Лекин биров билан дардлашмай, сирлашмай бу фоний дунёга доир билимларини сақлаб юрганга ўхшайдилар. Баъзан хонанишин бўлиб қолишлари ҳам шундан бўлса керак. Домла агар 100-200 йил олдин туғилганларида, ўзларига ҳаммаслақлар топган, илмий суҳбатлар қурган, дунё жумбоқлари жавоб излаган, айрим муаммоларга ечим топиб қўхна Бухорои шариф дунёга яна бир пири комилни етказган бўларди. Аммо Ҳамид Ғуломовичнинг замонавий илмга қўшган ҳиссаси ҳам бекиёсдир.

Ҳамид Ғуломович тил бирликларида моҳият ва ҳодиса, умумийлик ва хусусийлик, жузъ ва куллини изчил фарқлаганлар.

Тилни ўрганишда диалектиканинг асосий – қарама-қаршиликлар бирлиги ва кураши қонуни катта аҳамиятга эга. Ҳар қандай тил бирлиги муайян қарама-

қаршилиқлар (зиддиятлар, оппозициялар) тизимида ҳаёт кечиради. Унинг ҳаётини ички зиддиятлар таъминлайди. Диалектик зиддият тил ҳодисаларнинг нутқий ва лисоний кўринишларида бирдай мавжуд бўлади. Моҳиятан тил бирликлари зиддиятли иккиланган бўлиб, уларнинг бу табиати турлича намоён бўлади:

биринчидан, ҳар қандай тил бирлигининг икки қатор зиддиятли муносабатларга кириша олишида;

иккинчидан, уларнинг ҳам семантик, ҳам синтактик хусусиятларга эгаллигида, яъни тил бирлиги моҳиятининг зиддиятли иккиланганлигида...

Демак, тил бирлиги моҳиятини англаб етиш учун унинг хусусий кўринишларидан умумий томонини аниқлаш (синтезлаш), бу умумийликнинг зиддиятли табиатини ёритиш (компонент таҳлил йўли билан анализ қилиш), ва унинг зиддиятли муносабатлар тизимини тиклаш (оппозицияга қўйиш) лозим.

Тадқиқотларимизда Устоздан мерос шу қарашларни давом эттириб келмоқдамиз.

## ЭЛ-ЮРТ ҲУРМАТИГА САЗОВОР УСТОЗ

*Ширинова Нилуфар Джаббаровна,  
Ўзбекистон Республикаси Жамоат  
хавфсизлиги университети Тилларни  
ўрганиш кафедраси доценти, филология  
фанлари номзоди, доцент*

“Ҳақиқий инсон бировга (атай) ёмонлик тиламайдиган, бировнинг кўнглига озор бермайдиган кишидир” деган ғояни ўз ҳаётий шиорига айлантирган ва бутун умри давомида шунга нафақат амал қила олган, балки авлоду издошлари, шогирду ҳаммаслақларини ҳам шу тамойил масъулиятига ўргата олган чинакам Ҳаёт Мураббийи – Устоз **Ҳамид Ғуломович Неъматов** ўзларидан Бухоро тарихида ўчмас из, шогирдлар қалбида улкан маънавий хазина қолдириб кетдилар.

Устознинг камтарин, самимий ва беғубор нигоҳлари ҳеч кўз ўнгимдан кетмайди – мен бу кўзларда ҳеч қачон жаҳл, адоват ва ё кибр белгиларини кўрмаганман. Аксинча, ҳаттоки баъзида илмий/таълимий/касбий жабҳаларда ўзларига боғлиқ бўлмаган вазият, балки тақдир тақозоси билан юзага келувчи ёқимсиз ҳолатларда ҳам – асосан, сукут сақлаш, чуқур ўйга чўмиб, масалани тезкор муҳокама қилиш ва хулоса яшадан чекланардилар, лекин зинҳор-базинҳор жаҳлга берилиш/бирова озор беришдан сақланар эдилар. Ўта нозик қалб ва нозик таъб эгаси бўлишларига қарамай, жуда камтарин ва бағрикенг бўлганликлари учун домланинг олдидан маслаҳат, йўл-йўриқ сўраб келгувчилар кети узилмасди. Ажабланарлиси, домла ёш тадқиқотчиларга шундай пухта ўғитлар берардиларки, биз – шогирдлар – уларнинг олдинни кўра билишдек истеъдодлари, ўз таъбирлари билан айтганда, дурбинлик хислатларига хайрон қолар эдик. Ҳақиқий илмий раҳбарларга хос талабчанлик, ҳар бир ишни ўз вақтида ўз ниҳоясига етказиш борасидаги пунктуалликни шундай бир назокат, юксак дид ва касбий/илмий этикет билан сингдирар эдиларки, бу уларнинг юқори маданият ва савияга эга эканлигидан дарак берар, бизнинг қалбимизда ҳавас уйғотар эди. Бинобарин, юксак ақлу заковат соҳиби бўлмиш устозимизнинг нафақат филология ва тилларни ўрганиш, балки тил услубиёти соҳасида ҳам ўша пайтда илгари сурган ғоялари бугун ўзининг самарадорлиги, ишончилиги, умрбоқийлиги билан ўз исботини топмоқда; домланинг нафақат туркийшунослик, балки Оврўпо тилларини кузатиш асосида эришган натижалари бугун қатор муваффақият билан қарши олинаётган тадқиқотларда методологик асос вазифасини ўтамоқда.

Ҳамид Ғуломович ноёб истеъдод, феноменал хотира эгаси, қомусий олим, йирик туркийшунос мутахассис сифатида нафақат бизнинг диёрда, балки хорижлик забардаст олимларнинг ҳам ишончини, ҳурмат-эътиборини қозона олган эдилар. ...Эсимда, 2009 йил, номзодлик ишимни деярли тугатиб, тадқиқот натижаларини хорижда ҳам эълон

қилиш зарурати туфайли кўплаб хорижий илмий нашрларга мурожаат қилганимда (қискача резюмеда тадқиқотчининг илмий иши, илмий раҳбар/маслаҳатчи, ташкилот номи кабиларни кўрсатганда) – Озарбайжон, Туркия, Германия каби давлатларнинг йирик илмий нашрларида фаолият юритувчи, таянч илмий марказларнинг етук мутахассислари домланинг соғлиги, аҳволи ҳақида сўрар, уларга саломларини йўллар эди... бундан, шубҳасизки, менинг кўксим чексиз фахр-ифтихор, ҳавас ва эҳтиром ҳисларига тўлиб кетарди... Ҳамид Ғуломовичнинг чек-чегара, сарҳад ва миллат билмас чексиз қуввайи ҳофизаси, худодод истеъдоди ва заковати қудратидан бир мисол эди бу гўё.

Устоз билан ишлаш чоғида ҳам, улардан кейин олиб бораётган фаолиятимизда ҳам “Устоз отангдек улуғ” деган ҳикматли иборанинг моҳиятини тобора чуқур англаб бормоқдамиз. Чунончи, домладан – улар томонидан очиб берилган мустаҳкам илм дарвозалари орқали – тилшуносликда асослари борлиқ – инсоний тафаккур – тил муносабатларига бориб тақаладиган диалектик таҳлил кўникмаси; таянч нуқта (асоси)ни топса, бутун бошли тил унсурларини лисоний онг уячаларида даражавий кўринишларда сақлаш ва таҳлил этишдек исбот талаб қилмас ҳақиқатлар қолди мен учун... Тил илми, лисоний операцияларнинг моҳияти – *“ўхшамаслар орасидаги ўхшашликларни топиш/ажратиш/аниқлаш”* («...*найти подобное среди неподобных*» – Х.Ғ.)дан иборат эканлиги каби маърифат қолди мен учун...

Устозни бекорга “Ҳаёт Мураббийи” деб атамаймиз, чунки улар ҳаёти/илмий дунёси/касбий фаолиятига алоқадор бўлган ҳар бир кишининг умргузаронлиги, кайфияти ва орзуларига бефарқ бўлолмадилар (чунончи, ўзлари ҳам лоқайд ва бефарқ инсондан ёмон(рок)и йўқ деб ҳисоблардилар). *“Инсон бу дунёга бахтли бўлиш учун келади”, “Бахтли бўлмоқчимисиз, Бўлинг (!)”* («*Хочешь быть счастливым, Будь (им) (!)* – Х.Ғ.»), *“Бахтга эришиш ҳар бир кишининг ўз қўли, тилагида”* дердилар. Бу каби ҳаётбахш, синовларда тобланган фикрларини ўша йилларда балким тўғри англаб етмагандек, асл моҳияти ва вазифасини тўлиқ тасаввур қилолмагандек туюлади менга..., лекин ёшимиз ўтиб бораётган, ҳаётий ҳақиқатларни тобора чуқурроқ англаб бораётган айни дамларда устознинг ушбу хитоблари нафақат мен, балки менга алоқадор бўлган инсонлар ҳаётида ҳам бунёдкор кучга, улкан мотивацияга айланиб бораётганлигининг ўзи шодлантиради. Аслида умримизнинг турли зиналарида босаётган нек қадамларимиз, шогирдларимизнинг миннатдор нигоҳлари учун Ҳамид Ғуломовичдек илмий мураббий, маънавий раҳнамодан қарздормиз!

Мен Ҳамид Ғуломовичдек “эл-юрт ҳурматиға сазовор устоз”нинг қатор шогирдларидан бири бўлганимдан фахрланаман. Устознинг хотиралари ҳар кун, ҳар он қалбимизда, шууримизда яшайди.



## ҲАМИД НЕЪМАТОВ: ОНА ТИЛИ — МИЛЛИЙ ОНГ МАНБАИ

Филология фанлари доктори, профессор Ҳамид Неъматов 1941 йилнинг 21 ноябрида Бухоро шаҳрида туғилган. У тажрибали амалиётчи, филология фанлари доктори, БухДУ профессори Асқар Ғуломов билан ҳамкорликда республикамиз умумтаълим мактаблари юқори синфларида расмий равишда амалга жорий қилинган V-VIII синфлар “Она тили” дастур ва дарсликлари муаллифидир.

**—Ҳамид ака, биринчи ўқитувчингизни эслайсизми? Улар қайси жиҳатлари билан сизда ўчмас, илиқ таассурот қолдирган?**

—Бу саволингизга жавоб беришим жуда қийин. Мен беҳад бахтиёр кишиман, чунки жуда кўп мураббий ва ўқитувчилар, устозлар менда ўчмас таассурот қолдиришган. Билимга қизиқиш, сўзда яширинган маънони уқиш, зоҳирий ва ботиний маъноларни уқишга майл менда 6-9 ёшлигимда отам Ғуломқодир Неъматуллабой Авазбойи Урганжий ўғлининг меҳмонхоналарида бўладиган қизгин баҳсу мунозаралар, хамсахонлик, шоҳномахонлик, ҳофиз ва бедилхонлик, навоийхонликлар жараёнида шаклланган. Отам мусулмон одатига кўра, 4 ёшу 4 ойлигимда алиф ва абжадни ўргатган эдилар. Шунинг учун илк ўқитувчиларим деб отам ва у кишининг давраларида бўлган орифларни биламан. Улар қаторида албатта шоиртабиат, жуда кучли хотира соҳибаси онам — Муҳаббатбону менга Ҳофиз, Бедил, Навоий, Фузулий ғазалларида байтнинг ташқи (ишқий) ва ички (илохий) мазмунини уқиш йўлларини ўргатганлар. Бу ўқитувчилар туфайли мен зоҳирийликка берилмаслик, фаҳмга берилмаслик, ўйлаб, фикрлаб, зоҳирий замирида яширинган ботинийни очишни, фаҳмни идрок билан баҳолашни, ҳодиса остида ётган моҳиятни кўришга интилишни англадим.

Мактаб ўқитувчиларимдан менинг қалбимда сўнмас, ўчмас из қолдирган сиймо адабиёт ўқитувчимиз, эски мактаб билан бирга Абдурауф Фитратнинг жадид мактабида таълим кўрган, яқка суҳбатларимизда соатлаб “Хамса”дан парчалар ёддан ўқийдиган, Кумушнинг Отабекка хатини сўзма-сўз айтиб берган, 1954 йилда “Тамила”нинг ислоҳ этилган арабча нашрини, “Ўтган кунлар”нинг, “Техрони маҳуф”нинг лотинча нашрларини яширинча бериб ўқитган юксак билим ва заковат эгаси Амон Бакиров бўлганлар. Мактабнинг юқори синфларида мен севган ва мени севган ўқитувчиларим Надежда Зенкина, Раҳмат Қосимов, Маҳди Носиров, Бўри Мирхонов, Ҳусайн Чўлибоев каби билимдон мураббийлар катта таъсир кўрсатдилар ва тарбия бердилар.

**— Ўзбек тилига қизиқишингиз, тил билан боғлиқ илмий тадқиқотлар олиб боришингизга қандай омиллар туртки берган?**

— Бу омиллардан асосийларини санаб ўтдим — отамнинг меҳмонхоналаридаги зиёлиларнинг мумтоз асарларимиз, адиблар, ғазал ва баъзан бир байтдаги битта сўз устида бўлган баҳсу мунозаралар менда болаликдаёқ адабиётга, сўзга муҳаббат уйғотган эди. Бу ерда тахминан 7-8 ёшлигимда рўй берган бир воқеа ва 1995 йилда ҳимоя қилган шогирдларимдан бири — Шоира Орифжонованинг “Ўзбек тилида градуонимия” мавзусидаги номзодлик диссертациясини эслаш кифоя.

Меҳмонхонадаги суҳбатларнинг бирида (бу суҳбатда эсимда, Шоназар Соҳибов ва домла Ҳалим Ибодов каби машшоқлар ҳам иштирок қилган эдилар) баҳс бу дунёнинг азоблари оғирми ёки у дунёда дўзах азоблари оғирми, деган мавзуда бўлди. Айримлар дўзах азоблари даҳшатларини муболағалар билан тасвирлай бошладилар. Суҳбатга Шайх Зангула аралашдилар ва бу дунё азоблари у дунё азобларидан оғирроқ эканлигини тушунтирдилар. Биринчи асослари, биз у дунёда Ҳаққа бу дунёдагидан кўра яқинроқ турамыз, шунинг учун азоб ҳам енгилроқ бўлади. Чунончи, дўзах ўти мусулмонга саратон кўёшидек таъсир этади. Шайх фикрларини Мир Алишердан бир байт келтириш билан асосладилар:

**Бордур Навоий бекасе, ўт ичра андоқ ким хасе,  
Чун ўртадинг они басе, кўйдурма дўзахда яно.**

Шайх шарҳладиларки, бу дунёда одам ўртанар, дўзахда эса куяр. Ўртанмоқ сўзида маъно (ёниш, кўйиш) кўймоқдан кўра кучлидир. Шунинг учун у дунё азоби (жумладан, кўйиш) бу дунё азобидан (жумладан, ўртанишдан) енгилроқдир.

Шундай бир шарҳ бора-бора сўзларда маънонинг даражаланиши масаласини ўртага кўйишга, унинг тасодифий эмас, балки қонуний бир ҳол эканлигини очишга (қиёсланг: тузук-дуруст-яхши-ажойиб; кулба-ҳужра-хона-уй-ҳовли-қаср-сарой-кошона; гулоби-пушти-қизғиш-қизил-қирмизи-алвон), жаҳон тилшунослигида биринчилардан бўлиб ўзбек тилшунослигида даражаланиш — градуонимия масаласини кўйишга асос бўлди. Ўзбек тилшунослигида яратилган бу атама ва тушунча ҳозирги кунда рус тилшунослигига ҳам кириб борди.

Мен Ленинград университети талабаси бўлгунимча адабиёт ва тил орасидаги фарқни билмас эдим. Мен учун бу иккиси бир нарса эди. Университетдагина мен тилшунослик ва адабиётшунослик фарқланишини тушуниб етдим ва тилшунос бўлишга қарор қилдим. Бунинг сабаби, шубҳасиз, шоир, таржимон, ўзбек тили билағони, файласуф ва мутафаккир Навоийнинг мафтуни, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган фан арбоби ва маданият ходими, “Лисонут тайр”ни бевосита ўзбек тилидан рус тилига ўгиришга йигирма йиллик умрини бағишлаган, унинг мураккаб фалсафасини рус китобхонига етказишга интилган, славянлар тери ёпиниб юрган пайтларида ўзбеклар қанчалик мураккаб диалектик талқинларни олдинга сурганларини Европага кўз-кўз қилган фидойи олим Сергей Иванов таъсирига берилганлигим бўлди. Чукни С. Иванов суҳбати тимсолида мен отам атрофидаги орифлар суҳбатида ҳамиша мунозара манбаи бўлган ҳодиса ва моҳият ихтилофи инъикосини кўрар ва сезар эдим. Университетда биринчи ўқув жараёнидан кейинги бўлган суҳбатда – устоз менга туркий тилшунослик, жумладан, ўзбек тилшунослиги ҳодисалар тавсифи билан чекланиб қолганлиги, асосан, фаҳм асосида иш кўриши, шунинг учун мактабда ҳам, университетларда ҳам айнаи бир нарса – курук грамматик ҳодисаларни зўрма-зўраки ёдлаш ҳукмронлик қилаётгани, бу мактаб болаларида тафаккур учқунларини сўндиришга, идрокнинг заифлашишига олиб келаётганлигини уқтирди. Фикрларини “Лисонут тайр”дан келитирилган “Қосир этди фаҳмдин идрокни” (Фаҳм, зоҳирий билим идрокни қусурли, чекланган қилди) байти билан асослаб, ўзбек тилшунослигини назарий жиҳатдан янгилаш зарурлигини, бунинг учун диалектикани чуқур ўрганиб, ундан тил ҳодисалари тадқиқи жараёнида амалий фойдаланиш зарурлигини уқтирди. Бу суҳбат менинг ҳаётимда тарихий воқеа бўлди. Шундан сўнг мазкур мавзу бўйича шуғулланишга киришдим ва расмий илмий раҳбарим сифатида академик Андрей Кононов, амалий раҳбарим сифатида Сергей Ивановлар тайинландилар.

Мен эркин дарс жадвалига ўтдим, чет тилларни ва фалсафани ўқишга катта эътибор бердим. Диалектик мантик, диалектик категорияларнинг ўзаро муносабатлари, структурал тилшунослик асослари, VIII-X асрларда жуда ривожланган араб тилшунослиги ютуқларини ўрганиш, тил ҳодисаларини турли йўл ва усуллар билан тадқиқ этиш малакаларини ҳосил қилиш мен учун ўзбек тили тилшунослиги олдида турган катта вазифаларни кўра олиш имконини берди ва тилшунос бўлишимга туртки бўлди.

Лекин 70- ва 80-йилларгача менинг режаларимда мактаб дастурлари ҳеч қачон турган эмас. Бунинг сабаблари бор эди. Биринчидан, мен ҳам, устозларим ҳам қатор илғор дидактлар (таълим назариётчилари) ҳам шўро мактаби таълими оммавий саводсизликни тугатиш (ёки оммавий саводхонликни таъминлаш) мақсад, мазмун ва усули билан чекланиб қолганлигини, бу вазифалар 50-йилларга келиб бажарилишига қарамай, турғунлик қатъият билан сақлаётганлигини, уни ўзгартиришга ҳаракат шўро тузумига қарши ҳаракат сифатида баҳоланишини жуда яхши тушунардик.

Иккинчидан, 30-йиллардан кейин шўро ҳукуматига оммавий равишда бунёдкор шахс эмас, балки билимдон ижрочи керак бўлди. Жамиятга мустақил ва эркин фикрловчи шахс ортиқлик қилар эди: унга “Доим тайёр!” шиорига амал қилувчи роботлар зарур эди. Мактаб уларни етиштириб берарди. Мактаб соҳасидаги барча янгиликлар фақат мана шу йўналишда – яна ҳам яхшироқ, яна ҳам чаққонроқ роботларни, “ижрочи солдатлар”ни етиштириб чиқариш йўналишида бўлиши асосий мезон эди. Бу ҳаёт, диалектика талабларига зид сиёсат эди. Собиқ Иттифокда қайта куриш ҳаракати бошланиб, иқтисодий, сиёсий, мафкуравий янгиланиш зарурати расман тан олинган, Ўзбекистон Халқ таълими вазирлиги ўзбек тилидан таълим мақсади, усули ва мазмунини янгилаш масаласини муҳокамага чиқарди. 1987 – 89 йилларда матбуот саҳифаларида қизғин мунозаралар бошланди. Бу орада Истиқлолга илк қадамнинг қўйилиши, 1989 йилнинг 21 октябрида “Давлат тили тўғрисида”ги қонуннинг қабул қилиниши фанимиз ва таълимимиз ривожига туб бурилиш ясади. “Давлат тили тўғрисида”ги қонун она тилимизни ўчоқ боши ва кўча-гузар, бозор-ўчар тилидан Давлат тили даржасига кўтарди.

Аслида қонун тилнинг ижтимоий ва сиёсий мавқеини ҳам ўзгартира олади. Тимсолан айтганда, жангчи ёки ишчи қўлига қуролни беради. Қурол қўлда бўлсаю, ундан унумли фойдаланиш малакаси ва кўникмаси бўлмаса, бундай қуролдан ҳеч қандай фойда йўқ. Отишни билмайдиган кимсанинг қўлида милтиқ бўлгандан кўра, оддий калтак бўлгани афзал. Қонун тилшунослигимиз ва методикамиз олдига ижтимоий-сиёсий мафкуравий жуда зарур масалани қўйди. Биз миллий онг қуроли – она тилимизни ҳаётимизнинг барча жабҳаларида унумли ва гўзал қўллаш, тил амалиётини кенг оммага сингидиришимиз, ҳар бир фуқарога – ёшми, қарими, ишчими, зиёлими ким бўлмасин, тилимизнинг чексиз имкониятларини, гўзал тасвирий воситаларини, бир фикрни минг усулда ифодалай олиш қобилиятини очиб беришимиз, улардан баҳраманд бўлишга кенг йўл очишимиз зарур эди. Шунинг учун дастлабки режада кескин бурилиш ясалди – кун тартибига она тили таълимининг янги мақсадга – ўқувчиларда мустақил ва ижодий фикрлаш қобилиятини ривожлантириш ва ижодий фикр маҳсулини нутққа мос равишда тўғри ва равон баён қилиш малакаларини ҳосил қилишга ёрдам бериш муаммоси қўйилди. Бу ўзбек миллатининг, ўзбек миллий онгининг, ўзлигининг қайта тирилиши эди. Бу ишга миллатнинг энг сара кучлари, бутун имкоинятлари жалб этилиши зарур эди. Шунинг учун Республика Халқ таълими вазирлиги ҳузурида “Ўзбек тили” доимий анжумани таъсис этилди, унга барча олимлар, омилкор ўқитувчилар, таълим бошқармалари, нашриёт ходимлари, ижодкор, ташаббускор ўқитувчилар жалб қилинди. Она тили ва адабиёт ўқитувчиларининг энг катта байрами сифатида ҳар икки йилда ўтказиладиган бу анжуман йиғинларининг ҳар бирида мингдан ортиқ мутахассис иштирок этади, 500 тагача маъруза муҳокама қилинади, ўнлаб тавсиялар ва қўлланмалар нашр этилади, чигал муаммолар ечими биргалашиб ҳал қилинади. Ҳозирги кунгача бу анжуманнинг олти та тантанали йиғини ўтказилди. Навбатдаги йиғинга эса жадал тайёргарлик бормоқда.

— **Сизнинг она тили дастур ва дарсликларини янгилаш жараёнидаги ташаббускорлигингиз, фаол иштирокингиз газетхонларимизга яхши маълум. Дарсликлар муаллифи сифатида қандай манбаларга таяндингиз?**

— Бу манбалар жуда кўп. Айрим характерлиларини санаб ўтаман. Биринчидан, Европанинг илғор давлатларида бозор иқтисодиёти муносабатларига ўтилган 50-йиллардан кейин бу давлатларда таълимни дедуктив-позитивизм-билимдон ижрочини тайёрлашдан когнитив — онгли фикрловчи, тадбиркор шахсни тарбиялаш йўналишига ўтказиш зарурати сезилди. 60—70-йилларда Буюк Британия ва АҚШда когнитив психология ва педагогика кенг ривожланди. Бу йўналишда Д. Приор, Ф. Робинсон каби инглиз ва америкалик олимларнинг қисман, академик В. Давидов, М. Львов, Л. Добраев каби рус психолог ва дидактларнинг вербал ва муаммоли таълим йўналиши бўйича изланишлари натижалари биз учун она тили таълими технологияси, усули, бунда ўқувчи-ўқитувчи муносабатини белгилашда манба бўлди.

Иккинчидан, ўзбек тили грамматик қурилишининг русча талқини тилшунослигимизда 50-йилларнинг охиридан бери танқид қилиниб келинади. Лекин бундай талқинлардан воз кечишга юқорида эслатиб ўтилган “таълим тизими бир хиллиги” монелик қилиб келарди. Истиқлол шарофати билан бундай тўсиқ барҳам топди ва грамматик талқинларни туркийда имконияти яратилди.

Учинчидан, Истиқлол шарофати билан миллий қадриятларга муносабат тамоман янгиланди. Миллий истиқлол ғояси, миллий ғурур туйғуси, ватанпарварлик ҳисси, қадриятлар, анъаналар, динимиз, удумларимизга ҳурмат, бу йўналишда Юртбошимиз Ислон Каримовнинг кўрсатмалари дарсликлардаги ўқув материалларини янгилашда яна бир манба бўлди.

Дарслик материалларини янгилашдаги яна бир манбаълардан бири ўзбек тилшунослигининг ифода воситалари ранг-баранглиги ва ички имкониятлари ҳақида қўлга киритган ютуқларидир.

— Халқда “**Ҳамма нарсани вақт кўрсатади**”, деган пурмаъно ҳикмат бор. Сизлар яратган дарслик ва дастурлар ҳам ана шундай ҳаёт синовидан ўтмоқда. Табиийки, вақт инсоннинг тасаввурларини, қарашларини ҳам бойитиб, кенгайтириб боради. Шу нуқтаи назардан қараганда, яратган дастур ва дарсликларингиз сизни қониқтирадимиз?

— Қатъий ва қисқа жавоб берсам, “мутлақо йўқ!”. Бунинг сабаби, аввало, бу дарсликлар эски дарсликлардан большевистик таълим усулидан когнитив таълим усулига ўтиш даври дарсликларидир. Биз жуда кўп ҳолларда “орқага қараб ишлаш”га мажбур эдик. “Эски”нинг таъсири дарсликларимизда керагидан анча ортиқча. Жумладан, илмий грамматик материал. Уни яна ҳам қисқартириш зарур. Лекин ҳозир унинг мавруди эмас. 60 йил давомида биз она тили дарсларида нуқул илмий грамматика билан шуғулланиб келдик. Бирданига ундан воз кечиш учун она тилимиз ҳақида етарли даражада тўпланган, сараланган ва ўқиш-ўрганиш жараёнига мослаштирилган ахборот банки (жамғармаси)га эга эмасмиз. Ҳозирда каттагина илмий-методик жамоа дарсликларни такомиллаштириш устида жиддий иш олиб бормоқда. 2003-йилда дарсликларнинг тузатиш ва тўлдирилган вариантларини тайёрлаш режалаштирилган.

— **Сухбатимизни анъанавий савол – “Маърифат” ўқувчиларига истакларингиз билан якунласак.**

— Муаллимларнинг ўзларига ва ўқувчиларига муносабатларни тамоман янгилашларини истар эдим. Ҳақ Таоло “Мен фарзандни ота-онадан, шогирдни устоздан устун қилиб яратаман”, деган экан. Ўқитувчилар шогирдлари улардан ўзиб кетиши шартлигини ва уларни шунга тайёрлашлари лозимлигини ҳамиша кўз олдиларида сақлашлари керак. Иккинчидан, тўхтаган сув жуда тез айниб қолишини эсдан чиқармасликлари зарур. Ўқитувчи ҳамиша оқар сув бўлмоғи зарур, чунки у ҳаёт — маънавий ҳаёт булоғи.

Газетхонларимиз асосан ўқитувчилар, мен уларга ҳеч қачон тўхтаб қолмасликни тиламан. Яна бир тилагим: ёшларимиз ижодий тафаккур машъалига соҳибликни қўлларига берган истиқлолни асрашсин. Қадриятларимизни, тилимизни, ўзлигимизни қайтадан тирилтирган Миллий истиқлол ғояси ҳамиша уларнинг ҳаётий йўлларини ёритиб турсин!

— **Самимий сухбатингиз учун раҳмат. Фурсатдан фойдаланиб Сизни муштарийлар номидан 60 ёшингиз билан табриклаймиз.**

**Жаҳонгир ИСМОИЛОВ** сухбатлашди.  
(Мазкур сухбат “Маърифат” газетасининг 2001 йил 20 октябрь сонидан  
“Меҳмонхона” рукни остида берилган)

# O‘ZBEK TILINING LINGVISTIK MA’LUMOTLAR BAZASINI SHAKLLANTIRISHDA “TURKIY MORFEMA” PORTALI INSTRUMENT SIFATIDA

## “TURKIC MORPHEME” PORTAL AS AN INSTRUMENT IN FORMING THE LINGUISTIC DATABASE OF THE UZBEK LANGUAGE

DOI: 10.53885/edinres.2021.96.64.071

*Ayrat Gatiatullin Rafizovich<sup>1</sup>,  
Nilufar Abduraxmonova Zaynobiddin qizi<sup>2</sup>*

**Annotatsiya.** Turkologiya va agglyutinativ tillar tipologiyasi sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishda tillarning strukturaviy va funksional xususiyatlarini hisobga oluvchi dasturiy ta’minot bo’lishni talab qiladi. Ushbu maqolada o‘zbek tilining, umuman olganda, turkiy tillarning asosiy xususiyatlarini o‘zida jamlagan “Turkiy morfema” veb-portalining lingvistik uskuna sifatida kompyuter lingvistikasi va tillar tipologiyasidagi tadqiqotlar uchun lingvistik ma’lumotlar bazasi vazifasini o‘tashi o‘z ifodasini topgan. Ushbu portal turkiy tillar morfemalarining tarkibiy-parametrik funksional modeli asosida yaratilgan bo‘lib, turkiy tillarning lingvistik sathlari: morfologik, sintaktik va semantik turkumlarini tavsiflovchi maxsus lingvistik ma’lumotlar bazalarini o‘z ichiga oladi.

**Abstract.** Development of scientific research in fields of turkology and agglutinative languages typology requires such software that take into account the structural and functional features of languages in question. This paper describes the development of Turkic Morpheme web portal, a toolkit that takes into account core features of Uzbek and other Turkic languages and meets the requirements for research activities in computational linguistics and typology. This portal was created on the basis of the structural-parametric functional model of the Turkic morpheme and contains special linguistic databases that describe the categories of Turkic languages at different levels: morphological, syntactic, and semantic. The portal can also be used in educational process as a reference system for Turkic languages.

**Kalit so‘zlar** - til resurslari, morfema, kompyuter lingvistikasi, tadqiqot dasturlari, turkologiya, lingvistik resurs

### I. KIRISH

Hozirgi kunda turkiy tillarni kompyuterda qayta ishlovchi tadqiqotlar integratsiyasi mavjud emas. Ushbu holat ilmiy tadqiqotlarda ko‘plab lingvistik modellar va manbalarni takrorlash, shuningdek, barcha turkiy tillar uchun umumlashtirilishi mumkin bo‘lgan masalalarni qayta ishlovchi dasturlarni boshidan boshlab yaratish kabi holatlarida kuzatiladi. Elektron resurslarni hamkorlikda amalga oshirish uchun ilmiy izlanishlarni birlashtirish, turkiy tillar uchun lingvistik dasturiy ta’minotni yaratish vazifasini umumlashtirish dolzarb sanaladi. Bu ham iqtisodiy, ham inson mehnati va resurslarini tejashga, ilmiy izlanishlarni hal qilinmagan boshqa muammolarga yo‘naltirishga, turkiy tillarni qayta ishlash texnologiyalarini o‘rganishda muhim sanaladi. Natijada turkiy tillarning leksik va grammatik xususiyatlariga asoslangan yangi axborotni qayta ishlovchi texnologiyalarini yaratishga imkon beradi.

Shunday yo‘nalishlardan biri turkiy tillarning lingvistik tipologik tadqiqotlari va ularning kompyuterda qayta ishlash texnologiyalarini birlashtirish zaruriyatidir. Lingvistik uskunalar shunisi bilan muhimki, bir tomondan turkiy tillarning strukturaviy - funksional imkoniyatlari, shuningdek, xususiyatlariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarni olib borishga imkon bersa, yana bir jihati kompyuter lingvistikasidagi umumiy va xususiy ilmiy tadqiqotlar uchun amaliy ahamiyatga ega ekanligi bilan ham ahamiyatga ega.

---

<sup>1</sup>Tatariston Respublikasi fanlar Akademiyasi qoshidagi Amaliy semiotika instituti yetakchi ilmiy hodimi [ayrat.gatiatullin@gmail.com](mailto:ayrat.gatiatullin@gmail.com)

<sup>2</sup> Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti “Amaliy tilshunoslik va lingvodidaktika” kafedrasida dotsenti, f.f.d. PhD [anilufar@navoiy.uni.uz](mailto:anilufar@navoiy.uni.uz)


## II. LINGVISTIK DASTURIY TA'MINOTLAR

Quyida tilshunoslar uchun axborot tizimlari vazifasini bajaruvchi ko'p tilli ma'lumotlar bazalarining ayrimlari bilan tanishib chiqamiz.

Ko'p tilli ma'lumotlar bazalari va dasturiy ta'minotlar turli tillar, til birliklari, dunyo tillarining xususiyatlari va hodisalarni tasniflash uchun samarali tipologiya vositasini bajaradi. Bunday lingvistik uskunaga "Global leksikostatistik ma'lumotlar bazasi"ni misol sifatida keltirish mumkin [1]. Ushbu ma'lumotlar bazasi dunyo tillarining asosiy so'z boyligini o'zaro solishtirish uchun muhim manbalardan biri sanaladi. Bu shvedlar ro'yxatidagi umumiy so'zlarning foiz nisbati asosida dunyo tillarining o'zaro munosabatlarini o'rganish uchun tilning lug'at boyligini yagona tizimini shakllantirishga mo'ljallangan. Shunga asoslanib, dasturiy ta'minot tizimida dunyo tillarining genealogik daraxtii tasniflangan.


Tillar tipologiyasi mutaxassislari uchun yaratilgan dasturiy ta'minotga namuna sifatida universal grammatikani ifodalovchi "Dunyo tillari"ni namuna sifatida qayd etish joiz [2]. Ushbu dasturiy ta'minot neyron tarmoqlarni o'z ichiga olgan zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda tillarning o'zaro munosabatlarni solishtirish uchun funksional imkoniyatlarga ega. Mualliflar o'xshashlik o'lchovini hisoblash orqali atributlar to'plamlari asosida mos kelish usulidan foydalanganlar. Tillarning o'xshashligini baholovchi algoritmi ikkilik mantig'iga yo'naltirilgan, chunki tilda ba'zi bir atributlar mavjud bo'lsa, ba'zilarida mavjud bo'lmaydi.

Geografik axborot tizimlari bilan lingvistik texnologiyalarning birlashtirganligi tadqiqot dasturlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi funksiyalar to'plami sifatida qarashga imkon beradi. Bunday xizmat turlaridan biri sifatida A.V.Dibo rahbarligidagi bir guruh rus turkologlar tomonidan tuzilayotgan "Turkiy tillar uchun xaritalar" [3] nomli loyihani keltirish o'rinli. 1-rasmda ko'rsatilgan.



Bunday integratsiyaning yana bir namunasi sifatida 55 ta ishchi guruhi tomonidan to'plangan tillarning strukturaviy (fonologik, grammatik, leksik) xususiyatlari uchun ma'lumotlar bazasini o'z ichiga qamrab oluvchi "Dunyo tillari tuzilishlarining xaritasi -WALS" xizmatidir [4]. Ushbu atlasning turkiy tilga xos analogi - Tatariston Fanlar akademiyasining Amaliy Semiotika Institutida ishlab chiqilayotgan "Tatar tili shevalarining elektron atlas" hisoblanadi [5, 6]. Ushbu sayt xizmati 2-rasmda keltirilgan.





Shakl 2. Tatar dialektlarining elektron atlas

Ushbu tadqiqotlar natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, ko'rsatib o'tilgan tizimlardan tashqari, bir vaqtning o'zida to'liq ma'lumot tizimiga aylanadigan va ko'plab mutaxassislarining, ayniqsa, tilshunoslik bo'yicha umumiy lingvistik asosda ishlashga imkon beruvchi ilmiy axborot tizimi hali ham yaratilgan emas. Biroq Yevropa tillari uchun bu kabi lingvistik platformalarning o'nlab turlarini uchratishimiz mumkin. Bu esa ushbu maqolada keltirilgan dasturiy ta'minot platformasini yaratishning dolzarbligini ko'rsatadi.

### III. RIVOJLANTIRISH TAMOIYILLARI

#### A. Tadqiqot dasturiy ta'minotining asosiy talablari

Keltirilgan lingvistik tadqiqot dasturining xususiyatlari tahlil qilingandan so'ng, ushbu turdagi dasturiy ta'minot tizimlariga bo'lgan talablarni quyidagicha shakllantirish mumkin.

1) *ilmiy tadqiqot faoliyati ko'p qirrali bo'lib*, turli xil vazifalarni hal qilishga yo'naltiriladi, ularning hammasini ham dasturiy ta'minotda amalga oshirishning imkoni yo'q. Ushbu holat tizimning kengayishini, ya'ni dasturiy ta'minotni tubdan o'zgartirmay qaytadan rivojlantirish va hajmini kengaytirishga imkon beruvchi texnik yechimlardan foydalanishni talab qiladi.


2) *inson omilining asosiy roli*, agar tadqiqotchi ishning yo'nalishini belgilovchi markaziy figura bo'lsa, dastur talablaridan biri bu muvaffaqiyatli loyihani amalga oshirib, lingvistik resurslardan barcha ilm ahli foydalana olishi kerak. Dasturning ushbu belgisi tilshunoslik mutaxassislari hamda til texnologiyasi vakillarining o'zaro hamkorlik qilishlariga imkon beradi.

3) *tadqiqot jarayoni va natijalarining o'ta noaniqligi*. Bu shuni anglatadiki, rivojlantiriluvchi dasturiy ta'minot va til modellari tadqiqot oldiga qo'ygan muammolardan kelib chiqib moslashuvchan bo'lishi va uni izchil ravishda yangilab turish imkoniyatiga ega bo'lishi darkor.

4) *ilmiy tadqiqotlarning o'ziga xosligi*, uni boshqa shunga o'xshash tadqiqotlardan ajratib turadigan xususiyatlaridan biri tegishli dasturiy ta'minot imkon qadar kengroq funksiyaga ega bo'lishi kerak. Bu qo'llanilgan funksiyalarni o'zgartirib, tadqiqotning umumiy holatiga ta'sir qilmay, kerakli o'rinlarda masalani hal qilishga yo'naltirishga ixtisoslashtirilgan bo'lishi lozim.

Ushbu maqolada turkiy morfema modeli uchun veb-portal ishlab chiqilgan bo'lib, u dasturiy ta'minotni ishlab chiquvchilar va lingvistik tadqiqotchilar uchun turkiy tillarni kompyuterda qayta ishlash sohasida hamkorlik qilish imkoniyatini beradi, demak u ilmiy tadqiqot dasturlari uchun tavsiflangan talablarga javob bera oladi.

Turkiy tillar ichida o'zbek tilining ham mavjudligi o'zbek tilining kompyuter lingvistikasi va mashina tarjimasiga kabi sohalarda tilning o'ziga xos agglyutinativligini hisobga olib, formal modelini yaratishda, shuningdek, boshqa turkiy tillar bilan chog'ishtirgan holda tadqiqot olib borishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu portaldagi o'zbek tili interfeysi ham lotin, ham kiril grafikasiga moslashtirilgan. Tilshunoslikka oid qoidalar ham har ikki grafema talablariga yo'naltirilgan.



3-rasm. Turkiy morfemaning model tuzilishi.

### B. Turkiy morfema modeli

Turkiy morfema portali strukturaviy-parametrik morfema modeliga asoslangan bo‘lib, uning tuzilishi 3-rasmda keltirilgan.

Strukturaviy-parametrik turkiy morfema modeli morfologiya elementlarining pragmatik yo‘naltirilgan tarkibiy va funksional tavsifidir. Model tuzilishi turkiy morfemalarni to‘liq tahlil qilish va ularning barcha til darajalarida (fonologik, morfonologik, morfologik, sintaktik) xususiyatlarini va ko‘rinishini tavsiflashga imkon beradi.

Model ikkita asosiy blokdan iborat:

- 1) til bloki, har bir turkiy til uchun til elementlarining tavsifini o‘z ichiga oladi;
- 2) umumiy blok, grammatik kategoriyalar va semantikaning tavsifini o‘z ichiga olgan modelning tilga bog‘liq bo‘lmagan qismi.

Ayrim tillar uchun til elementlari tavsifining bog‘lovchi elementlari semantik modellardir. Ushbu morfema modelida semantikasi ifodalash uchun ikki turdagi ontologik modellardan foydalaniladi. Birinchi tur tezaurlardan, ikkinchi tur relyatsion-situatsion freymlardan iborat. Tezauruslar o‘tli birikmalar morfemalarining asosida anglashilgan ma’nolarini tavsiflash uchun foydalaniladi. Ushbu modelda ishlatiladigan tezaurusdagi konseptlarning tuzilishi WordNet tezaurusining tuzilishiga o‘xshaydi. Model haqida ko‘proq ma’lumot [7] da keltirilgan.

## IV. TIZIM TAVSIFI

### A. Ishning texnik jihatlari

Portalning server qismi Django freymvorkidan foydalangan holda Piton dasturlash tilida yozilgan. Tilni tanlash soddaligi va kutubxona imkoniyatlarining boyligi bilan xarakterlanadi. Bundan tashqari Piton dasturlash tili ilmiy jamoa tomonidan ijobiy baholanadi va oliy matematikaga doir masalalarni dasturlash, mashina ta’limi (machine learning) va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) bilan bog‘liq ko‘plab to‘plamlar foydalanish uchun bir qator afzalliklarga ega. Ushbu holat kelajakda boshqa lingvistik vositalarning tizim bilan birlashishini osonlashtirishga imkon beradi.

Django freymvorki, o‘z navbatida, standart veb-yechimlarni samarali ishlab chiqishga imkon beradi, ma’lumotlar bazasining o‘zaro aloqalarini, GUI shakllarini loyihalashni va HTTP so‘rovlarini qayta ishlashni avtomatlashtiradi. Ushbu freymvorkning uslubiy to‘plami veb-xizmatlarni rivojlantirishning doimiy muammolarini hisobga olgan holda tuzilgan, xususan, foydalanuvchilarga tizimni boshqa tillarga tarjima qilish imkoniyatini beradigan lokalizatsiya va baynalmillalashtirish mexanizmi taqdim etiladi, bu ko‘plab turkiy tillarga yo‘naltirilgan tizimni rivojlantirish uchun ham juda muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, ushbu freymvork



avtorizatsiya, ro'yxatdan o'tish va tizim boshqaruvchisi uchun yuqori quvvatli avtomatik umumlashtiruvchi moduldan iborat.

PostgreSQL ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi sifatida tanlangan. Tanlov bir tomondan ushbu tizimning ochiqligi, yuqori funksional imkoniyatlarga egaligi va so'rovlarni sifatli ravishda optimallashtirilganligi bilan ham ajralib turadi. Boshqa tomondan, ushbu dastur yana ko'plab tashqi instrumentlardan iborat bo'lib, ma'lumotlarni himoyalash hamda dasturiy ta'minot muvozanati, qolaversa, kengayish imkoniyatini beruvchi qo'shimcha funksiyalarga ham egadir. Tizimning foydalanuvchi interfeysi JavaScript kodli HTML-sahifalar shaklida alohida tuzilgan bo'lib, Django freymvorki tomonidan taqdim etilgan maxsus namuna asosida server tomonidan umumlashtiriladi.


### ***B. Umumiy ma'lumotlar***

Ushbu veb-portal nafaqat tadqiqot muammolarini hal qilish, balki ma'lumotnoma tizimi va lingvistik dasturiy ta'minot xizmatlari kutubxonasi vazifasini ham bajaradi. Shunga asoslanib, foydalanuvchi portalning ikkita ishlash rejimiga o'tishi mumkin: o'quvchi rejimi va mutaxassis rejimi, bu aslida portalning ikkita quyi tizimini aks ettiradi.

O'quvchi materiallarni tizim ma'lumotlar bazasidan ko'rishi mumkin, ammo ularni tahrirlash huquqiga ega emas. 4-rasmda ko'rsatilgan o'quvchi rejimi shu tariqa portaldan turkiy tillarga mos yozuvlar tizimi sifatida foydalanish imkoniyatiga ega. Portal o'quvchiga turkologiya mutaxassislari tomonidan turli xil til darajalarida to'plangan turkiy til elementlarining tavsiflari, ularni birlashtirish qoidalari (morfotaktika), shuningdek ushbu til elementlari (semantik) tomonidan ifoda etilgan ma'nolarni taqdim etadi. Ushbu lingvistik axborot blokining xususiyati shundaki, u yagona ma'lumotlar bazasida jamlangan, tasniflangan va shakllantirilgan bo'lib, qidiruv va filtrlash so'rovlarini bajarish imkoniyatlariga ham ega. Turkiy tillar mutaxassislari tomonidan to'ldirilgan bunday ma'lumotlar bazasining mavjudligi, uni tilshunoslikka doir tadqiqotlar uchun soha mutaxassislari tomonidan undan ma'lumotnoma sifatida foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Ekspert rejimi foydalanuvchiga tadqiqot faoliyatini amalga oshirish uchun juda ko'p funksiyalarni taqdim etadi: asosiy ma'lumotlarni to'plash, tasniflash, qiyosiy statistik tahlil, gipotezalar va ularni real vaqtda sinab ko'rish. Masalan, morfologik analizatorning modeli til elementlari va morfotaktik s haqidagi ma'lumotlarni to'ldirilgandan so'ng darhol analizatoridan foydalanishga va uning to'g'riligini tekshirishga imkon beradi.

### **Turkic Morpheme Portal**



The screenshot shows the 'Turkic Morpheme Portal' interface. At the top, there is a navigation bar with 'Wiki', 'Forum', 'Login', and 'EN' links. Below this, a sidebar on the left contains a dropdown menu for 'Selected database language:' set to 'Tatar', and a list of navigation options: 'Common part', 'Grammatical categories', 'Grammatical values', 'Grammemes', 'Quasigrammemes', 'Derivatemes', and 'Concepts'. The main content area is titled 'Tukic Morpheme Model' and includes tabs for 'Description', 'Statistics', and 'Summary tables'. Under the 'Statistics' tab, there is a table titled 'General statistics' with the following data:

Category	Value
Database languages number	36
Grammar categories number	19
Grammemes number	136
Quasigrammemes number	7
Derivatemes number	15
Object concept number	5723
Affixal morpheme number	773
Affixal allomorph number	3698

Shakl 4. Veb-portalning o'quvchi rejimidagi umumiy ko'rinishi .

Shu bilan birga, ekspert rejimidan foydalanish uchun foydalanuvchi avtorizatsiya qilishi va administratoridan tasdiq olishi kerak, shundan so'ng ular portal ma'lumotlar bazasida keltirilgan tillar orasida bitta tanlangan turkiy til bilan ishlashga ruxsat beriladi. Mutaxassis boshqa tillarni o'quvchi rejimida ko'rishi mumkin. Ekspert tanlagan tili doirasida modelning til qismini va quyida muhokama qilingan umumiy qismning ba'zi elementlarini to'ldirishga ruxsat

oladi. Ushbu portalning o‘zbek tili bo‘yicha lingvistik ma’lumotlar bazasi N.Z.Abduraxmonova va Sh.M.Hamroyevlar tomonidan yaratilmoqda.

Portaldan foydalanishning oddiy foydalanuvchilari uchun imkoni bo‘lmagan uchinchi tarafi bu tizimda taqdim etilgan har qanday turkiy tillar uchun ma’lumotlar bazasiga, shuningdek, infratuzilma qismiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kirish huquqini beruvchi administrator rejimidir. Xususan, administrator, ekspertlarni tasdiqlab beradi, shuningdek, tizimga kirish, tizimning texnik tomonlari bilan shug‘ullanadi. Administrator rejimi Django freymvorkidan olingan standart vositalar yordamida amalga oshiriladi.

Portal, shuningdek, masalalarni muhokama qilishda hamkorlik qilish va foydalanuvchilarning fikr-mulohazalari uchun forum yaratadi. Shuningdek, u foydalanuvchiga model va lingvistik terminologiya haqida qo‘shimcha ma’lumot beradigan wikiga o‘xshash tizimni ham amalga oshiradi.

### C. Modelning umumiy qismi

Modelning umumiy qismida modelda keltirilgan barcha tillar uchun umumiy bo‘lgan lingvistik kategoriyalar uchun ma’lumotlar mavjud, masalan: grammatik kategoriyalar, grammatik tushunchalar (grammemalar, kvazigrammemalar, derivatemalar) va tushunchalar. Misol tariqasida grammatik kategoriyalarni to‘ldirishni ko‘rib chiqamiz. “Grammatik kategoriyalar” menyusidagi chap tugmachani bosish orqali foydalanuvchi grammatik kategoriyalar ro‘yxatiga kirish huquqini oladi (5-rasm).

#### Turkic Morpheme Portal

The screenshot shows the 'Turkic Morpheme Portal' interface. At the top, it indicates the user is logged in as 'Элфия Галиева' and provides links for 'Wiki', 'Forum', 'Profile', and 'EN'. Below the navigation bar, there is a sidebar with a 'Selected database language' dropdown set to 'Tatar'. The main content area is titled 'Grammatical categories' and contains a table with three columns: 'Typological name (English)', 'Typological name (Russian)', and 'National name (Tatar)'. The table lists various grammatical categories such as Case, Definiteness, Degree of comparison, Estimation, Finiteness, Interrogative, Mensurative, Mood, and Number.

Typological name (English)	Typological name (Russian)	National name (Tatar)
Case	Падеж	Килеш
Definiteness	Определенность	Билгелелек
Degree of comparison	Степень сравнения	Сыйфат даражасе
Estimation	Оценочность	
Finiteness	Финитность	
Interrogative	Вопросительность	Соруу
Mensurative	Мензуратив	
Mood	Наклонение	Наклонение
Number	Число	Сан

"Tipologik nom (inglizcha)" va "tipologik nom (ruscha)" atributlari portal administratori tomonidan to‘ldiriladi va foydalanuvchilar, o‘quvchilar va mutaxassislar ularni faqat ko‘rishlari mumkin.

Muayyan til uchun ajratilgan "Milliy nom" maydoni mutaxassis tomonidan to‘ldirilishi kerak. Mutaxassis tilida kategoriyalar haqidagi ma’lumotlarni kiritish uchun u ro‘yxatdagi kerakli kategoriyani tanlaydi, shundan so‘ng ushbu kategoriyaga ajratilgan milliy nomlarni tahrirlash mumkin bo‘lgan maxsus oyna ochiladi. (6-rasm).

The screenshot shows the 'Case' category details in the Turkic Morpheme Portal. The left sidebar lists various morpheme categories, with 'Morphemes' selected. The main content area displays the 'Case' category with a detailed description and source of the typological name in English. Below this, there is a section for the 'Language part: Tatar' which includes a table for the 'National name' and its description and source in the national language (Tatar).

Typological name (English)	Case
Description and source of typological name (English)	Case is essentially a system of marking dependent nouns for the type of relationship they bear to their heads. Traditionally, the term refers to inflectional marking, and, typically, case marks the relationship of a noun to a verb at the clause level or of a noun to a preposition, postposition, or another noun at the phrase level. The nominative is the citation form and is used for the subject of a clause. The accusative is used for the direct object and the dative for the indirect object (the recipient of a verb of giving). The genitive expresses the possessor (makamre peena 'son's per') and the sociative (alternatively comitative) expresses the notion of 'being in the company of'. The locative expresses location, and the instrumental expresses the instrument, as in 'cut with a knife' and the agent of the passive. The ablative expresses 'from'. Blake B. J. Case. Haser V., Kortmann B. Adverbs // Brown Keith (ed.) - Encyclopedia of Language and Linguistics. Elsevier, 2005. P.211.

Language part: Tatar	
National name	Килеш
Description and source of national name	Килеш – исемнарне башка сүзләр белән байлап, аларны узаара төрле синтаксик мөнәсабатка (объект, субъект, урын, вакыт, сабап, максат һ.б.) куя торган грамматик категория; киталпы (объект) укып чыгу, мактаптан (урын) кайтып керу, июльда
Author of national name	Элфия Галиева

Shakl 5. Grammatik kategoriyalar ro‘yxati

Milliy nomning o‘zi bilan bir qatorda mutaxassis o‘z tilida kategoriya tavsifini mana shunday tavsiflangan holda va unga aloqador ma’lumot manbasini kiritishi mumkin. Modelning lingvistik qismida muayyan tilning o‘ziga xos bo‘lgan lingvistik kategoriyalardan tashkil topadi. Masalan, affiksial morfema, analitik morfema (yuklama, ko‘makchi, yordamchi fe’llar), asos morfemalar va ular uchun morfotaktik qoidalar. Ekspert uchun ushbu kiritiladigan ma’lumotlarga qo‘shimcha qo‘shish, tahrirlash yoki kategoriyalarning ayrim elementlarini o‘chirib yuborishi uchun to‘liq huquq beriladi.

Odatda tavsif formati kategoriyalar ta’rifi, eng muhim xususiyatlarni va iboralarni o‘z ichiga oladi. O‘quvchi rejimida ushbu ma’lumot faqat ko‘rish uchun taqdim etiladi.

Xuddi shunday, ushbu funksiyalar boshqa umumiy lingvistik kategoriyalar uchun ham mavjud, ya’ni ularning aksariyati tizim ma’muriyati tomonidan to‘ldiriladi va mutaxassis o‘zlarining turkiy tillari uchun tilga oid ma’lumotlarni aniqlashtirish imkoniyatiga ega.

**Shakl 6. Ekspert rejimida grammatik kategoriya ko‘rinishi**

#### ***D. Modelning tilga xos qismi***

Modelning lingvistik qismiga ma’lum bir tilning o‘ziga xos xususiyatlariga to‘liq bog‘liq bo‘lgan lingvistik kategoriyalar kiradi. Xususan, ushbu toifalar amalga oshiriladi: affiksial morfemalar, analitik morfemalar (yuklamalar, k ‘malchilar, yordamchi fe’llar), asos morfemalari va ular uchun morfotaktik qoidalar. Mutaxassis o‘z tillari uchun modelning til qismiga to‘liq kirish huquqiga ega, ular lingvistik qismdagi kategoriyalarning elementlarini qo‘shishi, tahrirlashi yoki o‘chirishi mumkin.

Misol tariqasida “Affiksial morfema” kategoriyaning ta’dirish ustuni keltirilgan. Chap menyudan mos keladigan elementni tanlagan holda, mutaxassis tizim ma’lumotlar bazasidan affiksial morfemalar ro‘yxatiga o‘tadi (7-rasm), bu yerda ular yangi affiksial morfemalarni ham qo‘shishlari mumkin.

**Shakl 7. Affiksial morfemalar ro‘yxati.**

Mavjud affiksial morfemani qo‘shganda yoki tahrir qilganda morfemani ta’dirish uchun quyidagi atributlar mavjud:

- 1) bosh harf o‘zgaruvchan harflarning matndagi morfem shaklini ifodalaydi;
- 2) grammatik baholash bunda ma’lumotlar bazasidagi morfemalarning grammatik ma’nosi mosligini ifodalaydi;

3) tilni qayta ishlash dasturida morfema bilan bg‘liq biror amalni tekshirib borish uchun raqamli ko‘rsatkich mavjud.

### Shakl 8. Affiksial morfemani tahrirlash shakli

Bundan tashqari, mutaxassis allomorflar deb nomlangan morfema uchun affikslarning o‘ziga xos variantlarini qo‘shishi mumkin. Har bir allomorf tarkibiga quyidagilar kiradi: qiymat, raqamli identifikator, foydalangan matndan namuna, namuna tarjimasini, yakuniy belgi (morfotaktika uchun ishlatiladi). Allomorflar uchun foydalanuvchi interfeysi jadval shaklida amalga oshiriladi. 8-rasmda affiksial morfemani tahrirlash uchun barcha shakl ko‘rsatilgan.

## V. XULOSA

Turkiy morfema portalini lingvistik ma’lumotlar bazalarini rivojlantirish bosqichi jarayonida davom etmoqda. Ayni paytda portalning sifatini yanada oshirish va lingvistik baza bilan boyitishda 36 ta turkiy tillar bo‘yicha 30 nafar mutaxassis hamkorligi yo‘lga qo‘yilgan: oltoy, ozarbayjon, boshqird, chulim, chuvash, qrim-tatar, gagauz, qozoq, xakas, kumik, qirg‘iz, ortaturk, yakut, tatar, teleut tuvin, uyg‘ur, o‘zbek. Portalning umumiy lingvistik bazasi doimiy ravishda yangilanib boriladi. Statistik ma’lumotlar I jadvalda keltirilgan.

**JADVAL I. MA’LUMOTLAR BAZASI STATISTIKASI**

Tillar soni	36
Grammatik kategoriyalar miqdori	19
Grammemalar miqdori	136
Kvazigrammema miqdori	7
Derivatemalar miqdori	15
Obyekt konseptlari miqdori	12404
Affiksial morfemalar miqdori	779
Affiksial allomorflar miqdori	3732
Analitik morfemalar miqdori	164
Analitik allomorflar miqdori	119
Asos morfemalar miqdori	12545
Affiksial morfotaktik qoidalar miqdori	21490
Ko‘p komponentli nomlar miqdori	1618

Portalni amalga oshirish tamoyillari hozirda o‘zbek tilning leksik va grammatik xususiyatlarini o‘rganish, shuningdek, boshqa turkiy tillarning so‘z boyligi va grammatikasini qiyosiy o‘rganish uchun dasturiy vositalar va ma’lumotlar bazalaridan foydalanishga imkon beradi [8, 9, 10]. Kelgusida o‘zbek tilining milliy korpusi uchun morfologik annotatsiya yaratishda, mashina tarjimasini texnologiyasida, umuman olganda, tilni internet tiliga o‘tkazishda ushbu portalning ahamiyati yuqori, deb aytish mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Global Lexicostatistical Database [Online] Available: <http://starling.rinet.ru/new100/mainr.htm>

2. V.N .Polyakov, V.D. Savelyev, and V.D. Solovyev “Opyt primeneniya metodov intellektual'nogo analiza dannyykh v komparativistskikh i tipologicheskikh issledovaniyakh,” RCAI-2006: conference proceedings, vol. 1, pp. 217-224, 2006.
3. Maps for Turkic Languages [Online] Available: <http://turk.polycorpora.org>
4. The World Atlas of Language Structures [Online] Available: <https://wals.info>
5. Electronic Atlas of Tatar Dialects [Online] Available: <http://atlas.antat.ru>
6. F.I. Salimov, R.F. Salimov, “Creating electronic resource ethno-linguistic materials of the tatar language,” Revista Genero & Direito, vol. 8, is. 7, pp. 183-191, 2019.
to put Augustine's soul for he was devoured by desire in his pre-conversion days. The sonnet *“Peach”* was brainless at to begin with glance--this is undoubtedly not an impervious lyric, but it renders a noteworthy thought that the manifestations of nature, indeed the foremost oblivious ones, has the excellence that no manufactured objects can ever accomplish. The sonnet itself in free verse is innovator, opposing routine organized shape and the dialect is more exposition than scanned lines - the full sonnet may be a kick at conventional demeanors and the Victorians were not traditionalists but reactionaries with respect to their states of mind to sex, so usually a complex progressive lyric and extremely present day for its time.... .. Lawrence recommends that the basic joy of eating a peach may be associated with the way that the peach hasn't been fabricated. During these 6 years (1908-1914) during that time there was a surprisingly beneficial period of advancement and explore as writers and artists attempted, in collections and magazines, to challenge the scholarly traditions not fair of the later past but of the complete post-Romantic period. For a brief minute, London, which up to that point had been socially one of the bluntest of the European capitals, gloated an avant-garde to match those of Paris, Vienna, and Berlin, indeed in the event that its driving identity, Ezra Pound, and numerous of its most outstanding figures were American. Responding against what they considered to be an depleted idyllic convention, the Imagists needed to refine the dialect of verse in arrange to form it a vehicle not for peaceful assumption or imperialistic talk but for the precise depiction and inspiration of disposition. To this conclusion they tested with free or unpredictable verse and made the picture their central instrument. In differentiate to the relaxed Georgians, they worked with brief and conservative shapes. World War I brought this to begin with period of the Pioneer transformation to an conclusion and, whereas not crushing its radical and idealistic motivation, made the Anglo-American Pioneers all as well mindful of the inlet between their standards and the chaos of the show.

Writers and writers caricatured gotten shapes and styles, in their see made excess by the giganticness and frightfulness of the war, but, as can be seen most clearly in Pound's irate and mocking *Hugh Selwyn Mauberley* (1920), with a note of anguish and with the wish that scholars might once more make frame and fashion the bearers of true implications. In his two most imaginative books, *The Rainbow* (1915) and *Ladies in Adore* (1920), D.H. Lawrence followed the affliction of present day civilization—a civilization in his see as it were as well energetic to take an interest within the mass butcher of the war—to the impacts of industrialization upon the human mind. However as he rejected the traditions of the anecdotal convention, which he had utilized to brilliant impact in his profoundly felt personal novel of working-class family life, *Children and Partners* (1913), he drew upon myth and image to hold out the trust that person and collective resurrection may come through human concentrated and enthusiasm. Amid the 1920s Lawrence (who had cleared out Britain in 1919) and Eliot started to create perspectives at chances with the notorieties they had built up through their early work. In *Kangaroo* (1923) and *The Plumed Serpent* (1926), Lawrence uncovered the fascination to him of charismatic, manly authority, whereas, in *For Lancelot Andrewes: Papers on Fashion and Arrange* (1928), Eliot (whose impact as a scholarly faultfinder presently rivaled his impact as a artist) declared that he was a “classicist in writing, royalist in legislative issues and anglo-catholic in religion” and committed himself to chain of command and arrange. Elitist and paternalistic, they did not, be that as it may, embrace the extraordinary positions of Pound (who cleared out Britain in 1920 and settled forever in Italy in 1925) or Lewis. Drawing upon the thoughts of the cleared out and of the correct, Pound and Lewis rejected vote based system as a pretense and contended that financial and ideological control was the overwhelming calculate. For a few, the antidemocratic sees of the Anglo-American Pioneers basically made explicit the reactionary inclinations inalienable within the development from its starting; for others, they came from a appalling misfortune of balance occasioned by World War I. This issue may be a complex one, and judgments upon the scholarly justify and political status of Pound's yearning but gigantically troublesome Imagist epic *The Cantos* (1917–70) and Lewis's capable arrangement of politico-theological books *The Human Age* (*The Childermass*, 1928; *Monstre Gai and Insult Celebration*,

both 1955) are strongly divided. The artist and writer T.S. Eliot, another American inhabitant in London, in his most inventive verse, *Prufrock and Other Perceptions* (1917) and *The Squander Arrive* (1922), followed the ailment of cutting edge civilization—a civilization that, on the prove of the war, favored passing or death-in-life to life—to the otherworldly vacancy and rootlessness of present day presence. As he rejected the traditions of the wonderful convention, Eliot, like Lawrence, drew upon myth and image to hold out the trust of person and collective resurrection, but he varied strongly from Lawrence by assuming that resurrection might come through self-denial and self-abnegation. Indeed so, their mocking concentrated, no less than the earnestness and scope of their examinations of the failings of a civilization that had intentionally entered upon the Primary World War, guaranteed that Lawrence and Eliot got to be the driving and most definitive figures of Anglo-American Modernism in Britain within the entire of the postwar period. Pound, Lewis, Lawrence, and Eliot were the vital male figures of Anglo-American Innovation, but vital commitments moreover were made by the Irish writer and writer William Butler Yeats and the Irish writer James Joyce.

The adventurousness of the modern era was appeared in portion by its cherish of travel (as in Christopher Isherwood's books *Mr. Norris Changes Trains* [1935] and *Farewell to Berlin* [1939], which reflect his encounters of postwar Germany), in portion by its availability for political inclusion, and in portion by its openness to the composing of the avant-garde of the Landmass. The verse dramatizations coauthored by Auden and Isherwood, of which *The Climb of F6* (1936) is the foremost outstanding, owed much to Bertolt Brecht; the political stories of Rex Warner, of which *The Aerodrome* (1941) is the foremost fulfilled, owed much to Franz Kafka; and the complex and frequently darken verse of David Gascoyne and Dylan Thomas owed much to the Surrealists. Indeed so, Yeats's develop verse and Eliot's *Squander Arrive*, with its spoofs, its humorous edge, its variety of styles, and its journey for otherworldly recharging, given the foremost critical models and motivation for the youthful journalists of the period.

In spite of the apparent pressures, Lawrence's letters record a genuine enthusiasm for the country life accessible to him in Cornwall (he befriended and helped a neighborhood agriculturist, William Henry Hocking, and there's hypothesis whether he, so distinctive from the over-conscious Cambridge sophisticates, and Lawrence, were briefly darlings [Stamp Kinhead-Weekes 1996: 377–80]). Be that as it may, the Lawrences' period of residency was brought to an sudden conclusion in October 1917 by a formal take note to leave issued by the military specialists. In reality, they had been beneath reconnaissance, with varying degrees of concentrated, for a few time. Lawrence's letters were now and then catching and opened, his house was searched, but he still announced himself stunned at the removal and insensible of its causes. The Lawrences returned to London, renewing some old contacts, and after that to a number of addresses which included a brief return to the Midlands some time recently the conclusion of the war made conceivable the first organize in a long, self-imposed. To conclude, writing a piece in this form requires the writer to have a greater life experience than a better writing talent. Since the rhyme may mean a very simple and extraordinary set of childish quesions to a schoolkid while it means much more to an adult. Now as a master's student I would comment on this rhyme followingly:

'Life is like the peach the author eats while writes it down. Questioning the life will neither change it nor lets us live it once again. Just enjoy your life as it is! Life is too short to look back and keep asking 'why?'. One more thing to note, no one life is perfect!'



## XOLONIM VA MERONIM MUNOSABATI: MODELLASHTIRISH TAMOYILLARI

DOI: 10.53885/edinres.2021.46.80.001

Manzura Abdurashetovna Abjalova

Alisher Navoiy nomidagi  
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ( PhD)

**Annotatsiya.** Lingvistik ontologiya leksik ma’lumotlar bazasi hisoblangani bois unda so‘zlarda mavjud butun-bo‘lak (meronimiya / partonimiya / xolonimiya), tur-jins (giponimiya), shakldoshlik (omonimiya), zid ma’nodlik (antonimiya), ma’nodoshlik (sinonimiya) munosabatlari o‘z aksini topishi zarur. Mazkur maqolada xolonimiya, ya’ni butun-bo‘lak munosabatlari, ularni tarkibiy modellashtirish tamoyillari va uning ahamiyati borasida so‘z yuritildi.

**Kalit so‘zlar:** *xolonim, meronim, butun, bo‘lak, lingvistik ontologiya, model*

**Abstract.** Since a linguistic ontology is a lexical database, it reflects the part-whole relationship of a word (meronymy / partonymy / holonymy), genus-species (hyponymy), homonymy (homonymy), antonymy (antonymy) and synonymy (synonymy). The article discusses holonyms, that is, the relationship of the whole and the partial, the principles and the importance of their structural modeling.

**Key words:** *holonim, meronim, whole, part, linguistic ontology, model.*

Ma’lumki, o‘tgan asrning o‘rtalarida leksik-semantik guruhlardagi leksemalarning tizimli munosabatlari sinonimik va antonimik jihatdan o‘rganila boshlandi. O‘sha vaqtda meronimik yoki xolo-partonim munosabatlar tilshunoslar e’tiboriga tushadi<sup>3</sup>.

**Xolónim** (qad. yunoncha ὅλος = «butun» + ὄνομα = «nom») muayyan tushuncha(lar)ning butun holati (ko‘rinishi)<sup>4</sup>, butun haqida tushuncha va uning nomi<sup>5</sup> boshqa tushunchaga nisbatan uning “butun”i<sup>6</sup> tushuniladi. Masalan, kompyuter – qattiq disk va protsessorga nisbatan xolonim, uy – poydevor va tom tushunchalariga nisbatan xolonim.

**Merónim** (qad. yunon. μέρος = «qism» va ὄνομα = «nom») boshqa tushunchaning tarkibiy qismi<sup>7</sup>, meronim ayrim adabiyotlarda partonim<sup>8</sup> (lot. pars, chiq.k. – partis = «qism») deyiladi.

Rus olimi M.V.Nikitinning so‘zlariga ko‘ra, meronimik munosabatlar lug‘atni semantik tartiblashda eng muhim omil, shuning uchun u ajralmas iyerarxik tuzilma sifatida namoyon bo‘ladi. M.V.Nikitin meronimiyaga shunday tavsif beradi: “Shubhasiz, butun-bo‘lak munosabatlari butun dunyoni pastdan yuqoriga, mikrodan makrokosmosga, elementar zarralardan galaktikalarga qadar qamrab oladi. Ular har xil daraja murakkabligidagi narsalarni

<sup>3</sup> Колодко Д.А. Меронимические отношения как проявление системности лексики. // Вестник Самарского университета. История, педагогика, филология. 2016. – С. 270.

<sup>4</sup> [https://ru.wikipedia.org/wiki/Мероним\\_и\\_холоним](https://ru.wikipedia.org/wiki/Мероним_и_холоним)

<sup>5</sup> [https://gufo.me/dict/linguistics\\_zherebilo/холоним](https://gufo.me/dict/linguistics_zherebilo/холоним)

<sup>6</sup> <https://kartaslov.ru/значение-слова/холоним>

<sup>7</sup> <https://kartaslov.ru/значение-слова/мероним>

<sup>8</sup> Глобина Л.В. Лексико-семантическое поле партитивной лексики в современном русском языке: дис. ... канд.филол.наук. – Воронеж, 1995. – 205 с.; Коннова М.Н. Введение в когнитивную лингвистику : учебное пособие. Изд. 2-е, перераб. — Калининград : Изд-во БФУ им. И. Канта, 2012. – 313 с.; Материнская О.В. Система меронимов в немецком и английском языках: дис. ... д-ра филол.наук. – Донецк, 2013. – 403 с.; Колодко Д.А. К вопросу о классификации меронимов // Научные записки Национального университета «Острожская академия». Серия «Филология»: сборник научных трудов. – Острог, 2015. Вып.51. – С. 226-228;



qismlar-butun, elementlar-tizimning turli bosqichli iyerarxiyaga keltirgan holda o'z ichiga oladi. Bu munosabatlar umumiy va global hisoblanadi"<sup>9</sup>.

Xolonim tarkibiy qismlarini birlashtiruvchi butunlik, meronim esa o'sha butunning tarkibiy qismlari, ya'ni boshqa tushuncha(lar) butunning ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois butun – qism munosabati qadimgi yunoncha nom bilan xolo-meronim yoxud xolonim-meronim tarzida qo'llaniladi. UzNet lingvistik ma'lumotlar bazasida xolonimlar "butun" va meronimlar esa "qism" tarzida nomlandi.

Shu o'rinda qayd etib o'tish joiz: sinekdoxa ham butun-bo'lak munosabatiga asoslanadi. Xolonimiya bilan farqli jihati shundaki, sinekdoxa ma'no ko'chishining bir turi hisoblansa, xolo-meronimiyada to'g'ri ma'noda funksional va fiziologik yoki jismiy tuzilishi bo'yicha qism-bo'lak munosabatlari mavjud bo'ladi.

Partonimiya hodisasini o'rganish lug'at boyligi tizimining «sir»larini ochish, so'z ma'nolarini aniq va to'g'ri izohlash nuqtayi nazardan ahamiyatlidir<sup>10</sup>. Bu hodisa o'zbek tilshunosligida H.Ne'matov, R.Rasulov, E.Qilichev, B.Qilichev, H.Jamolxonov<sup>11</sup> kabi tilshunoslarning ishlarida ma'lum darajada o'z talqinini topgan.

Lingvistik ontologiyani yaratishda butun-bo'lak munosabatlarini o'rganishda xorijlik mutaxassislardan Y.Layzi, D.Kruz, R.Chaffin, Y.Vinston, D.German, V.Storey; rus olimlaridan M.Nikitin, N.Lukashevich, Y.Rusina, Y.Materinskaya, Y.Rusina, D.Kolodko ishlari fundamental asos bo'ldi.

RuTez tezaurus lingvistik ta'minotida butun-bo'lak munosabatlarni tavsiflashda, ularning tranzitivligi (o'tuvchanligi)ni ta'minlagan (2011) N.V.Lukashevich falsafa va tilshunoslikda, shuningdek, axborot texnologiyalarida butun-bo'lak munosabatini tadqiq etgan<sup>12</sup>.

Xolonimiya munosabati o'tuvchan<sup>13</sup>: A obyekt B obyektning xolonimi, B obyekt C obyektning xolonimi bo'lsa, u holda A obyekt C uchun ham xolonim hisoblanadi.

Yana bir formal qoida keltiramiz:

«X» «Y» xolonimi, agar Y Xning qismlari hisoblansa, yoki

«X» «Y» xolonimi hisoblanadi, agar Y Xning a'zolari hisoblansa<sup>14</sup>.

Masalan, *barmoq qo'lining qismi, varaq kitobning bo'lagi*<sup>15</sup>.

Klassik mereologiyada butun-qism (bo'lak) munosabatida 3 ta aksioma keltiriladi<sup>16</sup>. Formulalarda P – butun, x, y, z – qismlar.

1. Refleksivlik. Hamma narsa o'zining tarkibiy qismi hisoblanadi:

(P.S. yoki oddiygina  $P=x,y$ )

$$\forall x P(x, x)$$

2. Antisimmetriya: hech narsa o'zining tarkibiy qismlarining bo'lagi bo'la olmaydi:

(P.S.  $P \neq x \leftarrow p, y \leftarrow p$ )

$$\forall x \forall y P(x, y) \wedge P(y, x) \rightarrow x = y$$

<sup>9</sup> Никитин М.В. Курс лингвистической семантики: учебное пособие для студентов, аспирантов и преподавателей лингвистических дисциплин в школах, лицеях, колледжах и вузах. СПб.: Научный центр проблем диалога, 1996. – С. 442.

<sup>10</sup> Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili: Darslik. – Toshkent: Talqin, 2005. – B. 147.

<sup>11</sup> Begmatov E., Ne'matov H., Rasulov R. Leksik makrosistema va uning tadqiq metodikasi (Sistem leksikologiya tezislari) // O'zbek tili va adabiyoti. 1989, № 6. – B.35-40.; Qilichev B. O'zbek tilida partonimiya. Filol.fan.nomz...dis. –Toshkent, 1997.; Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili: Darslik. – Toshkent: Talqin, 2005. – 260 b.

<sup>12</sup> Лукашевич Н.В. Тезаурусы в задачах информационного поиска. – Москва: МГУ, 2011. – 512 с. ISBN: 978-5-211-05926-9.; Loukachevitch N., Dobrov B. (2004). Development of Ontologies with Minimal Set of Conceptual Relations // Proc. of Fourth International Conference on Language Resources and Evaluation / Eds: M.T.Lino и др., vol. VI, pp. 1889-1892.

<sup>13</sup> <http://www.wikiznanie.ru/ru-wz/index.php/Холоним>

<sup>14</sup> <https://star-wiki.ru/wiki/Holonymy>: Лукашевич Н.В. Отношения часть-целое: теория и практика. // «Нейрокомпьютеры: разработка, применение». – Москва: Радиотехника, 2013. – С. 9.

<sup>15</sup> Simons P. (1987). Parts. A study in Ontology. Oxford University Press. – 390 p.; Varzi A. (2006). A Note on Transitivity of Parthood // Applied Ontology, 1:2, pp. 141-146.

<sup>16</sup> Simons P. (1987). Parts. A study in Ontology. Oxford University Press. – 390 p.; Varzi A. (2006). A Note on Transitivity of Parthood // Applied Ontology, 1:2, pp. 141-146.

3. Tranzitivlik – o‘tkazuvchanlik: qismlarning qismlari butunning ham qismlari hisoblanadi:

$$(P.S. \mathbf{x} \leftarrow \mathbf{y}, \mathbf{y} \leftarrow \mathbf{z} = \mathbf{P} \leftarrow \mathbf{z})$$

$$\forall x \forall y \forall z P(x, y) \wedge P(y, z) \rightarrow P(x, z)$$

Butun-qism munosabatlarining mazkur aksiomalar tizimi, odatda, asosiy mereologiya (базовая мереология, ground mereology) deb ataladi<sup>17</sup>.

N.V.Lukashevich o‘zaro munosabat refleksivlik xususiyatiga ega bo‘lishiga qaramasdan, butun (PP)ga teng bo‘lmagan qismlar e‘tiborga olinganda, butun-qism munosabati qat‘iy farqlanadi, deydi. Shu bois qat‘iy butun-qism munosabatlari qat‘iy tartibli munosabatlar sirasiga kiradi va ularda antirefleksiya, assimetriya va tranzitivlik munosabatlari bajariladi<sup>18</sup>, deya xulosa chiqaradi.

Qismlar nazariyasi<sup>19</sup>dagi yana bir muhim munosabat – bu qoplash, ya‘ni bir-birini dublet qilish (*overlapping*) munosabatidir.

Qoplash munosabati, o‘z tarkibiga, bir obyektни boshqasiga to‘liq joylashtirish vaziyatini, shuningdek, ikki obyekt identifikatsiyasi holatini o‘z ichiga oladi. Bu munosabat refleksiv, simmetrik, lekin o‘tuvchi (tranzitiv) bo‘lmagan munosabatlardan iborat. Qoplash munosabati asosida mereologiyada kuchsiz to‘ldiruvchanlik prinsipi deb ataladigan aksiomasini shakllantirish mumkin<sup>20</sup>.

Refleksivlik, antisimetriya, tranzitivlik va kuchsiz to‘ldiruvchanlik prinsipi minimal mereologiya hisoblanadi<sup>21</sup>. P.Simons esa bunday aksiomalar to‘plami butun va qism nazariyasini qondirishi kerak bo‘lgan minimal to‘plam deb hisoblaydi<sup>22</sup>.

Ko‘plab mualliflarning ta‘kidlashicha, lingvistik tahlilda butun-bo‘lak munosabatlar tranzitivligi bilan jiddiy muammolar paydo bo‘ladi. Masalan, *qo‘l – bu dirijor qismi* (a‘zosi), *dirijor esa orkestr bo‘lagi*, ammo yuqoridagi tranzitivlik (3) aksiomasiga binoan “*qo‘l – orkestr qismi*” deyish g‘alazlikni yuzaga keltiradi<sup>23</sup>. N.V.Lukashevich tranzitivlik bilan bog‘liq bunday muammolar butun-qism munosabatlarida har xil turdagi obyektlarning aralashishi bilan bog‘liqligini ta‘kidlaydi<sup>24</sup>. Vinston va boshq. (Winston et al) ishida tranzitivlik bilan bog‘liq muammolar quyidagicha izohlanadi: “bir turdagi munosabat qo‘llanilganda, butun qism har doim ham o‘tuvchi bo‘ladi. Biroq meronimiyaning har xil munosabatlari aralashganda, tranzitivlikda muammo yuzaga keladi”<sup>25</sup>. Yana bir misol: *barg – daraxtning bir qismi*, *daraxt – o‘rmonning bir bo‘lagi*, lekin *barg o‘rmonning bir qismi* deyish g‘alati bo‘ladi.

D.Kruz esa o‘z ishida yaxshi shakllangan iyerarxiya bir xil turdagi elementlardan iborat bo‘lishini ta‘kidlaydi<sup>26</sup>. D.Kruz fikrini misol yordamida tushuntiramiz: butun-qism munosabatida agar bir element geografik nom yoki hudud bo‘lsa, u holda boshqa elementlar ham shu turga mansub bo‘lishi kerak. Masalan, Nurobod tumani Samarqand viloyatining bir qismi, Samarqand O‘zbekiston Respublikasining bir bo‘lagi, demak, Nurobod O‘zbekiston Respublikasining bir bo‘lagi hisoblanadi.

<sup>17</sup> Лукашевич Н.В. Тезаурусы в задачах информационного поиска. – Москва: МГУ, 2011. – 512 с.

<sup>18</sup> Ko‘rsatilgan manba.

<sup>19</sup> Simons P. (1987). *Parts. A study in Ontology*. Oxford University Press. – 390 p.; Varzi A. (2006). *A Note on Transitivity of Parthood* // *Applied Ontology*, 1:2, pp. 141-146.

<sup>20</sup> O‘sha manbalar.

<sup>21</sup> Лукашевич Н.В. *Отношения часть-целое: теория и практика*. // «Нейрокомпьютеры: разработка, применение». – Москва: Радиотехника, 2013. – С. 9.


<sup>22</sup> Simons P. (1987). *Parts. A study in Ontology*. Oxford University Press. – 390 p.

<sup>23</sup> Лукашевич Н.В. *Отношения часть-целое: теория и практика*. // «Нейрокомпьютеры: разработка, применение». – Москва: Радиотехника, 2013. – С. 9.

<sup>24</sup> O‘sha manba.

<sup>25</sup> Winston M., Chaffin R, Herrmann D. 1987. *A Taxonomy of Part-Whole Relations* // *Cognitive Science*, 11, – pp. 417-444.

<sup>26</sup> Cruse D. 1986. *Lexical Semantics*. Cambridge. University Press. – 310 p.; Winston M., Chaffin R, Herrmann D. 1987. *A Taxonomy of Part-Whole Relations* // *Cognitive Science*, 11, – pp. 417-444.



Shunday qilib, agar meronimiya elementi jisimiy obyekt bo'lsa, meronimiyaning boshqa barcha elementlari ham jisimiy bir xil bo'lishi kerak. Agar bitta element mavhum ot bo'lsa, unda boshqalari ham shunday turda bo'lishi kerak. Motschnig-Pitrik va Kaasbol o'zlarining maqolasida, butun-qism munosabatida tranzitivlikda maqbul natijalarni beradigan va o'tuvchanlikda g'alizlikni yoki xatolikni yuzaga keltiradigan tranzitivliklar tarzida ajratishni taklif qilishgan<sup>27</sup>. Bizningcha ham, tranzitivlikda butun-qism munosabatini "to'liq tranzitivlik" va "qisman tranzitivlik" tarzida guruhlab olinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunda qisman tranzitivlikda matnda uchragan, ammo qism-butun munosabatida g'aliz hisoblangan birliklar o'z aksini topadi. Umuman olganda, bunday holatning yuzaga kelishi kundalik turmushda "qism" tushunchasining torayishi bilan bog'liq. Tadqiqotchi A.Varzi ham o'z maqolasida xuddi shu fikrni bildiradi va shunday misol keltiradi: eshik tutqichi eshikning funksional qismi, bu holda tutqich uyning bo'lagi hisoblanmaydi degani emas. Aksincha, eshik tutqichi qismlarning barcha odatiy xususiyatlarini namoyish etadi: tutqich massasi uy massasining bir qismidir; u uy egallagan maydonning bir qismini egallaydi (!); agar uy vayron bo'lsa, u ham yo'q bo'ladi; agar siz eshik tutqichini olib tashlasangiz, uy butunligi buziladi<sup>28</sup>.

Endi yuqorida keltirilgan misolga qaytamiz: *dirijorning qo'li – dirijor – orkestr*. Bunda qo'lning massasi orkestr massasining bir qismi ekanligi, dirijorning qo'li orkestr egallagan joyning bir qismidaligini ko'rishimiz mumkin. Agar dirijorning qo'li shikastlangan bo'lsa, u orkestrning ishlashi bilan bog'liq muammolarga olib kelishi mumkin (hatto jiddiy bu orkestr uchun fojia ham hisoblanadi).

*Barg – daraxt – o'rmon* munosabatlarini ham xuddi shunday izohlash mumkin. N.V.Lukashevich shu masalaga to'xtalar ekan, "qism" tushunchasini talqin qilish uchun qo'shimcha shartlar qo'yish joizligini ta'kidlaydi, ya'ni bu qism funksional bo'lishi kerakligi haqidagi qo'shimcha talab va h., albatta, o'tuvchanlikni yuzaga keltirmasligi mumkin<sup>29</sup>, deydi. Bunday holda, butunning o'z funksiyalari va qismning butun bajaradigan vazifalarni to'ldiruvchi funksiyalar tranzitivlikni yuzaga keltirmaydigan yoxud g'alizlikka olib keluvchi omillar bo'lishi mumkin. Mana shunday farqlanishga asosan leksik ma'lumotlar bazasida biz yuqorida taklif qilgan ikki toifa guruhlashni amalga oshirish mumkin.

#### Adabiyotlar:

1. Begmatov E., Ne'matov H., Rasulov R. Leksik makrosistema va uning tadqiq metodikasi (Sistem leksikologiya tezislari) // O'zbek tili va adabiyoti, 1989, № 6. – B.35-40.
2. Cruse D. 1986. Lexical Semantics. Cambridge. University Press. – 310 p.; Winston M., Chaffin R, Herrmann D. 1987. A Taxonomy of Part-Whole Relations // Cognitive Science, 11, – pp. 417-444.
3. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Talqin, 2005. – 260 b.
4. Loukachevitch N., Dobrov B. (2004). Development of Ontologies with Minimal Set of Conceptual Relations // Proc. of Fourth International Conference on Language Resources and Evaluation / Eds: M.T.Lino и др., vol. VI, pp. 1889-1892.
5. Motschnig-Pitrik R., Kaasboll J. 1999. Part-Whole Relationship Categories and their Application in Object-Oriented Analysis // IEEE TSE. V. 11(5), – pp. 779-797.
6. Qilichev B. O'zbek tilida partonimiya: filol.fan.nomz...dis. –Toshkent, 1997.
7. Simons P. (1987). Parts. A study in Ontology. Oxford University Press. – 390 p.

<sup>27</sup> Motschnig-Pitrik R., Kaasboll J. 1999. Part-Whole Relationship Categories and their Application in Object-Oriented Analysis // IEEE TSE. V. 11(5), – pp. 779-797.

<sup>28</sup> Varzi A. 2006. A Note on Transitivity of Parthood // Applied Ontology, 1:2, – pp. 141-146.

<sup>29</sup> Лукашевич Н.В. Отношения часть-целое: теория и практика. // «Нейрокомпьютеры: разработка, применение». – Москва: Радиотехника, 2013. – С. 11.

8. Varzi A. 2006. A Note on Transitivity of Parthood // Applied Ontology, 1:2, – pp. 141-146.
9. Winston M., Chaffin R, Herrmann D. 1987. A Taxonomy of Part-Whole Relations // Cognitive Science, 11, – pp. 417-444.
10. Глобина Л.В. Лексико-семантическое поле партитивной лексики в современном русском языке: дис. ... канд.филол.наук. – Воронеж, 1995. – 205 с.
11. Колодко Д.А. Меронимические отношения как проявление системности лексики. // Вестник Самарского университета. История, педагогика, филология. 2016. – С. 270.
12. Колодько Д.А. К вопросу о классификации меронимов // Научные записки Национального университета «Острожская академия». Серия «Филология»: сборник научных трудов. – Острог, 2015. Вып.51. – С. 226-228.
13. Коннова М.Н. Введение в когнитивную лингвистику: учебное пособие. Изд. 2-е, перераб. – Калининград: Изд-во БФУ им. И. Канта, 2012. – 313 с.
14. Лукашевич Н.В. Отношения часть-целое: теория и практика. // «Нейрокомпьютеры: разработка, применение». – Москва: Радиотехника, 2013.
15. Лукашевич Н.В. Тезаурусы в задачах информационного поиска. – Москва: МГУ, 2011. – 512 с. ISBN: 978-5-211-05926-9.
16. Материнская О.В. Система меронимов в немецком и английском языках: дис. ... д-ра филол.наук. – Донецк, 2013. – 403 с.
17. Никитин М.В. Курс лингвистической семантики: учебное пособие для студентов, аспирантов и преподавателей лингвистических дисциплин в школах, лицеях, колледжах и вузах. СПб.: Научный центр проблем диалога, 1996. – С. 442.
18. <http://www.wikiznanie.ru/ru-wz/index.php/Холоним>
19. [https://gufo.me/dict/linguistics\\_zherebilo/холоним](https://gufo.me/dict/linguistics_zherebilo/холоним)
20. <https://kartaslov.ru/значение-слова/мероним>
21. <https://kartaslov.ru/значение-слова/холоним>
22. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Мероним\\_и\\_холоним](https://ru.wikipedia.org/wiki/Мероним_и_холоним)
23. <https://star-wiki.ru/wiki/Holonymy>;
24. Лукашевич Н.В. Отношения часть-целое: теория и практика. // «Нейрокомпьютеры: разработка, применение». – Москва: Радиотехника, 2013. – С. 9.

## ONA TILI DARSLIKLARIDAGI O‘QUV TOPSHIRIQLARI MAZMUNI VA METODIKASI

**DOI: 10.53885/edinres.2021.35.95.002**

*Abdiraimov Shohruh Samad o‘g‘li*

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti  
Lingvodidaktika kafedrasida mudiri

**Annotatsiya.** *Maqolada maktab ona tili darsliklarida keltirilgan topshiriqlar mazmuni, metodikasi, ularning nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgani, topshiriqlar metodikasining o‘ziga xosligi haqida so‘z boradi. Shuningdek, topshiriqlar orqali nutqiy malakalarni baholashga mosligi nuqtayi nazaridan tahlil qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** *ona tili darsliklari, topshiriqlar, topshiriqlar metodikasi, test, nutqiy malakalarni baholash.*

Ma’lumki, insoniyat muayyan maqsadni ko‘zlar ekan, ana shu maqsadga olib boruvchi, yetkazuvchi vositalarni ham aniqlab oladi. Ta’lim jarayonida ham muayyan maqsad belgilangan ekan, unga olib boruvchi usullar va vositalarni izchil belgilab olinadi. Ana shu ta’lim maqsadiga eltuvchi vositalardan biri darsliklardir. Darslik tushunchasi ham talimning eng muhim komponentlaridan biri hisoblanadi. Bu tushunchada bir qancha ilmiy manbalarda muayyan

istilohiy ma'nolar berilgan. Xususan, olim A.Bahromov "Maktab darsliklarining yangi avlodini yaratish mezonlari" maqolasida zamonaviy darslik va unga qo'yiladigan talablar haqida to'xtalar ekan, unga shunday izoh beradi: "Darslik – o'quvchilarning davlat ta'lim standartida va dasturda belgilab berilgan bilimlarni faol va ongli sur'atda o'zlashtirishlari uchun mo'ljallangan asosiy o'quv kitobi hisoblanadi" [2;64]. Shuningdek, "Pedagogika ensiklopediyasi" darslik va uning paydo bo'lishi, darsliklar tarixi haqida batafsil ma'lumot berilar ekan, uni shunday ta'riflaydi: "Darslik – davlat tomonidan tasdiqlangan DTS asosida muayyan fanga doir bilim asoslarini ma'lum tartibda bayon etadigan va yuqori ma'naviy-g'oyaviy, ilmiy-uslubiy saviyada yozilgan o'quvchi va talabalar uchun mo'ljallangan o'quv adabiyotining asosiy va yetakchi turi".[12; 253] Bizningcha, bu istilohiy izohlar darslik va uning ta'limdagi ahamiyati va rolini ochib berish uchun kamdek. Shu bois bu tushunchaga DTSda berilgan izoh bilan tanishdik: "Darslik – davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigiyenik talablarga javob beradigan, o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, uning asoslari mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan, o'quv fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta'lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan, nazariy ma'lumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan kitob shaklidagi o'quv nashri" [11]. Darhaqiqat, bu ta'rif darslikning ta'lim jarayonidagi mohiyatini nisbatan to'laroq ochib bergan.

Jahon pedagogikasidan ma'lumki, ta'lim tizimining "ta'lim uchburchagi" degan tushuncha bo'lib, fikrimiz avvalida aytganimizdek, ular o'quv rejasi, o'qitish jarayoni va baholash hisoblanadi. Darslik esa ularning markazida joylashgan bo'lib, barchasiga uzviy ta'sir qiladi.


***("Ta'lim uchburchagi")***

Bir so'z bilan aytganda, DTS va o'quv dasturida aks etgan ta'lim maqsadi va yo'nalishiga mos bo'lgan mavzular asosida darslik yaratiladi, unda tarkib topgan savollar, topshiriqlar va mashqlar asosida muayyan mavzular o'rgatiladi, o'quvchilarda amaliy ko'nikmalar va malakalar shakllantiriladi. Ya'ni darslik o'qituvchi uchun dars mashog'ulotida o'quvchilarga

o'rgatilishi, o'zlashtirishi kerak bo'lgan BKMLarning minimum chegarasini belgilaydi. Dars mashog'ulotini yanada boy, mazmunli qilib tashkil etish o'qituvchining shaxsiy salohiyatiga, ishiga bo'lgan munosabatiga boog'liq bo'ladi.

Bir so'z bilan aytganda, DTS va o'quv dasturida aks etgan ta'lim maqsadi va yo'nalishiga mos bo'lgan, o'quvchilarda fanga oid bilim, ko'nikma, malaka (BKM) va kompetensiyalari rivojlantirishga xizmat qiladigan, shu bilan birga, ta'lim sifatini baholash uchun ishlab chiqiladigan topshiriqlar uchun manba-asos bo'ladigan pedagogik o'quv materiali darslik hisoblanadi. Shu nuqtayi nazar asosida amaldagi "Ona tili" darsliklarida berilgan mashq, topshiriq va savol(MTS)larni nutqiy malakalarni rivojlantirishga, baholashga yo'naltirilganligi yuzasidan tahlil qilib chiqamiz. Shu o'rinda, shuni ham ta'kidlashni istar edikki, ilm-fan vaqt va davr nuqtayi nazaridan yangilanib boraveradi, keyingi tadqiqotlar avvalgi tadqiqotlarning xatolarini topish emas, balki ularni davomchisi sifatida to'ldirib, boyitib, takomillashtirib boradi. Natijada har bir fanning ijtimoiy ahamiyati ortaveradi, hayotga bo'lgan foydalilik tomoni o'saveradi.

Umumiy o'rta ta'lim boshlang'ich ta'lim (I–IV sinflar), tayanch o'rta ta'lim (V–IX sinflar) va o'rta ta'lim (X–XI sinflar) kabi bosqichlarga ajratiladi [1]. Ma'lumki, boshlanog'ich sinflarda ibtidoiy nutqiy ko'nikmalar shakllantiriladi, rivojlantiriladi. Shu bois tayanch va o'rta



ta'lim bosqichlarining "Ona tili" darsliklarida keltirilgan, o'quvchilarning BKMLarini rivojlantirishga xizmat qiladigan MSTlarni tahlil qilishni ma'qul deb topdik.

Mahmudov N. va boshqalar tomonida yozilgan 5-sinf uchun "Ona tili" darsligida keltirilgan MTSlarni mazmun va metodikasi yuzasidan tahlil qilib chiqamiz. Mazkur darslik so'nggi avlod darsliklari sirasiga kirganligi uchun ham oldingi darsliklardan bir qancha yangiliklari bilan farq qiladi. Undagi MTSlar o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishga, luog'at boyligini oshirishga qaratilgan. Asosan, oog'zaki va yozma nutqini to'og'ri shakllantiradi. Ya'ni yozma va oog'zaki adabiy til me'yorlarini o'rgatishga yo'naltirilgan. Quyida shulardan ayrimlari keltirilgan.

**4-mashq.** Til haqidagi maqollarni davom ettiring. **32-mashq.** Quyidagi so'zlarni to'g'ri talaffuz qilib o'qing. Ma'nosidagi farqqa e'tibor bering va ular ishtirokida gaplar tuzing. **33-mashq.** Gaplardagi nuqtalar o'rniga qavs ichidagi so'zlardan mosini qo'yib ko'chiring. Nega aynan shu so'zni tanlaganingizni izohlang. **51-mashq.** Maqollarni ko'chiring, unlilar talaffuziga diqqat qiling. Har bir maqolni og'zaki sharhlashga urinib ko'ring. **113-mashq.** Uyg'a vazifa. Qo'l telefonining foydali va zararli tomonlarini sanab ko'ring va jadvalga yozing. **216-mashq.** Matndagi quyidagi so'zlarni to'g'ri izohlang va daftaringizga ko'chiring.

Shuningdek, ayrim mashq va topshiriqlar quruq nazariy ma'lumotni o'rgatishga xizmat qilishini ham guvohi bo'lamiz. Masalan, **2-topshiriq.** Matnni o'qing. G va k undoshi qatnashgan so'zlarga diqqat qiling. **112-mashq.** Matndan 5 ta ochiq bo'g'in bilan, 5 ta yopiq bo'g'in bilan tugagan so'zlarni ajratib yozing.

Eng muhimi, mazkur darslikda o'quvchining nutqiy ko'nikmalarini tekshirish va rivojlantirishda faqat yozma va oog'zaki javobni talab qiladigan topshiriqlardan foydalanish bilan cheklanmagan, balki yopiq test topshiriqlaridan ham keng foydalanilgan. Masalan,

**76-mashq.** Testni yeching.

1. Baxt shunday narsaki, borligida kishi uni ... , yo'qligida ... .

Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.

a) sezmaydi, orzu qiladi;

c) yo'qotadi, topadi;

b) qadrlamaydi, xohlaydi;

d) sevmaydi, orzu qiladi.

Bu kabi topshiriqlardan foydalanish o'quvchida to'og'ri va noto'og'rini qiyoslash, sabab va oqibat munosabatini anglash kabi hayotiy ko'nikmalarni rivojlanishiga sabab bo'ladi.

2017-yilda nashr etilgan Mahmudov N. va boshqalar tomonida yozilgan 6-, 7-sinflar uchun "Ona tili" darsliklarini tekshirib tahlil qilib chiqib, shuning guvohi bo'lishimiz mumkinki, darsliklar tarkibidagi MTSlar, asosan, grammatik tahlil, grammatik qonuniyatlarni o'rgatishga, mustahkamlashga, morfologik tahlil yuzasidan sof nazariy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Nutqiy malakalarni rivojlantirish esa "figura va fon"[14;486] qonuniyatiga monand "fon"ga aylanib qolgan. Quyida shunday topshiriq va mashqlardan namunalar keltirilgan.

**68-mashq.** Topishmoqlarni o'qib, javobini toping. Yasama so'zlarni aniqlang va ulardagi so'z yasovchi qo'shimchalarni belgilang. **133-mashq.** Gaplarni o'qing. Birgalik nisbatidagi fe'llar qatnashgan gaplarni ko'chirib yozing. **Topshiriq.** Berilgan so'zlarni tub va yasama otlarga ajrating. Yasama otlarning qanday yasovchi qo'shimchalar yordamida yasalganini ayting. **321-mashq.** Gaplarni ko'chiring, faoliyat-jarayon nomini bildiruvchi otlarning tagiga chizing. **211-mashq.** Ko'chiring, ergashtiruvchi bog'lovchilarni topib, izohlang. **236-mashq.** Matnni o'qing. Ayiruv-chegaralov yuklamalari qatnashgan gaplarni yozing. Yuklamalarning tagiga chizing.

Shu bilan birga, mazkur darsliklarda o'quvchilarning yozish, o'qib tushunish va oog'zaki nutqini rivojlantirishga yo'naltirilgan, xizmat qiladigan mashq va topshiriqlar ham keltirilgan, ammo bunday topshiriqlar miqdori ko'p emas.

2019-yilda nashr etilgan 8-, 9-sinflar uchun "Ona tili" darsliklarini tekshirib, tahlil qilib chiqamiz.

Qodirov M. va boshqalar tomonidan yozilgan 8-sinf uchun “Ona tili” darsligida keltirilgan MTSlarni mazmun va metodikasi yuzasidan tahlil qilib chiqamiz. Ushbu darslikda keltirilgan MTSlar orqali o‘quvchida, asosan, mumtoz va zamonaviy adabiyotga oid didaktik matnlarni tushunish, o‘quvchining lug‘at boyligini oshirish, fikrini nutqiy vaziyatga mos tarzda ta’sirchan o‘g‘zaki ifodalash hamda savodli tarzda yozma bayon qilish ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Xuddi shunday topshiriqlardan ayrimlarini keltiramiz:

**1-topshiriq.** Hikmatlarni o‘qing va mag‘zini chaqing. **1-mashq.** Quyidagi izohlardan **viqor, kibr, g‘urur, gunoh, iffat, harom-xarish, hayo, odob, ma’naviy, ma’naviyat, ziyo** so‘zlarining ma’nosini aniqlab lug‘at daftaringizga ko‘chiring. **28-topshiriq.** Matnni she’riy va nasriy ko‘rinishda navbatma-navbat o‘qing. **30-topshiriq.** Dars jarayonida tashkil etilgan «Eng chiroyli va ta’sirchan nutq» tanlovida qatnashing. **3-mashq.** «Odob – hurmat va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lmoq» mavzusida radionutq tayyorlang. **87-mashq.** «Fazilatlar gultoji» mavzusida 5 gapdan iborat ikkita matn yarating. **60-topshiriq.** Afv, xulq, afzal, madh qilmoq, uzr, qusur, masrur so‘zlaridan tavsiya etiladigan so‘zlar asosida ma’nodoshlik qatori hosil qiling. **171-topshiriq.** Matnga shaxsiy munosabatingizni og‘zaki nutq bo‘yicha «Shaxsiy fikr» bahsida namoyish qiling. **183-topshiriq.** Fozila, qutvol, navkar, tolor, eshkakchi, ko‘shk, mehrob, haram, chodir so‘zlarining ma’nolarini berilgan izohlar orasidan aniqlab, lug‘at daftaringizga ko‘chiring va eslab qoling.

Shuningdek, alohida ta’kidlashimiz kerakki, mazkur darslikda berilgan topshiriqlar o‘quvchida so‘zga bo‘lgan hisobdorlik, tejamkorlik va fikrni lo‘nda ifodalash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Masalan, **126-topshiriq.** Matn mazmunini uchta gap bilan ifoda eting. **127-topshiriq.** Uch gap mazmunini bir sodda gapda bering. **135-mashq.** Tuzgan sodda gapingizni matnning asosiy g‘oyasi bilan qiyoslang va qayta ishlang.

Umuman, ushbu darslikda grammatik qonuniyatlarni o‘rgatish nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlarga singdirib yuborilgan. Bu esa dars olib boruvchi o‘qituvchidan ham yuksak filologik va pedagogik mahoratni talab etadi.

Mahmudov N. va boshqalar tomonida yozilgan 9-sinf uchun “Ona tili” darsligida keltirilgan MTSlarni mazmun va metodikasi yuzasidan tahlil qilib chiqamiz. Mazkur darsliklardagi MTSlar ham o‘quvchilarning nutqiy malakalarini rivojlantirishga va grammatik qonuniyatlarni chuqur o‘rgatishga qaratilgan. Aksariyat topshiriqlarda grammatik qonuniyatlarni o‘rgatish ustuvor tus kasb etgan. Quyida shulardan namunalar keltiramiz.

**23-mashq.** Gaplarni ko‘chiring va tuzilishiga ko‘ra turlarga ajrating. **24-mashq.** Matnni o‘qing. Avval sodda gaplarni, so‘ng qo‘shma gaplarni ko‘chiring. Ularning o‘zaro farqini ayting. **1-topshiriq.** Teng bog‘lovchilar haqida gapiring va ular ishtirokida ikkita qo‘shma gap tuzing. **41-mashq.** Berilgan fe‘llar ishtirokida bog‘langan qo‘shma gaplar hosil qiling. **79-mashq.** Gaplarni ko‘chiring. Qo‘shma gap qismlarini bog‘lovchi vositalarni aniqlab, qo‘shma gap turini ayting.

Mazkur MTSlar, asosan, grammatik tahlil, grammatik qonuniyatlarni o‘rgatishga, mustahkamlashga, sintaktik tahlil yuzasidan sof nazariy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Endi esa 10 -, 11- sinflar uchun yozilgan “Ona tili” darsliklarini ko‘rib chiqamiz.

Avvalo, 2017-yilda nashr etilgan Mahmudov N. va boshqalar tomonida yozilgan 10-, 11-sinflar uchun “Ona tili” darsliklar tarkibidagi MTSlarni o‘quvchining nutqiy ko‘nikmalarini baholashga mosligi nuqtayi nazaridan tavsif qilib chiqamiz.

Mazkur darsliklardagi MTSlarda o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmlarni rivojlantirishga e’tibor qaratilgan. Buning yorqin namunasini quyidagi MTSlar mazmunidan ham anglashimiz mumkin.

**Topshiriq.** Matnni o‘qing. Unda ifodalangan fikr haqida mulohazalaringizni bayon qiling. **4-mashq.** Matnni o‘qing. Sarlavha qo‘yib, unda ifodalangan fikrni o‘z so‘zlaringiz bilan hikoya qiling. **9-mashq.** Nutq odobining muloqotdagi ahamiyati haqida yozma matn tuzing. **12-mashq.** «Yaxshi so‘z qand yedirar, Yomon so‘z pand yedirar» maqolidagi g‘oyani o‘z so‘zlaringiz bilan ifodalab, yozma matn tuzing. **Topshiriq.** Gaplarni o‘qing, ajratib ko‘rsatilgan



*soʻzlar tarkibidagi grammatik shakllarning adabiy til meʼyorlariga qay darajada muvofiq qoʻllanganligi haqida fikrlashing.*

Yaʼni ushbu MTSlar orqali oʻqib, eshitib tushunish, yozish va gapirish malaklari hamda oʻquvchining lugʻat boyligini oshirish mumkin. Ammo nutqiy malakalarni baholashga xizmat qiladigan topshiriqlar mazmun va metodikasi jihatdan bu topshiriqlardan farqli boʻladi. Darsliklarda nutqiy malakalarni baholashga qaratilgan topshiriqlar uchramaydi. Bitiruvchi sinflar boʻlgani uchun 10-, 11-sinf darsliklarida bunga alohida diqqat qaratilishi lozim.

Endi esi 2020-yilda nashr etilgan Mengliyev B. va boshqalar tomonida yozilgan 10-, 11-sinflar uchun “Ona tili” (II qism) darsliklari tarkibidagi MTSlar oʻquvchining nutqiy malakalarini: oʻqib tushunish, eshitib tushunish, yozish va soʻzlash koʻnikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi, desak xato qilmagan boʻlamiz, chunki darsliklardagi qariyb barcha toshiriqlar oʻquvchida nutq vaziyatini, matndagi axborotni va oʻzgan tushunish hamda shaxsiy mulohazalarini tushuntirish, ifodalash layoqatini shakllantirishga yoʻnaltirilgan. Jumladan, quyidagi mashq, topshiriq va savollarda oʻquvchining oogʻzaki va yozma nutqini rivojlantiradi, oʻqib, eshitib tushunishini shakllantiradi hamda lugʻat boyligini kengaytiradi.

**1.1-topshiriq.** Ajratilgan soʻzlarni sinonimlari bilan almashtiring. Sodir boʻlgan uslubiy va grammatik oʻzgarishlarni aniqlang. Hikoyadan chiqargan xulosangizni bir jumlada ifodalang.

**1.2-topshiriq.** Quyidagi soʻzlarning maʼnolarini izohli lugʻatdan aniqlab, lugʻat daftaringizga koʻchiring: *fasohat, yukunmoq, safolat, arkon, havza, sirgʻoq, valakisalang, mahdud.* **4.4-mashq.** Matnni oʻqing va mazmunini ogʻzaki bayon qiling. **4.5-mashq.** Test. II. Berilgan matndagi ajratib koʻrsatilgan soʻzlar qaysi terminlar bilan almashtirilishi lozim?

**Qaysi qatordagi fikr „Koʻrnamak“ hikoyatining xulosasi boʻla oladi?**

A. Savobi oshkoradan gunohi pinhona afzal.

B. Savobning tagi teshik.

C. Mehnatsiz rohat boʻlmas, savobsiz – jannat.

D. Tuzini yeb, tuzlugʻiga tupurma.

Shu bilan birga, alohida taʼkidlashimiz kerakki, darsliklarda oʻquvchining soʻzdan foydalanish mahorati – soʻzni toʻogʻri qoʻllay olishi, soʻzni tanlab foydalanish, yozma savodxonlik bilan boogʻliq koʻnikmalari ham bir qancha test topshiriqlari yordamida tekshirilmoqda.

**13.6-mashq. Testlarni yeching. Javobingizni izohlang.**

1. *Qaysi qatordagi gapda paronimlarning qoʻllanishi bilan bogʻliq xato mavjud va mazkur gap qaysi nutq uslubiga xos?*

A) *Ot chopsa, gumburlar togʻning darasi.*

B) *Majlisda kamchiliklar birma-bir sanalib, ularni tezda bartaraf etish kerakligi qayt etilsin.*

C) *Butun qishloq ahli hasharga chiqib, jonbozlik koʻrsatdi.*

D) *Yaxshiga yondash, yomondan qoch, bolaginam.*

Bir soʻz bilan aytganda, Mengliyev B. va boshqalar tomonidan yozilgan 10-, 11-sinf darsliklari tarkibidagi MTSlarni boshqa darsliklardagi MTSlarga nisbatan oʻquvchining nutqiy malakalarini rivojlantirishga va baholashda yoʻnaltirilganligi bilan ajralib turadi, desak notoʻogʻri boʻlmaydi. Ammo bu ham yetarli darajada emas, deb oʻylaymiz.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqotlarimiz shuni koʻrsatadiki, darsliklarda berilgan MTSlar umumiy topshiriq tuzish metodikasini oʻzida toʻlaqonli aks ettirmaydi, ularning metodikasi mualliflarning shaxsiy salohiyatiga boogʻliq boʻlib qolgan, ammo davr talabi bilan mukammal tadrijiy metodika kasb etib bormoqda. Bu esa darsliklarda beriladigan MTSlar metodikasi va lingvodidaktik asoslari yuzasidan ilmiy-amaliy tadqiqotlar qilishni taqozo etadi. Shu bilan birga, “Ona tili” darsliklaridagi MTSlar oʻquvchining nutqiy koʻnikmalarini rivojlantirishga aksariyat hollarda qaratilmagan, balki grammatik qonuniyatlarni oʻrgatishga urogʻu berilgan. 10-, 11-sinf darsliklari bundan mustasno. Darslik DTS, oʻqitish va baholashni birlashtiruvchi muhim ilmiy-didaktik manba boʻlganligi bois ularda nutqiy koʻnikmalarni baholashga yoʻnaltirilgan turli topshiriqlar, test topshiriqlari: yopiq testlar, ochiq testlar: qisqa javobni talab etadigan, uzun



javobni talab etadigan testlar, moslashtirishni talab etadigan testlardan, oog‘zaki so‘rov, munstaqil nutq, bahs-munozara kabilardan foydalanish shart. Shu bilan birga, topshiriqlar mazmuniga ham alohida e‘tibor berish lozim, ularda mexanik xotira bilan boog‘liq bo‘lgan – esda saqlab qolinadigan nazariy ma‘lumotlarni tekshirishga qaratilgan topshiriqlardan foydalanishni cheklash, balki fikrlashga, mushohada qilishga, dunyo qonuniyatlarini anglashga, dunyoqarashni rivojlantirishga, sabab-oqibat-yechim, shakl va mazmun mutanosibligi, inkorni inkor qilish, qiyoslash qonuniyatlarini anglashga xizmat qiladigan mazmundagi topshiriqlardan foydalanish shart.

#### **Adabiyotlar:**

1. “Ta’lim to‘og‘risida”gi qonun. <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. Bahromov A., Maktab darsliklarining yangi avlodini yaratish mezonlari// Ta’lim taraqqiyoti. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi axborotnomasi. 2001-yil 3-4-son. – 63-66-b.
3. Mahmudov N. va b. Ona tili. 10-sinf uchun darslik. –Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2017. –112 b.
4. Mahmudov N. va b. Ona tili. 11-sinf uchun darslik. –Toshkent: O‘zME, 2018. –112 b.
5. Mahmudov N. va b. Ona tili. 5-sinf uchun darslik. –Toshkent: Tasvir, 2020. – 194 b.
6. Mahmudov N. va b. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. –Toshkent: Tasvir, 2017. – 208 b.
7. Mahmudov N. va b. Ona tili. 7-sinf uchun darslik. –Toshkent: Ma’naviyat, 2017. –160 b.
8. Mahmudov N. va b. Ona tili. 9-sinf uchun darslik. –Toshkent: Tasvir, 2019. – 130 b.
9. Mengliyev B. va b. Ona tili. 10-sinf uchun darslik. –Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 96 b.
10. Mengliyev B. va b. Ona tili. 11-sinf uchun darslik. –Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 96 b.
11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori. <https://lex.uz/docs/-3153714>.
12. Pedagogika ensiklopediyasi. I jild. – T.: O‘zME, 2015. –318 b.
13. Qodirov M. va b. Ona tili. 8-sinf uchun darslik. –Toshkent: „Cho‘lpon“ nashriyoti, 2019. –144 b.
14. Yuldasheva Dilorom Nigmatovna. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. –Buxoro: Durdon, 2021.–428 b. <http://yuldasheva.buxdu.uz/index.php/kutubxona/2021-02-23-13-28-46/45-o-zbek-tilini-o-qitish-metodikasi>
15. Тихомиров О.К. Психология: Учебник / Под ред. О.В.Гордеевой. – М.: Высшее образование, 2006. – 538 с.
17. Юлдашева Д.Н. Мактабда она тили таълими муаммолари// БухДУ ilmiy axboroti (ISSN 2181-6875).–Buxoro, 2020, № 3 (75).– 268-277-б.

#### **ERKIN VOHIDOV DOSTONLARIDA PRETSEDENT BIRLIKLARNING O‘RNI**

**DOI: 10.53885/edinres.2021.94.41.003**

*Adizova Nilufar Istamovna*

Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti  
o‘zbek tilshunosligi kafedrasida o‘qituvchisi

*Annotatsiya: Ushbu maqolada muayyan til egalariga yaxshi tanish bo‘lgan va ularning lisoniy xotirasida saqlanadigan, nutqiy faoliyatda qayta-qayta murojaat qilinadigan shaxs nomlari, barqaror so‘z birikmalari, jumlar hamda matnlarning pretsedent birliklar sifatida Erkin Vohidov dostonlariga o‘zgacha mazmun baxsh etishi to‘g‘risida fikr yuritiladi. Bu kabi birliklar ma‘lum bir millatda mashhur bo‘lgan, o‘sha til sohiblari uchun muayyan assotsiatsiyani hosil qila oladigan, ommalashgan kinofilm, miflar, afsonalar, qo‘shiqlar, diniy matnlar, latifalar, ertaklar, Qur‘on va Hadislar, mashhur shaxslar, mashhur asarlar, ularning qahramonlari nomlari, mashhur voqealar bilan bog‘liq holda aks etishi misollar bilan asoslab beriladi.*

*Kalit soʻzlar: til, madaniyat, lingvomadaniyatshunoslik, ifoda imkoniyatlari, madaniyat fenomeni, milliy mentalitet, antroposentrik, assotsiatsiya, pretsedent birliklar, lisoniy xotira, maʼnaviy qiyofa, millat ruhi*

Har bir millat oʻzining milliy tili, madaniyati, oʻziga xos hayot tarzi hamda qarashlari bilan boshqa bir millatdan ajralib turadi. Milliy madaniyat taraqqiyotida esa badiiy adabiyotning, tilning oʻrni beqiyosdir. Badiiy adabiyot inson kechinmalari ifodachisi, maʼnaviy kamol topishining muhim omili sifatida muayyan ijodkor maqsadini amalga oshirish, ijtimoiy voqelikni aks ettirish, shu bilan birga, maʼnaviy taraqqiyot uchun xizmat qiladi. Zotan, Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abdugʻaniyevich Karimov “Yuksak maʼnaviyat-yengilmas kuch” asarida: “Insonni, uning maʼnaviy olamini kashf etadigan qudratli bir vosita borki, u ham boʻlsa, soʻz sanʼati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotning insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarning esa inson ruhining muhandislari, deb taʼriflanishi bejiz emas, albatta. Adabiyot, soʻz sanʼati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi boʻlib keladi.”,-deb taʼkidlaydilar [1,136-137].

XX asr boshlarida jahon tilshunosligida matnni antroposentrik nuqtayi nazardan oʻrganishga eʼtibor kuchaydi. Turli janrdagi asarlarning lingvostilistik xususiyatlarini izohlash, badiiy matnlarning semantik-stilistik imkoniyatlarini aniqlash, muayyan ijodkor asarlari nutqining ifoda imkoniyatlarini ochib berish soha rivojini taʼminlovchi muhim omillardan biriga aylandi. Zero, dunyo tilshunosligida, jumladan, oʻzbek tilshunosligida ham tilning nutq, jamiyat, madaniyat, milliy tafakkur, hatto sunʼiy intellekt bilan uzviy munosabatini oʻrganayotgan yangi-yangi yoʻnalishlarning shakllanishi fan oldiga muhim vazifalarni belgilab qoʻydi.

Til jamiyat taraqqiyoti, inson tafakkuri, hissiyoti bilan uzviy bogʻliqligi tufayli inson ongida paydo boʻlgan tushunchalar hamda subyektiv munosabatlar nutq orqali yuzaga chiqadi. Bu kabi munosabatlar esa tilda turli modal formalar, emotsional, ekspressiv-stilistik vositalar—til elementlari orqali aks etadi. Har bir ijodkor oʻz ijodi orqali tilning boy imkoniyatlarini oʻziga xos tarzda ifoda etadi, tilni betakror ifoda birliklari bilan boyitadi va soʻzning bemsil qudratini kashf qiladi. Xalq tilini qoʻllashi, yangi topilmalar asosida uning boyligini, goʻzalligini oshirishi orqali oʻz ona tilining benihoya boyligini namoyon etadi hamda shu millat vakillarini tilini sevishga, uni ardoqlashga, uning cheksiz imkoniyatlaridan bahramand boʻlishga, foydalanishga undaydi.

Til va nutq farqlanishi asosida lisoniy imkoniyatlarning badiiy nutq sifatida voqelanishini tadqiq etuvchi lingvostilistikaning nazariy hamda amaliy jihatlariga xos qonuniyatlarini tasniflash, muayyan badiiy matnlar asosida umumiy lingvopoetik imkoniyatlarni *ijodkor uslubi~til imkoniyati~badiiyat mahsuli* mushtarakligi tamoyili asosida oʻrganish bugungi kunda ham ahamiyatlidir. Oʻzbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Erkin Vohidov ijodi misolida ham tilning beqiyos birliklari, jumladan, *pretsedent birliklarning* rang-barang tovlanishlari orqali shoir uslubining oʻziga xos qirralarini namoyon etganiga guvoh boʻlish mumkin.

D.Xudoyberganovanning fikricha, rus tilshunosligida muayyan til egalariga yaxshi tanish boʻlgan va ularning lisoniy xotirasida saqlanadigan, nutqiy faoliyatda qayta-qayta murojaat qilinadigan shaxs nomlari, barqaror soʻz birikmalari, jumlar hamda matnlar *pretsedent birliklar* sifatida qayd etiladi. Pretsedent hodisalar haqidagi nazariya asoschilaridan biri D. B. Gudkov tilni oʻzlashtirishning milliy-madaniy va qomusiy darajasi bilan bogʻliq boʻlgan ayrim voqea, fakt, nom, matnlarni pretsedent hodisalar sifatida baholab, ularning lingvomadaniy hamjamiyatning aksar vakillariga tanish boʻlishini, ularning xotirasida saqlanib turishini taʼkidlaydi hamda bunday birliklarning nutqda aktuallashtirilgan koʻrinishlarini pretsedent birliklar deb hisoblaydi [3,88]. Demak, pretsedent birliklar maʼlum bir millatda mashhur boʻlgan, oʻsha til sohiblari uchun muayyan assotsiatsiyani hosil qila oladigan, ommalashgan kinofilm, miflar, afsonalar, qoʻshiqlar, diniy matnlar, latifalar, ertaklar, Qurʼon va Hadislar, mashhur shaxslar, mashhur asarlar nomlari, mashhur voqealar bilan bogʻliq boʻlishi mumkin. Ular orasida pretsedent nomlar alohida ahamiyatga ega boʻlib, mumtoz adabiyotda mashhur shaxslar, asarlar nomlarini keltirish asosida yuzaga keladigan *talmeh sanʼatiga* juda oʻxshaydi. Erkin Vohidov asarlarida qoʻllangan betakror pretsedent birliklar uning ijodiga oʻzgacha joziba, falsafiy

mazmun baxsh etish bilan birga o'zbek millatining ma'naviy-madaniy jihatdan boyligi, ulug'vorligi, dunyo tamaddunidagi beqiyos o'rni va qarashlarini, mentalitetini ham aks ettiradi. Ijodkor har bir ifoda birligini muayyan maqsad asosida, vaziyatga mos holda voqea-hodisalar badiiyligini oshirish, sujetni boyitish omili sifatida qo'llaydi: Masalan, shoir Vatanga ta'rif berish chog'ida "Ostankino minorasi"ga ulug'vorlik baxsh etish omili sifatida murojaat qiladi:

Sen meni yo'llading, Kelib men nogoh  
Ko'hna Sirdaryoning kanorasidan  
Bu kun Moskvaga tashladim nigoh  
Yuksak *Ostankino minorasidan*.

Muallif sujetni boyitish maqsadida shunday ifoda birliklarini qo'llaydiki, ular muayyan bir millatning bebaho, milliy madaniyati, faxr-iftixor ramziga aylangan mashhur shaxslarning nomlari bilan bog'liqdir:

Yo'lning azobidan egilsa qaddim,  
Betin zahmatlardan toliqsa yurak,  
*Navoiy* ruhidan madad so'radim,  
*Usmondek Pushkindan* o'tindim ko'mak.

Meni she'r bog'iga yetaklagan kim?  
Bu chaman asrorin kim etdi ayon?  
Olamdan men faqat *shodlik izladim*,  
Menga ustoz bo'ldi *Hamid Olimjon*.  
Yuragimga yana bir hamdam topdim  
*Yesenin* she'riga bo'lgach oshino.

Ko'p zahmat so'nggida Anglab yetoldim  
Ustoz *Alisherning* buyuk sehrini.  
Uni tanidim-u elimni bildim,  
Mahkamroq turganday bo'ldim zaminda.

Muallif betakror tabiati, muhim voqealari bilan ko'pchilik e'tiborini jalb etadigan, dunyoning mashhur joylari, diyorimizning so'lim maskanlari, betakror shaharlar, taniqli shaxslar nomlariga ham murojaat etgan holda o'quvchining ko'z o'ngida o'zgacha ehtiros va faxr-iftixor tuyg'ularini qo'zg'otadi:

Diyorim timsoli keksa *Tiyonshon*,  
Cho'zib ikki daryo ikki qo'lini,  
Uzatib turibdi Sharq-u G'arb tomon  
Do'stlik kosasini-*Orol ko'lini*.

*O'zbekiston* kezsam,- Ko'nglim *Toshkentda*,  
*Moskvada* sog'indim *O'zbekistonim*.  
Ammo chegaradan qadam bosganda  
Vatanimda qoldi yarimta jonim.

*Yeniseyda* o'sgan sibirlik yigit-  
Unga ham o'z yurti edi keng jahon.  
Vaqt kelib o'limga turdi betma-bet,  
*Yevropaga* qildi ko'ksini qalqon,  
Yoniq shoir yurak *Sulton Jo'raning*  
*Belorus* yerida qolgan qabri bor... ("Quyosh maskani" dostonidan)

O'xshar *Nazrul* faryodiga  
Barchasining nidosi,  
Oxir Shoir ko'z oldiga  
Kelar *Bobur* siymosi.

Aytar edi shoh o'z dardin  
*Mumtoz Mahal* xonimga:  
"To'ydim toj-taxt, Mulk-baridan,  
Bari tegdi jonimga."

Yosh *Nazrulga* qilar ta'sir  
 Falakning kaj xislati,  
 Ko'z oldidan o'tar bir-bir  
 Shoirlarning qismati:  
*Pushkin* she'ri Qildi faryod,  
 O'qqa tutdi o't qalbni.  
*Lermontovni* otgan jallod  
 Dorga osdi *Mashrabni*.  
 Shoirlarning- Erkdir dini,  
 Erkka sajda qildilar.  
 Erk kuychisi *Nasimiyni*  
 Tovonidan shildilar...

Keksa *Tokur* shukr aytdi shod,  
 Oq soqolin siladi.  
 Yosh shoirga Nurli ijod,  
 Bezavollik tiladi. ("Ruhlar isyoni" dostonidan)

Muallif mashhur asar qahramonlari va badiiy matnlar, asar nomlariga murojaat qiladi,  
 ular bilan bog'liq pretsedent ifoda birliklarini qo'llash orqali milliy-madaniy o'zlik ruhini,  
 madaniy qadriyatlarni qo'zg'atishga diqqat qaratadi:  
*Fikrat*: Bobom o'lgan emas. Mana uning yuragi, tafakkuri, hikmati, orzu va rejalar. Bular men  
 uchun dastur, **Qobusnoma**. ("Taxt va baxt" dostonidan).  
 Shunda Go'zal *Mumtoz Mahal*  
 Tinglab shohning zorini,  
 O'qib har gal Bitta g'azal  
 Ovutardi yorini.

Bedorlikda tunlar bilan  
 Ulanardi kunlari.  
 Ming bir kecha Ertak aytgan  
*Shahrizoda* singari.  
 Tilga kirar *Fuzuliy* ham:  
 "La'nat,-deydi,-taqdirga.  
*Rustam, Zolni* tanib olam  
 O'zim qoldim tahqirga..." ("Ruhlar isyoni" dostonidan)

Bu Vatan- Bir yog'i cheksiz ummondir,  
 Bir yog'ida uning muzliklar, tog'lar,  
 Bir yoni shovillab yotgan o'rmondir,  
 Bir yonida **o'rik gullagan bog'lar**. ("Quyosh maskani" dostonidan)

Oq marmardan lavha qo'yib  
*Navoiydan* bayt o'ying  
 Bu shaharga mangu qilib,  
 O'chmas qilib zarhali  
 O'rnatilsin *Farhod*larning,  
*Majnun*larning haykali.

"Vafo" nomli ko'cha uzra  
 Tursin ahli chin vafo,  
*Romeo* va *Tohir* bo'lsin,  
*Julyetta* va *Zuhro*.  
 "May va mahbub" ko'chasining  
 Kiraverish yo'lida  
 Tursin shoir *Umar Xayyom*,  
*May kosasi* qo'lida.  
 "Sargashtalik" ko'chasining

“Rashk” tupigi ustida  
**Otellation** shakli tursin  
Qora kiyib ustiga.

Bu ko‘chaning oxirida  
Bo‘lsin “Makr” maydoni.  
Tasvir eting bunda g‘olib  
**Yosuman** va **Yagoni**.

“Gumon” va “G‘ash” ko‘chasiga  
Belgi qo‘ying kattakon.  
Bu ko‘chaga kirishmasin  
Yosh oshiqlar hech qachon. (“Palatkada yozilgan doston”dan).

Pretsedent nomlar muayyan millat mentaliteti bilan bog‘liq milliy-madaniy jihatlarni aks ettirish bilan birga universal ahamiyatga ega bo‘lishi bilan ham xarakterlidir. Masalan, muallif dostonlarida qo‘llangan **Temur**, **To‘xtamish** (*Yog‘dirdi ustingdan balolar toshin Temurdan kaltak yeb qochgan To‘xtamish.*), **Napoleon** (*Olam yengolmagan Napoleonn Sening mujiklaring rosa bopladi.*), **Gitler** (*Sening ostonangda Gitlerning qattol Vahshiy galalari tutday to‘kilgan.*), **Gyote**, **Faust** (*Gyote ochdi menga sirlar kitobin Faust bilan birga sayr etdim dunyo.*), **Fuzuliy** (*Fuzuliy devonin qo‘limga oldim, U soldi ko‘nglimga g‘azal mehrini.*), **Olatov**, **Chingiz** (*Chingiz Olatovga baxsh etdi yurak...*), **Mirzo (Bedil)**, **Badaxshon** (*Mirzo g‘azalida kuldi Badaxshon.*), **Shohi Jahon** (*Xullas...Taxmin, Mirzo Bedil Tirikligi vaqtida Shohi Jahon o‘ttiz bir yil O‘ltirdi Hind taxtiga.*), **Bayron**, **Yunon** (*Bayron-o‘z yurtining suyuk o‘g‘loni, O‘z eli mehri-la tuzdi-yu navo, Yunon tuprog‘ida uzildi joni, Bir xalq erki uchun jon qildi fido.*), **Sa‘diy**, **Iskandar** (*Sa‘diyini lol etgan edi bu chiroy, Iskandar ham balki unga boqardi; Bunday ash‘or Sa‘diyga yot Hofiz uchun begona.*), **Rus**, **Ukraina**, **Kavkaz**, **Qrim**, **Polsha** (*Rus va Ukraina, Polsha tuprog‘i, Bu yonda beg‘ubor Kavkaz va Qrim.*), **Toj mahal** (*Qo‘zg‘al, Buyuk Toj mahalning Shukuhi uchun.*), **Budda** (*Kim shariat yo‘lin tutmas, El bilarki, gumrohdir. “Ul kun Budda: Mard agar sen Dardni ichga yut, degan.*), **Rudakiy** (*Bobokalon Rudakiy der: “Quloq solgin so‘zimga. Adolat deb bitdim she‘r Nil tortdilar Ko‘zimga.”*) kabi ko‘plab birliklar allaqachon dunyoning aksariyat millat vakillari ongida muayyan assotsiatsiyalarni uyg‘otib ulgurgan birliklar sifatida qo‘llanishi bilan ahamiyatlidir.

Umuman olganda, shoir ijodiy kamoloti uning har bir nutq birligini muayyan badiiy maqsadni ko‘zlagan holda milliy-madaniy ruhni qo‘zg‘atishning muhim omili sifatida qo‘llashi orqali namoyon bo‘ladi. I.A.Goncharovning fikricha, “Til nafaqat gapirish, nutq, balki insonning ichki dunyosi, obrazi: uning yurak deb atalmish aqli, u tarbiya, aqliy va axloqiy kuchning yaratuvchisi va tashuvchisidir. Uning dialogik munosabati inson haqida bilish, uning dunyodagi o‘rni, Xudoga, tabiatga, uning atrofidagi odamlarga bo‘lgan munosabatida jamlangan” [2,118]. Zero, razm solsak, har bir shaxsning nutqida uning inson sifatidagi qiyofasi, odamlarga, atrofida sodir bo‘layotgan hodisalarga, borliqqa munosabati aks etadi. Uning hayoti davomida orttirgan ko‘nikmalari, odob-axloqi, qarashlari zamirida u mansub bo‘lgan xalqning milliy-madaniy qiyofasi bo‘y ko‘rsatadi.

#### Adabiyotlar:

- 1.Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat-yengilmas kuch. Toshkent: Ma‘naviyat, 2008.
2. Saidova M., Qo‘ziyeva U. Lingvokulturologiya. –Namangan, 2017.
- 3.Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi.– Toshkent: Fan, 2013.
- 4.Вохидов Э. Достонлар. –Тошкент, 1973.
- 5.Dildora Yusupova, Dilorom Yuldasheva. Halima Xudoyberdiyeva she‘riyati lingvopoetikasi.– Germaniya: “Globe Edit international Publishing Group” ISBN: 978-620-0-60879-6.– 2020.– 125 p. <https://www.amazon.ae/Xudoyberdiyeva-sheriyati-lingvopoetikasi-Dildora-Yusupova/dp/6200608792>
- 6.Adizova N.I. Ona tili umummillat mulkidir.journal.buxdu.uz. Buxoro, 2020.
- 7.Adizova N.I. Erkin Vohidov–inson kechmishlarining mohir kuychisi//Journal Oriental renaissance:Innovative, educational, natural and social sciences. Toshkent, 2021.

## БУХОРО ТУМАНИ ОЙКОНИМЛАРИ ҲАҚИДА

DOI: 10.53885/edinres.2021.18.28.004

*Нодира Бахтиёровна Адизова*

Бухоро давлат университети ўқитувчиси,  
ф.ф.ф.д (PhD)

**Аннотация:** Мазкур мақолада Бухоро тумани микротопонимиясини алоҳида тадқиқ манбаи сифатида ўрганишнинг асосий йўналишлари баён этилган.

**Annotatsiya:** В данной статье рассмотрены вопросы изучения основных направлений исследования микротопонимов Бухарского района.

**Annotatsiya:** The article deals with the issues concerning the studies of the main directions in researching microtoponyms of the Bukhara region.

**Таянч сўзлар:** топоним, жой номи, ономастика, топонимия, микротопонимия, ойконим, содда топоним, мураккаб топоним, гидроним.

**Ключевые слова:** топоним, название местности, ономастика, топонимия, микротопонимия, ойконим, простые топонимы, сложные топонимы, гидроним.

**Key words:** toponym, place name, onomastics, toponymics, microtoponymy, simple toponym, complicated toponym, hydronym.

Тил луғат тизимидаги мавжуд бирликларнинг бир қисмини ономастик лексика ташкил этиши ҳеч биримиз учун сир эмас. Ономастик лексиканинг асосий йўналиши ҳисобланган топонимлар, шу жумладан, ойконимлар алоҳида бир лексик қатлам саналадики, улар аҳоли истиқомат қиладиган ҳудудлар, жойларнинг атоқли отлари саналадиган ойконимлар кишилиқ жамияти, унинг тарихи ва ривожланиши билан узвий боғлиқ. Аҳоли яшаш жойларига ном бериш кундалиқ ҳаёт тарзининг зарурий эҳтиёжларидан биридир. Ойконимлар ўзи тааллуқли бўлган ҳудуднинг турли жиҳатларини акс эттиради. Бунда асосий эътибор аҳолининг этник таркиби, касб-кори, ҳудуднинг географик ўзига хослиги, рельефи, унга ёндош бўлган бошқа объектлар ва ҳоказоларга қаратилган бўлади.

Ойконимлар гуруҳи мураккаб бир тизим сифатида ўз таркибига ўлка, вилоят, мамлакат, шаҳар, посёлка, қишлоқ, маҳалла, гузар, қалъа, овулларнинг номларини камраб олади.

Бухоро тумани топонимлари ҳудудида 1та туман, 1та шаҳар, 253та қишлоқ, 36та маҳалла номи мавжуд. Бу ҳудуддаги умумий топонимларнинг 29,8%ни ташкил этади.

Таъкидлаш керакки, Бухоро тумани вилоят номидан трансонимизация орқали ҳосил қилинган. Бухоро қадим Шарқнинг маданият ўчоқларидан бири сифатида маълум ва машҳурдир. Туман маркази Гала Осиё шаҳри деб аталади. Мазкур ном ҳам тарихий топонимларга мансубдир.

С.Найимов: Гала Осиё гала сўзининг “бон”, “чўпон” маънолари бор. Гала – қатор, осие – тегирмон демақдир. Тегирмонда тортилган ғалла учун олинадиган тегирмон ҳақини тожик тилида ғаллаи осие ёки ҳаққи осие”, дея қайд этган [1, 14]. Машҳур топонимист олим Т.Нафасов *гала* элементи ҳақида фикр билдирар экан, ўзбек халқининг гала деган уруғи борлиги, у манғитларнинг оқманғит бўлимига қарашли уруғ эканлиги ҳамда *гала* сўзнинг микдорий белги ифодаланиши (*Галабулоқ, Галабута, Галажар*)ни кўрсатган [2, 79-81]. С.Қораев ҳам *гала* сўзи “бир тўп” маъносида топонимлар таркибида учрашини кўрсатган [3, 57].

Демак, Гала Осиё ойконими *тегирмон* маъносидаги бирлик асосида шаклланган. *Ғалла осие* – *галла тегирмони* маъносига эга бирликнинг товуш ўзгаришлари орқали *гала осие* шаклига, ундан атоқли от сифатида Галаосие кўринишига ўтган. Қолаверса, бу ҳудуддан Зарафшон дарёсининг бир ирмоғи оқиб ўтган. Мана шу ирмоқ лабида ғаллани унга айлантирадиган тегирмонлар жойлашган. Зеро, *Гала Осиё* – *галла осие* – *галла тегирмони* сифатида шарҳланиши ҳақиқатга яқинроқ.

Бухоро атамаси ҳақида билдирилган фикрларни таҳлил этар эканмиз, аввало, унинг *Нумижкат, Бумискат, Навмичкат, Бухоро* тарзида аталганини, жумладан, *Навмичкат* –

уч сўздан иборат бўлиб, маъноси “Нав” форсча – янги, “мич” суғдий – “қалъа”, “истехком”, “кат” – қишлоқ, яъни *Навмишкат*– “янги қалъа”, “янги шаҳар”, “янги мустаҳкамланган қишлоқ” маъносини беришига эътибор қаратамиз. Манбаларда ҳозирги арк турган ерда бир қалъа, шаҳристон ва Мири Араб мадрасалари ўрнида бир-бирига рўпара яна иккита қалъа бўлганлиги, кейинчалик ана шу учта қалъа, яъни **Фаробдиз, Бухор, Навмишкат** қўшилиб кетганлиги қайд этилган [4, 22-28].

Қадимги Бухоронинг номлари орасида энг машҳури “Бухоро”дир. Бу топонимнинг маъноси хусусида ҳам хилма-хил фикрлар мавжуд. Жумладан, машҳур шарқшунос олим, академик В.Бартольд бу атамани қадимий ҳинд тили, санскритча “Вихара” – ибодатхона (монастирь) ёки будда дини роҳиблари йиғиладиган жой тарзида изоҳлайди. А.Мухаммаджонов эса уни сўғдча “Буғ” — тангри, “оро” – “жамоли”, яъни “Тангри жамоли” тарзида изоҳласа [5, 282.], Мухаммад Ғиёсиддиннинг “Ғиёс ул-луғоти”да “илм, илм макони” демакдир тарзида шарҳланган [6, 119-120].

Бухоро тумани ойконимлари тизимида аҳоли пункти – қишлоқ номларини англатувчи бирликларнинг умумий сони 253тани ташкил этади. Худудда аниқланган қишлоқ номларининг аксарияти қадимий бўлиб, уларнинг айримлари бир неча асрлик тарихга эга.

Қишлоқ номларини билдирувчи бирликларнинг семантикасида қуйидаги манзарага гувоҳ бўлиш мумкин:

– тарихий номлар: *Арабхона, Афғонон, Бешбўри, Бешкапа, Вагоскент, Ваҳмкор, Галаосиё, Дегрез, Денов, Ёбухона, Жанафар, Кулонхона, Қорақўлиён, Қумработ, Мангитон, Навметан, Оқ работ, Сўфиён, Тикончи, Туркон, Ўзбекон, Урганжихона, Хитоён, Чандир, Шергирон, Юзон, Қатагон;*

– тарихий топоним асосида ясалган замонавий номлар: *Кичик Арабхона, Обод Мангитон, Юқори Арабхона, Юқори Кобдун, Юқори Қумработ, Юқори Қўширабот, Юқори Навметан, Қўйи Арабхона, Қўйи Кобдун, Қўйи Олмазор, Қўйи Ўба, Қўйи Қумработ, Қўйи Шехонча* каби. Бу тарздаги номлар, таъкидлаб ўтилганидек, кейинги даврларда худуд аҳолиси сонининг ортиши сабабли қишлоқ худудининг кенгайиши натижасида пайдо бўлган топообъектларга нисбатан қўлланган;

– таркибида миқдор билдирувчи сонлар мавжуд бўлган номлар: *Бешарик, Бешбўри, Бешкапа, Чилтаноп, Чоработ, Чорбақр, Чорраха, Юзон;*

– жойлашиш ўрнига ишора қилувчи номлар: *Арабхонаиболо, Арабхонаипоён, Бозорчаболо, Дардкашболо, Дардкашпоён, Деҳимиёна, Деҳичаибаланд, Калонипоён, Қунжи қалъа, Работибаланд, Работиболо, Работипоён, Работимиёна, Сўфиёнболо, Тахмачиболо, Ўзбакониболо, Хуминиболо, Чоработмиён, Юринпоён;*

– белги-хусусият асос бўлган номлар. Бундай номлар *оқ, қора, сабз* сўзлари иштирокида шаклланган: *Оқработ, Оқпўлат, Сангсабз, Қоражери, Қорабобо;*

– миллат, халқ, уруғ, қабила, қавм билдирувчи сўзлар асосида пайдо бўлган номлар: *Арабхона, Афғонон, Бешбўри, Дарғали, Ёбухона, Жанафар, Кичикбой, Қалмоқон, Қорақўлиён, Мангитон, Мўғулон, Оғар, Оқпўлат, Алотхона, Работиқалмоқ, Сандиқли, Туркон, Туркон обод, Ўзбакониболо, Ўзбекон, Урганжихона, Халаж, Хитоён, Шихон, Шихонча, Чандир, Чандирработ, Юзон, Қатаган;*

– антропонимлар асос бўлган номлар: *Давлатобод, Жонбобо, Қавола Маҳмуд, Қози Саид, Работи Миржон, Работи Охун, Сатторобод, Темирхўжа, Ҳасанаттор, Шариф Нурхон;*

– касб-ҳунарни билдирувчи сўз асосида шаклланган номлар: *Бахмалбоф, Бозорчи, Ваҳмкор, Гилембоф, Дегрез, Дўғдўз, Дуктарош, Инакчи, Қамчибоф, Қуттисоз, Қушхона, Миришкор, Мокисоз, Мошкорон, Пиёзкор, Уста Чармгар, Ҳалвогарон, Чармгар;*

– унвон-амал ифодаловчи сўзга асосланган номлар: *Амиробод, Деҳчабеги, Додхоҳ, Маликон, Подшоҳи, Работи Тўқсоба, Тўқсабой;*

– ўсимлик ва у билан алоқадор тушунчалар асосида шаклланган номлар: *Богикалон, Богидашт, Богимаржон, Кўчабоғ, Олмазор, Талигандум, Тутихушк, Шалгамхўрон;*

– сув ва у билан боғлиқ тушунчалар асосида ясалган номлар: *Арикча, Бешарик, Жўборча, Жўйи одоқ, Лабижўй, Лабирўд, Сарижўй, Сувчиқар;*

– дин ва у билан боғлиқ номлар: *Деҳисайидон, Мулки Саидон, Работиэшон, Сўфиён, Сўфиёниболо, Сўфикоргар, Хўжаработ, Хўжачақмоқ, Хўжаҳайрон, Шайхлар, Шихон, Шихонча;*

– замонавий номлар: *Гулистон, Дўстлик, Тинчлик, Янгиобод, Янгитурмуш, Ўзбекистон.*

БТТ сирасида юқорида қайд этилган гуруҳларга мансуб бўлмаган бошқа номлар ҳам мавжуд.

Баъзан бир асос турли қишлоқ номлари таркибида иштирок этганига гувоҳ бўлиш мумкин:

– дех: *Десўхта, Деҳисайидон, Дехони, Деҳча, Деҳимиёна, Деҳичаибаланд, Деҳож, Деҳчабеги;*

– работ: *Работак, Работибаланд, Работиболо, Работиқалмоқ, Работипоён, Работи Тўқсоба, Работиэшон, Работимиёна, Работи Миржон, Работи Охун, Работитўпчи.*

Бухоро тумани микротопонимларини йиғиш жараёнида 36 маҳалланинг номи қайд этилди. Барчаси қишлоқ ва гузарлар номларининг такроридир: *Амиробод-Гулистон, Подшоҳи, Арабхона, Қавола Маҳмуд, Богидаит, Қўйходим, Богикалон, Работак, Деҳча, Работипоён, Дилобод-Зафаробод, Работиқалмоқ, Дўстлик, Саховат, Галаосиё, Соҳибкор, Гулианобод, Сўфикоргар, Истиқбол, Талалиён, Кунжиқалъа, Туркон, Кулонхона, Хонобод, Кўчкамар, Хумин, Маданият-Работ, Янгиобод, Мустақиллик, Янгитурмуш, Навметан, Шергирон, Наврўз, Шехонча, Ойбек, Зарманок каби.*

*Амиробод-Гулистон, Дилобод-Зафаробод, Маданият-Работ* кабилар фақат маҳалла номи сифатида, қолганлари эса ҳам маҳалла, ҳам қишлоқ номи сифатида қўлланади.

Маҳалла номларидан *Подшоҳи, Арабхона, Қавола Маҳмуд, Богидаит, Қўйходим, Богикалон, Работак, Деҳча, Работипоён, Работиқалмоқ, Галаосиё, Сўфикоргар, Талалиён, Кунжиқалъа, Туркон, Кулонхона, Хонобод, Кўчкамар, Хумин, Навметан, Шергирон, Шехонча, Зарманок* кабилар тарихий номлар; *Амиробод-Гулистон, Дилобод-Зафаробод, Дўстлик, Саховат, Соҳибкор, Гулианобод, Истиқбол, Маданият-Работ, Янгиобод, Мустақиллик, Янгитурмуш, Наврўз, Ойбек* кабилар эса замонавий номлар сирасига киради.

Худуддаги маҳалла номларини таркибида антропоним ва этноним иштирок этган (*Қавола Маҳмуд, Ойбек; Арабхона, Работиқалмоқ, Туркон*) ҳамда ҳажм-ўлчов билдирувчи бирлик (*Богикалон, Работак, Деҳча, Шехонча*), жойлашиш ўрнига ишора қилувчи бирлик (*Работипоён, Кунжиқалъа*) мавжуд топонимлар учрайди.

Хуллас, Бухоро тумани ойконимлари ҳам топонимияда ўз ўрнига эга. Уларни изчил тадқиқ этиш, пайдо бўлиш сабабларини изоҳлаш ҳамда грамматик структурасини ўрганиш ўзбек топонимиясидаги мавжуд масалаларини очиб беришга хизмат қилади. Бу орқали вилоят, қолаверса, республика топонимиясининг кенг кўламли тадқиқини амалга ошириш имкони яратилади.

#### **Адабиётлар:**

1. Найимов С. Бухоро вилояти жой номларининг қисқача изоҳли луғати. – Бухоро, 1997. – Б. 14.
2. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. Қашқадарё вилояти қишлоқлари номининг тадқиқи. –Т.: Мухаррир, 2009. – Б. 79-81.
3. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Т., 2005. – Б.57.
4. Бухоро – шарқ дурдонаси. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б. 22-28.
5. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 2-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2001. – Б.282.
6. Муҳаммад Ғиёсиддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе: Адиб, 1987. – Саҳ.119-120.



**DOCTORAL STUDENTS: RELATIONSHIPS BETWEEN INVOLVEMENT IN  
ACADEMIC-SOCIAL ACTIVITIES AND SELF-PERCEIVED ACADEMIC GAINS**  
**DOI: 10.53885/edinres.2021.35.50.005**

*Zamira Akobirova,*

PhD Director of Admissions  
Professor, Reformed University  
Paper Manuscript

The purpose of this study was to examine the extent to which doctoral students in six research universities involve in academic and social activities and how this involvement is related to their academic gains as measured by the students' survey responses. Through the regression analysis, the study investigated the relationships between student involvement and six academic gains during doctoral education: (a) acquisition of academic knowledge and skills, (b) writing clearly and effectively, (c) presenting research, (d) publishing research, (e) career preparation, and (f) satisfaction with academic gains. Results of the data analysis revealed that doctoral students indicated low level of satisfaction with their academic gains during their doctoral education. Only those who had research assistantships indicated higher than average levels of acquisition of academic knowledge and skills. A supportive campus environment was a significant contributor to all six types of academic gains. Student-faculty interaction and involvement in social activities had lower than average means for the population of doctoral students in six research universities under this study. Overall, the students were not extensively involved in academic and social activities during their doctoral education.

Several studies reveal how doctoral students experience academic, social, and psychological barriers and what coping strategies they use to overcome these barriers (Golde, 1999; Harman, 2003; Mehra & Bishop, 2007; Wei, 2001). Those students who persist year-to-year, have high grade point averages, and complete their doctoral degree are considered successful students (Gardner, 2009). In order to persist in their doctoral program and complete the doctoral degree, the students are expected to meet certain academic requirements of the doctoral education such as mastering the coursework, gaining academic knowledge in their field, acquiring research skills, and writing their doctoral dissertation (Gardner, 2009; Lovitts, 2008; Nerad, 2004). Besides meeting the academic requirements of the doctoral programs, the students have their own expectations such as obtaining the knowledge and skills that prepare them for their professional career after graduation (Golde & Dore, 2004).

Gardner (2009) describes academic gains for doctoral students based on three stages in doctoral programs. These stages are entry, integration, and candidacy stages. Passing through these stages, doctoral students face the challenges of successful completion of coursework, comprehensive exams, and dissertation (Gardner, 2009). While taking courses in their discipline, the students start developing academic skills in reading, writing, speaking, and analyzing the course materials. In this study, academic skills were examined by asking doctoral students to rate their academic skills in their knowledge acquisition in their doctoral area of study, their critical and analytical thinking, effective learning on their own, and clear writing. Consequently, in the integration and candidacy stages of their doctoral programs, doctoral students develop research skills while taking candidacy exams and writing their dissertation. That is why, the survey for this study asked the students to rate their academic gains in presenting research at conferences, seminars, and workshops. Also, they were asked to rate their academic achievement in publishing research in scholarly journals so that the study could better examine the development of research skills among students in doctoral programs. In the integration and candidacy stages of their doctoral programs, the students also start seeking professional positions, preparing for professional roles, and making decisions in career plans, which are the indicators of career preparation (Gardner, 2009). As this study focuses on doctoral students, I look at their academic gains as described by Gardner (2009): academic skills, research skills, career preparation, and academic satisfaction. The research studied the self-perceived academic gains in these four areas

separately. This study had eleven independent variables based on the theories of student involvement in educationally purposeful activities and social activities. There were six dependent variables in the study based on the self-reported academic gains of the doctoral students.

In this research, the doctoral students reported high level of programmatic emphasis on studying, moderate level of having a supportive campus environment, low level of involvement in active and collaborative learning, participation in co-curricular activities, and limited involvement in activities like student-faculty interaction, participation in extracurricular activities, attendance at various events, and the usage of technology. The self-reported academic gains (acquisition of academic knowledge and skills, clear and effective writing, presentation and publishing ability and career preparation) of doctoral students at the participant universities were found to be in the range of *average* to *good*. While none of these gains were perceived by the participants as *excellent*, the participants reported rather low level of overall academic satisfaction.

Overall, two types of student involvement – the supportive campus environment and participation in co-curricular activities – were perceived as key contributors to the students' satisfaction with their academic gains. The active and collaborative learning, supportive campus environment, usage of technology, and programmatic emphasis on studying and socializing were significantly related to the students' acquisition of academic knowledge and skills in their doctoral area. The supportive campus environment was the only independent variable that was significantly related to the doctoral students' ability to write clearly and effectively. The student participation in co-curricular activities, supportive campus environment, and time that they spent on academic work had a significant relationship with presenting and publishing research among the doctoral students. In addition, active and collaborative learning and programmatic emphasis on socializing were significantly related to publishing research. Student-faculty interaction and a supportive campus environment were found to have a significant relationship with the career preparation of students in doctoral programs. The financial assistance in forms of the research assistantship, scholarships and the teaching assistantship combined with scholarship, also were found to be significant contributors to the overall satisfaction of students.

In conclusion, this research indicated a definite relationship between students' academic and social involvement and their academic achievement in doctoral study. Various key areas for improvement such as the emphasis on active and collaborative learning, student-faculty interactions and involvement in extra-curricular activities social involvement were identified. The key findings will be shared with the participant universities and I hope that these findings will be of significant benefit to the universities, faculty and students in achieving academic excellence in doctoral education and have positive social experience in the United States which is the ultimate goal of the American higher education institutions.

#### REFERENCES:

1. Gardner, S. (2009). The development of doctoral students: Phases of challenge and support. *ASHE Higher Education Report*, 34(6), Jossey-Bass, 152 pages
2. Gardner, S. (2009). Student and faculty attributions of attrition in high and low-completing doctoral programs in the United States. *Higher Education*, 58 (1), 97-112
3. Golde, C. (2005, November/December). The role of the department and discipline in doctoral student attrition: Lessons from four departments. *The Journal of Higher Education*, 76(6) 669-700.
4. Golde, C. M., & Dore, T. M. (2001). At cross purposes: What the experiences of today's doctoral students reveal about doctoral education. Wisconsin Univ., Madison, Pew Charitable Trusts, Philadelphia, PA
5. Harman, G. (2003). International PhD students in Australian universities: Financial support, course experience and career plans. *International Journal of Educational Development*.

6. Mehra, B. & Bishop, A. (2007). Cross-cultural perspectives of international doctoral students: Two-way learning in library and information science education. *International Journal of Progressive Education*, (3) 1

7. Wei, C. (2001). *How male and female doctoral students experience their doctoral programs similarly and differently*. Paper presented at the Annual Meeting of the American Educational Research Association, Seattle, WA.

## ИККИНЧИ ДАРАЖАЛИ БЎЛАКЛАРНИНГ ВАЛЕНТЛИК АСПЕКТИДАГИ ТАЛҚИНИ

DOI: 10.53885/edinres.2021.63.80.006

*Шукуржон Акрамов*

Кўкон давлат педагогика институти доценти

**Аннотация.** *Ҳол-тўлдирувчиларнинг гапда тутган ўрни мураккаб. Улар ҳол тизимининг ўзида ҳам ҳол - тўлдирувчи зиддиятида туради, моҳияти эса муайян нутқ шароитида ойдинлашади. Детерминантлик эса ўз хусусиятига кўра ҳоким компонент билан нисбатан кучсиз алоқада ва вазифасига кўра бутун гапни кенгайтирувчи сифатида намоён бўлади. Мақолада тўлдирувчи ва ҳол, шунингдек, детерминантлик функцияларини ойдинлаштириши валентлик имконияти асосида амалга оширилиши кўрсатилади.*

**Калит сўзлар:** *ҳол, валентлик, детерминантлик, тўлдирувчи, гапнинг мустақил кенгайтирувчилари*

Иккинчи даражали бўлақларни гапнинг кесимидан «узиш», «ажратиш»га томон илк қадам тилшуносликда «детерминантлар», «гапнинг мустақил кенгайтирувчилари» тушунчаларини киритиш орқали амалга оширилди. Хусусан, рус ва ўзбек тилшунослигида «детерминант тўлдирувчилар», «детерминант ҳоллар» атамаси остидаги талқинлар анча оммалашди. Бу борада рус тилшунослигида Н.Ю.Шведова, В.П.Малашенко, О.А.Криловлар томонидан олиб борилган тадқиқотларни, ўзбек тилшунослигида эса К.Ҳайитметов, А.Аҳмедов, М.Бошмоновларнинг илмий талқинларини кўрсатиш ўринлидир. Детерминантлар иккинчи даражали бўлақларнинг махсус кўриниши бўлиб, улар одатдаги ҳол ва тўлдирувчиларга ёндош синтактик ҳодисадир.

Одатдаги тўлдирувчи ва ҳоллар битишув ёки бошқарув алоқалари ёрдамида феъл-кесимларга боғланиб, сўз бирикмалари ҳосил қилиб, уларни тўлдириш учун хизмат қилади. Бунда тўлдирувчи ёхуд ҳол - тобе, феъл-кесим эса ҳоким сўз функциясида келади. Лекин ҳол ёки тўлдирувчи формасида шаклланган детерминантлар қўлланган гапларда буларга (детерминантларга) нисбатланган ҳолда, аввало, сўз бирикмасини, қолаверса, унинг сўз бирикмаларига хос бирор ҳоким компонентини аниқлаб бўлмайди. Масалан, Б у у й д а менинг сўзим қонун (Ш.Р.). Й ў л д а ёлғизлик ёмон (қўшиқ). Интизом тўғрисида қарор қабул қилинди каби икки составли гапларда йўлда, интизом тўғрисида иккинчи даражали бўлақлари сўз бирикмаси таркибига кирмайди ва йўлда ёлғизлик, йўлда ёмон, интизом тўғрисида қарор, интизом тўғрисида қабул қилинмоқ каби сўз бирикмаларини ҳосил қилмайди. Бу бўлақлар бутун гапга, унинг эга ва кесимдан ташкил топган яхлит предикатив асосига алоқадордир. Улар конкрет бирор сўзни, бирор гап бўлагини эмас, балки бутун гапни кенгайтиради.

Бу изоҳлардан кўриниб турибдики, детерминант тўлдирувчи ва детерминант ҳол тушунчалари функционал нофункционал тўлдирувчи ёки функционал нофункционал ҳол тушунчаларидан тамоман фарқ қилади. Функционал нофункционал тўлдирувчи (ёки ҳолли) сўз бирикмаларининг ҳоким сўз гап кесими ёки гап таркибидаги ўрам (равишдош, сифатдош, ҳаракат номи оборотлари) маркази мавқеида келиш-келмаслиги билан боғлиқ бўлса, дитерминант нодитерминант тўлдирувчи ёки ҳоллик гап таркибидаги айрим

сўзларга (бўлақларга) ва ҳатто кесимга бевосита тобеланган-тобеланмаганлик алоқалари билан боғлиқдир. Кесимга бевосита тобеланган тўлдирувчи ва ҳоллар нодетерминант тўлдирувчи, нодетерминант ҳол сифатида баҳоланса, гап кесимига бевосита тобеланмаган ҳол ёки тўлдирувчилар детерминант ҳол, детерминант тўлдирувчи деб аталади. Детерминантлар ҳақидаги таълимотнинг синтактик таҳлил ва талқинларда берилиш, яшаш жараёнидаги муҳим аҳамияти шундаки, у иккинчи даражали бўлақларни гапнинг бош бўлақларидан ажратди ва гап таркибида эга ва кесим таркибига кирмайдиган тўлдирувчи ва ҳолларнинг ҳам бўла олиш масаласини ўртага қўйди. Тилшуносликда детерминантлар тушунчасининг шаклланиши гап қурилиши ҳамда гап бўлақлари ҳақидаги талқинларни қайта кўриб чиқиш заруратини юзага келтиради.

Синтактик талқинларни мукаммаллаштиришни тақозо этувчи омиллардан яна бири тўлдирувчи ва ҳолларни фарқлаш учун ишончли илмий асосларнинг мавжуд эмаслигидир. Рус тилшунослигида ҳам, ўзбек тилшунослигида ҳам тўлдирувчи ва ҳолларни фарқлашга бағишланган ўнлаб диссертациялар ёзилганлигига қарамай Китобни шкафга қўйдим каби гапларда «шкафга» сўз шаклини тўлдирувчимиз ёки ҳол эканлигини фарқлашнинг имконияти ҳамон луғавий маъно, сўроқ бериш усули бўлиб қолмоқда. Буларнинг барчаси гап қурилишининг анъанавий талқинига, хусусан иккинчи даражали бўлақларнинг гап қурилишидаги мавқеи масаласига янги нуқтаи назарлардан ҳам қараш зарурлигини тақозо этмоқда.

XX аср бошларида системавий тилшуносликнинг ривожланиши ва унинг кун сайин таракқий этиши гап қурилиш ҳақидаги янги қарашларга асос бўлмоқда.

Системавий тилшуносликнинг энг асосий тушунчаларидан ва таҳлил асосларидан бири нутқ фаолиятини лисоний ва нутқий босқичларга ажратилди. Умуман, системавий таҳлилда ҳодисанинг лисон ва нутқ асосига диққат қаратилади. Чунки лисоний ҳодисаларнинг ўрганиш усули нутқий ҳодисаларнинг тадқиқ усули ва йўлларидан тубдан фарқ қилади. Нутқий ҳодисалар жонли мушоҳада этилса, лисоний ҳодисалар идрок, мавҳум ақлий таҳлил, ўзаро муносабатларни ва алоқадорликларни очиш ва тавсифлаш йўллари билан таҳлил қилинади. Шунинг учун ҳам системавий тилшунослик аввало гап ва унинг қурилиши, гапда бош ва иккинчи даражали бўлақларнинг ўрни масаласини ўрганишга бевосита киришар экан, аввал анъанавий тилшунослигимиздаги гап ва унинг остида яширинган моҳиятининг лисон – нутқ бўлинишидаги ўрнини аниқлашга катта эътибор берди. Натижада шундай хулосага келиндикки, рус тилшунослигидаги Пешковский - Виноградов, ўзбек тилшунослигидаги Боровков-Ғуломов таълимотларида тавсифланган гап асосан нутқий ҳодисадир. Ушбу масалалар Р.Сайфуллаева, М.Абузаловаларнинг махсус ишларида ва бир гуруҳ тилшуносларнинг жамоавий формал-функционал тадқиқот тезисларида атрофлича муҳокама этилганлиги учун булар ҳақида унга батафсил тўхталмасак ҳам бўлади. Ўзбек тилшунослигида Ҳ.Неъматов, Р.Сайфуллаева, М.Абузалова, рус тилшунослигида Н.Ю.Шведова, В.А.Белошопкова издошлари яқдиллик билан таъкидлаганларидек, Пешковский - Виноградов - Ғуломовлар таълимотидаги «эга» тушунчаси асосан нутқ жараёнлари билан боғлиқ бўлиб, «лисоний гап» ундан фарқ қилади. Чунки лисоний гап миллионлаб нутқий гаплар учун зарурий ва доимий таркибий қисмлар ва уларнинг ўзаро муносабатлари ҳақида мавҳум чизма, қолип (модел) шаклига эга бўлиши ва у ўзида нутқий гапларнинг барчаси учун умумий, зарурий бўлган таркибий қисмларни акс эттириши билан ажралиб туради. Шундай қараш асосида рус тилшунослигида Н.Ю.Шведова ва унинг издошлари томонидан «сода гапнинг структур схемалари» ўзбек тилшунослигида эса «гапнинг энг кичик қурилиш қолипи» тушунчалари пайдо бўлди. Систем тилшунослик намояндалари томонидан ажратилган «гапнинг энг кичик қурилиш қолипи» таркибига ўзбекча гапнинг иккинчи даражали бўлақлари умуман киритилмайди. Рус тилшунослигида ажратилган «сода гапнинг структур схемалари» бир таркибли(однокомпонентный) ва икки таркибли (двухкомпонентный) сифатида берилган бўлса, ўзбек тилшунослигидаги «гапнинг энг кичик қурилиш қолиплари» (ГКк) фақат бир таркибли, моҳиятан кесим қисмдан иборат.

Шунинг учун бу қолип жахон тилшунослигида (Wp) рамзи билан берилади. Бу қолипдаги (Wp) кесимлик категорияси кўрсаткичлари ва гап лисоний қолипининг энг кичик нуткий кўриниши, «Бордим», «Ўқитувчиман» каби потенциал гаплар шаклида вокеланади. Гапнинг энг кичик қурилиш қолипидан иккинчи даражали бўлақларни четлаштириш тилшунослигимизга асримизнинг 30-йилларида кириб келган валентлик назарияси асосида амалга оширилади.

Гап қурилишига бундай ёндашилганда гап қурилишининг таркибий қисми, яъни анъанавий гап бўлақлари луғавий маънолар(мазмунлар) муносабатига(боғланишига) асосланган сўзларнинг ўзаро вазифадошлигига эмас, балки гап маркази ва кенгайтирувчилари муносабатига кўчади. Демак, бунда гап бўлақлари гап маркази билан бевосита ёки билвосита алоқада турганлигига кўра даражаланади. Гапнинг таркибий қурилиш бўлаги(ядро) билан боғлашувли муносабатда бўлган бўлақ гап кенгайтирувчиларидир. Бу бўлақларнинг кенгайтирувчи бўлақлари эса сўз кенгайтирувчилари ҳисобланади. Хусусан, тўлдирувчининг гап қурилишидаги мавқеи унинг гап таркибида сўз кенгайтирувчиси вазифасида келишидир. Тўлдирувчи(ҳоҳ воситали, ҳоҳ воситасиз) гапнинг лисоний абстракт, мавҳум қурилиш андазаси билан эмас, нуткий гапда вокеланган сўзнинг маъновий хусусиятлари билан боғлиқ. Шунинг учун тўлдирувчилар, асосан, марказдаги [Wp] феъл-лексемалар билан ифодаланган нуткий гапларда кенг қўлланади. Демак, тўлдирувчи марказдаги кесимдан кўра унинг бир қисми бўлиб гавдаланган: отлар, феъллар билан боғлашув муносабатига киришади. Жумладан, Мен китобни ўқидим гапида «китобни» тўлдирувчисини гапга киритувчи восита «ўқи» лексемаси ҳисобланади. Бундай талқинлардан чиқариладиган муҳим хулосалардан бири шуки, бу ёндашиш тилшунослигимизда кенг тарқалиб бораётган «нофункционал(ноамалий) тўлдирувчилар», «функционал тўлдирувчилар» тушунчаларининг тор қўламчилигини кўрсатади. Зеро, «китобни ўқимок» бирикмасидаги «ўқимок» гапда қайси ўринда келмасин «китобни» сўзи бир хил мавқега эга. Тўлдирилмиш(ўқимок) гапда кесим бўлиб келганда «китобни» - функционал, бошқарувчи сўз эга ёки иккинчи даражали бўлақ бўлиб келганда унинг кенгайтирувчисини-нофункционал деб баҳоланиши мантиқан сўз ва гап кенгайтирувчиларининг аралаштирилиши маҳсулидир. Бироқ шундай бўлса ҳамки, гап бўлақларини, айниқса тўлдирувчини функционал ва нофункционаллик нуктаи назаридан фарқлашнинг профессор Н.Маҳмудов томонидан ва кейинчалик бошқа тилшунослар томонидан тадқиқ этилиши, систем назарий тилшуносликнинг шаклланишиги туртки берди.

Тўлдирувчининг гап қурилиши билан эмас, сўз маъносини ойдинлаштириш билан бевосита алоқадорлиги уни мохиятан аниқловчиларга яқинлаштиради. Чунки анъанавий тилшунослигимиз ҳам аниқловчини гап қурилишига ўз аниқланмиши орқали киритилиши ҳақидаги қарашни ёқлайди. Аниқловчи аниқланмишни миқдор, сифат ва муносабат жиҳатлардан изоҳлаб келса тўлдирувчи тўлдирилмишга манба, курул-восита маъноларини беради.

Гап марказининг таркибий қисмида майл, модаллик, замон, макон маънолари борки, уларнинг нутқда вокеланиши ҳол билан бевосита боғлиқ. Шунинг учун ҳолларни гап қурилишидаги мавқеига кўра уч турга ажратиш мумкин:

1. Ўрин, пайт ҳоллари (гап кенгайтирувчилари мавқеидаги ҳоллар).
2. Луғавий маъносига кўра ҳол ёки тўлдирувчи сифатида баҳоланиши мумкин бўлган ўрин, пайт, йўналиш, сабаб, мақсад натижа ҳоллари (ҳол-тўлдирувчилар).
3. Равиш ва унга яқин маъноли ҳоллар гуруҳи. Умумлаштиришимизни равиш ва унга ўхшаш ҳоллар гуруҳидан бошлаймиз.

Равиш ва унга ўхшаш ҳоллар гуруҳи мохият эътибори билан феъл аниқловчиларидир. Уларнинг аниқловчилардан кам фарқланишини "кескин кураш" бирикмаси асосида исботлаш мумкин. Чунки бу бирикмада "кескин" равиш ҳоли сифатида талқин қилинади. Демак, равиш ҳоллари гап қурилишида аниқловчилар билан тенг мавқега эга бўлади ва шунинг учун уларни сўз кенгайтирувчилари тарзида баҳолаш

мумкин. Бу эса тилшунослигимизда сифатловчи, қаратувчи аниқловчилардан ташқари равиш аниқловчи ҳам мавжуд бўла олиши ҳақида ҳукм чиқаришга имкон беради.

Ўрин, пайт, жойлашиш ҳоллари гап кенгайтирувчилари мавқеида замон, макон маъноларининг ойдинлаштирувчилари бўлиб хизмат қилади.

Ҳол-тўлдирувчиларнинг гапда тутган ўрни мураккаб. Улар ҳол тизимининг ўзида ҳам ҳол - тўлдирувчи зиддиятида туради, моҳияти эса муайян нутқ шароитида ойдинлашади. Шунинг учун ҳам ўзбек тилшунослигида ҳол билан тўлдирувчини кескин фарқлашга интилиш самарали натижа бермайди ва пировард натижада таҳлил асоси матн ва нутқий маъно каби омилларга таянади. Юқорида қайд этилганидек, ҳол-тўлдирувчилар гап кенгайтирувчилари билан лисоний босқичда чатишиб кетади. Бунинг сабаби гапнинг таянч таркибий қисмларидан бири тасдиқ ё инкорни ифодалаши, бу эса кўшимча кенгайтирувчига эга бўлиши мумкинлигидир. Шунинг учун сабаб, мақсад, натижа ҳол-тўлдирувчилари гап таркибидаги айрим сўзларнинг маъноси билан ҳам, бутун гап мазмуни билан ҳам алоқадор бўлиши мумкин. Бу пайтда ҳол-тўлдирувчилар тилшунослигимизда қайд этиб келинаётган яна бир бўлак, яъни гапнинг умумий маъноси билан алоқадор бўлган детерминантлик билан дуч келади.

Детерминантлик ўз хусусиятига кўра ҳоким компонент билан нисбатан кучсиз алоқада ва вазифасига кўра бутун гапни кенгайтирувчи сифатида намоён бўлади: Мен учун ўқитувчилик шарафли вазифа.

Детерминантлик билан функционал ва нофункционал гап бўлаклари орасида ката боғланиш бўлмаслиги мумкин, лекин уларнинг ҳоким мавқеадаги бўлакка тобеланиш ёки тобеланмаслиги хусусиятлари уларни бир-бирига қиёсланишини ҳам тақозо қилади. Бу борада ўзбек тилшунослигида филология фанлари номзоди, доцент М.Бошмоновнинг илмий изланишлари катта аҳамиятга молик эканлигини таъкидлаш керак. Бунга мувофиқ айтиладиган бўлса, тўлдирувчи ва ҳолларнинг марказда келувчи сўз луғавий маъноси билан алоқадорлиги эса нодетерминантликни вужудга келтириб, ўзи билан бирга келаётган сўз билан бирикма ҳосил қилиши мумкин. Бу эса функционал гап бўлаги бўлиши деганидир. Кўринадики, детерминантлик гап кенгайтирувчисига нодетерминантлик эса сўз кенгайтирувчилигига алоқадорлиги асосида белгиланади. Лекин умуман гапнинг асосий марказига тўғридан тўғри боғланиш характеридаги бўлақлар(эга, тўлдирувчи, ҳол бўлмасин) функционал гап бўлаклари бўлиб қолаверади.

Умуман, умумлисоний даражада аниқловчи, тўлдирувчи, ҳол каби уч бўлакнинг гапдаги мавқеи оша бориш занжирини қуйидагича кўрсатиш мумкин: аниқловчилар - тўлдирувчилар ҳол-тўлдирувчилар - ҳоллар. Ҳолнинг бир тури ўрин, пайт (йўналиш маънолиси) гап қурилишида эгадан қуйроқ, тўлдирувчи ва аниқловчидан юқорироқ мавқега эга бўлганлиги сабабли ҳол биринчи даражали зарурий гап кенгайтирувчиси бўлган эга билан сўз кенгайтирувчилари ўртасида оралиқ учинчи мавқега эгадир. Шунинг учун ҳам унинг анъанавий тилшунослигимиздаги талқинини зиддиятли ҳамда муайян грамматик омиллар билангина белгиланади дейиш мумкин.

Тўлдирувчи ва ҳолларнинг гап қурилишидаги мавқелари юқорида келтирилган тавсифларимиз асосида бир қадар аниқлаштирилди. Аммо ушбу ишнинг сўнгги бўлимида тўлдирувчи ва ҳолларнинг гапдаги айрим мавқелари хусусида фикр юритилар экан, уларнинг детерминантликка алоқадор баъзи жихатларига ҳам бир оз аниқликлар киритиб ўтишимизга тўғри келади. Яъни, бутун гап мазмунини кенгайтиришга хизмат қилувчи детерминантларни аниқлашда баъзан мунозарали ўринларга дуч келинади. Масалан, бу фразема билан гапни аралаштирилиши натижасида ҳам юз беради. Масалан, Куёвдан толеинг баланд чикди (О) гапидаги куёвдан сўзи детерминант сифатида баҳоланади. Ҳақиқатан ҳам, бу гапда "куёвдан" сўз шакли гапдаги бирор сўзга(бўлакка) бевосита алоқадор эмасдай. Юқоридаги гап "толеи баланд", "толеи баланд келмоқ" фраземаси билан ифодаланган. Бу ўринда маълумки, фразема кимдан? ёки нимадан? сўроғига жавоб бўлувчи маъновий кенгайтирувчини(боғлашувни) талаб этади. Шунинг учун, бизнингча,

мазкур гапдаги "куёвдан" сўз шакли фразема кенгайтирувчиси ёки оддий сўз кенгайтирувчиси сифатида баҳоланса мақсадга мувофиқ бўлади.

Хулоса шуки,

1. Кейинги йилларда тилшуносликда тараққий этиб бораётган системавий йўналиш гап бўлаклари, хусусан, тўлдирувчи ва ҳолларни ҳам энг кичик гап қурилиш асосининг кенгайтиши нуқтаи назаридан кўриб чиқишни тақозо этади.

2. Кенгайтиш имкониятларига таяниб олиб борилган кузатув натижалари кўрсатадики, тўлдирувчининг гап қурилишидаги мавқеи маълум сўзларни кенгайтиришга хизмат қилувчилик, ҳамроҳлик хусусиятига кўра белгиланади. Тўлдирувчи ва унинг турлари моҳиятини аниқлашда сўз кенгайтирувчилари нуқтаи назаридан ёндашиш катта самара беради.

3. Ҳолнинг муайян турлари гап кенгайтирувчилари, баъзи турлари эса сўз кенгайтирувчилари мавқеларида келади. Шунингдек, ҳоллар сўз ва гап кенгайтирувчилари муносабатларида оралик учинчи мавқеини ҳам ҳосил қилади.

4. Гапнинг таркибий қисмларига [WРm] нуқтаи назаридан ёндашиш тўлдирувчи ва ҳолнинг ўзаро фарқланиши ҳол - тўлдирувчи сифатидаги бинар оппозицияда эмас, балки ҳол – ҳол-тўлдирувчи - тўлдирувчи каби даражали(градуал) оппозицияда эканлигини кўрсатади.

5. Тўлдирувчи ва ҳолларга доир функционаллик/нофункционаллик, детерминантлик ҳодисаларини ҳам валентлик назарияси асосида талқин қилиш мумкин. Бунда детерминант тўлдирувчи ва ҳоллар гапнинг таянч бўлаклари сифатида баҳоланади. Фразема боғлашуви эса муайян сўзга тегишлилиги билан детерминантлардан фарқ қилади. Тўлдирувчиларнинг функционал/нофункционал турлари гапда мустақил мавқе эгалламайдиган сўз кенгайтирувчилигини касб этади.

6. Анъанавий тўлдирувчи ва ҳоллар сўз ва гап кенгайтиши асосдаги талқинларда агенс, объект, локалис, темпоралис каби функционал маънолар сифатида шаклланади.

#### **Адабиётлар:**

1. Акрамов Ш. Ўзбек тилининг гап қурилишида тўлдирувчи ва ҳол[WРm] валентлик аспектида. НДА.– Тошкент, 1997.
2. Аҳмедов А. Номинатив гапларнинг алоҳида бир тури//Ўзбек тили ва адабиёти, 1978. - № 2, - Б, 40-43.
3. Амирова А.Л. Обстоятельства причини и цели в современном узбекском литературном языке: автореф. дис. канд. филол. наук. – Самарканд, 1967, 20 с. предложения в каракалпакском языке// Сб. ИСГГД. III, Синтаксис. М.: Наука, 1978, - С. 111-121.
4. Бошмонов М. Ўзбек тилида детерминант бўлаклар//Ўзбек тили ва адабиёти, 1982. – № 2. – Б. 41-43
5. Ҳайитметов К. Детерминантлар гапнинг актуал бўлиниш назарияси аспектида//Ўзбек тили ва адабиёти, - 1981. - № 2,- Б. 27 -31.
6. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yuldasheva D. Hozirgi o`zbek tili. Darslik. – Buxoro: Durdona, 2021.–555 b.<http://library.ziyonet.uz/ru/book/119110> Hozirgi o`zbek tili

## **ҲУРУФИЙЛИК ТАЪЛИМОТИ ВА НАСИМИЙНИНГ ШОИРЛИК МАҲОРАТИ**

**DOI:10.53885/edinres.2021.29.32.007**

*Зилола Қодировна Амонова,*

Бухоро давлат университети ўзбек тили  
ва адабиёти кафедраси доценти

**Аннотация.** *Шарқ мумтоз адабиёти тараққиётига тасаввуф, жавонмардлик маломатийлик каби бир қанча диний, ирфоний оқим ва таълимотлар ўз таъсирини ўтказган. Бу хусусида фикр юритганда, албатта, ҳуруфийликни ҳам инобатга олиши*

лозим. Мазкур маслак тасаввуф тариқатларидан бири бўлиб, XIV асрнинг охирларида Озарбайжон, Эрон, Туркия каби бир қатор Шарқ муслмон мамлакатларига тарқалган. Мазкур сулукда асосий эътибор араб ҳарфларининг илоҳий-ирфоний маъноларини кашф этишига қаратилган. Ҳуруфийлик араб ҳарфларининг ботиний маъноларига эътиқод қиладиган ва дунё сир-асрорларини шу ҳарфларга боғлайдиган ўзига хос таълимотдир.

**Калит сўзлар:** тасаввуф, ҳуруфийлик, ирфоний оқим, тариқат, сулук

Ҳуруфийлар 28 араб ҳарфига форс алифбосидаги 4 ( “پ” “چ” “ژ” “گ” ) ҳарфини ҳам қўшиб, 32 ҳарф билан бутун борлиқ ва мавжудот асосини боғлайдилар. Ҳатто рўза, намоз, ҳаж, қолаверса, барча ибодатларнинг асоси ва ғояси шу ҳарфлардан келиб чиққанлигини қайд этадилар. Шунингдек, ҳарфлар Аллоҳнинг азалий ва абадий каломи ўлароқ Яратгандан айри эмаслигига ҳам урғу берадилар. Таъкидлаш жоизки, мазкур сулукка Фазлуллоҳ Наимий асос солган. Ҳуруфийлик ҳақидаги асосий манбалар сифатида Фазлуллоҳ Наимий, Имоиддин Насимий, Али ул Аъла, Саид Исҳоқларнинг асарларини ҳам қайд этиш мумкин. Булар орасида асарлари кенг тарқалган шоир, албатта, Сайид Али Имоиддин Насимий эди. У истеъдодли шоир бўлиб, ҳуруфийлик ғояларини ўз шеърлари орқали халқ орасида ёйилишида хизматлари катта бўлган. Имоиддин Насимий шеърларида ҳуруфийлик ғоялари мукаммал, асосли, юксак маҳорат билан қаламга олинади. Айниқса, шоир ижодида инсонни улуғлаш, уни илоҳийлаштириш, яъни инсонга илоҳий қувватнинг зуҳури ва тажассуми сифатида қараш асосий ўрин тутди. Шунинг учун тасаввуфшунос олима Аннамария Шиммелхоним Насимий ижоди ҳақида тўхталиб: “Насимий – энг буюк ҳуруфий шоирдир”, – деб баҳо беради. Имоиддин Насимий борлиқ, олам ва одам яратилишининг асоси ҳақидаги ғазалларидан бирида шундай ёзади:

Кофу нун амриндан ўлди кун ила фаякун,

Гар бу лавҳнинг абжадисан, нун ила кофинг қани?

Дарҳақиқат, “Кун” (бўл) ибораси ва “фаякун” (бўлади) сўзи учун “Коф” ҳамда “Нун” ҳарфи асос бўлган. Насимий талмеҳ санъатидан ўринли фойдаланиб, Қуръони Каримдаги “Ёсин” сурасининг 82-ояти каримасига ишорат этади: “Бирон нарсани ирода қилган вақтда Унинг иши фақатгина “Бўл” демокликдир. Бас, у бўлур –вужудга келур”. Шунинг учун ҳуруфийлар “бу иккала ҳарфга жамики махлуқотнинг ибтидоси сифатида қарайдилар. Ҳатто бу илоҳий амр ҳақида “Ёсин” сурасидан ташқари “Оли Имрон”нинг 47-59-ояти карималарида, “Анъом” сурасидаги 73-оятда, “Наҳл”нинг 40-оятда, “Марям”нинг 35-оятда, “Ғофир”нинг 68-оятларида ҳам фикрлар баён этилган. Шоир айна мулоҳазаларни қуйидаги рубоийсида ҳам давом эттиради:

Кафү нун эмириндә олду каинат,

Һәм сүфатдыр кафү нун, һәм ејни - зат.

Кафү нундан вачиб олду мүмкүнат,

Бил ки; сәнсэн аләми затү сүфат .

Ҳуруфийлар наздида бутун оламнинг сир-синаотини ўзида жамлаган, Жаноби Ҳақнинг сифатларини намоён этгувчи бу – ҳарф. Айна дамда улар Ҳаққа восил айлагувчи ҳамдир. Чунончи, Насимий ҳарфларни илоҳийлаштириб, уларни ҳам Аллоҳнинг сифатини намоён этувчи, ҳам айна – Зот, дея эътироф этади. Шоир рубоийнинг учинчи мисрасида яна Кофу нуннинг кудрати ила барча яратилар вожиб ўлди, яъни пайдо бўлди, дея айна мулоҳазаларга урғу беради. Шеърнинг охирги мисрасида барча махлуқот олами билан биргаликда инсон ҳам яратилганлигини, аммо барча яратилардан у устун эканлигини ифодалайди. Қолаверса, қатъий ундов орқали инсонни “олами зоти сифот” дея таъкидлайди.

Маълумки, тасаввуфдаги барча тариқатларда тавҳид масаласига алоҳида эътибор қаратилади. Жумладан, ҳуруфийликда ҳам мазкур масала тадқиқига ўзига хос ҳолда ёндашилган. Жумладан, Насимий тавҳид ҳақида шундай ёзади:

Кеч икиликдән, элиф тэк ваһид ол,

Һәгги көр адәмдә, һәггә сачид ол!

Кәл вәфанын бәһринә дал, халид ол,



Кэ'бэји таныву латэ абид ол!

Рубойда Насимий тасаввуфдаги тавҳид ғоясини ўз тариқати моҳиятидан келиб чиқиб изоҳлайди. Чунки ҳуруфийликда Алиф орқали Аллоҳ назарда тутилади. Воҳид Аллоҳнинг сифати, яъни “бир” маъносини англатади. “Алиф тэк ваһид ол”, дейиш орқали Аллоҳ билан бирлик ҳосил қилиш – тавҳид масаласи назарда тутилган. Шеърнинг иккинчи мисрасида ҳуруфийларнинг инсонни илоҳийлаштириш ғояси ифодаланган. Шоирнинг одамда Ҳакни кўр, мисрасини Мансур Ҳаллож ғоясига ишора сифатида англаш мумкин. Аммо ҳуруфийлик ва Ҳаллож ғоясининг ўзида ҳам яқинлик борлигини ҳам эътироф этиш лозим. Рубойнинг учинчи мисрасида араб алифбосидаги “дол” ҳарфининг ботиний маъносига ишора қилади. Мазкур ҳарф Мутлақ руҳдан бир жузв маъносини англатади. Насимий инсонга мурожаат қилиб, вафо баҳрина (денгизда) “ҳолид”-абодий, мангу қол дейиш билан ўз мулоҳаларига яқун ясайди.

Ҳуруфийларнинг асосий эътибор қаратган масалаларидан яна бири инсон юзини Мусҳафга – Қуръони Каримга тенглаштирганларидир. Чунки улар дунё ва коинотнинг сирларини ҳарфлар билан ва бу ҳарфларни инсон юзидаги хатлар билан алоқадор шаклда изоҳлашга ҳаракат қилганлар. Ҳуруфийларга кўра ҳаётнинг бутун сирлари Қуръондаги ҳарфларда, бу ҳарфлар эса инсон юзидадир [1, 26]. Насимий ҳам том маънодаги ҳуруфий-шоир сифатида шу ақидани ҳадди аълосига етказиб қуйлади:

Қошинг-ла кипригинг важҳи манго келди ва билдирди,

Ки сансан арш ила курси, юзинг ёзуви Қуръондур [2, 156].

Мазкур байтда шоир ўзи эътиқод қилган маслага – ҳуруфийлик нуқтаи назардан инсонни мадҳ этиб, уни энг юксак мақом эгаси сифатида эътироф этади. Инсонни арш (осмоннинг энг юқориси, энг юксак мақом) ила курси (тахт, осмон, тўққиз қат осмон) деб аташ билан махлуқот олами орасида инсоннинг мавқеи жуда баланд эканлигини назарда тутди. Бу билан Насимий айни мавзудаги Қуръони Карим оятларига ишора қилади: “Дарҳақиқат, Биз одам болаларини азиз ва муқаррам қилдик...” [3, 289]. Шунингдек, инсон юзини илоҳий сирларни очувчи Қуръондир, дея таърифлаб, инсон илоҳийлиги билан боғлиқ мулоҳазаларга урғу беради. Насимий инсон юзи илоҳийлиги билан боғлиқ фикрларни бошқа ғазалларида ҳам давом эттиради. У том маънодаги ҳуруфий шоир сифатида мазкур сулуқ ғояларини ўзига хос маҳорат билан қуйлаганлигини барча шеърларида кўриш мумкин.

Адабиётлар:

1. Арасли Ҳ. Имоиддин Насимий. – Тошкент, 1973. 26- б.
2. Насимий И. Асарлар. – Тошкент, 1977. 156- б.
3. Қуръони Карим. (Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф таржимаси). – Тошкент: Шарқ, 2011. 289- б.
4. Amonova Z.Q. Mumtoz adabiyotda munojot talqini. Actual problems and solutions of modern philology//Collection of materials of the international online conference. www.e-science.uz. 2020. 210-215-bet
5. Amonova Z.Q., Sharipova M.Sh. The Reflection of Nasimi`S Concepts in The Works of Atoi//SychosocialP international journal of Psychsocial rehabilitation/ Vol. 24, Issue 09, 2020 ISSN: 1475-7192 –(Scopus) Pag. 3669-3676.
6. Amonova Z.Q., Murodova G.A. Mansur Hallaj and his ideas in Ahmad Yassavi`s works// International Scientific Journal Theoretical & Applied Science p-ISSN: 2308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085 (online) Year: 2020 Issue: 04 Volume: 84 .Published: 30.04.2020 http://T-Science.org Pag.964-967
7. Amonova Z.Q., Safarova Sh. “Layli va Majnun” dostonining hamd bobida shoir mahorati// Сўз санъати халқаро журнал.Махсус сон, 2020. 168-17- betlar ISSN 2181-9297 Doi Journal 10.26739/2181-9297
8. Amonova Z.Q. Mashrab g`azallarida Mansur Halloj siymosi//Buxoro davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. 2019-yil, 1-son. 178- 182 –b.

## MUALLIF NUTQI METAFORALARINING YUZAGA KELISH ASOSLARI XUSUSIDA

DOI: 10.53885/edinres.2021.51.27.008

*Asadov To'lg'in Hamroyevich*

Buxoro davlat universiteti o'zbek tilshunosligi  
kafedrası dotsenti, f.f.n.

**Annotatsiya.** *So'zning ko'chma ma'no kasb etishi til (nutq)ning tadrijiy rivoji bilan bog'liq. Bu borada, ya'ni so'z (ma'no)ning serqirraligi [1], leksemaning mazmun plani, leksik ma'no va semantik qism [4,61-67], semema tarkibidagi semalar va ularning ifodasi [3,57-63], sememaning nutqqa xoslanishi, hosila semalarning vujudga kelishi haqida o'zbek tili leksikologiyasi hamda semasiologiyasida yetarlicha fikr-mulohazalar bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *muallif nutqi, metafora, ko'chma ma'no, leksema, leksik ma'no*

So'z semantik taraqqiyoti, uning mantiqiy-semantik asosda tadqiqi borasida yaqin yillarda amalga oshirilgan ishlar umumlashmasi sifatida M.Mirtojiyevning "O'zbek tili semasiologiyasi" asari nashr etilishi o'zbek tilshunosligida semasiologiya bo'limi yutuqlaridan biri bo'ldi. Mazkur manbada leksik ma'no, leksik ma'noning semantik tarkibi, leksik ma'no taraqqiyoti, hosila ma'no (metafora, metonimiya, sinekdoxa va b.), leksik ma'noning kengayishi va torayishi, leksik ma'noning paradigmatic va sintagmatik munosabatlari, shuningdek, uzual ma'no va okkazional leksik ma'nolar haqida e'tiroflar mavjud [2].

Ma'lumki, metaforalar so'zlar kabi o'z lingvopoetik xususiyatiga ko'ra doimiy (uzual) va individual metaforalarga bo'linadi. Har ikkala hodisa ham konnotativ ma'no bilan bog'liq. Konnotativ ma'no leksemaning ifoda semasi bilan uzviylik kasb etadi. Ifoda sema tarkibida mujassamlashgan holda bo'ladi [3,61]. Konnotatsiya badiiyat uchun xizmat qiladi, badiiy ifoda, obrazlilikni ta'minlaydi. Lekin har qanday konnotativ ma'noli so'z ham yozuvchining individual badiiyati uchun xizmat qilavermaydi. Shundan kelib chiqib, manbalarda konnotatsiyaning ikki ko'rinishi: ingerent va adgerent konnotatsiya [6,8] farqlanadi. Ingerent konnotatsiya nutqiy matndan tashqarida ham voqelanadigan, so'zning mavjud bo'lgan konnotativ ma'nosi bo'lsa, adgerent konnotatsiya ma'lum nutqiy matnda hosil bo'ladigan qo'shimcha ma'no sanaladi. Ijodkorlar doim ham ingerent konnotatsiyaga ko'na qolmaydi. Ular individual nutq uslubiyati uchun yangi-yangi ko'chimlar (muallif nutqi metaforalari) yaratadilar. Natijada betakror, ohorli ko'chimlar, badiiy ifodalar yuzaga keladi.

Ayrim manbalarda "ingerent" va "adgerent" terminlari o'rnida "uzual" va "okkazional" ma'no tushunchalari ham qo'llanadi [2,40-47]. Tilshunos olim M.Mirtojiyev ta'kidicha, so'zning uzual ma'nosi hamma vaqt ham umumlashgan xarakterda bo'ladi, okkazional ma'no (jumladan, muallif nutqi metaforalari – A.T.) mohiyatan nutq hodisasi sanaladi. Aniq ifoda uchun nutqda hosil bo'lgan okkazional ma'no uzual ma'no tomon taraqqiy etadi. U ma'lum nutq sharoitida, ma'lum so'zlar qurshovidagi so'zda hosil bo'ladi [2,46].

M.Mirtojiyev bu boradagi fikrlarini "okkazional ma'no har qancha yashamasin va tanilmasin, shu holatidan ko'ra taraqqiy etmaydi, uzual ma'noga o'tmaydi" tarzidagi jumla bilan tugatadi [2,46]. Mazkur fikrga, nazarimizda, to'la qo'shilib bo'lmaydi. Bir dalil ahamiyatliki, har qanday qo'shimcha ma'no dastlabki bosqichda, ilk davrda okkazional sanaladi, vaqt o'tib bu okkazionallik o'z o'rnini uzuallikka bo'shatib beradi. Xuddi shu fikrni muallif nutqi metaforalariga nisbatan ham aytish mumkin. Agar mazkur ifodalar mantiqan asosli, shuningdek, til va tafakkur uzviyligi asosida yaratilgan bo'lsa, ularning qo'llanish maydoni kengayishi, asardan asarga o'tishi tabiiy. Masalan, *gul yuz, nazgis ko'z, lola yonoq, sumbul soch* ifodalari mazkur qo'llanishning ilk davrida adgerent konnotatsiya bo'lganligini izohlashga hojat ham, zarurat ham yo'q, aslida.

Muallif nutqi metaforalari, odatda, subyektiv sabablarga ko'ra yaratiladi. Muallif nutqi metaforalari uzual metaforalar singari o'xshatishga tayanadi. Sir emaski, o'xshatish (sifatlash, epitet) badiiy matnda obrazlilik, ifodaviylikni ta'minlovchi eng qadimgi tasviriy vositalardan biri sanaladi. O'xshatishda to'rt unsur (o'xshatish subyekt, o'xshatish etaloni, o'xshatish asosi,

o'xshatish vositasi) nazarda tutiladi. Shular asosli yaratilgan individual nutq metaforalari matnda obrazlilik va ifodaviylikni ta'minlash bilan birga, lug'at qatlamimizning turli ma'no ifodalar bilan boyishiga ham ma'lum ma'noda xizmat qila oladi. Badiiy asarda ijodkor tomonidan, ya'ni badiiy niyatni ro'yobga chiqarish maqsadi bilan yaratilgan individual metaforalar yuqori estetik qiymatga ega bo'ladi. Ijodkor tomonidan yaratilgan ko'chimlar, asarda individual badiiyat uchun xizmat qiluvchi metaforalar (individual metaforalar) ham perifraza, oksyumoron, jonlantirish va h.k.lar kabi individual poetik vositalardan biri bo'la oladi.

Kuzatishlar ko'rsatdiki, muallif nutqi metaforalari ko'chimning bir ko'rinishi sifatida ikki turda uchraydi: a) to'g'ridan to'g'ri, o'xshatish vositalarsiz hosil bo'lgan individual metaforalar; b) o'xshatish vositalari bilan hosil bo'lgan individual metaforalar. Misollarni kuzatamiz:

1. Men o'zi kimman – *tashlandiq quduq*  
Yomg'irning esidan chiqqan. (F.Afro'z)
2. Kim o'ylab topgan ekan bu so'zni  
*Idishga o'xshash* bir so'z  
Nimani joylasang joylashaverar. (Faxriyor)

Yana bir dalil ahamiyatliki, ko'pgina muallif nutqi metaforalari epitet[5] sifatida (ot turkumidagi so'zning belgi ifodasi uchun qo'llanishi sifatida) yuzaga kelganligini kuzatamiz.

Ma'lumki, har qanday o'xshatishdan maqsad tasavvur qilish murakkabroq bo'lgan tushunchalarini oydinlashtirishdan iboratdir. Bunda muayyan bir narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat va holat o'quvchi uchun betakror, go'zal ifodalar bilan namoyon etiladi. Xuddi shu maqsadda yuzaga keltirilgan, o'xshatish etaloni o'ziga xos bo'lgan bir misolni tahlilga tortamiz:

Paxta jondan aziz bo'lgan mahalda  
*G'ozapo'choqdek* xor bo'lgan inson. (I.Mirzo)

Nazarimizda, mazkur misralarni izohlashga hojat bo'lmasa kerak. O'z davrining ijtimoiy hayoti, jamiyatini yaqqol, jonli ifodalashda mazkur muallif nutqi metaforasi o'rinli, topib aytilgan.

Iste'dodli shoir O.Matjon O'zbekistonning epiteti sifatida *asal sandiq* birikmasini va *asaliston* nutqiy yasama so'zini qo'llaydi: O, O'zbekiston, *asal sandig'im* mening, *asalistonim* mening. Har ikkala tasvir ifodasi ohorli, betakror deya olamiz.

Muallif nutqi metaforalarining she'riyatdagi ifodalaridan yan misollar keltiramiz: 1. Tilim – gulzor, dilim – duozor. (I.Mirzo) 2. Barchaga barobar bir oftobsimon/ Toshotmas qo'rg'onga o'xshaydi o'zbek. (M.Yusuf) 3. Shamollar ot solar Qo'shtegirmonga, / Osmonni supurar nuqratan terak. (I.Mirzo) 4. Chaqmoqtuyoq toyimdan/ Ayirmoqchi bo'lishdi. (M.Yusuf) 5. Qor – billurtan farishta. (U.Azim).

Mazkur misollarda “tilim – gulzor, dilim – duzor”, “o'zbek – toshotmas qo'rg'on”, “nuqratan terak”, “chaqmoqtuyoq toy” kabilarni muallif nutqi metaforalari sifatida baholash mumkin.

Muallif nutqi metaforalari quyidagi misralarda ham kuzatiladi:

*Mudragan dala*ning uyg'og'i yaqin,  
*Homilador kurtaklar* to'lg'ogi yaqin,  
*Dil qushi* qumrijon sayrog'i yaqin,  
Yaxshi kunlarim, siz men bilan yuring.  
Ko'ksimni ochirmas *armon tutuni*,  
Nadomat zim-ziyo, qarodir tuni.  
Axir umid borki, dunyo ustuni,  
Yaxshi kunlarim, siz men bilan yuring. (Farida Afro'z)

Mazkur she'riy parchada *mudragan dala*, *homilador kurtak*, *dil qushi*, *armon tutuni* kabi ko'chimlar mavjud. Mavjud ko'chimlardan *dil qushi* hamda *mudragan dala* kabilar an'anaviy o'xshatishlar sanalsa, *homilador kurtak*, *armon tutuni* metaforalari yangilik bo'yog'iga ega. Har

ikkala muallif neologizmi yaratilishida mantiqiy asos bor. Ma'lumki, nutqimizda "Bahor kelib, kurtaklarning ko'zi yoridi" qabilidagi qo'llanish keng ishlatiladi. Shu nuqtayi nazardan qarasaq, "homilador kurtak" metaforasining paydo bo'lishiga obyektiv asos mavjud.

O'zbek she'riyatida *sevgi, muhabbat, ishq* so'zlari bilan ko'plab metaforalar yaratilgan. Mazkur so'zlarning sifatlash va epitetlari sifatida o'tli (muhabbat, sevgi, ishq), nurli (muhabbat), sof (sevgi, muhabbat), buyuk (sevgi), qora (sevgi), mangu (ishq), cheksiz (muhabbat) kabilar tez-tez qo'llangani kuzatiladi. Shu bilan birga, sevgi so'ziga nisbatan nutqiy, muallif metaforalari ham yaratilmoqda. Buning yorqin ko'rinishini mana bu misralarda kuzatamiz:

Sevgi go'yo – *lolaqizg'aldoq,*

Sevgi go'yo – *g'arq pishgan shotut.* (M.Yusuf)

Iste'dodli ijodkor M.Yusuf sevgini *lolaqizg'aldoq* hamda *shotutga* qiyoslab, go'zal, betakror individual metafora yaratganiga guvoh bo'lyapmiz. Bunda shoirning o'xshatish etaloni o'ta original. Bizga ma'lumki, *lolaqizg'aldoq* ham, *g'arq pishgan shotut* ham tabiatan o'ta nozik, nafis, ya'ni noxos qo'l tegishi bilan to'kilib ketadi, nobud bo'ladi. Xuddi mana shu tabiiy jihatiga ko'ra sevgi so'ziga epitet sifatida keltirilgan. Sevgi so'zining bu qadar go'zal ifodasi boshqa ijodkorlarda uchramaydi.

Zero, badiiy adabiyotda o'rinli, jo'yali, topib aytilgan tasvir, ko'chim – muallif nutqi metaforalari o'zining emotsionalligi, ta'sirchan va ifodaviyligi, shuningdek, badiiyat va obrazlilikni ta'minlashdagi ahamiyati bilan alohidalik kasb etadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Мадраҳимов И. Сўзнинг серкирралиги ва уни таснифлаш асослари. НДА.–Т., 1993.
2. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Т.: Мумтоз сўз, 2010.
3. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. –Т.: Ўқитувчи, 1995.
4. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yuldasheva D. Hozirgi o'zbek tili. Darslik. – Buxoro: Durdon, 2021.–555 b.
4. Турсунов У. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Дарслик. –Т.: Ўзбекистон, 1992.
5. Хўжаева Д. Ўзбек тилида эпитет. НДА. –Т.,1996.
6. Ҳожиев А.Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати.–Т., 2002.

#### **AREALOGIYA TUSHUNCHASI HAQIDA**

**DOI:10.53885/edinres.2021.71.56.009**

*Atoulllo Rakhmatovich Akhmedov*

Buxoro davlat universiteti dotsenti

Buxoro, O'zbekiston

[a.r.ahmedov@buxdu.uz](mailto:a.r.ahmedov@buxdu.uz)

*Sevara Mahmud qizi Po'latova*

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

Buxoro, O'zbekiston

E-mail: [sevaramahmudqizi@gmail.ru](mailto:sevaramahmudqizi@gmail.ru)

**Annotatsiya.** *Lingvistik geografiya tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, u ma'lum hududda tarqalgan til hodisalarining tarqalish yo'nalishini xaritaga tushiradi. Til hodisalarining tarqalish joyi bilan munosabatini aniqlaydi. Bunda xalq tarixi, til tarixi bilan hamohanglikda qiyosiy tarzda o'rganiladi. Maqolada Vobkent tumanining ba'zi leksemalari arealogik jihatdan o'rganib, xaritalashtirilgan.*

**Kalit so'zlar.** Qiyosiy-tarixiy, lisoniy-jug'rofiy, dialektologik atlas, lingvistik geografiya, hudud, hodisa, sheva, dialektik birlik, o'lashish, singlarmonizm, mos hodisa

**RESUME.** *Linguistic geograpy is a branch of linguistics that maps the distribution of linguistic phenomena in a given area. Determines the relationship of language phenomena to the*

*place of distribution. It compares the history of the people with the history of language. In the article some lexemes of Vobkent district are archaeologically studied and mapped.*

**Key words.** *Comparative-historical language-geographic, diolectological atlas, linguistic geography.*

Arealogiya (lot. Are – maydon, hudud otdan yasalgan sifatning yunoncha logikos – so‘z, tushuncha, ta‘lim so‘zi bilan birikishidan hosil bo‘lgan qo‘shma so‘z) ma‘lum bir hududda ma‘lum bir hodisalarning (o‘simlik, hayvonot, yer qatlami, yer osti va yer usti boyliklari, aholi hamda ularning tili va boshqalar) tarqalish xususiyatlarini o‘rganishga oid fan bo‘lib, bir necha fanlardan (jumladan, botanika, zoologiya, geologiya, etnografiya, filologiya va boshqalar) arealogik yo‘nalish shaklida mavjuddir. Shuning uchun muayyan fanlarda bu tushuncha (areal lingvistika (tilshunoslik), areal botanika, areal geologiya va boshqalar) o‘z aksini topgan [1;12].

Areal lingvistika lisoniy hodisalarning ma‘lum hududlarda tarqalishi va shu asosda tillararo aloqalarni o‘rganuvchi yo‘nalishdir.

Areal lingvistika qiyosiy tilshunoslikning asosiy yo‘nalishlaridan biri sanaladi. O‘zbek dialektologiyasida yirik monografik asarlarning yuzaga kelishi tufayli endilikda shevalarimizni qiyosiy-tarixiy va tipologik o‘rganishning hozirgi zamon aniq va izchil metodlari bilan tekshirish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bu hol til hodisalarining tarqalish chegaralarini aniqlab beruvchi, lingvogeografik metodlar asosida ish ko‘ruvchi “areal lingvistika” fani bo‘yicha ilmiy asosda tekshirishni taqozo qiladi hamda o‘zbek xalq shevalari atlasini yaratish masalasini hozirgi kundagi dolzarb vazifa qilib, kun tartibiga qo‘yadi.

Areal tadqiq usulining qiyosiy, xususan, qiyosiy-tarixiy tilshunoslikdan farqi shundaki, qiyosiy tilshunoslikda tipologik o‘xshash va noo‘xshash hodisalar qiyoslanaveradi. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikda esa faqat o‘zaro o‘xshash hodisalar turli davrlar asosida qiyoslanadi. Areal lingvistikada esa bir hodisaning ma‘lum bir davrdagi o‘xshashligi tadqiq etiladi (shu hodisaning turli davrlardagi o‘xshashligi tarixiy arealogiyada o‘rganiladi). Areal lingvistikaning tadqiq usuli va manbayida bo‘lgan bunday farqlar uning tavsifiy, qiyosiy, tarixiy tilshunosliklar bilan bir qatorda til haqidagi fanning o‘ziga xos alohida tarmog‘i mavqeyida ekanligini asoslaydi. Areal lingvistika dialektologiyadan oziqlanib, ma‘lum bir hodisaning qayerlarda qanday shaklda tarqalganini tekshirib, uni xaritalarda akslantiradi. Til hodisalarining ma‘lum bir hududga tarqalishini kartalashtirish va tadqiq qilish hamda shundan kelib chiqadigan muammolarni hal qilish bilan shug‘ullanuvchi alohida yo‘nalish sanaladi. Dialektologiya sheva va lahjalarning bir makondagi umumiy xususiyatlarini akslantirsa, areal lingvistika makon bilan emas, balki hodisa bilan ish ko‘radi. Dialektal so‘zlar chegarasi ma‘lum hudud bilan belgilanadi. Areal lingvistikada esa hodisaning tarqalish izoglossasi hudud vazifasini bajaradi. Shu jihatdan areal lingvistika xususiy aspektda o‘z faoliyatini olib borsa-da, hodisaga nisbatan umumiy xulosalarni bera oladi. Avvalo shuni ta‘kidlash joizki, areal lingvistika, lingvistik geografiya, arealogiya, dialektografiya kabi bir nechta nomlar bilan ushbu yo‘nalish nomlanib, bir qancha chalkashliklarga sabab bo‘lib kelmoqda. Arealogik yo‘nalishda bir qancha tadqiqotlar olib borilgan bo‘lishiga qaramay, ushbu yo‘nalish borasidagi munozaralar hali ham mavjud. Jumladan, O.S.Axmanovanning “Lingvistik terminlar lug‘ati”da “areal lingvistika”ni “hududiy tilshunoslik”, “lingvistik geografiya”ni esa “dialektografiya” deya talqin qilinadi.

Ko‘pgina olimlar (B.A.Serebrennikov, A.V.Desnitskaya) “areal lingvistika” terminidan butunlay voz kechishni va uning o‘rnida “lingvistik geografiya” atamasini qo‘llashni taklif qiladilar.

Rossiyalik olimlar N.Gurov va A.Zograflarning ta‘kidlashicha, “areal tilshunoslik” bevosita bir-biriga ta‘sir qilgan, munosabatga kirishgan tillarni, tillararo aloqalarni o‘rgansa, “areal lingvistika” nafaqat o‘zaro munosabatga kirishgan tillarni, balki sheva va lahjalarni o‘rganishni ham qamrab oladi.

M.A.Borodina lingvistik geografiya va areal lingvistika tushunchalarini farqlashni taklif etadi. U lingvistik geografiyani “lingvistik atlaslar tuzish amaliyoti” sifatida va areal lingvistikaning esa “areallar teoriyasi” (arealogiya) sifatida qarash to‘g‘ri deya ta‘kidlaydi.

D.I.Edelman ham areal lingvistikani hozirgi tillarning yoyilish hodisasini qadimgi areallar asosida o'rganuvchi soha sifatida talqin qiladi.

“Areal lingvistika” termini dialektologik yo‘nalishda ish ko‘ruvchi tilshunoslik sohasi, “areal tilshunoslik” esa turli o‘lkalarda bir tilning taraqqiyoti masalalari bilan shug‘ullanuvchi soha sanaladi. Dialektologik ishlarning keyingi bosqichi areal lingvistikada namoyon bo‘lsa, areal lingvistikaning natijalari areal tilshunoslikda namoyon bo‘ladi. Areal tilshunoslik areal lingvistikaga nisbatan umumiy sanaladi. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni amalga oshirayotganda bir-birining predmetini almashtirmasligimiz yoki qo‘shib yubormasligimiz lozim. Areal lingvistikaning predmeti shevalarning tarqalish jarayonlari va shevalararo birlashish hodisalarining muayyan bir til areali ichida yuz berishi, sheva va lahjalarning aralashuvi natijasida yuzaga kelgan o‘ziga xosliklarning arealogik jihatlarini izohlash, adstrat, superstrat va substrat hodisalarini o‘rganish bo‘lsa, areal tilshunoslik esa genetik jihatdan qardosh va qardosh bo‘lmagan tillarning tarixiy aloqalari oqibatlarining sheva va lahjalardagi izlarini, xalqlarning madaniy va til aloqalari, ijtimoiy-tarixiy aloqalarining kengayishi natijasida shakllanadigan yangi til areallarini tekshiradi va o‘rganadi. Lingvistik geografiya esa areal lingvistika yo‘nalishiga xos metod sanaladi.

Arealogik tadqiqotlar o‘zbek tilshunosligida nisbatan yangi yo‘nalish bo‘lganligi va shu kungacha o‘zbek lingvistik atlasini tuzilmaganligi bu boradagi tadqiqotlarni o‘rganishning dolzarb masalalardan biriga aylantirdi. Shuning uchun fanda arealogiya tushunchasi va bu boradagi terminlarga aniqlik kiritish zarurati bor.

#### **Adabiyotlar:**

1. Nematov Hamid, Ahmedov Atoulo. Areal lingvistika – Buxoro, 2008.
2. Муродова Н. Ўзбек тили Навоий вилояти шеваларининг лингвоареал талқини. – Тошкент: Фан, 2007. – 193 б.
3. Шерматов А. Лингвистик география нима? – Тошкент: Фан, 1981. – 58 б.

### **TIL NAZARIYASINI SHAKLLANTIRISH VA BOYITISHDA FALSAFIY KATEGORIYALAR METODOLOGIYASI DOI:10.53885/edinres.2021.26.82.011**

*Odiljon Bozorov*

Qo‘qon DPI professori, filologiya fanlari doktori

**Annotatsiya.** *Tafakkur qudrati bilan jahon ahlini lol qoldirgan Eyshteyn o‘zining falsafa barcha fanlarning onasidir degan obrazli ifodasi bilan xususiy fanlarning shakllanishida falsafaning tutgan o‘rni katta ekanligi, barcha (xususiy) fanlar taraqqiyotida falsafiy metodologiyaning o‘ta muhim ekanligini ko‘rsatgan edi. Mazkur maqola shu fikrlarning lingvistik talqini bilan bog‘liq.*

**Kalit so‘zlar:** *tafakkur, falsafa, metodologiya*

Metodologiya so‘zi o‘zining metod(lar) haqida ta‘limot ma‘nosidan tashqari bosh (birlamchi, asosiy, fundamental) metod ma‘nosini ham kasb etgan. U o‘zining ushbu ma‘nosida falsafa faniga nisbatan qo‘llanadi va falsafiy kategoriya, qonunlarning xususiy fan tadqiqotchilari uchun metodologiya bo‘lib [3 : 36, 4: 14] xizmat qilishini anglatadi. Bizning ushbu maqolamizda metodologiya termini o‘zining ana shu, ya‘ni bosh metod, asosiy yo‘l-yo‘riq ma‘nosida [ 2: 5,7] qo‘llanadi.

Falsafaning xususiy fanlar tadqiqotchilari uchun metodologiya bo‘lib xizmat qilishiga asos falsafa va maxsus fanlar orasida umumiylik-xususiylilik munosabatining mavjudligidir.

Xususiy fanlar butun olam, ya‘ni tabiat, jamiyat, ong (tafakkur)ga aloqador bo‘lgan, sifat va miqdor farqlari bilan bir-birlaridan ajralib turuvchi narsa (hodisa)lar turlarini o‘rganadi. Hayotiy va ilmiy bilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, narsa (hodisa) turlari qaysi olam (tabiiy, ijtimoiy, ong)ga mansub bo‘lmasin, ularda umumiy, o‘xshash, takrorlanuvchi muhim jihat (tomon)lar mavjuddir. Masalan, qattiq jism atom, tirik organizm hujayra, fonema (nutq tovushi)

fonetik belgi, soʻz sema, gap soʻz (gap boʻlagi), matn gap kabi tashkil etuvchi (element)lardan iborat. Falsafa ushbu fizik, fonologik, biologik, leksik, sintaktik narsa (hodisa)lar tuzilishidagi oʻxshash tomon (element)larni umumlashtirib, falsafiy tushuncha, kategoriyani hosil qiladi. Falsafiy kategoriya narsa (hodisa)lardagi ularni tashkil etuvchi muhim qism (element)lar majmuasi haqidagi umumiy tushuncha, maʼlumotdir. Falsafa narsa (hodisa)larda mavjud boʻlgan mazmuniy oʻxshashliklarni umumlashtirish yoʻli bilan sifat, miqdor, shakl, tizim (sistema), mohiyat kabi kategoriyalar hosil qiladi [2:31]. Bu kategoriyalar narsa (hodisa)larning muhim, umumiy tomon (xususiyat)lari haqida maʼlumot beribgina qolmasdan, boʻlgʻusi tadqiqotchiga har qanday narsa (hodisa)ni qanday oʻrganish, ilmiy faoliyatni nimadan boshlash va qay yoʻnalishda izlanish olib borilishi lozimligi haqida yoʻl-yoʻriqlar, koʻrsatmalar ham beradi. Falsafiy kategoriyalar tadqiqotchiga narsa (hodisa)ni mazmun, shakl, sifat, miqdor, tizim, mohiyat, hodisa kabi jihatlardan oʻrganilishi lozim ekanligini koʻrsatadi. Bu jihatlarining qanday tadqiq etilishining yoʻnalishini falsafiy kategoriyalar mazmuni belgilab beradi. Xususan, tadqiqotchi muayyan narsa (hodisa)ning nimalardan tashkil topganligi yoki mazmunini oʻrganishda falsafaning mazmun kategoriyasi belgilari majmuyidan foydalanish mumkin. Bunda mazmun kategoriyasining belgilari asosida oʻrganilayotgan narsa (hodisa)ning belgilari xususiylashtirish, individuallashtirish orqali aniqlanadi yoki abstraktlik (umumiylik)dan obyektiv (narsa) konkretlik tomon boriladi. Bu shuni koʻrsatadiki, falsafiy kategoriya, qonunlar har bir fan tadqiqotchisi uchun ilmiy ishning maqsadi, yoʻnalishi va mazmunini belgilab beruvchi metodologiya vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham har bir fan tadqiqotchisi falsafaning qonun va kategoriyalarini bilishi, maʼlum darajada faylasuf ham boʻlishi lozim. Fanlar tarixiga nazar tashlasak, xususiy fanlar daholarining barchasi ayni paytda faylasuf boʻlganliklarini, oʻz fanlarining xususiylklarini falsafiy umumiyliklar bilan uzluksiz munosabatda oʻrganganliklarini, xususiylklar doirasida turib, falsafiy qonun va kategoriyalarni boyitishga harakat qilganliklarining guvohi boʻlamiz.

Endi til haqida ilm hosil qilish yoki til nazariyasini shakllantirish uchun falsafiy kategoriyalar taʼlimotidan qay yoʻsinda foydalanish haqida fikr yuritamiz.

Falsafiy adabiyotlarda [4:24] kategoriya tushunchasining belgilari, bilish nazariyasida tutgan oʻrni va metodologik ahamiyati haqida quyidagilar bayon qilinadi: 1) kategoriyalar olamni aks (inʼikos) ettirish shakllaridan biridir; 2) insonning dunyoga ontologik, gnoseologik, aksiologik kabi munosabatlari kategoriyalarning muayyan tizimi orqali umumlashgan shaklda aks ettiriladi va unda tafakkurning yutuqlari mujassamlanadi; 3) kategoriyalar borliq va uning shakllarini, narsa va hodisalar orasidagi eng umumiy aloqadorliklarni ifoda etadi; 4) falsafiy kategoriyalarning shakllanishi va taraqqiyotining eng asosiy omillari hayot, mavjud narsalar, ular orasidagi munosabatlar va amaliyotdir; 5) dialektik kategoriyalarda aloqadorlikning strukturaviy, determinativ, mazmuniy (semantik), universalisiya kabi turlari ifodalanadi; 6) kategoriyalar oʻz mazmuni jihatidan obyektiv, lekin shakli jihatidan subyektivdir; 7) kategoriyalar ham konkret, ham abstraktdir; 8) kategoriyalar obyektiv olamdagi narsa-hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlari va munosabatlarini aks ettiradigan tushunchalardir; 9) har bir kategoriya narsa, hodisalarning alohida tomonlarini, ular orasidagi ayrim aloqalarni oʻrganadi; 10) kategoriyalar obyektiv borliqning ziddiyatlari va ularning birligi (bogʻliqligi)ni oʻzida aks ettiradi; ziddiyatlilik qutblilikda, ichki qarama-qarshi tomonlarda namoyon boʻladi; 11) dialektik kategoriyalarda obyektiv olam taraqqiyotining bogʻlanishlari, aloqadorliklari aks etadi; 12) har bir kategoriya boshqalari bilan uzviy bogʻliqdir; 13) kategoriyalarning oʻzaro aloqadorligi tufayli narsaning barcha aloqa, munosabatlarini toʻlaligicha bilish imkoniyati yaratiladi; 14) kategoriyalarning oʻzaro bogʻliqligi, ixchamligi, oʻzgaruvchanligi, bir-biriga oʻta olishi hisobiga olim ilmiy bilishda biryozlamalikka, qotib qolmaslikka (konservativlikka), uzoqni koʻra olmaslikka qarshi kurashish, narsalar mantigʻi bilan ish koʻrish imkoniyatiga ega boʻladi; 15) falsafiy kategoriyalar ziddiyatli, harakatchan, oʻzaro aloqada boʻlib, biri ikkinchisiga oʻtadi, oʻzgaradi va rivojlanib turadi; 16) kategoriyalar asosiy boʻlmagan qonunlardir; 17) kategoriyalar dialektik qonunlar mohiyatini ochib beruvchi tushunchalardir; 18) dialektik kategoriyalar eng muhim qonunlarga qaraganda keng maʼnoga, boy mazmunga ega, zero ularda narsa, hodisalarning oʻzaro

aloqadorliklari va bog‘lanishlarini ifodalovchi obyektiv shakllarning barcha, ya’ni muhim va nomuhim, zaruriy va tasodifiy, umumiy va xususiy, turg‘un va o‘tkinchi kabi jihatlari aks etadi; 19) dialektik kategoriyalar, asosiy qonunlardan farqli o‘laroq, rivojlanishning asosiy tomonlari, yo‘nalishlarini emas, balki ularning boshqa muhim bo‘lgan xususiy tomonlarini ifodalaydi; 20) dialektik kategoriyalar taraqqiyot jarayonining ko‘p qirrali tomonlarini yanada to‘laroq va chuqurroq bilishga yordam beradi; 21) kategoriyalar kelajakda mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan narsalar haqida ham axborot beradi, ularning o‘zgarish, rivojlanish yo‘nalishlarini ochib beradi; 22) falsafiy kategoriyalar amaliyot yo‘lini yoritadi; 23) kategoriyalarning mantiqiy mazmunida inson tafakkurining narsa, hodisalar mohiyatiga kirib (tushunib) borish, chuqurlashish daraja (bosqich)lari aks etadi; 24) kategoriyalar ham mantiq, ham bilish shakllaridir; 25) tadqiqotchi ilmiy izlanishining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan uning dialektik kategoriyalardan qay darajada foydalana olish qobiliyatiga bog‘liq; 26) falsafiy kategoriyalar bilan maxsus fanlar kategoriyalari orasida umumiylik-xususiylik dialektikasi mavjud; 27) falsafiy kategoriyalar ilmiy bilish metodologiyasi, ya’ni fanda ma’lum, o‘rganilgan narsadan noma’lum, o‘rganilmagan narsaga o‘tish yo‘lini ko‘rsatadi va hokazo.

Falsafiy kategoriyalar hayotiy va ilmiy bilish, xususiy fanlar natijalarini umumlashtirish asosida hosil qilingan. Shuning uchun ham falsafiy kategorial tushunchalar har qanday xususiy, shu jumladan, lingvistikaning o‘rganish predmeti bo‘lgan til-nutq hodisasiga ham u yoki bu darajada, bevosita yoxud bilvosita aloqadordir. Tilshunos shuni hisobga olgan holda falsafiy kategoriya mazmunining yuqoridagi bandlelarda sanab ko‘rsatilgan belgilari bilan tanishishi va ular asosida o‘z tadqiq predmeti (mavzusi) bo‘yicha masalalar qo‘ya olishi lozim.

Falsafiy kategoriya mazmunining sakkizinchi bandedagi belgisida kategoriyalarning obyektiv olamdagi narsa-hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlari va munosabatlarini aks ettiradigan tushunchalar ekanligi aytiladi. Yuqorida eslatilganidek, ilmiy tushuncha bo‘lgan kategoriya muhim belgilar va o‘xshash narsalarni umumlashtirish asosida shakllanadi.

Muhim belgilar narsa yoki hodisaning o‘zligini, o‘ziga xos mazmun-mohiyatini tashkil etuvchi xususiyatlardir. Nomuhim belgilar esa muhim belgilar bilan shartlanuvchi, yordamchi, o‘tkinchi, ahamiyati kamroq xususiyatlardir. Bu xususiyatlarsiz ham narsa o‘z sifatini, mohiyatini saqlab tura oladi.

Kategoriya hosil qilish (категоризация) bilan bog‘liq bo‘lgan umumlashtirish jarayonida narsalarning nomuhim, ikkinchi darajali belgilari e‘tibordan soqit qilinadi. Masalan, [i] fonemasi (tovushi) hozirgi o‘zbek adabiy tilining og‘zaki nutqida o‘zi alohida undov so‘z maqomida qo‘llanganda (I!) va so‘zning turli o‘rinlarida, urg‘uli hamda urg‘usiz bo‘g‘inlarda joylashganda, shuningdek, so‘zlovchi nutq apparatining turlicha tuzilishiga bog‘liq ravishda og‘iz keng ochilishi va ikki labning bir-biriga nisbatan uzoq joylashishining turli daraja (bosqichlari, o‘lchamlari) ga mos ravishda va shular bilan uzviy bog‘liqligi asosida o‘rtacha, qisqa, cho‘ziq; qattiq, yumshoq, ingichka, yo‘g‘on; tiniq, shirali; “e”simon, “i”simon aytilishi kabi artikulation-akustik xususiyatlarga ega. Tilshunos I tovushini til yoki fonologik birlik sifatida qabul qilayotganda (I) tovushining muhim belgilarini oladi va qolgan, qo‘shimcha, individual belgilarni e‘tibordan soqit qiladi. Bu belgilar [i] tovushidagi kenglik, lablanmaganlik va o‘ziga yondosh bo‘lgan [i] va [e] tovushlaridan farqlanuvchi muayyan akustik sifat (i!) dir. Boshqacha aytganda, i tovushlari sinfidan (i1, i2,i3,i4 ...) bir variant invariant sifatida qabul qilinadi. Ana shu invariant [i] fonemasi yoki [i] fonemasi mikrokategoriyasi hisoblanadi. Bu mikrokategoriya xususiylik-umumiylik munosabati asosida hosil qilinadi.

Lisoniy sath birliklari kategoriyalarini falsafiy kategoriya mazmuni belgilarini hisobga olgan holda tadqiq etish, aniqlash lingvistik kategoriya mohiyatini atroflicha va chuqur tushunilishiga yordam beradi.

Falsafiy kategoriyalar asosida til kategoriyalarining belgilanishi (aniqlanishi)da ontologik xususiyat, munosabat, umumiylik, xususiylik, abstraksiyalash, muhim belgi, farqlanish, zidlik (qarama-qarshilik), oppozitsiya, tur-jins tasnifi, dixotomiya (til-nutq oppozitsiyasi) kabi tushunchalardan tayanch asoslar sifatida foydalaniladi.



Falsafaning narsa kategoriyasi mazmuni belgilari barcha xususiy fanlar, shu jumladan, tilning narsa (birlik)lari bo'lgan fonema, morfema, leksema, gap va matnlarni tadqiq etish uchun qimmatli metodologiya (yo'l-yo'riq) bo'lib xizmat qiladi.

Til xotirada saqlanuvchi abstrakt lison va so'zlashuvda mavjud bo'lgan konkret nutq shakllariga ega. Abstrakt til (lison)ni o'rganish uchun falsafaning umumiylik, mazmun, mohiyat, asos, imkoniyat, zaruriyat kabi kategoriyalari xizmat qilsa, konkret til (nutq)ni tadqiq etish uchun xususiylik, shakl, natija, voqelik (hodisa) kabi kategoriyalar metodologik asos vazifasini bajaradi. Shuningdek, til-nutq dixotomiyasidagi bog'lanishni o'rganishga mohiyat va hodisa, imkoniyat va voqelik, zaruriyat va tasodif, sabab va natija kabi o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan kategoriyalar yordam beradi.

Tilda obyektiv va subyektiv olamning narsa (hodisa)lar va ularning munosabatlari ong (tafakkuri)ning abstraksiyalash faoliyati asosida ifodalanadi. Barcha til birliklari umumiylik maqomiga ega. Shuning uchun falsafaning umumiylik va xususiylik kategoriyalari ta'limoti til shakllanishi va holatini o'rganishda katta ahamiyatga ega.

Til ong (tafakkur)ning tabiiy borliqni in'ikos ettirilishi, obyektiv olamning subyektiv olamga, in'ikosiy mazmunga aylanishi bilan bog'liq. Shuning uchun falsafaning in'ikos nazariyasi, mazmun va shakl, sifat va miqdor, mohiyat va hodisa kategoriyalari lisoniy mazmun (semantika)ni atroflicha va chuqur o'rganish uchun dasturul amaldir.

Katta miqdordagi til birliklari nisbiy mustaqillik va alohidalik maqomiga ega. Bunga ularning o'xshash-noo'xshash shakllari har xilligi asosdir. Lisoniy birliklarning har xilligini o'rganish uchun aynanlik, farqlilik, ziddiyat, qarama-qarshilik kategoriyalarining mazmun belgilari asos bo'ladi.

Til tizimi diskretlik (bo'linuvchan) xususiyatga ega bo'lib, u fonema, morfema, leksema, gaplarning paradigmatic, sintagmatic, iyerarx, integrativ munosabatlari asosida tashkil topgan butunlikdir. Til tizimining yaxlitlanish asoslarini o'rganish uchun falsafaning qism va butun, sistema va uni tashkil etuvchi substansiya, element, struktura, munosabat kategoriyalari metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Til o'zgaruvchan (dinamik, noturg'un), nisbiy o'zgarmas (statik, turg'un), rivojlanib boruvchi hodisaki, uning bu jihatlarini tadqiq etish uchun falsafaning sabab va natija, zaruriyat va tasodif, imkoniyat va voqelik, harakat va sokinlik kabi kategoriyalarining mazmun belgilari yordam beradi.

Til mantiq, ruhiy (psixik) va boshqa hodisalar bilan uzviy bog'liq bo'lganligi uchun lingvistik tadqiqot nafaqat falsafiy, balki logik, psixologik, shuningdek, tabiiy fanlar metodologiyalarida ham foydalanilishi zarur.

#### **Adabiyotlar:**

1. Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 136 б.
2. Аверьянов А.М. Методологические проблемы типологии диалектических противоречий // Вопросы философии. – М., 1981. № 2. – С. 56-66.
3. Туленов Ж. Диалектика. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – 162 б.
4. Фалсафа. Қисқача изоҳли луғат. Масъул муҳаррир Абдуллаева М. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 383 б.

### **TABASSUM KOMMUNIKATIV-EMOTSIONAL ALOQA VOSITASI SIFATIDA**

**DOI: 10.53885/edinres.2021.10.90.012**

*Nodira O'tkir qizi Boltayeva*

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Buxoro filiali o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya.** *Maqolada tabassumning kommunikativ-emotsional aloqa vositasi sifatidagi ahamiyati xususida so'z yuritilgan. Tabassum orqali ifodalangan nutqning yuqori ta'sir kuchiga ega bo'lishi bayon etilgan. Shuningdek, nafaqat tilshunoslik, balki tibbiyot sohasi*

*doirasida ham birgina tabassum orqali ko‘plab kasalliklarni yengish mumkinligi turli misollar orqali izohlangan. Chunki tabassum yaxshi kayfiyat belgisi bo‘lishi bilan birga, inson organizmiga beqiyos foyda keltiradigan muhim vositadir.*

**Kalit so‘zlar: kommunikatsiya, aloqa vositasi, tabassum, ijtimoiy tabassum, asl tabassum, xushmuomalalik, jilmaymoq, kulmoq**

Ma‘lumki, til insonlarning fikrlari, his-tuyg‘ulari va xohishlarini ifoda etuvchi vosita bo‘lib, u o‘zaro aloqa qilishning eng muhim quroli sanaladi. Shunday ekan, til o‘ziga xos turli xil funksiyalarda qo‘llaniladi. Uning eng asosiy funksiyalaridan biri kommunikativlik, ya‘ni asosiy aloqa vositasi bo‘lib xizmat qilishidir.

Tilda bunday funksiya mavjudligi sababli odamlar o‘zaro to‘liq aloqa qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Aloqa - odamlar o‘rtasida ma‘lumot almashish jarayoni. Har birimiz doimiy ravishda ushbu jarayonning ishtirokchisiga aylanamiz. Muloqot jarayonida axborotni uzatish, odamlarning bir-biri bilan aloqalarini o‘rnatish va qo‘llab-quvvatlashning turli xil usullari qo‘llaniladi. Shulardan biri - og‘zaki bo‘lmagan (ekspressiv) aloqa vositalari, ya‘ni tabassum orqali fikr ifodalashdir.

**Tabassum kommunikativ-emotsional aloqa vositasi hisoblanadi.**

**Tabassum** [*a.* — jilmayish; iljayish] Yuz, ko‘z va lablar bilan kulimsirash holati, shunday holat ifodasi; jilmayish. “*Hayotning yuziga shirin tabassum yugurdi*” (M.Ismoiliy. “Farg‘ona tong otguncha”). “*Uning lablarida tabassumni ko‘rgan Zulfiqor ashulani yana balandroq oldi*” (Mirmuhsin. “*Me‘mor*”) [1].

**Buyuk iste‘dod sohibi, sevimli ijodkor, el ardoqlagan shoir Erkin Vohidov she‘rlari shirali tili, teran mazmuni, chuqur falsafiy umumlashmalardan iboratligi bilan ajralib turadi.**

*Ko‘z ochib nur qo‘ynida,  
Ko‘rdim yorug‘ dunyoni,  
Bu olamda neki bor  
Bari tortar havasim.  
Lolalar qahqahasi,  
Chechaklarning xandoni,  
G‘unchalar yuzidagi  
Sal uyatchan tabassum...*

Yuqoridagi misralarda lolalarning yoqut piyoladek bo‘lib ochilishini “qah-qah” otib kulgan inson kulgusiga, mayda chechaklarning ochilib turishini esa, uning “xandon” kulgusiga, endigina ochilaman deb turgan g‘unchani esa “sal uyatchan tabassum”iga o‘xshatish she‘rdan zavqlanish hissini oshiradi.

**Shuningdek, tabassum orqali ijobiy va salbiy ekspressivlik yuzaga chiqariladi:**

“*Aravakash yumshoqqina kulimsiradi. Yosh yigitning bu yosh shirin tabassumini oy yorug‘ida alayna ko‘ra olgan yosh qiz qizarib, teskari qaradi...*” (Cho‘lpon. “Kecha va kunduz”, 25-bet)

“*Otabek ham istehzoli tabassum orasida Homidga ko‘z qirini tashladi*” (A.Qodiriy. “O‘tgan kunlar”).

Shu bilan birga, turli ko‘rinishdagi matnlarni tahlilga tortar ekanmiz, tabassumning metaforik birikma tarzida qo‘llanilishiga guvoh bo‘ldik:

“*Juda yomon bolalar emas ekan, odamgarchiligi ham chakki emasga o‘xshaydi, degan fikr o‘tdi ko‘nglimdan, nazarimda ukalarim ham shu xususda o‘ylashgan bo‘lsa kerak, yuzlariga qizillik yugurib, tabassum guli ochilgandek bo‘ldi*” (X.To‘xtaboyev. “Besh bolali yigitcha”, 94-bet).

“*Uning xiyol ochiq lablarida tabassum o‘ynardi, ularga tikilib turib o‘zimcha yana shunday deb o‘yladim: mana, Kichkina shahzoda, beozorgina uxlab yotibdi, feruza guliga shunchalar sadoqatliki, odamning beixtiyor ko‘ngli erib ketadi, gulining yodi-xayoli, sham*

*shu'lasining sharpasidek, uni biron zum, hatto uyqusida ham tark etmaydi...*" (A.Ekzyuperi. "Kichkina shahzoda", 76-bet).

**Demak, tabassum – universal til.** Buni barchamiz bilamiz, ammo odamlar bilan muloqotda ushbu usulga juda kam murojaat qilamiz. Ingliz yoki fransuzchada birorta soʻzni bilmasak ham, suhbatdoshimizga tabassum orqali javob qaytarishimiz mumkin. Maʼlum boʻlishicha, Yevropada shunchaki tabassum qilish tarbiyalilik belgisi hisoblanar ekan.

Tabassum boshqalarga tushuntirilishi qiyin boʻlgan maʼlumotlarni osonlik bilan yetkazadi. Chunki u orqali yetkazilgan soʻzlarning miyaga taʼsiri koʻproq boʻladi. Uzatilayotgan maʼnoga tabassum hamroh boʻlsa, uning taʼsir kuchi yana ham ortiqroq boʻlishi tabiiy.

*"Shoiraning koʻzlari tabassumdan yonib turar edi"* (Oʻ.Hoshimov. "Nur borki, soya bor").

*"Yulduzxon Muhiddinga qarab, maʼnoli tabassum qildi"* (R.Fayziy. "Choʻlga bahor keldi").

Tabassum nafaqat yaxshi kayfiyat belgisi, balki organizmga beqiyos foyda ham keltirar ekan. U tibbiyot sohasida koʻplab kasalliklarning, xususan, qalbdagi ogʻriqlarning davosidir.

Bugungi kunda inson tabassumining 19 xili aniqlangan. Ular ikki turga: "ijtimoiy" va "asl" tabassumlarga boʻlinadi. "Asl" tabassum deganda "chin yurakdan" tabassum qilishga aytiladi. U yuzdagi 53 muskulni ishga soladi. "Ijtimoiy", boshqacha aytganda, "xushmuomalalik uchun" tabassum qilish esa faqat 5 muskulni ishga tushiradi. Umuman, inson tabassum qilganida yuzdagi 17 muskul ishga tushadi [2].

Tabassum kishi yuzi uchun ajoyib badantarbiya hisoblanadi. U inson jismi va aqliga foyda beradi, qon bosimining oshishidan va yurak xastaliklaridan himoya qiladi hamda insonda oʻziga ishonchni hosil qiladi.

Tabassum yuz muskullarining holati bilan hamohang tarzda ishlaydigan miya faoliyatining ijobiy holatini kuchaytirishi bilan birga, atrofdagilarning ruhiyatiga ham oʻz taʼsirini oʻtkazadi. Masalan, sizga qarab samimiy jilmayib turgan odamga nisbatan siz ham tabassum bilan muloqotga kirishib ketganingizni oʻzingiz ham bilmay qolasiz. Yoki chin yurakdan berilib kulayotgan kishini koʻrgan odam, garchi gap nima haqida ketayotganini bilmasa ham, unga qoʻshilib kulib qoʻyadi.

**Tabassum – koʻz oʻtkirligini yaxshilaydi [3].** Tadqiqotlarga koʻra, kulib turuvchi odamlarning yoshlik chogʻida koʻz nuri oʻtkirligi keskin pasayishi ancha kam sodir boʻlar ekan. Tabassum paytida yuz beradigan muskullar stimulyatsiyasi nafaqat yuzning yuqori qismini harakatga keltiradi, balki koʻz nuri oʻtkirligi uchun javob beradigan miya sohasiga signal yuboradi.

**Koʻproq tabassum qilish – hislarni tashqariga chiqarish demak.** Qiyin lahzalarda tabassum qila olish muammoga boshqa tarafdin nazar solish, hatto yechim topish imkonini beradi. Har qanday holatda ham koʻngilsizliklarga qarab jilmayish – yaxshi qaror.

**Tabassum–yurak urishini sekinlashtiradi.** Koʻp tabassum qilganda yurak ritmi normallasadi, tanamizning eng muhim organi tinchlanadi va bir tekis ishlaydi.

Darhaqiqat, tabassum shifodir. Koʻplab olimlarning eʼtirof etishicha, tabassum bemorning kasallikdan tuzalishida alohida oʻrin tutadi. Masalan, shifokorning bemorga qilgan oddiy bir tabassumi uning kasallikdan forigʻ boʻlishida har qanday dori vositasidan afzalroqdir. Demak, biz hadya etgan tabassum ham kimningdir darddan qutulishga yordam berar ekan. Shu va boshqa sabablarga koʻra tabassum sadaqaning bir turi hisoblanadi. Chunki atrofdagilarga tabassum bilan boqish ibodat qilish bilan barobar ekan. Imom Buxoriy rivoyatlarida aytilishicha, Rasululloh sallallohu alayhi vasallam: *"Doʻsting yuziga qarab qilgan tabassuming ham sadaqadir"* [4], – deganlar.

Adabiyotlar:

1. ЎТИЛ. 5 жилдли. 3-жилд. Т.: ЎзМЭ, 2007.
2. <https://muxlis.uz/oz/pages/tabassum>
3. <http://xabardor.uz/tabassum-koz-nuri-otkirligi-uchun-foydalimi-tabassum-haqida-7-fakt>
4. <https://zamin.uz/uz/hayot-tarzi/32870-tabassum-qiling.html>

5. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yuldasheva D. Hozirgi o'zbek tili. Darslik. – Germaniya: “Globe Edit international Publishing Group” ISBN: 978-620-0-61410-0. – 2020.–555 b.

**“G‘AROYIB US-SIG‘AR” DEVONI TARKIBIDAGI BIR G‘AZAL TAHLILI**  
**DOI: 10.53885/edinres.2021.28.26.013**

*Nazora Jo‘rayevna Bekova*

Buxoro davlat universiteti o‘zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti

*Zarina Raxmiddinovna Sayliyeva*

Buxoro davlat universiteti o‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi

*Feruza Sohob qizi Saidova*

Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

**Annotatsiya.** *Hazrat Navoiy matla‘dayoq o‘zining buyuk so‘z san‘atkori va din bilimdoni ekanligini namoyon qilganlar. Ya‘ni Ollohning go‘zal sifatlarini sanash orqali tanosub san‘atini yuzaga keltirganlar. Ushbu baytda Navoiy Ollohga Iloh, podshoh, kirdigoro deb murojaat qiladi. Olloh senga ochiq va yashirin ( barcha narsalar) oshkor. Ilk misralar orqali Navoiy Ollohning bilguvchilik sifatiga ishora qilganlar. Olloh har bir insonning o‘zida ekan bizning har bir qilayotgan ishimiz uning nigohida. Uning nazaridan qochib hech qayerga borib bo‘lmaydi. U na zamon, na makon tanlaydi. Matla‘dayoq o‘quvchiga har bir qilayotgan amali Olloh nazarida ekanligi ochiq va ravshan bayon qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** *matla‘, g‘azal, bilguvchilik sifati*

G‘azalning mazkur baytida tazod san‘atini ochiq va yashirin so‘zlari yuzaga keltirgan.

*Sabur ismi bila qilsang tajalliy,*

*Qilib Namrudg‘a yuz ming mudoro.*

Matla‘ning bevosita davomi sifatida ikkinchi baytda ham Olloh sifatlarini sanashda davom etiladi. Ollohning 99 ismidan biri Saburdir. Uning ma‘nosi sabrli, chidamli degani. Baytda keltirilgan Namrud talmehi o‘quvchi e‘tiborini tortishi tayin. Qator lug‘at va izohlarda quyidagicha izohlangan. Namrud – Ibrohim payg‘ambarni o‘tga tashlagan afsonaviy podsho. Qator hadislarda ham musulmonlarga qarata sabrli bo‘lish, o‘z nafsini jilovlash, xususida so‘z boradi. Mazkur baytda ham shunga hamohang fikrlar mavjud. Namrudga yuz ming iltifot qilib, Sabur isming bilan ko‘rinish qil. Ya‘ni o‘z nafsini yo‘lida yo‘ldan adashgan g‘ofil bandalarini sabrga chorla. Namrud obrazi bu yerda g‘ofil bandalarning umumlashma obrazidir. Sabrli inson hech qachon to‘g‘ri yo‘ldan adashmaydi. Nafsni ham aynan sabr orqali yengish mumkin. Buni yaxshi anglagan Navoiy o‘zining qator nasriy va nazmiy asarlarida bunga alohida to‘xtalib o‘tgan. Bu fikr tadrijiy tarzda rivojlantirilgan asar sifatida “Lison ut – tayr”ni ko‘rsatishimiz mumkin. Asardagi qushlar sabr orqali nafslarini yengib, semurg‘ni angladilar.

*Qachonkim zohir etsang «tanzi‘-ul-mulk»,*

*Sikandarning bo‘lub mag‘lubi Doro.*

Mazkur bayt mazmuni talmeh san‘ati orqali ochib berilgan. Mazkur talmehlar orqali tarixiy voqea o‘quvchi ko‘z o‘ngida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ollohning qudrati orqali xalq, zolim shohdan qutulib, ma‘rifatli, odil, xalqparvar shoh qo‘l ostiga o‘tadi. Navoiyning boshqa asarlarida ham Iskandar odil shoh sifatida namoyon bo‘ladi. Baytda Sikandarning Doro ustidan g‘alaba qozonganligi ham Tangri inoyati ekanligi aytilgan. Baytdan chiqadigan xulosa shuki, dunyoda bo‘ladigan har qanday yaxshi amallar yaratgan egam inoyati, yomon kunlar esa inson irodasini sunash uchun yuborilgan sinovdir. Shunday ekan yaxshi va yomon kunlarga birday shukrona aytmoq zarur.

Yo‘lung muhlik toshi yoquti ahmar,

### Eshiging tiyra gardi mushki soro

To'rtinchi bayt badiiy jihatdan yetukligi bilan ajralib turadi. Baytda tashbehdan ustalik bilan foydalangan. Muhlik tosh, yoqut ahbar, tiyra gard, mushki soro kabilar tashbehni yuzaga keltirgan. Baytda Oллоh yo'lida chekilgan dard- u zahmat buyuk ne'mat deb atalgan. Yo'lingning jon oluvchi toshi qizil yoqut, eshigingning qora tuprog'i mushk anbar kabidir. Ya'ni bu yo'lda jon berish ham muborakdur. Bu yo'lning qora tuprog'i lirik qahramon uchun mushk - anbar kabi yoqimli. Oллоhga erishish katta qiyinchiliklarni talab etadi. Navoiy mazkur bayt orqali bu yo'lga kirgan solik bandaga madad berib bu yo'lda sobit borishga undagan. Bu baytlarni o'qigan kitobxon Navoiyning badiiy mahoratiga yana bir marotaba tan beradi.

Suho bo'lsa shabistonningda toli',

Bo'lub nuri quyoshdek olamoro.

Lirik qahramon beshinchi bayt Oллоhning mo'jizalariga yana bir marta iymon keltiradi. Baytda qo'llangan suho(xira yulduz) quyosh bilan zid qo'yilgan, bir qaraganda ular o'rtasida mutanosiblik yo'qday. Lekin Buyuk Rabbimiz har narsaga qodir. Hattoki xira yulduzni ham quyoshdek porloq qilishga ham qodir. Baytda qo'llangan shabiston(qorong'u tun) insonning hayot yo'li ramzi. Oллоhim har bir bandasini baxtli qilish shabistonini quyosh nurlari bilan yoritish qudratiga egadir. Shunday ekan nega barcha birday baxtli emas? degan savolga quyidagicha javob berish mumkin. Inson dunyoga kelganda Oллоhning suyakli bandasi sanaladi. Umri oxirigacha shu maqomni saqlab qolish har kimning o'z qo'lida. Oллоh ko'rsatgan barcha farz-u amallarga rioya qilgan bandaning yo'llarini doimo Rabbim o'zi yoritgaydir.

Mazkur baytda aynan shu xulosalarga ishora qilingan. Bundan tashqari baytda tazod san'atini ham ko'rishimiz mumkin.

Navoiy nafs zulmotig'a qolmish,

Sen o'lmay Xizri rah chiqmoq ne, yoro?!

Navoiy nafs zulmatida qoldi, sen bo'lmasang Xizrga yo'liqmoqdan nima foyda? Baytdagi Xizr talmehi tahliltalabdir. Xizr – afsonalarga ko'ra “obi – hayot” (tiriklik suvi)ni izlab topgan va undan ichib doimiy barhayot payg'ambar nomi. Kishilarga yo'liqishi bilan mashhur. Xizr payg'amparga yo'liqqan har bir kishining niyatlari o'z ijobatini topadi. Baytdagi Navoiy butun xalq obrazi. Ya'ni lirik qahramon ommaga qarata nafs zulmatida Xizr kabi uzoq umr ko'rishdan ne foyda, deydi. Nafs changaliga tushgan insonning qalbida Oллоh yashamas ekan Xizr payg'ambar singari qanchalik uzoq yashamasin, baribir ham uning hayoti zulmatda qoladi. Bu bayt bugungi kunda ham dolzarbligini bilan ajralib turadi. Kundalik turmushimizda uchratadigan ba'zi bir kimsalar mol-u dunyo tashvishida kecha-yu kunduz yelib yugurishadi, ammo ularga berilgan umr juda qisqa ekanligini unutishadi. Odam Ato va Momo Havoning qismati bizga o'rnak emasmi? Ular jannatda Oллоh rafiqi edilar. Nafs qutqusiga uchib, jannatdan yerga quvildilar. Ammo Oллоh kechiruvchidir, ularga o'z uylariga qaytish imkonini ham berdi. Bu yo'ldagi ilk qadam nafs tarbiyasidir. Biz ularning avlodi sifatida bu foni dunyoda qilgan yaxshi amallarimiz bilan, boqiy dunyoda Rabbimiz jannatdan bir ko'shk hozirlaydi. Mazkur bayt solik bandalarni ogohlantiruvchi chaqiriq sifatida yangraydi.

Qiyomatda gunohin afv etarga

Rasulingni shafi' et, kirdgoro

Maqta bevosita Oллоhga murojaat bilan boshlanadi. Oллоhim, qiyomat kuni gunohlarni afv etishga Payg'ambaringni himoyachi et. Baytdagi qiyomat so'zi o'quvchiga tushunarsiz tuyulishi mumkin. “Navoiy asarlari lug'ati”da u quyidagicha sharhlanadi. Qiyomat – 1. mifga ko'ra insonlarning qayta tirilish kuni 2. Qo'zg'olon, g'avgo, to'olon. Diniy kitoblarda bu kun Oллоh o'zining Qahhor (qahrli) sifatini namoyon qiladi. Barcha o'lganlar tirilib, bu dunyoda qilgan amallari yuzasidan savol – javob qilinadi. Shunda gunohkor bandalar va Oллоh orasida vositachi, gunohkorlar himoyachisi Payg'ambarimiz hisoblanadi. Birgina Payg'ambarimiz Oллоhdan bandalar gunohidan o'tishni so'raydi. Payg'ambarga berilgan “shafi ul- muzannibin” sifati ham aynan shunga ishoradir. Yuqoridagi fikrlarimizga hamohang tarzda shuni ham ta'kidlab o'tmoqchimizki, Nosiruddin Rabg'uziyning “Qissas ul-Rabg'uziy” asaridagi quyidagi

misolni keltirmoqchimiz. Azroil alayhissalom Payg‘ambarimiz jonlarini olishga kelganda, jonlari bo‘g‘izlariga yetganda shunday deydilar: “Ey Azroyil, bu kundin qiyomatga tegi maning ummatlarimga jon bermak, qattig‘liqi bor ersa ul qattig‘liqlarni manga yuklagil. Ul qattig‘liqlar manga bo‘lsun. Ummatlarimqa bo‘lmasin”. Navoiy o‘zini gunohkor banda sanab Oллоhdan ayni qiyomat kuni Payg‘ambarimizni o‘ziga himoyachi qilishini so‘raydi. Tahlil davomida shunga amin bo‘ldikki, bu g‘azal Navoiyning boshqa hamd g‘azallaridan badiiy va g‘oyaviy jihatdan yetukligi bilan ajralib turadi. Asar misralaridagi har bir fikr bugungi kun uchun ham dolzarb sanaladi. Navoiyning boshqa asarlari singari ushbu g‘azal ham makon va zamon tanlamaydigan tuyg‘ular madhiga bag‘ishlangan. Navoiy asarlarining yashovchanlik xususiyatlari ham aynan ana shundadir. G‘azalning boshqa g‘azallardan yana bir farqi shundaki, taxallus maqtada emas undan oldingi baytda qo‘llangan.

#### **Adabiyotlar:**

1. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томли. 3-том. Хазойин ул-маоний. Ғаройиб-ус-сиғар. -Тошкент: Фан, 1988. – 616 б.
2. Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: П.Шамсиев, С.Иброҳимов. - Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972. –784 б.
- 3.Рустамов А. Шоирнинг биринчи ғазали.//Шарқ юлдузи, 1987, № 3, 175-179-б.
4. Қуръони карим (таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур). -Тошкент: Чўлпон, 1992. 672 б.
5. Қуръони карим сўзларининг арабча-ўзбекча кўрсаткичли луғати. -Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1971. –277 б.
- 6.Ҳайитметов А. Навоий даҳоси. -Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1970, 173 б.
- 7.Ҳаққул И. Шеърят - руҳий муносабат.–Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989, –240 б.
8. Ҳаққулов И. Тасаввуф ва шеърят. –Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991, – 184 б.

#### **NAVOIYNING “NAVODIR USH-SHABOB” DEVONI NASHRLARIDAGI TARJE’BANDLARNING MATNIY TAFOVUTLARI VA ULARNING G‘OYAVIY- BADIY TAHLILI**

**DOI:10.53885/edinres.2021.22.17.014**

*Nazora Bekova,*  
BuxDU dotsenti  
*Shahlo Halimova,*  
BuxDU Matnshunoslik va adabiy  
manbashunoslik ixtisosligi magistri

**Annotatsiya.** *Istiqlol sharofati bilan boy ma’naviy merosimiz hamda asrlar davomida e’zozlab kelingan milliy an’ana va qadriyatlarimiz qayta tiklandi. Bu esa ko‘plab sohalarda bir qator islohotlarning yuzaga kelishiga zamin hozirladi. Bugungi kunda matnshunoslik, ayniqsa, O‘zbekiston uchun dolzarb ahamiyatga ega. Chunki o‘lkamiz tarixi va madaniyatiga oid yuzlab bebaho asarlar hali nashr etilmasdan qo‘lyozma holda saqlanmoqda. Sir emas, bir necha nusxada yetib kelgan asar qo‘lyozmalari orasida ancha-muncha tafovutlar bo‘lishi tabiiydir. Ayni shu fikrlarni navoiyshunosligimizga ham tatbiq qiladigan bo‘lsak, mustaqillikdan keyin Hazrat Alisher Navoiyning “Siroj ul-muslimin”, “Arbain”, “Munojot” kabi qator diniy-tasavvufiy mavzudagi asarlari chop etildi. Qolaversa, shoirning bir qancha asarlari ham qaytadan talqin va tahrir qilindi. Yildan yilga navoiyshunoslik borasidagi ishlari ko‘lami kengayib, turli loyihalar, tadqiqotlar yaratilmoqda.*

**Kalit so‘zlar:** *Alisher Navoiy, “Siroj ul-muslimin”, “Arbain”, “Munojot”, diniy-tasavvufiy asarlar*

Muhtaram yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 19-oktabrdagi PQ-4865-sonli “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash

to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq Oliy ta'lim muassasalarida Alisher Navoiy merosini uzluksiz o'qitish tizimi joriy qilindi.

Alisher Navoiy she'riyatning 16 janrida turkiy tilda yaratilgan asarlarining ko'pchiligi "Xazoyin ul-maoniy" nomi ostida 4 yirik devonga jamlangan."Xazoyin ul-maoniy " kulliyoti tarkibiga kiruvchi devonlarning janr xususiyatlarini kuzatadigan bo'lsak, ular orasida o'zaro mutanosiblik borligini ko'ramiz. Shuningdek, ayni biz tahlilga tortmoqchi bo'lgan tarje'band janri ham har bir kulliyotdan o'rin olgan bo'lib, Navoiy ularning falsafiy mazmunni o'zida jam etgan mukammal namunalarini yaratgan. Navoiy me'rosi bo'yicha bugunga qadar ancha salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Bugungi kunda esa shoirning axloqiy, diniy, dunyoviy, ma'rifiy ruh bilan sug'orilgan tarje'bandlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hazrat Navoiyning 1963-yilda yilda nashr etilgan 15 tomlik asarlar to'plamining 2-jildidan o'rin egallagan "Navodir ush-shabob" devonidagi "Jahon qasrig'adur su uzra bunyod..." misrasi bilan boshlanuvchi tarje'bandidan quyidagi baytni tahlilga tortsak:

**Fusunu** lobasi andoq muassir,

Ki mum aylar, ko'ngul gar bo'lsa po'lod. [Навоий, 1963:393]

Xuddi mana shu bayt 1989-yilda nashr etilgan 20 tomlik "Mukammal asarlar to'plam"ining 4-tomida quyidagicha keltirilgan:

**Fununu** lobasi andoq muassir,

Ki mum aylar, ko'ngul gar bo'lsa po'lod. [Навоий, 1989:479]

Nashrlarda aks etgan matniy tafovutga asos bo'lgan so'zlarimiz: "fusun" va "funun". "Fusun"-afsun, "funun"-hunar; odat; nayrang mazmunlarini ifodalaydi.

Agar bayt mazmunini tahlil qiladigan bo'lsak, ajratib ko'rsatilgan so'zlar bog'lanib kelayotgan "loba" so'zi aldash, firib, nayrang ma'nolarini izohlayotganligini inobatga olib, matn uchun aynan "funun" so'zini qo'llamoq maqsadga muvofiq, deya olamiz. Bayt mazmuni esa quyidagicha:

"Yorning nayrang-u firiblaridan shunchalik ta'sirlanib qolasizki, ko'nglingiz po'latdan bo'lsa hamki, mum kabi erigay",-deya Navoiy juda go'zal tashbeh aylaydi. Matn haqiqatini tiklash uchun bayt mazmunini bir tomondan emas, keng qamrovda kuzatib, so'ng xulosa chiqarmoq kerak.

"Jahon sho'xidin olmish Haq vafoni..." misrasi bilan boshlanuvchi tarje'banddagi quyidagi baytni tahlil qilsak:

Sabo **kochin** urub savsang'a andoq,

Ki qolib ko'klugi andin nishoni. [Навоий, 1963:394]

20 tomlik MATda esa quyidagicha keltiriladi:

Sabo koj in urub savsang'a andoq

Ki qolib ko'klugi andin nishoni. [Навоий, 1989:480]

"Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati"da "koj" so'zi shapaloq; iztirob, aziyat ma'nosida izohlangan. Ammo "koch" so'zi lug'atda keltirilmagan. E'tirof etishimiz mumkinki, matndagi "koj" so'zi bayt mazmuniga to'la mos keladi, ya'ni:

"Sabo savsan guliga shunchalar aziyat yetkazganki, buni undagi ko'klik (ya'ni, iztirobdan ko'karganlik ma'nosida) nishonasi qolganligidan fahmlashimiz mumkin".

Aytish joizki, Alisher Navoiy asarlarida qo'llangan har bir so'z ulug' shoirning buyuk zakosi va nozik didli she'rshunos ekanligini ko'rsatib turadi. Quyidagi "Jahonkim zohir aylar lolavu bog'..." misrasi bilan boshlanuvchi tarje'band tarkibida kelgan baytga e'tiborimizni qaratsak:

Taaddi birla nasrin yafrog'idin

Yasar gulchehrasin **tirmarg'a** tirnog'. [Навоий, 1963:395]

Taaddi birla nasrin yafrog'idin

Yasar gulchehrasin **yirtarg'a** tirnog'. [Навоий, 1989:481]

Bayt mazmuni:

"Zulm ila guldek chehrasiga ozor aylamoq (yirtmoq) uchun nasrin guli yaproqlaridan o'ziga tirnoq yasadi."

Ko‘rinib turibdiki, bu yerda 20 tomlik MATda keltirilgan baytda ajratib ko‘rsatilgan so‘z to‘g‘ri qo‘llangan. Sababi, “Navodir ush-shabob” devonining Rahmat Majidiy muharrirligi ostida nashr ettirilgan devondagi “tirmarg‘a” so‘zi noto‘g‘ri qo‘llangan. Ya‘nikim, ushbu so‘z “tirmarg‘a” shaklida keltirilganda edi, bayt mazmuniga to‘g‘ri kelishi mumkin edi, albatta. E‘tirof etish joizki, shoir asarlarining nashrlarida yo‘l qo‘yilgan har qanday nuqsonlar asarlarining mazmun-mohiyatiga salbiy ta‘sir o‘tkazishini inkor qilib bo‘lmaydi. Bugungi kunda navoiyshunosligimizdagi bunday kamchiliklarni tuzatish navoiyshunos olimlarimiz, matnshunos mutaxassislarining zimmasidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

“Navodir ush-shabob” devoni nashrlaridagi tarje‘bandlarda yana quyidagi matn mazmuniga ta‘sir etuvchi tafovutlarni kuzatishimiz mumkin:

**Xarobot** ko‘rki, gar yuz mingni har kun.

Qilur ul zahr o‘lgan elga dohil. [Навоий, 1963:398]

**G‘arobat** ko‘rki, gar yuz mingni har kun,

Qilur ul zahr o‘lgan elga dohil. [Навоий, 1989:484]

“Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”da “xarobot”-vayrona joy ; mayxona ma‘nosida, “g‘arobat” so‘zi esa, ajoyiblik, qiziqlik, nodirlik ma‘nosida izohlab o‘tilgan. Ikkala nashrda keltirilgan so‘zlar ham bir-biriga zid ma‘noli, ammo matnning to‘la mazmunidan kelib chiqadigan bo‘lsak, “g‘arobat” so‘zi bayt mazmuniga mos keladi. E‘tibor beradigan bo‘lsak, nashrlardagi matniy kamchiliklar, asosan, dastlabki yillarda nashr qilingan asarlarda kuzatilyapti.

Demak, keyingi yillarda matnshunoslarimiz bunday jiddiy kamchiliklarni bartaraf etish ustida samarali ish olib borishyapti. Sababi, matnshunoslik yutug‘i-asarning tayyorlangan ilmiy-tanqidiy matni hisoblanadi. Bu nusxa ilmdagi nuqta qo‘yilgan so‘nggi so‘z demakdir. Nashrda esa shunga qat‘iy amal qilish kerak. Muxtasar qilib aytganda, Navoiy ijodidagi har bir janr o‘zida aks etgan g‘oya va mazmunni tushunmog‘imiz- undagi so‘zlarning navoiyshunos va matnshunoslar tomonidan qanchalar to‘g‘ri va munosib tabdil va talqin etilayotganligiga bog‘liq bo‘lib qolyapti.

#### **Adabiyotlar:**

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изохли луғати .–Т.: Фан, 1983 .
2. Навоий асарлари луғати. – Тошкент, 1972.
3. Навоий Алишер. 15 томли. 2-том. Наводир уш-шабоб.-Т.:1963.
4. Навоий Алишер. Мукамал асарлар туплами. 20 томли. 4-том. Наводир уш-шабоб–Т., 1989.

### **ИНКОРНИНГ ЛИНГВОФАЛСАФИЙ, ЛИНГВОМАНТИҚИЙ, ПРАГМАТИК ТАБИАТИ ҲАҚИДА МУЛОҲАЗАЛАР DOI: 10.53885/edinres.2021.35.89.015**

*Дилдора Бўронова*

Термиз давлат университети ўқитувчиси

**Аннотация.** *Инкор – бу дунёнинг барча тилларига хос бўлган, олам лисоний манзарасига мансуб, нисбатан содда семантик унсурлар воситасида аниқлаб бўлмайдиган, семантик жиҳатдан ажралмас семантик-коннотацион тоифалардан бири. Мантиқий нуқтаи назардан, инкор – бу берилган жумладан бошқасини тузувчи оператор, берилган гап ёлгон бўлганда тўғри бўлади ва аксинча, агар берилган жумла тўғри бўлса, ёлгон мулоҳазага ишора бериши мумкин. Ҳеч қандай мулоҳаза бир вақтнинг ўзида ҳам рост, ҳам ёлгон бўла олмагани каби икки қарра инкордан иборат мулоҳазалар мулоҳазанинг ростлигига ишора беради.*

**Калит сўзлар:** *инкор маъноси, олам лисоний манзараси, содда семантик унсурлар*

В.А.Плунгяннинг инкорни бутун бир универсал грамматик тўпламга тенглаштириши шу ва шу сингари нутқ имкониятларидан далолат беради.



Инкор универсал, барча тилларга хос бўлган, маъно маҳсули ҳисобланган категория ҳисобланади. Мазкур категорияни тадқиқ этувчилар, жумладан, О.Есперсен, Н.Н.Арват, С.А.Васильева, В.В.Виноградов, А.И.Бахарев, А.Т.Кривоносов, В.Н.Бондаренко, О.В.Озаровский, Н.Г.Озерова, Е.В.Падучева, В.З.Панфилов, А.М.Пешковский, Л.Хорн, А.А.Шахматов сингари тилшунос олимлар асосан, инкорни мантикий ва нуткий инкорга ажратган ҳолда, уларнинг қиёси, турли тилларда инкорни ифодаловчи воситалар, гап қурилмасида инкорнинг ифодаси сингари муаммоларга эътибор қаратадилар. Шунга қарамай, тилшуносликда инкорга тугал ечимини топмаган ҳодиса сифатида қаралади.

Тилда инкор категориясининг намоён бўлиши мантиқ ва фалсафани ҳам қизиқтиради. Ваҳоланки, инкор худди тасдиқ сингари воқеликнинг тилдаги ифодаси бўлиш билан бирга мулоҳаза тўғрисидаги мулоҳазани ҳам ифодалайди ва бу билан инкор худди фалсафа сингари, математика, формал ва математик мантиқ, прагматика, лингвистиканинг тенг ҳуқуқли объекти ҳисобланади. Мантикий жиҳатдан инкор мавжуд эмаслик тўғрисидаги фикр, воқеликда алоҳида аҳамиятга эга бўлган ниманингдир етишмаётгани, шунингдек, ифода этилган фикрга нисбатан инкор мулоҳаза, яъни мулоҳазани рост мулоҳаза сифатида қабул қилишга тақик, фарқлар ўртасидаги муносабат, етишмовчиликка муносабат, ноуйғунликка муносабат, қарама-қаршилик, зиддиятга муносабат, маҳрумлик ва тақчилликка муносабат, модалликка муносабатни акс эттиради.

Рад этиш – бу маълум бир ҳолат сақламайдиган фикрни ифодалаш учун махсус лингвистик восита. Тилшуносликда маъно таърифи одатда талқин сифатида қабул қилинади: Р. Якобсон ёзганидек, "лингвистик белгининг маъноси унинг бошқа, биринчи навбатда маъно тўлиқроқ ифодаланган белгига таржимасидир"[1].

А.М.Пешковский инкорни маъно элементи деб таърифлайди, бу гап компонентлари ўртасидаги боғлиқлик, олимнинг фикрича, ҳақиқатдан ҳам мавжуд эмаслигини кўрсатади[2].

Ш. Балли фикрича, гаптаги инкор нутқ эгасининг тасдиқловчи мос гапни сохта деб рад этганидан далолат беради[3]. Тилдаги субъектив баҳо ва эмоционал интенсивликнинг тизимли ифодаси, Ш.Баллига кўра, ўзини сўзлар, синтактик қурилмалар, қўшимчалар сатҳида акс этувчи эмоционал бўёқдорликда намоён этади. Масалан, *Мен ўзини севмайдиган кишиларга мутлақо ишонмайман* жумласидаги инкор етарли даражада интенсивликка эга, бироқ бу интенсивлик *Мен бунга ишонай? Мени ишонади деб ўйлаяпсизми?* жумлаларида интенсивлик кўламида яққол кўзга ташланувчи хиссиётлиликка нисбатан кучсиз. Шунингдек, синтактик қурилмаларнинг умумий семантикасида ушбу категориянинг киноя орқали ифода топиши кузатилади: *Борасана, борасан!*, *Мен унга ёрдам берармишман!* ва б. Эмоционал салбий баҳони ифодаловчи жумла одатда чекланган феъл ёки предикатив инкорни ўз ичига олган жумлага нисбатан қўлланилади, чунки айнан мана шу инкор кўпинча жумланинг тузилишига таъсир қилади. Бироқ, сўзнинг лексик маъносидаги инкор синтактик рефлексларга ҳам эга бўлиши мумкин[4].

Инкор мазмунига ҳар тарафлама ёндашувлар орасида И.Кантнинг унинг (инкорнинг) ташқи олам тўғрисида ҳеч қандай маълумот ташимаслиги, инкорнинг мавжудлиги эса чалкаш талқинга йўл қўяётган индивиднинг номукамаллигини англатиши тўғрисидаги хулосалар учрайди[5]. Л.М.Сизранцева эса И.Кантнинг инкорнинг маълумот ташимаслиги ҳақидаги қарашини абсурд деб ҳисоблайди ва ҳақиқий инкор олам ҳақида маълумот беради деб ҳисоблайди. Жумладан, тадқиқотчи И.Н.Бродскийнинг ҳақиқий инкорнинг формуласи сифатида тақдим этган "А маълумот Р эмас"[6] ҳукмига суянади ва бу формула билимларимиз доирасидаги қайси объектлар Р ва қайси объектлар А хусусиятларга эгаллигига доир ноаниқликни камайтиради, деб таъкидлайди[5].

Р.И.Ибаньес инкорни синтактик категория деб билади. Унингча, инкор фақат инкор шакли билан ифода топмайди, балки имплицит ёхуд ўзга лисоний шакллар билан ҳам англатилиши мумкин. Буни биз семантик йўл (алоҳида ифода шаклига эга бўлмай, сўз ва

тегишли синтактик қурилмада акс этган маъно орқали англашилади. М., *Мени бороди деб ўйлайпти* – “мен бормайман”; *Мен унинг кетганини аниқладим* – “мен уни учратмадим” маъносида каби) дея талқин этишимиз тўғри бўлади. Демак, инкор турли морфологик ва синтактик воситалар орқали намоён бўлувчи соф маъновий категориядир. Р. И. Ибаньес инкор ва тасдиқни битта ўлчамнинг икки қутби деб ҳисоблайди. Инкор соф лингвистик категория бўлиб, прагматикада инкор ва тасдиққа муқобил воситалар мавжуд эмас. Негаки ижобий ва инкор маъноли гаплар ҳам битта воқеликка ишора бериши мумкин[7].

Бироқ Э.Шмидтга кўра, инкор фаолиятнинг коммуникатив ўйинида сўзловчининг мулоқот операциясидир, яъни бунда инкор Э.Шмидт томонидан муқобил функцияли коммуникатив амаллар синфи деб кўрсатилади. Олимнинг хулосаси бўйича инкор грамматик категория эмас, балки мураккаб коммуникатив амалдир, у орқали сўзловчи адресатга фаолиятнинг коммуникатив ўйинига дахлдор муайян далилга нисбатан ўз муносабатини юзага чиқаради ва шу орқали адресатнинг фикрини рад этади ёки тузатади.

О.Есперсеннинг фикрига мувофиқ, инкор нафрат ҳиссидир, мумтоз “но” шакли зиддият ва қарама-қаршиликни билдирувчи алоҳида олинган сўзларнинг содда шаклидир. Бу вазиятда олим инкорни воқеликнинг ифодаси эмас, балки инсон руҳиятнинг у ёки бу психологик реакциялар, эмоционаллингнинг намоён бўлиши сифатида тушунади. Бироқ олимнинг бу фикрига қўшилиб бўлмайди, чунки ҳамиша ҳам инкор нутқ эгасининг руҳий ҳолатига боғлиқ бўлмасдан, объектив омилларга ҳам боғлиқ бўлиши мумкин (буни юқорида Л.М.Сизранцева қарашлари мисолида ҳам қайд этдик).

Демак, тилдаги инкор бошланғич, изоҳланмайдиган тушунчалар сонига тегишли бўлиб, у нисбатан содда семантик унсурлар воситасида аниқлаб бўлмайдиган, бутун бир грамматик тўпладан иборат, семантик жиҳатдан ажралмас семантик-коннотацион категориялардан бири саналади.

#### **Адабиётлар:**

1. Падучева Е. Русское отрицательное предложение. – М. Язык славянской культуры. 2013. Jakobson 1955 – Jakobson R. On linguistic aspects of translation. //R.A.Brower. On translation. Cambridge, Mass., 1955.
2. Пешковский А. М. Русский синтаксис в научном освещении. 7-е изд. М., 1956; 8-е изд. М., 2001.
3. Отрицание в логике и в лингвистике. <https://scicenter.online/russkiy-yazyik-scicenter/otritsanie-logike-lingvistike-169828.html>.
4. <http://rusgram.ru/>
5. Сызранцева, Л. М. Отрицание в семантической структуре предложения. <https://www.dissercat.com/content/otritsanie-v-semanticheskoi-strukture-predlozheniya>.
6. Бродский И.Н. Философский и логический аспекты проблемы отрицательных высказываний: автореф. дис.. д-ра философ. наук. - Л., 1974.- 30 с.
7. Кулубекова А.О., Токтогулова Г. Понятие "отрицание" и его лингвистические средства выражения в английском языке. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=28989943>.

#### **ҚИССАДА БАДИИЙ ДАЛИЛЛАШНИНГ ЎРНИ**

**DOI: 10.53885/edinres.2021.28.12.016**

**Шоҳсанам Давронова**

БухДУ ўзбек тили ва адабиёти  
кафедраси доценти, ф.ф.доктори

**Аннотация.** Мақолада бадий далиллаш ва ёзувчи маҳорати масалалари ўткир Ҳошимовнинг “Баҳор қайтмайди” қиссаси таҳлили асосида очиб берилган. Ижодкорнинг воқеалар оқими ва характерлар мантигини бадий далиллаш ва китобхонни ишонтириши санъати ва маҳоратига оид ўзига хос жиҳатлари хусусида сўз юритилган.

**Калит сўзлар:** қисса, бадий ифода, поэтик маҳорат, бадий далиллаш, характер, бадий услуб, бадий голя

Ҳар қандай бадий асарнинг таъсир кучини таъминлайдиган бир қатор омиллар бўлади. Улардан бири бадий далиллашдир. Бадий далиллаш адабиётшуносликда мотивировка атамаси билан ҳам юритилади. “Мотивировка (фр. *motiver* - асослаш, далиллаш) – адабий асарда тасвирланаётган воқеа-ҳодисалар, персонажларнинг хатти-ҳаракатлари, хис-туйғу ва гап-сўзларини бадий асослаш” [4.181]. Бадий далиллаш асар воқеаларининг, қаҳрамонлар характерининг ва энг муҳими, ёзувчининг китобхонга айтмоқчи бўлган фикри, ғоясининг ишонтариш кучини оширишга хизмат қилади. Ёзувчи Ўткир Ҳошимовнинг “Баҳор қайтмайди” қиссасида китобхонни ишонтаришга хизмат қилувчи ана шундай воситалардан бир қанчасига мурожаат қилинади. Ушбу ўринда ижодкорнинг далиллаш санъатига оид айрим жиҳатлар хусусида сўз юритишга ҳаракат қиламиз.

Маълумки, қиссаларда асосан воқеалар занжирини характер бошқаради, ҳаракатлантиради, йўналтиради. Шу боисдан “Баҳор қайтмайди” қиссасининг ҳам бутун таъсир кучи, пафоси Алимардон характери билан боғлиқ. Алимардон образининг характерли чизгиларидан бири шуки, унга табиат бебаҳо неъмат, яъни истеъдод ато этган. Лекин у худбинлиги, керагидан ортиқ даражадаги мағрурлиги оқибатида ўз истеъдодини ҳам, дўсти Анварнинг садоқатини ҳам, рафиқаси Муқаддамнинг меҳрибончилигини ҳам кадрига етмайди. Натижада эса фожеага юз тутади.

Адиб қиссада характерларни бадий далиллаш, воқеалар оқимида китобхонни ишонтариш мақсадида турли воситалардан фойдаланадики, улар ижодкорнинг ўзига хос маҳоратини намоён этади.

Насрий асарларда табиат тасвири асарда акс этган воқеликни ишонarli, рангин тасвирлашга ёрдам берувчи восита бўлиши билан бир қаторда яна бир қанча мақсадларга ҳам хизмат қилиши мумкин. Масалан, Ўткир Ҳошимовнинг мазкур қиссасида воқеалар ривожини, қаҳрамонларнинг руҳий ҳолатларига қараб, адиб ёз, куз баҳор ойлари табиатини тасвирлаб боради. Асарнинг бошланиши ҳам табиат тасвири билан бошланади. Асар сўнггида эса ёзувчи Алимардоннинг қисматига оид хулосани ҳам табиат тасвири орқали чиқаради: “Сахий кўклам кўп қатори Алимардоннинг қабрини ҳам чечакларга буркади. Майсалар орасидан очилган биттагина қизғалдоқ шудрингига қадаҳ тутди. Эрта-индин тўкилиб кетиши, ўзидан на муаттар бўй, на мева қолишидан беҳабар ял-ял ёнди” [3.276], деб асарни тугатади ёзувчи. Табиат ва инсон оламининг параллел тасвирлаб борилиши қаҳрамонлар характерини ва руҳий оламидаги ўзига хосликни асослаб боришга хизмат қилади. Қисса матнида бундай мисолларнинг бир нечтасини учратиш мумкин. Алимардоннинг характерини, ўзига хос табиати тўғрисида ёзар экан, ёзувчи шундай ўхшатиш қилади: “Алимардон ҳамон ойга ўхшар эди. У кун сайин тиниклашиб, кун сайин ёрқинлашиб, заминдан узоқлашиб борарди-ю, бир нарсани билмасди. Ой энг баланд нуқтасига етгандан кейин пастга шўнғишга мажбур бўлишидан беҳабар эди” [3.202].

Шунингдек, табиат тасвиридан ёзувчи қаҳрамонларнинг руҳий ҳолатларини далиллаш мақсадида қўллайди: “Қуёш бахтдан энтикканларга ҳам, ғамидан бағри қон бўлганларга ҳам баравар нур сочаверар экан. Уч ҳафтадан буён Муқаддамларнинг ғам юкини кўтаролмай, жимжит бўлиб қолган ховлисида баҳор гуриллайди” [3.223].

Табиат ва ҳолатлар тасвири, қаҳрамон психологиясини далиллашга хизмат қилади. “Мана, ҳозир ҳам ҳамма ёқда писта пўчоғи сочилиб ётибди. Чекка-чеккада оқариб ётган папирос қолдиқларини шамол эрмак қилиб пилдиратяпти. Ўзи ҳам бир вақтлар Анварнинг муҳаббатини эрмак қилган экан. Дунё ўзи шунақа экан. Киши ўзини ардоқлаганларга озор бераркан-у, озор берганларни ардоқларкан” [3.233], деб ёзади ёзувчи Муқаддамнинг кўнглидан ўтган ҳолатларни тасвирлаб. Бунда сочилиб ётган писта пўчоғи асар қаҳрамонини ўйлашга, ўз қисматини баҳолашга мажбур этгани ҳолда қиссанинг поэтик аҳамиятини оширишга ҳам хизмат қилган.

Шунингдек, насрий асарлардаги бадий далиллаш, китобхонни ишонтариш, воқеаларнинг кейинги оқимида китобхонни тайёрлаб бориш мақсадида ҳам хизмат

қилиши мумкин. “Баҳор қайтмайди” қиссасининг ишонтириш кучини таъминлаган воситалардан яна бири туш, киритма эпизод кабилардир. Асар воқеалари табиат тасвири асосидаги экспозициядан сўнг Алимардоннинг босинқираб кўрган туши билан бошланади. Тушида от чоптириб бораётган Алимардоннинг оти қоқилиб кетади ва у қоп-қоронғи жарликка қулаб тушади, сўнгра ўз овозидан чўчиб уйғонади. Ана шу дастлабки туш эпизоди орқали ҳам ёзувчи Алимардоннинг кейинги тақдирига ишора қилади.

Алимардоннинг фожеасига ишора қилувчи воқеалардан яна бири Қонқус дарёси ҳақидаги киритма воқеадир. Яъни дўстига хиёнат қилган йигитнинг фожиасига ишора асосида номланган деб ривоят қилинадиган Қонқус дарёси ҳақидаги ривоятнинг Анвар тилидан баён этилиши қиссанинг таъсир кучини янада оширишга хизмат қилган.

Қаҳрамоннинг кейинги тақдири ҳақида ишора қилувчи яна бир восита унинг яхши кўриб куйлайдиган кўшиғи. Маълумки, Алимардон санъаткор. Унинг Муқаддамнинг олдида айтган кўшиғи “Кетмоқдаман” ғазалини ҳам ёзувчи воқеалар мантиғига ниҳоятда мос тарзда танлаган:

“На қувончу, на ишончу на кўнгилдан очма гап,  
Барчасидан ушбу кун йўқдир самар кетмақдаман” [3.149].

Ушбу шеърдаги фикрлар қаҳрамоннинг кейинги тақдиридаги ҳамма нарсадан мосуво бўлиб, келажагига умидсиз кечираётган ҳаётига ишора қилади.

Шунингдек, ёзувчи қаҳрамоннинг характерини бадий далоиллашга хизмат қилувчи яна бир қатор воситалардан фойдаланди. Унинг портрети тасвирини берар экан, ёзувчи унинг қошини бироз чимириб туриши, мийиғида кулиб турган киёфасида мағрурликнинг акс этиб туриши ва ҳоказо.

Қаҳрамоннинг ўй-хаёллари тасвирида ҳам унинг худбинлиги айниқса, тўлароқ намоён бўлади. “Шунча кўшиқлар ҳам етади. Аввал борини ҳазм қилишсин” [3.215], деб ўйлаши, қадрдон ва садоқатли дўсти ҳақида ҳам ғайирлик билан уй суриши ва ҳоказо. Шунингдек, ёзувчи ундаги мағрурлик ва худбинликни унинг ўзгалар билан мулоқоти, яъни диалогларида ҳам акс эттиради. У аслида хотини ва боласининг қайтишини истаб турган бўлса-да, кечирим сўраш, ялиниб ёлвориш йўлидан бормайди, балки эшик олдида турган хотинига “Мана, мен келдим. Бўл энди, Муқад” [3.226], дейди, холос.

Асарнинг таъсир кучи бугунги кун учун аҳамияти беқиёс эканлиги билан белгиланади. Қисса қаҳрамонларидан бири, яъни Алимардон Тўраевдан кейин шон-шухрат шоҳсупасига чиққан, лекин бундан ҳаволаниб кетмаган қаҳрамон Мутал Қодировнинг суҳбатлари диққатни тортади. У Алимардонга отасининг фожеий қисмати ҳақида сўзлаб берар экан, унинг хатида ёзиб келган бир насиҳатини эслайди: “Дунёда одамларни яхши кўришдан каттароқ бахт йўқ”, деб ёзилган эди у хатда. “Сиз айтгандай томошабиннинг қарсагини эшитиш, ном қозонишга ишқибоз эмасман. Дунёда ҳамма нарса ўткинчи... Мен юрагимдаги хурсандчиликни ҳам, аламимни ҳам одамларга – томошабинларга тўкиб соламан. Менинг ашула айтишдан мақсадим шу...” [3.254], дейди ва унинг гаплари Алимардонда виждон азобини уйғотади. Ҳақиқатдан ҳам, Алимардонда ён-атрофидагиларга эътибор, меҳр-муҳаббат, ҳурмат туйғулари шаклланган, илдиз отганда эди, балки у ўзининг фожеий қисматини ижобий ўзанга буриб олишга куч топа олган бўлар эди.

Демак, қисса инсонни маънавий қадриятлар, ўз келажагини ўзи белгилаши ҳақида ўйлашга ундайди, шунингдек, китобхонни оила, дўст-биродарлар, фарзандлар, маҳалла-кўй, кенг маънода олганда, Ватан олдидаги бурчи, масъулияти тўғрисида огоҳликка чақиришга қаратилган. Ёзувчининг ғоявий мақсади асар воқеалари, характерлар мантиғи ҳамда руҳий ҳолатларини бадий асослашда қўллаган хилма-хил усул ва воситалар орқали ишонарли ва таъсирчан тарзда юзага чиқарилади.

#### Адабиётлар:

1. Адабий турлар ва жанрлар. 3 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент, Фан, 1991. – 384 б.
2. Davronova, S. (2017). MODERN ÖZBEK ROMANLARINDA KÂMİL İNSAN TERBİYESİ MESELESİNİN ELE ALINIŞI. *ElectronicTurkishStudies*, 12(15).

3. Ҳошимов Ў. Баҳор қайтмайди. / Севги қиссалари. – Тошкент, Ўзбекистон, 2013. – Б. 128-276.
4. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент, 2013. – 408 б.

## EVFEMIZMNING NUTQDAGI IJTIMOIIY AHAMIYATI

DOI: 10.53885/edinres.2021.13.98.017

*Nafisa Izzatullaevna G'aybullaeva*  
BuxDUPI dotsenti f.f.f.d (PhD)  
[nafisa.ped@mail.ru](mailto:nafisa.ped@mail.ru)

**Аннотатсия.** *Evfemizmlar tadqiq predmeti bo'lgan ishlar ko'p. Ilmiy adabiyotlarda bu hodisaga turlicha ta'rif berilgan. Evfemizmnining ko'p aspektli, o'zgaruvchan tabiatli ekanligining asosiy sababi leksik-grammatik shaklining xilma-xilligi, hissiy bo'yoqsizlik, uslubiy betaraflik hamda variantlilik xususiyatlarining mavjudligida. Leksikograf O.S.Axmanova tahriri ostida nashr qilingan lingvistik lug'atda evfemizmgga "so'zlovchiga beadab, qo'pol, nazokatsiz ko'ringan, o'z sinonimi o'rnida qo'llanila oluvchi hissiy bo'yoqsiz so'z va ibora"<sup>30</sup> degan izoh keltirilgan. Rus tili ensiklopediyasida nisbatan kengroq tavsif keltiriladi: evfemizim – (grekcha euphemia – noma'qul so'zlardan saqlanish, yumshatilgan ifoda) so'zlovchiga qo'pol, beadab, uyat, beandisha tuyulgan, ifodalamoqchi bo'lgan fikriga sinonim sanalgan neytral so'z yoki ifoda. Masalan, qari o'rniga yoshi ulug'; yolg'on gapirmoq o'rniga haqiqatdan chetlashmoq; kechikmoq o'rniga ushlanib qolmoq; semirmoq o'rniga to'lishmoq<sup>31</sup>. Tilshunoslikda evfemiya o'zaro chambarchas bog'liq uchta – ijtimoiy, psixologik va maxsus lingvistik aspektga ega. Ijtimoiy aspekt – bu evfemiya asosida yotadigan ijtimoiy, xususan, ma'naviy, diniy-ma'rifiy va siyosiy motivlar. Aynan shu omillar ta'sirida predmet, voqea-hodisalarning asl nomlanishi salbiy baho kasb etadi, taqiqlanadi, maqbul ifodalar bilan almashtiriladi.*

**Калит со'злар:** *evfemizim, nutq, psixologiya, estetika*

Psixologik aspekt omili ostida evfemistik o'rindosh talab qiluvchi tushunchani, fikr-mulohazani yumshatuvchi effekt bilan ifodalash tushuniladi. Predmet, voqea-hodisaning eski, asl nomi qo'rquv, uyat, noqulaylik, nafrat kabi salbiy hissiyotlar tug'diradi. Yangi, ko'chma ma'noli nom shu hisni me'yorlashtiradi. Evfemiya hodisasini o'rganishga lingvistik yondashuv evfemizim qo'llashning belgi, ishora va shart- sharoitlarini aniqlaydi.

Kasbiy muloqotda evfemizmlarning bir yoki barcha aspekti birato'la voqelanishi mumkin. Xususan, tibbiyot xodimlari nutqida o'rni bilan, vaziyat- sharoit, nutq talabiga asosan ijtimoiy, psixologik, lingvistik aspektlar namoyon bo'ladi. Inson fiziologiyasi va anotomiyasi bilan bog'liq holatlar nutqda ifodalanayotganda ijtimoiy aspekt voqelashadi. Masalan: *ko'r* o'rnida *ko'zi ojiz* birikmasi ishlatiladi: *Bepul foydalanish huquqi ko'zi ojiz nogironlar va ko'zi ojiz nogironlarga hamrohlik qiluvchi shaxslarga beriladi*<sup>32</sup>. *Kar* o'rnida *quloqdan qolish, eshitish qobiliyatining yomonlashishi, tevarak-atrofdagi ovoz, so'zlardan mosuvollik, muloqot qilish imkoniyatining cheklanganligi* kabi birikmalar qo'llanadi. Insonning jismoniy nuqsonini o'ziga o'z nomi aytish so'zlovchi va tinglovchiga birdek noqulaylik, yoqimsiz his bag'ishlaydi hamda muloqotning bunday ko'rinishi madaniyatsizlik belgisi sanaladi. Yuqoridagi misollarda ijtimoiy- psixologik aspekt hosilasining bir vaqtda namoyon bo'lishi kuzatilyapti.

Tibbiyot xodimlari nutqida psixologik aspekt esa boshqa aspektlarga nisbatan yetakchi sanaladi, chunki bunday mazmundagi evfemalarning qo'llanish chastotasi baland. Tibbiy

<sup>30</sup> Лингвистический энциклопедический словарь. / О.С.Ахмановой. – 2-е изд., стер. – М : УРСС : Едиториал УРСС, 2004. – 571 с.

<sup>31</sup> Евгеньева, А. П. Словарь русского языка в четырех томах (Текст)/ А. П. Евгеньева. – Т. 4. – М.: Русский язык, 1988. – 800 с. – С.746.

<sup>32</sup> Shifo-info", 2017, №39, 50-b.

amaliyotda nomi qo‘rquv, uyat, noqulaylik, nafrat kabi salbiy hissiyot tug‘diradigan fiziologiya, kasallik nomi va u bilan bog‘liq voqea-hodisalar bo‘ladi. Mana shunday birliklar nutqda evfemalashadi. Masalan, **bod chiqarmoq** o‘rnida **yel ajralmoq** birikmasi qo‘llanadi: *Og‘riq ovqat iste‘mol qilingandan keyin kuchayadi, najas va yel chiqargandan so‘ng esa kamayadi*<sup>33</sup>. Odatda, **qisir** o‘rnida **bepusht** so‘zini qo‘llash holatlari ham uchraydi: *Bepushtlik hamda jinsiy hayotdagi turli muammolar sababli shifoxonamizga murojaat etuvchilar ko‘pchilikni tashkil etadi*<sup>34</sup>.

Nutq evfemizatsiyasiga lingvistik yondashuv evfemizm qo‘llashning belgi, ishora va shart-sharoitlarini aniqlashi haqida oldingi tadqiqotlarimizda to‘xtalgan edik. Bunda so‘zlovchi (shifokor) evfemik birlikni tanlar ekan, qanday sharoitda qaysi birlikni tanlashi bemor yoki uning yaqinlariga yetkazayotgan axborotini o‘z maqsadiga muvofiq ravishda tinglovchiga noqulaylik, og‘riq hissini paydo qilmay yetkazishni ko‘zlaydi. Masalan, uyat a‘zolar **orqa chiqaruv yo‘li, jiddiy a‘zolar, nozik sohalar, qorinning pastki qismi, peshob chiqarish kanali** kabi so‘z birikmalari bilan almashtiriladi: *Orqa chiqaruv yo‘li gigiyenasida maxsus yuvish vositalardan foydalanish tavsiya qilinmaydi. Nozik sohalar uchun sochiqlar ham toza, yumshoq va eng asosiysi, shaxsiy bo‘lmog‘i zarur*<sup>35</sup>.

Demak, kasbiy muloqotda evfemik birliklardan foydalanish vaziyat, sharoit, muhit, auditoriya omillari bilan bog‘liq bo‘ladi. Nutqning evfemalashishi – so‘zlovchining nutq madaniyatini, kasb egasining professional mahoratini ko‘rsatib beruvchi omillardan biri. Kasbiy mahorat talab qilinadigan vaziyatda har bir xodim inson omilini birinchi o‘ringa qo‘yishi, nutqini nazorat qilishi, fikrini nazokatli, latofatli ifodalashi uning ma‘naviy olami ko‘zguvidir. Zero bir og‘iz shirin so‘z tushkunlikka tushgan har qanday insonning ruhiyatini ko‘tarib, unga xush kayfiyat baxsh etadi. Dono xalqimiz bejizga “Kasal ko‘rsang, ko‘ngil ko‘tar” demagan.

#### **Adabiyotlar:**

1. Арапова Н.С. Эвфемизмы // Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред. В.Н. Ярцева. – М.: Сов. энциклопедия, 1990. – 683 с.
2. Булаховский Л.А. Табу и эвфемизмы // Булаховский Л.А. Введение в языкознание. Ч.2. – М., 1953. – С. 50.
3. Крысин Л.П. Эвфемизмы в современной русской речи // Русский язык конца XX столетия. – М.: Языки рус. культуры, 1996. – С. 65-72.
4. Лингвистический энциклопедический словарь. / О.С.Ахмановой. – 2-е изд., стер. – М : УРСС : Едиториал УРСС, 2004. – 571 с.
5. Shifo-info”, 2017, №39, 50-b.
6. Salomatlik sirlari, 2019, №12,19Б

## **“МУҚАДДАС” ҚИССАСИНИНГ БАДИИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ**

**DOI: 10.53885/edinres.2021.73.96.018**

**Орзигул Хайриддиновна Ганиева**

Бухоро давла университети инглиз  
адабиёти ва стилистика  
кафедраси катта ўқитувчиси

**Феруз Бахтиёрович Садуллаев**

Бухоро давла университети инглиз  
адабиётшунослиги  
кафедраси катта ўқитувчиси

**Аннотация:** *Одил Ёқубов ўзбек адабиётига юксак ҳисса қўйган забардаст адабиёт вакилидир. Мазкур мақолада муаллифнинг илк ижод намунаси саналган*

<sup>33</sup> Shifo-info”, 2018, №23, 31-b.

<sup>34</sup> Shu manbaa

<sup>35</sup> Salomatlik sirlari, 2019, №12,19Б

“Муқаддас” қиссасининг бадий хусусиятлари - мавзу, гоя, конфликт, сарлавҳа, қаҳрамон, хусусан бош қаҳрамон тасвири таҳлилга тортилади.

**Таянч сўзлар:** *Одил Ёқубов, реалист, қисса, мавзу, гоя, конфликт, сарлавҳа, қаҳрамон, инсон, жамият*

Одил Ёқубов ўзбек романчилигининг тараққиётига сезиларли ҳисса қўшган ижодкорлардан биридир. Унинг асарларида инсоний муносабатлар, давр ва шахс тақдири масалалари чуқур таҳлил қилинади. Одил Ёқубов ўз ижоди давомида бир қанча эскирмайдиган, вақт-соати ўтгандай кўринса-да, китобхоннинг қорига ярай берадиган асарлар яратиш бахтига муяссар бўлган адибдир [4; 588]. “Муқаддас” қиссаси ҳам ана шундай йиллар силсиласи давомида ўз жозибасини йўқотмаган, энг муҳими, ёзувчининг бош эстетик принципларини белгиловчи асарлардан саналади.

О.Шарафиддинов қайд этишича, қиссага жозоба бахш этган, уни ўша йиллардаги адабий ҳаётда салмоқли воқеа даражасига кўтарган, китобхонлар оммасининг меҳрини қозонишига сабаб бўлган нарса шуки, ёзувчи эҳтироссиз, лоқайд баёнчиликдан воз кечиб, тасвирланаётган воқеаларнинг моҳиятини тадқиқ қилиш йўлидан боради ва бунинг натижаси ўлароқ, муҳим ҳаётий муаммоларни ўртага ташлайди [5;196]. Қиссанинг сюжет тўқимасида бош қаҳрамонларнинг шахсий ҳаёт йўлларида тараққиёт пиллапоясига ўтишларидаги қийинчиликлари реал бўёқларда акс эттирилади. Қисса композицион жиҳатдан экспозиция, ўн икки боб ва эпилогдан иборат. Экспозицияда давр руҳияти, бош қаҳрамон ҳақида қисқа, аммо аниқ тасвир берилади. Қолган бобларда эса Шарифжоннинг ўқишга кириш учун ҳужжат топширишидан тортиб, Муқаддас билан танишуви, севги тарихи, Шарифжоннинг ўз шахсий манфаатини устун қўйиши, имтиҳонлардаги қинғир ишларга қадар воқеалар баён этилади. “Муқаддас” қиссасидаги конфликт салбий ва ижобий кучлар ўртасидаги кескин зиддиятлардан эмас, балки ҳаёт мураккабликлари, жамият таъсирида бош қаҳрамон қалб туйғулари курашидан иборатдир. Ҳақиқатдан ҳам, шахсий манфаатларини жамият манфаатларига бўйсундира олмай, тўсиқларни енгиб ўта олмаган Шарифжон мағлубиятга учраб, бир умрга татийдиган сабоқ олади.

Одил Ёқубов қиссада даврнинг актуал ҳаёт материалига – кўпчиликнинг ҳаёлида юрган, одамларга тинчлик бермаётган масала – виждон поклиги билан нопоклик орасидаги зиддиятга мурожаат этади [6;297]. Кишилараро муносабатларга худбинлик аралашиб қолгудек бўлса, бу фақат битта-иккита одамга эмас, балки ҳаёт тарзимизга, жамиятимизнинг асосига зарар келтиришини кўрсатади. Энг муҳими, адиб худбинликнинг нақадар хавфли иллат эканини ана шундай шахслар онгига етадиган, уларга таъсир қиладиган даражада ифодалаб беради. О.Шарафиддинов таъкидлашича, инсон ўзи танлаган ҳаёт йўлидан адашмай ўтиши учун илк қадамлариданоқ юксак маънавий принципларга амал қилиши, уларни доғ туширмай пок сақлаши керак. Улар одам учун энг муқаддас нарсалар бўлиши керак. Улардан чекиниш ёки уларга хиёнат қилиш одамга оғир изтироблар, мушкул мусибатлар келтиради [5;196]. Қисса икки ёшнинг бахтсизлиги билан яқунланади, чунки улар ҳаётларидаги принципларига қарши бордилар, айникса, бош қаҳрамон Шарифжон ҳам севгисига, ҳам муваффақиятга эришиш йўлида ҳасадчи инсонга айланади. Бироқ у асар сўнгида иккаласидан ҳам мосуво бўлади.

“Муқаддас”да Одил Ёқубов ҳаётнинг ўзидан олган завқини, ўз юрак дардини, хаяжонларини изҳор этади, ўзи қаламга олган ҳаёт ҳодисаларини, персонажлар қалби ва руҳиятини мураккаблиги, зиддиятлари, чинакам нафосати билан китобхонга етказа олади [2;104]. Адиб воқеаларни тасвирлаш, образларни танлаш орқали бир қатор мавзулар ёрдамида ўз нуқтаи назарини намоён этади:

№	Мавзу	Қиссада тасвирланиши
1.	<i>оила</i>	Шарифжоннинг оилавий муносабатлари, онаси ва ўғай отаси билан алоқаси
2.	<i>муҳаббат</i>	Шарифжон ва Муқаддаснинг севгиси

3.	<i>бахт</i>	бош қаҳрамонларнинг ўзаро самимий муносабат қурган даврдаги ҳислари
4.	<i>дўстлик</i>	Шарифжоннинг ҳар қандай қийин вазиятларда ёрдамга тайёр дўстлари
5.	<i>хиёнат</i>	Шарифжоннинг ўзи билмаган ҳолда хиёнат қилиши, Муқаддаснинг умидли келажагини бузиши
6.	<i>коррупция</i>	жамиятда илдиз отган иллатлардан бири сифатида Салим Каримовичнинг имтиҳонда қилган қинғир ишлари
7.	<i>лоқайдлик</i>	жамиятдаги бефарқ инсонлар тасвири

Одил Ёқубов сабр, матонат, адолат, ирода, ҳалоллик, поклик, айниқса, қалб поклиги каби туйғулар муқаддас эканлигини таъкидлайди, дўстлик ва муҳаббат инсон ҳаётида фақат соф муносабатлар асосида қурилишини китобхонга уқтиради, қиссада илгари сурилган ҳар қандай вазиятда инсон бўлиб қолиш лозим, деган концепция кишини ром этади.

А.Чехов таъбири билан айтганда, ғоя бадиий асар тақдирини ҳал қилувчи негиздир [3;122]. Кўриниб турибдики, Одил Ёқубов асарини узоқ кузатувлар, воқеаларни таҳлил қилиш, муаммолар илдизини ўрганиш асосида ёзган. “Муқаддас”да Муқаддаснинг аянчли қисмати, Шарифжоннинг адолатсизликка қарши исёни, мустамлака жамият инсон ҳаётини вайрон қилиши акс эттирилади. Шу боисдан, гарчи асар сўнгидаги кулфатлар қаҳрамонлар хатоси туфайли содир бўлса ҳам, уларнинг тақдири китобхонни бефарқ қолдирмайди. Аксинча, ўқувчининг қалбида уларга нисбатан ачиниш туғилади. Муаллиф жамиятдаги маънавий ва ахлоқий муаммоларга ўз муносабатларини шу тарзда ифодалайди.

Табийки, ҳар бир ёзувчи ўз бадиий ниятини амалга ошириш, мақсад қилган мавзу ҳамда муаммоларини китобхонга етказиш учун конфликтдан унумли фойдаланади. Ёзувчи инсон ва жамият муносабатлари тасвирида конфликт турларини моҳирона қўллагани боис, ҳукмрон жамият зиддиятлари, унинг шахс тақдирига бевосита таъсири, инсонлар тақдирининг тубдан ўзгариб кетиши, инсонлараро ҳамда гуруҳлараро ўзаро мураккаб муносабатларни чуқур англаш имконини беради. Ҳ. Умунов таснифлашча, конфликт – психологик (руҳий), ижтимоий ва шахсий конфликт турларига бўлинади [3;123]. “Муқаддас” қиссасида ҳар учала конфликт турларини учратамиз. Шарифжон ўғай отасига, институт ўқитувчиларига ва дўстларига қарши турганида мазкур конфликтларнинг барча турларини кузатамиз:

<b>№</b>	<b>Конфликт тури</b>	<b>Қиссада тасвирланиши</b>
1.	<i>Шахсий конфликт</i>	<i>Шарифжон ўғай отасига қарши</i> – Шарифжон ўғай отаси билан муносабати яхши бўлмагани сабабли унинг ишларига аралашини истамайди. Бироқ асар сўнгида Шарифжон Салим Каримович илтимоси билан Муқаддаснинг ўрнига талабалikka қабул қилинганлиги ойдинлашади.
2.	<i>Психологик (руҳий) конфликт</i>	Одил Ёқубов асарларида, асосан, психологик (руҳий) конфликт етакчилик қилади. “Муқаддас” қиссасида ҳам Шарифжон ёлғиз қолганида Муқаддас ҳақида ўйлайди, ички бир туғён қаҳрамонни қизга бўлган муносабатларини намоён этади. Шарифжон Муқаддас билан бирга бўлиши, умр йўлларини бирга тутатиши каби ширин хаёллар оғушида вақт ўтказади.
3.	<i>Ижтимоий конфликт</i>	<i>Шарифжон ҳамкасбларига қарши</i> – Шарифжон институтга ўқишга киришни истаганида, ҳамкасблари қаршилиқ кўрсатадилар, у эса ўз мақсадида қатъий туриб курашади.

Одил Ёқубов қиссасининг сарлавҳаси ҳам ўқувчи диққатини дарҳол тортади. Унда муаллиф фикрларининг, бош ғоя ва асосий мазмуннинг ифодасини кўрамайди. Муаллиф



қиссани бош қаҳрамонларидан бирининг номи билан атайди. Муқаддас – институтга ўқиш учун узоқ қишлоқдан келган ёш қиз. У оиласининг ягона фарзанди, отасининг келажакка бўлган ишончи ҳамда умиди. Муқаддас софлик, гўзаллик, самимийлик, муҳаббат, ҳалоллик ва виждон рамзи, жамият шундай инсонни завол қилади. Ёзувчи ҳар бир инсон ҳаётида юқорида санаб ўтилган туйғулар бебаҳо экани, уларни қадрлаш, асраб-авайлаш муҳим эканлиги, улар муқаддаслигига ишора қилади. Шарифжон ҳам мазкур самимий ҳисларни сақлай олмагани боис суюкли кишисидан айрилади.

Одил Ёқубовнинг Муқаддаси бир қарашда итоаткор, камгап ва тажрибасиз гўр қизга ўхшайди. Унинг оиласи, отаси ва онаси, дўстларига меҳри чексиз. Янги ҳаёт бўсағасида турган ёшгина қизнинг орзулари бепоён, дунёқараши кенг ва беғубор ёшликнинг мутлақ тимсоли. *“Унинг чеҳрасида, ҳатто бутун қиёфасида ҳали гард юқмаган ёшлик ва беғубор қизлик иффати барқ уриб”* туради [1;336]. Муқаддаснинг Шарифжонга бўлган ҳамдардлиги унинг яқин инсонларига бўлган фидойий муносабатини ифодалайди. Маъсума қизнинг жонқуярлиги, илиқ муомаласи уни ўзга қизлардан ажратиб турувчи хислатларидан биридир. Чунки Муқаддас шу қадар хушмуомалаки, у *“буйруқ бермас, у фақат илтимос қилар”* эди [1;347]. Бир сўз билан айтганда, у баркамол инсон рамзи сифатида гавдаланади, чунки *“унинг чеҳрасидаги поклик, беғубор қизлик иффати, ҳам тортиниб, ҳам севиниб гапиришлари кишини қандайдир софликка, самимийликка ундарди”* [1;364]. Аммо воқеалар чигаллашган сари, Шарифжон қийинчиликларга дуч келган сайин Муқаддаснинг қатъияти, кескинлиги ошиб боради, Шарифжонга мадад беришга, кўллаб-қувватлашга ҳаракат қилади. Шу боисдан қисса сўнгида ўзаро муносабатлардаги якуний ҳал қилувчи қарор Муқаддас томонидан амалга оширилади. *“Бу бир ой менга катта сабоқ бўлди. Ақлим кирди. Ниҳоят шуни ҳам тушундимки, олдин ишлаб, кейин ўқши фақат меҳнатни ҳурмат қилиши ва чиниқиши учунгина эмас, одам таниши учун ҳам зарур экан”* дея, Шарифжон билан муносабатларига нуқта қўяди [1;413]. Одил Ёқубов Муқаддаснинг тилидан Шарифжонга ўхшаган кўплаб йигитларга қарата ўз фикрини ёритади. Чунки *“халқнинг «Инсофли одам ошини ер; инсофсиз бошини» деган мақолида мужассамланган ҳаётнинг энг улуг қонунларидан бири”* бош қаҳрамон Шарифжон учун ҳам яхши ҳаётий сабоқ бўлди [1;414].

Реалист ёзувчи Одил Ёқубов ҳаёт ҳақиқатини ўз қиссасида акс эттира олди. Ижодкор рамзий маънога эга қисқа ва лўнда сарлавҳа танлар экан, китобхоннинг диққатини қиссанинг биринчи мисралариданоқ жалб қила олди, конфликтнинг барчасидан фойдаланиш негизида аёл қаҳрамон Муқаддаснинг сабри ва бардошини имтиҳон қилади. Аммо Муқаддас ўзининг инсоний шаъни ва қимматини сақлаб қолиб, Шарифжонга ҳаёт йўлларида маёқ бўла оладиган сабоқ беради. Мазкур қисса ўз бадиияти билан китобхонни жалб этиш билан бирга, унинг қалбидан жой олади.

#### Адабиётлар:

1. Ёқубов О. Кўҳна дунё. Сайланма. Биринчи жилд. – Т., 1986. – Б.336.
2. Норматов У. Ижод сеҳри. – Т.: Шарқ, 2007. – Б.104.
3. Умуров Ҳ. Адабиётшунослик назарияси. – Т., 2004. – Б.123.
4. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Т.: Шарқ, 2004. – Б.588.
5. Шарафиддинов О. Истеъдод жилолари. – Т., 1976. – Б.196.
6. Қўшжонов М. Сайланма. Биринчи жилд. – Т., 1982. – Б.297.
7. Ganieva, O. K. (2020). The essential literary criticism of John Steinbeck’s “The pearl” and Odil Yakubov’s “Mukaddas”. ISJ Theoretical & Applied Science, 05 (85), 747-750.

# КЎП МАЪНОЛИ СЎЗЛАР ҚУРШОВИНИ ЛИНГВИСТИК МОДЕЛЛАШТИРИШ

DOI: 10.53885/edinres.2021.89.63.020

*Шахноза Кахрамоновна Гулямова*

Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети докторанти, филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

**Аннотация.** Ушбу мақолада семантик анализатор учун лингвистик асос бўлувчи полисемантик сўзларнинг қуршовини лингвистик моделлаштириш масаласи баён этилган. Ўзбек тилидаги кўп маъноли сўзлар қуршови лингвистик моделлаштирилган.

**Калит сўзлар:** моделлаштириш, полисемантик сўзлар, кўп маъноликни бартараф этиш, POS-tagging, семантик анализатор

Маълумки, лексик кўпмаъноликни (инглизча *word sense disambiguation*, WSD) бартараф қилиш – бу полисемик сўз ёки иборанинг маъносини танлаш вазифасидан иборат бўлган табиий тилни қайта ишлашнинг ҳал қилинмаган муаммосидир. Бу муаммо дискурсив таҳлилда, натижаларнинг қидирув тизимлари томонидан долзарблигини оптималлаштиришда, анафорик мурожаатларни ҳал қилишда, матннинг лингвистик боғлиқлигини ўрганишда, хулосаларни таҳлил қилишда юзага келади. Лексик кўпмаъноликни бартараф этишга оид илмий тадқиқотлар амалий ва компьютер тилшунослиги соҳаси узоқ тарихга эга. Лексик кўпмаъноликни ечиш муаммоси устида ишлаш жараёнида кўпинча инсон психологияси ва нутқ хусусиятларидан келиб чиқиб, кўплаб қийинчиликлар аниқланди. Биринчидан, луғатлар билан боғлиқ муаммо. Кўпинча, сўзнинг маъноларини бир-биридан фарқлаш вазифаси қийинчилик туғдирмайди, аммо баъзи ҳолларда сўзнинг турли маънолари семантик жиҳатдан бир-бирига жуда яқин бўлиши мумкин ва бундай ҳолатларда турли луғат ва тезарусларда маъноларга бўлиниш сезиларли даражада фарқ қилиши мумкин. Иккинчидан, айрим тилларда қисман разметкаш (белгилаш) кўпмаъноликни бартараф этиш муаммоси билан жуда яқин боғлиқ бўлиши мумкин, натижада бу икки вазифа бир-бирига халақит бериши мумкин. Олимлар уларни икки автоном таркибий қисмга ажратишга арзийдими-йўқми, деган фикрга келишмаган [1]. Учинчи қийинчилик инсон омили билан боғлиқ. Лексик кўпмаъноликни ҳал қилиш тизимлари ҳар доим инсон меҳнати натижалари билан таққослаш орқали баҳоланган. Одамлар учун эса бу вазифа POS-tagging каби оддий бўлмаслиги мумкин [2]. Одамларнинг натижалари ҳар доим ҳам бир-бирига мос келмайди, улар кўпинча сўзнинг муайян контекстда қандай маъно англатиши ҳақида бир хил қарорга келишмайди. Шунга қарамай, олимлар инсон натижасини стандарт, компьютер натижалари билан таққослаш учун эталон сифатида қабул қиладилар. Кўп тилларда кузатилганидек, ўзбек тилида ҳам кўп маъноли сўзларни бартараф этиш мураккаб вазифалар сирасига киради. Бунинг учун дастлабки ишни уларнинг лингвистик моделларини тузишдан бошлаш мақсадга мувофиқ. Маълумки, кўп маъноли сўзларнинг биринчи маъноси ўз маъно бўлиб, қолганлари кўчма маънода бўлади. Кўп маъноликни фарқлашда бирикувчилик тамойилига таянилади. Сўзнинг қайси маънода келгани ундан олдин ёки кейин келган сўз орқали аниқланади. Ўзбек тилининг ички имкониятлари ҳамда хусусиятларини инобатга олиб, кўп маъноли сўзларни моделлаштиришнинг куйидаги йўллари кўрсатиш мумкин (*ёқа* сўзи мисолида):

$N_j^{ps.1} + PS_1$

$N_j^{ps.1}$  = полисемантик сўзнинг дастлабки (ўз) маъноси билан бирикувчи от туркумидаги сўзлар.  $N_j^{ps.1} = \{кўйлак, кийим, \dots\}$ ;  $j = 1 \dots n$ .  $PS_1$  = дастлабки (ўз, денотатив) маъносида келган полисемантик сўз.

Масалан: *кўйлак ёқаси, кийим ёқаси*

$PS_1 + V_j^{ps.}$

$V_j^{ps}$  = полисемантик сўзнинг дастлабки (ўз) маъноси билан бирикувчи феъл туркумидаги сўзлар.  $V_j^{ps} = \{\text{тикмоқ, очмоқ, узмоқ, ...}\}; j = 1 \dots n$

Масалан: *ёқа очмоқ, ёқа тикмоқ*

#### **Adj<sub>j</sub><sup>ps</sup>+PS<sub>1</sub>**

$Adj_j^{ps}$  = полисемантик сўзнинг дастлабки (ўз) маъноси билан бирикувчи сифат туркумидаги сўзлар.  $Adj_j^{ps} = \{\text{кенг, тор, узун, калта ...}\}; j = 1 \dots n$

Масалан: *кенг ёқа, тор ёқа*

*Полисемантик сўз бошқа (кўчма, коннотатив) маъноларда келганда эса қуйидагича моделлаштирилади:*

#### **N<sub>j</sub><sup>ps.2</sup>+PS<sub>2</sub>**

$N_j^{ps.2}+PS_2$  = полисемантик сўзнинг кўчма маънолари билан бирикувчи от туркумидаги сўзлар.  $N_j^{ps.2} = \{\text{ариқ, кўл, ўлим, канал, кўча, йўл, ...}\}; j = 1 \dots n$

$PS_2$  = полисемантик сўзнинг кўчма маънода қўлланишини ифодалайди. Масалан: *ариқ ёқаси, кўл ёқаси, каналнинг ёқаси, кўча ёқаси, йўлнинг ёқаси, тепалик ёқаси*

*Авлод сўзи ва шу характеридаги сўзлар эса ўзига хос моделлаштириш принципига эга. Авлод сўзининг қуйидаги маънолари мавжуд: АВЛОД 1 Ота-бободан қолган насл (аждодга нисбатан). 2 Ота-бобо ва унинг насли; сулола; зот. 3 Замоннинг маълум қисмига мансуб одамлар; бўғин. 4 кўчма Замонавий электрон-ҳисоблаш машиналарининг ва б. техник жиҳозларнинг янгиланган, такомиллашган туркуми [3]. Бу сўзнинг 1-маъноси (ота-бободан қолган насл (аждодга нисбатан)ни аниқлаш учун қуйидагича моделлаштирамиз:*

$W_j^{ps.1}+(CS\_aff) + PS_1$  ёки  $PS_1+(CS\_aff) + W_j^{ps.1}$ . Бунда:  $W_j^{ps.1}$  = полисемантик сўзнинг биринчи маъноси билан бирика оладиган сўзлар. Бу ҳолатда полисемантик сўз дастлабки маъносида ўзидан олдин ва кейин келган сўзлар билан бирикади. Сўзларни боғлашга келишик шакллари хизмат қилиши мумкин. *Подшоҳлар авлоди, қўлларнинг авлоди* каби мисолларда полисемантик сўз маъноси ўзидан олдинги бирикувчилар орқали, *аждодлар зийнати, адодлар руҳи, аждодлар изи/йўли* кабиларда сўнг бирикувчилар билан реаллашган.

Иккинчи маъносини аниқлаш учун қуйидаги модел иш беради:

$N_j^A+(CS\_aff) + PS_2$  ёки  $W_j^{ps.2}+(CS\_aff)+PS_2$ .  $N_j^A$  = полисемантик сўзнинг иккинчи маъноси билан бирика оладиган атоқли отлар.  $W_j^{ps.2}$  = полисемантик сўзнинг иккинчи маъноси билан бирика оладиган сўзлар.

Кўринадики, авлод сўзи *ота-бобо ва унинг насли, сулола, зот* маъносида келса, ундан олдин атоқли от ёки у билан бирика оладиган сўзлар келиши мумкин. *Темур авлоди* (темурийлар), *Бобур авлоди* (бобурийлар). *Девонбегилар авлоди, ўз авлоди*

Ушбу сўзнинг учинчи маъносини аниқлаш учун қуйидаги модел иш беради:

$W_j^{ADJ}+PS_3$ .  $W_j^{ADJ}$  = полисемантик сўзнинг учинчи маъноси билан бирика оладиган сўзлар.

Бу ҳолатда, полисемантик сўз, асосан, сифат билан бирикиб, битишувли бирикмани ҳосил қилади. Масалан: *кекса авлод, ўрта авлод, ёш авлод, келгуси авлод.*

#### **W<sub>j</sub><sup>(NUM)</sup>+PS<sub>3</sub>**

Бунда, полисемантик сўз, асосан, сон билан, баъзан бошқа туркум билан бирикиб, битишувли бирикмани ҳосил қилади. Масалан: *тўртинчи авлод, биринчи авлод; сўнги авлод*. Бу моделлар маълумотлар базасида ахборот сифатида мавжуд бўлиши керак. Анализатор бундай моделдаги сўзларни тўғри таҳлил қилишини кафолатлайди. Моделлаштириш табиий тилни қайта ишлашнинг асосий қуроли [4]. Шунинг учун ҳам семантик анализатор учун омоним, полисемантик ва полифункционал сўзларни моделлаштириш муҳим босқич ҳисобланади. Айнан яратилган моделлар орқали уларнинг семантикасини автоматик аниқлашга эришиш мумкин. Семантик анализатор учун омоним, полисемантик ва полифункционал сўзларни моделлаштиришда бир қатор муаммолар мавжуд. Биринчидан, сўз семантикаси билан ишлаш анча мураккаб жараён. Чунки сўз серқирра ҳодиса. Иккинчидан, ўзбек тилидаги изоҳли луғатда айрим сўзлар маъносининг берилишида, изоҳида чалкашликлар мавжудки, бу масалани янада

чигаллаштиради. Семантик анализатор учун мукаммал лингвистик база яратиш учун ҳар бир сўз маъноси устида юкорида тузилган моделлардан фойдаланган ҳолда индивидуал ишлаш талаб этилади. Бунинг учун сўз маънолари, изоҳи, туркуми, қандай характер касб этиши мукаммал ҳолатда маълумотлар омборига киритилиши лозим.

Демак, семантик анализатор ишда таклиф этилаётган қолиплар асосида сўз маъносини аниқлашга, мисоллар массивини кўрсатишга хизмат қилади.

#### Адабиётлар:

1. Lynette Hirschmann, The evolution of evaluation. Computer Speech and Knowledge, 1998.
2. Fellbaum C. 1997. Analysis of a handtagging task. In Proc. of ANLP-97 Workshop on Tagging Text with Lexical Semantics: Why, What, and How? Washington D.C., USA.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томли. – Тошкент, 2000-2006. – 1-том. – Б. 41.
4. Ҳамроева Ш. Ўзбек тили морфологик анализаторининг лингвистик таъминоти. Монография. – GlobeEdit, 2020. – 253 б. – Б. 197.

## XORIJIY TILLARNI O'RGATISHDA VA O'RGANISHDA ZAMONAVIY METODLAR VA TEXNOLOGIYALARNING O'RNI DOI: 10.53885/edinres.2021.75.65.021

*Maqsuda Baqoyevna Ikromova*

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Buxoro filialini o'zbek tili va adabiyoti" kafedrasida assistenti

e-mail: ikromova [m1969@umail.uz](mailto:m1969@umail.uz)

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola chet tilini o'qitishda qo'llaniladigan zamonaviy usullar va pedagogik texnologiyalardan qanday foydalanish to'g'risida ma'lumot beradi. Unda o'qituvchilarning tilni o'qitish jarayonida foydalanadigan usullari muhokama qilinadi. Bugungi kunda bizning jamiyatimizda chet tillarining ahamiyati va shuning uchun yoshlar orasida til o'rganishning ahamiyati juda yuqori. Bilamizki, o'qitish jarayonini zamonaviy texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Shuning uchun ushbu maqola tilni o'rganishda pedagogik texnologiyalarning roliga qaratilgan. Chet tilni o'rganishning to'rt jihati mavjud (o'qish, yozish, gapirish, tinglash) va ushbu jihatlarda batafsil muhokama qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *metod, pedagogik texnologiyalar, innovatsion usullar, samaradorlik, mahorat, ma'ruzachi, tinglovchi*

**Annotation:** *This article provides information on how to use modern methods and pedagogical technologies used in foreign language teaching. It discusses what students should pay attention to when learning a language, as well as the methods that teachers use in the language teaching process. Today, the importance of foreign languages in our society and therefore the importance of language learning among young people is very high. We know that it is difficult to imagine the teaching process without modern technology. Therefore, this article focuses on the role of pedagogical technologies in language learning. There are four aspects to learning a foreign language (reading, writing, speaking, listening) and these aspects are discussed in detail in the article.*

**Key words:** *method, pedagogical technologies, innovative methods, efficiency, skill, speaker, listener*

Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish ko'nikmasi ta'limning ajralmas qismlaridan biri bo'lib kelmoqda. Hozirgi kunda xorijiy tillarni o'rganish dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Bunga sabab har bir inson o'z ehtiyojidan kelib chiqib til o'rganadi. Masalan, tadbirkorlar chet ellik hamkorlari bilan hamkorlik o'rnatish uchun, ba'zi yoshlar chet elda ta'lim olishlari uchun va boshqa sabablar tufayli o'rganadilar. Zamonaviy jamiyatda chet tillari kasbiy ta'limning muhim

tarkibiy qismiga aylanmoqda. Chet tilini o'rganish uchun, dastlab ona tilini bilmagan o'quvchi chet tilini o'rganishda ba'zi muammolarga duch keladi. Mamlakatimizda yoshlarning ta'lim olishi, axborot- kommunikatsiya texnologiyalarini faol o'zlashtirish, zamonaviy kasb-hunar, xorijiy tillarni o'rganish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Ta'lim olish bilan birga ko'p yoshlarimiz xorijiy tillarni ham o'rganmoqda. Bizga ma'lumki, chet tillar maktabda, litseyda, oliy ta'limda o'rgatiladi. Mukammal o'rganmoqchi bo'lganlar maxsus kurslarga borib o'rganadilar. Har bir fanni yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib talabalarga yetkazib berish bugungi kundagi ta'limning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, chet tili darslarining o'tilishi jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni, innovatsion usullardan, kommunikativ- axborot vositalaridan foydalanish talab qilinmoqda. Darslarda pedagogik texnologiyalardan foydalanib olib borishning afzallik va foydali tomonlari mavjud. Innovatsion usullardan foydalanib dars olib borishning afzallik va foydali tomonlari mavjud. Innovatsion usullardan foydalanib dars olib borish, darsning samaradorligini yuqori qiladi va o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonidagi eng samarali, o'qituvchi pedagoglar ko'zlagan maqsadlarga erishishning kafolatlangan o'qitish uslublari, o'quvchi talabalardan mustaqil fikrlash, turli vaziyatlardan qiynalmasdan chiqib ketishlari uchun zamin hozirlashga qodir bunday o'qitish uslublari pedagogik texnologiyaning eng ilg'or xususiyatidir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o'rganishning har bir aspect(o'qitish, yozish, tinglab tushunish va gapirish)ida qo'l keladi. Masalan, o'qish orqali o'quvchi to'g'ri, xatosiz va tez o'qishni va so'zlarni to'g'ri yozilishini o'rganadi. Qanchalik ko'p matn o'qisa, shunchalik tez va ravon nutqini oshiradi. Yozish orqali esa so'z boyligini oshiradi va to'g'ri, ravon yozishni o'rganadi. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berish talab qilinadi. Gapirish orqali so'zlovchi so'zlarni to'g'ri va ravon talaffuz qilishni o'rganadi va so'z boyligini oshirib boradi. Chet tilini o'qitish jarayonida turli xil jadvallardan foydalanishning ham samarasi yuqoridir. Ta'lim jarayonida jadvallardan foydalanib, o'quvchilar ma'lum bir grammatik qoidani, masalan sifat darajalaridan foydalanib gaplar tuzish, yangi so'zlarni joylashtirib chiqishi mumkin. Chet tilini o'rganishda maktabdagi 45 daqiqalik dars bilan yoki oliy ta'limdagi 80 daqiqalik mashg'ulotlar bilan o'zlashtirish qiyin. O'quvchi yoki talaba, albatta, qo'shimcha ravishda chet tili bo'yicha shug'ullanishi kerak. Chunki 50% bilimni dars jarayonida olsa, 50% bilimni o'zi mustaqil shug'ullanib oladi. Har bir o'quvchi til o'rganishda o'z qobiliyatidan kelib chiqib o'rganadi. Ba'zilar 6 oyda o'rgansa, ba'zilarga yillar kerak bo'ladi. Bugun mamlakatimizda yurtboshimiz tashabbuslari bilan til o'rganishga katta e'tibor berilmoqda. Yuqoridagilarga nazar soladigan bo'lsak, yurtimiz taraqqiyotida tilning nechog'lik ahamiyatli ekanligiga yana bir karra amin bo'lamiz. Zamon ilgarilab borgani sari har sohada yangilik ko'payib bormoqda. Til o'rgatishda ham turli uslublar paydo bo'lmoqda. Ingliz tilini o'rgatishda o'rganuvchining salohiyat va darajasi, yoshidan kelib chiqqan holda bosqichma- bosqich o'rgatish yaxshi natija beradi. Tilni o'rganishni boshlaganlar uchun, avvalo, to'g'ri talaffuz muhim hisoblanadi. Chunki so'zni bilsa-yu, lekin to'g'ri talaffuz qilolmasa, tinglovchi tushuna olmaydi va muloqot jarayonida muammolar kelib chiqadi. Bundan tashqari o'rganuvchi boshidan so'zni to'g'ri talaffuz qilmasa, keyin ham noto'g'ri talaffuzda davom etadi va bu xatolik uning xotirasida shu tarzda qotib qoladi. So'zni to'g'ri talaffuz qilib, grammatik xatolikka yo'l qo'yilsa, bu tinglovchini tushunib olishi uchun qiyinchilik tug'dirmaydi. Boshlang'ich bosqichda oddiy grammatik qoidalarni o'rganib borish muhim hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, chet tilini o'rganishda, ona tilini o'rni ahamiyatlidir. Bizga ma'lumki, ona tili tabiiy muhitda, chet tili esa sun'iy muhitda o'rganiladi. Chet tilidagi muloqot, asosan, darsda muallim rahbarligida kechadi. Chet tillarni samarali o'rgatish uning metodikasini bilishni taqozo etadi. Shu sababli chet tili o'rganish va kelgusida uni boshqalarga o'rgatish uchun chet tili o'qitish metodikasi fani predmetini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Ta'lim berish jarayoni murakkab, ziddiyatli jarayon bo'lib, o'qituvchidan kuchli bilim, kasbiy

mahorat, tashkilotchilik qobiliyati va tinimsiz izlanishni talab etadi. Har bir o'qituvchining o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erisha olishi uning kasbiy mahoratiga, samara beradigan ta'lim shaklini tanlay olishiga, ta'lim vositalaridan unumli foydalana olishiga, eng muhimi, o'qitish usullarini o'rinli qo'llay olishiga bog'liqdir. O'qitish usullarini to'g'ri qo'llay olinsagina, ta'lim samaradorligi kuchayadi. Ta'lim tizimiga juda ko'p zamonaviy texnologiyalar kirib keldi. Shulardan "KEYS STADI" va "KLAUSTER" metodlarining samarasi yuqori hisoblanadi. Aynan "KEYS STADI" metodi darslardagi muammoli mavzularda qo'llanilsa, mavzuning, muammoning yechimi tez va oson topiladi. Bu metod qo'llanilganda o'quvchilar mustaqil fikr yuritishga harakat qiladilar. Bundan tashqari "KLAUSTER" metodidan barcha mavzularni muhokama qilish jarayonida foydalanilsa darsning sifati yuqori bo'ladi. Darslarning samarali natija berishi o'qituvchining o'quvchilarini qay darajada qiziqitira olishga bog'liq. Hozirgi zamon imkoniyatlari juda yuqoridir. Hozirgi davr chet tillarni o'rganish, samarali egallash davri hisoblanadi. Dars jarayonining bosh bo'g'ini bu o'qituvchi hisoblanadi. Shuning uchun ham pedagoglar zamonaviy pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslarini puxta egallashlari va ularni amalda mohirlik bilan qo'llay olishlari ko'zlangan natijaga erishishning zarur kafolati hisoblanadi. Chet tilini o'rgatish jarayonida ta'lim-tarbiyaning ahamiyati katta hisoblanadi. Chunki tili o'rganilayotgan mamlakatning nafaqat tili, balki uning madaniyati, urf-odatlar ham o'rganiladi. Bunday jarayonda o'qituvchi o'quvchilarga faqat o'z mamlakatining urf-odatlariga, madaniyatiga mos keladigan tomonlarini o'rgatishi lozim. Chunki chet mamlakatlarning hamma urf-odatlar va madaniyati ham to'g'ri kelavermaydi. Bu juda muhim hisoblanadi, chunki o'quvchilarga chet mamlakatlarning urf-odatlarini ijobiy ta'sir ko'rsatishi muhim hisoblanadi. Ta'lim jarayonida usullar to'g'ri tanlansa, ko'zlangan natijaga qisqa yo'l bilan erishish mumkin. Ta'lim-tarbiya sohasining to'xtovsiz takomillashib borishi, o'quv darslarini pedagogik innovatsiyalar asosida tashkil etish oliy ta'lim muassasalari oldida turgan dolzarb vazifalardan bo'lib uni muvaffaqiyatli amalga oshirish oliy ta'lim professor-o'qituvchilari oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi. Hozirga kelib pedagogik amaliyotida shunday ta'lim modellari yaratildiki, ular ma'lum sharoitlarda va belgilangan vaqt ichida ko'zlangan ta'limiy maqsadlariga erishishni kafolatlash bunga keng imkoniyatlarni ochib beradi. Bunday ishlarni amalga oshirish turli chet tillarni o'rgatishda ham samarali natijalarni berishi shubhasizdir.

#### **Adabiyotlar:**

1. Adrian Doff. Teach English. A training course for teachers. Cambridge University press. 1988.
2. Jalolov J. Ingliz tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2002.
3. Zaripova F.A. Chet tillar o'qitish metodikasidan qo'llanma. –Toshkent. 2002.
4. Рогова Г.В. Методика обучения английскому языку. 1997.
5. Xoshimov O'.X, Yokubova I.Y. Ingliz tili o'qitish metodikasi.– Toshkent: O'qituvchi, 2002.

### **СУБЪЕКТИВ МУНОСАБАТ СЕМАНТИКАСИНИНГ ФРАЗЕМАЛАР ПАРАДИГМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШИ ХУСУСИДА**

**DOI: 10.53885/edinres.2021.61.59.022**

*Аъзамжон Авазжон ўгли Ихтиёров*  
Қўқон ДПИ инглиз тили ва адабиёти  
кафедраси ўқитувчиси

**Аннотация.** *Маълумки, тилнинг лугавий таркиби объектив борлиқдаги нарса ва ҳодисаларни, жараёнларни англашга хизмат қилади. Бинобарин, инсон фикр алмашиши жараёнида моддий борлиққа, атрофдаги нарсаларга, воқеа-ҳодисаларга ўз муносабатларини ифодалашга интилади. Фикр алмашиши жараёнида сўзловчи тилда мавжуд бўлган сўз ёки фраземалардан бирини танлаб ишлатади. Бу албатта, сўзловчининг у ёки бу фикрни қандай тарзда ёки қандай вазиятда баён қилишига боғлиқ.*

**Калит сўзлар:** *фразеологик таркиб, маъно оттенкалари, баҳо, муносабат, номинатив вазифа*

Биламизки, тилимизнинг фразеологик таркиби кўплиги ва ранг-баранглиги, турли хил маъно оттенкаларини ифодалаши билан характерланади. Дарҳақиқат, тилимизнинг фразеологик таркибига эътибор қаратадиган бўлсак, уларнинг баъзилари бирор нарса, ҳодисаларни, ёхуд кишилар характерини атабгина қолмасдан, айти пайтда сўзловчининг шу ҳодисага, характерга ўз баҳосини, муносабатини ҳам билдиради. Бу муносабатлар ижобий ёки салбий тарзда юз беради. Масалан, тилимиздаги “дами баланд”, “оғзидан бол томади”, “қўй оғзидан чўп олмаган”, “аммамнинг бузоғи” каби бирликлар ўзларининг номинатив вазифасидан ташқари, англлатган тушунчаларга нисбатан сўзловчининг ижобий ёки салбий эмоционал-экспрессив муносабатини англлатиш, баҳолаш хусусиятига ҳам эгадир [2; 8-13]. “Бағри кенг”, “баҳоси йўқ”, “қўли очиқ”, “оғзидан бол томади”, “мусичадек беозор”, “бир қошиқ сув билан ютиб юборгудай”, “онаси ўпмаган”, “қаймоғи бузилмаган” каби ижобий маъно оттенкасига эга бўлган; “бети қаттиқ”, “бети йўқ”, “бетга чопар”, “бағри тош”, “бағри қон”, “юрак-бағри қон”, “дили қон”, “бошида ёнғоқ чакмоқ”, “бошида данак чакмоқ”, “бошида тош чакмоқ”, “учига чиққан”, “қўли эгри”, “ерга урса кўкка сапчимоқ”, “сиркаси сув кўтармайди”, “тирноқ орасидан кир изламоқ”, “қилдан кийик кидирмоқ”, “дабдаласини чиқармоқ”, “абжағини чиқармоқ” каби салбий маъно оттенкасига эга бўлган фразеологизмлар ўзларининг номинатив функциясидан ташқари, ўзлари ифодалаётган тушунчага нисбатан сўзловчининг салбий субъектив баҳосини ҳам кўрсатиб туради [1; 12-14].

Маълумки, фраземалар (фразеологик бирликлар, иборалар) лексемалар билан биргаликда луғавий сатҳни ташкил этади. Фразема ва лексемалар орасидаги дастлабки фарқ уларнинг ифода томонидадир. Лексемалар, асосан, бир сўздан, шунингдек, икки ва ундан ортиқ сўздан ташкил топиши мумкин. Фразема бир сўздан иборат бўлмайди. У камида икки сўзнинг бирикишидан вужудга келган. Таркиб жиҳатдан лексеманинг кўшма (мураккаб) сўз ва фразема ўхшаш, лекин улар ўз (кўшма сўз) ва кўчма (фразема) маънога эгаликлари билан фарқланиб туради. Шунингдек, кўшма сўз қисмлари орасига сўз ёки шакл ясовчи аффикс киритиб бўлмайди, аммо фраземанинг орасига бошқа сўз ва кўшимчалар киритиш мумкин: кўнгли бўш, кўнглим бўш, кўнглим сенчалик бўш эмас каби. Шунинг учун ҳам тилшунос олим Ш.Рахматуллаев фраземаларни лексикадан кейин эмас, балки синтаксис бўлимидан сўнг ёритишни афзал кўради [5; 10-17].

Кишининг феъл-атвори, бошқа кишиларга салбий муносабатини билдирувчи фраземалар синонимиясини ташкил этишда: бағри тош → юраги тош → кўнгли тош (ЎТФИЛ, 179 - бетда) кўнгли қаттиқ – бағри тош – юраги тош тарзида берилган; ичи қора → кўнгли қора (ЎТФИЛ, 117-бетда ҳам шундай берилган), юраги қора → кўнгли қора → дили сиёҳ (ЎТФИЛ, 173 - бетда) кўнгли қора – юраги қора – дили сиёҳ тарзида берилган.

Кишининг салбий руҳий ҳолатлари, хусусиятларини ифодаловчи фраземалар куйидаги синонимик парадигмаларни ҳосил қилган: *таъби хира бўлмоқ* → *таъби тирриқ бўлмоқ* → *таъбини хуфтон қилмоқ* (ЎТФИЛ, 220 - бет – бундан кейин фақат бетини кўрсатиб қўя қоламиз), *кўнгли гап* – *юраги гап* – *ичига чироқ ёқса ёришмайди* (173 -бет), *ичини мушук таталапти* – *ичини ит таталапти* (116 - бет); *аччиги келмоқ* – *газаби келмоқ*; *ўтакаси ёрилди* – *ўтакаси ўнга бўлинди* – *ўтакаси ўттиз иккига бўлинди* (287 - бет), *кайфи бузилмоқ* – *таъби тирриқ бўлмоқ*; *юраги шув этиб кетди* – *юраги шиг этиб кетди* (273 бет); *таъби хира* – *дил(и) сиёҳ* – *бағр (и) қон* (96 - бет); *ўз соясидан ҳам қўрқадиган* – *чумчуқ пир этса*, *юраши шир этадиган* (251- бет); *эси чиқиб кетмоқ* – *жони ҳалқумига келмоқ* – *жон-пони чиқиб кетмоқ* (106 - бет); *сочи тикка бўлди* – *тепа сочи тикка бўлди* – *сочлари типпа-тик бўлди* (225 - бет); *юзи шувут бўлмоқ* – *бети гамгин бўлмоқ* (265 бет); *юрагига гулгула солмоқ* – *юраги ваҳима босмоқ* (269 - бет); *юраги ёрилгудай бўлди* – *юраги тарс ёрилгудай бўлди* (276 - бет); *кайфи бузуқ* – *таъби хира* – *таъби тирриқ* (124 - бет); *кўзининг пахтаси чиқди* – *кўзларининг пахтаси чиқди* – *кўзи*

косасидан чиқа ёзди (115 - бет); бурнини кўтармоқ – бурнини бир қарич кўтармоқ – бурнини осмонга кўтармоқ – димоғи кўтарилмоқ (58 - бет); дунёни сув босса тўпигига чиқмаслик – дунёни сел олса тўпигига чиқмаслик (76 - бет); биров безовта қилмайди – биров мушугини пишт демайди – ўзига хон -, кўланкаси майдон (183 - бет); ўзини қўйгани жой тополмаслик- ўзини қаерга уришини билмаслик; ҳуши бошидан учмоқ – ҳуши йўқолмоқ.

Ижобий руҳий ҳолат ва хусусият ифодаловчи фраземаларнинг синонимик қатори: баҳри дили очилмоқ – димоғи чоғ бўлмоқ (126 - бет); боши кўкка етди – боши осмонга етди – оғзи қулогига етди – оғзининг таноби қочди – қўйи мингтага етди (19 - бет); оғзи қулогига – боши осмонда (203 - бет).

Ниҳоят, шахснинг салбий ҳолати, муносабат, интилишидаги муваффақиятсизлик, ақлий фаолият меъерининг бузилиши кабиларни ифодаловчи фраземаларнинг маънодош парадигмалар ташкил этиши: эси оғмоқ – ҳуши кетмоқ (105 - бет); умиди пучга чиқмоқ - тарвузи қўлтигидан тушмоқ (222 - бет); кўзини ёғ босмоқ – кўзини шира босмоқ – таниб танимасликка олмоқ (138 - бет); қийин аҳволга тушмоқ – дўпписи тор келмоқ (77 - бет); сабр-косаси тўлмоқ – тоқати тоқ бўлмоқ.

Ижобий ҳис, ҳолат муносабатларини ифодаловчи фраземаларнинг синонимик қатори: кайфи чоғ бўлмоқ – баҳри-дили очилмоқ (133 - бет); кўзига иссиқ кўринмоқ – кўзига ўтдай кўринмоқ (134 - бет); енгил тортмоқ - қушдай енгил тортмоқ (78-бет); ҳурмат қилмоқ – бошига кўтармоқ – соясига кўрпача солмоқ (47 - бет); севинчига сизмаслик – қувончдан оламга сизмаслик (115 - бет); жигаридан урмоқ – жигар бағридан урмоқ – юрагидан урмоқ (93 - бет).

Салбий ҳис, ҳолат муносабат билдирувчи фраземаларнинг кучли-кучсизлик белгилари асосида маънодош фраземалар парадигмасини шакллантириши: юраги сиқилмоқ - юраги қон бўлмоқ (103 - бет); бошини айлантирмоқ – бош-кўзини айлантирмоқ (138 - бет); зардаси қайнади – қони қайнади (106 - бет); бошида ёнғоқ чақмоқ – бошида данак чақмоқ – бошида тош чақмоқ (47 - бет); кўнглига урмоқ – кўнглига зигир мойдай урмоқ (158 -бет); жонидан тўймоқ – ўлимига рози бўлмоқ (97 - бет); юракни эзмоқ - юрак бағрини эзмоқ - жигар бағри кабоб бўлмоқ (272 - бет); асабига тегмоқ - зашига тегмоқ – тоқати тоқ бўлмоқ – сабр косаси тўлмоқ (104 - бет); ёмон кўрмоқ – жинидан баттар ёмон кўрмоқ (21- бет); ёмон кўрмоқ – кўргани кўзи йўқ – кўргани кўзи йўқ-отгани ўқи йўқ (174 - бет); ич-этини емоқ – ўз ёғига ўзи қовурилмоқ (118 бет); юрагини ёрмоқ – ўтакасини ёрмоқ (102 - бет); аччигидан тушмоқ – жаҳлдан тушмоқ – заҳридан тушмоқ – газабидан тушмоқ (28 - бет).

Шахснинг қийинчиликларга учраши, қийналиши, қаршилиқ кўрсатиши каби субъектив ҳолатларни ифодаловчи фраземаларнинг синонимик қаторлар ташкил этиши: қийин аҳволга тушмоқ – дўпписи тор келмоқ (77 - бет); қийин аҳволга тушмоқ – она сути оғзига келмоқ – тугилганига минг пушаймон бўлмоқ (192 - бет); таъзирини емоқ – адабини емоқ (125 - бет); жонидан ўтмоқ – жон-жонидан ўтиб кетмоқ (97 - бет); суягидан ўтмоқ – суяк-суягидан ўтиб кетмоқ (216 - бет); аросатда қолмоқ – икки ўт орасида қолмоқ (39 - бет); балога қолмоқ – балоларга қолмоқ (32 - бет); оёғини тираб олмоқ – икки оёғини бир этикка тиқмоқ (120 - бет).

Демак, кишиларнинг моддий борлиқдаги у ёки бу ҳодисага субъектив муносабатини ифодалашини синоним фраземалар ва вариант фраземалар парадигмаларининг шаклланишида асосий восита бўлиб хизмат қилади.

#### Адабиётлар:

1. Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: филол.фан.ном....дисс .автореф. –Тошкент, 2000. – 22 б.
2. Маматов А.Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент, 1991.– Б. 14-18.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1978.– 404 б.



4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари.– Тошкент, 1966. – Б.25-32.
5. Раҳматуллаев Ш. Некоторые вопросы узбекской фразеологии. автореф. докт. филол. наук. –Ташкент. 1966, - С. 10-17.
6. Дилором Юлдашева (Dilorom YULDASHEVA). Профессиональные фразеология (Professional Phraseology). International conference on academic studies in philology (BICOASP) 26-28 September 2019 Bandırma <https://d1wqtxts1xzle7.cloudfront.net/60539392/>

## МОРФОЛОГИК ТАРИХИЙ ҚОЛДИҚЛАРДА ВАРИАНТЛАШУВ

DOI: 10.53885/edinres.2021.25.96.082

*Турсунали Жумаев,*

Қарши давлат университети Ўзбек  
тилшунослиги кафедраси доценти,  
филология фанлари доктори

**Аннотация.** Мақолада ўзбек адабий тилининг морфологик сатҳидаги вариантлашув ҳодисаси диахрон ва синхрон аспектларда талқин этилган. Ўзбек тилининг ички имкониятларини синчиклаб ўрганиш, унинг бағрида энг қадимги – Олтой даврининг ҳам қолдиқлари сақланиб турганлиги далиллар асосида ёритиб берилган.

**Таянч сўзлар:** вариант, модификация, сўз ясалиши, этимология, боботил, сингармонизм, лаб гармонияси, тил гармонияси, ассимиляция, регрессив ассимиляция.

Вариант (лот. *varians, genus variantis* – “ўзгарувчан”) – тилшуносликда тил бирликлари ва умуман тил тизимининг мавжудлиги ва ишлаш йўлининг асосий хусусияти, у вариант, инвариант, вариация тушунчалари ёрдамида тавсифланади<sup>36</sup>.

Вариант атамасига икки хил ёндашиш мавжуд: 1) лисоний тизим бирликларини модификацияланиши, хилма-хиллик ёки маълум бир меъёрдан оғиши; 2) тил бирликлари ва умуман лисоний тизимнинг мавжудлиги ва ишлаш услубини тавсифловчи атама.

Тилимизнинг морфологик шаклларидаги вариантлашув масаласига тарихийлик жиҳатидан қуйидагича ёндашиш мумкин: 1. Сўз ясовчилик имкониятини сақлаб қолган қўшимчаларда вариантлашув. 2. Ўзак таркибига сингиб ўз мустақиллигини йўқотган қўшимчаларда вариантлашув.

I. -оқ, -ак, -қ, -к – феълларга қўшилиб шахс, қурол ҳамда ўрин оти ясовчи қўшимчалар. Бу ясовчилар ўзбек тилида икки хил хусусиятни намоён қилади:

1. Қўшимча сўз ясовчилик имкониятини сақлаб қолган ҳолатлар:

а) -к//оқ: қочоқ, қолоқ, бўёқ, сўроқ, оғриқ, қавиқ, буйруқ, ютуқ, тутуқ.

в) -к//ак: элак, безак, тилак, сўлак, курак, юксак, қарсак, югурик, чирик;

2. Қўшимча ўзак таркибига сингиб ўз мустақиллигини йўқотгандаги ҳолатлар:

а) -к//оқ: чаноқ, нўноқ, ўвоқ, сўпоқ, йироқ, чироқ, бутоқ, пичоқ, ўчоқ, пўчоқ, машоқ, ушоқ, учуқ, пучуқ, чўлоқ, тайоқ, қулоқ;

б) -к//ак: тувак, ўрнак, чакак, челақ, билақ, желақ, эрмақ, кепак, телпақ, терак, кесак, юксак ва ҳоказо.

Отларнинг -(а)к, -(о)қ қўшимчаси билан ясалишига олимлар томонидан кам диққат қаратилган. Шунингдек, уларнинг кам унум эканлиги айтиб ўтилган, холос, ясалиш тарихи ва грамматик маънолари тадқиқ қилинмаган. Академик А.Ҳожиёв бу масалага: “Бу турдаги от ясовчилар кўп эмас. Уларнинг айримлари ҳозирда янги сўз яшаш учун деярли қўлланмайди, яъни истеъмолдан чиққан, маҳсулсиз аффикслар ҳисобланади: -(и)н (экин, тугун, кўшин), -(и)нди (қиринди, чўқинди, чиринди), -(и)қ (чизиқ, чандиқ, ямок) қўшимчалари шулар жумласидандир”, – деган изоҳни берган, холос [1; 81].

Олий таълим талабалари учун нашр этилган “Ҳозирги ўзбек адабий тили” дарслигида бу аслида битта қўшимча эканлиги, ўзакнинг қаттиқ-юмшоқлиги ва ундаги

<sup>36</sup> Вариантность // [Лингвистический энциклопедический словарь](#) / Главный редактор В. Н. рцева. – М.: Советская энциклопедия, 1990. – 685 с.

унлининг таъсири билан бир неча кўринишга эга бўлиши ҳамда от ясалиши ҳақида маълумот берилади ва унинг сингармонистик вариантларига мисоллар келтирилиб ўтилади [2; 181]. Бироқ мазкур кўшимчалар иштирок этган, лекин асос таркибига ўтиб лексикализациялашиш хусусиятлари ҳақида фикр билдирилмайди, кўринадики, уларга туб сўз сифатида қаралади.

Бундан ташқари, ўзбек адабий тилига доир барча дарслик ва ўқув қўлланмаларда ҳам *-қ/-оқ* ва *-к/-ак* кўшимчаларининг от ва сифат ясовчи эканлиги, отларнинг аниқ ҳамда маъхум турларини ясашда иштирок этишини қайд этиб ўтиши билан чекланилган. Боиси, бу кўшимчаларни қабул қилган асоснинг бугунги ўзбек тили меъёрлари доирасидан чиқиб, формасига қандайдир ўзгариш содир этилганлигидадир. Яъни *чаноқ* сўзининг ўзаги *чан-*, *нўноқ* сўзининг ўзаги *нўн-*, *сўноқ* сўзининг ўзаги *сўн-*, *ўрнак* сўзининг ўзаги *ўр-*, *увоқ* сўзининг ўзаги *ув-* тарзида тасаввур қилиш мумкин эмас, бунинг учун бу асосларнинг этимологик талқинини билиш, илғаш талаб этилади.

Масалан, *ўрнак*, *увоқ*, *этик*, *айақ* сўзларининг ясалиш этимологик моҳиятини олиб кўрадиган бўлсак, *ўрнак* ўзаги *Ҳ. Вамберининг* талқинига кўра аслида *көр-* “кўринмоқ” феълидан келиб чиққан, прокопа натижасида анлаутдаги *к* тушиб қолган *-н-* нисбат кўрсаткичи, *-ак* ясовчи кўшимча [3].

*Увоқ* сўзининг ўзаги *оғ-* ~ *уғ-* ~ *ов°-* ~ *ув°-* “майдалаш-” бўлиб, тарихан у *ун+лағ* формасидан шаклланилган. Хакас тилида *унах* “майда” маъносини билдиради. Ўзбек тилида унинг семантик вариантдоши *ушоқ* ва *ун* сўзлари ҳам шу ўзакларга тарихан ва этимологик жиҳатдан яқин, бу ерда *в ~ н ~ ш* ўтиши борлигини инобатга олиш зарур.

*Этик* сўзининг туркий тилларда *ә:дик* ~ *эдик* ~ *этик* шакллари қўлланади. Унинг формал шаклланишини Г.Рамстедт *etük* шакли билан боғлайди ва манчжур тилидаги *etu-* “кийинмоқ” (кийимни киймоқ) асосида шаклланилган бўлса керак дейди [4; 265]. Олим ўзининг кейинги ишларида *ät-* ўзагини боботил давридаги *ätür* “киймоқ” сўзининг қисқаришидан ҳосил бўлганлигини айтиб ўтган эди.

*Айақ* (оёқ) сўзи этимологияси ҳам шу қолип натижасида вужудга келган. *Ҳ. Вамбери* унинг асоси *ат*, *ай*, *аз*, *ар* “қадам”, “қадам ташламоқ”, “оёқ”, “таянч” бўлиши мумкинлигини эътироф этади [5]. Шу фикрга таяниб, Ю. Немет *айақ ад-*, чуваш тилидаги *ут-* “юриш, қирғиз, қозоқ, озарбайжон тилларидаги *адим* сўзлари билан қиёслади [6].

II. Ҳозирги ўзбек тилининг имло қоидалари сингармонизмни, айниқса, лабиал сингармонизмни маълум маънода инкор қилади. Шу сабабли лабланган унлили ўзакларга лабланмаган унлини кўшиш урф бўлган. Чунончи, *кўз* лабланган унлили ўзак бўлишига қарамасдан лабланмаган унлили I шахс бирликдаги эгалик кўшимчаси *-им* (*қўл+им*) кўшилиши шарт қилиб белгиланган. Бундай мисоллар кўп, улар бошқа типдаги ўзакларга ҳам кўшилаверади: *қўл+им*, *бўл+им*, *туз+им* ва ҳоказо.

Шунга қарамасдан, от ясовчи *-им*, *-ин*, *-и* кўшимчаларининг *-ун*, *-ум*, *-уш* лабланган кўриниши адабий тилимизда ҳозирги пайтда *уюм*, *ютум*, *тугун*, *тутун*, *қултум*, *уруш қурум*, *юпун* кўринишида айтилади ва ёзилади. Демак, тилнинг қадимги қонуниятлари барибир субъект таъсирисиз ўз моҳиятини сақлаб қолаверган, бу эса туркий тилларга боботилдан мерос бўлиб қолган лабиал гармония ўзбек тилида бутунлай йўқолиб кетмаганлигидан гувоҳлик беради.

Ўзак ўз маъно англатиш белгисини йўқотган *буюм*, *узум*, *тулум*, *қурум*, *тухум* сингари сўзларда ҳам лабиал гармония ўз қонуниятлигида турибди, улар соф луғавий маъноси тарихий-қиёсий талқин билан ойдинлаштирилганда кўшимчани ажратиш имкони ҳосил бўлади.

*Узум* отининг этимологик талқинини икки хил изоҳлаш мумкин: а) *ўз* “юза”, “юқори” отига *ўзак* лабланган унлили бўлганлиги туфайли лабланган *-ум* от ясовчисини кўшишдан; б) *йўз*, яъни *ўз* сўзига протетик *й* орттирилиб *-ум* аффиксини кўшишдан. Иккинчи этимологик таҳлилга асос сифатида, қирғиз, қозоқ, қорақалпоқ ҳамда ўзбек тилининг қипчоқ лаҳжасида *жүзүм* вариантининг

қўлланилишини келтириш мумкин. Чунки бу тиллар ва лаҳжаларда *й* ~ *ж* алмашинуви конуният. Акс ҳолда, *узум* сўзи *жузум* тарзида талаффуз этилмас эди.

III. Феъллардан от ва сифат ясовчи *-ық<sup>4</sup>*, *-ығ<sup>4</sup>*, *-зақ<sup>4</sup>*, *-қин<sup>8</sup>*, *-қыр<sup>8</sup>*, *-қыч<sup>8</sup>*, *-қы* [7;249] қўшимчалар ҳозирги ўзбек тили учун серунум саналади. Шунинг учун ҳам тарихан уларнинг иккитадан саккизтагача кўринишлари қадимги туркий тилда сўз ясашда иштирок этган. Айни сўз ясовчилар ҳозирги ўзбек тилида ҳам ўз унумдорлигини, сингармонизмга мойиллигини йўқотмаган.

1. *-ық/-ик//уқ/-ук* формалари *тўлиқ*, *букик*, *ютуқ*, *буюк* сингари ҳосилаларни ясашда фаол қўлланади. Ҳозирги ўзбек тили учун *тўлиқ*, *букик*, *ютуқ* сўзларини ўзак ва ясовчига осонлик билан ажратиш мумкин. *Буюк* сифатини эса ҳозирги ўзбек тили меъёрларига кўра асос ва ясовчига ажратиб бўлмайди, чунки ясовчи ва ясалмиш орасидаги чегара ўзгаришга юз тутган. Бунинг учун *буюк* сўзининг этимологик таснифини келтириш зарурати бор.

*Буюк* – сўзи *бед*, *бай*, *буй*, *бий* шаклида ишлатилган архаик от ўзагига *-и* феъл ясовчи қўшимчага *-к* сифат ясовчисини кўшишдан ҳосил бўлган. Бу фикрнинг исботи учун бир қанча далилларни келтириш мумкин.

Ҳозирги туркман, турк, озарбайжон тилларида *бай* “катта” маъносида қўлланади. Тарихий матнларда эса унинг *бедук* варианты истеъмолда бўлган: “*Қырық күндүн соң бедүкләди, жүрүди, ойнады*” (Ўғузнома, б). Туркман тилида *бейгел* “турмоқ”, турк тили шеваларида *бед* (бет) “кўп”, “жуда” маъноларида мавжуд. “Қадимги туркий тил луғати”да *бедук* “жуда” маъноси билан келтирилган [9; 91].

Ўзбек тилида қадимги туркий тилдаги *бедук* сифати бир қанча фонетик ўзгаришлар билан *буюк* шаклига келиб қолганлиги кўриниб турибди. 1. Қадимги туркий тил *д* белгилиги бўлганлиги учун *бедук*, ўзбек тили *й* белгили бўлганлиги учун *буюк*. 2. Иккинчи бўғинда тил олди, тор, лабланган у унлиси бўлганлиги сабабли биринчи бўғиндаги тил олди, ўрта кенг, лабланмаган э ни регрессив, дистант ассимиляция туфайли лабланган у унлисига айлантирган.

*-(±)ғ (-ығ/-иғ//уғ/-үғ)* қўшимчалари ҳам от ва сифат ясайди, аммо *-ық/-ик//уқ/-ук* ясовчисига нисбатан унда тарихий ясовчилик хусусияти юқори туради. Масалан, *ёруғ*, *йаллығ*, *қаллығ*, *улуғ*, *уруғ* ҳосилаларига диққат қилинса, шу ҳолатни кўриш мумкин. Келтирилган бешта сўздан фақат биттаси – *ёруғ* ясовчи ва ясалмишга осон ажралади: *ёр* (ёритмоқ) + *уғ*. Қолганларида (*йаллығ*, *қаллығ*, *улуғ*, *уруғ*) бундай имконият мавжуд эмас, улардаги деривативлик фақат этимологик тадқиқ туфайли аниқланади. Масалан, фикримизнинг исботи учун *улуғ* сифатининг тарихан шаклланиш жараёнини олиб қарайлик.

*Улуғ* сўзини В.Банг *ул+луғ* морфемаларига ажратади: *ул* – “асос”, “фундамент”, *-луғ* – ясовчи. У *ул* ўзаги айрим семалари билан “буюк”, “катта” сўзларига боғланишини кўрсатади. В.Бангнинг фикрларини М.Расянен [10; 203], Г.Дюерфер [11; 117] лар ҳам тасдиқлаган, “Қадимги туркий сўзлар луғати” да ҳам *ул* сўзининг “фундамент” маъноси келтирилган. *Улуғ* сифатининг муайян бир семасини *ула-* феълига боғлиқлигини айтишни ҳам жоиз деб биламиз.

*Эски* сифатининг асоси *и:р ~ е:р ~ ў:р ~ ўр* бўлиб у хакас, тува тилларида “узоқ вақт”, “бардавом” деган маънода ишлатилади. Ҳ.Вамбери бу сўзнинг асосини олтой тилидаги *ozo* “олдин”, *ozin* “ёнидан ўтмоқ”, уйғур тилида *ösri*, *özki*, *üski* “ўтмиш”, “эски” сўзлари билан қиёслаб улар орасида формал-семантик яқинлик борлигини айтади.

Ҳ.Вамбери *эски* сўзининг асоси *эс* эканлигини тан олиб *eski* “эски”, “эскирган” < мўғулча *esi* “бошланғич”, қалмиқча *esnesn* “бошидан” сўзлари асосида шаклланган бўлиши мумкин дейди.

Туркман тилининг шеваларида *эсги*, *эсги* вариантлари қўлланади, эски турк тилида эса *экси* кўриниши қўлланади, яъни эксимақ “емирилмоқ”, “эскирмоқ”.

Кўринадики, *эски* асоси метатеза жараёни натижасида *экси* > *эски* тарзида шаклланган бўлиши мумкин. Чунки туркий тилларда қадимги туркий тил давридан бошлаб *-си*, *-мси*, *-симақ* ясовчилари фаол қўлланиб келинган. Бундай ҳолат ҳозирги

туркий тилларда – *-мсы* турк тилида (*қарымсы*), *-сымақ* қирғиз тилда (*сарымсы*) тарзида қўлланади. Ҳозирги ўзбек тилида эса унинг *-мси* шакли *қулимсимоқ*, *йигламсинмоқ* ҳамда *қаримсиқ* сифати таркибида *-си+қ* тарзида яшаб келмоқда.

Демак, ўзбек адабий тили нисбатан янги тиллар сирасига кирса ҳам, унинг бағрида қадимги тилларнинг унсурлари содиқ ҳамроҳ бўлиб яшаб келмоқда. Жамият тараққий этади, тиллар ривожланади, лекин қадимий белгиларини лингвистик “осори атиқа” мисоли сақлаб қолаверади.

#### Фойдаланилган адабиётлар

1. Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясалиши тизими. – Тошкент: “О‘қитувчи” нашриёт матбаа ижодий уйи, 2007. – Б. 81.
2. Ҳожиёв А. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б. 181.
3. Vamberi H. Etimokogiches Worterburch der Turko-tatarischen Sprachen. – Leipzig, 1878.
4. Ramstedt G.J. Studes in Korean etymology. Helsinki, 1949. –P. 265.
5. Vamberi H. Etimokogiches Worterburch der Turko-tatarischen Sprachen. – Leipzig, 1878.  
– Németh Gy. Török jövevényoszok. Отд. Оттиск из: “Emlekkönyv Melich János hetvendik születésenapjára”. – Budapest, 1942.
6. Gombocz Z. Az altaji nyelvek hangtörténetéhez. – Nyk, XXXV, 1905. – Pp. 249.
7. Аннануров А., Бердиев Р., Дурдыев Н., Шамырадов К. Туркмен дилиниң эрсары диалекти. ТССР БИА-ның корреспондент члени М.Я.Хамзаевниң редакциясы билен. – Ашгабад, 1972. – Б. 216.
8. Древнетюркский словарь. – Москва: Наука, 1969. – С. 91.
9. Räsänen M. Versuch eines etymologischen Wörterbuchs der Türksprachen. – Helsinki, 1969. –Pp. 203.
10. Doerfer G. Die Entsprechungen der türkischen langvokale in Tungusischen. UAJb., Bd. 40, Heft. 1–2, 1968. – Pp. 117.

#### МИЛЛИЙ КОЛОРИТ ВА УНИНГ ХУСУСИЯТИ

DOI: 10.53885/edinres.2021.62.23.023

*Шахло Шокировна Жумаева*

Тошкент ирригация ва қишлоқ  
хўжалигини механизациялаш  
муҳандислари институти Бухоро  
филиали ўзбек тили ва адабиёти  
кафедраси ассистенти

**Аннотация:** *Бизнинг мамлакатимизда таржима таҳлиliga бағишланган тадқиқотларнинг кўпчилиги дастлаб адабий-тарихий, айримлари лингвистик йўналишларда олиб борилди. Ушбу мақола таржимада миллий колорит унинг хусусиятлари ҳақида бўлиб, миллий колоритга оид мисоллар тушунтирилган.*

**Калит сўзлар:** *таржима, адабий-тарихий, лингвистик йўналиш, миллий колорит, бадий асар, миллий ҳарактер*

Бизнинг мамлакатимизда таржима таҳлиliga бағишланган тадқиқотларнинг кўпчилиги дастлаб адабий-тарихий, айримлари лингвистик йўналишларда олиб борилди. Адабий-тарихий йўналиш тарафдорлари асосий эътиборни ўгирилаётган асарнинг бадий-эстетик қийматигагина қаратиб, бадий эдгорликнинг бирламчи асоси бўлмиш лисоний жиҳатини назардан соқит қилган бўлсалар, лингвистик йўналиш тарафдорлари қиёсланаётган икки тил воситаларининг кўпроқ луғавий мувофиқликларидан келиб чиқиб, асарнинг бадий-эстетик жиҳатига кам эътибор бердилар. Мазкур йўналишларни ҳамда

аслият мансуб бўлган халқ моддий, маънавий, сиёсий ва иқтисодий ҳаёти билан боғлиқ ранго-ранг ғайрилисоний омилларни ўзида акс эттирадиган лисоний-услубий воситалар вазифаларининг таржимада қайта ижодий яратилиши масаласи эса таржимашуносликнинг махсус тадқиқот мавзуи сифатида мамлакатимиз илмий-адабий жамоатчилиги эътиборини кейинги йиллардагина ўзига торта бошлади. “Бадиий асарнинг миллий шаклини қайта тиклаш бадиий таржиманинг муҳим муаммоларидан бири ҳисобланади. Миллий ўзига хосликни бошқа тил воситалари билан бериш соҳасида катта тажрибалар тўпланган. Бироқ бу соҳанинг принцип ва мезонлари ишлаб чиқилгани йук.

Адабиётнинг миллий характерга эгаллиги ҳаракатдаги образларнинг характерида, жумладан, қилиқлари юмор хусусиятларида фикрлаш ва интилиш тарзида намоён булади. Ҳар қандай киши бирор бир миллат вакили сифатида маълум характерга ва ўзига хос психологик билимларга эга. Бадиий образнинг миллий характери, унинг нутқи, муҳитга муносабати, сурати, сийрати, ҳис туйғулари ва бошқаларда кўринади. Миллий характер маълум миллий асосда яратилиб муайян ҳаёт шароитининг инъикоси ҳисобланади [1, 192]. Шунинг учун ҳам образнинг миллий характерини ўша миллатнинг ҳаётини миллий тарихини ўзига хослигини миллий маданий ва адабий анъаналарини ўрганиш орқали ўз ҳолича тушуниш мумкин.

Маълумки, тарихан ташкил топган маданияти, тили, ҳудуди, иқтисодий ҳаёти ва руҳий хусусиятларининг умумийлиги асосида вужудга келган кишилар гуруҳига миллат дейилади. Миллийлик у ёки бу миллатнинг маънавий фаолияти ва моддий ҳаётидаги ўзига хосликдир. Маънавий фаолият кишиларнинг характери тафаккур тарзи руҳияти интилишлари қилиқлари юмор хусусиятлари ва бошқаларни ўз ичига олади. Моддий ҳаёт эса урф-одат, расм-русум, маросимлар, кийимлар, уй-рузғор анжомлари, чолғу асбоблари, пазандачилик, исмлар ва ҳоказолар. Бадиий асарда акс этган ана шу миллий хусусиятлар йиғиндиси адабиётшуносликда **миллий колорит** дейилади”. “**Колорит**” терминини Ўзбек Совет Энциклопедияси “Ранг” сўзидан олинган деб даъво қилади. Олим Усмон, Ренат Дониёровлар улар “Ранг, буёқ” маъносидаги лотинча “color”, италянча “colore” сўзлари орқали рус тилига ва у орқали ўзбек тилига ўзлашган, деб ҳисоблайдилар. Тилшунос Олга Сергеевна Ахманова эса бу инглизча “colour” сўзидан олинган деган маълумотни беради. Ўзбек қомусида мазкур терминнинг тасвирий санъатда бадиий адабиётда англатган маънолари акс эттирилган. Чунончи, тасвирий санъатда (картина, фреска, мозаика, рангли гравюра) реал ҳаётни ҳаққоний акс эттириш учун ишлатиладиган рангларнинг ўзаро мутаносиблиги тушунилади.

Колорит (ранг, бўёқ) асарнинг ғоявий мазмуни билан боғлиқ бўлиб, санъаткор ифодаламақчи бўлган ғоя ва бадиий образни яққолроқ кўрсатишга хизмат қилади. Уй-нийат, ғоя, муддаони ифодалашда образни гавдалантиришда бўёқларга алоҳида эътибор берадиган санъаткор колорист-рассом деб аталади (У. Тансиқбоев, Ч. Аҳмаров ва б.). Бу терминнинг иккинчи маъноси бирон нарсанинг ўзига хос томонлари мажмуини англатади.

Масалан, бадиий асарнинг ўзига хос характерли хусусияти: миллийлик, давр, маълум жойнинг ўзига хос жиҳатлари ифодаси. О. С. Ахманованинг «Лингвистик терминлар луғати»да колорит бадиий асарнинг ўзига хос хусусияти, персонажларнинг нутқ характеристикаси сифатида таърифланиб, уларнинг нутқида бирон давр тилидан ёки шевалардан олиб ўзлаштирилган тилнинг ўзига хос белгилари, бирон мамлакат ёки жойнинг хос тушунчалари (реалий) мажмуидан иборат, деб кўрсатилади. Жумладан, шарқ колорити, европа колорити ва маҳаллий колоритга доир сўз ва истилоҳлар мисол тариқасида келтирилади”. [2,565] Таржимада тил алмашади, лекин миллийлик қолади.

#### **Адабиётлар:**

1. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент, 1983. 192-бет.
2. Олим Усмон, Ренат Дониёров. Ўзбек тилидаги русча-интернационал ўзлаштирама сўзлар изоҳли луғати. Тошкент, 1965, 214-бет
3. О. С. Ахманова. Словарь лингвистических терминов. М., 1966, с. 200.

4. Sadikovna, M. M. (2020). СТРУКТУРНАЯ СПЕЦИФИКА ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ. В научный сборник вошли научные работы, посвященные широкому кругу современных проблем науки и образования, вопросов образовательных технологий 2020.-436 с., 252.

5. Sadikovna, M. M. (2021). THE ORIGIN OF PROVERBS AND SAYINGS. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(6), 106-110.

6. Uktamovich, R. A., & Jalilovna, J. L. (2021). THE PECULIARITIES OF PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE MAIN HERO IN J. ROWLINGS HEPTALOGY OF HARRY POTTER. *International Engineering Journal For Research & Development*, 6(2), 5-5.

7. Rajabov, Akhtam and Jalilova, Lola Jalilovna (2021) "PECULIARITIES OF MODERN UZBEK CHILDRENS LITERATURE (ON THE EXAMPLE OF KHUDOIBERDI TOKHTABOYEVS WORKS)," *Scientific reports of Bukhara State University: Vol. 5 : Iss. 2* , Article 15.

8. Jalilova L. J., Rajabov A. U. Comic creation means in James Thurbers novel "the secret life of Walter Mitty" // *ISJ Theoretical & Applied Science*, 04 (72). – 2019. – С. 557-560.

9. Jumayeva, S. (2018). COMPARISON OF UZBEK AND GERMAN COMPOUND NOUNS. *Теория и практика современной науки*, (4), 50-52.

10. Jumayeva Sh. Sh. (2021). COMPARATIVE TYPOLOGICAL ANALYSIS OF HOMONYMY AND POLYSEMY IN ENGLISH, RUSSIAN AND UZBEK. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(6), 93–97. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/85GXT>

## MILLIY TIL KORPUSINING PAYDO BO‘LISHI VA TARAQQIYOTI

*DOI: 10.53885/edinres.2021.40.70.086*

*Nazokat ZARIPBOYEVA,  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent  
davlat o‘zbek tili va adabiyoti  
universiteti talabasi*

**ANNOTATSIYA:** *Maqolada milliy til korpusining paydo bo‘lish tarixi, jahon ilm-fanida turli xalqlarning milliy til korpuslarining yaratilishi, so‘z boyligi va imkoniyatlari haqida so‘z boradi. Shuningdek, turkiy tillarning mushtarak korpusini yaratish masalaida ham ahamiyatli ilmiy qarashlar bayon etiladi.*

**KALIT SO‘ZLAR:** *leksik tarkibi, korpus, til, korpusi, kompyuter tilshunosligi, elektron matn, lug‘at, lingvodidaktik tadqiqotlar.*

Ochig‘i, korpusni insoniyat hali korpus lingvistikasi fani paydo bo‘lmasdan oldin, ya‘ni XVIII asrdan tadqiq eta boshlashgan. Misol qilib oladigan bo‘lsak, Bibliyani tadqiq etish, lug‘atlar yaratish (Johnson, Oxford English Dictionary, Webster Dictionary), tillarni o‘qitish (chastotali lug‘at Thorndike'a, 1921), deskriptiv grammatika (Fries, 1940, Quirk, 1968) va boshqalar. Kvirk korpusi bir million so‘z birikmalarini o‘zida jamlagan bo‘lib, har biri o‘n yetti qator matndan iborat million kartotekadan iborat. Bu korpus oxirgi elektron shaklda bo‘lmagan korpus edi. Mazkur korpusning yaratilishiga 25 yil vaqt sarflangan. Kvirk korpusi 1989-yilda oxirgi ishlarini yakunlagan. Bu paytda texnologiyalar yuqori sur‘atda rivojlanib ketayotgan edi. Buning natijasi o‘laroq korpus tezlikda elektron shaklga o‘tkazildi. Hozirda bu korpus Londondagi University kollejida saqlanmoqda.

Kompyuter yordamida yaratilgan korpuslarning asosiy davrlari:

1. 1960-yil, Braun korpusi (AQSh), bir million so‘zni qamrab oladi;
2. 1970-yil, LOB korpusi (Buyuk Britaniya, Norvegiya), bu korpus ham bir million so‘zni qamrab oladi;
3. 1980-yil, Rus tilining mashinalashgan fondi (Машинный Фонд русского языка);

4. Rus tilining Uppsal korpusi (Shvetsiya), bir million soʻzni qamrab oladi;
5. 1990-yil, Britaniya milliy korpusi (British National Corpus), milliy korpuslar (venger, italyan, xorvat, chex, yapon millatlari tillari) 100 million soʻzni oʻz ichiga oladi;
6. Ingliz tili majmui (The Bank of English), Birmingham (Collins Cobuild), 600 million soʻzdan iborat;
7. 2000-yil, Amerika milliy korpusi (American National Corpus), 100 million soʻzni oʻz ichiga oladi;
8. Amerikacha ingliz tilining zamonaviy korpusi (Corpus of Contemporary American English), 400 million soʻzdan iborat;
9. Rus tilining milliy korpusi (Национальный корпус русского языка), 140 million soʻzni oʻz ichiga oladi;
10. Gigaword corpora: ingliz, arab, xitoy tillarini qamrab olgan boʻlib, 2 milliard soʻzdan tashkil topgan;
11. Oxford English corpus, mazkur korpus ham 2 milliard soʻzdan tashkil topgan;

Bugungi kunda har bir rivojlangan til oʻz korpusini yaratish ustida ish olib bormoqda. Eng mashhur va koʻzga koʻringan korpuslarni yuqorida sanab oʻtdik. Kompyuter texnologiyasining tez surʼatdagi rivoji bundanda katta hajmdagi korpuslarni ilm ahliga taqdim etadi.

V.V.Rikovning yozishicha, korpus lingvistikasi atamasi munozarali masala. Chunki korpus lingvistikasi matnlar massivini yaratish masalasimi yoki korpus maʼlumotlari asosidagi lingvistikami? Amaliyotda korpus lingvistikasi deganda:

- birinchidan, korpus makur fan uchun nutq materialini;
- ikkinchidan, faoliyat natijasidir.

Xulosa qilib aytganda, quyidagilarga imkoniyat yaratdi:

1. Tilga oid ilgari qilingan tadqiqotlar koʻlami va natijalarini kompleks holda aniqlash va tahlil qilish;
2. Yangi va keng koʻlamda lingvistik tadqiqotlar olib borish.

Korpus lingvistikasi fani oʻz obyekti va ish materialini oʻzi yaratdi, bu esa uni mustaqil lingvistik fan sifatida tan olishga asos boʻladi. Biz tadqiq etayotgan fanning asosiy maqsadi – til tizimini lingvistik tasvirlashdir.

Korpus lingvistikasining asosiy yoʻnalishlari:

Zamonaviy korpus lingvistikasining asosiy yoʻnalishlari quyidagilar:

– birinchidan, bu lugʼatlar yaratish hamda leksikografik tadqiqotlar olib borishdir, zamonaviy ingliz tilining barcha lugʼatlari korpusga asoslangan (Collins, Webster, MacMillan va boshqalar);

– ikkinchidan, korpuslarni oʻrganish orqali tillarning leksik tarkibi haqida aniq maʼlumotlar olish, soʻzlarning qoʻllanish chastotalarini tuzish. Korpusning leksikologiya sohasidagi ahamiyati shundan iboratki, soʻzning qoʻllanish davri va chastotasini aniqlashda hech qanday vosita korpusga tenglasha olmaydi. Korpus asosida maʼlum soʻzning chastotasini aniqlash uchun berilgan qidiruv natijasida diagramma va grafiklar yordamida soʻzning tartib raqami uning chastotasiga teskari proporsional boʻladi, chunki ikkinchi tartib raqamida joylashgan soʻz birinchi raqamli soʻzga nisbatan kamroq, toʻtinchisi uchinchisiga nisbatan kamroq ishlatilishi aniq. Birorta chastota lugʼati korpuscha aniq maʼlumot berolmaydi, chunki til doim oʻzgarishda boʻlib, soʻzning chastotasi ham nisbiydir. Korpusning Sipfa qonuniyati deb ataladigan bunday amaliyotiga asosan, har bir tilda tez-tez ishlatiladigan soʻzlarni aniqlashning imkoniyati endi yuqori<sup>37</sup>

Kompyuterda yaratilgan birinchi matnlar korpusi Braun korpusi (БК, inglizcha Brown Corpus, BC) hisoblanadi, u 1961-yilda Braun universitetida yaratilgan, har biri 2000 soʻzli 500 ta matn fragmentini oʻz ichiga oladi. 1970- yillarda 1 mln soʻzni oʻz ichiga olgan matnlar korpusi asosida rus tilining chastotali lugʼati yaratildi. 1980-yillarda Shvetsiyaning Upsala universitetida ham rus tilida matnlar korpusi yaratildi. Keyinchalik kompyuter

<sup>37</sup> Рыков В.В. Корпус текстов как новый тип словесного единства // Труды Международ. семинара «Диалог-2003». М.: Наука, 2003. С. 22–23.

leksikografiyasining rivojlanishi natijasida katta hajmli matnlar korpusiga ehtiyoj tug'ildi. Ya'ni 1 mln ta so'z elektron lug'atlar bazasi uchun yetarli emas. Shu asosda yirik hajmli matnlar korpusi yaratila boshlandi. Ko'pgina mamlakatlarda XX asrning 80-yillaridan boshlab bunday korpuslar tuzila boshlandi. Ular turli maqsad va vazifalarga xizmat qiladi. Buyuk Britaniyada Ingliz tili Banki (Bank of English) hamda Britaniya Milliy Korpusi (British National Corpus, BNC), Rossiyada Rus tilining Milliy Korpusi loyihalari ishlab chiqildi. Masalan, Rus tilining Milliy Korpusi hajmi hozirgi kunda 149 mln so'zdan iborat. Keyingi yillarda Internet tizimining rivojlanishi virtual matnlar korpusi yuzaga kelishiga olib keldi. Ya'ni Internetdagi qidiriv saytlari, elektron kutubxonalar, virtual ensiklopediyalar korpus vazifasini bajarmoqda. Korpusning janri va tematik rang-barangligi Internetdan foydalanuvchining qiziqishlariga bog'liq. Masalan, ilm-fan doirasida Wikipedia katta hajmdagi matnlar korpusi sifatida foydalanilmoqda<sup>38</sup>

Ayniqsa, ona tili va chet tillarini o'qitish va o'rganish borasida korpusning ahamiyati beqiyos. Bugungi kunda dunyo miqyosida til o'rgatish tizimi korpuslarga yo'naltirilayotganligi ham – fikrimizning dalili. Shuning uchun ta'lim korpuslari, sheva matnlari korpuslari, poetik matnlar korpusi, og'zaki, ilmiy, rasmiy matnlar korpusi, parallel korpus kabi qator mikrokorpuslarning tuzilayotganligi ahamiyatli. Ingliz, nemis, fransuz, rus tillarini xorijiy til sifatida o'qitish masalasi metodikada alohida tadqiq etilmoqda. Aynan til o'rgatishni maqsad qiluvchi korpuslar ham mavjud bo'lib, «Учебный корпус русского языка», «Learner corpus of English» shular jumlasidan. Xorijiy til vakillari bilan ishlash jarayonida til korpusining ahamiyati bir necha marta ortadi. Tadqiq predmeti ona tili bo'lmagan (ikkinchi yoki xorijiy til hisoblangan) o'qituvchi va o'quvchi uchun ham korpus juda muhim va qulay vosita. O'zni kelganda aytish lozimki, ilk rus tili korpuslari Rossiyada emas, Yevropada rus tili tadqiqotchilari tomonidan yaratilgan<sup>39</sup>.

Korpus materialining necha tilda berilishiga ko'ra uning bir va ko'p tilli turlari mavjud. Korpus mutaxassislarini (asosan, tarjimon) doim bir necha tilli korpus yaratish qiziqtirib kelgan. Korpus yaratishning ilk davridan boshlab ingliz, fin, fransuz, nemis, grek, norveg, ispan, shved va h. tillar uchun ikki tilli korpuslar paydo bo'la boshlagan. Bunday korpus bitexts deb ham ataladi. Korpusni ikki tilli emas, balki uch, to'rt va undan ortiq tilli qilishga hech qanday to'siq yo'q. Mutaxassislar parallellik nuqtayi nazaridan korpusni bir, ikki va ko'p tilli kabi turlarga ham bo'lishadi. Bir tilli korpusda til varianti va shevalar bir-biriga qarama-qarshi qo'yilsa, ikki va ko'p tilli korpus bir mavzu doirasida turli tilda yozilgan matnlar majmuidan iborat bo'ladi. Masalan, ma'lum ilmiy muammo borasida turli davlatda turli tilda o'tkazilgan konferensiya materiallarini qamrab olishi mumkin. Ko'p tilli korpuslar, odatda, tarjimonlar tomonidan foydalaniladi. Ko'p tilli korpusning yana bir ko'rinishi original matn va tarjima matndan iborat bo'ladi. Korpusning ushbu turi qiyosiy chog'ishtirma tadqiqot olib borishda, tarjima nazariyasi hamda kompyuter tarjimasini o'rganishda juda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ko'p tilli korpusning 2 turi mavjud:

- 1) bir-birining tarjimasi bo'lgan matnli korpus;
- 2) bir mavzuga oid ikki tildagi matnli korpus.

Birinchi tipdagi korpus –parallel korpus (parallel corpora) deb nomlanib, ma'lum bir tarjimaning turli aspektini o'rganish uchun qo'llaniladi. Masalan, Kanada parlamenti yig'ini (ingliz/fransuz) matnlari korpusi mavjud. Parallel korpus o'z navbatida yana 2 turga – *moslashtirilgan* (aligned) va *moslashtirilmagan* (not aligned) korpusga ajraladi. "*Moslashtirilgan*" atamasi korpusda tarjima birliklari orasida bir-birini taqozo etuvchi aniq aloqa mavjudligini bildiradi. Bunday korpusning afzalligi u yoki bu gapning qanday tarjima qilinganini topishda qulaylik mavjudligida. Bu turdagi korpus tarjimon uchun ahamiyatli, chunki unda noyob resurs – tarjima xotirasi (translation memory) mavjud. "*Moslashtirilmagan*" korpus (–qiyosiy korpus)ning vazifasi matnni uning tarjimasi bilan moslashtirish, bir birlikning tarjimada qaysi birlikka to'g'ri kelishiniko'rsatib turishdan iborat. To'g'rilash avtomatik ravishda

<sup>38</sup> Po'latov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi. – T., 2007. – B.43.

<sup>39</sup> Кутузов А.Б. Корпусная лингвистика. – М., 2005. С. 15-16.



yoki qo'lda bajarilishi mumkin. Birinchi usul oson, lekin xatolari ko'p. Masalan, tarjima jarayonida sodda gap qo'shma gap shaklida berilishi mumkin. Bunday paytda qaysi qurilish original ekanligini aniqlash qiyin bo'ladi. Ko'p tilli –moslashtirilgan korpus namunasi sifatida Yevropa Ittifoqining Acquis Communautaire ma'lumotlar bazasini keltirishimiz mumkin.

Ikkinchi xildagi korpus –tarjima korpusi (translation corpora) deb atalib, ayni bir fikrning turli tildagi ifodasini o'rganish uchun muhim.

Parallel korpusning qimmatini uning hajmi va tillarning miqdori bilan belgilanadi. Acquis Communautaire dunyodagi eng katta parallel korpus bo'lib, muhim jihati bu korpusdan foydalanishning bepulligi va multi-eston, sloven-fin kabi kam uchraydigan tillar juftligining mavjudligi bilan baholanadi. Ushbu korpuslardan quyidagi maqsadlarda foydalanish mumkin:

- 1) tipik tarjima usullari va transformatsiyani yuzaga keltirish;
- 2) avtomatik tarjima tizimi statistikasini o'rganish;
- 3) bir va ko'p tilli lug'atlar yaratish;
- 4) ma'lumotni saqlash va uzatish dasturlarini o'rganish va baholash;
- 5) tarjima to'g'riligini avtomatik tarzda tekshirish;
- 6) ekvivalent tanlash imkoni kengligi orqali tarjimom mehnatini osonlashtirish.

Dunyo tillarini qamrab olgan parallel korpusning ahamiyati turkiy tillar mushtarak korpusi tuzish masalasining nechog'liq dolzarbligini ko'rsatib turibdi. Turkiy tillar mushtarak korpusi matnshunoslik, qiyosiy tilshunoslik, tarjima nazariyasi, adabiyotshunoslik, qarindosh tillararo munosabatlar, til leksikasining boyish manbalarini o'rganish vositasi sifatida xizmat qilishi bilan ahamiyatli. Bunday korpusning yaratilishi turkiy tillar oilasiga mansub tillarning rivojlanishini ta'minlashi bilan birga, foydalanuvchilari kam sonli turkiy tillarni asrab qolish garovi hamdir. Turkiy tillarning mushtarak (parallel) korpusi turkiy tillarning mushtarak yodgorliklari Avesto , O'rxun-Enasoy obidalari, turkiy xalqlar eposlarini turkiyzabon xalq farzandlariga o'rgatishning eng zamonaviy ta'lim vositasi sifatida xizmat qilishi tabiiy<sup>40</sup>.

Jahon tillarining juda ko'pi mukammallik darajasi va matnni ilmiy qayta ishlash imkoniyati bilan farq qiluvchi o'z milliy korpusiga ega. Ingliz tilida yaratilgan Braun korpusi, Lankaster-Oslo/Bergen (LOB) korpusi, London-Lund korpusi, Leksikografik tadqiqotlar uchun Amerika meros korpusi, Lankasteringliz tili so'zlashuv korpusi, diaxronik korpus sanalgan. Ingliz matnlarining

Xelsinki korpusi, lingvodidaktik tadqiqotlar uchun Ingliz tili o'rganuvchilarining xalqaro korpusi, ingliz tilidagi korpuslarning eng so'nggi avlodi sifatida Ingliz tili banki, Britaniya milliy korpusi, Xalqaro ingliz tili korpusi, Amerika milliy korpusi kabi mashhur korpuslarning mavjudligi milliy va davlat tili taraqqiyotida milliy korpusning ahamiyati va o'rni nechog'lik muhimligini ko'rsatadi. Dunyo tili sanalgan ingliz, ispan, xitoy, arab, frantsuz, rus, nemis tillarining milliy korpusidantashqari, polyak, polyak-ukrain, chex, slovak, serb, xorvat, bosniya, bolgar, bolgar-rus, makedon, shotland, niderland, niderland-frantsuz, shved, dat, norveg, island, farer, o'rta asr frantsuz tili, italyan, portugal, rumin, litva, latish, grek, sharqiy arman, osetin, alban, hind, tsigan, xett, fin, ural tillari, eston, veps, venger, udmurt, gruzin, ingliz-gruzin, lezgin, turk, tatar, boshqird, qrim-tatar, qalmaq, buyat, mo'g'ul, ivrit, amxar, yapon, qadimiy yapon, baman, esperanto tillari korpuslari mavjud. Dunyo kompyuter lingvistikasida milliy til korpusining mavjudligiga tilning yashovchanlik va kompyuter tiliga aylanish mezonini sifatida qaralmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. McEnery T, Wilson A. Corpus Linguistics. Edinburgh: Edinburgh University Press, 2nd edition, 2001.
2. Teubert, W. Corpus Linguistics and Lexicography. International Journal of Corpus Linguistics. Special issue, 2001.
3. Беяева Л.Н. Лексикографический потенциал параллельного корпуса текстов // Труды международной конференции «Корпусная лингвистика – 2004». – СПб., 2004.

<sup>40</sup> Гарабик Р., Захаров В.П. Параллельный русско-словацкий корпус // Труды международной конференции «Корпусная лингвистика – 2006». – СПб., 2006. – С. 81-82.

4. Xamrayeva Sh. Til korpusining lingvistik va boshqa sohalaridagi ahamiyati // O'zMU xabarlari, – T., 2017.
5. Xamrayeva Sh. Til korpusining leksikografik ahamiyati // O'zMU, -Toshkent, 2017.
6. Mengliyev B va boshqalar. O'zbek tilining milliy korpusi// Ma'rifat, -Toshkent, 2018.

## **O'ZBEK TILINING MILLIY KORPUSINI YARATISH MEZONLARI**

**DOI: 10.53885/edinres.2021.28.85.085**

**Nazokat ZARIPBOYEVA,  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent  
davlat o'zbek tili va adabiyoti  
universiteti talabasi**

**ANNOTATSIYA:** Maqolada til korpusi, xususan, o'zbek tilining milliy korpusi, uning yaratilish tamoyillari, ilm-fan rivojida ahamiyati haqida so'z boradi. Shuningdek, turkiy tillarning mushtarak korpusini yaratish masalasida ham ahamiyatli ilmiy qarashlar bayon etiladi.

**KALIT SO'ZLAR:** leksik tarkibi, korpus, til, korpusi, kompyuter tilshunosligi, elektron matn, lug'at, lingvodidaktik tadqiqotlar.

Hozirgi o'zbek tili boshqa tillar kabi o'z tarixiy taraqqiyot yo'lida bir qancha o'zgarishlarga uchradi. Taraqqiyot davridagi har bir bosqichning o'ziga xos xususiyatini tadqiq etish maqsadida tilning taraqqiyot bosqichlari ajratildi hamda o'rganildi, bu tadqiqotlarda davr tilining o'ziga xos xususiyati ma'lum bir adib ijodi misolida yoritildi. Har bir davr ijodkorlari ijodiy merosini to'liq qamrab oluvchi bir qancha lingvistik tadqiqot mavjud bo'lsa-da, ular maxsus tizimlashtirilgan baza shaklini olmagan. Axborot texnologiyalari asrida bunday yaxlit tizimning o'zbek (turkiy) yozma manbalari uchun mavjud bo'lmisligi achinarli holat.

Bugungi kunda korpus lingvistikasi tilshunoslikda real hayotda tildan kompyuter va elektron korpuslar yordamida foyalanish bilan bog'liq yangi yondashuv sifatida tushuniladi. Lingvistikaning sintaksis, semantika, ijtimoiy lingvistika kabi bo'limlari til tuzilmasi yoki tildan foydalanishni bayon etish yoki baholash maqsadiga ega bo'lsa, korpus lingvistikasitilga oid tadqiqotlarning ko'plab aspektlarida qo'llash mumkin bo'lgan keng tushuncha, metodologiyahisoblanadi.

Dunyodagi yirik tillarning milliy korpuslari yaratilgan va yaratilmoqda. Ulardan ko'pchiligi tog'risida atroflicha ma'lumot berildi. O'zbek tilining milliy korpusini yaratish tilshunosligimiz oldidagi dolzarb vazifalardan biridir. O'zbek tilining milliy korpusining yaratilishi shu bilan ahamiyatli, buning natijasida tadqiqotchi ma'lumotlarni olish uchun behad ulkan axborot hajmiga ega bo'ladi. Bu esa til birliklarining barcha lingvistik xususiyatlari, tilning taraqqiyoti, undagi o'zgarishlar – yangilanish va eskirishlar, faollashish va passivlashishlar haqida tezkor, aniq va to'liq ma'lumotni beradi, osonlik bilan turli tipdagi katta hajmli akademik lug'atlar tuzish, matnlarga avtomatik ishlov berish imkoniyatini yaratadi.

Tilshunosligimiz tarixida alohida muallif asari til xususiyatini o'rganishga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar talaygina. Runiy va uyg'ur yozuvi asosida yaratilgan yodgorliklarning til xususiyatiga bag'ishlangan bir qancha asarlar maydonga keldi. Bu tadqiqot ishlarida qadimgi turkiy til xususiyatlarining ayrim morfologik, sintaktik va fonetik xususiyatlari tahlil qilindi. Runiy yozuvdagi yodgorliklar tilini V. Radlov, S. Malov, A. Sherbak, G'. Abdurahmonov, A. Rustamovlar atroflicha tadqiq etishdi. XI-XIV asr yozma yodgorliklari til xususiyati A. Borovkov ishlarida, "Devonu lug'otit turk" asari tili A. Fitrat tadqiqotlarida, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari til xususiyati V. Radlov, S. Malov, V. Bartold, E. Bertelslar, Ahmad Yugnakiyning "Hibatul-haqoyiq" asari S. Malov, E. Bertels, Q. Mahmudovlar tomonidan alohida o'rganildi. O'g'uz dialekti belgilari ustun bo'lgan "Qissayi

Yusuf” dostoni M. Brokkelman, o‘g‘uz va qarluq-uyg‘ur dialektining qadimgi yodgorliklaridan hisoblangan “O‘g‘uznoma” afsonasi G. Potapin, A. Sherbak, XIV asr adabiy tili yodgorligi “Muhabbatnoma” asari til xususiyati ham A. Sherbak tomonidan tadqiq etilgan. XI-XIV asrlarda tuzilgan rasmiy hujjatlar uslubida o‘sha davr tiliga xos xususiyatlar o‘z ifodasini topgan. XI-XIV asrlarga oid rasmiy tilni bayon etishda prof. S.E.Malov nashr qilgan va X-XIII asrlarga yorliqishli yuridik hujjatlar, O.D.Chexovich nashr etgan XIV asrga oid Buxoro hujjatlari hamda E.R.Tenishev nashr etgan XIII-XIV asrlarga oid xo‘jalik yozuvlari yordam beradi. Eski o‘zbek adabiy tili deb ataluvchi XIV-XIX asr tili xususiyati Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Navoiy asarlari misolida tadqiq etilgan. Xususan, Alisher Navoiy asarlari tili alohida ahamiyatga ega bo‘lib, eski o‘zbek adabiy tili taraqqiyotida muhim o‘rni borligini A.K.Borovkov tadqiqotlari isbotlaydi. XVII-XIX asr adabiy tili xususiyatlari Abulg‘ozi Bahodirxon, Turdi Farog‘iy, Nishotiy, Munis, Gulxaniy, Maxmur asarlari tili, XX asr o‘zbek adabiy tili leksikasi xususiyatlari Abdulla Qodiriy, G‘afur G‘ulom, Oybek, Abdulla Qahhor asarlari til xususiyatlari misolida tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlarda muallif tili leksikasi atroflicha tavsiflangan. Bunday tadqiqotlar tilning rivojlanish jarayoni va o‘zgarishlarni: ma‘no torayishi va kengayishi, istorizm, arxaizm, neologizmlar harakatini kuzatish uchun qulay sharoit yaratadi. Mana shunday xususiyat har bir muallif va davr tili uchun tadqiq etilsa ham, ular alohida-alohida monografiyalarda mavjud. Agar bu tadqiqotlar milliy korpusda yaxlit bir tizim asosida o‘z aksini topsa, istalgan leksemaning tarixiy taraqqiyot jarayonini turli muallif tili misolida yorqin tasavvur qilish imkoniyati paydo bo‘ladi. Tilshunosligimiz oldida turgan endigi vazifa shu tadqiqotlarni birlashtirish asosida korpus yaratish. Bu vazifani amalga oshirish ikkibosqichni o‘z ichiga oladi:

1. Tilimiz tarixiy taraqqiyoti davrida til xususiyatlari tadqiq qilingan adiblar ijodiy merosi va tadqiqot natijasini korpus sifatida shakllantirish.
2. Shu paytgacha til xususiyati o‘rganilmagan yozuvchi va shoirlar asari korpusini tuzish.

Birinchi vazifa o‘rganilgan milliy-madaniy merosimizning elektron shaklda yaxlit sistemada (korpus shaklida) saqlanishi va undan keyinchalik turli ta‘limiy va tadqiqiy maqsadda foydalanish imkonini yaratadi. Ikkinchi vazifani amalga oshirish til xususiyati o‘rganilmagan yozuvchi va shoirlar asariga bag‘ishlangan turli filologik tadqiqotlar bajarish uchun elektron baza hamda milliy-madaniy meros va tilimizni elektron shaklda (korpus formatida) saqlash, foydalanish va kelgusi avlodga to‘liq yetkazishni ta‘minlaydi.

Adabiy til rivojiga salmoqli hissa qo‘sha olgan buyuk milliy yozuvchilarning leksikasini asrab qolish, nafaqat asrash, balki butun ko‘lami bilan tavsiflash, til egalari uchun namuna vazifasini o‘taydigan model shakliga keltirish adabiy tilni asrash va rivojlantirish omili bo‘lib xizmat qiladi. Bu borada o‘z millati milliy va adabiy tili asoschisi hisoblangan butun dunyoga mashhur adiblar Shekspir, Dante, Gyote, Pushkinlarning adabiy merosi asosida qilingan ishlar (tuzilgan korpus) namuna sifatida xizmat qiladi. Bu siraga adabiy tilning eng optimal tashuvchisi sifatida tan olingan yozuvchilar Shandor Petefi, Genrik Ibsen, Adam Mitskevich, Karel Chapeklarning ishlarini kiritish ham mumkin. Korpus lingvistikasi ancha yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, mualliflik korpusi tuzish tajribasi oxirgi 5 yil ichidagina shakllandi va bu borada ancha natijalarga erishishga ulgurdi. Bunday korpus tuzish ma‘lum davr adabiy tili, xususan, leksik tarkibi, uslubiy xususiyatini tadqiq etish uchun material vazifasini o‘tashdek qimmatli vazifani ado etadi. Yuqorida ta‘kidlanganidek, mualliflik korpusini tuzishning bir qancha afzalliklari bor. Mualliflik korpusi, uning o‘ziga xos xususiyati, tuzish tamoyili kabi muammolar ushbu bo‘limning tadqiq predmeti hisoblanadi. Mualliflik korpusi tarkibiy qismi, interfeysi, razmetka masalasi korpus tuzishning asosiy muammosi hisoblanganligi sababli avval Internet tarmog‘ida mavjud mualliflik korpuslarining shu jihatiga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Korpus uchun material tanlash: muammo va yechim. Milliy korpusi mavjud tillarning mualliflik korpusini tuzish hech qanday qiyinchilik tug‘dirmaydi. Chunki matn (muallif asari) elektron shaklda internet saytida yoki korpus tarkibida mavjud. Mualliflik huquqi asosida bu

asarlar tarmoqda turgani uchun ularni korpusga xom ashyo sifatida olishga monelik yo‘q. Milliy korpusi mavjud bo‘lmagan tillarda korpus yaratishda esa bu borada biroz muammoga duch kelish tabiiy hol. O‘zbek tili milliy korpusi bo‘lmasa ham, Ziyonet tarmog‘ida mumtoz hamda zamonaviy shoir va yozuvchilarimiz asarlarining anchasi elektron shaklda joylashtirilgan. Shunga asosan, mualliflik korpusi tuzishda ikki manbaga asoslanish mumkin:

1. Har bir muallifning nashr etilgan mukammal asarlari to‘plami.
2. Internet tarmog‘idagi elektron fayllar<sup>41</sup>.

Birinchi manbani elektron shaklga aylantirish (skanerlash, matni sun‘iy intellekt tushunadigan formatga keltirish) orqali material sifatida ishlatsak, ikkinchi manbadan nisbatan tayyor holda foydalanishimiz mumkin. Ikkala holda ham matnning elektron shakli olingach, uni texnik qayta ishlash – tokenizatsiya, lemmatizatsiya, sintaktik razmetkalash ehtiyoji tug‘iladi. Texnik ishlov berishdan oldin matn korpus uchun tayyorlanadi, chunki unda nolingvistik birlik ham uchraydi. Korpus matnining asosiy belgisi unda nolingvistik birlikning (jadval, rasm, grafik chizma) bo‘lmasligidir. Shundan so‘nggina razmetkalash bosqichiga o‘tish mumkin. Razmetkalash avtomatik va yarimavtomatik rejimda bajariladi. Muallif qo‘llagan neologizm, boshqa alifbodan yozilgan so‘zshakl lemmatizatsiyasiga alohida e‘tibor qaratiladi. Korpus tayyor holga kelgach, tabiiy ravishda muallif asarlari chastotali lug‘ati tayyor bo‘ladi. Chunki lemmatizatsiya jarayonida so‘zshakl hamda leksema (lemma) miqdori aniqlanadi. Masalan, Chexov asarlari korpusi 36 153 lemma yoki leksemani qamrab oladi. Ushbu lemmalar 1 381 000 qo‘llanish holati (120 000 so‘zshaklda)ni tashkil etgan. So‘z qo‘llash holatiga qarab, gapning o‘rtacha uzunligi (nechta so‘zdan iboratligi) ham aniqlanadi. Leksema qo‘llanish chastotasi asar yozilish yili, janri, gap uzunligi asosida ham hisoblanishi mumkin. Bu esa foydalanuvchiga hozirgi adabiy til va muallif davri adabiy tili leksikasi chastotasini qiyoslash va xulosa chiqarish imkonini beradi. Bunday qiyosiy tahlil milliy korpus asosida bajarilishi ham mumkin. Demak, bunday korpus tuzishdan yana bir maqsad muallif asarlarining turli lug‘atini yaratish. Shu bilan birga, tarix nuqtayi nazardan katta davr ichidagi tilning tarixiy-madaniy rivojlanish va o‘zgarishini ham o‘rganish mumkin.

O‘zbek tilining milliy korpusini yaratish uchun, avvalo, kerakli materiallar to‘planadi. Korpusni shakllantirishda o‘zbek tilida yaratilgan veb-saytlar, shuningdek, kutubxonalardan olingan elektron kitoblar va maqolalar asosiy manba sifatida xizmat qiladi.

Korpus ma‘lumotlari O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq litsenziya asosida tarqatiladi. Ularda materialning qaysi manbadan olinganligi qat‘iy ko‘rsatiladi.

O‘zbek tilining milliy korpusi o‘zbek tilidagi matnlarning elektron shakldagi axborot-ma‘lumot tizimi hisoblanadi. O‘zbek tilining milliy korpusi saytga (masalan, <http://uzbekcorpora.uz/>) joylashtiriladi. Korpus o‘zbek tili bilan bog‘liq masalalar bilan qiziquvchi va undan foydalanuvchi – tilshunoslar, tarjimon va tarjimashunoslar, til o‘rganuvchilar, o‘quvchilar va talabalar, o‘zbek tilini o‘rganayotgan chet elliklar uchun mo‘ljallanadi.

O‘zbek tilining milliy korpusi zamonaviy korpuslarga qo‘ladigan barcha talablarga javob berishi va quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak:

- 1) so‘z hajmi;
- 2) o‘zbek tilining barcha foydalanish sohalariga yorliqishli matnlar janrining xilma-xilligi:
  - badiiy uslubdagi matnlar (XX asr boshidan to bugungi kunga qadaryaratilgan adabiy matnlar);
  - publitsistik uslubdagi matnlar (keying o‘n yillikda internetdajoylashtirilgan maqolalar);
  - rasmiy uslubdagi matnlar (2010-2014 yillarda e‘lon qilingan farmoyishlar, qarorlar, buyruqlar va h.k rasmiy hujjatlar);

---

<sup>41</sup> Mengliyev B va boshqalar. O‘zbek tilining milliy korpusi//Ma‘rifat, - Toshkent, 2018.

– ilmiy uslubdagi matnlar (turli sohalarda yaratilgan ilmiy tadqiqotlar, monografiyalar va h.k.);

– soʻzlashuv tilidagi matnlar (2010 yildan beri yaratilgan mashhur blog-postlar);

3) asosiy ijtimoiy parametrlar (yoshi, maʼlumoti darajasi, tilni bilish darajasi, kasbi, nutq madaniyati turlari) boʻyicha turfa mualliflar tarkibi;

4) turli davrlarga yorliqishli matnlarning mavjudligi.

Ost korpuslarni annotatsiyalashda sintaktik va leksik yorliqsetlar ishlab chiqariladi. Sintaktik yorliqsetda sodda gap C, bosh gap C, ergash gap CBAP, CAPK, ega HII, WXIII, aniqlovchi AΔЖII, hol III, WXII, AΔBII WXAJBII va nolga teng, bosh gap boʻlagi X kabi shartli belgilar asosida qolipga solinadi.

Oʻzbek tili agglutinativ tillar guruhiga xosligi uchun soʻz shakllari soʻz oʻzagiga ketma-ketlikda birikkan morfemalar qatoridan tashkil topadi. Morfemalar oʻz navbatida turli grammatik xususiyatlar (shaxs, son, kelishik va h.k.) bilan xarakterlanadi va oʻzida muhim kontekst informatsiyasini tashiydi, buni hisobga olmagan leksik tahlil toʻliq boʻlmaydi. Shunga koʻra, leksik yorliqsetda dastlab grammatik xususiyatlarni ishlab chiqish kerak boʻladi. Leksik yorliqsetdagi grammatik xususiyatlarni quyidagicha belgilash maqsadga muvofiq: son H 2, egalik C 10, shaxs II 8, kelishik C 7, boʻlishsizlik Γ 2, zamon T 3, tuslash M 4, mayl B 5.

Korpusni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

– zamonaviy;

– diaxronik.

Zamonaviy matnlar korpusiga yaratilish davri muayyan yillarni oʻz ichiga oluvchi matnlar kiritiladi. Korpus ushbu qismining asosiy hajmi soʻz ishlatmalarini oʻz ichiga oladi. Diaxronik qism maʼlum miqdordagi soʻzlik hajmiga ega boʻlib, u muayyan asrga yorliqishli matnlarni oʻz ichiga oladi. Oʻzbek tilining milliy korpusi hajmi chastotali til koʻrinishlarining variativligi va oʻzgaruvchanligini oʻrganish, shuningdek, quyidagi yoʻnalishlar boʻyicha ishonchli natijalarni qoʻlga kiritish imkonini yaratishi lozim:

1) soʻz turkumlarining morfologik variantlari va ularning evolyutsiyasini oʻrganish;

2) soʻz yasash variantlari va ular bilan bogʻliq soʻz yasash modellari hamda vositalari samaradorligi muammolarini tadqiq etish;

3) boshqarish, moslashtirish, birlashtirish variantlarining oʻzgarishini tadqiq etish;

4) akseptologik variantlar va oʻzbek tilining aksept tizimidagi oʻzgarishlarni tadqiq qilish;

5) leksik variativlik, xususan, sinonimik qatorlar va tematik guruhlar, tarkib, shuningdek, ulardagi semantik nisbatlarning oʻzgarishini oʻrganish.

Oʻzbek tilining milliy korpusiga quyidagi korpusostilar ham kiritiladi:

– chuqur taqrizlangan korpus – undagi har bir gap uchun toʻliq morfologik va sintaktik qurilma yaratiladi;

– matnlarning parallel oʻzbekcha-inglizcha korpusi unda muayyan oʻzbekcha yoki inglizcha soʻz yoxud soʻz birikmasining barcha tarjimalarini topish mumkin;

– dialektal matnlar korpusi – bunda Oʻzbekistonning turli mintaqalariga yorliqishli dialektal nutqi ularning grammatik spetsifikatsiyasini saqlangan holdagi yozuvlari kiritiladi, dialektal morfologiya hisobga olingan maxsus qidiruv eʼtiborga olinadi;

– poetik matnlar korpusi – unda nafaqat leksik va grammatik belgilar, balki sheʼr uchun oʻziga xos boʻlgan belgilar (epigrammlar va sheʼrlarning muayyan oʻlchamlari, qofiyalanishlari va boshqalar) boʻyicha ham qidirish imkoniyati mavjud boʻladi;

– oʻzbek tilini oʻrganish korpusi annotatsiyasi oʻzbek tilini oʻzgarishning maktab dasturiga yoʻnaltirilgan, har qanday omonimiyadan xoli korpusi;

– ogʻzaki nutq korpusi ommaviy va xususiy ogʻzaki nutqning magnitafon yozuvlari va kinofilmlari transkripsiyalari rasshivrovkasini oʻz ichiga oladi.

Mavjud milliy korpuslarni kuzatish asosida korpusning tuzilishi va tarkibini oʻrganar ekanmiz, korpus interfeysi, qidiruv tizimi va matnlar bazasi uning eng asosiy tarkibiy qismi,

degan xulosaga kelamiz. Rus tili milliy korpusi joylashgan [www.ruscorpora.ru](http://www.ruscorpora.ru) saytining birinchi sahifasida korpus va uning tuzuvchilari haqida asosiy ma'lumot, o'ng tomondagi menyuda istalgan sahifaga o'tish imkoniyati mavjud. Bu korpus menyusi to'rt qismdan iborat. Bosh sahifa, saytning qidiruv resursi, matn haqida unga birlashtirilgan qo'shimcha ma'lumot ilovasi, korpus birliklariga izoh yozish prinsiplari, oxirgi blok korpus tuzuvchilari jamoasi, foydalanilgan dastur, matnlarning mualliflik huquqi haqida to'liq ma'lumotlar bazasidan iborat.

Albatta, korpusning tuzilishi va tarkibi tilning xususiyatlari, ijtimoiy talab va boshqa jihatlarga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin. Korpuslar uchun yagona va o'zgarmas andoza belgilanmaydi. Masalan, tuzilajak o'zbek tili korpuslari jamiyatimiz talablaridan kelib chiqqan holda o'ziga xos bo'lishi mumkin. Korpusdagi milliy so'zi nafaqat tilning, balki korpus tuzilishi va tarkibining ham o'ziga xosligini anglatadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Борисова Е.Г. Слово в тексте. Словарь коллокаций (устойчивых словосочетаний) русского языка с англо-русским словарем ключевых слов. – Москва, 1995.
2. Гарабик Р., Захаров В.П. Параллельный русско-словацкий корпус // Труды международной конференции «Корпусная лингвистика – 2006». – СПб., 2006.
3. Гвишиани Н.Б. Практикум по корпусной лингвистике: Учеб. пособие по английскому языку. – М.: Высшая школа, 2008.
4. Xamrayeva Sh. Til korpusining lingvistik va boshqa sohalardagiahamiyati // O'zMU xabarlari, – T., 2017.
5. Xamrayeva Sh. Til korpusining leksikografik ahamiyati // O'zMU, -Toshkent, 2017.
6. Mengliyev B va boshqalar. O'zbek tilining milliy korpusi// Ma'rifat, -Toshkent, 2018.

### ТИЛШУНОСЛИК ВА АДАБИЁТШУНОСЛИКДА БИОГРАФИК ЁНДАШУВНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ

DOI: 10.53885/edinres.2021.15.39.024

*Ихтиёр Нигматуллаевич Камолов*

БухДУ илмий изланувчиси,

e-mail: [kamalovixtiyor@gmail.com](mailto:kamalovixtiyor@gmail.com)

**Аннотация.** *Адабиётшуносликда бадиий асарни тадқиқ этишида бир қатор таҳлил методлари қўлланилади. Герменевтик, психологик, социал, лингвистик, аналитик, психоаналитик, тарихий-қиёсий метод шулар жумласига киради. Биографик метод ҳам шу қаторда адабиётшуносликда кенг қўлланиладиган таҳлил усулидир. Ушбу методнинг ўзига хос жиҳати шундаки, бунда асар моҳиятини, қаҳрамонлар характерини таҳлил қилишида муаллиф ва унинг ҳаёт йўли бирламчи манбалардан бири сифатида инобатга олинади.*

**Калит сўзлар:** *биографик ёндашув, муаллиф ижодини баҳолаш, социал метод, лингвистик метод, аналитик метод, психоаналитик метод, тарихий-қиёсий метод*

Умумий адабиётшуносликда қабул қилинган таърифга эътибор берадиган бўлсак, “Биографик методда бадиий асар орқали муаллифнинг ижодини баҳолаш ва таҳлил қилишда унинг биографиясига, ҳаёт йўлига асосий мезон сифатида қаралади [1, 37].

Биографик метод ижодкорнинг ҳаётини у ҳақдаги мемуар-хотиралар, таржимаи ҳол, кундаликлар, шахсий битиклар, мактублар, турли хилдаги архив материаллари, замондошлар фикри, суриштирувлар, интервьюлар, танқидий мақолалар ва бошқа илмий изланишлар орқали ўрганиш заруриятини тақозо

этади. Чунки ижодкорнинг шахсияти, дунёкараши ва ҳаётий тажрибалари, албатта, у яратган образлар тақдирига, характерига таъсир кўрсатади. Демак: “Биографик метод адабиётни шундай ўрганиш усулики, бунда ёзувчи биографияси ва шахсиятига бадиий ижодининг асосий белгилловчи моменти тарзида қаралади” [2, 54]. Сабаби ёзувчининг ҳаёт йўли, шахсияти, характери, бошидан кечирганлари ва шахсий фазилатлари, албатта, унинг асарларига, у яратган бадиий образларга кўчади. Шу боис муаллифнинг таржимаи ҳолини билиш асарни аниқроқ тушунишга катта ёрдам беради. Аниқроқ айтганда, у бадиий ижод қилиш йўли эмас, балки яратилган бадиий асарни таҳлил қилиш методидир. Шунинг учун у орқали бадиий асар яратган муаллифларнинг ҳаёти, биографиясига оид муҳим маълумотлар махсус ҳикоялар кўринишида эмас, балки ўша муаллифга алоқадор асарлардаги айрим сўз, жумла, факт орқали тадқиқотчилар томонидан аниқланиб, таништирилади. Жумладан, ўзбек романчилигининг асосчиси А.Қодирий таржимаи ҳолини ўрганадиган бўлсак, у ўсмирлигида хўжайини Расулмуҳаммад кўлида ўқиб, ишлаб, кейинчалик унинг қизига уйланганлигини билиб олишимиз мумкин. Айнан шундай қисмат чизиғи “Меҳробдан чаён” романидаги Анвар тақдирда ҳам учратиш мумкин. Демак, биографик ёндашув асосидаги таҳлилларга кўра шуни пайқаш мумкинки, муаллиф баъзан ўзининг бошидан ўтказганларини ўзи яратган қаҳрамонлари орқали китобхонга етказмоқчи бўлади.

Биографик ёндашувда ёзувчининг ҳаёт йўлини ҳамда у томонидан яратилган бадиий образлар бошидан кечирганларини ўзаро жуфтликда, бирини иккинчисидан ажратмаган ҳолда, мантикий боғлиқликда, ижодкор ва ижод маҳсулини синтезлаб текширади. Бироқ биографик методни фақатгина муаллиф таржимаи ҳолини ўрганишдан иборат, деб ҳисоблаш нотўғридир. Чунки бу таржимаи ҳол ва асар ғояси ўртасида мазмуний алоқадорлик бўлиши шарт. Қолаверса, бунда ёзувчи бадиий асарга фақат ўзининг эмас, балки кўзи билан кўрган ёки эшитган бошқа кишиларнинг тақдир, шахсий сифатларини ҳам киритиши мумкин. Жумладан, Қодирий қаламидан Ўзбекоким, Юсуфбек ҳожи, Офтоб оғим сингари характерларнинг яралишида ижодкорнинг яқин инсонларининг сифатлари муҳим рол ўйнаганлиги адабиётшунослигимизда маълум.

Таниқли рус адабиётшуноси ва ёзувчиси Юрий Борев бадиий асарларни биографик метод асосида ўрганиш масаласига “бадиий асарни ёзувчи шахси орқали ўқиш услуги”, – деб таъриф беради [3, 56]. Методга кейинчалик “Ёзувчининг биографиси ва шахсияти асарни ўрганишда асосий таҳлил моменти” [4, 17], деб таъриф берилди ва адабиётшунослиқда кенг қўллана бошланди. Л.Толстой биографиясини, унинг умр йўлида учраган энг кичик воқеаларгача ўрганиш орқали унинг йирик асарларидаги бош ғояни, кичик ҳикояларидаги фалсафани аниқроқ англашга имкон яратилган. Буюк ёзувчиси яратган оддий рус крепостнойининг хокисорлигию, оқсуяк зодагон образларидаги кибра ҳам муаллиф характерининг алоқасини сезиш мумкин.

Ўзбек мумтоз адабиётида яратилган хотирнома, эсдалик, йўл хотиралари, саёҳатнома жанри ва шу мавзудаги асарларда ҳам биографик ёндашувни кўришимиз мумкин. Мемуар-хотирномаларда муаллиф ўзи кўрган, мулоқотда бўлган кишилар, яъни тарихий шахслар образини яратар экан, уларнинг характери, ташқи кўриниши, портретини чизиш орқали шу қаҳрамонларга нисбатан муаллифнинг муносабатини – симпатия ёки антипатиясини ҳам ифода этади. Жумладан, Бобур эсдаликларида руҳий ҳолатни тадқиқ этган адабиётшунос Ж.Ражабова таъкидлаганидек: “...ёзувчининг зиммасида бирор вазифа бўлса, бу шундан иборатки, у характер яратиб, одамларни ўйлашга ва ҳис қилишга мажбур қилишидир” [5, 95]. Қолаверса, Бобурнинг портрет яратиш ҳамда унда руҳий кечинмани ифодалаш маҳорати отаси Умаршайх Мирзо, Самарқанд ҳокими Султон Аҳмад мирзо, Бойсунгур мирзо ҳамда Султон Ҳусайн мирзоларнинг “шакл” ва “шамойиллари”ни яратишида яққол сезилиб туради [6, 62-63].

XX аср ўзбек адабиётшунослигида ҳам ёзувчи ва олимларнинг адабий портретларига бағишланган рисоалар, биографик ўрганиш муаммоларига қаратилган тадқиқотлар яратилган. Жумладан, Иззат Султоннинг “Навой қалб дафтари” тўплами,



Н.Каримовнинг Чўлпон, У. Носир ва Ойбекка бағишланган ишлари ва “XX аср адабиёти манзаралари” кенг қамровли тадқиқоти, О.Шарафиддиновнинг Абдулла Қаҳҳор ижоди ўрганилган тадқиқотларида биографик метод йўсини етакчилик қилади. Қолаверса, ўзбек адабиётшунослиги тарихида А.Қаҳҳорнинг “Ўтмишдан эртақлар”, Ойбекнинг “Болалик”, Ғ.Ғуломнинг “Шум бола”, Саид Аҳмаднинг қамоқхона ҳаётидан олиб ёзилган ҳикоялари ва бошқа кўплаб асарларни биографик ёндашув асосида ўрганиш тажрибаси ҳам мавжуд [7, 175]. Академик Н.Каримов Миртемирнинг “Сурат” достонини биографик ёндашувга таяниб таҳлил этган [8, 20]. Бу даврдаги бадиий асарлардаги образлар, айниқса, тарихий шахсларни таҳлил қилишда уларнинг ҳаёт йўлини чуқур ўрганиш алоҳида эътибор талаб қилади. Чунки ҳар қандай шахс – тарихий жараёнларнинг натижасидир. Қолаверса, муаллиф ва у яратган образнинг ҳаёти ҳам чамбарчас боғлиқдир. Зеро, Қодирий яратган образларда унинг сифатлари, тарихий даврда у яшаган муҳит, романлари сюжетида эса унинг бошидан кечирганларига уйғун воқеалар акс эттирилган. Бунинг исботи сифатида Ҳабибулла Қодирийнинг: “Артист бўлганимда эди, Отабек ролини ўзим ўйнардим... Негаки, Отабек характерини мендай яхши билгувчи йўқ”, [9, 113] фикрларини келтиришимиз мумкин. Чунки у Отабек образига отаси ўзининг қайси жиҳатлари, сифатлари ва бошидан кечирганларини сингдирганидан яхшигина ҳабардор эди.

Адабиётшунос А.Расулов эса тарихий-биографик ёндашув жараёнида “биография”, “таржимаи ҳол”, “ҳасби ҳол”, “ҳолот-маноқиб” каби илмий атамаларнинг қўлланилиш доираси ва тарихини ҳамда уларнинг асл мазмунини изоҳлаб ўтади. У, биринчи навбатда, бадиий асарни ўрганишда биографик маълумотларнинг ёрдамчи моҳият касб этиш-этмаслигини аниқлаш; қолаверса, биографик асарлар таҳлилидагина ёзувчи таржимаи ҳолига мурожаат қилиш каби икки турли ёндашувни фарқлаш лозимлигини таъкидлади. Булардан биринчиси самарали таҳлил йўсини бўлиб, у жаҳон адабиётшунослигида тарихий-биографик метод сифатида шаклланган [10, 18]

Б.Каримнинг асарларида биографик методни оддий таржимаи ҳол деб тушунишнинг хато эканлигини алоҳида таъкидлаб: “Ушбу метод ижодкор таржимаи ҳолининг оддий хронологик тавсиф ва таснифи эмас; ёзувчининг туғилган йили, яшаган жойи ёки муҳити, асарларининг ёзилган йили ва ниҳоят, ижодкорнинг вафот этган йили – буларнинг бари биографик маълумотлар ҳисобланади” [7, 166] дея муҳим таърифни келтирган.

Биографик метод кўпроқ тарихий мавзудаги асарлар, биографиялар, мемуарларни тадқиқ этишда яхши самара беради. Тарихийлик, аниқлик, ҳужжатлилик унга хос принципаал талаблардан ҳисобланади. Мана шундан келиб чиқиб, Б.Йўлдошев тадқиқотида у “тарихий-биографик метод” номи билан ўрганилгани кузатилади [11, 17]. Бунда муаллифда олдиндан бир неча вариантлар ичида нега айнан маълум шахс тарихини яратишга аниқ мақсад ва ваз ж бўлади. Ижодкорлар тарихий шахсларни бадиий асарда жонлантирар эканлар, уларда шахсий жиҳатларини, ўз кечинмаларини, уларда кўришни истаган сифатларни акс эттиришга уринишади. “Ўзбекистон Қаҳрамони” Абдулла Орипов ушбу мавзуларда яратган “Алишер Навоий”, “Отелло”, “Аллома” сингари шеърлардаги тарихий воқеликнинг бадиий ифодаси ҳақида қуйидаги фикрларни келтиради: “Бу шеърлар, албатта, аниқ тарихий саналар билан боғлиқ. Лекин уларнинг заминиде менинг ҳаётга муносабатим бор. Бу туйғулар кишининг юрагида доимо яшаб, муайян бир туртки сабабли шеърга ўтган, холос” [12, 124-125]. Ижодкор фаолияти ва мазкур тарихий шахслар биографияси орасида муайян боғлиқликлар бўлиши мумкин. Шу жиҳатдан биографик методнинг қуйидаги афзалликларга эга:

**1. Мақсадни тўғри англаш.** Яъни бунда муаллифнинг асар ёзишдан асосий мақсади нима эканлигини, ижодга нима туртки бўлганини, асар номи, ғояси ва жанр танловига нима сабаб бўлганини аниқроқ англашга ёрдам беради. А.Расулов айтганидек: “Бадиий асар – ёзувчининг ботиний ҳолати кўзгуси. Бадиий асарни англаш, талқин қилиш, баҳолашда ёзувчи таржимаи ҳоли беқиёс аҳамиятга эга. Ҳаққоний ёзилган таржимаи ҳол



бадий матн руҳини, моҳиятини очишда бебаҳо манбадир. Тийрак талқинчи асар орқали ёзувчи ҳолати ҳақида кўп нарсаларни сўзлаб беради” [10, 19].

**2. Муаллиф** ↔ **ҳрамон**. Бадий асарда қайси давр ва минтақада содир бўлган воқеаларни тасвирланаётганлигидан қатъи назар унда муаллиф ҳам ўз нуқтаи назари билан иштирок этади. Аниқроғи, муаллифнинг ўзи ҳам қайсидир маънода асардаги муҳим образлардан бири ҳисобланишини исботлайди.

**3. Тарихийлик**. Биографик метод орқали бадий асарни ўрганиш натижалари шуни кўрсатдики, муаллиф тарихий мавзуга қанчалик бадий тўқима унсурларини қўллагани, бунда асл ҳақиқатни бутунлай ўзгартира олмайди. Сабаби муаллифнинг биографияси ҳам асар ғояси билан боғлиқ бўлади.

**4. Ҳақиқат**. Биографик методнинг энг муҳим жиҳатларидан бири – унда муаллифнинг “ёлғон сўзломаслиги”дир. Бунга сабаб қилиб шуни таъкидлаш мумкинки, ёзувчи асардаги ҳиссиётни китобхондан олдин ҳис қилади, сюжет чизиқлари ва воқеалар ривожини ҳаммадан олдин билади. Шу сабабдан ҳам у на ўзини, на ўқувчисини алдай олади. Чунки “Адабиётшунослик методларидан ҳеч бири аслида универсал эмас. Бироқ улар орасида биографик метод мазмун-моҳиятида инсон шахсияти турганлиги билан кишилик тафаккури орқали шакллантирилган барча фанларга оид билимларга, мавжуд оқимлар ва қарашларга таяниб иш кўрадики, шу жиҳатига кўра, у маълум маънода универсаллик касб этади ва ўзига хос яхлит тизим шаклида намоён бўлади”[13, 12]. Биз ҳам шу фикрни маъқуллаймиз.

#### **Адабиётлар:**

1. Тимофеев Л.И., Тураев С.В. Словарь литературоведческих терминов. – М: Просвещение, 1974. – Ст. 137.
2. Литературный энциклопедический словарь. – М., 1987. Ст.154.
3. Борев Ю.Б. Искусство интерпретации и оценки: Опыт прочтения «Медного всадника». –М., 1981. –С. 156.
4. Жеребило Т.В. Методы исследования в филологии: Словарь-справочник. – Назрань: Пилигрим», 2013. – С.41.
5. Жон Голсуорси. Адабиётда характер яратиш. Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. – Т.: Маънавият. 2010. – Б. 95.
6. Ражабова Ж. “Бобурнома”да қаҳрамон портрети ва руҳий ҳолат ифодаси. Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.: Фан. №2, 2010. – Б. 128
7. Карим Баҳодир. Биографик метод. / Руҳият алифбоси. – Т., 2016. – Б.175.
8. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. –Т.: 2008. – Б.125.
9. Қодирий Ҳ. Отам ҳақида. – Т., 1983. – Б. 113
10. Расулов А.Р. Ҳозирги ўзбек танқидчилигида таҳлил ва талқин муаммоси: филол. фанлари доктори ... дисс. автореф. – Т., 2002. – Б.68.
11. Йўлдошев Б. Ўзбек адабиётшунослиги ва адабий танқидчилигида тарихий-биографик метод / Ўзбек адабиётшунослиги ва адабий танқидчилигида услуб ва маҳорат муаммолари (60-70-йиллар): филол. фан. доктори... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – Б. 42.
12. Орипов А. Эҳтиёж фарзанди. – Т., 1988. – Б. 168
13. Адизова О. И. Адабиётшунос Азиз Қаюмов тадқиқотларида биографик методнинг ўрни: филол. фан. номзоди... дисс. автореферати. – Қарши, 2018.

#### **AYRIM TOPONIMLARNING TARKIBI VA SEMANTIKASI HAQIDA**

**DOI: 10.53885/edinres.2021.92.46.025**

*Bayramali Kilichev*

BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasi  
dotsenti.

*Intizora Axmatova*

BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasi

**Annotatsiya.** *Toponimshunoslik tilshunoslik fanining onomastika sohasida alohida bo'limdir. Uning tadqiq manbaya toponim bo'lib, u turli yo'nalishda joy nomlarini o'rganadi. Toponim xalqning tarixi, shakllanishi, an'ana va qadriyatlarini, urf-odatlarini, turmush-tarzi, e'tiqodiy dunyoqarashini namoyon etadi. Buxoro viloyati Jondor tumani hududida qo'llanadigan ayrim toponimlar misolida o'zbek toponimiyasining lingvogeografik, etnolingvistik, lingvokulturologik, xususiyatlarni ko'rsatish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.*

**Kalit so'zlar:** *toponim, semantika, onomastika, xalq tarixi*

O'zbek toponimshunosligining nazariy asoslarini yaratishda T.Nafasovning Qashqadaryo viloyati toponimlari, T.Rahmatovning Samarqand toponimi etimologiyasi, L.Karimovning o'zbek tilida toponimlarning o'rganilishi, S.Nayimovning Buxoro viloyati oykonimlarining nazariy masalalarga bag'ishlangan, shuningdek, N.Oxunov, N.Uluqovlarning tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Toponimika onomastikaning bir sohasi sifatida uning tarkibiga kiruvchi yo'nalishlardan ayrim o'ziga xosliklarga egaligi bilan ajralib turadi. Avvalo, toponimika qamrovida geografik birliklar o'rganiladi, qolaversa, ushbu birliklar o'ziga xos yasaliş xususiyatlariga va semantikasiga ega. Toponimlar ijtimoiy talab, kundalik ehtiyoj natijasi sifatida yuzaga keladi. Bunda biror geografik obyektga nom berish ehtiyoji, obyektning tarixi, aholining etnik qatlami, kasb-kori, joyning relyefi, biror yirik obyektga yaqinligi kabi jihatlaridan kelib chiqib nom beriladi. Shu bilan birga, kelishish yoki tasodifiylik asosida paydo bo'lgan nom qisqa yoki uzoq muddat obyektning nomlash (shu turdagi boshqa obyektidan farqlash)ga xizmat qiladi [7].

Biz ushbu axborotda Buxoro viloyati Jondor tumani hududida mavjud ayrim toponimlarni tahlilga tortamiz.

Denov. Denov mahalla fuqarolar yig'ini hamda aholi punkti nomi O'zbekistonning deyarli barcha joylarida uchraydigan nom. Ushbu nom negizidagi "deh" so'zi asli qadimiy forsiy "dah" – o'zka, viloyat, yurt so'ziga borib taqaladi va toponimlar tarkibida *deh, de, di, deg, dek, dev, dey* shakllarida uchraydi. *De, Deh, Denav, Dehcha, Dihiosiy, Debal, Dekmaron, Deybolo, Decha* va boshqalar [1, B.25]. Demak, deh – qishloq va nav – yangi, ya'ni yangi qishloq degan ma'noni anglatadi. Boshqa qishloqlarga nisbatan yangi (yaqinda, keying davrda) qurilgan qishloq ma'nosini beradi. Denavning yangiligi unga asos solingan davrda, unga nom qo'yilayotgan paytga tegishlidir. Hozirda esa u tarixiy toponimlar sirasiga kiradi [2]. Yonidagi shaharcha, qishloqdan keyin, so'nggi davrda qurilgani uchun shu nom bilan atalgan [5;90].

Aytish lozimki, kundalik turmushning barcha jabhalarida bo'lganidek, nom berish ham insonlarning ma'lum ehtiyojlari natijasi o'laroq maydonga keladi.

Jo'yzar. Xumdonak mahalla fuqarolari yig'ini hududida joylashgan Jo'yzar toponimi ikki qismdan: jo'y+zardan iboratdir. Jo'y so'zi "ariq", "anhor" so'zlarini ifodalasa, zar so'zi esa aslida "zard", ya'ni "sariq" degan ma'noni anglatadi. Demak, Jo'yzar(d) – sariq rangli suv arig'i, loyqa suvli ariq degan ma'noni ifodalaydi.

T.Nafasov ham bu toponim tarkibidagi birinchi komponentga to'xtalib – jo'y so'zi "ariq", "kanal", "soy", "kichik daryo", "sug'orish kanali", "irmoq" kabi ma'nolarni bildirishini qayd etgan [5;115].

Nom biror geografik obyektning manzilni shunchaki atash vositasi bo'lib qolmay, balki ularni bir-biridan farqlash vazifasini ham bajaradi. Toponimik birliklarda ma'lum ma'nodagi barqarorlik mavjud. Bu haqda fikr bildirgan tadqiqotchilar toponimlarda turli o'zgarish kam kuzatilishi, bu o'zgarishlarning uzoq davrlar davom etishi, o'zgarish ro'y berganda ham asl, avvalgi nom xalq tilida uzoq muddat saqlanishi haqida ma'lumot beradilar.

Mang'it. Mang'it toponimi tumanning Qarovul mahalla fuqarolari yig'ini hududida joylashgan. Bu toponim o'zbek xalqi tarkibidagi eng qadimiy, yirik qabila, urug'dan birining nomi, ya'ni etnonim hisoblanadi. Shu etnonim asosida toponimizatsiyasi orqali Mang'it

toponimi yuzaga kelgan [8]. T.Nafasov mang'itning oqmang'it, qoramang'it, cholmang'it, boyg'undamang'it, to'qmang'it, o'nikki, chalamang'it kabi bo'linmalari, temirxo'ja, esaboy, esat, guvalak, ko'sa, toz, qorabayir, baqirchi, chovqay, kulatamg'ali, mang'itqozoq, galabotir, beshkal, chobakchak, uz, uvolay kabi urug' tarmoqlari bo'lganligi haqida ma'lumot bergan [5;160-162]. N.Begaliyev ham mang'it haqida quyidagicha ma'lumot bergan: mang'it – turkiy, mo'g'ul, tungus-manjur tillariga, ya'ni ularning o'tmishdagi oltoy bobotiliga tegishli so'z. Mo'g'ulcha shakli – “myangad”, ya'ni minglar demakdir [3; 63-65].

Tadqiqotchi N.Adizovanning ishida ham mang'it haqida ma'lumot berib, ushbu etnonim O'zbekistonning qariyb barcha tumanlarida uchrashini, mang'it atamasi qishloq, ovul, guzar, shahar, tumanning atoqli nomi, ya'ni toponim sifatida qo'llanishini. Shuningdek, G'ijduvon tumanidagi qishloq nomi shu etnotoponim bilan atalishini ta'kidlagan [1;43-44].

Aleli. Mazkur nom tumandagi mahalla fuqarolar yig'ini hamda aholi punktini atash uchun qo'llanadi. Ushbu toponim tarixan etnonim asosida shakllangan. Z.Do'simov va X.Egamovlarning ma'lumotiga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi Amudaryo tumanida Alili qishlog'i bor. U turkmanlarning ali eli urug'i bilan aloqador. Ali eli urug'i vakillari Xiva xonining marhamati bilan Qilichniyozboy qal'asi atrofidan yer olib, shu yerda yashay boshlaganlar. Ularning qishlog'i Alili nomi bilan yuritilgan, qishloqqa boradigan ariq ham shu nom bilan atalgan. Hazorasp tumanidagi Aliulik toponimi ham ali elining shevada fonetik o'zgarishga uchragan formasidir [4;12-13].

Demak, Aleli aholi punkti ali eli etnonimi vositasida shakllangan. Shuningdek, mazkur mahalla fuqarolar yig'ini hududida Alelicha toponimi ham mavjud. Toponim Aleli va –cha kichraytirsh qo'shimchasi vositasida yuzaga kelgan. Ma'nosi esa kichik Aleli qishlog'i degan ma'noni anglatadi.

Arabxona. Ushbu toponim tumandagi Oromgoh mahalla fuqarolari yig'ini hududida joylashgan. Bu toponim nafaqat Buxoro viloyati, balki O'zbekistonning boshqa hududlarida ham uchraydi. Bu etnonim Arab, Arablar, Arabon, Arabho (Arabo), Yuqori(Quy) Arab(lar, xona), Katta (Kichik) Arab(lar, xona) kabi shakllarda qo'llanadi. Prof. T.Nafasov tadqiqotida arablar istiqomat qiladigan aholi punktlarida quyidagi tur arablar mavjudligini qayd etgan:

1) arab tilini bilmaydigan, qarluq lahjasida gaplashadigan arablar; 2) arab tilini biladigan, o'zbekcha so'zlashadigan, tojik tilini bilmaydigan arablar; 3) arab va tojik tilini bilmaydigan, o'zbekcha so'zlashadigan arablar; 4) arab tilini bilmaydigan, tojik va o'zbek tillarida so'zlashadigan arablar.

So'nggi ikki tur arablar yashaydigan aholi punktlari Arabxona deb ataladi. Etnik tarkib joylarning nomlanishiga asos bo'lgan.

Bo'ribog'i. Mazkur toponim tumandagi mahallalardan birini atash uchun qo'llanadi. Bu toponimni ikki xil sharhlash mumkin: 1) Bo'ri ismli kishi barpo etgan bog'; 2) bo'ri urg'i vakillari bunyod etgan bog'.

N.Oxunov o'zbek va qirg'izlarning kichik bir urug'i “bo'ri” deb atalgani haqida ma'lumot bergan [6, B.13].

Xulosa qilib aytish mumkinki, kundalik turmush, ijtimoiy hayotda mavjud tushunchalar kabi toponimlar ham uzoq shakllanish va taraqqiyot yo'lini bosib o'tadi. Davrlar o'tishi bilan nomlarda ham turli o'zgarishlar ro'y beradi. Bu o'zgarishlarga bir qancha sabablar asos bo'lishi mumkin. Lekin toponimika sohasi mutaxassislari, qolaversa, keng jamoatchilik oldida tarixiy nomlarni asrab-avaylash, ularni kelajak avlodlarga bekamu ko'st yetkazish vazifasi doimo dolzarb bo'lib qoladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Adizova N.B. Buxoro tumani toponimlari. Monografiya. –Toshkent, Navro'z, 2020. – B.25.
2. Аслонов А.С. Шофиркон тумани микротопонимиясининг лингвистик таҳлили: филол. фан. ном. ... дисс. –Т., 2005.
3. Бегалиев Н. Ўзбек этнонимлари тарихидан. Самарқанд, 2005. –Б. 63-65.

4. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1977. –Б. 12-13.
5. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. Қашқадарё вилоят қишлоқлари номининг тадқиқи. –Тошкент, 2009. –Б.90.
6. Охунов Н. Жой номлари таъбири. –Тошкент, Ўзбекистон, 1994. –Б.13.
7. Kilichev B.E., Safarova M.Z. Bukhara region's typical toponyms transformed by means the names of nations. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. Philadelphia, USA. 2021 02 94.
8. Kilichev B.E., Safarova M.Z. Toponyms Formed On The Basis Of Nation Names. International Journals of Sciences and High Technologies. Vol. 25 No. 1 February 2021, pp. 104-107.

## **O‘ZBEK ERTAKLARIDAGI ANTROPONIMLARINING LINGVOMADANIY ASOSLARI**

**DOI:10.53885/edinres.2021.29.92.026**

*Bayramali Kilichev*

BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti

*Sharofiddin Rahmatullayev*

BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasida  
o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** *O‘zbek onomastikasining asosiy birliklaridan sanalgan antroponimlarni etnolingvistik va etnomadaniy jihatdan motivlashish asoslarini xalq ertaklari materiallari misolida aniqlash, leksik-semantik tahlili va tadqiqini amalga oshirish maqsad qilingan. Dunyo tilshunosligining onomastika, antroponimika sohasi rivoji uchun juda zarur va dolzarb sanalgan bu masalalar yechimi lingvomadaniy birliklarning leksik-semantik xususiyatlarini, epik asarlar leksikasi tilning etnomadaniyat bilan bog‘liqligini asoslashdan iborat.*

**Kalit so‘zlar:** *ertak, antroponim, lingvomadaniyat*

O‘zbek ertaklari tilida antroponimlar semantikasiga oid tadqiqot ishi bugungi kunga qadar yaratilmagan. Ammo xalq dostonlari tili va badiiyati yuzasidan o‘zbek tilshunosligida bir qator dissertatsion tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, ularda dostonlarning lug‘aviy, leksik-semantik, funksional-uslubiy xususiyatlari, qiyosiy-tarixiy tahlili, poetik ko‘chim va barqaror uslubiy formula kabilar maxsus o‘rganilgan.

Har bir elat vakillari millat sifatida shakllanishi uchun juda uzoq va mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tishi barchaga ma‘lum. Ana shunday uzoq tarixga ega bo‘lgan millat o‘zining urf-odatlarini va milliy an‘analariga egaligi uning boshqa millat vakillaridan farqlovchi muhim belgisidir. Shu o‘rinda aytish joizki, har bir millatning ravnaq topishida xalq madaniyati, tili, adabiyoti, tarixi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma‘lumki, til – ijtimoiy hodisa. U aloqa vositasi. Tilsiz hech bir jamiyat hozirgidek rivojlana olmas edi. Shu jihatdan til madaniyat bilan uzviy bog‘liqdir. Hozirda barcha xalqlarning, avvalo, o‘zaro muomala madaniyati, iqtisodiy-siyosiy, ilmiy-madaniy aloqalari, qolaversa, xalqaro ahamiyatdagi munosabatlari til va madaniyatining uyg‘un holda aks etishi barcha xalqlarga xos bo‘lgan xususiyatlardan biridir.

Ism inson hayotida muhim ahamiyatga ega. O‘zbek xalqida ismlarning o‘rni va mohiyati boshqa xalqlarda bo‘lgani kabi ancha chuqur ildizga egadir. Qadim-qadimdan ota-bobolarimiz farzandlariga ism qo‘yishar ekan, kelajakda uning baxt-u kamoli mana shu ismiga ham bog‘liq, degan qarashlarga ishonishgan. Hattoki, chaqaloqqa ism qo‘yish uchun yoshi katta, hayot tajribasiga ega bo‘lgan nuroniylar boshchiligida maxsus marosimlar ham o‘tkazilgan. Bunday marosimlar hozirgi kunda ham davom etib kelmoqda. Bu xalq tilida “aqiqa” deb nomlanadi.

“Aqiqa” yoki “aqiyqa” so‘zi lug‘atlarda “yordi” ma‘nosini anglatishi aytilgan. Bu so‘z aslida yangi tug‘ilgan bolaning sochiga nisbatan qo‘llanilgan. Islom shariati ta‘limotlariga

muvofig tug'ilgan bolaning yettinchi kuni chaqaloqning sochi olinishi kerak. Ana o'sha soch boshdan ajratib olingani uchun "aqiyqa" deyiladi. (Ba'zi joylarda bu marosim "soch to'yi" deb yuritiladi [3;32]). Biroq ba'zan iste'molda "aqiqqa" deganda, faqat "yangi farzand tug'ilishi munosabati bilan so'yiladigan qo'y" tushuniladi.

Bir so'z bilan aytganda, bolaga ism berishga xalqimiz azaldan jiddiy yondashishganligini yuqoridagi fikrlar misolida ko'rish mumkin.

O'zbek xalq ertaklari antroponimlari tizimidagi Bektemir, Sherzod, Rustam, Qilichqora, Odilshoh kabi ismlar nomlash xususiyati bilan birga, badiiy nom sanaladi. Shu sababli bunday antroponimlar fanda antropoetonimlar deb yuritiladi.

"Shahzoda Asad" (260-bet) ertagida Asad, "Hasan va Zuhra" (342-bet) ertagida Gulbahor, Tongguli, Gulchehra, "Ziyodbotir" (331-bet) ertagida Qamarxon (qiz bola ismi), "Quyosh yerining pahlavoni" (342-bet) ertagida Olmagul va Anorgul (qiz bola ismi), "Sunbul bilan Gul" ertagida Sunbul va Gul kabi antroponimlar bolaning qaysi oyda yoki qaysi faslda tug'ilganini aks ettirsa, "Uch og'ayni botirlar" (112-bet) ertagida To'ng'ich botir, O'rtancha botir, Kenja botir, "Erkenja" (312-bet) ertagida Erkenja kabi antroponimlar bolaning oilada aka-ukalari orasidagi tug'ilish navbati bilan bog'liq o'rnini ifodalaydi.

"To'qliboy" (264-bet) ertagida Gultoji, Gulnora, Gullola, Oyxon, "Farhod va Shirin" (209-bet) ertagida Guliqahqah, "Yaltillama sopol tovoq" (150-bet) ertagida Gulparax "Sherzod va Gulshod" (144-bet) ertagida Gulshod "Bektemirbotir" (350-bet) ertagida Oqbilak, "Hasan va Zuhra" (342-bet) ertagida Gulbahor "Uchargilam" (321-bet) ertagida Gul "Qilichbotir" (252-bet) ertagida Oqbilakoyim, "Qorasochpari" (233-bet) ertagida Qorasochpari, "Gulshoh va Varqa" (153-bet) ertagida Gulshoh kabi antroponimlarda kelajakda bola go'zal, nafosatli, dilbar inson bo'lishini Ollohdan so'rash maqsadini o'zida aks ettirgan. Shu bilan birga, xalq og'zaki ijodimizning "Zumrad va Qimmat" ertagida Zumrad xuddi xalqimiz leksikasidagi Kumush, Kumushoy kabi ismlar singari go'zallik ramzi bo'lmish qimmatbaho ma'danlar nomiga nisbat berish orqali nomlangan. Ularning hayotdagi qadri, o'rni, martabasi baland bo'lishini istash ma'nolari ayonlashadi. "Ayiqpolvon" ertagida (86-bet) Xolpolvon, "Ziyodbotir" (331-bet) ertagida Ziyodbotir, "Yamoqchi va shog'arib" (214-bet) ertagida Xoldor (yamoqchi) kabi ismlar bilan nomlangan chaqaloqlarning biror joyida qizil yoki qora xoli bo'ladi yoki tanasining biror qismida ortig'i bo'ladi. Bunday xolning bola tanasida ko'payib ketmasligi uchun atayin shunday ismlar bilan nomlashadi.

"Beshqiz" (5-bet) ertagidagi Xo'jatursun antroponimi semantikasida ikkita ma'no aks etadi. Xo'jatursun leksemasi ikki tarkibli bo'lib xo'ja+tursun tarzida o'rinishgan. Bu leksemaning birinchi qismida shu nom ifodalagan shaxsning nasl-nasabi xo'ja qavmidan ekanligi ma'nosi oydinlashayotgan bo'lsa, ikkinchi qismida tug'ilgan farzandlar voyaga yetmasdan nobud bo'layotgan oilada yangi tug'ilgan bolaga o'sib-unsin, sog'-salomat kamol topsin deb shunday nom qo'yishadi. Bu esa yuqorida aytilgan so'zda sehr borligiga ajdodlarimiz ham ishonishganligiga yana bir dalildir.

Yuqoridagi fikrlarga qo'shimcha tarzda aytish lozimki, o'zbek antroponimlarining katta qismini diniy tushuncha va aqidalar bilan bog'liq qarashlar ta'sirida shakllangan antroponimlar tashkil etadi. Bunday ismlardan juda ko'plab misollar keltirish mumkin: "Bo'ri bilan tulki" (40-bet) ertagida Karimbobo, "Tohir va Zuhra" (124-bet) ertagida Xadicha, "Orzijon bilan Qambarjon" (164-bet) ertagida Sulaymon payg'ambar, "Beshqiz" ertagida (5-bet) Karomatxon, Hazrat Ali, G'ulomboy, "Luqmoni hakim" (266-bet) ertagida Toyirjon, "Hotam" (295-bet) ertagida Qosim, "Navoiy bilan cho'pon" (321-bet) ertagida Navoiy, "Ibn Sino va jinni" (323-bet) ertagida Abu Ali ibn Sino, Nazar, "To'lg'anoy" (341-bet) ertagida Ollonazarbotir, So'fibek, Abdulazizshoh, "Xurshid bilan Laylo" (350-bet) ertagida Abdulkarim kabilar.

Ertaklardagi ayrim antroponimlar xarakter-xususiyati, xatti-harakatiga qarab qo'yilgan. Jumladan, "Tuhmat balosi" (120-bet) ertagida Olim chaqqon, "Boqi mumsik bilan Soqi mumsik" (112-bet) ertagida Soqi mumsik, Boqi mumsik, "Baxtli kal" (169-bet) ertagida Guliqahqah, "Hotam" (295-bet) ertagida Nishonboy, "Arab laqqi" (314-bet) ertagida Arab laqqi kabi antroponimlar.

Bu misollardan ma'lum bo'ladiki, ajdodlarimiz bolaga ism qo'yishda muayyan maqsadni ham ko'zlashgan. Mana shu maqsad bolaga ism tanlash uchun yuqori motiv hisoblanadi. Shu tufayli antroponimlar millatning, xalqning urf-odat va an'analari, dunyoqarashi, madaniyatini o'zida aks ettiradi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ismlar shaxslarni o'zaro farqlash vazifasidan tashqari, ism beruvchining ham muayyan maqsadini namoyon qiladi.

Qadimgi zamonlardan beri odamlar dunyoga kelgan chaqaloqqa ism qo'yishda muayyan udumlarga, qoidalarga qat'iy amal qilishgan. Negaki, qadimgi insonlar tasavvuricha, ism – tananing bir qismidir. Hatto ismlar bilan bog'liq tabular shakllangan[2;188-250].

Tug'ilgan bolaga ism qo'yishda donishmandlarga, avliyolarga murojaat qilingan. Maxsus kitoblardan foydalanilgan. Bunda, albatta, bolaning qaysi sulolaga mansubligi, ijtimoiy kelib chiqishi, tug'ilish vaqti, sog'lomligi, tanasining rangi, ko'rinishi, qayerda tug'ilgani kabilar e'tiborga olingan. Bir so'z bilan aytganda, bolaga ism qo'yishga nihoyatda jiddiy va mas'uliyatli vazifa sifatida qaralgan. Bu haqda dono xalqimiz fikri quyidagicha: "Farzandning burchi o'lchovsiz, behaddir; ota-onaning esa farzand oldida uch muqaddas qarzi bor: go'zal ism berish, yaxshi tarbiya qilish va boshini ikkita qilib qo'yish..."

O'zbek oilalarida ko'pincha ketma-ket tug'ilgan, ya'ni xalq tili bilan aytganda, sut ustiga tug'ilgan aka-uka va opa-singillarga o'zaro uyqashtirib ism qo'yish odati bor. "To'qliboy" nomli o'zbek xalq ertagi boshlanishida aynan ana shu udumga ishora qilib o'tilganini kuzatish mumkin. Unda hikoya qilinishicha, qadim zamonda O'zgan shahrida To'ydiboy degan bir odam o'tgan ekan. U odam juda badavlat ekan. Ammo tirnoqqa zor ekan. Xotinlari tug'mas ekan. O'sha shaharda bir boyvachcha odam bor ekan. Uning Qumrixon nomli oqila bir qizi bor ekan. Ko'p chiroyli qiz ekan. To'ydiboy shu qizga g'oyibona oshiq bo'libdi. Uning ketidan bir qancha sovchi kampirlarni qo'yib, ko'p pullar sarf qilib, unga uylanibdi. Oydan oy, kundan kun o'tib Qumrixonning bo'yida bo'libdi. To'qqiz oy, to'qqiz kun o'tganda bir bola tug'ibdi. Otini Qo'ldosh qo'yibdi. Oradan ikki-uch yil o'tgandan keyin u yana bir o'g'il tug'ibdi. Unga Yo'ldosh deb ot qo'yibdi. To'ydiboy qariganda ikki o'g'ilning otasi bo'lganidan boshi osmonga yetib, el-yurtga karnay-surnay qo'ydirib, odamlarni osh-nonga to'ydirib, uloqni choptirib, to'y-tomoshalar qilib beribdi. Qo'ldosh bilan Yo'ldosh birin-ketin o'saveribdi. Kelajakda ham bu aka-ukalar biri ikkinchisiga qo'ldosh (qo'llovchi) va yo'ldosh (hamroh, hamfikir, hamdard, sirdosh) bo'libdi. Shu tariqa ota-onaning murodi ham amalga oshibdi.

Aka-ukalarga uyqash ism qo'yish odati "Sunbul bilan Gul" ertagi qahramonlarining nomi misolida ham kuzatiladi. Qadim zamonda bir boy bor ekan. U xotini bilan juda ham ahil va xushvaqt umr kechirar ekan. Boyning ikki o'g'li bor ekan. Kattasining ismi – Sunbul, kichigining ismi – Gul ekan.

Ma'lumki, xalq orasida egizaklarga qo'yiladigan maxsus ismlar bor. Agar egizaklarning har ikkalasi o'g'il bola bo'lsa ulardan birinchi tug'ilganiga Hasan, ikkinchi tug'ilganiga Husan ismi qo'yiladi. Agar egizaklarning har ikkalasi qiz bolalar bo'lsa, qizaloqlarning kattasi Fotima, kichigi Zuhra nomini oladi. Ba'zan esa egizaklarning biri o'g'il, biri qiz tug'iladi. Bunday holatlarda ularga Hasan-Zuhra yoki Fotima-Husan nomlari qo'yiladi. Ammo ayrim hollarda ba'zi kishilar shu odatni buzib, egizaklarga o'z bilganicha ot qo'yadi. Natijada, bolalar boshiga turli kulfatlar yog'iladi. Xuddi shunday voqelikka ishora "Hasan va Huriliqo" dostoni syujetida uchraydi. Unda hikoya qilinishicha, burun zamonda, Sharq mamlakatlarining birida Ahmadjon degan savdogar bor ekan. Uning Hasan degan o'g'li va Huriliqo degan qizi bor ekan. Oylar, yillar o'tibdi. Ota-onasi o'lib Hasan bilan Huriliqo yetim qolibdi. Hasan bir boyning eshigida xizmat qilib yuribdi. Bir qancha vaqt o'tgach, Hasanning xizmati boyga yoqibdi. Boy o'zining Zulayho nomli qizini unga beribdi. Zulayho Hasanning singlisi Huriliqo bilan bir hovlida tura boshlabdi. Hasan boyning xizmatini bajarib yura beribdi. Zulayho Huriliqoni juda yomon ko'rib qolibdi. Shu sabab makr ishlatib, aka-ukani bir-biridan ajratibdi. Bu ertakda agar hayotda egizaklarga juft ism qo'yilmasa, ular bir-biridan ayrilib qolishi mumkin, degan ishonch bor. Bu ertakda aynan shu voqeaga ishora qilinganini kuzatish mumkin.

Shu bilan birga, xalq ertaklarida ajdodlarimizning ism bilan bog'liq e'tiqodiy qarashlari badiiy ifoda etilganining guvohi bo'lish mumkin. Shu tushunchalar asosida yaratilgan badiiy

motivlar esa, ko'pincha ertakning ekspozitsiya, ya'ni kirish qismida keltirilishi kuzatiladi.

Yuqorida zikr etilgan tamoyillar, umuman olganda, dunyoqarashning turli qirralari bilan muvofiq keladi. Shu ma'noda aytish mumkinki, madaniyat dunyoqarash bilan omixta sodir bo'ladi. Inson madaniyat subyekti sifatida uning vujudga kelishi va tilda aks etishini tashkil etadi. Shu boisdan insonda tabiat hodisalari, tabiatda inson xususiyatlarini ko'rish tafakkurning asotiriy davri an'alarining saqlanib qolganligi bilan bog'liq. Ayniqsa, bunday hodisalar o'zbek ertaklari antroponimlari tizimida yaqqol nomoyon bo'ladi.

Xulosa shuki, o'zbek xalq ertaklaridagi antroponimlar tizimi tilning boshqa birliklari singari lingvokulturologiyaning asosiy predmetlaridan biri sanaladi. Antroponimlar zamirida jamiyatning o'tmishi va kelajagi, buguni va ertasi o'z aksini topadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари маъноси. 2-нашри. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – 604 б.
2. Фрезер Д.Д. Золотая ветвь. – М.: Политиздат, 1983, с.188-250.
3. Исмоилов Н. Ўзбек тўйлари. – Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б.32.
4. Раҳматуллаев Ш.Н. Ўзбек халқ эртақларидаги антропонимлар//Тил, Таълим, Таржима. –Тошкент, 2021. 2-сон, – Б .75.
5. O'zbek xalq ertaklari. 3 jildli. –Т.: O'qituvchi, 2007.

#### **РАУФ ПАРФИ ШЕЪРИЯТИДА ШАМОЛ РАМЗ СИФАТИДА**

**DOI: 10.53885/edinres.2021.75.38.028**

*Дилрабо Қувватова,*

БухДУ профессори, ф.ф.д.

*Раҳима Шарипова*

НавДПИ ўзбек адабиёти кафедраси

ўқитувчиси

**Аннотация:** *Замонавий ўзбек шеъриятида шамол, ёмғир, қор, булут сингари табиат рамзлари талқини алоҳида ўрин тутди. Бу тимсоллар инсон руҳияти, ҳис кечинмаларини очиб беришнинг образли воситасидир. Мақолада Рауф Парфи ижодидаги шамол, ёмғир, булут кабиларнинг тимсолий-рамзий маънолари баҳор, куз, қиш фасллари талқини билан уйғунликда очиб берилган.*

**Калит сўзлар:** *мотив образ, шамол, булут, ёмғир, таъхис, лирик қаҳрамон, рамз, руҳият*

**Аннотация:** *В современной узбекской поэзии особое место занимает интерпретация природных символов, таких как ветер, дождь, снег, облака. Эти эмблемы являются образным средством раскрытия человеческой психики, чувств. Статья раскрывает символические значения ветра, дождя, облаков и т.д. В работе Рауфа Парфи раскрыты гармонии с интерпретацией весны, осени и зимы.*

**Ключевые слова:** *мотив изображения, ветер, облако, дождь, диагностика, лирический герой, символ, психика*

**Annotation:** *In modern Uzbek poetry, interpretation of natural symbols such as wind, rain, snow, clouds occupies a special place. These emblems are a figurative means of revealing the human psyche, feelings. The article reveals the symbolic meanings of wind, rain, clouds, etc. In the work of Rauf Parfi, harmonies with the interpretation of spring, autumn and winter are revealed.*

**Keywords:** *image motive, wind, cloud, rain, diagnostics, lyrical hero, symbol, psyche*

Рауф Парфи замонавий ўзбек шеъриятининг ёркин намояндаларидан биридир. Унинг рамзий-тимсолий фикрлаш тарзи, оҳорли ташбеҳлари, чуқур фалсафага йўғрилган шеърлари ўзбек адабиётининг нурли саҳифасини ташкил этади. Айниқса, шоир шеърларида инсон руҳияти, қалб кечинмалари табиат билан уйғунликда акс эттирилиши

муҳим хусусиятдир. Адабиётшунос Д.Курунов образ ҳақида фикр юритар экан, унинг бир неча янги таснифини келтиради: “Умумлаштириш даражасига кўра бадий образнинг яна адабий мадани анъаналари доирасида муайян турғун шаклга айланиб, асардан асарга кўчиб юриш хусусиятига эга бўлган мотив, топос, архетип деб юритилувчи кўринишлари ҳам ажратилади” [1, 49]. Шу маънода шамол, булут, ёмғир сингари табиат рамзлари шоир шеъриятида мотив образ даражасига кўтарилди олди. Чунки бу образлар шоир шеърятда тез-тез такрорланиб, янги-янги маъноларни ифодалашга хизмат қилган.

Шу нуқтаи назардан шоирнинг шамол ҳақидаги шеърларини таҳлил қилишга ҳаракат қиламиз:

Шивирлама менга, эй шамол,  
Худди қалбим ёнидан оқма.  
Шивирлама менга, эй шамол,  
Узиб япроқларингни отма.  
Шивирлама менга, эй шамол,

Қайга олиб борурсан тагин?  
Шивирлама менга, эй шамол,  
Ўтмишларнинг қора эртагин [2,  
80].

Эътибор берилса, шамол шеърда кеча ва бугунни боғлаувчи ришта сифатида келган. Шамолни ташхислантирар экан, шоир унинг табиатдаги вазифаларидан келиб чиқиб образлантиради. Маълумки, шамол эсганда, япроқлар ерга тўкилади. Бунда ҳам ташхис бор. Яъни “япроқни узиш” унинг кучли эсишини билдириб туради. Қолаверса, кейинги бандда ҳаётини фалсафа янада кучайиб боради. Лирик қаҳрамон шамолга “Қайга олиб борурсан тагин” дер экан, инсоннинг ўтиб бораётган умрига ишора қилади. Шу билан бирга, шамол шоир наздида, кечаги кунни ёдга солади. Шамолнинг қулоққа хуш ёқувчи эсиш ҳолати инсоннинг “шивирлаш” ҳаракати орқали жонлантирилади.

Шовуллайди, шамол увлайди,  
На тиним бор, на уйқу унда.  
Аламини ёза билмайди,  
Шодлигин ҳам этолмас удда [2,54].

Бунда шамолнинг эсиши қиш изғирини билан уйғун ҳолда бўрининг увлашига қиёсланган ва шу асосда инсонлаштирилган. Сабаби, тиним билмаслик, ухламаслик, аламини ёз олмаслик сингари ҳолатларда буни кузатиш мумкин. Яъни шамол ва инсон руҳияти уйғунлиги англашилиб туради.

Шамол, сочларимни тарама,  
Оқарса оқарсин азобдан.  
Қисмат, ҳайрон бўлиб қарама.  
Ахир айирмадинг қаҳру ғазабдан [2, 200].

Юқоридаги сатрларда шамолнинг эсиши яна бир ҳолат – сочни тараш орқали берилган. Бунда фалсафий мазмун анча чуқур. Сочнинг оқаришини шоир азобда кўради. Ҳақиқатан, сочининг оқариши инсон умрининг ўтиб бораётганлигини билдириб туради.

Япроқларда шамол ўйнар  
Сув мавжида ўйнар шамол.  
Саррин шамол нима сўйлар  
Юрагида қандай хаёл? [2, 57]

Юқоридаги сатрларда шамол тасвири баҳор фасли билан уйғун берилган. Яъни баҳорда шамолнинг эсиши дилларга хуш ёқади. Шу боис унинг эсишини шоир “ўйнар” феъли орқали берадики, унда табиат гўзаллиги ва лирик қаҳрамон руҳиятида вобасталик кузатилади.

Деразамни чертади у,  
Тиқирлатар эшигимни.  
Ором билмас, билмас уйқу,  
Уйғотади келиб мени.

Сочларимга қўнар шамол,  
Шамол қўнар кўзларимга,  
Қўшиқ, эртак айтиб хушҳол,  
Сўнгра қайтар изларига [2, 57].

Ҳақиқатан, бунда ёқимли шабада образи яратилган. Шамолнинг эсиши яна ташхислантирилади. Яъни “деразани чертиш”, “эшикни тиқирлатиш” инсонга хос.



Шамолнинг эсишида ўзига хос куй ва оҳанг бор. Шунинг учун баҳор шамолидаги майинлик, ўзига хос ифорларни таратиши кўшиққа менгзалади. Шоир кўклам шабадасида мана шундай ҳаётӣ мазмун туяди.

Ёшлик зангор фасл. Кечди. Сарғарди.  
Тўкилди у. Шафқат билмас баргрзон.  
Қора совуқларга отиб юборди.

Шамоллар пойида синмоқда хазон.

Ёшлик зангор фасл. Кечди. Сарғарди [2, 133]

Ёшлик зангор фасл баҳорга қиёс этилган. Мумтоз шеърятда инсон умри фаслларга бўлиб талқин этилади. Р.Парфи ҳам шу анъанани давом эттирган. Шамол образи бунда хазон яъни куз билан ёнма-ён ҳолда тасвир этилган. “Шамоллар пойида синмоқда хазон” сатрида икки хил маъно мужассам. 1. Кузда дарахт барглариининг ерга тўкилиши. Шоир ташхиси ниҳоятда оҳорли. Барглариининг ерда ётиши шамол билан боғлиқ, шамол уларни синдиради. 2. Инсон умри тасвири. Зангор фасл ёшлик ўз ўрнини кузга – кексаликка бўшатиб беряпти. Демак, бунда шамолнинг куздаги тасвири орқали инсон умрини ҳам акс эттирмоқда.

Шоир шеърятда шамол ва ёмғир, шамол ва булут тимсоллари уйғун тасвир этилгани кузатилади. Бу хусусият, айниқса, баҳор мавзусидаги шеърларда кўпроқ кўзга ташланади:

Ташқарида шовуллар шамол,  
Ёмғир ёғар қаттиқ бу кеча.  
Ташқарида шовуллар шамол,  
Юзларини ювмоқда дарча [2, 75].

Одатда, табиатда ҳам шамол ва ёмғир кўпинча бирга содир бўлади. бунда табиатдаги шу ҳолат тасвири устувор. Бироқ бу тасвирда лирик қаҳрамон қалб кечинмалари, руҳияти манзаралари акс этган. Чунки ёмғир шамолнинг шовуллаши ёмғирнинг шитирлаб ёғиши билан қўшилиб кетади. Шеърятда ёмғир атрофни тозаловчи, кўнгил гардларни ювадиган мусаффолик тимсоли бўлиб келади. Маълумки, шамол ёмғирни ҳам ҳаракатга келтиради. Шу жиҳатдан Рауф Парфининг “юзларини ювмоқда дарча” мисраси ўзига хос бадиий топилмадир. Сабаби, шамол ёрдамида ёмғирнинг дарчага урилишини шоир яна ташхис орқали (ювмоқ – инсонга хос) ифода этади.

Таҳлилга тортганимиз Рауф Парфи шеърлари ҳаётӣ-фалсафӣ мазмуни, теран маънолари билан ажралиб туради. Эътибор берилса, шоир шеърларидаги шамол, шамол-ёмғир, шамол-булут образлари рамзий-тимсолий маъноларга эга. Шоир табиат ошиғи сифатида инсон қалби манзараларини у билан вобаста ҳис этади. Хусусан, шамол талқинида буни кузатиш мумкин. Шамол, аввало, табиат фаслларига мос равишда турли маъноларни ифодалаб келади. Бинобарин, кўклам шамолидаги майинлик, ўзига хос ифор, ўйноқлик лирик қаҳрамон кайфияти ва руҳиятини кўтарувчи восита сифатида ифода этилган. Шамолнинг эсиши билан боғлиқ ифодалар: қишда “увлаши”, баҳорда “ўйнаши”, “сўйлаши”, “шивирлаши”, кузда “шовуллаши” сингариларда бу образнинг лирик қаҳрамон руҳиятига мутаносиблигини, инсон умри билан боғлиқлик касб этишини кўрсатиб туради. Умуман олганда, шамол Рауф Парфи шеърятдаги мотив образдир. Чунки мазкур образ шоир ижодида такрорланиб туради ва турли рамзий-тимсолий маъноларни билдириб келади. Шулар асосида айтиш мумкинки, шоир шеърятининг фалсафӣ ҳаётӣ мазмуни табиат рамзларида ёрқин ифода этилган.

#### Адабиётлар:

1. Куронов Д., Мамажонов З. ва б. Адабиётшунослик луғати. –Тошкент: Akademnashr, 2010. –398 б.
2. Парфи Р. Сакина. Сайланма. –Тошкент: Muharrir, 2013. –375 б.

## “SHAXS” LISONIY ZARRASINING FONETIK-FONOLOGIK TIZIMDA VOQELANISHI

(mohiyat-hodisa dialektikasi aspektida)  
DOI: 10.53885/edinres.2021.17.19.029

Umidjon Yigitaliyev,  
Qo‘qon DPI dots., PhD

**Annotatsiya.** *Barcha fanlar olamida yuz berganidek, ilmiy izlanishlarda voqelikdan mohiyat tomon siljish tilshunoslikda fonetikadan fonologiya sari borilishida ko‘zga tashlanadi*[2:42; 4:18]. *Uzoq davrlar mobaynidan asosiy mazmuni nutqshunoslik bo‘lgan fonetika tarkibida til ta’limoti bo‘lgan fonologiya ham uzluksiz rivojlanib, sayqallanib bordi*[9:120]. *Nihoyat, Praga funksional strukturalizmining yirik namoyondasi bo‘lgan N.S. Trubetskoy o‘ziga qadar shakllantirilgan eng muhim fonologik qarashlarni ijodiy-tanqidiy umumlashtirib, jahonning ikki yuzdan ortiq til va shevalari dalillarini tahlil etib, “Fonologiya asoslari”*[11:115] *asarini yaratdi. Bu tadqiqot jahon tilshunosligida fonologiya fanining o‘z qaddini rostmana tiklab olishiga, fonetik va fonologiya sathlarining ilmiy chegaralanishiga ulkan ta’sir ko‘rsatdi.*

**Kalit so‘zlar:** *shaxs, foneik-fonologik tizim, sotsial-funksionallik*

N.Trubetskoy tomonidan fonemalarga sotsial-funksional (ijtimoiy-vazifaviy) nuqtayi nazardan yondashilganligi[11:154] va shu asosida ularni (fonemalarni) muayyan nutq tovushlaridan ajratib olinganligi o‘z davri fonologik ta’limoti uchun inqilobiy ahamiyatga ega edi. Ushbu fonologik ta’limot muayyan tillarga oid fonemalarning majmualarini umuman aniqlab olish, shuningdek, ularning ichki borlig‘ini o‘rganish tomon tashlangan dastlabki dadil qadam edi. Prof. N.Trubetskoy, yuqorida eslatilganidek, *fonologik belgi, fonologik birlik, fonema* tushunchalarini zidlanuv, farqlanuv bog‘lanishlari asosida shakllantirishga harakat qildi. Buni uning o‘zi ham qayta-qayta takrorlaydi: “Fonologiya ma’no farqlash bilan bog‘liq bo‘lgan tovush farqliklarinigina tadqiq etishi lozim... fonologiya bu farqlanuvchi tovush belgilari yordamida ma’no farqlanishi haqidagi ta’limotdir”.

Darhaqiqat, fonologiyada asosiy rol fonemalarga emas, balki ma’no farqlash ziddiyatlariga mansubdir.

O‘z-o‘zidan ravshanki, bir sathda turuvchi muqobil narsalar orasidagi farqlanuvchanlik aloqadorligi shu narsalar nisbatiga xos bo‘lgan ko‘plab munosabatlarning bir xususiy ko‘rinishi, aniqrog‘i ma’lum nuqtayi nazardan eng muhimidir. Bu o‘rinda shuni alohida qayd etib o‘tishimiz lozimki, XX asrning faylasuf tilshunoslaridan V.M.Solnsev til birliklariga (shu jumladan, fonemalarga ham) umumiy tarzda xos bo‘lgan bo‘linuvchanlik (diskretlik), tizilish (lineynost), bosqichli tashkil etilish (iyerarx), sistemani tashkil eta olish, sistemadagina ahamiyatli belgiga ega bo‘lish, yondoshlikda bog‘lanish (sintagmatika), xotiraviy aloqada bo‘lish, paradigmatika (assotsiativ bog‘lana olish imkoniyati – U.Y.) kabi muhim sifatlarni (atributlarni) ham har xillik (neodnorodnost) belgisi doirasida turib tushuntirishga harakat qiladiki[10:175], bu holat aslida F.de Sossyur asos solgan semiotik omillarga[12:95] katta ahamiyat bergan tilshunoslikning hozirgi bosqichidagi yuksak taraqqiy etgan ko‘rinishidir.

Yuqoridagi fonologik nazariyalarga asoslangan ilmiy xulosalarga tayanib, endi bevosita munosabatimizni *shaxs* tushunchasining assotsiativ tadqiqiga qaratamiz.

Ma’lumki, “shaxs” tushunchasi antroposentrik paradigmaning markaziy muammolaridan biri hisoblanadi. Antroposentrik tilshunoslikning tub mohiyatida inson omili yotar ekan[13:28], u tafakkurning ifoda vositasi – tilning barcha sathlarida til vositalari orqali bevosita yoki bilvosita voqelanishi, shubhasiz. Jumladan, nutq tovushi ma’no ifodalamaydi, biroq ma’noni farqlashga

xizmat qiladi, shu bilan birga, muayyan nutq sharoitida “shaxs” ning verballashuviga ham xizmat qiladi. Til egasi nutqida kuzatilgan o‘ziga xos nutq tovushi bevosita “shaxs” ga assotsiativ tarzda ishora qila oladi.

Ilmiy faraz nuqtayi nazaridan fonetik-fonologik sathda “shaxs” assotsiativ jihatdan voqelanishini aniqlashda bevosita fonemalarga berilgan ta’riflarga suyanish ham mumkin. Hozirgi davr tilshunosligida fonemaga berilgan yuzlab ta’riflar mavjud[1;3;6;7;11]. Chunonchi: “..fonema tildagi ma’nodor birliklar – so‘z va morfemalarni tashkil etuvchi va ularni farqlash uchun xizmat qiluvchi, tilning eng kichik, o‘zi mustaqil ma’noga ega bo‘lmagan birligidir”[1:8]. “Fonema – til moddiy tomoni (substatsiyasi)ning eng kichik birligi bo‘lib, aloqa quroli uchun ahamiyatli bo‘lgan farqlovchi fonologik belgilarning barqaror yig‘indisidir”[6:78]. “Fonema – so‘z va morfemalarni shakllantiradigan va ularning ma’nolarini farqlash uchun xizmat etuvchi, boshqa mayda bo‘lakka bo‘linmaydigan tilning eng kichik tovush birligi”[7:46]. “So‘z, so‘z formalari va morfemalarni tashkil etuvchi va ularning ma’nolarini farqlash uchun xizmat qiluvchi eng kichik, boshqa bo‘laklarga bo‘linmovchi til birligi fonema (grekcha *phone* – tovush, ovoz ma’nosida) deyiladi. Masalan, *til – tol, kel – kul* so‘zlari unli fonemalar yordamida farqlanadi”[1:48].

Umuman olganda, bu xildagi ta’riflarni ko‘plab keltirish mumkin. Bundan asosiy maqsad mana shu ta’riflar asosida fonetik-fonologik sistemada “shaxs” tushunchasining assotsiativ voqelanishi ko‘lamlarini ochish. Agar yuqorida qayd etilgan ta’riflarga e’tibor qaratilsa, har bir ta’rifda “*ma’no farqlashga xizmat qiluvchi*” degan differensial belgiga duch kelamiz. Bundan shunday hukm chiqarish mumkinki, faqat *shaxs*gina ma’noli, sotsial ahamiyatga molik bo‘lgan nutq tovushlarini hosil qila oladi. Demak, “*ma’no farqlashga xizmat qiluvchi*”, “*nutq tovushi*” tavsiflari bevosita *shaxs*ga ishora qilib turadi. Chunki nutq ijtimoiy hodisa bo‘lib, u orqali faqat odamlarga nisbat beriladi.

#### Adabiyotlar:

1. Abduazizov A. O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
2. Bozorov O. Tilshunoslikning falsafiy metodologiyasi. – Toshkent,2021.– B.41.
3. Касевич В.Б. Фонологические проблемы общего и восточного языкознания. М., 1983. – 149 с
4. Lutfullayeva D. Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi.–Toshkent: MERIYUS, 2017. – 140 b.
5. Nabiyeva D. O‘zbek tilining turli sathlarida dialektika kategoriyalarining namoyon bo‘lishi. DDA. – Toshkent,2006. – 46 b.
6. Ne’matov H. O‘zbek tili tarixiy fonetikasi. –Toshkent:O‘qituvchi, 1992. –94 b.
7. Nurmonov A. O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. –T.: O‘qituvchi, 1990. –B.46.
8. Панфилов В.З. Гносеологические аспекты философских проблем языкознания. – М.:Наука,1982. – 357 с.
9. Поливанов Е.А. Закон перехода количества и качество в процессах историко-фонетической эволюции.– М.,1968.– С. 114-135.
10. Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. – М.: Наука,1971. – 292 с.
11. Трубецкой Н.С. Основы фонологии. –М., 1960. – 372 с.
12. Фердинанд де Соссюр. Труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1977.
13. Xudayberganova D. O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini: Filol.fan. d-ri. ...diss. –Toshkent: O‘zRFA TAI, 2015. –240 b.

#### OBJEKTLI BIRIKMALARNING FORMAL GRAMMATIK TAVSIFI XUSUSIDA

DOI: 10.53885/edinres.2021.85.52.030

*Shahnoza Yusufovna Yoqubova*

BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrası  
o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada o‘zbek tilida so‘z birikmalarining muayyan turi tarkibidagi tobe a’zosi kelishik qo‘shimchalari bilan shakllangan otlar hamda hokim a’zosi fe’l*

*turkumiga oid soʻzlar bilan ifodalanuvchi obyektli birikmalar xususida fikr yuritilgan. Oʻzbek tilshunosligida soʻz birikmalarining formal grammatik tadqiqi bilan aloqador obyektli birikmalarning oʻrganilishi masalasi tahlil qilinib, mazkur sintaktik birliklar feʼl boshqaruvining bir koʻrinishi sifatida empirik bosqichda talqin qilinganligi ilmiy asoslangan.*

**Kalit soʻzlar:** *soʻz birikmasi, obyektli birikma, formal sintaksis, feʼlli birikma, empirik bosqich*

Nutqda bevosita kuzatishda berilgan soʻz birikmalari qancha boʻlsa, shuncha sintaktik qolip variantlari ham mavjud. Biroq barcha til birliklariga xos shakl va mazmun tomonlarining nomutanosibligi sabab lisoniy sintaktik qurilish qolip(LSQ)lari soni oʻz nutqiy mahsuliga nisbatan kamdir. Oʻz navbatida, sintaktik qurilma bir tipli yoxud bir turda boʻlmay, tilda mavjud sintaktik maʼnoning ifoda vositalari va ularning birikish imkoniyatlari, birikish kombinatsiyalari miqdoricha rang-barang ekanligi hech kimda shubha uygʻotmaydi. [3,40; 4]

Oʻzbek tilida soʻzlashuvchilar nutq faoliyatida boshqa koʻplab til vositalari qatorida *kitobni oʻqimoq, eshikni ochmoq, daftarga yozmoq, uyga kirmoq, daladan qaytmoq, kitobdan koʻchirmoq, oʻquvchidan soʻramoq, tramvayda bormoq, musobaqada qatnashmoq, tanlovda gʻolib boʻlmoq, zavq bilan soʻzlamoq, ketmon bilan chopmoq, telefonda gaplashmoq, internet orqali yubormoq, onasi uchun olmoq, ayol uchun kuylamoq* kabi soʻz birikmalaridan foydalanishadi. Ayni paytda nutq voqeligi bunday qurilishdagi birikmalarning turli nutq vaziyati, sharoiti, oʻrni, asosiysi, til egalarining kommunikativ ehtiyoj va maqsadlari yuzaga chiqarishini yetarlicha tasdiqlay oladi.

Sanab oʻtilgan nutqiy hosilalar tarkibidagi tobe aʼzoning kelishik qoʻshimchalari bilan shakllangan otlar va hokim aʼzoning feʼl turkumiga oid soʻzlar bilan ifodalanishi oʻzbek tiliga xos soʻz birikmalarining muayyan turi ekanligini anglatadi. Tobe va hokim soʻzlarning leksik va morfologik xususiyatlari bu soʻz birikmalarining lisoniy qurilishiga xos umumiy oʻxshash jihatlari boʻlib, ularni bir guruhga birlashtiradi.

Bu siradagi soʻz birikmalarining umumiy va oʻziga xos sintaktik qurilishini tahlil qilishdan oldin oʻzbek tilida mazkur soʻz birikmalari qanday maʼnolarni ifodalashi hamda soʻz birikmalarining qaysi turiga mansubligini aniqlashtirish zarur. Shuning uchun dastlab bu soʻz birikmalari tilshunoslikda qanday tahlil qilinganligiga eʼtibor qaratish lozim boʻladi.

Nutqiy koʻrinishlarida ona tilimizga xos sintaktik imkoniyatlardan birini gavdalantiruvchi bunday soʻz birikmalari formal grammatika (sintaksis)da boshqaruvli birikmalar ichida feʼl boshqaruviga tegishli birikmalar sifatida oʻrganilgan. [5;6;1] Jumladan, bu soʻz birikmalariga “Oʻzbek tili grammatikasi”da: “Feʼl boshqaruvida feʼl hokim mucha vazifasida keladi, ergash mucha esa ot va otlashgan boshqa turkumdagi soʻzlardan boʻladi, boshqaruv yoʻli bilan birikkan konstruksiyalardan tobe mucha kelishik formalarida yoki koʻmakchi olgan soʻzlar bilan birga bosh soʻzga bogʻlanib, birikmaning komponenti sifatida qoʻllanadi: *kitobdan yozmoq, mashinada kelmoq, qalam bilan yozmoq* kabi misollarda harakat va obyekt munosabati ifodalangan”, deya izohlanadi. [5,65]

Tilimiz grammatikasining akademik nashrida keltirilgan misollar “sintaktik funksiyasi eʼtibori bilan obyektli birikmalar gruppasiga kirishi kerak”, deb uqtiriladi. [5,65] Biroq tavsiflangan birikmalar “obyektli birikmalar” deb alohida nomlanmaganligi «“Oʻzbek tili grammatikasi”da soʻz birikmalarining bu turi tasnifda alohida ajratilmaganmi yoki tasnif bu manbada oʻzining toʻliq ifodasini topmaganmi?» degan savolni tugʻdiradi va, tabiiyki, bahsga boshlaydi.

Bahstalab mulohazaning paydo boʻlishiga sabab professor F.Abdullayevning *kitobdan yozmoq, mashinada kelmoq, qalam bilan chizmoq* kabi soʻz birikmalarini (feʼl boshqaruvida tavsiflangan boʻlsa ham) “hokim soʻzi feʼldan boʻlgan obyektli birikmalar” deb baholaganligidir. Zero, olim hokim soʻzi feʼldan iborat boʻlgan obyektli birikmalarning besh turini tobe soʻzning qanday grammatik shaklda kelishiga qarab, quyidagicha ajratgan:

- a) tobe soʻzi tushum kelishigida kelgan birikmalar,
- b) tobe soʻzi joʻnalish kelishigida kelgan birikmalar,
- v) tobe soʻzi chiqish kelishigida boʻlgan birikmalar,

- e) tobe so‘zi o‘rin kelishigida bo‘lgan birikmalar,
- f) tobe so‘zi ko‘makchilar bilan kelgan obyektli birikmalar [1,63].

Obyektli birikmalarning besh turi F.Abdullayev tomonidan ajratilgan bo‘lishiga qaramay, bu tasnif va tasniflanuvchi birikmalar so‘z birikmalarining alohida turi sifatida formal grammatikaning ilmiy asoslari jamlangan “O‘zbek tili grammatikasi”da o‘z aksini topmagan. Ehtimol, bu holat obyektli birikmalarning atroflicha tadiq etilmaganligi bilan bog‘liqdir. Biroq G‘.Abdurahmonov, A.Sulaymonov, X.Xoliyorov, J.Omonturdiyevlar tomonidan 1979-yilda nashr ettirilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis” (“Хозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис”) o‘quv qo‘llanmasi yuqoridagi fikrni inkor etadi. Negaki, mazkur qo‘llanmada so‘z birikmalari sintaktik mazmuniga ko‘ra atributiv, relyativ, predikativ kabi tiplarga ajratilganda “obyektli” tipi ham unda alohida sanab o‘tiladi. [2,15]

Xususan, so‘z birikmalarining “obyektli” tipiga shunday tavsif berilgan: “So‘zlar sintaktik aloqaga kirishganda ular faqatgina formal bog‘lanib qolmay, unda biror voqelik, tushunchalar ifodalangan bo‘ladi (aniqlovchi+aniqlanmish kabi). Bundan birikma tarkibidagi komponentning sintaktik funksiyasi aniq bo‘ladi. Ana shu funksiyaga ko‘ra so‘z birikmalarining predikativ, obyektli, relyativ birikmalarga bo‘linishi kelib chiqadi”. [2,15] Ushbu qo‘llanma mualliflari faqat shu izoh bilangina cheklanmaganligi obyektli birikmalar so‘z birikmalarining alohida turi sifatida quyidagicha ta’riflanishidan ma’lum bo‘ladi: “Obyekt so‘zi lotincha “objectum”dan olingan bo‘lib, predmet ma’nosini anglatadi. Predmet bilan harakat yoki belgi orasidagi munosabatni ko‘rsatuvchi birikmalar obyektli birikmalar deyiladi”. [2,15]

Mazkur manbadan obyektli birikmalarning “material jihatdan” ko‘rinishlari, komponentlari qanday grammatik vositalar orqali munosabatga kirishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish mumkin. Bu ma’lumotlar obyektli birikmalarni empirik bosqichda kuzatish asosida to‘plangan bo‘lsa ham, mazkur hodisaning mavjudligi va o‘ziga xosligini tasdiqlovchi dalillar yetarli ekanligidan guvohlik beradi.

Anglaxiladiki, F.Abdullayevning ilmiy risolasi va G‘.Abdurahmonov, A.Sulaymonov, X.Xoliyorov, J.Omonturdiyevlarning o‘quv qo‘llanmasida berilgan ta’rif-u tavsiflar asosida o‘zbek tilida tobe so‘zi obyektli ifodalovchi birikmalar, ya’ni obyektli birikmalar so‘z birikmalarining muayyan turi sifatida ajratilgan. Bizningcha, xoh o‘quv, xoh ilmiy bo‘lsin, mavjud manbalarda formal tahlil usullarida izohlangan obyektli birikmalar o‘zbek tilining akadem grammatikasida tilimizning sintaktik qurilish xususiyatlarini o‘ziga xos tarzda ifodalovchi so‘z birikmalari sifatida o‘z o‘rnini topishi lozim edi.

Zero, *kitobdan yozmoq, mashinada kelmoq, qalam bilan yozmoq* kabi so‘z birikmalari “fe’lli birikmalar” deyiladimi, “fe’l boshqaruvi” hisoblanadimi yoki “obyektli birikmalar” sifatida ajratiladimi, qat’i nazar, tilshunoslikda formal grammatik tahlil usullari asosida yetarlicha o‘rganilgan.

Xulosa shuki, formal sintaksisda so‘z birikmasi tadqiqi natijalari obyektli birikmalar to‘g‘risidagi empirik bilimlar shakllanganligidan dalolat beradi. Shunisi muhimki, sintaktik hodisani bilish jarayonida formal grammatik tahlil natijalari bilan kifoyalani bo‘lmaydi. Zero, hodisani aqliy bilish uning sezgi a’zolari orqali aniqlangan xususiyatlariga tayanch asosi sifatida yondashadi va tayanch asosini tashkil etuvchi empirik bilimlar nazariy umumlashmalarning dunyoga kelishiga zamin bo‘ladi. Shunday ekan, obyektli birikmalar haqidagi empirik bilimlar mazkur so‘z birikmalarining sintaktik qurilishida yashirin lisoniy mohiyatni ochishga yordam beradi. Bu esa obyektli birikmalarni lison bosqichida o‘rganishni taqozo etadi. Demak, o‘zbek tilshunosligida so‘z birikmasi sintaksisi tadqiqidagi navbatdagi vazifa obyektli birikmalarning lisoniy sintaktik qurilishini tahlil qilishdan iboratligini belgilaydi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Абдуллаев Ф. Сўзлар ўзаро қандай боғланади? –Тошкент: Фан, 1974. – 75 б.
2. Абдурахмонов Ф., Сулаймонов А., Холиёров Х., Омонтурдиев Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – 208 б.
3. Назарова С. Бир лисоний-синтактик қурилиш қолипи хусусида// Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 2003.–№4. –Б.40-42.

4. Назарова С. Бирикмаларда сўзларнинг эркин боғланиш омиллари: филол. фанлари номзоди... диссер. автореф. – Тошкент, 1997. – 21 б.
5. Ўзбек тили грамматикаси. II том. – Тошкент: Фан, 1976. – 560 б.
6. Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис.– Тошкент: Ўқитувчи, 1987. – 256 б.

## РЕЛЬЕФОНИМЛАРНИНГ ИНГЛИЗ ТИЛИДА СЕМАНТИК ТУЗИЛИШИ

DOI: 10.53885/edinres.2021.94.30.031

**Фармонов Б.Б.,**

Алишер Навоий номидаги Тошкент  
давлат ўзбек тили ва адабиёти  
университети

**Аннотация.** Тилишунослигимиз томонидан ўзбек тили ҳодисаларини бошқа тиллар, хусусан, истеъмол даражаси нҳоятда кенг доирани ташкил қилаётган инглиз тили лексикаси билан қиёслаб, чоғиштириб ўрганишга доир жуда кўплаб илмий тадқиқотлар амалга ошириб келинмоқда. Бу, айниқса, мустақил Ўзбекистоннинг жаҳон ҳамжамиятига жадал суръатлар билан интеграциялашуви даврида янада кенг тус олиб, илмий-амалий натижа ва хулосаларни, лексикологик-лексикографик материалларни тақдим этаётганлигида янада яққол намоён бўлади.

**Калит сўзлар:** дарё, тизма, ландшафт, чўққи, дара, текислик (*pass, plain, peak, absolute location, cliff, hill, mountain* )

Замонавий дунёни географик номлар ва рельефонимларсиз тасаввур қилиш қийин. Турли тилларда рельефонимлар кўпчилик топонимларнинг асосини ташкил қилади. Г.А.Козлова, В.В.Денисовалар Э.М.Мурзаевнинг фикрини қўллаб-қувватлаган ҳолда рельефонимларни умумий ва хусусий тоифаларга ажратишади:

1) умумий рельефонимлар ландшафт, рельефнинг катта элементлари, гидрография, тупроқ ва бошқаларни билдиради. Бундай рельефонимлар географик ҳодиса ва объектларни умумлаштиради: *дарё, кўл, ботқоқ, тоғ, тизма, баландлик (тайга, тундра, дашт, чўл)*.

2) аниқ рельефонимлар атроф-муҳитнинг баъзи чекланган элементлари, ландшафт турларини тавсифлайди.

“Important Geography Terms for High School Students” глоссарийсида инглиз тилидаги географик атамалар сифатида қуйидагилар келтирилади: *absolute location, aquifer, archipelago, atoll, biosphere, caldera, cartogram, cartography, census, climate, continental drift, continental shelf, contour map, culture, cultural geography, demography, density, desert, diffusion, ecology, epicenter, equator, equinox, erosion, estuary, fault, fauna, first world, fjord, floodplain, flora, geography, geologic time, geology, glacier, global positioning system (GPS), global warming, globe, hemisphere, humidity, latitude, lava, lingua franca, lithosphere, longitude, magma, lava, map, map projection, map scale, megalopolis, meridian, mesa, meteorology, monsoon, morphology* [3].

Кўриниб турибдики, ушбу сўзлар соф терминологик характер касб этади. Бизнинг асосий мақсадимиз инглиз тили умумистеъмол лексикаси орасидан рельефонимларни ажратиш, уларнинг семантик структурасини аниқлашдан иборат. Демак, рельефонимларни ажратишда терминологик луғатлар эмас, балки умумий лингвистик қомуслар ҳамда изоҳли луғатга мурожаат қилиш мақсадга мувофиқ.

Дастлаб, инглиз тили лисоний оламида рельеф тушунчасини аниқлаб олиш мақсадга мувофиқ. Инглиз тилида *reliefs, lay* сўзлари билан ифодаланади ҳамда луғатларда қуйидагича тавсифланади:

Reliefs – the elevations or inequalities of a land surface [4].

Lay – the general appearance of an area, including the direction of streams, hills, and similar features [5].

Манбаларда географик жойларни атовчи тил бирликлари куйидагича таснифланади [6]:

1. Аҳоли пунктлари: *area* (вилоят), *country* (мамлакат), *capital* (пойтахт), *city* (шаҳар), *district* (туман), *state* (итам), *town* (кичик шаҳар), *village* (қишлоқ).

2. Географик нукталар: *cape* (зор), *cliff* (тик қоя), *hill* (қоя), *mountain* (тоғ), *pass* (дара), *peak* (чўққи), *plain* (текислик), *plateau* (плато), *valley* (водий), *volcano* (вулқон).

3. Табиат зоналари: *desert* (чўл), *forest* (ўрмон), *highland* (тоғли ҳудуд), *jungle* (жунгли), *oasis* (оазис), *swamp* (ботқоқ), *tropics* (тропик), *tundra* (тундра).

4. Сув ҳавзалари: *gulf* (морской залив), *ocean* (океан), *sea* (денгиз), *lake* (кўл), *river* (река), *spring* (булоқ), *stream* (жилга).

Бошқа бир манбада эса рельеф номларини ифодаловчи сўзлар рўйхати куйидагича берилди [7]: *bay* (бухта), *beach* (соҳил), *cave* (зор), *creek* (жилга), *desert* (саҳро), *earth* (ер), *forest* (ўрмон), *hill* (қоя), *island* (орол), *lake* (кўл), *mountain* (тоғ), *sea* (денгиз), *stream* (оқим), *swamp* (ботқоқ), *valley* (водий), *waterfall* (шаршара), *woods* (ўрмон).

Биринчи манбада географик номларини ифодаловчи тил бирликлари тақдим этилса, иккинчи манбада географик жойни ифодаловчи умумистеъмол сўзлар рўйхати келтирилади.

Ш.Бобожонов таъкидлаганидек, семема нутқий маъноларда, нутқий кўлланишларда ўз зарраларини намоён қилар экан, бир вақтнинг ўзида нутқий маънолар ҳам ранг-баранг моҳиятларнинг зарраларини ўзида мужассамлаштиради. Бевосита кузатишда берилган мана шу тажассумдаги белги-хусусиятларнинг таркиби ва улар орасидаги муайян боғланишлар нутқий маънонинг бекарорлигини таъминлайди. Бироқ нутқий воқеланишдаги асосий ҳиссанинг қайси умумийлик, моҳият зухуроти эканлигига қараб у ҳақда хулоса чиқариш мумкин бўлади” [1; 7]

И.Исломов ўзбек тилидаги рельефонимларни тадқиқ этар экан, рельефонимлар ва географик терминлар орасидаги муносабатни шундай баҳолайди: “Ўзбек тили лексикасининг таркибий қисми бўлган рельефонимларнинг терминологик ва умумистеъмол қирраларини ажратиш уларнинг лисоний қийматини муайянлаштиришда муҳим ўрин тутди. Борлиқ ҳодисалари кўп қиррали моҳиятга эга бўлганлиги боис оламнинг лисоний манзараси ва илмий терминология ўртасидаги ўзаро муносабат диалектик қарама-қаршилиқлар бирлиги қонуниятини асосида намоён бўлади. Бу тадқиқ предмети “борлиқ-лисон” омили асосида кузатиш жараёнида яққол юзага чиқади. Таъкидланганидек, тадқиқ предмети бўлган ўзбек тили рельефонимлари системаси бирликларига ҳам атамавий, ономастик, диалектал ва бадий қўлланишлар хос бўлиб, бу қўлланишларнинг ҳар бирида рельефонимлар ўзига хос қиррасини намоён қилади” [2;32]. Бу борада И.Исломовнинг фикрини қўллаб-қувватлаймиз. И.Исломовнинг тўғри таъкидлаганидек, ўзбек географик атамалари тизимида ўзбек тилининг ички имкониятлари негизида ҳосил қилинганлари миқдори анча. Бу борада, айниқса, ер юзаси кўринишлари билан боғлиқ тушунчаларни ифодаловчи атамалар алоҳида эътироф этилиши лозим. Хусусан, географик тушунчаларни ифодайдиган ўзбек тили атамалари ҳам умумистеъмол сўзлари маъносининг ихтисослаштирилиши натижасида юзага келган дейишга асос бор. Масалан, ўзбек жамиятида *тоғ* лексемаси умумистеъмол сўзи сифатида қўлланилишда бўлиб, тил тараққиётининг кейинги босқичларида маъноси ихтисослаштирилиши натижасида географик атама мақомини олган [2;33].

Инглиз тилидаги рельефонимлар орасида умумистеъмол сўз бўлиш билан бирга географик термин бўладиган лексемалар ҳам анча. Масалан, *cape* (зор), *cliff* (тик қоя), *hill* (қоя), *mountain* (тоғ), *pass* (дара), *peak* (чўққи), *plain* (текислик), *plateau* (плато), *valley* (водий), *volcano* (вулқон) каби бирликлар инглиз тили изоҳли луғатларида умумистеъмол лексика сифатида келтирилса, айрим манбаларда географик сифатида изоҳланади [7]. И.Исломовнинг хулосасига кўра, умумистеъмол семемаси ва у асос бўлган атамавий

семема орасида маъновий боғлиқлик бўлса-да, географик қўлланишдаги семема билан умумистеъмол семема ўзаро фарқли жиҳатларга ҳам эга. Умумистеъмол қатламдаги рельефоним атамавийлик касб этганда, унинг семантик структурасида “ихтисослашиш” натижасида торайиш юз берган. Чунки, умумхалқ тилидаги рельефни ифодаловчи лексема семемаси ихтисослашиб, соҳанинг муайян тушунчасини аниқ ифодалаш учунгина хизмат қилади.

Хулоса шуки, умумистеъмол қатламдаги рельефонимнинг маъновий системасидаги кенг қўламли маънолари соҳа тушунчасини англатиш учун қўлланишда бўлиб қолди, бу эса ўз-ўзидан лексеманинг семантик структурасида ўзгариш рўй берганлигидан далолат беради.

#### Адабиётлар:

1. Бобожонов Ш.Х. Семема, унинг нутқий воқеланиши ва изоҳли луғатдаги талқини: филол. фан. номз. диссер. автореф. – Самарқанд, 2004. – 27 б.
2. Исломов И. Ўзбек тилида ер сатҳи кўринишларини ифодаловчи атов бирликлари тизими: филол. фан. бўйича фалс. докт. ... дисс. – Қарши, 2019. – Б. 32.
3. [https://en.m.wikipedia.org/wiki/Glossary\\_of\\_geography\\_terms](https://en.m.wikipedia.org/wiki/Glossary_of_geography_terms)
4. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/relief#h1>
5. <https://translate.google.com/?hl=ru&sl=en&tl=ru&text=lay%0A%0A&op=translate>
6. <https://englishfull.ru/leksika/geograficheskie-nazvaniya.html>
7. <http://lingvotutor.ru/geographic-features-en-ru>
8. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/119111> Tilshunoslikka kirish
9. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/119110> Hozirgi o‘zbek tili

#### WILLIAM BUTLER YEATS’ MYTH-MAKING FEATURES

DOI: 10.53885/edinres.2021.92.44.033

*Khamdamova Sitora Bakhshilloyevna*

Teacher of English literature and stylistics  
department,  
Bukhara State University, Uzbekistan  
[Star-start111@yandex.ru](mailto:Star-start111@yandex.ru)

**Annotation.** The purpose of this work is to identify the patterns of mythology, its system, language, and material in modern poetry - in the examples of the most prominent English author William Butler Yeats. He stands out as one of the brightest myth-makers, and his poetry can be considered a transitional phenomenon between romanticism and modernism, which makes it possible to study some of the features of both directions. Particular attention is paid to the author's rediscovery of ancient Irish myths and legends in a new era, reviving ancient traditions in modern times.

**Keywords:** modern poetry, mythology, mysticism, occultism, sources of myth-making, poetry analyses, interpretation of mythological character in poetry.

The early period of creativity of the Irish poet, playwright, and essayist William Butler Yeats passed under the sign of symbolism and myth-making. It is difficult to overestimate the importance of Yeats for Irish and Western European culture in the late XIX and early XX centuries. Yeats's work raised the importance of Irish literature in English as both national and universal literature. The merit of Yeats was a kind of "creative translation" of the culture that has survived in the folk environment of Ireland into the common European language. Yeats strove to make Irish culture part of the global process, and he succeeded.

A figure like Yeats was impossible to miss. He could be worshiped or he could be resisted, but not indifferent in any way. The poet's death was responded to by Wystan Hugh Auden, a modernist who belonged to the "other camp" - a camp in which Yeats was considered an old-



fashioned eccentric, who in the "age of steam and electricity" seriously believed in mysticism and magic and continued to write "traditional" poetry.

Richard Ellman, analyzing the biography of Yeats, wrote: "A strange, shy and weak boy allowed his fantasy to imagine himself a magician who could control the whole world with the help of thought" [5; 24]. Indeed, young Yeats, always losing in fights, could not with the help of physical strength stand up for himself. He could not associate himself with brutality and therefore preferred to believe in the dream that he was a magician and could stand up for himself with the power of thought. This belief (or self-hypnosis), which originated in adolescence, was carried by Yeats throughout his life.

The book "Wanderings of Oisín" (1888) by William Butler Yeats is taken as a practical basis for the analysis of the language of myth.

Yeats's poem was written at the very dawn of the poet's work: it is one of the first "prophetic poems", conceived as a continuation of the "Book of Tel". The mythological system has not yet been formed by the poet, and we have the opportunity to look at the process of myth-making itself, and not at an already completed system, removed from its author and therefore already dead.

On the threshold of the third millennium, interest in interdisciplinary research, in identifying internal connections and patterns between various sciences, has greatly increased. A similar phenomenon was observed a century ago, during the fin de siècle period, in the field of literature, music, and painting. Richard Wagner proclaimed the principle of the unity of the arts - "gesamtkunstwerk", the French symbolists embodied it in poetry: Verlaine was interested in the music of verse; Rimbaud found musical vowel matches, Mallarmé, in search of a general synthesis, came to the "music of silence."

Yeats' poem Oisín's Wanderings is the author's first major work in which he turns to Irish mythology. In the Old Irish epic Oisín is known as the son of the leader of the common Irish fianna, Finn McCool, a hero, around whose figure a cycle of skels (sagas) has formed, including the legends about the amazing birth of the mythological hero as "biography" (Coimpert), about the conquests of a woman (Tochmarc), about adventures (Echtraí), battles (Catha), feasts (Fessa). It is believed that the legends about Finn were created no earlier than the 9th century (the Ulster cycle, very likely, was formed in the 1st century AD).

Oisín's Travels has its origins in medieval Gaelic ballads, also dating back to the IX century. The ballads contain complaints from Oisín, who outlived his father, Finn: "This night my right hand is weak, my strength is no longer what it was; no wonder I have to grieve" [7; 491]. There are ballads about Oisín's meetings with Saint Patrick and their disputes. Also, in ballads and in folk tales, various versions of the journey of Oisín and Níav to the islands of Tirnanógh are left. The direct sources for Yeats, who did not speak Gaelic, were translations of medieval texts into English published in the Transactions of the Ossianic Society (1854-63). The plot gained fame in Europe also due to the fact that in the 18th century, a collection of "songs" attributed to Oisín (or Ossian) himself, compiled by James MacPherson, appeared. Yeats "competed" with this sensational falsification and was flattered to hear from an acquaintance that he better reflected the "mingled nobility and savagery" [7; 141]) of ancient Oisín than MacPherson did.

The position of the mythological Oisín as a hero is secondary; his main status is that of a bard and the alleged author of the Fenian cycle. Another function of Oisín is that it is he who brings the romantic flavor, which has more than once been noted by critics as characteristic of the cycle. There is a "romanticization" of the skels due to the development of the hero's image, which can be conventionally called romantic (Oisín remains alone, having lost his friends and his beloved woman), and due to the status of a poet who pays attention to his emotional experiences.

So, relying primarily on the poem "Wanderings of Oisín", we outline the characteristic features of the language system and structure of the myth by William Butler Yeats. It is no surprise that Yeats, one of the earliest and foremost authors of the Irish Literary Renaissance, turned to Irish folklore for inspiration. The creative reworking of the myths and legends of his

people was a paramount task for Yeats: turning to the ancient heritage was to revive the interrupted tradition and unite the nation. In 1887, in private correspondence with Catherine Tynan Yates wrote: "I feel more and more that we must create a school of Irish poetry based on Irish myth and history" [9; 11]. The images of the stately Druidic elders, gray-haired, with long fluttering beards, sitting alone on a sharp rock above the stormy sea, harmoniously blended into the artistic world of Yeats. Most likely, he was familiar not only with the great MacPhersonian hoax but also with the original works of Celtic folklore.

The imaging system in Yeats's early work has a slightly different structure:

1. The hero is the central image of the Yeats system. It can have a mythological prototype, or it can be completely invented by the author. The hero can be a warrior, a poet, or a madman. Also, the role of the hero is often the image of the author.

2. The goddess is also the central image, opposing the image of the hero.

3. Gods and various supernatural beings.

4. Real historical characters, both contemporary to Yeats and those who lived in previous eras.

5. Images of birds, animals, trees.

Many images, especially the central ones, are accompanied by some attributes that form the character's own symbolic field (often this function is performed by images of birds, animals and trees). In ancient mythology, gods also often had such attributes-characteristics. For example, the goddess of wisdom and just war, Athena appeared in mythical stories accompanied by an owl and a snake: "The deep wisdom of the earth was embodied in a snake (by the way, the Russian" earth "and" snake "- one root), and the secret all-vision of the night - in an owl with her eyes burning with cold light "[6; 14]. Such symbolic attributes contribute to better disclosure of the image and will be involved by us in the analysis of characters.

Oisín, the central character of "Wanderings of Oisín", remained for Yeats a model and prototype of the hero throughout his early work. The image of Oisín was also the first experience of reflecting the personal traits of the author in a mythological mirror, which affected the attitude of the creator to the poem: "The end of Oisín is a great relief for me; no poem ever gave me so many problems, and this gave rise to insomnia, kept me in a tense nervous state, all the time did not leave my thoughts - throughout all these weeks ... A long poem - like a fever "[5; 41] The poem was a synthesized experience of the young Yeats: the poet combined the decorativeness of the romantic presentation with the Irish plot, he also used the symbol as a creative method. In a letter to Catherine Tynan, Yeats speaks of the symbolic encryption of many images and plot moves of "Wanderings ...": "I am said some things that only I have the key to. My readers have been given a love story, and they will not even notice that the poem is full of symbols. They will not understand it. If they understood, it would ruin the art "[9; 98]. If you look for the keys to the symbolic reading of the poem, hidden by Yeats, then one of the most important will be the Celtic myth.

Yeats takes his Oisín "the way of the hero," and the model of initiation lays the basis of the plot of the poem. Oisín copes with all initiation trials, except for the last one - instead of going further into the future, he tries to return to the past - and instantly transforms from a young youth into a decrepit old man and soon dies. On the pages of the poem are hidden omens of the mournful fate of Oisín: the composition of the plot is built in such a way that with each new spatial movement of the hero, new alarming symbols appear, which intensify the atmosphere of the narrative. If on the way to the first island Niamh sang merry songs, then on the way to the second island the singing became sad, and the third journey took place in silence:

*And Niamh sang continually ...for now the fall of tears*

*And never a song sang Danaan songs...*

The last road, which Oisín overcomes without being accompanied by Niamh, finally takes the hero out of the world where it is possible to know.

The result of the "myth-building" in the cases considered in the dissertation was the creation of a universal and cosmological system for Blake and a more individual and personal

system for Yeats. The conflict in the works of Blake grows to the universal level, while the conflict in the works of Yeats is an internal conflict of the personality. Yeats is the most successful as a poet and magician as a philosopher and mystic.

### **References:**

1. Albright D. The Myth against Myth: A Study of Yeats's Imagination in Old Age. - London: Oxford University Press, 1972.
3. Bhargava A. The Poetry of W.B. Yeats: Myth as Metaphor. New Delhi: Arnold Heinemann, 1979.
4. Djalilova, Z. B. (2020). Flora in Edmund Spenser's poetry. ISJ Theoretical & Applied Science, 04 (84), 371-375.
5. Ellmann R. Yeats. The Man and the Masks. London: Macmillan, 1980
6. Flannery M.C. Yeats and Magic. - Colin Smythe, Gerrards Cross, 1977. - 165
7. Foster R.F. W.B. Yeats: A Life. Vol. 1. The Apprentice Mage 1865-1914. Oxford; New York: Oxford university Press, 1997. - 640
8. Frye N. Yeats and the language of symbolism // Fables of Identity. -N.Y.: Burlingame, 1963
9. Ganieva, O. K. (2020). The essential literary criticism of John Steinbeck's "The pearl" and Odil Yakubov's "Mukaddas". ISJ Theoretical & Applied Science, 05 (85), 747-750.
10. Kilicheva Mekhriniso Rajabovna, "The Literary-Philosophical Essence Of The Concept Of Loneliness", IEJRD - International Multidisciplinary Journal, vol. 5, no. Conference, p. 4, May 2020.
11. Khamdamova, S. B. (2020). Peculiar features of William Butler Yeats' poetry. ISJ Theoretical & Applied Science, 04 (84), 348-351.

## **ИЛТИФОТ ВА УНИНГ МЕТАКОММУНИКАТИВ ВАЗИФАЛАРИ**

**DOI:10.53885/edinres.2021.91.75.034**

*Нафиса Низомиддиновна Ҳамроева*

Бухоро давлат университети ўқитувчиси

**Аннотация.** *Алоқа жараёнида бир қатор вазифаларни бажарадиган, одамлар ўртасидаги муносабатларни уйғунлаштириши ва мулоқотлаштиришига хизмат қиладиган оғзаки мулоқотнинг фатик тури бўлмиш илтифотнинг прагматик хусусиятларини ўрганиши, лингвистик илтифот назариясини яратмиш тилишунослик тараққиётидаги ечимини кутаётган муаммодир. Мақолада фатик мулоқот турларидан бири бўлган илтифот, унинг зиддиятли нутқдаги вазифалари ҳақида сўз боради.*

**Калит сўзлар:** *илтифот, зиддиятли нутқ, нутқ одоби, робитасозлик, фатик функция, метакоммуникация*

Коммуникация ҳаракати иштирокчилари мулоқот жараёнида вазият тавсифига, суҳбатдошнинг характериға (жинси, ёши, ижтимоий мақоми, қариндошлиги, танишлиги) ва суҳбатдошларнинг ижтимоий иерархик (паст, тенг, юқори) ҳолатига мос равишда муайян лексик воситаларни қўллайди. Шахслараро ахлоқий (этик) муносабатлар этикетга асосланган нутқ мулоқотининг етакчи мезони бўлган хушмуомалалик принципи асосида қурилади. Ана шу хушмуомалалик нутқий мулоқот кўринишларидан бири бўлган фатик мулоқот жанри – илтифотнинг асосий унсуридир. Илтифот тадқиқи – тилшунослигимиз учун ўз тадқиқини кутиб турган муаммолардан бири.

Ўзбек тилшунослигида Ҳ.Турдиева “Нутқий этикет бирликларининг лингвопрагматик тадқиқи” номли диссертациясида нутқий этикет бирлиги сифатида мулозаматни санаб ўтади. Тадқиқот ишида мулозамат тушунчаси таркибини хушомад, алқаш, мақташ, камтарлик каби нутқий жанрлар ташкил этади [4, 35], деб таъкидлайди. Ҳ.Ҳожиёванинг “Ўзбек тилида ҳурмат майдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти” мавзусидаги номзодлик диссертациясида ҳурмат майдони воситалари структур ва

семантик-функционал жиҳатдан таҳлил қилинган бўлса, С.Мўминовнинг “Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари” номли тадқиқотида мулоқот хулқи муаммосининг назарий масалалари, психоллингвистик аспекти, ҳудуд ва жинс жиҳатдан хосланишлар билан боғлиқ масалалари хусусида тўхталган. Аммо илтифотнинг фатик мулоқотнинг алоҳида кўриниши эканлиги тадқиқи долзарб масала бўлиб келмоқда.

Зеро, нутқий мулоқотнинг кўринишларидан бири фатик мулоқотдир. Фатик мулоқотнинг умумий мақсад-моҳиятини суҳбатдошлар (коммуникантлар) орасида мулоқот-суҳбатни тузиш → сақлаш → ёпиш вазифаларига хизмат қиладиган, мулоқот мақсади билан алоқадор бўлган ахборот билан бевосита боғланмаган мавзулардаги қисқача суҳбат ташкил этади [3, 293]. Бунда мулоқотга киришиш деганда коммуникантларни медиадискурсга тайёрланиши, мулоқотда бўлиш атамаси остида алоқа-суҳбатни сақлаш ва давом эттириш, мулоқотни яқунлаш деганда эса алоқани яқунлаш жараёнлари билан боғлиқ мулоқот нутқини тушунамиз. Биз бу фикрларни аввалги бобда ҳам таъкидлаган эдик. Мулоқотнинг фатик вазифаси ўзига хос маъноларга эгадир. Биз буни фатик жанрлар деб ҳам аташимиз мумкин. Масалан: 1) лутф, хушомад, илтифот (комплимент), 2) мақтов, 3) изхори муносабат, 4) миннатдорлик, 5) ҳазил-мутойиба, 6) олиб қочиш/чалғитиш (флирт) ва ҳ.к. Фатик мулоқотдан ягона мақсад алоқани сақлаб қолишдир. У интеллектуал мулоҳаза натижаси эмас, бу ерда тил фикрни етказиш воситаси сифатида ишламайди.

Илтифотнинг мулоқотни қўллаб-қувватловчи фатик вазифаси ҳаракатнинг изчиллигини таъминлайди, коммуникаторларнинг кейинги ўзаро мулоқотларини осонлаштирадиган ташкилий ҳодиса ҳисоланади. Умумий вазифалари куйидагилардан иборат: суҳбатдошнинг диққатини ва қизиқишини сақлаб қолиш, суҳбатнинг самарадорлигини рағбатлантириш, тушунишни бошқариш, шахслараро жозибадорликни ошириш ва қулай муҳитини яратш ҳамда сақлаб қолиш каби.

Мулоқотни яқунлаш ҳақидаги фатик илтифот суҳбатдошга ўзаро таъсирнинг тугаши тўғрисида хабар беради ва коммуникатив ҳаракатнинг ижтимоий ҳамда эмоционал натижаларини сарҳисоб қилади.

Фатик мулоқот воситаси сифатида илтифот конструктив вазифани бажаради. У керакли/зарур оҳанг ва мулоқот услубини ўрнатади. Тингловчига маълум муносабатни шакллантириш, суҳбатдошлар орасидаги масофани камайтириш ва ҳиссий стрессни енгиллаштириш каби вазифаларни бажаради. Илтифот нутқий этикет бирликлари доирасида ҳам ўрганилади.

Биз таҳлил учун бир қанча тарихий асарларга мурожаат этдик. Бундай асарларда асосан подшоҳ ва мансабдор аъёнларга хушомад, илтифот, уларнинг толеъини кўкларга кўтариш каби ўринлар бисёр эканлигига гувоҳ бўлдик. Шу билан бирга тарихий асарларда жанг ва ғалаба мотивлари кўрсатилган лавҳаларнинг кўпроқ учрашини ҳисобга олсак, улардаги илтифотларда куч-қудрат, мардлик, жасурлик хусусиятлари улуғланган бўлади. Яна бир жиҳат шуки, замонавий мавзулардаги асарлардан кўра тарихий мавзулар ёритилган бадиий асарларда ўзига хос илтифот, мулозамат намуналари кўпроқ учрайди.

П.Қодиоровнинг “Юлдузли тунлар” романида ҳам фатик мулоқотнинг тури ҳисобланган илтифотнинг бир қанча намуналарини кўришимиз мумкин:

- Билагингизда куч кўп амирзодам! Шерпанжасиз. Подшоҳ ҳазратлари сизни Бобур деб атаганлари бежиз эмас. Бобур арабча шер демақдир! [1, 36]

Биз ҳар бир миллат вакиллариининг нутқида ўз менталитети акс этиши ҳақида гапирган эдик. А.Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романида ҳам илтифотнинг энг ноёб намуналарига дуч келамиз. Асар тенгсиз одоб-ахлоқ, ўзбекона одоб ва маданиятни ўзида акс эттиради. Дастлаб Юсуфбек ҳожи ва Отабек образини таҳлил этсак. Юсуфбек ҳожидаги салобат ва тафаккур қудрати, Отабекдаги виждон ва йигитлик ҳақидаги мустаҳкам тасаввур Қодирий қаҳрамонларининг ақлу закоси, мулоҳазакорлигини кўрсатади. Ўзбекоким ўз хоҳиши билан Отабекка Зайнабни унашиб қайтади. Отабек

бундан беҳабар бўлсада, бир дилхираликни сезиб тургандек. Романнинг бу ҳақдаги воқеаси баёнида шундай дейилади:

“...Анчагина сўзсиз ултургандан сўнг ҳожи мулойимона сўз очди:

-Ўғлим, ҳали сан эшитдингми, йўқми, ҳайтовур, биз санинг устингдан бир иш қилиб қўйдик...

Отабек, маълумки, уларнинг «қилиб қўйган ёки қилмоқчи бўлган ишларини» албатта билар эди. Шундоқ ҳам бўлса билмаганга солинди:

-Ақлик кишиларнинг ўғуллари устидан қилган ишлари албатта номаъқул бўлмас, - деди.” [2, 72]

Фарзанд жавобидаги мантиқий қудрат ва ота-онага нисбатан тавозеъ шу қадар кучли эдики, ота бундан қаттиқ таъсирланади. Ҳожи Ўзбек оғимдаги бироз калтабинлик нуқсини билсада, айбни борича унга тўнкаб қўймайди, «биз» деб кўрсатади. Энди бу оғир масалани узил-кесил ҳал қиладиган қатъий тамойил бор. Бу ҳам бўлса, ушбу оила аъзоларига хос бўлган лафзга садоқат туйғусидир. Айни шу парчанинг ўзида ноёб ўзбекона қадриятлар – фарзанднинг ота-она ихтиёрига кескин қарши чиқмаслиги, ота ҳурмати, фарзанд эъзози, оилабошининг аёли иззатини ошқора тўқмаслиги, айниқса, лафзга вафодорлик фазилати маҳорат билан очиб берилади.

Кўринадики, илтифот дискурсида бир қанча прогматингвистик ва социолингвистик вазифаларни бажаради. Зеро, у мулоқотнинг ажралмас таркибий қисмларидан бири, шахслараро ўзаро таъсирни уйғунлаштириш воситасидир.

#### Адабиётлар:

1. Қодиров П. Юлдузли тунлар. Т.: Шарқ, 2016.
2. Қодирий А. Ўткан кунлар. Т.: Шарқ, 2004.
3. Тоирова Г. Фатика ва фатик мулоқот турлари//ЎзМУ хабарлари –Тошкент, 2016, 2-сон –Б.291-295.
4. Турдиева Х. Нутқий этикет бирликларининг лингвопрагматик тадқиқи: филол. фан. PhD дисс. автореф. – Тошкент, 2020.
5. Хамроева Н. Н. Комплимент как одна из форм фатического общения КОМПЛЕМЕНТ AS ONE OF FATIC COMMUNICATION FORMS //МІЖНАРОДНИЙ НАУКОВИЙ ЖУРНАЛ «ІНТЕРНАУКА. – 2020. – С. 107.

## ПРОБЛЕМЫ ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ – ОДНА ИЗ УЗЛОВЫХ ПРОБЛЕМ ТЕОРЕТИЧЕСКОГО ЯЗЫКОЗНАНИЯ

DOI:10.53885/edinres.2021.60.97.035

*Ильхомжон Собирович Мадрахимов*

кандидат филологических наук, доцент

Коканд ГПИ

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с определением языковых единиц в мировой лингвистике. Учитываются принципы выделения вышеуказанных единиц языка.

**Ключевые слова:** языкознание, языковые единицы, фонема, морфема, слово, словосочетание, глоссематика, дескриптивная лингвистика, семантема, грамматика, фонология, минимальная значимая единица, структура

**Annotation:** This article discusses issues related to the definition of linguistic units in world linguistics. The principles of allocation of the above-mentioned language units are taken into account.

**Key words:** linguistics, linguistic units, phoneme, morpheme, word, phrase, glossematics, descriptive linguistics, semanteme, grammar, phonology, minimal significant unit, structure

В современном языкознании чаще всего выделяются следующие языковые единицы: фонема, морфема, слово и словосочетание.

Фонема представляет собой лишь звуковой материал и отличается от остальных единиц тем, что не является носителем языкового значения. Остальные же единицы представляют собой единство звукового материала и языкового значения, но и они отличаются друг от друга: морфема – это минимальная значимая единица языка, слово – более сложная конструкция, состоящая из морфем, а крупнейшей языковой единицей является словосочетание. Между языковыми единицами устанавливаются определенные иерархические отношения: морфемы составляют слова, слова же – словосочетания.

Морфема – относительно новое понятие в языкознании. Этот термин внес в науку о языке И.А.Бодуэн де Куртенэ. Понятие морфемы, наряду с понятием фонемы, появляется в 1881 году в его исследовании «Сравнительная грамматика славянских языков» [1; 19, 6;13].

Сам И.А.Бодуэн де Куртенэ в своем исследовании о Н.Крушевском, говоря о делимости языка, отмечает, что если исходить из значения, то это деление кончается «на морфологической единице, или, как ее назвал, «Морфеме» [8;182].

И.А.Бодуэн де Куртенэ дает следующее определение морфемы: «Морфема дальше не делимый, дальше не разложимый морфологический элемент языкового мышления. Этот термин влется родовым, объединяющим для частных, видовых понятий, в роде корень, префикс, суффикс, окончание и т.п. Считать подобный термин лишним – это то же самое, что считать лишним объединяющий термин «дерево» и довольствоваться частными названиями «дуб», «береза», «ель», «ива» и т.д.» [8; 290-291].

Как видно из вышесказанного, И.А.Бодуэн де Куртенэ внес в языкознание понятие морфемы как объединяющего термина для обозначения корня и аффиксов (или заменяющих аффиксы средств). Понятие морфемы получило всеобщее признание и широкое распространение в различных направлениях современного языкознания (таких, как французская социологическая школа, Пражский лингвистический кр-к, глоссематика, дескриптивная лингвистика и другие).

Следует, однако, отметить, что в этот термин (морфема) сторонниками различных направлений в языкознании вкладывается разное содержание. Так, например, Ж.Вандриес выделяет во фразе элементы двух видов – понятия, выражающие идеи, и понятия, передающие отношения между этими идеями, и исходя из этого, сопоставляет друг с другом семантемы и морфемы. От пишет: «Под семантемами же – языковые элементы, выражающие отношения между этими идеями» [7; 77].

Так как по Ж.Вандриесу морфема – это любой способ выражения отношений в языке, то, следовательно, в понятие морфемы им включаются такие разнородные явления, как: морфема, выраженная фонетическим элементом [7; 77-78], чередованием гласных (когда, как помогает Ж.Вандриес, посредством фонетических элементов самой семантемы отмечается морфологическая роль этой семантемы) [7; 79-80], ударением [7; 80], порядком слов в предложении [7; 81-82]. Ж.Вандриес отмечает и нулевую морфему, которая выделяется посредством противопоставления грамматических отношений и так же необходима, как пауза в языке [7; 81].

Трактуя морфему по-своему, Ж.Вандриес считает морфемой любой способ выражения грамматических отношений и поэтому наряду с морфологическими способами в морфему им включаются и чисто синтаксические способы выражения отношений (так, например, порядок слов). Кроме того, в понятие морфемы Ж.Вандриес не включает корневые элементы, для них он предлагает особый термин – семантему.

Оригинальные соображения высказывает по этому вопросу В.Скаличка. В своей теории грамматики он отмечает, что «если грамматика представляет собой систему, то необходимо найти мельчайшие единицы, из которых образована эта система. «Такой мельчайшей единицей, – пишет В.Скаличка, – считается морфема» [5; 135].

Однако он сам не согласен с этим. Свои соображения он иллюстрирует на основе следующих примеров флективных форм: foot – feet (англ. «нога» - «ноги»), tooth – teeth («англ.зуб» - «зубы» где ясно выражены две функции: с одной стороны, семантем «нога», «зуб», а с другой - числа, единственного и множественного. В других примерах эти функции выражаются двумя разными морфемами: hand \ «рука» - hand's «руки». На основе такого рода примеров В.Скаличка приходит к заключению, что в грамматике есть мельчайшие, неделимые элементы, которые он называет семами.

«Сема, - пишет он, - большей частью, хотя и не всегда, выражается непрерывной последовательностью фонем, то есть она обычно является тем, что принято называть «морфемой» [5; 135]. А «морфема» - это соединение сем, которое само по себе или с помощью других морфем выражается непрерывным фонемным рядом» [5; 138].

Такая точка зрения, безусловно вытекает из особенностей теории Пражского лингвистического критика, сторонники которой придают особое значения учению с функции. И сема В.Скалички является одной из таких функциональных единиц, что вполне справедливо отличается и В.Матезиусом: «Сема в понимании Скалички является единицей по существу функциональной связанной лишь с возможностью формального выражения в области конкретного языка» [4; 202], хотя сам В.Скаличка считает ее (сему) одновременно и формальной и функциональной единицей, так как, по мнению В.скалички, форма и функция в грамматике переплетаются так тесно, что невозможно отделить их друг от друга. Теория в Скалички о мельчайшей единице грамматики не является общепринятой и распространенной теорией в Пражском лингвистическом кружке [4; 129]. Для пражцев более характерным является определение морфемы как минимальной единицы языка. При определении грамматики они исходят из слова и характеризуют морфему как часть слова.

В «Проекте стандартизированной фонологической терминологии» морфема определено как: «Морфологическая единица, которую нельзя разложить на более мелкие морфологические единицы, то есть часть слова, которая в целом ряде слов имеет одну и ту же формальную функцию и которую невозможно разложить на более дробные части, обладающие этим свойством» [11; 321].

Аналогичным образом определяется морфема и в коллективной статье представителей Пражской школы, которая была опубликована в журнале «Вопросы языкознания». В этой статье говорится: «Слово представляет собой наибольшую единицу значения, реализованную фонемами и способную перемещаться в предложении. Морфемы же являются наименьшими единицами, на которые можно разделять слова» [3; 47-48].

По Н.С.Трубецкому морфемой является «комплекс фонем, который повторяется во многих словах и притом в одном и том же (вещественном или формальном) значении» [10; 280].

В современном языкознании очень распространено понимание морфемы как объединяющего термина для значимых частей слова (корня, аффиксов и т.п.). Морфема прочно заняла свое место в иерархии лингвистических единиц: из морфем состоят слова; морфемы по своей функции могут быть корневыми и грамматическими (аффиксы, аблаут и т.п.); слова же составляют более крупную структурную единицу – словосочетание (одним из конкретных видов словосочетаний является предложение).

Точка зрения на морфему американской дескриптивной лингвистики резко отличается от подобного взгляда. Основной языковой единицей дескриптивистами объявляется морфема – минимальная значимая единица, объектом грамматики – морфема и комбинации морфем, слово же современно выпадает из рядов основных понятий лингвистики.

Предметом настоящего исследования является с л о в о. Казалось бы проблема слова не должна быть связана с особыми трудностями. В отличие от морфем, которые выделяются только путем лингвистического анализа, реальность слова у говорящих не

вызывает сомнений. В процессе речи, говорящие легко выделяют слова, и могут сосчитать количество слов в тексте. В этом отношении интересно выполнить Эд.Сепир на основании языковой практики убедился, что слово для говорящих является психологической реальностью. Это подтверждается хотя бы следующим примером: для неграмотного индейца не представляет никакой трудности выделить в тексте слова, он охотно может повторить для исследователя любое слово из текста, тогда как наотрез отказывается выделять корневые и грамматические элементы, так как считает, что в этом случае «не получается смысла» [13; 27]. Эд.Сепиру дважды пришлось обучать письму индейцев и оба раза его «ученики» затруднялись делить слова на звуки, хотя с легкостью определяли границы слов. На сотнях страниц рукописи на языке нутка слова были выделены так точно, словно это сделал учений [13; 27-28].

Слово традиционно занимало в грамматиках ведущее место: так еще в учении Дионисия Фракийского части речи являлись не чем иным, как классами слов. Большинство языковедов считает слово одним из основных понятий языкознания и в своих теориях опирается на него (А.Мейе, Н.С.Трубецкой, Й.Вахек, Б.Трнка, А.Мартине, В.В.Виноградов, В.М.Жирмунский, А.А.Реформатский, А.И.Смирницкий и многие другие).

Несмотря на это, теоретические вопросы, связанные с сущностью слова все еще недостаточно разработаны. Одни авторы в обсуждении вопроса языкознания единиц, обходят слово, не исследуя его, а некоторые языковеды заявляют, что слово не является основной единицей языка. Это имеет свои причины. Одна из них заключается в сложности и многоплановости слова. Слово имеет несколько измерений (звучание, структуру, значение), что затрудняет выделение определяющих признаков слова. Кроме того, строение слов в разных языках различно. Поэтому трудно найти общее структурное определение слова, пригодное для всех языков. Может быть поэтому некоторые языковеды оспаривают факт существования слов во всех языках. Они считают, что слова есть в индоевропейских и некоторых других языках, но якобы их нет в таких языках, как языки американских индейцев. Т.Милевский, например, отмечает, что ряд языков американских индейцев (группы на –дене, тлингит и хайда, атабаскские языки, языки майду и такелма из семьи пенута, хопи язык и диалекты сью) не имеет слов [12; 248-268].

Существует и противоположное мнение, что слово является языковой универсалией, так как лингвистика до сих пор не знает языка без слов – языка, в котором не было бы названий отдельных предметов. Слово представляет собой лексико-грамматическую единицу. Его грамматическая структура различно в различных языках, но чрезмерная сложность структуры слова в некоторых языках не дает основания противопоставлять эти сложные комплексы более простым словом, ведь при семантической сложности иных слов мы все же не приравниваем их к предложениям и словосочетаниям, даже если эти слова по значению равняются им [9; 75-76].

Слово по своему строению и характеру представляет собой наиболее специфическое явление языка. Слово, как иногда выражаются фигурально, это – язык в миниатюре. Центральное место слова в языке настолько очевидно, что иной раз, наряду с научной аргументацией, стараются, защитив его и чисто эмоциональными высказываниями типа следующих строк А.А. Реформатского: против всех аргументов «хулителей» слова, как бы ни были глубокомысленны их соображения, восстает непосредственное ощущение слова и слов в речи опыты счета слов наивно говорящими и, наконец, здоровый смысл. Если бы слова в языке не было, то вряд ли бы от Иона апостола и до Шекспира, и от Секста Эмпирика до Гумилева и Смирницкого так отчетливо говорили бы о слове [2; 62].

Наше исследование мы начнем с обзора теорий о слове. Эти теории можно условно разделить на две основные группы: 1. Теории, трактующие слово как основную единицу языка и 2. Теории, не считающие слово основной единицей языка.



### Литература:

1. А.А.Леонтьев. Творческий путь и основные черты лингвистической концепции И.А.Бодуэна де Куртенэ (к 30-летию со дня смерти). -М., 1960.
2. А.А.Реформатский. К вопросу о фоне-морфологической делимитации слова. Сб. Морфологическая структура слова в языках различных типов. М.-Л., 1963.
3. Б.Трнка и др. К дискуссии по вопросу структурализма // ВЯ, 1957, № 3.
4. В.Матезиус. Попытка создания теории структурной грамматики. Сб.Пражский лингвистический кружок. М., 1967.
5. В.Скаличка. О грамматике венгерского языка. Сб.Пражский лингвистический кр-к. -М., 1967.
6. Г.А.Климов. Фонема и морфема. -М., 1967.
7. Ж.Вандриес. Язык. Лингвистическое введение в историю. -М., 1937.
8. И.А.Бодуэн де Куртенэ. Избранные труды по общему языкознанию, Т.1, -М., 1963.
9. Kramsky. The word as a linguistic unit, The Hague-Paris, 1969.
10. Н.С.Трубецкой. Основы фонологии. М., 1960.
11. Projet de terminologie phonologique standardisee. Travaux du Cercle Zinguistique de Prague, 4, 1931.
12. T.Milewski. The conception of the word in the languagus of North American native s. Zingua Posnanien-sis, III, 1951.
13. Эд.Сепир. Язык. Введение в изучение речи. М.-Л., 1934.

### ЛУГАВИЙ БИРЛИКЛАР ЎРТАСИДАГИ ЭПИДИГМАТИК МУНОСАБАТ

DOI: 10.53885/edinres.2021.52.20.036

*Шохиста Тухташевна Махмараимова*

Термиз давлат университети доценти,  
филология фанлари доктори

**Аннотация.** *Эпидигматика* (юн.epidosis «кўпайиш, орттириш») тушунчаси Н.Шмелев томонидан фанга киритилган бўлиб [1], бу ҳодиса лексик маънолар ўртасидаги формал-семантик (шаклий-маъновий) муносабатларни ифода этади. Уни яна “эксплицит парадигматика” деб ҳам номлайдилар. Эпидигматик муносабатлар деб кўпмаъноли лексемалар, фразеологик бирликларнинг ички алоқадорлигига асосланувчи маъновий муносабатига айтилади. Масалан, у кўпмаъноли сўзнинг семантик таркибидаги деривацион алоқадорликни аниқлайди ва битта маънони иккинчисидан фарқлашга хизмат қилади. Эпидигматик (лот. *derivatio* “сўз ҳосил қилиш”) алоқа тенг маъноли, параллел деривацияга асосланган алоқадир. Жумладан, *пахта* – *пахтакор-пахтазор* – *пахтали* кабилида юзага чиққан деривацияни, демакки, асос ва унинг қаторидаги битта сема билан боғланган ҳосила лексемалар қатори ўзига хос эпидигматик алоқани намоён этади. Бу муносабат ўзига хос тобелик, бир-бирини тақозо этувчи, тўлдирувчи муносабат тури ҳамдир.

**Калит сўзлар:** *эпидигматика, сўздаги тўғри маъно, кўчма маъно, маънодаги умумий компонентлар*

Эпидигматика сўздаги тўғри ва кўчма маънони маънодаги умумий компонентлар орқали аниқлайди.

Эпидигматик алоқа кўпмаъноли сўзнинг маънолари ўртасидаги алоқа тури бўлиб, у полисемантик сўз маъноларидаги метафорик ва метонимик муносабат қаторида кам ўрганилган алоқа тури ҳисобланади. Мазкур алоқа ўзида тобелик муносабатини ифода этади, ҳолбуки, тилшуносликда бундан ташқари, парадигматик ва синтагматик (чизиқли) муносабат турлари ажратилади.

Тилшунос олим М.Миртожиев лексик маъноларнинг тобелилик натижасидаги тараккиёти полисемантик сўзлар вужудга келиши учун сабаб бўлади, дея таъкидлайди ва бунда *мушт* сўзидаги маъно тараккиётига эътибор қаратади. Унинг биринчи маъноси «қўл учининг бармоқлари юмук ҳолати»дир. «Унинг зарби»ни ифода этувчи лексик маъно эса тобелилик натижасида ҳосил бўлган кўчма маънодир: *Қўрққан олдин мушт кўтарар* (Мақол). *Серсоқол дов аскар билан олишиб, икки мушт билан уни гаранглатди*(Ойбек). Мана шу асос ва кўчма маънолардан мушт полисемантик сўзи таркиб топган. Бу ўриндаги полисемантик сўзнинг мазкур маънолари ўртасидаги алоқа ниҳоятда равшан, яъни иккинчи — кўчма маънони генетик маъносиз тасаввур қилиб бўлмайди. Бундай полисемантик сўзлар маъноси ўртасидаги алоқанинг узилиши ҳам мумкин эмас.

Д.Н. Шмелев томонидан лексик маънонинг учинчи “деривацион” деб аталувчи ўлчами, яъни парадигматик ҳамда синтагматик алоқадорликдан бошқа сўз ясалиши доирасидаги алоқадорлик тури тўғрисидаги қараш илгари сурилгач, фанда бу алоқа тури яна эпидигматик муносабат шакли деб ҳам атала бошлади. Бу ҳолатда маъно тараккиёти натижасида содир бўлувчи маъновий ўзгаришлар, оқибатда маъно ҳажмининг кенгайиши ёки торайиши борасида Г. Пауль уларни қуйидаги кўринишларга бўлиб таснифлади:

1) «маъно ҳажмининг торайиши - мазмуннинг бойиши» (маънонинг ихтисослашуви);

2) «тасаввур мундарижасининг кенгайиши билан боғлиқ маъно мундарижасининг қашшоқлашуви»;

3) «номнинг макон, замон ва сабаб-натижа моҳиятидаги каузал алоқа асосида кўчиши»;

4) «юқоридаги уч кўринишга мос келмайдиган бошқа турдаги маъновий ўзгаришлар[2].

Г.Паулдан сўнг ўз таснифини таклиф қилган М.В. Никитин сўз маънолари ўртасидаги асосий концептуал алоқалар қаторига тушунчаларо алоқадорлик ва тобеликни ифода этувчи импликацион ҳамда тушунчаларни улар билдирган белги, типига кўра умумлаштирувчи таснифий турларни кўяди. М.В.Никитин таснифий алоқаларни гиперо-гипонимик ёки тур-жинс ва симилиатив турларга бўлади [3].

Маъношунослик нуқтаи назаридан эксплицитликнинг вазифаси мавжуд эмасдек кўринади: ифода топган ёки мавҳум қолган синоним, антоним ва мотиватлар бир хилдаги мавжудлик шаклига эга бўлганидан, уларни бир-бири билан алмаштириш мумкин. М., *қўй, қўзи / қўзичоқ, Қўзивой* сингари. Гарчи сўзнинг моддий томонидаги фарқликлар осон пайқалмагани билан, маъно кўламидаги тафовутлар мулоқот иштирокчиларининг мақсадли кўрсатмасига биноан тез-тез ўзгариб туради.

В.Гумбольдт, сўз қурилишининг универсал тамойиллари ҳақида гапира туриб, ўзаро қариндош маъноларни ўзаро қариндош (яқин) товушлар орқали ифода этиш мумкинлиги табиий ҳол эканлигини таъкидлайди[4].

Насрий баёнда эпидигматик алоқалар морфосемантик қурилма мисолида ифода топади. Бунда, одатда, муаллиф матн мавзусининг яхлитлигини таъминлаш, жумла тагмаъносида назарда тутилган асосий тушунчага урғу бериш мақсадида морфемалар такрорига йўл кўяди: *Саидий ҳам бу уйдан иши ўнгмай чиққан, қизнинг ҳам иши ўнгишига кўзи етмагани иккаласини бир-биридан ажратиб турган тагсиз чоҳга мустаҳкам кўприк бўлиб тушди. Саидий эса ундан нима умидвор эканини ўзи билмас, аммо унинг умид қилган нарсасинигина эмас, бутун оламни бериб, ҳеч нарса талаб қилмайдиган бир ҳолатда эди. У Саидий билан дўст эди, бу дўстлик оталарини ҳам муносабатдор қилган эди.* Лексемаларо бу каби эпидигматик алоқа қариндош сўзларнинг уясини ҳосил қилади. Бир асосли сўзларнинг ўзаро алоқаси уларнинг битта мавзуга алоқадорлиги, яқинлигини исботлайди. М., *пахта* асосли сўзлардаги морфосемантик яқинликни эсласак: *пахта, пахтакор, пахтачи, пахтазор, пахтали, пахтагулли, пахта тозалаш, пахта хомашёси, пахтадан тайёрланган мато* ва б. Бу тоифадаги бир асосли сўзлар тилнинг луғавий қатламида таснифий аҳамиятга эга:

тушунчавий жихатдан мазкур бирликлар “умумлашган мотивацион синфлар”ни ташкил қилади. Бироқ матн руҳида кинояли-сатирик табиатни пайдо қилиш мақсадида бундай морфем-семантик қариндош сўзларнинг морфем таркиби муаллиф ёхуд мулоқот иштирокчилари таъсирида ўзгаришга учраши мумкин. Натижада окказионал хусусиятли янги луғавий бирликлар юзага чиқади ва бир жихатдан неологизмга зид қўйилувчи, бироқ тилнинг луғавий сатҳида алоҳида унсур ҳисобланишга лойиқ бундай бирликлар тилнинг тизимли сатҳларида ўзига хос тартибсизликни юзага келтиради: “Неология билан боғлиқ назарий маълумотлар тилшуносликни янги фактлар, маълумотлар билан ниҳоятда бойитиш билан бирга, тизимли одатий (системали-узуал) муносабатлар назариясини ҳам ғулғулага солиб қўяди” (Т.Г.Винокур) [5]. Жумладан, *хат* лексемаси борасида шу сўзнинг морфем-семантик уясига бирикувчи сўзларнинг ўзаро алоқадорлиги сўзнинг қайси қисмига кўра аниқланиши айрим ҳолларда ечилиши зарур бўлган муҳим масалага айланади: *Қорхат* зиёфатига ўрганганлар *ёмғирхат*, *шабнамхат*, *қировхат*, *жалахат* деган янги-янги одатларни ўйлаб чиқармасликларига ким кафолат беради (С.Аҳмад). Ваҳоланки, *қорхат*, *ёмғирхат*, *шабнамхат*, *қировхат*, *жалахат* окказионализмлари ўз доирасидаги *ёмғир*, *шабнам*, *қиров*, *жала* лексемаларининг маъновий қуршовида мустаҳкам ўринга эгами? Буни *шабнам* лексемаси мисолидаги қуйидаги таҳлил орқали текшириб кўрамиз.

1. *Тонг саҳар тушган шабнам то офтоб ялаб олгунча майса қиёқларида титраб туради.* (С.Аҳмад);

2. *Мен тун бўлсам, сен бир маҳрун шам бўлдинг, Мен бир барг, сен бир томчи шабнам бўлдинг.* (С.Саййид);

3. *Ташналикни қондириб, бугулар офтобдан ҳузур қиларди. Йўлда шох-бутоқлардан тўкилган қуюқ шабнам елкаларида қурирди.* (Ҷ.Айтматов); *Тандир олдида куйиб-пишиб, шабнам доналаридай йирик-йирик терларга ботиб, Зеби билан бирга патир ёпаётган Салтига бу маслаҳат жуда ёмон қаттиқ теккан ва у ҳам дарҳол ўз овозини эшиттирган эди.* (Ҷўлпон);

4. *Ўйнаб учган кўк ўтлоқларда Шабнам кечиб чопсам, унутсам Диққи нафас олимликни ҳам.* (Э.Воҳидов).

Келтирилган 4 та мисолнинг барчасида *шабнам* лексемаси бош келишик, бирлик шаклида қўлланган бўлиб, ўзи боғланган сўзлар билан лексик-синтактик валентлик асосида уйғунлик ҳосил қилган. Бироқ *шабнам* лексемасининг синтактик шакллари ўзга турдаги сўзлар билан муносабатга киритиш мумкинми? Мумкин, бироқ бунда шу сўз билан муносабатга киришаётган бошқа сўзнинг семантик-синтактик уйғунлик ҳосил қила олиш имконияти эътиборга олинishi лозим.

*Шабнам* лексемаси форсча *шудринг*, *тун* + *-ҳўл*, *нам*; *сув* сўзидан олинган бўлиб, баҳорда, ёзда кечаси ҳароратнинг пасайиши туфайли майда томчилар тарзида ерга инадиган ҳаводаги, атмосферадаги буғ, намлик; ҳаводан инган *мусаффо томчи*; *шудринг* [10] маъносини англатади. Мазкур сўз ундаги ички шаклнинг мундарижасини ташкил этувчи бирликлар билан ўзаро уйғунлик ҳосил қила олувчи ўзга сўзлар билан семантик-синтактик муносабатга киришади. Бунда *шабнам* лексемасининг семантик тўпламини ташкил этувчи семалар билан ўзаро лисоний-мантиқий алоқадорлик, валентлик ҳосил қилувчи сўзлар жамланмаси назарда тутилмоқда. Жумладан, *шабнам* шаффоф, тоза, мусаффо – бу унинг сифатий белгилари, унинг томчи, буғ, намлик ҳолатидаги белгилари унинг физик хоссалари ҳисобланади ва табиатда шунга мос тушунчалар билан мантиқий алоқадорлик ҳосил қилади.

Яъни *шабнам* *инади*, *қўнади*, *тушади* (*ёғади* эмас, *эсади* эмас). Айнан шу маъно нозиклиги *шабнам* ва *хат* лексемаларининг ўзаро лексик-синтактик жихатдан муносабатга кириша олмаслигини исботлайди, негаки, *хат* лексемасининг семантик тўпламидаги мотивацион белгилар (*ёзмоқ*, *ўқимоқ*, *йиртмоқ*, *бўямоқ*, *безак бермоқ*, *имзоламоқ*) *шабнам*да мавжуд эмас. Қолаверса, *шабнамхат* сўзига эквивалент қўйилаётган *қорхат* ҳам компонент таҳлилга тортилса, худди шундай натижалар ҳосил

қилинади. Пировардида эса ҳар иккала сўзнинг ҳам окказионал ифода эканлиги маълум бўлади.

Кўринадики, тил луғат таркибидаги сўзлар ўзга луғавий бирликлар билан ўз семантик доирасидагина маъновий алоқадорликка кириша олади ҳамда тегишли маъновий қуршовдагина мазкур сўзнинг асл маъноси очилади.

Шу ва шу сингари масалалар сўзлараро эпидигматик алоқанинг ўзига тегишли бўлган лисоний табиатини очишга ёрдам беради. Эпидигматиканинг сўз ҳосил қилиш вазифаси матн тузиш жараёнида яққол намоён бўлади. Бунда коммуникант томонидан ўз фикри, муносабатини ифодалашга қодир янги семантик-синтактик позиция ва шунга мос тарзда луғавий бирликларга эҳтиёж туғилади [6, 7]. Табиийки, инсон нутқ фаолиятидаги ижодкорлиги асосан унинг томонидан ҳосил қилинган окказионализмларда намоён бўлади. Демак, сўзлараро эпидигматик муносабат окказионал сўз қўллаш жараёни мисолида ҳам содир бўлади.

Сўз қўллашдаги шу ва бошқа ҳолатлар жамланиб, ўзаро умумий ва ўзаро зидланувчи семантик-синтактик вазиятлар, сўзларнинг умумлашган-мотивлашган синфлари парадигмасини ҳосил қилади. Пировардида, мазкур парадигма маълум турга мансуб дериватларнинг ўзига хос сўз ясалиш парадигмасини юзага келтиради. Бу ҳолатда эпидигматиканинг хусусиятлари нафақат тилнинг сўз ясалиш тизими, балки луғавий сатҳига ҳам йўналтирилади.

Эпидигматикада эътибор қилиниши зарур бўлган муҳим жиҳат – унинг томонидан сўз ясовчи қўшимчаларга у қадар катта аҳамият ажратилмайди, яъни сўз ясалишидаги деривация ҳодисасига эпидигматик қўламда сўзнинг морфем таркибини ташкил этувчи унсурулар сифатида ёндашилади, холос. Эпидигматика учун энг муҳими – ясовчи асоснинг умумийлиги ва шу асосдан ҳосил бўлган лексемаларнинг барчаси шу лексемага генетик семантик-синтактик узвий боғланганидир. Бошқача айтганда, эпидигматика учун ясовчи асос – морф, дериватнинг қисми ва айни вақтда сўз таркибидаги мустақил бирлик. Ушбу мустақил бирликнинг морфем-мотивацион табиатига кўра ундаги икки: мотивацион йўналган ҳамда мотивацион йўналмаган фаолиятини кузатиш мумкин[8,9]. Хусусан, нутқ иштирокчиси айтилаётганларни эшитади ва худди шундай, эшитганларини энди янги нимадир тарзида қўллаш бошлайди. Бу нутқий деривациянинг психолингвистик исботланган жиҳати ҳисобланади.

#### Адабиётлар:

1. Шмелев, Д.Н. Проблемы семантического анализа лексики (на материале русского языка) / Д.Н. Шмелев. – М.: Наука, 1973. – 280 с.
2. Пауль, Г. Принципы истории языка / Г. Пауль. – М.: Иностран. л-ра, 1960. – 499 с. Н. В. Кралевиц Эпидигматические отношения в семантической структуре многозначного слова: подчинение (включение) (на материале китайского и английского языков) Весник МДПУ імя І. П. Шамякіна Філалагічныя Навукі epidigmaticeskie-otnosheniya-v-semanticheskoy-strukture-mnogoznachnogo-slova-podchinenie-vklyuchenie-na-materiale-kitayskogo-i-angliyskogo-yazykov.pdf
3. Никитин, М. В. Основы лингвистической теории значения / М. В. Никитин. – М. : Высш. шк., 1988. – 168 с.
4. Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию/Пер. с нем. – М., 1984.
5. Тошалиева С. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши: филол. фан. номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган дисс. автореферати. – Тошкент, 1998.
6. Mahmaraimova ST. Lingvokul'turolojiya. Tashkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa izhodij uji – 2017.
7. Mahmaraimova ST. role of the Teomorphic metaphor in practice OF THE WORLD'S COGNITION – Наука и человечество, 2013. <https://elibrary.ru/item.asp?id=21500797>.
8. Ergasheva D. In Uzbek Linguistics, Analogies Of Human Mental State (On The Example Of Odil Yakubov's Works) / The American Journal of Social Science and Education Innovations Published: November 06, 2020 | Pages: 16-20.

9. Xidirova I.X. Togʻay Murod asarida bosh qahramonlar nutqidagi sotsiopragsmatik holatlar // Сўз санъати халқаро журнали | Международный журнал искусство слова | International JOURNAL OF WORD ART №3 | 2021.

10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008. III ҳарфи.

**ХУРШИД ДЎСТМУҲАММАДНИНГ “ЁЛҒИЗ” ҚИССАСИДА БАДИИЙ НУТҚ ВА  
УСЛУБНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ  
DOI:10.53885/edinres.2021.66.78.037**

*Сиддиқжон Мўминов,*

ФарДУ профессори, ф.ф. доктори

*Табассумхон Мўминова,*

ФарДУ ўқитувчиси

**Аннотация.** *Ўзбек тилишунослиги ва адабиётшунослигида нутқ ва услуб масаласига эътибор қаратиш узоқ тарихга бориб тақалади. Хусусан, Навоий, Фитрат, Чўлпон, Иззат Султон, Тўхта Бобоев, Ҳамидулло Болтабоев каби ижодкор ва олимлар нутқ ва услуб масаласининг назарий асослари яратилишига ўз ҳиссаларини қўшганлар. Ўзбек тилишунос ва адабиётшунос олимларидан Ҳ.Неъматов, А.Нурмонов, Н.Маҳмудов, С.Каримов, Б.Ўлдошев, А.Раҳимов, У.Норматов, Б.Назаров, Б.Саримсоқов, Й.Солижонов, Д.Тўраев, Д.Қурононов, Б.Каримов, Қ.Ўлдош, А.Сабирдинов, С.Мўминов, М.Тоштемуров, Г.Имомова, Г.Эрназарова каби олимлар тадқиқотларида, илмий асарларида ҳам мавзуга оид қарашлар ўз ифодасини топган.*

**Калит сўзлар:** *нутқ ва услуб, бадий адабиёт тили*

Бадий адабиётнинг тили ҳақидаги илм ҳамон ўз чегарасини аниқлаб олган эмас. Бадий тилни асосан тилшунослар ўрганиши керакми, адабиётшунослар ўрганиши керакми, деган саволга узил-кесил жавоб топилгани йўқ. “Менинг чуқур эътиқодим шуки, – деб ёзган эди В. В. Виноградов, – бадий адабиётнинг “тил” (услуги)ни тилшуносликка ҳам, адабиётшуносликка ҳам яқин турган, айни вақтда, улардан фарқ қиладиган алоҳида бир филология фани тадқиқ қилиш керак” [1,3-4]. Бу ҳақда П. Қодиров шундай фикр билдиради: “Ҳозирги филология фанини, жумладан, унинг тилшунослик ва адабиётшунослик соҳаларини бадий адабиёт тилидан ажралган ҳолда тасаввур этиб бўлмайди. Агар бадий тил материаллари тилшунослардан олиб қўйилса, уларнинг тадқиқот объекти фақат шевалар ёки вақтли матбуот, фан ва идора тили билан чекланиб қолиб, ниҳоятда бирёқлама бўлиб кетар, бу ҳол тилшуносликнинг тараққиётига ўта салбий таъсир кўрсатган бўлар эди” [3,4].

Ҳозирги ўзбек адабиётида қисса жанри бўйича энг салмоқли ижод қиладиган ёзувчилардан бири Хуршид Дўстмуҳаммаддир. Унинг қиссалари мавзуси ранг-баранглиги ва сюжетининг ўзига хослиги билан тадқиқотчиларнинг эътиборини тортган. Хусусан, адабиётшунос олим Абдулла Улуғов “Уларда адабиётимиздаги кўпгина асарларга хос воқеалар бошланиши, тугуни, ривожи ва ечимидан таркиб топадиган сюжет деярли сезилмайди” [3.11] деган эди. Ҳақиқатан, унинг қиссаларида сюжет чизигини сезиш имконияти жуда кам. Шу ўринда, айтиш мумкинки, унинг бу хусусияти асарнинг нутқ ва услубига ҳам таъсир кўрсата олган. Ёзувчи қаҳрамоннинг икчи кечинмаларидаги нозик ва англаб бўлмас туйғуларни ҳам нутқида аниқ ифодалаб бера олади ва бу жараёнда нутқнинг турли шаклларида усталик билан фойдаланади: “Бошқа қаламкашлардан фарқли ҳолда, кўнгилдан жуда тез ўтадиган турли кечинмаларни аниқ илғаб олади ва уларни ишонарли тасвирлаб беради” [3.12].

Шу билан бирга, ёзувчининг тасвир услуги ҳам бошқа ижодкорларнинг услубидан тубдан фарқ қилади. “Адиб асарларидаги бу каби тасвир услуги ўзбек адабиётида ҳаёт ходисалари ва одам образини гавдалантириш, инсоннинг ички оламига кириб боришда

дадил изланишлар кечаётганидан дарак беради”[3.11]. Шунингдек, унинг қахрамонлари ҳақиқий ҳаётда яшаётган оддий деҳқон, трамвайчи, кишлоқ одами, ёш изланувчилар каби инсонлардан иборат. Асарларининг қахрамонлари оддий бўлишига қарамай, ёзувчи ўз услуби орқали уларни том маънодаги қахрамонларга айлантира олган. Уларнинг ички дунёсини тўлиқ очиб берган: “...адиб кишиларнинг кайфияти, аҳволи, шароитини ҳисобга олишга, одамни, у ким бўлишидан қатъи назар тушунишга ундайди”[3,12].

Бизнингча, ёувчида бундай тасвир ва услубнинг шаклланишида жаҳон адабиёти дурдоналарининг ўрни борлигини сезиш қийин эмас. Унинг қиссаларида жаҳон адабиёти намуналарига хослик яққол кўринади.

Хуршид Дўстмуҳаммаднинг энг сўнгги қиссаси эса XX аср замонавий ўзбек насрининг улкан дарғаси Абдулла Қодирийнинг қамокхонадаги кунлари (“Ёлғиз”) ҳақида ҳикоя этади. Абдулла Қаҳҳор архивини ўрганганимизда, адибнинг “Абдулла Қодирий”га бағишланган мақола қўлёзмалари ва кундалик қайдларида беназир истеъдод соҳиби Қодирийга “Ёзувчилар Амири” деган ёрликни берганини ўқидик. Хуршид Дўстмуҳаммад “Ёлғиз” қиссасида илк бор ўзбек ёзувчиларининг Амири Абдулла Қодирий бадиий сиймосини яратишга уринди.

Қисса услуби ҳақида сўз юритадиган бўлсак, ўзбек романчилигининг асосчиси адиб Абдулла Қодирий ҳаётида рўй берган бир воқеанигина бериш орқали унинг ҳаёти ва ижодий йўли тўғрисида ўзига хос маълумотлар бериш, асарларидан таржимаи ҳолига оид факт ва деталларни излаб топиш ҳамда улар устида ҳам бадиий, ҳам илмий мулоҳаза юритиш қиссанинг асосий ғоявий-эстетик моҳиятини ташкил этади. Қисса ўзининг сюжети ва композицион қурилиши, конфликт, қахрамонлар характерининг ишланиши жиҳатидан адиб қаламига мансуб бошқа қиссаларидан фарқ қилади. Унда муаллиф нутқи асосий қисмини ташкил этган бўлсада, диалогнинг одатдаги шаклидан ташқари турлари, персонаж нутқининг ўзига хос кўринишларидан фойдаланилган.

Бу хилдаги асарларда автор образи биринчи саҳифаданоқ кўзга очик ташланади. Бу бевосита автор нутқи орқали англашилади. Айнан ушбу жиҳатни “Ёлғиз” қиссасида ҳам кўришимиз мумкин:

“Маҳсидўзлик кўчаси қиялик эмасми, кунчиқардан кунботар томон – тепадан пастга – бозор майдонига тушаётган илдам қадамлар орасида ҳам, кунботардан кунчиқар томон – пастдан тепага – бозор майдонидан юқорилаётган оғир карвонлар орасида ҳам текин томошатаблар ҳамиша ҳозир нозир – уларнинг аксарияти йўлдан қолиб овоза келган томонга қайрилиб қарадилар. Кўчанинг бозор майдонидан чиқаверишда сўл томондаги олди очик чойхона ёнида тик турган икки кишининг бири, шубҳасиз аёл бўлса керак, бошига паранжи ёпингани, унинг ёнидаги шериги бақалоқ эркак калтабақай қўли билан паранжили аёлнинг эгилиб таъзим айлашига кўмаклашаётган ё бўлмаса уни шу ишга мажбурлаётган одамдек қад ростлаб турар, тобора овозига зўр бераётганди:

– Ўзи четка биқиниб, шахсиятга тўқинуб, аллакимга чўқинуб – ўғри ушлаганга сало-о-ом!” [3.653].

Қиссада Фарғона лексикаси билан Тошкент шеvasи ўзаро қоришиб, ажабтовур нутқ пайдо бўлган. Қахрамонлар нутқида учрайдиган ўша даврга оид қўлланилган сўзлар ана шу муҳитни жонли тасвирлашга хизмат қилган.

Абдулла Қодирий ва Исоқ домла ўртасидаги суҳбат:

“– Улдурки, замона охир бўлди, ини-им!.. Ҳамма ёқ расвои радди бало! Нима кўп – худа-беҳуда иш кўп! Ёзвоссанми?

Абдулла бош ирғади. Мавеза давом этди:

– Шароит пешалари авжида, биззи фақирлар эса хорликда. Новзанбиллоҳ, новзанбиллоҳ!.. Кийимлар этаксиз, сочлар белга этади. Бунга кўнсанг эркаклар хотун, хотунлар эса эркак қиёфасига кириб бўлл-лди! Ақл кетда, ақл! Ақл кетдими, қулоғингда бўлсин, бола, жамоатдан ақл кетдими, борар йўлимиз, қилар ишларимизнинг оёғи Арши аълода – боши қора туфрокда деявер!”[3.694].

Адибнинг фонетик элементлардан фойдаланиши қаҳрамоннинг характерини шакллантиришида хизмат қилади. Биргина товуш элементининг ўзи бир неча сўздан иборат гап маъносини англатади. Бу контекста янаям яққолроқ маъно ифодалайди, ҳамда турли маъноларни билдириб, матнни тўлдиради, вазиятни кескинлаштиради, персонажнинг янги қирраларини кашф қилади.

Абдулла Қодирий ва қўшниси Исоқ домла ўртасидаги суҳбатдаги лавҳадан кўришимиз мумкин:

– Сан **мундо-о-оқ** маҳалла-қўйга чиқмайсан. Одамларга қўшилмайсан...

– **Ҳм...** –деди-қўйди Абдулла эшитилар-эшитилмас.

– **Вей**, манга қара, бола! Шу **ўзимиззи** кўчага ҳам қадами етибди ўша касофатларни!

– Қандай касофат?

– Пешин номаозига бора туриб муноишда қип-қизил бир ўрис ўспиринга рўбарў келаманми! Тагин қўлида милтиқ десанг!

– Милтиқ?! Ҳуркиб **кетгийми**?

– **Ман-а?! Ман** хуркаманми, бўтам?! Шуни билиб қўй, милтиқдан кўрқадиган пайтларим ўтиб кетган! Ўқиган-илм орттирган алломаи замон учун бул фоний очунда бир бошга – бир ўлим, уқдингми? Уққан бўлсанг, унутма! Хуллас, рўпарамдан келаётган бадбахтга бир **хунаримми** кўрсатай деб **чоғланганимми** биламан, “Ассалому алайкум” деб қолса бўладими?! Ёпирай! Тушимми-ўнгимми? Ўзи сап-сарик машак! Ғайридиннинг саломига алиқ жоизми ё ножоиз, деб ўйланиб улгурмасимдан рўпарамга яқин келиб қўлини чўзса, десанг?! Вой, нобакор! Вой, нонкўр! Ман киму у ким?! Ёқасидан олай десам, қўл чўзиб турибди! Астағфириллоҳ **деганимми** биламан, не кўз билан қарайки, тиржайиб, афтимга боқиб турган мелиса ўспирин ўзимиззи маҳаллани боласи – Абжал сарик экан!

Абдулла тиззасига шапатилаб мириқиб кулди. Исоқ домланинг берилиб сўзлаш тарзи юз-кўз **аломатларидан-да**, юз-кўз аломатлари эса сўзлаш **тарзидан-да** кулгилироқ, ажабтовурроқ эди. Илло, иззатли меҳмон куладиган аҳволда эмас, Абдулланинг нимадан бу қадар яйраб кулаётгани боисини ҳам англамаётган эди”[3.697].

Юқорида қора ранглар билан берилган ҳаволалардан адибнинг фонетик элементлардан қаҳрамоннинг характерини шакллантиришида, қолаверса, асар содир бўлиб ўтган давр, яъни ўтган XX аср муҳитини бера олишда моҳирлик билан фойдаланганлигини кўришимиз мумкин. Биргина товуш элементи орқали Абдулла Қодирий ва қўшниси Исоқ домла билан айри вақтда олиб борган суҳбатга ўз муносабати англашилади. Шу орқали нафақат Қодирий, балки Исоқ домланинг ҳам мусулмонлар яъни ўз халқига куйунчаклиги сезилади.

Хуршид Дўстмуҳаммад ушбу “Ёлғиз” қиссасини яратишда бевосита Абдулла Қодирий сиймоси образини тўлақонли очиб бериш учун адиб ҳаёти ҳамда ижодига боғлиқ барча фактлар, адабиётшуносларнинг тадқиқотларию, ёзувчининг асарларини синчков нигоҳ билан ўрганиб чиққанини сезиш қийин эмас. Бизнингча, мазкур қиссада Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романидан парчалар келтириши ҳам адибнинг янги бадиий усуллар қўллаганини кўрсатади. Қиссани ўқиш жараёнида Қодирий руҳиятидаги “Ёлғиз”лик руҳиятини ҳис қила оласиз. Бу ҳам албатта, ижодкорнинг бадиий маҳорати ва услубининг ўзига хослигини белгилайди.

Демак, бадиий асар матнини бу тарзда тадқиқ этиш услубшунослигимиздаги очилмаган қирраларни кашф этишда катта амиятга эга бўлади.

#### Адабиётлар:

1. Виноградов В. Язык художественной литературы. – М.: 1959.
2. Дўстмуҳаммад Ҳ. Қисса. – Тошкент. Янги аср авлоди. 2021.
3. Қодиров П. Халқ тили ва реалистик проза. – Тошкент: Фан, 1973.

## HUMOYUN MIRZO NISORIY TALQINIDA

DOI: 10.53885/edinres.2021.33.83.038

*Mahbuba Muhammadova*  
Termiz davlat universitetining  
mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya.** *Humoyun Mirzo Boburning to'ng'ich va eng sevgan o'g'illaridan biri edi. Ta'bir joiz bo'lsa, aytish mumkinki, Gulbadanbegim o'zining "Humoyunnoma" asarida Humoyunning tug'ilishi Bobur Mirzoga shaxzodalik safidan chiqib o'zini podshoh deb e'lon qilishdek yuksak jasoratni berganini ta'kidlaydi. Tarixchi va adabiyotshunos olim H.G'. Nizomiddinov o'zining "Buyuk boburiylar tarixi" asarida ayni masalaga alohida to'xtalib, "Bobur o'zini nega podshoh deb e'lon qilgan?" sarlavhasi ostida shu savolning javobi sifatida uch sababni keltirib o'tadi.*

**Kalit so'zlar:** *boburiylar sulolasi, Humoyun mirzo, badiiy adabiyot, Nisoriy*

Bobur bir necha urushlar va harbiy janglardan so'ng siyosiy maydonda temuriyzodalar ichida mardona, yakka o'zi qolgani, qolaversa ham siyosiy, ham ma'naviy tomondan o'zini bunga loyiq ko'rgani uchun uni podshoh deb atashlarini xohlaydi. Nizomiddinov ikkinchi sabab qilib Badaxshon va Hindiston masalasidagi ijtimoiy-siyosiy omilni ko'rsatgan bo'lsa, uchinchi sabab Bobur yuksak aql va zakovatini ishlatib Hind yurtiga ularning mentalitetini hisobga olgan holda "podshoh" unvoni bilan kirib borishni ma'qul ko'rishidir. Olim bunga sabab qilib "sulton" va "mirzo" so'zlarining hind xalqiga begona va g'alis so'zlar ekanligini ko'rsatadi. Ammo Gulbadanbegim shu masalaga alohida to'xtalib shunday deydi: "Xuddi o'sha yili hazrati firdavs makon amirlariga va boshqa kishilariga: "Meni Bobur podshoh deb atanglar" deb buyuradi. Negaki undan ilgari, hazrati Humoyun tug'ilmasdan burun uni "mirzo" deb atash odat bo'lgan edi. Qolaversa, shaxzodani "mirzo" deyishardi. Ular (Humoyun) tug'ilgan yili o'zlarini podshoh deb e'lon qildilar..." [1,10]. Demak, Humoyun Mirzo 1508-yil 7-mart kuni tug'ilganini inobatga olsak, Bobur ham ayni shu kundan e'tiboran o'zini podshoh deb e'lon qildi va temuriy shahzodalar ichida alohida o'ringa ega ekanligini isbotladi. Bu uning davlat boshqaruvida tutgan dono siyosatlaridan biri edi, desak adashmaymiz. Bu haqida Boburning o'zi "Vaqoe" da bunday deydi: "Ushbu tarixgacha Temurbekning avlodini bovujudi saltanat Mirzo derlar edi, ushbu navbat buyurdimkim meni podshoh degaylar...". Olim Nizomiddinov ko'rsatgan sabablarni inkor etmagan holda taxt vorisi Humoyun Mirzo tug'ilishi bilan Boburning o'zini "podshoh" deb e'lon qilishi "bir qaraganda uncha muhim ko'rinmagan, ammo uning sharq tarixidagi rolini va o'rnini, davlatchilik siyosatidagi mavqeyini belgilashda" [7,149] katta ahamiyatga ega edi.

Humoyun Mirzo haqida tarixlarda ko'plab ma'lumotlar uchraydi. Boburning "Boburnoma", Gulbadanbegimning "Humoyunnoma", Muhammad Haydar Mirzoning "Tarixi Rashidiy", Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob", Mutribiy Samarqandiyning "Nusxayi zeboyi Jahongir", Mu'ni Lalning "Bobur" nomli asarlari shular jumlasidandir. Gulbadanbegimning "Humoyunnoma", Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob" asarlarida Humoyun ideal, o'ta iste'dodli, kamchiliklardan xoli shaxs sifatida tasvirlansa, Boburning "Boburnoma", Muhammad Haydar Mirzoning "Tarixi Rashidiy", Mu'ni Lalning "Bobur" singari asarlarida Humoyunning ko'plab kamchiliklari ham ro'y-rost aytib o'tilgan. Amir Muhammad Haydar Humoyun haqida shunday deydi: "Humoyun podshoh Bobur podshoh o'g'illari ichida eng kattasi, eng obro'-etiborlisi edi. Faqir uningdek iqtidorli, tug'ma fazilatlariga ega odamni kam uchratganman..." [5,665] deb uning shaxsiy fazilatlarini maqtasa, Hasanxoja Nisoriy Humoyunning zehni, ilm borasidagi mahoratini ta'riflaydi: "Jahonboshliq ishlarining ko'pligiga qaramay ilm tahsili va suxandonlik mashg'ulotini ham tark etmas hamda bade' so'zlari fasohat va balog'atda yuqori darajaga ega edi... Xususan, hakamiyot ilmining riyoziyot sohasiga katta qiziqish bilan qaragan..." [2,54].

Ko'plab boburiyshunoslardan farqli o'laroq Komron Mirzo ijodiga chuqur qiziqib ilmiy izlanishlar olib brogan Afg'onistonlik olim Shafika Yorqin o'zining "Komron Mirzoning hayoti



va ijodiy merosi” nomli nomzodlik dissertatsiyasida Humoyun Mirzoning ayrim salbiy xususiyatlariga e’tibor qaratib, Komron Mirzoning Boburga yaqinroq va suyukliroq farzand bo’lganini ta’kidlaydi. Va shu o’rinda Boburning bu ikki shahzodaga nisbatan bir xil muomalada ekanligini “Mubayyin” risolasining ikkala shahzoda nomiga atab yozilgani, G’oziyxon kitoblaridan ikkita shahzodaga ham yuborilgani, Boburiy xatidan sarxatlar, “Volidiya” risolasi tarjimasidan va Hindistonda aytilgan Boburning she’rlaridan nusxalar ko’chirtirib yuborilgani haqidagi ma’lumotlar bilan izohlaydi.

Humoyundagi ayrim salbiy illatlar Amir Haydar Mirzo tomonidan ham bayon etilgan : “...atrofidagi buzuq fikrli amaldorlar, mulozimlari, chunonchi, Mavlono Muhammad Parg’oriy boshchiligidagi yaramas, tuban kimsalar orasida o’ralashib qolganligi oqibatida unda podshoh nomiga nomunosib qiliqlar paydo bo’la boshladi. Masalan, u nasha chekishga ruju qo’ydi. Humoyun Podshoh sodir qilgan barcha noloyiq ishlar, el-yurt orasida paydo bo’lgan har xil gap-so’zlar mana shu ishi, ya’ni nashaga ruju qo’yishi bilan bog’liq ...” [5,665].

Ammo shuni aytib o’tish joizki, Gulbadanbegim “Humoyunnoma”da Humoyun Mirzoni naqadar ko’klarga ko’tarsa, Komron Mirzoni shuncha kamsitishga harakat qilgan. Balki bu Gulbadan va Humoyunlarning bir ayol qo’lida tarbiya topganliklari bois shu mehrning ayricha izhori bo’lgandir. Shafika Yorqin o’z tadqiqotlarida shu masalani nazarda tutib hozirgi davr tadqiqotchilarining vazifasi tarix kitoblarini chuqur o’rganish, ularga tanqidiy va ilmiy yondashish, haqiqatni yolg’ondan, tasavvuri xayolni voqelikdan ajratish ekanligini ta’kidlaydi va shunday deydi: “Komron Mirzo yetuk shoir, adolatli hukmron bo’lgan. Uning Humoyun Mirzo bilan bo’lgan ziddiyatlari sababli Humoyun Mirzo atrofidagi ba’zi bir tarixchilar Gulbadanbegim, Abulfazl Allomiy, Javhar oftobachi kabilar Komron Mirzoning faqat salbiy tomonlarini ko’rsatib berishga harakat qildilar. Keyingi tarixchilar ham avvalgi yozilgan ma’lumotlarni o’z asarlarida takrorladilar.” [8,6]

Muni La’l o’zining “Bobur” nomli kitobida: “Ayrim tarixchilarning yozishicha Bobur gohida Mirzo Askariyni o’ziga valiahd etib tayinlashni ham o’ylagan. O’sha kezlarda Humoyun hukmdorning picha nazaridan qolgan. Kanvaha jangidan so’ng uning Badaxshonga qaytaman deb oyoq tirab olishi Boburga xush yoqmagani edi. Buning ustiga Humoyun Kobulga tomon yo’l olarkan, Dehlidagi xazinani so’ramay-netmay supurib sidirib ketgandi... Podsho uning bu harakatlarini tushuna olmas, zero to’ng’ich o’g’lidan mehru saxovatni hech ayamagandi.” [6] Bu o’rinda Bobur Kanvaha jangida jasorat ko’rsatib, tashabbusni o’z qo’liga olgan, otasiga ko’maklashgan Askariyni valiahd etib ko’tarishni istab qolgani Humoyunning otasiga xos bo’lmagan va tushunarsiz xarakteri borligidan dalolat beradi.

Hasanxoja Nisoriy “Muzakkiri ahhob”da maqola 1-ruknining 2-faslini Chig’atoy sultonlariga bag’ishlagan. Muallif unda Bobur va uning o’g’illarini zo’r hurmat bilan tilga oladi. Nisoriy Humoyun bilan uchrashish orzusida bo’lgan. Ammo Humoyunning tasodifiy o’limi bu orzuning ushaliqiga to’siq bo’lgan: “Bu faqirning xotirida edikim, chun mulozamat izzati nasib etsa, har bir manzilasi kurraning yarmi bo’lgan ikkita gumbazda shakllar, doiralar, kenglik, uzunliklar hamda fazo, dengiz, o’lkalardan iborat yer va osmon xususiyatlarining barchasini hakimlar (astronomlar) tayin qilgan tarzda bayon qilmoqchi edim, ammo vaqt vafodorlik qilmadi” [2,57]

XVI asrda Hindistondagi boburiylar va Buxorodagi shayboniylar orasida do’stona munosabatlar shakllangan. I. Nizomiddinovning “Madaniy hamkorligimiz sahifalaridan”, “XVI asrdan XX asr boshlarigacha O’rta Osiyo va Hindiston o’rtasidagi madaniy aloqalar”, “Buyuk boburiylar tarixi”, filologiya fanlari doktori H. Qudratullaevning “Boburning davlatchilik siyosati va diplomatiyasi” asarlarida Bobur va uning avlodlari Buxoro bilan diplomatik aloqalarni juda yaxshi yo’lga qo’yishgani, ayniqsa Abdullaxon II hukmronligi davrida ayniqsa madaniy aloqalar yuksak cho’qqiga ko’tarilganligi haqida qimmatli mulohazalar aytilgan.

“Muzakkiri ahhob” tarjimoni Ismoil Bekjon “Majolisi Jahongiriy” asari haqida so’z yuritar ekan, ushbu asarning 21-majlisida usto Farrux Jahongir (Humoyun Mirzoning o’g’li Akbar-M.M.) topshirig’i bilan yaratayotgan suratlar to’plamining 1-sahifasida Turon hukmdorlari Abdullaxon II, Abdulmo’minxon va Mirzo Muhammad Hakim ibn Humoyun podshoh hamda

shoh Abbos Safaviyni birgalikda chizgan ekan. Bundan tashqari, Mutribiy “Nusxayi Zeboyi Jahongir” da Abdullaxon II ning Buxorodagi kutubxonasida “Humoyunnoma” asarining podshohning o'z qo'li bilan ko'chirib yozilgan nusxasini ko'rganini aytadi. Demak, Humoyun podshoh bizga hali noma'lum bo'lgan “Nusxayi Humoyuniy” asaridan bir necha nusxa ko'chirib ulardan birini Buxoroga ham yuborgan, degan xulosaga keladi. [4]. Bundan anglashiladiki, Humoyun Mirzo hamda uning farzandlari Buxoro xonlari bilan yaqin diplomatik aloqada bo'lgan. “Muzakkiri ahbob” muallifi esa esa Iskandar Sulton (1581) va Abdullaxon II (1581-1598) singari Buxoro xonlari xizmatida bo'lib, shu davrning “Malik ush-shuaro” si unvoniga ham erishgan. O'z-o'zidan ma'lum bo'ladiki, tazkiranavis uch asosiy omil sabab boburiy sultonlarni alohida izzat bilan tilga olgan.

Birinchidan, Hindiston va shu davr hukmdorlari bilan siyosiy va madaniy aloqalarni mustahkamlash maqsadida;

Ikkinchidan, Hasanxoja o'zining ushbu tazkirasini Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” hamda Navoiyning “Majolis un-nafois” asarlaridan keyingi “uchinchi tazkira” deb ataydi va o'zini temuriy hamda shayboniy sulolalar davri ijodkorlariga mansub tazkiranavislar ishi davomchisi, deb biladi. “Muzakkir” ning yozilish sabablarida bu haqda shunday qaydlar mavjud: “...ayrim vafoli inilar va safolik o'rtog'lar bu yo'qsil kaminaga, “Amir Alisherning “Majolisun-nafois” idan keyin yuzaga kelgan barcha fozillarning dongdor nomlarini bir bitik qaydiga kiritib va ularning yoqimli nafaslari isini toliblarning jon dimog'iga yetkazib, “uchinchisini yaratmasak ikkitasi ham yo'q edi” hadisi mazmuniga muvofiq siz tomondan uchinchi bir tazkira vujudga kelsa, uning mutolaasi esa har jihatdan tiriltirish asarli va o'tganlar ahvolini bir ilmga aylangusidir”, -deb buyurdilar. [2,12]. Bu dalillar esa XVI asr adabiy muhitining dongdor kishilari orasida boburiylardek ham ilmida, ham adabiyotda, ham davlat boshqaruvida qudratli sulola vakillarining chetda qolishi mumkin emasligini ko'rsatadi.

Uchinchidan, Nisoriyning o'zi ham iste'dodli shoir sifatida boburiylar ijodiga juda qiziqqan. O'z tazkirasida ularning ijodidan namuna keltirib, shaxsiy munosabatini bildirishni zarur deb bilgan.

Boshqa asarlardan farqli o'laroq Nisoriy o'z tazkirasida Humoyun Mirzoni astronom sifatida kashf etadi. “Muzakkiri ahbob” dan o'qiymiz: “...Kashf-u ixtiroda latif ta'bi ishlari ajib xayolotlar qilardi...Va shu jumladan biri shukim, yer kurrasini unsurlar va falaklar bilan to'la chizib tegishli ranglar bilan bo'yab, har falakda uning jismlarini joylagan...” [2,56]. «Muzakkiri ahbob» tarjimoni Ismoil Bekjon Eronda chop ettirilgan “Nusxayi zeboyi Jahongir” tazkirasidagi muhim bir ma'lumotga e'tiborni tortadi. Unga ko'ra Humoyun Mirzo barcha ilmiy asarlarini jamlab “Nusxayi Humoyuniy” nomi ostida kitob tartib bergan. Ayni mana shu kitobning 2-risolasi ilmi nujum, kavkablari, sayyoralar va falaklar sayri, Oy va Quyosh manzillarini aniqlash, burjlar aylanishi, to'rt faslning ta'siri, yer kurrasini tabaqalari bilan birga bilish, yetti iqlim suvrat ko'rinishlari va uning xususiyatlari, rasad bog'lamoq va mazkur fanga taaluqli boshqa narsalardan iboratdir. Afsuski, bu asar haligacha topilmagan [3]. Olim Ismoil Bekjon bu asarni haligacha topilmagani, uni haligacha o'rganilmay kelayotgan qo'lyozmalar qatorida bo'lishi mumkinligini taxmin qiladi. Ammo ushbu kitobning bir nusxasi bir vaqtlar Abdullaxon II kutubxonasida saqlanganini aytib fikrining isboti sifatida Mutribiy qaydlarini keltiradi: “Va bu faqir dag'i Abdullohxonning kitobxonasida mazkur tabarruk kitobning muallif (Humoyun podshoh) o'z muborak xati bilan yozgan nusxasini ko'rgan va mutolaa qilmoq sharafiga muyassar bo'lgan edim. G'oyatda benazir va ajoyib dilpazir bir kitob bo'lib, ko'rgan odamning aqli shoshar, o'qigan kishining hayrati oshardi.” [3]. Ayni shu dalilga tayanib aytish mumkinki, Hasanxoja Nisoriy Abdullaxon II kutubxonasida saqlangan o'sha kitobni ixlos va e'tibor bilan o'qigan. Aks holda Humoyunning kashf-u ixtirosiga bu qadar e'tibor qaratmagan bo'lar edi. Diqqatimizni tortgan yana bir narsa shuki, Humoyun tomonidan o'tkazilgan majlislardagi davlat a'yonlarining o'tirish o'rinlari ham sayyoralar tartibi bilan joylashtirilgan. Ya'ni Humoyun o'zi kashf qilgan “koinot xaritasi” asosida majlis o'tkazgan. Unda yer kurrasi unsurlar va falaklar bilan to'la chizilib ular tegishli ranglar bilan bo'yalgan va har bir falak o'ziga tegishli jismlar bilan to'ldirilgan. Majlis ahli o'zlariga tegishli o'rinda o'tirishgan. Har majlisda o'sha kungi sayyora rangida kiyinish rasm bo'lgan. Bunday majlis Humoyun Mirzoning koinot ilmiga juda

qiziqqanligidan dalolat beradi. Qolaversa, saroy a'yonlarining joylashuvi qaysidir ma'noda Humoyunning buyuk bobokaloni Amir Temurning "Tuzuki Temur" asarida keltirilgan "Saltanat saroyida o'tirish va o'rin olish tuzuki" idagi andozaga juda o'xshaydi. Boburiylar saltanatida esa "Temur tuzuklari", va "Boburnoma" asarining qimmatli manba, davlat boshqaruvidagi dasturul amal bo'lgani, nizomnoma maqomidagi asarlar darajasiga ko'tarilgani esa hech kimga sir emas.

Humoyun Mirzo serqirra ijodkor sifatida hali ko'p va xo'p o'rganiladi. Zero, hozircha "Nusxayi Humoyuniy" asari topilmagan ekan, Humoyun Mirzo salohiyatining ko'pgina qirralari mavhumligicha qolaveradi. Ammo uni astronom sifatida kashf qilishda "Muzakkir" ning o'rni benihoya katta.

#### Adabiyotlar:

1. Gulbadanbegim Zahiriddin Muhammad Bobur qizi. Humoyunnoma. –Toshkent: O'zbekiston, 2016.-116.
2. Hasanxoja Nisoriy. Muzakkiri ahhob.-Toshkent, 1993.–444 b.
3. Ismoil Bekjon. Nusxayi Humoyuniy qaerda?//Milliy tiklanish.-1999, 2-mart.
4. Ismoil Bekjon. Boburiylar madaniyatiga oid manba.//O'zbekiston adabiyoti va san'ati,-2013,23-son.
5. Muhammad Haydar Mirzo. Tarixi Rashidiy.-Toshkent:2010.
6. Muni La'l. Bobur. So'nggi sayohat.//O'zbekiston adabiyoti va san'ati.-1992, oktabr.
7. Nizomiddinov N.G'. Buyuk boburiylar tarixi.-Toshkent, 2012.-516 b.
8. Shafika Yorqin. Komron Mirzoning hayoti va ijodiy merosi. Avtoreferat. -Toshkent, 1999.

## ХАЛҚИМИЗНИНГ МОМО КУЛЬТИГА АЛОҚАДОР МИФОЛОГИК ҚАРАШЛАРИ DOI: 10.53885/edinres.2021.58.18.039

*Дилфуза Саитовна Нарзуллаева*

Когон шаҳар касб-хунар мактаби она  
тили ва адабиёти фани ўқитувчиси

**Аннотация.** *Халқнинг "аёл ҳомий руҳ" ҳақидаги мифологик қарашлари момо образининг келиб чиқишига асос бўлган. Халқнинг тасаввурича, момолар руҳи аёлларга, уларнинг фаолиятида, шуғулланадиган касб-корларида ҳаминша ёру мададкор бўлади. Аслида момо култи ҳақидаги қарашлар исломгача шаклланган диний-мифологик тушунчаларга бориб тақалади. Аниқроғи, унинг илдизи руҳларга шшончдан иборат анимистик тасаввурлар, культ мифлари билан туташ.*

**Калит сўзлар:** *мифологик қарашлар, момо образи, культ мифлари*

Ўрта Осиё халқлари орасида момо руҳларнинг номи жуда кўп.<sup>1</sup> Халқ наздида **Момои Калон** – Катта момо барча момо руҳларнинг бошлиғи саналади. Бошқа руҳлар унга бўйсунини айтилади. **Йўлчи момо** ўз ажодларига йўлда ва сафарда ҳомийлик қилувчи момо руҳдир. **Элчи момо** ўз элини қўллаб-қувватловчи, тирикларга ёрдам кўрсатувчи момодир. **Хабарбар момо** – хабар элтувчи, **Хабарбиёр момо** эса хабар келтирувчи, юз бериши мумкин бўлган воқеалардан олдиндан огоҳ этувчи руҳдир. Одатда, фолбинлик ва бахшилиқ қилувчилар уни ўзларига ҳомий деб билганлар. Бу момо руҳларнинг ҳар тўрталаси ҳам инсонларга эзгулик қилувчи мададкор руҳлар саналади. **Тўқ момо** номига тез-тез ис чиқарилиб, дуои фотиҳа ўқиб турилгани, яъни тириклар томонидан вақтида йўқланиб, "озиклантириб" борилгани туфайли ўз авлодларидан миннатдор бўлувчи руҳдир. **Гунг момо** – тириклигида гунг, гапира олмайдиган бўлиб яшаб ўтган аёл руҳи. Айтишларича, кўпинча улар шомон аёлларга ҳомийлик кўрсатаркан. **Момои пушти** ёки **момои мероси** ажод ҳомий руҳлардан бири бўлиб, шомонлик қилувчининг марҳум ота-онаси, ажодлари руҳи шу ном билан юритилган. Бу дунёни тарк этган ажодларининг касбидан, бойлигидан фойдаланадиганлар, одатда, шу момо руҳни ҳомий билиб, унга сиғинган. **Гумчи момо** йўқолган кишиларни ва нарсаларни топиб

<sup>1</sup> Муродов О. Шаманский обрядовый фольклор у таджиков средней части долины Зеравшана // Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. – М.: Наука, 1975. – С.101-102.

беришда ёрдам берувчи, излаб топишда йўл кўрсатувчи ҳомий момо тимсолидир. У фолбин шомонлар сиғиниб, мадад сўрайдиган ҳомий кучдир.

Кўриняптики, бу момо руҳлар, асосан, бажарадиган вазифасига қараб номланган. Баъзи момо руҳлар кўним топган манзил-маконига қараб номлангани кузатилади. Жумладан, **Кул момо** кул орасида, **Гул момо** гуллар, хусусан, қизил атиргул орасида, **Сувчи момо** сув ҳавзаларида кўним топиши айтилади. Бу момо руҳлар эҳтиётсизлик қилган одамга зарар етказиши мумкин. Агар одам кул тўкилган жойдан кечқурун ўтса ёки у ердан ҳожати учун фойдаланса, шунингдек, гул тагида ухлаб қолса, момо руҳлардан зарар топиши уқтирилади. Аммо Кул момо ва Гул момо ҳаммавақт ҳам инсонга зарар ва озор етказувчи ёвуз, рақиб куч сифатида талқин қилинмайди. Чунки гул ва кулдан ўрни келганда эзгу мақсад йўлида ҳам фойдаланиш мумкин. Масалан, лолагул, лолақизғалдоқ, наъматак, атиргул, чучмомо каби бир қатор гуллардан инсон саломатлиги йўлида фойдаланилиши кўпчиликка маълум. Ёхуд кулдан киннани ҳайдашда, кўз оғриғини даволашда фойдаланадилар.

**Учуни момо, Ҳасуд момо, Мечкай момо, Кинна момо, Рўдапо момо** ва **Шалпар момо** кабилар ҳам инсонларга рақиб бўлувчи ёвуз момолар қаторига киради. Учунни момо нопок ва бевақт юрган кишиларга йўликса, учинтириб касал қилиши айтилади. У кўпинча ўз аждодларига муносиб ворис бўлмаганларни жазолаши уқтирилади.

**Ҳасуд ёки Ҳасад момо** ҳам одамлар учун ёвуз, рақиб руҳлардан биридир. У яқин аждодларининг хасислиги ва бепарволиги оқибатида унутилиб, оч қолдирилгани учун хавfli руҳга айланган бўлади. Кўпинча улар қурбонлик талаб қилувчи оч арвоҳлар сифатида кезиб юриши айтилади. Жумладан, **Мечкай момо** ҳам Ҳасад момо каби оч, еб тўймас ёвуз руҳлардан биридир. Бу ёвуз руҳ, одатда, одамларнинг тушида намоён бўлиб, ўзи учун қурбонлик беришга ундар экан. Агар туш кўрган киши вақтида унга атаб қурбонлик маросимини ўтказмаса, касалликка чалиниши, ё бирор бахтсизликка йўлиқиши мумкинлиги билдирилади. **Кинна момо** руҳи одамларнинг қорин бўшлиғига жойлашиб олиб, кучли оғриқ ҳосил қилиши, нигоҳи ўткир одамларга ўрнашиб, шу орқали атрофдагиларга зарар етказиши айтилади. **Рўдапо момо** жуда озғин ва касал аёл қиёфасида зарар етказувчи руҳ сифатида тасаввур қилинади. У, асосан, соғлом ва тўлақонли одамларга зарар етказишга уриниши таъкидланади. **Шалпар момо** одамга ёмон таъсир кўрсатиб, уни кучсизлантирувчи, шалпайтириб, ожизлантириб қўювчи руҳ сифатида тасаввур қилинади.

Момо руҳлар номи ранглар билан ҳам боғланган. Бунда момо руҳларга бағишланган маросимларда ёқиладиган чироқ – нукчалардан чиққан олов ва унинг тутуни ранги эътиборга олинган. Яъни олов ва тутуннинг оқ, қора, қизил, сариқ тусга киришига қараб момо руҳлар миқдори, характер-хусусияти, номи белгиланган. **Кўк момо, Қора момо** ва **Сариқ момо** ёвуз руҳлар қаторига киради. Улар кўпроқ одамларни касал қилиб, озор етказишга уриниши айтилади. **Сариқиз ёки Сариқ момо** сариқ сочли қиз ёки сариқ тусли товук кўринишида аёлларга хужум қилиши айтилади. **Оқ момо** эса инсонга ҳомий эзгу руҳлардан бири саналади. У жуда раҳмдил ва меҳр-шафқатли, саховатпеша сифатида талқин қилинади.

О.А.Сухарева тадқиқотларида **Хунхор момо** (қон сўрувчи), **Шалойим момо** (енгилтак, тутқич бермас), **Кашмири момо** (сеҳр-жоду қилишга алоқадор афсунларни ўргатувчи), **Аламон момо** (оломон, яъни кўпчилик бўлиб юришувчи момолар), **момо-пари** каби момо образларининг номлари учрайди. Лекин **Аламон момо** аёлларга озор, дард етказувчи, одамга кутилмаганда ташланиб қоладиган махлуқ кўринишидаги ёвуз руҳлардан бири сифатида ҳам талқин қилинади. **Шалойим момо** кўпинча чақалоқларга озор етказувчи, уларни нобуд қилишга интилувчи ёвуз куч сифатида талқин этилади. **Хунхор момо** эса жонзотларнинг, айниқса, инсонларнинг қонини сўриб ичувчи момо сифатида кўрсатилади. Хунхор момо учун кўпинча улоқ, қўй товук кабилардан қон чиқарилиб, у зарар етказган бемор даволанади. Акс ҳолда Хунхор момо беморнинг қонини сўриб, уни ҳолсизлантириши, ҳалок этиши мумкинлиги айтилади.

Л.Худойқулованинг “Ўзбек фольклорида Момолар култи” мақоласида **Сариқ момо, Қора момодан ташқари яна Титти момо, Очил момо, Гулсун момо, Ёзил момо** ва

**Тувгич момо** номлари тилга олинади. Муаллифнинг маълумот келтиришича, шу етти момо образи халқ орасида ҳомиладор аёлларнинг асотирий ҳомийси сифатида тасаввур қилинади.<sup>1</sup>

Ўзбек халқ аллаларида Уйку момо образи ҳам учрайди. Халқ тасавурида Уйкумомо – уйку илоҳаси.

Қалдирғоч номи билан боғлиқ афсона ва афсунларда **Гўзал момо** номи учрайди. У кўз оғриғининг олдини олувчи, унга шифо бахш этувчи ҳомий момо тимсолидир. Ўтмишда кўз оғриғининг келиб чиқиши ва тарқалиши сабабларини билмаган кишилар бу касалликка азиз авлиёларнинг таъсири ёхуд ёмон руҳларнинг таъсири деб қараганлар.<sup>2</sup>

Халқ қурғоқчиликда ёмғир сўраб, Гулдур момо ҳамда Шалдир момога мурожаат қилган.

Қуриганмиш гул ҳовуз  
Балиқлардан бирор из.  
**Гулдур момо**, келсанг-чи,  
**Шалдир момо**, келсанг-чи,  
Савобдир емак балиқ.<sup>3</sup>

Ушбу кўшиқда Гулдур момо – момоқалдирик, Шалдир момо – ёмғир тангриси сифатида тилга олинаётир. Маълумки, ёмғир чақириш маросимларида Суст хотин, Чала хотин номларига ҳам мурожаат қилинади.

М.Жўраев яна ўзбекларнинг шамол култи билан боғлиқ мифологик тасаввурларининг матриархат даври эътиқодий қарашларига алоқадор алоҳида туркуми **Яли момо** ёки **Ялала момо** ҳақидаги инончлар тизимини ташкил этишини кўрсатиб ўтади.<sup>4</sup>

Демак, ҳозирликча момо руҳларнинг 40 дан ортиқ номлари аниқландики, бу ўз навбатида, момо руҳларга ҳамда Момо култига ишонч Ўрта Осиё халқлари орасида бир мунча кенг ва муайян яхлит тизим кўринишида тарқалганлигини билдиради.

Шуниси ҳам борки, халқ орасида болани эркалаш учун айтиладиган қуйидаги кўшиқда ҳомий момоларнинг етмишдан ортиқлиги таъкидланган:

**Етмиш момонг** орқангдан  
Буғдой олиб югурсин.

Момо руҳларнинг номи, сони бу даражада кўп ва ранг-баранг бўлганлиги учун, одатда, уларни умумлаштириб “*лашкар*” деб аташ халқ орасида ва шомонлик қилувчилар ўртасида ўзига хос анъанага айланган.<sup>5</sup>

Ёвуз момо руҳларга йўлиқиш халқ орасида “ажина чалибди”, “алвастига йўликибди”, “момолар тегишибди”, “момолар зиён берибди”, “момоларнинг шамоли тегибди” ёки “момоларнинг оғирлик ташлабди” каби иборалар билан изоҳланади. Бу ибораларнинг ҳар бири ўзига хос маънога эга.

Ҳомий момо тимсоли Ўрта Осиёда яшовчи халқлар орасида турлича номланади. Қирғизларда аёллар ва гўдакларнинг ҳомий момоси сифатида Умай эна руҳига сизгиналади. “Умай” сўзи “эзгу рух” тушунчасини билдиради. Аслида “Ума” – қадимги туркча сўз бўлиб, “она” деганидир.<sup>6</sup>

<sup>1</sup> Худойқулова Л. Ўзбек фольклорига Момолар култи. – Ўзбек тили ва адабиёти. – 2007. – 4-сон. – Б.50-53.

<sup>2</sup> Мирзаева С. Ўзбек халқ афсун-дуоларининг жанр хусусиятлари ва бадиияти. – Т.: Истиклол, 2006. – Б.40-41.

<sup>3</sup> Petersen Marilyn. Treasury of Uzbek Legends and Lore.- Toshkent: Qatortol-Kamolot, 2000. – Б.142. (Мерилин Петерсен 1996-2000 йилларда Тинчлик корпусининг кўнгиллиси сифатида Бухорода бўлиб, маҳаллий халқнинг урф-одат ва анъаналари билан қизиқиб, талай фольклор материалларини йиққан ва уларни инглиз тилига ўнгирган ҳолда чоп эттирган).

<sup>4</sup> Жўраев М. Ёмғир ёғдириш маросимлари // Ўзбек мавсумий маросим фольклори. – Т.: Фан, 2008. – Б.160-205.

<sup>5</sup> Сухарева О.А. Пережитки демонологии и шаманства у равнинных таджиков // Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. – М.: Наука, 1975. – С.101.

<sup>6</sup> Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Т.: Ёш гвардия, 1987. – Б.125.

Фольклоршунос А.Мусақуловнинг таъкидлашича, инсон танасидаги туғма холлар ҳам Умайнинг изи ҳисобланган.<sup>1</sup> А.Бернштам Умай момони аёл жинсидаги мифологик мавжудот, оила ўчоғи ва авлодлар давомийлиги ҳомийси бўлган, деб талқин қилади.<sup>2</sup>

Ўзбек ва тожик халқи орасида ёрдамчи, ҳомий момо руҳлар ҳақидаги қарашлар Бибимушкулкушод ва Бибисешанба каби эпик персонажлар тимсолида акс эттирилиши кузатилади.

Момо руҳга ишонч ва ҳурмат таъсирида айрим мифологик персонажларга “момо” сўзи қўшиб айтилганлиги кузатилади. Жумладан, чақмоқ руҳи – Момо Қалдиروق, ой – Оймомо, биринчи аёл инсон – Момо Ҳаво, шамол тангриси – Чуй момо деб юритилади.

Момоларга эътиқод аёл кишиларга атаб қўйиладиган исмларда ҳам сезилади. Баъзи исмларга улуғворлик бахш этиш маъносида момо сўзи қўшиб айтилади.<sup>3</sup>

Б.Саримсоқов “Ўзбекларда қадимги даврлардан руҳларга дуалистик муносабатда бўлиш натижасида уларни Хизр, арвоҳ, **момолар**, парилар, чилтонлар, муаккиллар, қирқ қизлар, Бибимушкулкушод, Бибисешанба каби яхши; дев, алвасти, жин, ажина, суқ каби ёмон руҳларга ажратиб келинади”, – деб ёзади.<sup>4</sup> Кўриняптики, момо руҳлар эзгу ва ҳомий руҳлар қаторида санаб кўрсатилаётир. Дарҳақиқат, айрим касалликлар номининг момо номига боғлаб айтилишини кузатиш мумкин. Масалан, киши баданига қизилча тошса, бу касалликнинг номи “Қизамиқ момо”, сувчечак тошса – “Қора момо” деб юритилади. Буларнинг барчаси мисолида момо руҳга нисбатан дуалистик қараш шаклланганлиги англашилади.

Момони инсу жинс, яъни мифологик тимсол сифатида, кўпинча пари ёки алвасти, ажина кўринишида тасаввур қиладилар. Бунда момо шу мифологик тимсоллар кўринишида инсонга зарар етказувчи ёвуз руҳ деб қаралади.

Эртақлардаги қон сўрувчи ёки болаларни ўғирлаб кетувчи мастон кампир, ялмоғиз кампир каби момолар тимсолининг келтирилиши ҳамда уларга қарши эпик қаҳрамоннинг кураши бевосита ёвуз момолар ҳақидаги қарашлар таъсирида шаклланган дейиш мумкин.

Ислом дини даврида аёл ҳомий кучлар, яъни Момо култи ҳақидаги қарашлар айрим реал шахсларга сингдирила бошлагани кузатилади. Жумладан, Анбар она, Биби Сешанба, Биби Мушкулкушо, Биби Рўипўш (ниқобдаги биби), Биби Ҳожатбарор, Биби Фотимаю Зухро, Биби Хадичаи Кубаро, Қизбиби, Биби Махсумаи пок, Биби Шаҳрабону кабилар шулар қаторига киради.

Момо руҳлар ўзга, кўзга кўринмаслар олами вакили сифатида бизнинг тилимизни тушунмайди деган маънода уларга қарата бошқа тилда, масалан, ўзбеклар бўлса – тожик тилида, тожиклар бўлса – ўзбек тилида мурожаат қилиб, айтимлар айтганлар<sup>5</sup>.

Умуман айтганда, момолар руҳи аёлларга, уларнинг фаолиятида, шуғулланадиган касб-корларида ҳамиша ёру мадаккор бўлади. Момо култи ҳақидаги қарашлар исломгача шаклланган диний-мифологик тушунчаларга бориб тақалади. Аниқроғи, унинг илдизи руҳларга ишончдан иборат анимистик тасаввурлар, культ мифлари билан туташ.

#### Адабиётлар:

1. Муродов О. Шаманский обрядовый фольклор у таджиков средней части долины Зеравшана // Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. – М.: Наука, 1975. – С.21.
2. Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари. – Т.: Қомуслар Бош таҳририяти, 1991. – 208 б.
3. Ўзбек фольклори очерклари. 3 томлик. 1-том. – Т.: Фан, 1988. – Б.173.

<sup>1</sup> Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Т.: Фан, 2010. – Б.186.

<sup>2</sup> Бернштам А. Социально-экономической строй Орхано-Енисеиских тюрок YI-YIII веков: Восточно-тюркской каганат и кыргызы. – М. – Л.: Изд-во АН СССР, 1946. – С.163.

<sup>3</sup> Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари. – Т.: Қомуслар Бош таҳририяти, 1991. – 208 б.

<sup>4</sup> Ўзбек фольклори очерклари. 3 томлик. 1-том. – Т.: Фан, 1988. – Б.173.

<sup>5</sup> Муродов О. Шаманский обрядовый фольклор у таджиков средней части долины Зеравшана // Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. – М.: Наука, 1975. – С.21.

## LISONIY SINTAKTIK BIRLIKLARNING TIBBIY NUTQDA VOQELANISHI

DOI: 10.53885/edinres.2021.43.68.040

*Saida Axmedjanovna Nazarova*

filologiya fanlari nomzodi, BuxDU

o‘zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti,

*Maxfirat Yusupovna Xojiyeva*

BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasida o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** *Maqolada o‘zbek tili lisoniy sintaktik birliklarining tibbiy nutqda voqelanishi masalasi so‘z birikmasining tibbiy terminlarni hosil qiluvchi lisoniy sintaktik va nominativ imkoniyatlari asosida tahlil qilingan. So‘z birikmasi lisoniy sintaktik qoliplari tibbiy nutqda tilning vazifasini ro‘yobga chiqaruvchi sintaktik imkoniyatlardan biri ekanligi tibbiy tushunchalarni atashga xoslangan mahsuli orqali dalillanib, o‘zbek tibbiy lingvistikasidagi tibbiy terminlar tadqiqiga substansial lingvistik nazariyaning tatbiqi natijasida aniqlangan.*

**Kalit so‘zlar:** lisoniy sintaktik birlik, so‘z birikmasi, sintaktik qolip, tibbiy lingvistika, tibbiy nutq, tibbiy termin, nominativ vazifa.

“Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” jadal rivojlanayotgan O‘zbekistonda o‘zbek tilining davlat tili maqomidagi ijtimoiy nufuzini oshirish, milliy o‘zlik va qadriyatning bebaho timsoli sifatida yanada rivojlantirish davlat siyosati darajasida ustuvorlashgan. Zotan, “o‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e‘tiborini tubdan oshirish, unib-o‘tib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an‘ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta‘minlash, O‘zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o‘zbek tilini o‘rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o‘zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash” [1] buning yorqin dalilidir. Bu yo‘nalishda qabul qilingan farmon va qarorlardagi vazifalar ona tilimizning barcha sohalarda davlat tili sifatida keng va muntazam qo‘llanishiga erishish, tilning rivojlanish istiqbollari bilan bog‘liq ilmiy muammolarni aniqlash, tadqiq etish, natijalarni ommalashtirishni taqozo etadi.

Barcha sohalar kabi tibbiyot sohasida davlat tilining imkoniyatlaridan to‘liq‘icha, o‘zbek tilining lisoniy qonuniyati hamda me‘yoriy talablari asosida foydalanish soha lingvistikasi, xususan, tibbiyot va tilshunoslik masalalari to‘qnashgan chegarada shakllangan o‘zbek tibbiy lingvistikasini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Ta‘kidlash kerakki, o‘zbek tilshunosligida tibbiy lingvistika endigina rivojlanib kelayotgan navqiron sohadir. Uning mustahkam ildiz otishiga zamin hozirlaydigan ilmiy va amaliy tadqiqotlar zarur, demak, sohada yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Tibbiy nutqni shakllantiruvchi lisoniy vositalar, soha leksikasi, tibbiy terminlar tizimiga aloqador ko‘plab masalalar borki, soha lingvistikasi tadqiqida dolzarbdir.

Tibbiy lingvistikada soha leksikasi, termin va atamalarining taraqqiyotini o‘rganish, birinchi galda, tibbiy nutqqa e‘tiborni qaratadi. Zero, til o‘z imkoniyatlarini nutqda voqelashtirar ekan, “tibbiy nutqda uning qanday imkoniyatlari qiyofalanadi, nutq sathidan qaralganda, tibbiy nutq tilning qaysi lisoniy birliklari, qonuniyati va me‘yorlaridan foydalanadi?” kabi savollarning tug‘ilishi mantiqqa muvofiq. Tilning lisoniy imkoniyatlari masalasiga kelsak, o‘zbek substansial tilshunosligi nazariy asoslariga tayanish lozim. Til ilmi va uning ahliga ma‘lumki, substansial lingvistika til birliklarining umumlisoniy zotiy mohiyatini belgilashda lison-nutq farqlanishida ochiladigan, bevosita kuzatishda berilgan nutqiy jihatlari va tafakkurda umumlashtirish orqali tiklanadigan lisoniy xususiyatlariga tayanadi.[2;3;4;6] Til birligining mohiyatida bir butun holda mavjud lisoniy va nutqiy belgi-xususiyatlar o‘zaro qarama-qarshi qo‘yilsa-da, bir-biridan ayro talqin qilinmaydi. Aksincha, til birligiga xos lisoniy mohiyatning yuzaga chiqish yo‘llari va voqelanish usullari uchun qulay shart-sharoitni tayyorlovchi hamda ayni shart-sharoitning o‘zi nutq ekanligi, nutqiy voqelanish lisoniy mohiyatning moddiylashuvidan dalolat berishini nazarda

tutadi. Demak, lisoniy va nutqiy belgilar til birligining bir-biriga zid, ammo bir butun holda mavjud ikki qutb, ya'ni lisoniy va nutqiy tizimdagi yashash tarzini aniqlaydi. Boshqacha aytganda, til birligining xoh lisoniy tahlili, xoh nutqiy tavsifi bo'lsin, baribir, bir butun til hodisasiga tegishli mohiyatning bilish yo'llari kabi qimmatlidir.

Lisoniy sintaktik sathning asosiy birligi sifatida lisoniy sintaktik qolip(LSQ)larning vazifasi turli ko'rinishdagi, rang-barang ma'no munosabatlarini ifodalovchi so'z birikma(SB)lari va gap turlarini hosil qilishdir. Sintaktik sathda LSQlarning nominativ birlik (so'z birikmasi) hamda kommunikativ birlik (gap) hosil qiluvchi ikki turi ham vazifasi asosida farqlanadi. Til tizimida LSQ giperonim maqomidagi  $[LB_1 R LB_2]=NB$  lisoniy qolipining sintaktik sathdagi giponimi sanalsa ham, o'z mohiyatida so'z birikmasi va gap LSQlarini umumlashtiruvchi giperonimlik xususiyatini yo'qotmaydi.

Nutq jarayonida SBLSQLari muayyan so'z birikmalari shaklida, GLSQLari esa gapning u yoki bu ko'rinishlari orqali moddiyashadi. Chunonchi: [qarashlilik] umumiy sintaktik ma'no munosabatiga birlashuvchi Otabekning qaytishi, quyosh botishi [obyekt –harakat], otning erkagi, chinor daraxti [tur-jins], o'ning yarmi talabalardan besh nafari [butun-bo'lak], gulning sarasi, bolalardan epchili [ajratish-saralash], olmoqning bermog'i, yemoqning qusmog'i [harakat-natija] kabi so'z birikmalari  $[I^{k.k.} \sim I^{e.k.}] = SBLSQ$ ining nutqiy voqelanishi natijasida hosil bo'ladi. Mazkur qolip nutqda cheksiz voqelanish imkoniyatiga ega bo'lib, so'z birikmalarining miqdori uning mahsuldorlik darajasini belgilaydi.

Tibbiy termin va atamalarning sirasida lug'aviy birliklar qatorida shunday birikmali terminlar qo'llanadiki, ularning struktural xususiyatlari lisoniy qurilish qonunlariga ko'ra so'z birikmalariga teng bo'ladi. Tibbiy nuqqa oid materiallarda *yuqumli kasallik, qon zardobi, tojdor virus, yurak xuruji, biokimyoviy tahlil, qon bosimi, buyrak yetishmovchiligi, neyrofiziologik mashq, miokard infarkti, tibbiy niqob, asab to'qimasi, stabil stenokardiya, disk churrasi, ginekolog shifokor, jarrohlik amaliyoti, toj tomir, bachadon miomasi, oilaviy shifokor, jigar kasalligi, yondosh kasallik, o'pka arteriyasi, allergolog shifokor, ko'krak qafasi, yumshoq to'qima, rentgen apparati, tug'ma nuqson, yurak astmasi, jismoniy harakat, oshqozon shirasi, fiziologik eritma, harakat neyronlari, urolog shifokor, limfa bezlari, klinik belgi, nafas mashqlari, metabolik ta'sir, dori vositalari, neyromodulyar ta'sir, na'matak damlamasi, o'tkir gastrit, jigar sirrozi, ingicha ichak, limfa tugunlari, orqa miya, qizilo'ngach axialaziyasi, surunkali kolit, kasallikning etiologiyasi, shilliq parda, varikoz kasalligi, silliq mushak, herpes virusi, ekzogen omil, o't suyuqligi, endogen omil, bemorning jinsi, nasliy moyillik, ko'krak saratoni, xanjarsimon o'simta, o't pufagi, vegetativ disfunktsiya, bo'g'im sindromi, surunkali gepatit, tos kamari, terapevtik samara, jigar fibrozi* kabi birikmalar qo'llanilganini kuzatamiz. Shu kabi tibbiyotga oid tushunchalarni atash uchun xizmat qiladigan yana minglab birikmalarga tibbiyotning ma'lum tarmog'iga xos ilmiy manba, hatto ilmiy-ommabop asarlar matnida ro'baro' kelamiz. Buning sababi, asosi nimada ekanligi qiziqtiradi.

Birinchi, tibbiy nutq (matn)ni shakllantiruvchi tilning lisoniy imkoniyatlari ichida leksik birliklar soha leksikasi, sohaviy tushunchalarni ifodalash, kasbiy terminlarni hosil qilish uchun ixtisoslashadi. Terminlar o'zi ishlatiladigan sohadagina bir ma'noli bo'lishini inobatga olsak, yuqoridagi birikmali ko'rinishlarini ham istisno etmay, tibbiy soha terminlari sifatida qarash ilmiy asoslarga muvofiq bo'ladi. Negaki, terminlar faqat leksik birliklardangina iborat bo'lmay, tilning nominativ tizimidagi boshqa vositalar, jumladan, mazkur paradigмага tegishli so'z birikmalaridan tashkil topishi ham ilmiy asoslangan. [5;7]

Ikkinchi, til istalgan birlik orqali o'z vazifalarini bajaradi, ya'ni birlik tizimni tashkil etuvchi sifatida tizim qonunlariga bo'ysunadi. Lisoniy iyerarxiyada har bir sath birligining tashkil etuvchilik xususiyati butun-bo'lak munosabatiga asoslanishi va pog'onama-pog'ona o'sib borishi qonuniy ekan, tizim belgilagan vazifani yuqori sath birligi quyidagisiga nisbatan yuqori darajada aniq va to'laqonli ado etishi muhaqqaqdir.

Nutqiy shart-sharoit, vaziyat, kommunikativ ehtiyoj va maqsad, asosiysi, inson omili tilning mavjud imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga sabab bo'ladi. Inson tafakkurining tibbiyot fanida zuhurlanishi tilning nafaqat leksik, balki nomlash vazifasini bajaruvchi sintaktik sath



birliklarini ham ishga soladi. Nominativ vazifa birlashtiruvchi bir paradigmada turli sath –sintaktik va leksik sath birliklari sathlararo aloqadorlikni yorqin namoyon etadi.

Bu sintaktik birliklar SBLSQlari bo‘lib, tibbiy nutqda kuzatganimizdek, yuqorida sanab o‘tilgan tibbiy terminlarni yuzaga keltiradi. Tibbiy terminlarning *qon zardobi, yurak xuruji, qon bosimi, buyrak yetishmovchiligi, miokard infarkti, asab to‘qimasi, disk churrasi, jarrohlik amaliyoti, bachadon miomasi, jigar kasalligi, o‘pka arteriyasi, ko‘krak qafasi, rentgen apparati, yurak astmasi, oshqozon shirasi, harakat neyronlari, limfa bezlari, nafas mashqlari, dori vositalari, na‘matak damlamasi, jigar sirrozi, limfa tugunlari, qizilo‘ngach axialaziyasi, kasallikning etiologiyasi, varikoz kasalligi, herpes virusi, o‘t suyuqligi, bemorning jinsi, ko‘krak saratoni, o‘t pufagi, bo‘g‘im sindromi, tos kamari, jigar fibrozi* kabi ko‘rinishlari  $[I^{k.k.} \sim I^{e.k.}] = SBLSQ$ ining nutqiy hosilalaridir. Zero, bu hosilalarning tobe a‘zosi bosh va qaratqich kelishiklaridagi ismlardan, hokim a‘zosi esa egalik shaklidagi ismlardan tuzilgan. Birikma tarkibidagi tobe va hokim a‘zolarining bunday birikish tarzi va natijasini  $[I^{k.k.} \sim I^{e.k.}] = SBLSQ$ i umumlashtiradi. Ta‘kidlash joizki,  $[I^{k.k.} \sim I^{e.k.}] = SBLSQ$ i lisoniy sintaktik birlik maqomiga ega. [2;3;4] Mazkur LSQning sohada faol qo‘llaniluvchi terminlarni shakllantirishida til o‘zining lisoniy sintaktik imkoniyatlaridan birinigina voqelashtirganligi dalillanadi.

Tobe a‘zo ikki turdagi tibbiy atamalarni shakllantirar ekan, kelishik kategoriyasiga xos semantik va sintaktik imkoniyatlarni ham namoyish etadi. Har ikki turdagi, ya‘ni  $[I^{b.k.} \sim I^{e.k.}] = SBLSQ$ i va  $[I^{q.k.} \sim I^{e.k.}] = SBLSQ$ i hosilalarining lisoniy qurilish xususiyatlaridagi umumiy o‘xshashlik tibbiy termin va atamalarning  $[I^{k.k.} \sim I^{e.k.}] = SBLSQ$ i asosida hosil bo‘lganligini tasdiqlaydi. Demak, tibbiy termin va atamalarning kattagina qismini  $[I^{k.k.} \sim I^{e.k.}] = SBLSQ$ ining mahsuli tashkil qiladi.

Tibbiy terminlar sirasidagi *yuqumli kasallik, tojdor virus, biokimyoviy tahlil, neyrofiziologik mashq, tibbiy niqob, stabil stenokardiya, ginekolog shifokor, toj tomir, oilaviy shifokor, yondosh kasallik, allergolog shifokor, yumshoq to‘qima, tug‘ma nuqson, jismoniy harakat, fiziologik eritma, urolog shifokor, klinik belgi, metabolik ta‘sir, neyromodulyar ta‘sir, o‘tkir gastrit, ingicha ichak, orqa miya, surunkali kolit, shilliq parda, silliq mushak, ekzogen omil, endogen omil, nasliy moyillik, xanjarsimon o‘simta, vegetativ disfunksiya, surunkali gepatit, terapevtik samara* birikmalari esa  $[I \sim O] = SBLSQ$ ining mahsuli hisoblanadi.

So‘z birikmasi sintaksisining substansial tahlilidan ayonki,  $[I \sim O] = SBLSQ$ i tobe vaziyatdagi ismlarning hokim vaziyatda turgan otlar bilan birikish tarzini va, o‘z navbatida, mazkur birikish mahsulini o‘z mohiyatida mujassamlashtiradi. Bu LSQ o‘zbek tilida [belgi-predmet] ma‘no munosabatini ifodalovchi so‘z birikmalarini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Shunga ko‘ra, ushbu qolip sintaktik sathda lisoniy sintaktik birlik mavqeyini egallaydi.[2; 3] Demak, ism va otlarning o‘zaro birikishidan yuzaga keladigan so‘z birikmalarining lisoniy qurilish mohiyati  $[I \sim O] = SBLSQ$ ida mujassamlashgan. Shu bois sintaktik sathda  $[I \sim O] = SBLSQ$ i tobe va hokim a‘zolari leksik-morfologik jihatdan farqlanuvchi xususiy qolip (variant)larni umumlashtiradi. Tibbiy nutqda  $[I \sim O] = SBLSQ$ ining voqelanishidan hosil bo‘lgan so‘z birikmasi shaklidagi termin va atamalarning leksik-morfologik xususiyatlari tobe a‘zo, asosan, sifat turkumidagi so‘zlardan, hokim a‘zo esa faqat ot turkumiga oid so‘zlardan iboratligini aniqlashtiradi. Demak, tibbiy nutq (matn)da sifat va ot turkumlariga mansub so‘zlarning kommunikativ ehtiyoj va maqsad belgilagan tobe-hokimligi  $[I \sim O] = SBLSQ$ i paradigmasiga tegishli  $[Sf \sim O] = SB$  xususiy qolipini faollashtiradi. Buning natijasi o‘laroq tobe a‘zosi belgini, hokim a‘zosi predmetni ifodalovchi birikmalar yuzaga keladi. Bu jarayon mahsuli tibbiyotga oid termin yoki atamalar hisoblansa, ularni umumiy  $[I \sim O] = SBLSQ$ i hosilalari sifatida baholash ilmiy asoslarga muvofiq bo‘ladi.

Atash vazifasi so‘z va so‘z birikmalarini nominativ birliklar paradigmasida birlashtirib turganidek, tibbiyot sohasida ham so‘z birikmalari terminologik ma‘noni ifodalashga xoslangan so‘zlar bilan baravar bu vazifani bajara oladi.

Tahlillardan ma‘lum bo‘ladiki, tibbiy nutqda guvohi bo‘lganimiz – o‘z vazifasini tibbiy terminlarni shakllantirish orqali namoyon qilgan so‘z birikmalarining aksariyati  $[I^{k.k.} \sim I^{e.k.}] = SBLSQ$ i va  $[I \sim O] = SBLSQ$ ining voqelanishidan yuzaga keladi. Demak, lisoniy

синтактик birliklarning tibbiy nutqda voqelanishidan, shuningdek, soʻz birikmasining sohaga doir tushunchalarni ifodalash imkoniyati roʻyobga chiqqanligidan dalolat beradi. Oʻzbek tilida soʻz birikmasining lisoniy qurilishi va maʼno turlari xilma-xilligi sababli bu birlikning tibbiy atamalarni shakllantirish imkoniyatlari hamda shu vazifaga xoslanishi masalasini keng va atroflicha tadqiq etish zarur. Binobarin, tibbiy lingvistika hamda substansial tilshunoslik nazariy asoslari uygʻunlashgan tadqiqotlarda tibbiy terminologik tizimning substansial va soha leksikasining struktur tahlili bilan aloqadorlikda yechiladigan muammo sifatida oʻrin olishi muqarrar.

Umuman, istalgan LSQ nutqda cheksiz voqelanish imkoniyatiga ega va LSQning nutqiy mahsuliga qarab uning voqelanish darajasi, lisoniy imkoniyatining koʻlami haqida xulosa qilish mumkin.

#### **Adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6084-сонли Фармони. 2020 йил 20 октябрь. (<https://lex.uz/docs/5058351>)
2. Назарова С.А. Сўз бирикмаси синтаксиси субстанциал талқинда. –Т.: Фан, 2015. – 112 б.
3. Назарова С. Сўз бирикмаси лисоний синтактик қолиплари/Бухоро davlat universiteti ilmiy axboroti. – Бухоро, 2016.–№4. –Б.56-59.
4. Nazarova S.A., Xojiyeva M.Yu. Substantial Description of Uzbek Word Combinations // International Journal of Psychosocial Rehabilitation. United Kingdom. – ISSN: 1475-7192, Volume-24, Issue-1, January 2020. – P. 422-429. <https://www.psychosocial.com/article/PR200146/9312/>
5. Қосимова Ф. Ўзбек тилшунослигида тиббий терминологиянинг таракқиёт тенденциялари // НамДУ илмий ахборотномаси. 2020.–№3.–Б. 410-415.
6. Қурбонова М. Ўзбек тилшунослигида формал-функционал йўналиш ва содда гап қурилишининг талқини: филол. фанлари доктори... диссер... автореф.– Тошкент, 2001. –51 б.
7. Ширинова Е.Т. Ўзбек тили банк-молия терминологияси: Филол. фанлари ... фалсафа доктори (PhD)... диссертацияси. – Т., 2020. –152.

## **ДЕТЕКТИВ АСАРЛАР ТИЛИНИНГ ПРАГМАТИК ХУСУСИЯТЛАРИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ**

**DOI: 10.53885/edinres.2021.60.23.041**

*Г. Ниязова*

А.Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети инглиз тили кафедраси катта ўқитувчиси

**Аннотация.** *Мақолада тилишуносликда детектив асарлар тилини, тилишунослик ҳодисаларни ўрганишга прагматик тадқиқи масаласининг долзарблиги, бадий матнларнинг прагматик таҳлили, бадий асар тилини прагматик ва гендер аспектларда ўрганишининг услубий хусусиятларига доир тадқиқотлар ҳақида мулоҳаза юритилган.*

**Калит сўзлар:** *тилишунослик, детектив, жанр, прагматик таҳлил, коммуникатив ва нокоммуникатив мақсадлар, мулоқот вазияти, тилнинг гендер аспекти, алоқа воситаси, бадий матнлар*

Замонавий илм-фан, хусусан, тилшунослик ҳодисаларни ўрганишда аниқ фанлараро ёндашувлар мавжудлиги кўзга ташланади. Айрим далилларни тушунтиришда тегишли фанлардан олинган маълумотларни жалб қилиш зарурати антропоцентризм йўналишидаги илмий объектларни кўриб чиқишда диққатнинг ўзгаришига боғлиқ бўлади. Илгари

тадқиқотчиларнинг диққат-эътибори, асосан, тилнинг ички тузилиши билан боғлиқ масалаларга қаратилган бўлса, энди унинг коммуникатив ва нокоммуникатив мақсадларга эришиш учун кишиларнинг алоқа воситаси сифатида фаолият кўрсатиши, жамиятда ўзаро муносабатларини амалга ошириш масалалари биринчи ўринга чиқади.

Сўзловчи ва тингловчи онгига таъсир этувчи ижтимоий меъёрлар ва стереотиплар ижтимоий ва маданий омилларни ҳисобга олишни ва шунга мос равишда уларнинг хатти-харакатларини, жумладан, нутқни ҳақиқий мулоқот вазиятида тузатишни ўз ичига олади. Замоनावий тилшунослик шу тариқа тил ҳодисаларига когнитив-прагматик ва социопрагматик ёндашувлар кириб келиши фаоллашди. Бунга бир томондан, тил, алоқа воситаси ва иккинчи томондан, нотикларининг ижтимоий онгининг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиқадиган ҳодиса сифатида қаралмоқда.

Замоनावий тилшуносликнинг экспансионизм, яъни бошқа фанларга, биринчи навбатда, гуманитар фанларга кириш ва тадқиқот объекти ҳамда субъектининг кенгайиши, мураккаблашуви каби муносабатнинг пайдо бўлишига олиб келди [Кубрякова 1995;19-56]<sup>1</sup>. Аввало, у ўша инсон илмларни таъкидлаш лозим, маъноси Бодуэн де Куртине томонидан ёзилган эди: “тилда ҳам психологик, ҳам ижтимоий омиллар фаолият кўрсатганлиги туфайли психологияни тилшунослик учун ёрдамчи фанлар, сўнгра социологияни жамиятда кишиларнинг мулоқот фани, ижтимоий ҳаёт фани деб ҳисоблашимиз керак” [Бодуэн де Куртине 1963: 217]<sup>2</sup>. Инсон биосоциал мавжудот бўлиб, туғилгандан бошлаб уни бошқа тирик мавжудотлардан ажратиб турувчи маълум қобилиятларни шакллантириш учун мойилликка эга. Бироқ бу ўзига хос руҳий хусусиятларни шакллантириш фақат жамиятда, аввалги авлодлар томонидан яратилган маданиятни ўзлаштириш орқали амалга оширилиши мумкин. Бу жараён шахснинг ижтимоийлашуви деб аталади.

Ижтимоийлашувнинг кучли омили, эҳтимол мавжуд бўлганларнинг энг кучлиси тилдир [Сепир 1993: 231]<sup>3</sup>. Тил – шахснинг бошқа одамлар билан мулоқот орқали ва унга мувофиқ муайян қарашлар, эътиқодлар, баҳолар ва ҳоказолар тизими орқали “ўзлаштирадиган” ижтимоий хотиранинг бир қисмидир. Одамлар катта гуруҳларга хос, бир бутун сифатида жамият, унинг ёдда шаклланади. Бу тизим шахснинг хулқ-атвори учун маълум бир асосни ташкил этади. Муайян одамлар онгида, у дунёнинг муайян шахсий модели ичига ўз тажрибасига мувофиқ ривожланади. Инсоннинг дунёдаги ижтимоий, маданий ва когнитив йўналишини белгилайдиган омиллардан бири жинсдир.

Инсоннинг жинси вазиятли рол эмас, балки унинг экзистенциал характеристикаси, айтиш мумкинки, шахснинг ажралмас қисмидир. Биз тасодифан “шахс” сўзини ишлатмадик. Инсон ижтимоийлашув жараёнида шахсга айланади ва жинс бу жараённинг хусусиятларини белгиловчи омиллардан биридир. Шундай қилиб, биологик хусусият – инсоннинг жинси ҳам ижтимоий оқибатларга олиб келади, бунинг учун замоनावий фанда “гендер” атамаси жорий этилган. Гендер тадқиқотлар кўрсатишича, эркаклар ва аёллар ўртасидаги фарқлар, хулқ ва айниқса, нутқий ўзига хосликлар билан боғлиқ. Буни бадиий матнларда қаҳрамонлар нутқини таҳлил қилиш орқали ҳам билиш мумкин. Жумладан, детектив асарларда эркак ва аёл қаҳрамонларнинг нутқида муаян ўзига хосликлар мавжуд. Масалан, Тоҳир Маликнинг “Шайтанат” романида шундай ўринлар мавжуд: *Аяси дадасининг қалин ёқали катта оғир палтосини кийиб олибди. Унинг назарида аяси палтонинг оғирлигидан қийналиб инқиллаётганга ўхшарди. Аяси танча олдида тўхтади. У турди. Аяси уни ўпиб, йиғлади.*

<sup>1</sup> Кубрякова Е.С. Эволюция лингвистических идей во второй половине XX века (опыт парадигмального анализа). Язык и наука конца XX века. – М.: Российская академия наук. Институт языкознания РАН, РГГУ, 1995. – 227 с.

<sup>2</sup> Бодуэн де Куртене, И. А. Избранные труды по общему языкознанию Текст. : в 2 т. / И. А. Бодуэн де Куртене. М. : Изд-во АН СССР, 1963. -Т. 1.-384 с., Т. 2.-391 с.

<sup>3</sup> Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии // Под ред. А.Е. Кибрик. – М.: Изд. гр. “Прогресс”, “Универс”, 1993. – 654 с.

– *Дадаси, танчанинг чўғини очиб қўйинг. Тойчоғингиз совқотибди, – деди. Дадаси энгашиб, кўрпанинг бир томонини кўтарди-да, кулини титиб, чўғни очди. Кейин чиқиб кетишди.* (Т.Малик. Шайтанат. 6-б.)

Матнда ажратиб кўрсатилган жумла аёл кишининг нутқи бўлиб, ўзбек аёлининг эрига мурожаати акс этган. Биринчидан, бошқа халқлардан фарқли ўлароқ ўзбек аёли ўз турмуш ўртоғининг исмини айтиб чақирмайди. Қолаверса, доимо эрга ўзидан катталарда ҳатто эрининг яқинлари бўлмиш кичкина болаларгача сизлаб гапиради. (Келин бўлиб келгунча туғилган барча болаларни ҳам сизлайди. Ундан кейингиларини сенлаши мумкин).

Бу ўринда “дадаси” ундалмаси ва кесимга қўшилиб келган шахс-сон қўшимчасининг кўплиги ўзбек тилида асосан аёллар нутқида учрайди.

Тил ва шахснинг ўзаро муносабати матн шаклида ҳаракат қилади. Матн бир томондан, инсоннинг воқеликнинг маълум бир бўлагини акс эттиришга интилишини ва иккинчи томондан, ўз-ўзини ифодалашга интилишини амалга оширади.

Яқин-яқингача бадий адабиёт унда гендер омилининг намоён бўлиши нуктаи назаридан таҳлил қилинмаган эди. Сўнгги ўн йилликларда аёллар ва эркекларнинг нутқи акс этган бадий, публицистик ва илмий матнлар гендер нуктаи назаридан ўрганиб чиқилмоқда.

Бадий тилнинг гендер аспектида ўрганилиши гендерни лингвистик усуллар билан билиш учун жуда унумли ҳисобланади. Бадий нутқда тилнинг ўз-ўзини ифодалаш функцияси каби вазифаси тўлиқроқ амалга ошади. Шундай қилиб, бадий тил орқали матндаги оғзаки образлар, унинг яратувчисининг дунёқараши очиб берилади, бу эса бошқа омиллар ва муаллиф гендери билан белгиланади.

#### **Адабиётлар:**

1. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. –Тошкент: ЎзМЭ, 2008.
2. Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии // Под ред. А.Е. Кибрик. – М.: Прогресс, Универс, 1993. –654 с.
3. Тарасов Е.Ф. Проблематика изучения, описания и моделирования речевого общения. В кн.: Лингвистическая прагматика и общение с ЭВМ. – М.: Наука, 1989. –142 с.
4. Худойберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини: филол. фан. докт. ... дисс. –Тошкент, 2015.
Korpusni elektron kutubxonadan ajratib turuvchi birinchi omil undagi matnning xususiyati va qo'shimcha ma'lumot bilan boyitilgani hisoblanadi hamda bu belgi korpusning alohida qismi – korpus birliklariga yozilgan izohni tashkil etadi. Foydalanuvchiga biror so'z kerak bo'lsa, buni odatiy matn muharriri ham topib beradi. Lekin matndagi til hodisasining ma'nosi, mazmuni va tuzilishini "tushunadigan" dasturiy tizim bilan ishlash juda afzal va qulay. Til birligini qidirish, kerak bo'lsa, bunday dasturiy ta'minot, ya'ni korpus tadqiqotchi yoki foydalanuvchiga juda katta yordam berishi mumkin. Tadqiqotchi o'z ishi uchun misollar topish, ularni kartotekaga (kompyuter texnologiyalari rivojlanishidan oldingi davrda) ko'chirishga oylab, ba'zan yillab vaqt sarflagan bo'lsa, bugun dunyo til korpuslari yordamida sanoqli daqiqada yuzlab misollar topish, ular ustida ishlash imkoniga ega bo'ldi. Maxsus qidiruv tizimi korpusdan ma'lumot olishga mo'ljallangan bir qancha dasturdan iborat. U statistik axborot va qidiruv natijasini foydalanuvchiga qulay shaklda taqdim eta oladi. Tilda qanday jarayon kechayotganini aniq tasavvur qilish uchun korpus qamrovini yanada kengaytirish, nafaqat yozma, balki og'zaki nutq materialidan ham foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday korpus yordamida taraqqiyot natijasida tilda sodir bo'lgan va kutilayotgan o'zgarish haqida aniq xulosa chiqarish mumkin.

Korpus bo'yicha qidiruv foydalanuvchiga quyidagilarni aniqlash imkoniniberadi:

- 1) belgilangan til birligining turli qo'llanishlardagi barcha shaklli ko'rinishini;
- 2) tilning lug'at tarkibidagi o'rni va variantlarini;
- 3) belgilangan so'z bilan birikish imkoniyatiga ega so'zlar ro'yxatini;
- 4) u yoki bu muallifning ayni so'zdan foydalanish chastotasi yokistatistikasini;

- 5) soʻzning oʻz va koʻchma maʼnolarini;
- 6) soʻz qoʻllanishining yashirin modeli(imkoniyati)ni;
- 7) til taraqqiyotining turli davrida qoʻllanish holatini.

Korpuslar turli maqsadlarda, turli sohalar boʻyicha tuzilishi mumkin. Dunyotillari boʻyicha yaratilgan korpuslarning tasnifi quyidagi jadvalda keltirildi:

TASNIF BELGISI	KORPUS TURLARI
Nutq turiga koʻra	Ogʻzaki, yozma, aralash
Matn tiliga koʻra	Ruscha, inglizcha va hokazo
Parallelligiga koʻra	Bir tilli, ikki tilli, koʻp tilli
Matnning ixtisoslashuviga koʻra	Badiiy, dialektal, suhbat,terminologik, aralash
Janriga koʻra	Adabiy, folklor, dramatik, publitsistik
Kirish usuliga koʻra	Erkin, pulli, yopiq
Maqsadiga koʻra	Tadqiqiy, tavsifiy
Izohlanishiga koʻra	Qoʻshimcha izohli, izohsiz
Oʻzgaruvchanligiga koʻra	Oʻzgaruvchan, turgʻun
Strukturasiga koʻra	Markaziy, arxiv, mahalliy
Izoh xususiyatiga koʻra	Morfologik, sintaktik, semanti
Matn hajmiga koʻra	Toʻliq matnli, lavha matnli
Xronologik jihatiga koʻra	Sinxron, diaxron
Umumiylikiga koʻra	Umumiy, yakka muallifli, sohaviy

Mavjud korpuslar tarkibidagi matnlarning nisbatiga qarasaq, badiiy adabiyot hissasi 40 foizni tashkil etganiga guvoh boʻlamiz. Uning tarkibiga memuar asarlar ham kirib ketadiki, bu janr til xususiyati badiiy va publitsistik uslub oraligʻida boʻlib, jonli tilni oʻrganish uchun ancha qulay. Yevropa tillari korpuslarida badiiy adabiyot materiali 20 foizni tashkil etadi. Masalan, zamonaviy yozuvchilar tilxususiyatini oʻrganishga bagʻishlangan 20 dan ortiq tadqiqot mavjud boʻlsa-da, ular hali toʻlaligicha bu muammoni oʻrganib boʻldi, deyish qiyin. Chunki alohida yozuvchi asarining til xususiyatidagi oʻzgarishga hali tildagi yangi hodisa deb qarab boʻlmaydi. Ana shunday jarayonlarni kuzatish va tadqiq etishning eng qulay vositasi – til korpusi.

Korpus tor mutaxassislar uchungina keraklimi yoki yana boshqa soha vakillari ham undan foydalansa boʻladimi? degan savolga korpus lingvistikasiga oid qator adabiyotlarda korpusning ahamiyati toʻgʻrisida soʻz borar ekan, uning qoʻllanilish doirasining ancha kengligi taʼkidlanadi. Korpus foydalanuvchilari doirasi biz oʻylaganimizdan koʻra ancha keng boʻlib, quyida shularni sanab oʻtamiz.

Lugʻat va grammatikadan faqat tilshunos foydalanmaganidek, korpus gumanitar fanlar tadqiqotchisi, adabiyotshunos hamda tarixchi uchun ham birdek zaruriy baza, deyish mumkin.

Oʻqituvchi uchun korpus – tengsiz xazina. Masalan, u topshiriqni tayyorlash uchun faqat badiiy adabiyotdan (yoki badiiy boʻlmagan matndan: sport, avtobiografiya yoki shunchaki maʼlum ijodkor asari bilan cheklanmoqchi) foydalanmoqchi. Unda «Mening korpusim» ilovasi orqali oʻziga kerakli matnni ajratib olish imkoni mavjud, yaʼni misollar sirasini chegaralaydi. Korpus turli janr va uslubdagi matnlarni qamrab olgani sababli har qanday talabni qondirish imkoniga ega. Misol uchun, jurnalistika fakulteti talabalari uchun yozilgan darslikda publitsistik matnlar ancha eskirgan. Har kuni muntazam boyitiladigan korpusdan yangi misollar olish, ularni talabaga taqdim etish yoki unga ham shunday topshiriq berish, albatta, taʼlimni hayotga yaqinlashtiradi. Koʻpincha qayta-qayta nashr etilgan darslikda misollar eskiligicha qolib ketadi. Bugungi kun uchun mavzu eskiradi, talabalar bilimni davrga hamohang oʻzlashtirmaydi.

Bugun filolog yoki jurnalist boʻlib yetishayotgan mutaxassisga tilimizning barcha nozik qirralarini his etishi uchun faqat eski – 20-30 yil oldingi matn namunasi yetarli emas, u bugun yozilgan barcha soha, uslub va janrdagi asarlar bilan ishlashi lozim. Shundagina taʼlim ijtimoiy buyurtmani bajargan hisoblanadi. Til korpusidan oʻqituvchi, talaba va maktab oʻquvchisi ham ancha unumli foydalanishi mumkin. Chunki faqat korpus orqali juda osonlik

bilan kamishlatiladigan soʻz, ibora va birikmani topish, qoʻllanishi va yozilishi(orfografiyasi)ni oʻrganish mumkin. Taʼkidlash joizki, til korpusida til grammatika va darslik muallifi tavsiflaganidek emas, balki jamiyatda qanday yashasa va ishlasa, shunday aks etadi. Bu esa oʻquvchining oʻzini oʻrab turgan muhit – umumxalq tili va adabiy tilni oʻrganishida eng sermahsul vosita boʻlib xizmat qiladi.

Til korpusiga eng koʻp ehtiyoj sezuvchi mutaxassis bu – matnni avtomatik qayta ishlash (masalan, tarjima dasturi) va turli qidiruv tizimlari bilan ishlaydigan dasturchi. Chunki u tabiiy til bilan ish koʻradi hamda ushbu tilda yozilgan barcha matnlar strukturasi (tabiiy va jonli tilda, ilmiy grammatika va darsliklardagi misollarga tayanib emas!) mukammalroq «tushunishi», his etishi lozim.

Til korpusiga ehtiyoj sezadigan mutaxassislardan yana biri – kundalik ish jarayonida yozma va ogʻzaki nutq jozibasiga tez-tez murojaat etuvchilar: gazeta va jurnal muharriri, jurnalist, radio va televideniya xodimlari. Chunki bu mutaxassislar muayyan soʻz, ibora yoki gapning qoʻllanish holati, darajasi, kim, qachon ilk marta bu gapni qoʻllagani, qanday uslub uchun xoslanishini bilishga grammatika bilan shugʻullanuvchi olimdan koʻra koʻproq ehtiyoj sezadi. Korpusdan tashqari hech qanday axborot banki bu kabi savollarga zudlik bilan javob berishi mumkin emas. Shuning uchun korpus lingvistikasi tadqiqotchilari korpuslar jurnalist, muxbir, muharrir, oʻqituvchi hamda dasturchi uchun maxsus yaratila boshlangan, degan xulosaga ham kelishadi. Biz bugungacha darslik, ilmiy grammatika va lugʻatga qanday tayangan boʻlsak, zamonaviy soha vakillari korpusga shu qadar ehtiyoj sezishadi, undan foydalanishadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, korpusning ijtimoiy ahamiyati juda keng qamrovli. Korpusdan lingvistik va etno-psixolingvistik tadqiqotlarda, ona tili, adabiyot, xorijiy til taʼlimida, matnga ishlov berish va tarjima dasturlarini tuzishda foydalanish mumkin. Korpus tilshunos, tarjimon, oʻqituvchi, dasturchi, gazeta va jurnal muharriri, jurnalist, radio va televideniya xodimi, umuman kundalik faoliyat jarayonida ish quroli soʻz boʻlgan har qanday kishi uchun zamonaviy axborot vositasining bir koʻrinishidir.

#### **Adabiyotlar:**

7. Азарова И.В., Алексеева К.Л., Захарова Л.А. Разметка текстовых фрагментов в корпусе агиографических текстов СКАТ // Труды международной конференции «Корпусная лингвистика – 2006». – СПб:изд-во С.-Петербур. ун-та, Изд-во РХГА, 2006..

8. Андрющенко В. М. Концепция и архитектура Машинного фонда русского языка. М.: Наука, 1989.

9. Беляева Л.Н. Лексикографический потенциал параллельного корпуса текстов // Труды международной конференции «Корпусная лингвистика – 2004». – СПб., 2004.

10. Захаров В.П. Корпусная лингвистика. – Иркутск, 2011.С. 7.

11. Xamrayeva Sh. Til korpusining lingvistik va boshqa sohalardagiahamiyati // OʻzMU xabarlari, – T., 2017.

12. Xamrayeva Sh. Til korpusining leksikografik ahamiyati // OʻzMU, -Toshkent, 2017.

13. Mengliyev B. va b. Oʻzbek tilining milliy korpusi// Maʼrifat, -Toshkent, 2018.

14. D. Yuldasheva. Oʻzbek tilining milliy korpusiga ehtiyoj. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 2 (2)

#### **НОМЕМА ВА СЕМЕМАНИНГ ЎЗАРО МУНОСАБАТИ DOI:10.53885/edinres.2021.23.79.047**

**М.Раҳимова,**

Қўкон ДПИ, филология фанлари  
бўйича фалсафа доктори

**Аннотация.** Белги ўзи ифодаляётган предметга нисбатан ўхшаш, табиий боғланган ёки шартсиз ва, аксинча, ўз предмети билан ҳеч қандай боғланишига эга бўлмаган ёки шартли бўлиши мумкин[1:8]. Бунга мувофиқ шартсиз белгиларга тақлид

*сўзлар ва шартли белгиларга от, сифат, сон каби мустақил сўзлар киради. Энди шу ҳақда фикрлар баён қиламиз.*

**Калит сўзлар:** *номема, семема, шартсиз белгилар, тақлид сўзла, шартли белгилар*

Тақлид сўзнинг ўзига хослиги шундаки, товуш томон айна пайтда ўзи ифодалайдиган, кўрсатадиган предметнинг (ҳодисанинг) сурати (худди одам ва унинг сурати каби) аксидир. Буни тақлид сўзларга тил ва нутқ дихотомияси нуқтаи назаридан қаралганда яққол кўрамиз. Хусусан, “тақ”, “гумбур” каби тақлид сўзлар нутққа қадар бизнинг тил хотирамизда сақланганда ёки уларни санаб ўтаётганимизда (“тақ”, “қарс”, “курс”, “дод” каби) товуш томон алоқадор бўлган ифодаланмиш абстрактлашади, товуш томон етакчилик қилади ва тақлид сўз номемасининг ўзи семемасининг суратидир.

Тақлид сўзларнинг воқеланиши ўзига хосдир. Одатда биз бирор нарса ёки ҳодиса билан боғлиқ товушни (ҳодисани) эшитамиз ва уни қандай бўлса шундайлигича ҳис қиламиз ҳамда унинг нима эканлигини англаймиз. Бошқа мустақил сўзлардан фарқлироқ товушга тақлид сўзларнинг денотатлари (воқелиги) нутқий вазиятда бирламчилик, ташқарида берилганлик, объектив ҳолатда бизга таъсир этиш, шу ҳодиса ҳақида тасаввур (тушунча) уйғотиш хусусиятига эга. Шу боис ҳам ундов сўзларнинг товушга тақлид гуруҳи фақат сўз-гап бўлиб келади ( Так! Шитир-шитир! Дук-дук... каби). Товушга тақлид сўзларнинг ҳодисалари бу сўзларни отлаштириб қўллаганида ўзига хос маънога (тушунчага) айланади (кимнингдир дуп-дупи эшитилди). Товушга тақлид сўзларнинг оралик сўзлар эканлигини эътироф этишда тақлид сўз маъносининг ҳар ҳолда нисбий ҳолатда бўлса ҳам мавжудлиги ( унинг ҳам ниманидир билдириши) ва уларнинг (тақлид сўзларнинг) типик ҳолатда гап бўлақларига хос вазифа бажара олмасликлари (ёрдамчи сўзлар каби) ҳисобга олинади. Хуллас, товушга тақлид сўзларнинг товуш томонлари маънолари билан айнандир. Бунда белги (товуш томон) белгиланмишга тенг бўлиб, улар орасидаги фарқ товуш томоннинг ном (т+а+қ) эканлиги, хотирада ўзига айнан бўлган ҳодисанинг абстракт ҳолатини (маъносини) “ушлаб туриши”, нутқий вазиятда ўз ҳодисаси ичига сингиб кетиши кабилардир. Товушга тақлид сўзлар товуш томонларининг ўзига хослиги уларнинг ўз ҳодисаларини бевосита кўрсатиб туришидир. Шундай қилиб, товушга тақлид сўзлар ташқи ҳодисаларнинг эшитиш сезгиси (қулок) орқали киши онгига таъсир этиб, унда ўз эквивалентларини, муқобилларини, абстракт ҳолатларини ҳосил қилади.

Тақлид сўзларнинг иккинчи гуруҳи сифатида образ ёки ҳолатни ифодаловчи сўзлар киритилади. Баъзи адабиётларда бу сўзлар тасвирий сўзлар [2:11] ҳам дейилади. Булар жумласига аланг-жаланг (кўзларнинг ҳолати), ялт-юлт (лампочка ёнишининг ҳолати), дир-дир (совқотган тана терисининг ҳолати), ғуж-ғуж (бир бош узумдаги доналарнинг ҳолати) кабилар киритилади. Аслида бу сўзларга нисбатан қўлланган “тақлид” атамаси ўзини оқламайди. Зеро бу сўзларнинг товуш томони образ ёки ҳолатнинг айнан ёки қисман акс этиши, тақлиди эмас. Белги назарияси бўйича қаралганда бу сўзларнинг маъно ва товуш томонлари орасида табиий боғланиш эмас, шартлилик, ихтиёрий қўйилганлик мавжуд. Шу боис бу сўзлар ҳам шартли номинацияга эга бўлган сўзлар сирасига киритилиши лозим.

Маъно ва товуш томон муносабати бўйича ундов сўзлар алоҳида ўринни эгаллайди. Масалан, ҳис-ҳаяжон ундови “оҳ” ни олайлик. Бу сўз ўзи ифодалаётган ҳис-туйғуси билан табиий боғланишга эга эмас. Улар орасида тақлид сўз каби айнанлик, ўхшашлик, табиий боғланиш ёки мотивация йўқ. Иккинчи томондан, “оҳ” сўзининг товуш томони муайян ҳис туйғунинг бевосита ифода воситаси ҳисобланади. Хусусан, бунда “о” ни чўзиш орқали ҳисни кучайтириш, турлича кўринишларга киритиш мумкин. Демак, бу сўзнинг товуш томони ўзининг воситалиги билан бошқа сўзлардан фарқ қилади. Масалан, “дарахт” номемасини ҳар оҳангларда айтиш билан реал дарахтнинг ҳар хил кўринишларини ифодалаб бўлмайди. Демак, ундов сўзнинг бу маъноси билан муайян табиий (воситалик) боғланиши бор. Хуллас, ундов сўзларнинг “ҳис-ҳаяжон” гуруҳида

асосан шартли ва қисман табиий алоқадорлик мавжуд. Буйруқ-хитоб ундовларининг товуш томони билан маъно томони орасида асосан шартли боғланиш бор. Масалан, товукқа нисбатан ишлатилган “кишт-кишт” сўзининг маъноси (ҳайдаш) билан товуш томони орасида ҳеч қандай табиий алоқа йўқ.

Мустақил ва ёрдамчи сўзларда, шунингдек, модал сўзларда товуш томон ўз маъноларига нисбатан шартли белгилик вазифасини бажаради. Бунда товуш томон билан маъно орасида табиий, сабаб-натига, восита-ҳосила муносабатлари йўқ. Хусусан, гул (г+у+л) номема унга бириктирилган “маданий ўсимлик” семемаси билан шартланмаган. Ҳар бир, хусусан, ўзбек тилидаги сўзлар, айрим тақлид, ундов сўзлардан ташқари, ана шундай ҳолатга эга. Ф.де Соссюр ушбу ҳолатни кўзда тутган ҳолда “тил шартли белгилар тизимидан иборат”[3:98] деган эди. Сўздаги товуш томоннинг шартлилиги, эркинлиги, маънога табиий боғланмаганлиги товуш томонга ҳам, маъно томонга ҳам нисбий эркинлик беради. Бу эса товуш томоннинг ҳам, маъно томоннинг ҳам ўзгаришига, хусусан, кўп маънолилиқ, омонимлик каби семантик ҳодисаларнинг вужудга келишига омил бўлиб хизмат қилади. Муайян заруриятлар асосида сўзнинг товуш томонида ҳам фонетик ҳодисалар амалга ошади. Сўзнинг товуш томони шартли белгилик мақомида бўлганда белгиликнинг содда ва кўшма сўзларда қандай воқеланиши, ҳар бир, хусусан, ўзбек тили сўзларида фонемалардан қай йўсинларда номема – белгиларнинг шаклланганлиги (номема қурилиши) ва номема ва семемалар муносабатининг аниқланиши тилшунослик учун муҳимдир. Н. Якобсон сўзи билан айтганда, тилдаги товуш билан маънонинг боғланишини йўсинларини ўрганиш лингвистиканинг энг муҳим муаммосидир. Бунда, аввало, ҳар бир, хусусан, фонемаларнинг номема ҳосил қилиш йўллари, номемага маъноларнинг боғланиш йўсинлари, миқдори кабиларга эътибор берилади. Бу йўналишдаги ишлар ҳам фонетик/фонология, ҳам лексик семиология фанларини янада бойитади.

#### **Адабиётлар:**

1. Нурмонов А. Лингвистик белги назарияси. Тошкент. 2008. 8-б
2. Кўнғўров Р. Тасвирий сўзларнинг лексик характеристикаси. Самарқанд. 1960
3. Фердинанд де Соссюр. Труды по общему языкознанию. Москва. 1977. стр 98

### **ҲАМИД ОЛИМЖОН ИЖОДИДА ҚОФИЯ**

**DOI: 10.53885/edinres.2021.30.16.048**

**Умида Раҳимова**

Термиз давлат университети  
ўзбек тили ва адабиёти кафедраси катта  
ўқитувчиси

**Аннотация.** *Қофиянинг мавжудлиги мисранинг тўқислигини таъминлайди ва кучайтиради, ритмик бирликларнинг мутаносиблиги камроқ аниқлик билан ифодаланган эркинроқ ритмик тузилишдаги мисраларда (сатрлар бўгинлар сони, ургу жойлари ва бошқалар билан фарқланади) қофиянинг ритмик маъноси юқори даражадаги аниқлик билан намоён бўлади.*

**Калит сўзлар:** *Ҳ.Олимжон ижоди, қофиядошлиқ, мисра охиридаги лафздошлиқ*

Ҳ.Олимжон ижодининг жозибadorлиги, ёқимлилиги, ўқувчиларга тез етиб боришини таъминлашда қофиядошлиқ катта рол ўйнаган.

*Қофия* (араб. — эргашиш, изидан бориш, юн.  $\nu\theta\mu\varsigma$  – *рифма*: «мутаносиблик, ритм») деб икки ёки ундан ортиқ мисра охиридаги лафздошликка айтилади (А. Рустамий).

Маълумки, шеъриятда оҳангни сақлаб турувчи бўгин, туроқ ва бошқа воситалар ҳам мавжуд. Шунингдек, қофия ҳам мавжуд оҳангни фикрни бошидан охирагача сақлаб бориш вазифасини бажарса-да, унинг шеърий нутқдаги вазифаси шу билан чегараланиб қолмайди.

Қофия фикрни бир тугал поэтик фикр сифатида тугатишни таъминловчи восита ҳамдир. Аввало, ҳар бир фикр интонацион тугалликка эга бўлади. Интонация – тугалловчи восита. Лекин интонацион тугалликка эга бўлган фикр доимо мантиқан, мазмунан тугал бўлавермайди. Бу ҳол айниқса, шеъриятда яққол сезилади. Масалан:

*У яшайди беситам, безор,*

*У билмайди қайғуни, ғамни*

*Оёқлари остида баҳор*

*Тўшаб қўйган алвон гиламни.* (Зайнаб ва Омон)

Ушбу шеърий парчадаги биринчи икки мисра ўзига хос фикрий тугалликка эга. Лекин ғоявий-мазмунан тугал фикр эмас. Шу фикрдан кейин уни тўлдириб изоҳлаб келадиган яна бир фикр борлиги яққол сезилиб туради. Унинг (Зайнабнинг) “беситам, безорлиги”, “қайғуни, ғамни” билмаслигининг сабаби 3-4-мисраларда иккинчи фикр сифатида таъкидланиб, олдинги фикр билан бир бутун ҳолда тугалланган фикр вужудга келган.

Кўриниб турибдики, бунда қофия фикрларни бир-бири билан боғлаш, уни тугал фикр сифатида шакллантириш вазифасини бажарган. *Безор-баҳор, ғамни-гиламни* сўзларининг қофияланиши натижасида фикр мазмунан тугалланиб, яхлит бир поэтик ифодага айланган.

Қофиянинг шеърий нутқдаги вазифаларидан бири шеърий ўлчовни уюштирувчи восита сифатида хизмат қилишидир. В.Жирмунский қофиянинг ўлчовдорликни таъминлашини оҳангдорликни таъминлаш жараёнидан ажратмайди [1]. Олим уларни бир-бири билан боғлиқлигини оширувчи восита сифатида талқин қилади.

Е.Винокуров ва Б.Гончаровлар қофия фикрнинг таъсирчанлигини оширади, десалар [2], Н.А.Асеев “қофия – поэтик энергиянинг конденсатори”, деб ёзади [3].

Дарҳақиқат, қофия шеърий нутқда ифодавийликни таъминловчи воситалардан ҳам биридир. Чунки қофия товушлар такрорига асосланган санъат. Товушлар такрори натижасида маълум санъатлар – поэтик воситалар вужудга келади. Бу санъатлар бевосита поэтик нутқнинг бадиий ифодавийлигини кучайтиради, нутқнинг жарангдорлигини оширади.

Бироқ қофия шеърий қаторини яқунлаб берувчи ягона восита эмас, кучли пауза, тугалланган, яқуний урғу ва оҳанг, клаузула (лот. *clausula* «яқун, тамом, яқунланиш») ёрдамида мисранинг яқун топгани қофиясиз ҳам англашилиши мумкин:

*Ҳали Зайнаб ўзининг дардин*

*Дадил туриб ёраолмайди.*

*Тунни бутун уйғоқ кечирди,*

*Фикрлари топмай ниҳоя...* (Зайнаб ва Омон)

Товуш такрори поэтик нутқнинг оҳангдорлик системасидан узилиб қолган алоҳида ҳолда эмас, балки, оҳангдорлик системасига сингиб кетгандагина бадиий-ифодавий бўлади. Маълумки, товуш такрори поэтик нутқни бошқа нутқ турларидан ажратиб турувчи воситаларидан бири саналади. Товуш такрори аввало эвфоник (оҳангдош) ва метрик (ўлчовдош) такрорларга бўлинади. Қофия товуш такрорининг биринчи турига хос бўлиб, оҳангдош такрор бошқа бир қатор стилистик усулларни ҳам (аллитерация, паронимия) вужудга келтиради. Шунинг учун ҳам товуш такрори шеъриятда бадиий ифодавийликни вужудга келтирувчи, шеъриятнинг оҳангдорлик тизимидан жой оладиган воситалардан бири ҳисобланади. Бир қатор тадқиқотчилар товушнинг поэзиядаги ўрнини алоҳида таъкидлайдилар. Чунончи, К.Бальмонт поэзияни сеҳргарлик деб атаб, “ҳар бир ҳарфда сеҳргарлик бор, шеър ўзининг моҳияти билан кучли ва ҳар бир ҳарф унда бир сеҳрдир” [4], дейди.

Қуйидаги мисралар бу ҳолатни зулфиқофиятайн сифатида кузатиш имконини беради:

Гулзорлардан, *боғлардан ўтдим,*

Бозорлардан *тоғлардан ўтдим.* (Зайнаб ва Омон)

Биринчи байтда олтига сўз қўлланилган бўлиб, улардан тўрттаси-гулзор-бозор, боғ-тоғ қофияланган. Иккинчи байтда саккизга сўз ишлатилиб, *кун-тун, ботар-ётар* сўзлари қофияланган, мисраларни икки бўлакка (туроққа) ажратган. Қолган тўртта сўз радифдир. Бу байтдаги қофияланиш тузилиши жиҳатидан бир-бирига ўхшаганидек, бир-биридан фарқланади ҳам. Ўхшашлик шундаки, ҳар икки байтда ҳам бир неча сўзлар қофияланган. Қофиядош сўзлардан кейин радиф қўлланилган. Фарқи шундаки, биринчи байтда радифдан бошқа барча сўзлар (мисраларнинг ҳар икки қисми) қофиядошдир, қофияланишнинг бу тури мумтоз шеърятда тарсе деб юритилади. Радиф эса биргина сўздан иборат.

Иккинчи байтда мисраларнинг биринчи қисми қофияланган бўлиб, мисралар туроқларга ажратилган. Иккинчи сўз радиф бўлиб келган. Маълумки, шеърятда мисраларнинг туроқларга ажратилиши учун ҳар бир туроқ қофияланиши шарт эмас. Ўз навбатида бу жуда оғир жараёндир. Лекин бир қатор устоз санъаткорлар ижодида, хусусан, Ҳамид Олимжон ижодида бундай қофияланиш ҳам бир талай. Бу ҳолат, биринчидан, шорининг ўзига хос ифода усулини, услубини, шунингдек, сўздан фойдаланиш маҳоратини кўрсатади. Иккинчидан, туроқлар қофияланиши, туроқлар орасида кескин тўхтаб борлигини кўрсатади ва нутқнинг тантанаворлигини, салобатини оширади.

#### Адабиётлар:

1. Жирмунский В. Рифма, ее история и теория. – Петроград, 1923.
2. Винокуров Е. Мысли о поэзии // Знамя, 1972, № 10, с. 223.
3. Николай Асеев, Дневник поэта, Л., «Прибой», 1929.
4. Бальмонт К. Д. Поэзия как волшебство. — М: Книгоиздательство «Скорпион», 1915.
5. Umurqulov B., Umurqulov Z., Raximova U. Shoirning qofiya san'ati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2016.

### JADID MA'RIFATPARVARI MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING TIL BORASIDAGI QARASHLARI

DOI: 10.53885/edinres.2021.31.24.049

*Doniyorbek Rustamov*

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti  
mustaqil tadqiqotchisi

**Аннотатсия:** *Turkistonda jadidchilik harakatiga asos solgan buyuk ziyoli Mahmudxo'ja ko'plab sohalarda qimmatli fikrlarni aytgan. Uning publitsistika, teatr, adabiyot, bosma ishi, turkistonliklarning siyosiy ongi borasidagi qarashlari va amaliy ishlari yaxshi o'rganilgan. Lekin Behbudiy til haqida ham fikrlarini aytib o'tgan. Uning o'zbek tili, umuman, mintaqadagi til siyosati borasidagi fikrlari bugungi kunga qadar eskirmagan.*

**Калит со'злар:** *Turkiston, jadid, jadidchilik, Mahmudxo'ja Behbudiy, Gaspirinskiy, gazeta, jurnal*

Turkistonlik ziyolilar orasida birinchi bo'lib, Behbudiy Gasprinskiyning til birligi g'oyasini keng targ'ib qildi va quvvatladi. Dastlab u o'sha davrning aksariyat musulmon ziyolilari kabi Rossiya musulmonlarining yagona tili bo'lishi kerakligi haqidagi g'oyaga qiziqish bildirdi. Behbudiy bu masala yuzasidan Turkiston shaharlarida o'ziga xos so'rovnoma va tajriba ham o'tkazdi. Bu jihatdan biz Behbudiyni Turkistonliklar ichidagi birinchi sotsiolog sifatida ham kashf etamiz. Behbudiy bu sotsiologik tadqiqot davomida umuman gazeta o'qimagan, boshqa turkiy xalqlar tilidan xabari yo'q oddiy odamlarga turli gazetalarni o'qitib eshittirdi va shu yo'sinda Turkistonning turli hududlaridan o'qib eshittirilgan gazetalarning "tili" bo'yicha fikrlarni jamladi, umumiy xulosa berdi. Behbudiy o'tkazgan tajriba va so'rovnoma asosida Turkistonliklar uchun Gasprinskiyning "Tarjimon" gazetasi, sibirlik, asli buxorolik tujjorning



avlodidan bo'lgan, XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Abdurashid qozi nomi bilan tanilgan Abdurashid Ibrohimovning "Mir'ot" jurnali hamda "Ulfat" gazetasining tili ko'proq tushunarli, degan xulosaga keldi. Va "chorak asrdan beri millatimizga tili, qalami, qalb quvvati bilan xizmat qilgan, yangi matbuotimiz raisi ham otasi janob Ismoilbek hazratlariga til bobida ergashmoq Rossiyadagi hamma muharrirlarga lozim" ekanini tavsiya qildi. Bu bilan Behbudiy ham Gasprinskiy kabi Rossiya musulmonlari birligining asosi va negizida til birligi bo'lishi kerakligini ta'kidladi. Behbudiy yagona, umumadabiy til borasida fikrlarini davom ettirib, "...til birligining foydalari juda yaxshi ma'lum. Zero, til birligi do'stlik, muhabbat, bir-biriga yordam va jipslashuvning asosi", degan amaliy xulosaga keldi.

Behbudiy Turkiston uchun turkiy bilan bir qatorda forsiy tilning "o'rta sheva"sini ilgari surdi. Bu taklifning amaliy natijasi sifatida 1913–1915-yillarda Samarqandda Behbudiy nashr etgan "Oyina" jurnalini ko'rsatish mumkin. Baldauf Behbudiyning bu tashabbusini o'z o'quvchilari bilan hamfikir va hammaslak ekanini bildirish va ko'rsatish deb baholadi. Turkistonda ikki tillilik masalasini Behbudiy "Oyina"ni chiqarmasidan ancha ilgari, 1909-yili "Tarjimon"ga yo'llagan "Turkistonda maktab lisoni" nomli maqolasida ko'targan edi. Behbudiy turkiy va forsiy tillarning Turkistonliklar uchun ahamiyatli ekaniga e'tibor qaratmoqchi bo'ldi va ikkala tilning maktab tahsiliga kiritilishi tarafdori ekanini ilgari surdi. Behbudiy fikrlarini quyidagi argumentlar bilan isbotlashga harakat qildi:

1. Turkistondagi aksariyat shahar aholisi turkiy va forsiyda bimalol muloqot qiladi.
2. Ba'zi hududlarda bu ikki tilning qorishiq shakli ishlatiladi.
3. Rasmiy idoralarga arizalar turkiyda yoziladi.
4. Shar'iy fatvolar forsiyda yozilib, turkiyda qayd qilinadi va bu usulga butun Turkistonda amal qilinadi.

Behbudiy maqolasining so'ngida keltirgan isbot va dalillariga tayangan holda Turkiston maktablarida ham turkiy, ham forsiy birga o'qitilishi maqsadga muvofiq degan xulosa berdi. Behbudiy (umum)turkiy tilni "Tarjimon" gazetasi vositasida o'zlashtirganini bayon qilar ekan, "ona tilim forsiydir, yozgan turkchamni ruhoniylar hojamatiga 'Tarjimon' sahifalaridan tahsil etdim", degan fikri bilan o'rtoqlashadi. Bu esa Gasprinskiy taklif qilayotgan (umum)adabiy yoki (umum)turkiy til yaratilganidan darak beradi. Shuningdek, Gasprinskiy nashr etgan "Tarjimon" gazetasining Turkiston o'lkasidagi e'tiborini "usuli jadida nomi bilan isloh qilingan va ochilgan maktablar muhtaram 'Tarjimon' ta'sirida alifbodan oxiriga qadar turkcha dars berib, Turkistonda turkchani yoyilishiga xizmat qilgan"ida ham ko'rish mumkin. Bu so'zlar ham Behbudiyga taalluqli.

Begali Qosimov imperiya musulmonlari, xususan, Turkiston o'lkasining taraqqiy etgan millatlar qatoriga qo'shilishi va oxir-oqibat mustaqillikka erishishi yo'lidagi kurashda Behbudiyning Gasprinskiy bilan bir maslakda bo'lganini ta'kidlaydi. Bu maslak Gasprinskiy taklif etgan "murosa yo'li" bo'lib, ruslarning hamda ularning madaniyati yutuqlari yordamida ma'rifatga erishish, eng asosiysi, bu yo'lda milliy xususiyatlarni yo'qotmaslikni talab etadi. Behbudiyning rus tilini o'rganish va rus madaniyatidan istifoda etish borasidagi fikrlarini uning ko'plab maqolalarida uchratish mumkin. Xususan, uning "Oyina" jurnalining ilk sonida chop qilingan "Ikki emas, to'rt til lozim" maqolasida turkistonliklar zamon bilan hamnafas bo'lishi, zamona ilmlaridan, fikrlaridan bahramand bo'lishi uchun "turkiy, forsiy, arabiy va rusiy" tillarini bilishi, ularda bimalol muloqot qilish darajasiga yetishishi lozimligi ta'kidlanadi. Behbudiy bu maqolada "turkiy" til deganda mahalliy xalqning aksariyati so'zlashadigan "o'zbekiy" tilni nazarda tutadi. Unga ko'ra, to'rt tilning o'rganishiga sabablar quyidagilardan iborat:

- 1) "turkiy, ya'ni o'zbekiy" – Turkiston xalqining aksariyati so'zlashadigan til;
- 2) "forsiy" – "madrassa va udabo tilidir. Bu kungacha Turkistonni har tarafidagi eski va yangi maktablarida forsiy nazm va nasr kitoblari ta'lim berilib kelgandur";
- 3) "arabiy" – madrasalarda o'qitiladigan barcha shar'iy kitoblar ushbu tilda;
- 4) "rusiy" – "zamon tijorat ishi, sanoat va mamlakat ishlari, hatto dini islom va millatga xizmat" qilishga yararlik zamona ilmini o'rganish uchun.

Behbudiy til o'rganishga sabab bo'ladigan omillarni ko'rsatar ekan, turkiy va forsiy mahalliy xalq uchun ikkisi birday ona tili bo'lgani uchun "bizg'a saodat" ekani va ushbu tillarni har bir turkistonlik "tahsilsiz" ham yaxshi bilishini ta'kidlaydi. Ushbu tilni mukammal bilganlar forschada bitilgan "Firdavsiy, Bedil, Sa'diy, 'Masnaviy'dan qanday lazzat olsa", buning barobarida turkiyda yozilgan "Fuzuliy, Navoiy, Boqiy, Somiy, Abdulhaq Homid, Akrambek, Sanoyi, Nobiy, Nojiylardan, yana To'lstoy, Jul Vern va ulamoyi zamoniy asarini turkiy tarjimasidan" shunchalik bahramad bo'lishi mumkinligiga urg'u beradi. Behbudiy nima uchun rus tilini o'rganishga turkistonliklarning diqqatini qaratmoqchi edi? Unga ko'ra, millat butunlay yo'q bo'lib ketmasligi uchun ular ham tijorat, ham sanoat, ham siyosatda boshqa taraqqiy etgan xalqlar bilan bir qatorda, yonma-yon harakat qilishi kerak. Turkistonliklar orasida hatto millat va vatan manfaati uchun g'arb tillarida, jumladan, rus tilida yuqori minbardan turib gapirishga qodir biror kishi topilmaydi. Bu qusurlarni yo'q qilish uchun esa rus tilini o'rganish, Rossiya universitetlarida tahsil olish hamda barcha qonunlardan xabardor bo'lmoq kerak. Behbudiy til o'rganish masalasini siyosiy masala sifatida ko'tarib chiqdi va vatan manfaati yo'lida xizmat qilishga qodir ziyolilarni shakllantirishga yo'l ochishi to'g'risida yozdi. Behbudiy ayni masalani, ya'ni rus tilini o'rganish turkistonliklar uchun ne qadar muhim ekanini Abdurauf Fitratning "Munozara" asariga yozgan taqrizida ham ko'targan edi. Mutaassib bo'lgan Turkistonliklarga Behbudiy xorijiy tillarni o'rganishni payg'ambar ham buyurganlari haqida hadisi sharif ham keltiradiki, bu aholi "kofir bo'lmasligiga" eng asosiy dalil edi. Behbudiyning adabiy til borasidagi qarashlari uning 1915-yili yozgan "Til masalasi" nomli maqolasida aks etgan. Ushbu maqola ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismda Behbudiy turkiy tilning shevalari xususida fikr yuritadi. Unga ko'ra, turkiy tilning Turkiston o'lkasida tarqalgan sheva va lahjalari yuz yillar davomida fors madaniyati va adabiyoti ta'siri ostida bo'lgani sabab ushbu tildan juda ko'plab so'zlarni o'zlashtirgani, tub turkiy so'zlar ushbu vaqt davomida iste'moldan chiqib, unutilib ketgan. Shuningdek, 14 asrdan beri muqaddas islom dini hamda Qur'on tili bo'lgan arabchadan ham turkiy til shevalariga son-sanoqsiz so'zlar kirib kelganki, ularni sheva yoki lahjalardan chiqarib tashlashning iloji yo'q. Chunki bunday so'zlarning muqobili mavjud emas. Behbudiy turli mintaqalarda yashaydigan turkiy xalqlarning tili ham turkistonliklarning tilidan qolishmaydigan darajada fors va arab tili ta'siriga tushgani, hatto ayrimlari "forsiy va arabiyani u qadar ko'p oldilarki, tillari turkiy, forsiy va arabiydan qo'shulub 'usmonli tili' ataldi". Behbudiy usmonli tili haqida gapirar ekan, ushbu tilda ravon yozmoq va o'qib tushunmoq uchun "uch tilning adabiyot va qoidalaridan boxabar" bo'lish kerakligi, aks holda "usmonli shevasida yozilgan asarlarning aksarini" nafaqat usmonli turklarning "kamsavodi", balki ayrim ziyolilari ham anglamas darajaga kelib qolganini ta'kidlaydi.

Behbudiy Turkiston shevalari borasida yozar ekan, u o'zini yetuk tilshunos sifatida namoyon etadi. Behbudiy turkistonliklarning yashash mintaqasiga qarab sheva va lahjalar qay darajada fors va arab tili ta'siriga tushgani va bu jarayon "barcha yerda bir holda bo'lmay, balki mavqe'i jug'rofiyasig'a qarab har nav" ekanligini tadqiq etdi. Va turkiy til qanchalar boshqa til ta'siriga tushib o'zgargan bo'lmasin, barcha "lahja ila so'ylayturgonlarning har biri boshqasini so'zig'a tushunadurlar", degan xulosa beradi. "Til masalasi" maqolasining ikkinchi qismi turkiy xalqlar uchun yagona, soddalashtirilgan adabiy til yaratish masalasiga bag'ishlangan. Behbudiyning ta'kidlashicha, u ushbu masalani yoritishda "betarafona" yondashishga harakat qilgan. Behbudiy sheva va lahja bilan "adabiy til" o'rtasidagi farqni ko'rsatish uchun Volgabo'yi tatarlari, Kavkaz xalqlari bosib o'tgan yo'lni tahlil qilishdan boshlaydi. Unga ko'ra, tatarlar va ozarbayjonlar nashr qilayotgan matbuot "tili" "ko'cha tili"dan "necha daraja oliy" ekani har bir gazeta o'qiydigan ziyoliga ma'lum. Hatto "Vaqt" gazetasi va "Sho'ro" jurnalining tili ular nashr bo'la boshlagan yildan, ya'ni 1908-yildan 1915-yilga qadar "jaridalarining avvalgilari ila hozirgisini taftish qilinsa, hozirgilarini adabiyliigi zohir" bo'lib, tobora "oliylashmoq" yo'lida harakat qilmoqda edi.

Yuqorida aytilgandek, Behbudiy bu kabi xulosaga kelish uchun sotsiologik so'rovnomalarni o'tkazgan va qay matbuot tili turkistonlik oddiy odam uchun tushunarli ekanini aniqlash bo'yicha qilgan izlanishlari natijasi "Til masalasi" maqolasining ikkinchi qismida o'z

aksini topgan. Albatta, Behbudiyning bu kabi izlanish va tadqiqotlar olib borganini o'sha vaqtda o'ta muhim masalalardan biri bo'lgan (umum)adabiy til yaratish yoki qabul qilish borasidagi qarashlarini bildirish, o'z pozitsiyasini ko'rsatish bilan bog'liqlikda qarash kerak. Behbudiy (umum)adabiy til masalasida tilni soddalashtirish, omma tushunadigan shaklga olib kelish fikrini qo'llab-quvvatlasada, tilni soflashtirish, ya'ni arabcha, forsha so'zlar o'rniga muqobillarini qidirib topish va tilga tatbiq etish masalasini "ijrosi mumkin emas, quruq xayoli fosidgina" deb baholaydi. Shu bilan bir qatorda, Behbudiy gazeta va jurnallarda boshqa tillardan yangi kirib kelayotgan so'zlar istalgan shaklda qo'llanilishi masalasiga to'xtalar ekan, buni "bu zamonda fan va hunar taraqqiy etgani uchun va yangi chiqq'on begona lug'atdagi ismlik nimarsalarg'a turkiy ism taqadurgon jamiyatlar barpo etib, turkiy tilimizg'a xizmat etaturgon kishilarni bizg'a yo'qligi"dan deb ta'kidlaydi. Bu bilan Behbudiy tilga yangi o'zlashmalarni tartibga keltiradigan ilmiy jamiyat tashkil etish masalasini ham kun tartibiga chiqaradi. Tilni soflashtirish masalasida "Sadoyi Turkiston" gazetasida berib borilayotgan maqolalarni tahlil qilar ekan, Behbudiy gazetaning bu harakatiga "ijrosi mumkin emas orzu" deb qaraydi. Sabab, asrlar davomida arab va fors tili ta'sirida qolgan turkiy tilni "yana bir necha ming sanada ularni ta'siridan chiqarmoq" ishiga berilsak, "ma'nan va moddatan va fannan mahkum millatlarni(ng) tili (qatorida) bo'lgan tilimizg'a yana taraqqiy etgan millatlarni(ng)" tilidan yangi so'zlar kirib kelaveradi. Behbudiy til soflashtirish masalasida mana shunday pozitsiyani egallagan edi. Behbudiy tilni soddalashtirish borasida fikrlar ekan, arabcha ko'plikdagi so'zlarni imkon qadar turkiy ko'plik shaklda, masalan, "ulum, funun, ulamo, quzzot va ...demoq erinda fanlar, ilmlar, olimlar, qozilar va... lar" kabi yozilishini hamda gazetalarda berilayotgan "kurrayi arzda yashamakda bo'lgan har millatni o'ziga maxsus bir lisoni milliysi vordur" kabi gaplarni imkon qadar turkiychalashtirishni taklif qiladi. Lekin, yuqorida yozilganidek, Behbudiy butun tilni soflashtirish masalasida "butun fanniy va ilmiy va diniy istiloh va iboratlarg'a muqobil turkchadan ism ta'yin qilmoq fikrig'a cho'mmoq o'zni charchatib va matbuotni zoye' qilmoqdan boshqa nimarsa emas" degan fikrda qat'iy turdi. Behbudiy sodda til "atrofindagi qavm-u qarindoshi ilan so'ylashmoq" uchun kerak bo'lsa, adabiy va ilmiy til "mavjud ilm-u fan va tarixni bilmoq va alardan foydalanmoq" uchun zarur deb hisoblaydi. Uningcha, sodda til, ya'ni sheva yoki lahja mintaqaga ko'ra turli bo'lishi hisobga olinsa, bu tilni adabiy deb bo'lmaydi va uni istifodaga olib kirishdan ham hech qanday ma'ni yo'q. Bundan tashqari, Behbudiy Turkiston sheva va lahjalari adabiy til bo'lishga hozircha "qodir emas" deb hisoblaydi. Behbudiyning bunday xulosaga kelishiga sabab "ilmiy va adabiy tilni har bir qishloq va ko'ydagi onalarni tilinda bo'lmoqligi" uchun boshqa taraqqiy etgan millatlar onalari kabi "qorindan qoring'acha" o'qimishli bo'lishi kerak. Shunday ekan, Behbudiy (umum)adabiy til masalasida "modomiki, bizg'a ilm-u fan kerak va modom(iki), turk tilining ba'zi sho'ba va lahjalarig'a zamoniyy, fanniy, diniy, tarixiy har nav' kitoblar bordur, ani o'qub fahmlamoqig'a g'ayrat etishimiz lozimdur" degan xulosaga keladi.

Yuqorida qayd etilganidek, Behbudiy Turkistonning avom xalqi qay gazeta tilini yaxshi tushinishi va qabul qilishi borasida o'tkazgan sotsiologik so'rovnomasi va tadqiqotining asosiy sababi ham "Tarjimon" yoki "Ulfat" gazetasi tilini (umum)adabiy til darajasiga ko'tarish edi. Behbudiy o'zining bu qarashini quyidagicha izohlaydi: "Dunyomizni ilm-u fanidan xabardor bo'lmoq uchun rus, nemis, fransaviy, anglis, itoliyoli, arabiy, jopuniy tillaridan birini bilmoq kerak va alarni bilmaganda Kafkoz va yo Qrim lahjayi adabiyasini bilgan kishini dunyodan xabarlik bo'lushig'a vosita bo'lur". Behbudiyning adabiy til borasidagi bu kabi qarashi o'z davrida ham katta qarshiliklarga sabab bo'lgan. Uning eng yaqin safdoshlaridan bo'lgan Hoji Muin Behbudiyning adabiy til borasidagi fikrlariga qarshi chiqqan edi. Hoji Muin mahalliy tilni soflashtirish va begona (arabcha va forsha) so'zlardan tozalash orqali uni adabiy til sifatida shakllantirish tarafdori edi. Bundan tashqari, Hoji Muin Behbudiy taklif qilgan ikkittillilik, ya'ni butun Turkistonda turkiy bilan bir qatorda forsiyni ham ishlatish fikrini ham ma'qullamaydi. Ingeborg Baldaufning ta'kidlashicha, Hoji Muin o'z qarashlarining amaliy tatbiqini Behbudiy safarga chiqqan vaqtda "Oyina" jurnaliga vaqtincha muharrir bo'lgan vaqtda amalga oshirishga qisman muvaffaq bo'lgan. Baldaufga ko'ra, Hoji Muin qisqa muddat ichida ikki tili bo'lgan

“Oyina” jurnalini sof turkiy tildagi jurnalga aylantirishga ulgurgan edi. Behbudiy “Til masalasi” maqolasining oxirida hech qaysi bir til faqatgina o‘z so‘z boyligi bilan taraqqiy eta olmasligi, boshqa tillardan yangi so‘zlar qabul qilish hisobiga rivojlana olishini ta’kidlash bilan bir qatorda, tilni soflashtirish bilan vaqtini bekor sarflamasdan uning o‘rniga “kelar zamon uchun hozirlanayluk, o‘tgan zamon uchun emas” degan qat’iy fikrni o‘rtaga tashlaydi. Bundan tashqari, u Turkistonning turli mintaqalari shevalari orasida farq bo‘lgani uchun ushbu shevalarda adabiy asarlar yozish ham maqsadga muvofiq emasligini ta’kidlaydi. Behbudiy (umum)adabiy til yaratish borasidagi asosiy muammo va to‘siq sifatida millat onalarning savodsizligini ko‘radi. Adabiy til yaratmoq uchun, Behbudiyga ko‘ra, birinchi navbatda “biz avval onamizni o‘qutub, anga til o‘rgatmoqimiz kerak”. Adabiy tilning hamda ilm-fanning rivoji millat onalarining bilimiga bog‘liq ekanini ta’kidlagan Behbudiy, birinchidan, qiz bolalarni maktablarga ko‘proq berish, ularni savodli qilish masalasini ko‘targan bo‘lsa, ikkinchi tarafdin, bir adabiy til yaratish uchun imkon qadar arabcha va forscha so‘zlardan kam ishlatish, sodda, boshqa turkiy tillardan keng istifoda qilgan holda yozishni taklif qiladi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning tilshunoslik borasida e‘lon qilgan maqolalari orasida “sart” so‘zi bilan bog‘liq fikrlari ham bugungi tilshunoslik nuqtayi nazaridan katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolalarning tahlili Behbudiy o‘z zamondoshlari safidan birinchilardan bo‘lib so‘z etimologiyasi bilan shug‘ullangan, so‘zning qo‘llanilish doirasi, turli xalqlarda bir so‘zning qay ma’noda ishlatilishi, so‘zning tarixiy, adabiy manbalarda uchrab-uchramasligi borasida izlanishlar olib borgan, zamonaviy til bilan aytadigan bo‘lsak, madaniy antropologiya fani bilan ham shug‘ullanganligi ko‘zga tashlanadi. “Sho‘ro” jurnalida e‘lon qilingan “Sart so‘zi majhuldir” maqolasida Behbudiy ruslar tarafidan mahalliy o‘troq xalqqa nisbatan qo‘llay boshlagan “sart” so‘zining ishlatilishi, turli lug‘atlarda mavjud yoki mavjud emasligi, yon-atrofdagi ko‘chmanchi xalqlar bu so‘zning nima ma’noda qo‘llashi va hokazo dalilardan 24 tasini keltiradi va so‘ngida “sart” so‘zi Turkistonning mahalliy o‘troq xalqiga nisbatan ishlatilishi noo‘rin ekanligini isbotlab bergan. Behbudiy ushbu maqolada “sart” so‘zi bilan bog‘liq keltirgan dalillarini tahlil qilinsa, muallif tarixiy kitoblardagi faktlardan tortib turli lug‘atlarda, ko‘chmanchi xalqlar nutqidagi ma‘nosigacha izohlashga harakat qilgan. Bu esa, o‘z navbatida, “sart” so‘zining etimologiyasiga oid katta izlanish olib borilganligi va Behbudiyning bu boradagi iqtidorini ko‘rsatadi. Behbudiy barcha dalillarni bir-bir keltirgandan keyin maqolasi so‘ngida “sart” so‘zining tarixi ham “majhul” bo‘lganini hamda turkistonlik o‘troq aholiga nisbatan “sart” atamasini ko‘chmanchi qozoqlar tarafidan ishlatilgani bois ulardan so‘ralsa, balki biror tayinli javob chiqishi haqida ruslarga tavsiya beradi. “Sart” so‘zi bilan bog‘liq “Oyina”da berilgan maqolalarning birinchisi “Sho‘ro” jurnalida e‘lon qilingan maqola nomi bilan bir xil “Sart so‘zi majhuldir” nomlangan bo‘lsa, ikkinchisi “Sart so‘zi ma‘lum bo‘lmadi” sarlavhasi bilan e‘lon qilingan. Behbudiy bu maqolalarda “Sho‘ro” jurnalida o‘zi hamda boshqa mualliflar tomonidan bu borada e‘lon qilingan maqolalarni tahlil qiladi. Behbudiy barcha mualliflarning fikrlarini jamlagan holda “sart” atamasini Turkiston o‘troq aholisiga nisbatan qo‘llash “haqorat” sifatida ekanligini yozadi. Behbudiy o‘z fikrlarini dalillash sifatida bir vaqtlar “Xun”lar bo‘lgani, ular butun Evropani zabt etgani va o‘sha erda qolib hozirda nomi yo‘q bo‘lib ketgani bilan evropaliklarni sizlar “xun”sizlar deb atash qanchalar o‘rinli bo‘lishi borasida fikrlarni keltiradi. Behbudiy fikrlarini xulosalar ekan, Evropa xalqlari o‘zlariga nisbatan “xun” atamasini haqorat deb qabul qilganidek, ayrim tarix kitoblarida Turkiston hududida qachonlardir “sart” atalgan bir qabila bo‘lganligi yozilgani bilan yerli aholini bugungi kunda sen “sart”san deb atash ham haqorat, millatni yerga urish bilan barobar ekanligini ta’kidlaydi. Behbudiyning Turkiston jadidchiligida tutgan o‘rni, uning bu harakat g‘oya va fikrlarining yoyilishida, ijtimoiy-siyosiy sohaning turli jabhalarida islohotlarni amalga oshirishdagi faoliyatini baholashda, tabiiyki, u yozib qoldirgan fikrlar, asarlar katta ahamiyatga ega. Shu ma’noda uning (umum)adabiy til, til normalari, imlosi, so‘zlar etimologiyasi borasidagi fikrlari, qarashlari ma‘lum ma’noda Behbudiyning tilshunoslik sohasidagi faoliyatiga ham muayyan baho berishga, uning bu yo‘nalishdagi harakatlariga xolisona xulsa berishga imkon tug‘diradi.

Behbudiyning Turkistonda keng tarqalgan turkiy tilning sheva va lahjalarini mukammal bilishi, zamonasining nisbatan taraqqiy etgan turkiy shevalarda nashr etilgan vaqqli matbuot tilini

davrlashtirish, ularga muayyan baho bera olish, tahlil qila olish kabi qirralari uning Turkistonlik ziyolilar orasidan yetishib chiqqan ilk tilshunos deb atashimizga dalil bo'la oladi. Shuningdek, so'zlarning tarixi, ularning kelib chiqishiga oid izlanishlarini inobatga olib, Behbudiyini hozirgi zamon atamasi bilan madaniy antropologiya sohasida ham muayyan yutuqlarga erishgan, bu sohada ham birinchilardan bo'lib izlanishlar olib borgan olim deb xulosa berishga asos beradi. Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, Behbudiy o'zbek tilining adabiy til sifatida shakllanishi borasida samarali faoliyat olib borgan tilshunos, sotsiolog, shevashunos, etnograf, madaniy antropolog sifatida gavdalanadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Авазов Н. Махмудхўжа Беҳбудийнинг ижодий мероси (манбалар): филол. фанлари номзоди. ... дисс. – Тошкент, 1995. – 190 б.
2. Абдуғафуров А. Зокиржон Фурқат. – Тошкент: Фан, 1977. – 211б.
3. Адабиёт назарияси. Икки томлик. 1-2 жилд. – Тошкент: Фан, 1978. – 416 б.
4. Адабиёт энциклопедияси / Тузувчи: Ҳ.Болтабоев. – Тошкент: Mumtoz SO'Z, 2015. – 664 б.
5. Aliqulov Z., Boymirzaeva S. Sotsiologiyatika. Ma'ruzalar matni. – Samarqand, 2009.
6. Yuldasheva M. O'zbek so'zlashuv nutqining sotsiopragmatik tadqiqi. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori... diss. av-ti. – Toshkent, 2018.
7. Раупова Л.Нутқ маданияти. Ўқув қўлланма. –Тошкент: Инновация- зиё., 2018-йил,
8. Раупова Л. Ҳозирги ўзбек тилида сўз бирикмалари. Ўқув қўлланма.– Тошкент: Ёшлар матбуоти, 2015,

#### **LATIFALARNING BOSHQA OG'ZAKI EPIK HAMDA KULGIGA ASOSLANUVCHI JANRLAR BILAN MUNOSABATI DOI:10.53885/edinres.2021.31.45.050**

*Nigora Oxunjonovna Safarova*

BuxDU dotsenti

*Miraziz Ikromovich Ismatullayev*

BuxDU talabasi

**Annotatsiya.** *Xalq og'zaki ijodi hayotning hamma sharoitiga mos asarlardan tashkil topgani yuzasidan fikr bildirgan edik. Latifalar ana shu fikrimizning yana bir dalili bo'lib xizmat qiladi. O'zbeklar dunyodagi boshqa xalqlar kabi hazilni, taqlidni, kulgini yaxshi ko'radilar. Kulgi insonga sog'lik, yaxshi kayfiyat, o'z-o'zidan qoniqish tuyg'usini bag'ishlaydi. Xalqimizning dono farzandlari Yusufjon qiziq, Aka buxor, G'anijon Toshmatov kabilar hayot mashaqqatli kechgan paytlarda ham yurtimiz ahliga tetiklik, umid, ishonch ulashganlar. Bunday natijaga erishish o'z vaqti uchun juda og'ir bo'lgan. Latifalar, loflar, askiya, xalq dramasi asarlari, muqallidchilikdan unumli foydalanish zukko va iqtidorli insonlarni haqiqiy ma'noda xalq sevgisini qozonish sharafiga muyassar qildi.*

**Kalit so'zlar:** *latifa, folklor, kulgi, Afandi*

Latifalarning janr xususiyatlarini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Latifalar badiiy adabiyotdagi epik tur (jins)ga mansub. Ammo ijroda dramatik – aktyorlik mahorati ahamiyatli.
2. Latifalar shaklan nasrda yaratiladi.
3. Hajm jihatdan cheklangan.
4. Voqea ifodasida dialoglardan keng foydalaniladi.
5. Favqulodda kutilmagan yechimi kulgi uyg'otadi.

Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, latifalarning shakllanishi va rivojlanishi IX-XI asrlarga to'g'ri kelgan.

Nasriddin Afandi nomi bilan latifalar mazmunining bog'lanib, uyg'unlashuvi XIX asr oxiri XX asr boshlari bilan belgilanadi. O'zbek folklorshunosligi fani asoschisi, professor Hodi

Zarifov qayd qilishiga binoan, Nasriddin Afandi nomining o'zbek latifalarida shuhrat topishi yurtimizda matbaaning paydo bo'lishi, Nasriddin Afandi latifalarining kitob tarzda nashr ettirilishidan boshlangan. Aytish mumkinki, Ozarbayjonda e'lon qilingan «Mulla Nasriddin» jurnalining o'zbek ziyolilari orasida keng ommalashuvi bu jarayonni tezlashtirgan. O'tgan asr boshlarida «Nasriddin Afandi» nomi bilan kitoblar nashr ettiriladi. Keyinchalik Sharif Rizo, Sobir Abdulla, Adham Rahmat, Hoshimjon Razzoqov, Bahodir Sarimsoqov, Farida Yo'ldosheva kabi ziyoli, adib, olimlar tashabbusi bilan afandi latifalari bir necha marta nashr ettirildi, ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Ayniqsa, Farida Yo'ldosheva qalamiga mansub «O'zbek latifalarida Nasriddin Afandi obrazi» risolasi bu janr tarixi, matn tahlili, obraz yaratish mahoratini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbek afandi latifalari rus tilida ham qayta-qayta nashr ettirildi. O'zbekfilm ijodkorlari «Nasriddin Buxoroda» (bosh rolda Sverdlin Lev Naumovich), «Nasriddin sarguzashtlari» (bosh rolda Razzoq Hamroev) badiiy filmlarini yaratdilar. Hech ikkilanmay aytish mumkinki, bu sa'y-harakatlari natijasida o'zbek Nasriddin Afandisi, qolaversa, latifalarimiz yurtimiz chegarasidan olislarda shuhrat topdi. Nasriddin Afandi latifalarini o'qigan har bir kitobxon bu shaxsning tarixi bilan qiziqadi.

Shayx Nasriddin, Xo'ja Nasriddin, Mulla Nasriddin, Nasriddin Afandi nomlarining qayta-qayta takrorlanishi bu qiziqishni yana ham orttiradi. Ilmiy ma'lumotlarda Nasriddin ismli shaxs 1208-yilda vafot etgani, hatto hijriy hisob bilan uning maqbarasiga 386-yilda tug'ilgan deb yozilgani, yil raqamlarining o'rni atayin teskari tartibda berilgani haqida ma'lumotlar bor. Bu dalillarni tadqiqotchi Farida Yo'ldosheva shunday xulosalaydi: «Tarixda Xo'ja Nasriddin ismli shaxslar, Nasriddin Afandi prototiplarining bir qanchasi o'tgan bo'lishi mumkin... Mana shu tarixiy shaxslarni xalq qahramoni Xo'ja Nasriddinga hayot bag'ishlagan prototiplar desak bo'ladimi. Aksincha, xalq qahramoni Nasriddin tarixiy shaxslarga shuhrat keltirdi». Haqiqatan ham, xalq yaratgan Nasriddin afandi latifalaridagi turfa kulgili voqea-hodisalar shu qadar serko'lam va ibratliki, ulardagi umumiy mazmun bir inson hayoti chegarasiga sig'maydi. Shuning uchun mazkur latifalarning bosh qahramonini Nasriddin afandi ramzida mujassam topgan xalq deb tushunish haqiqatga yaqinroq bo'ladi. Chunki tarixda Rashiddin Vatvot, Alisher Navoiy, Binoiy, Mashrab, Muqimiy, keyinchalik A.Qodiriy, G'.G'ulom, A.Qahhor, M.Shayxzoda, A.Rahmat, H.Razzoqov, S.Ahmad, O.Sharafiddinov, E.Vohidov, O'.Hoshimov, O.Matchon, A.Meliboyev kabi insonlar hayotida ro'y bergan kulgili, ibratli, hazil-mutoyiba hodisalar tavsifi vaqt o'tishi bilan latifalarda, xususan, Nasriddin afandi bilan bog'liq og'zaki ijod asarlarida o'z ifodasini topgan bo'lishi tabiiydir. Har bir xalqda ham hayot lavhalaridan kulgili vaziyat yaratadigan insonlar bor. Ularning fikr yuritish usulida favqulodda komik holat hosil qilish sirlari bo'ladi. Shuning uchun ham hindlarda Birbol, arablarda Jo'ha, qozoqlarda Aldar kusa, tojiklarda Mushfiqiy, turkmanlarda Mirali, qoraqalpoqlarda Umrbek nomlari bilan latifa qahramonlari shuhrat topgan, ammo latifa matnlarida mushtarak vaziyatlar juda ko'p uchraydi. Bunday holatlarda qaysi xalq vakilidan boshqa xalq vakili muayyan voqeani o'zlashtirgan yoki ko'chirgan degan savolni qo'yish to'g'ri emas. Ijtimoiy, maishiy hayotdagi o'xshashliklar oqibatida bir xil latifalarning yaratilishini asoslash ma'qulroq natija beradi. Masalan, Birbol latifalaridan birida kunlardan bir kun podshoh unga juda qaltis hazil o'ylab topishni va bu hazilning kechirimi undan ham qaltisroq bo'lishi lozimligini buyuradi. Birbol shoh taklifini qabul qiladi. Oradan bir necha kun o'tganidan so'ng Birbol hech kim yo'q vaqtida podshohning belini chimchilab oladi. Shoh g'azab bilan: «Bu nima qilganing?» - deb so'raganida, Birbol: «Kechirasiz, shohim, sizni malikam, deb o'ylabman», - deb javob beradi. Qizig'i shundaki, aynan shu mazmundagi latifa o'zbeklarda ham, turkmanlarda ham, ozarbayjonlarda ham mashhur. Bu misol latifalarning yashovchanligini, turli xalqlarda bir xil vaziyatlar bo'lishi tabiiylikini ko'rsatadi. Natijada, qaysi xalq mazkur latifani oldinroq yaratganligini aniqlash mumkin bo'lmaydi va aniqlashning hojati ham qolmaydi.

O'zbek Nasriddin afandi latifalarida bosh qahramon o'ta hozirjavob, o'ta zukko, dono va tadbirkor inson sifatida gavdalanadi. Hayotda uni so'z bilan, xatti-harakat bilan yechimi yo'q vaziyatga tushirish mumkin emas. Chunki aqlli, mutafakkir Nasriddin afandi qiyofasida butun xalqning, millatning so'zga chechanligi, zakiiy, ya'ni nozik fikr yuritish fazilati o'z ifodasini

topgan. Har bir latifa matnida uni o'ylab topgan shaxs aqli, vaziyatni aniqlash kayfiyati va zakovati namoyon bo'ladi. Latifalarning e'tiborli, tinglovchini o'ziga jalb qiladigan jihati shundaki, ularda savol-javob qilayotgan taraflar bir-birini mutlaqo yechimi topilmas vaziyatga tushirishga urinadilar. Ayniqsa, Nasriddin afandi qismati latifaning yakuniy qismiga yetgunga qadar juda og'ir va chorasiz taqdir sharoitida tasvirlanadi. Ammo xalq Nasriddin afandi tarafida bo'lgani uchun ana shunday mushkul vaziyatdan ham o'z topqirligi, so'zga ustaligi bilan qahramonimiz yechim topib keta oladi. Bir misolga murojaat qilaylik. Kunlardan bir kun Afandining saroyga kirib kelayotganidan xabar topgan podsho u haqda o'zi topgan bir voqea bilan mulzam qilmoqchi bo'libdi: «Bugun tunda, - debdi u, - afandi bilan ikkalamiz tush ko'rdik». Tabiiy, bunday paytlarda Afandi faqat tasdiq ma'nosini bildirishi shart hisoblangan.

Podshoh davom etibdi: «Afandi bilan men tushimizda yangi tug'ilgan mushuk bolasiga aylanib qolibmiz. Osmondan bir kalxat tushib, ikkalamizni ikki changaliga olib osmonga parvoz qilibdi. Ammo shu yaqin orada paydo bo'lgan burgutning xamlasidan qochib, ikkalamizni changalidan bo'shatib yuboribdi. Men shinni o'raga tushibman, afandi nopok o'raga tushibdi». Shunda saroydagi mulozimlar afandi ustidan kulib, qah-qaha ko'tarishibdi. Afandi bamaylixotir: «Shohim, tushimizning davomini ham ayting-da», - debdi. To'satdan aytilgan gapdan hayron bo'lgan podshoh ikkilanib: «Xo'sh-xo'sh, davomida nima bo'lgan edi?» - deb so'rashga majbur bo'libdi. Afandi: «Siz shinni o'radan, men nopok o'radan chiqdim, to'g'rimi?» - debdi. «Ha-ha, - debdi podsho, - juda to'g'ri», - debdi. Shunda afandi: «Men sizni yaladim, siz meni yaladingiz», - deb javob bergan ekan.

Kunlardan bir kun afandi katta bir amaldorni «Siz ahmoqsiz» deb ranjitibdi. Amaldor uni qoziga boshlab boribdi. Qozi amaldorning xizmatlarini afandiga yaxshilab tushuntiribdi. Nasihat qilibdi. So'zining oxirida afandiga amaldorga qarab «Siz ahmoq odam emassiz», - deyishni buyuribdi. Afandi shu zahoti qozining buyrug'ini bajarib: «Siz, ahmoq, odam emassiz» - degan ekan. Jumladagi ahmoq so'zining undalma urg'usi bilan talaffuz qilinishi oqibatida sho'ring qurg'ur amaldor avval faqat ahmoq deb atalgan bo'lsa, qozining buyrug'ini «bajargan» afandi endi uni odam o'rnida ham ko'rmasligini ma'lum qildi. Bunday latifalarni to'qigan odamlar o'zbek tilini nihoyatda yaxshi biladigan va so'z o'yinlarini chuqur his qiladigan insonlar bo'lishgani aniq ko'rinib turadi.

Badiiy adabiyotda kitobxonni hayot tashvishlaridan ma'lum bir muddat davomida to'liq xalos etadigan asarlar ham yaratiladi. Ayrim sahna asarlarini tomosha qilgan tomoshabin hamma tashvishlarini unutadi. Katta hayot muammolaridan forig' bo'ladi. Xususan, bizningcha, «Toshbolta oshiq», «Kelinlar qo'zg'aloni», «Oltin devor» kabi dramalar aynan ana shu maqsadda sahnalashtirilgan. Bizni o'ziga maftun qiluvchi joziba asar qahramonlarining favqulodda sodda qarorga kelishlari, bir-birlariga nisbatan samimiy munosabatda bo'lishlari bilan belgilanadi.

Afandi latifalarida afandidagi ikkinchi xislat – uning nihoyatda soddaligi, aniqroq aytsak, no'noqligini namoyish qilish bilan izohlangan. Bunday namunalarda biz afandining soddaligidan, hayotdagi ko'ngilsiz voqealarni o'ziga olmasligidan zavqlanamiz. Afandining afandiligi uning afandiligi bilan sharhlanadi. Ya'ni bironta es-hushi joyida odam qilishi mumkin bo'lmagan qarorni aynan afandi qabul qiladi.

Nasriddin afandi ko'chada ketayotib, kichkina bir ko'zgu – oyna topib olibdi. Uni qo'liga olar ekan, o'z aksini ko'rgani zahoti: «E, kechirasiz, oyna siznikimidi?» - deb tashlab yuboribdi. Oyna sinibdi. Shunda afandi: «Kerak bo'lmasa, ayta qolmaysizmi? O'zim olar edim-ku», - degan ekan.

Gap shundaki, xalqimiz ijtimoiy turmush tashvishlaridan zerikkan ba'zi paytlarda shunchaki ko'ngil xushligi uchun ham kulgi yaratish istagini bildiradi. Bunday latifalardan murakkab vaziyat izohlarini izlash to'g'ri emas. Chunki ularni xalq faqat yengil kulgiga tashnaligidan yaratgan, xolos. «Kunlardan bir kun tunda afandi suv olmoqchi bo'lib, quduq tepasiga kelsa, quduq tubida oy ko'rinibdi. Afandi xotinini chaqirib, arqon olib kelishini buyuribdi. U arqon yordamida oyni quduqdan chiqarmoqchi bo'lgan ekanda. Quduqqa tashlangan arqon qaysidir ildizga ilinib qolibdi. Afandi zarb bilan arqonni tortgan ekan,

chalqanchasiga yiqilib tushibdi. Shunda ko‘zi osmondagi oyga tushibdi. «Xayriyat, chiqarib olibman-ku», - degan ekan afandi o‘zidan mamnun bo‘lib”.

Bunday latifalar bilan tanishish, ayniqsa, hikoya qilish mahoratiga ega inson ijrosida tinglash odamga huzur bag‘ishlaydi. Biz avval aytganimizdek, bu turdagi latifalarda tinglovchi sodda afandi qarorlaridan kuladi. Lekin shuni ham qayd qilish lozimki, xalq bu bilan nima demoqchi ekanini tushunib yetishga ham harakat qilish zarar keltirmaydi. Ehtimol, dono xalq shu kabi latifalar vositasida «Sen bunchalik sodda bo‘lma!» demoqchimi? Xulosa chiqarish har kimning o‘ziga havola.

Shunday qilib, xalq latifalari og‘zaki ijodning ajralmas qismi sifatida qadimgi qadriyatlarining durdonalaridan hisoblanadi. Ularda afandi timsolida xalqning o‘z farzandlariga har qanday mushkul sharoitning ham munosib yechimi borligini uqtirishga da’vat seziladi. Eng muhimi, ana shu yechimni topa bilish mahoratida.

#### **Adabiyotlar:**

1. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. - T.: O‘qituvchi, 1990. – B. 216-226.
2. Yo‘ldosheva F. O‘zbek latifalarida Nasriddin afandi obrazi. - T.: Fan, 1979.
3. Shoh Akbar va dono Birbol. - T., 1994.
4. Afandi latifalari. - T., 1989.
5. Sarimsoqov B. Lof / O‘zbek folklori ocherklari. 2-tom. - T.: Fan, 1989.
6. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. - T.: Sharq NMAK, 1999. – B. 9.

### **КУЁШНИ – ИССИҚНИ СОҒИНИШ ИЗТИРОБИ**

**(Самандар Воҳидов шеърлари асосида)**

**DOI: 10.53885/edinres.2021.49.53.051**

*Сафарова Ҳилола Охунжоновна,*

БухДУ ўзбек тили ва  
адабиёти кафедраси доценти

**Аннотация.** *Шоир куз тасвиридан қиш манзаралари тасвирига ўтиб: ”Қиш тонгидаги туш” (1977), ”Қишлоқда қор ёққан кун” (1988), ”Қорда қолган гул” (1991), ”Янги йил келади оппоқ отида” (2001), “Қиш лавҳалари” (1986-87), ”Февраль” (2001) каби қатор шеърларини ёзди.*

**Калит сўзлар:** *Самандар Воҳидов шеърляти, қуёш, ҳарорат, соғинч*

Айталик, ”Қиш лавҳалари” тўрт бўлимдан иборат бўлиб, биринчи бўлимида қишнинг бошланиши манзараси майсалардан яшилликнинг кетиши ”қувончидан қора ранг соча” бошлаган қарғаларнинг ”терақлару толларга қора кафан кийдириши” фонида тасвирланган. Қиш қора рангда намоён бўлса-да, ер ҳали ўз бағрида ”яшил мулки бехатар” сақланаётганини, улар эрта-индин яна ям-яшил майса бўлиб ўсишини билса-да, лекин “дунёни қора рангда кўриб дилхун инграши” тасвирланади. Иккинчи бўлимда қишга арча ва қайин муносабатлари фонида ахлоқий баҳо бериш йўлидан борилади. Қаранг-а, ”қиш қаҳридан яланғоч қайин” арчани қор ёққан сайин яшнаб боришини кўриб, ”баҳорни ҳам шу либосда кутиб олди, ёзни ҳам шу кийимда алдади, энди ишга ҳам шу кўйлақда ноз қиляпти” деб суюқоёқликка чиқариб таъна қилади. Ўз навбатида арча ҳам қайинга баҳорга вафо илмади, баҳор ҳады этган кўйлақни ”изғиринга тарож қилдириб”, оппоқ баданини кўз-кўз қилиб, ”қиш кўйнига яланғоч кирган” беҳаёга менгзайди. Шу тариқа шоир арча тимсолида гўзаллигини пеш қилувчи танноз қизлар ва қайин тимсолида ярим яланғоч юришни одат қилган беҳаёлларга шаъма қилади.

Шеърнинг учинчи бўлимида оппоқ қор билан қопланган далалар ва уларга қўнган қора қарғалар – оппоқ қоғоз ва унга сачраган сиёҳга менгзалса, булутлар сарбонидан ажралган карвондай талмовсираб йўрғалиши манзараси чизилиб, қиш ҳақидаги тасаввур тўлдирилади, мукаммаллаштирилади. Қиш ҳатто балхий тутнинг панжаларини ҳам



зиркиратган, шу боис у исиниб олиш мақсадида куёшга ҳар қанча қўл чўзмасин, куёш унга тунд қарайди, гўё ер билан иш риштаси узилгандай. Рассомона кўз билан сўзда чизилган бу манзарадан ҳайратланмасликнинг иложи йўқ. Шоир қўллаган бетакрор ўхшатишлар ва бошқа бадиий деталлар орасидаги мутаносибликлар ана шу ҳайратланиш заминига айланган.

Шеърнинг тўртинчи бўлимида қишнинг инжиқ феъли ҳақида ўйлаган лирик қаҳрамон баҳор соғинчи билан яшайди. Қишда ёққан ёмғир шу орзусига етишувига йўл очиб берувчи восита. Аммо шоир талқинидаги қиш анчайин шафқатсиз. Хусусан, изғирини ва қори гулларни хазон этишга уста. Шоир ана шундан алағда. "Қорда қолган гул" шеърида, шу ташвишини ифодаларкан, қор хазон этган гул – бемаврид сўндирилган севгига ачиниш мотивига айланган. Шоир қор сўлдирган гулга ачиниш мурожаат қилади:

Тўлсанг – нурга тўлгин, қорга тўлмагин,  
Кулсанг – қониб қулгин, бўзлаб қулмагин,  
Сўлсанг – ёниб сўлгин, музлаб сўлмагин,  
Гулгинам, шу қисмат сенга равоми?.. [2; 104]

Шоир лирик қаҳрамони севгилисига ҳамдардлиги изҳорининг бадиий жозибаси ва таъсирчанлигини кучайтиришда тарсеъ санъатидан фойдаланган, унда дастлабки уч сатрдаги деярли барча сўзлар ўзаро қофияланиб, изҳор қилинаётган тасалли ва ҳамдардлик руҳининг теранлигини таъминлаган.

Албатта, қишнинг етакчи атрибути – изғирин ва қаҳратон совуқлари ҳамда қор ва ёмғир, қор ва ёмғирнинг совуқдан музлаши туфайли оёқ остининг тойғончиққа айланиши, кўчаларнинг лойлиги, томлар боғотларини сумалаклар қоплаши. Қиш шу феълига амал қилиб, ўз муддатида қишлигини қилса – табиийки, аввало, ер парқу қор кўрпаси остида яйраб тин олади, келаси йил ҳосилига ҳомилаликка тайёрлана боради. Аммо таассуфлар бўлсинки, гоҳо қиш номига лойиқ келмайди, "заминни ўйга толган аёл каби қор"ни кутишга мажбур қилади, иримига тўртта қорни унга раво кўрмай, "минг алвонда товланади", бироқ Баҳор бўла олмайди. "Қиш дегани" шеърида тасвирланган бу манзара "Қишнинг сўнгги куни" шеърида давом эттирилиб, қишнинг жонузар ҳолатда баҳорга ўрин бўшатиши хос лавҳаларга тўлдирилган. Мана ўша ҳаракатлар оғушидаги сулув манзара:

Жон узгиси келмайди қишнинг,  
Юммас сўлгин қовоқларини.  
Суллайса ҳам абгор вужуди,  
Йиғиштирмас оёқларини.  
Қувғин руҳи дўнар булутга,  
Қарғаларга кўчади жони.  
Ва уларни ундайди кўкка,  
Юзин ёпмоқ бўлиб осмоннинг.  
Осмон эса сиғмас ўзига,  
Тўлғоқ тутган каби безовта.  
Туғилмоқда баҳор куёши,  
Уни тўсмоқ энди бефойда. [1;78]

Интиқо олаётган қиш қиёфаси шу хилда кўримли қилиб гавдалантирилган. Бунда шоир жонлантириш, ўхшатиш ва сифатлаш каби тасвирий воситалардан фойдаланган эса-да, нима учундир қофияларнинг тўқ ва жарангдор бўлишига етарли эътибор бермаган. Хуллас, қиш шундай бир фаслки, ҳамиша унда куёшни – иссиқни соғиниш изтиробини билан яшайсан, киши. Шу маънода қиш ва куёш контрасти фасл моҳиятини белгилайди. "Қиш тонгидаги туш" шеърида шу моҳият туш воситасида табиий таҳлил қилинган. Лирик қаҳрамон ўзини булутлар этагида осилганча куёшни қиш булутларидан қутқазиб илинжида ва сарсари кезаётганини туш кўради. Ниҳоят у осмонга чўзиқ қўли билан "Қайлардасан, куёшим?.." дея чўчиб кўзини очган ҳолда уйғониб кетади. Шоир туш

воситасида ҳам қуёшли кунлар соғинчини ифодалаш орқали ҳаётсеварлик туйғусини тараннум этган.

#### **Адабиётлар:**

1. Хаёлинг мен билан (шеърлар, ғазаллар, мухаммаслар, достон)–”Бухоро” нашриёти, 1997, 10,5 б.т.
2. Сунбула (Достон, шеърлар, ғазаллар).–”Бухоро” нашриёти, 2002, 9,0 б.т.
3. Amonova Z. CONFLICT INTERPRETATION IN CLASSICAL LITERATURE //Конференции. – 2020.
4. Rajabova M. B., Akhrorova Z. R. UVAYS QARANIY IN THE INTERPRETATION OF FARIDUDDIN ATTAR AND ALISHER NAVOI //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 2. – С. 219-223.
5. Baqoevna R. M., Oxunjonovna S. H., Qodirovna A. Z. ANALYTICAL AND SYNTHESIZED FOLKLORISM IN NAVOI'S WORK //Journal of Contemporary Issues in Business and Government. – 2021. – Т. 27. – №. 2. – С. 1626-1633.
6. Safarova H. “HAPPINESS IS THE FLAG LANGUAGE, FROM HAPPINESS I AM ALSO A TONGUE!”... ON THE EXAMPLE OF THE WORK OF THE POET SAMANDAR VOHIDOV //Конференции. – 2020.
7. Сафарова Ҳилола. Гулларингни айлади чўп қарға, бойқуш, зоғ тилим... Тил, адабиёт, таржима, адабий танқидчилик халқаро илмий форуми: замонавий ёндашувлар ва истиқболлар. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. 2021 йил 26-27 март. Бухоро
8. Qodirova N. S. SOME CHARACTERISTIC FEATURES, SKILLS AND STYLE OF THE LITERARY CRITIC //Web of Scholar. – 2018. – Т. 5. – №. 2. – С. 32-35.
9. Qodirova N. S. Problems Of Style And Creative Individuality In Literature //International Journal of Progressive Sciences and Technologies. – 2021. – Т. 25. – №. 2. – С. 254-260.

#### **ГРАММАТИК ТЕРМИНЛАР ТАРАҚҚИЁТИГА ОИД**

**DOI: 10.53885/edinres.2021.74.54.052**

*Ш.Султанова*

А.Навоий номидаги Тошкент давлат  
ўзбек тили ва адабиёти университети  
инглиз тили кафедраси ўқитувчиси

**Аннотация:** Ушбу мақола грамматик терминларнинг рус ва ўзбек тилшунослари орасида қиёсий таҳлили, уларнинг хусусиятларини очиб бериб, терминларга оид асарларнинг таҳлилин баён қилади. Баъзи бир мавзуларнинг назарий маълумотлари қиёсланади.

**Калит сўзлар:** грамматика, электрон лугат, лингвистик ахборот, терминология, қиёслаш, таҳлил

Ҳар қандай нарса-ҳодисанинг аниқ моҳияти ёки қиймати унинг бошқасига қиёслаганда, таққосланганда яққол намоён бўлади. Лисоний бирликлар ҳам ҳатто грамматик терминлар ҳам муҳокама қилинганда уларнинг хусусиятлари аниқ бўлади. Бу борада қуйидаги асарлардаги грамматик терминлар қиёсий ўрганиб кўрилади. Профессорлар Аюб Ғуломов, Ҳамид Неъматов ва Асқар Ғуломовларнинг ишларида ўзбек тилшунослиги рус тилшунослиги асосида шакланганлиги ҳақида гапирилади. Бу сўзларнинг тўғри – нотўғрилигини текшириб кўриш мақсадида проф. С.Г. Бархударов ва доц. Е. И. Досычеваларнинг 1938 йилда Москвада чоп этилган «Грамматика русского языка. Часть первая. Фонетика и морфология» ҳамда Олим Усмон ва Барот Авизовларнинг “O‘zbek tili grammatikasi. Birinchi bo‘lim. Fonetika va morfologiya” дарслигини қиёслаб ўрганишни лозим топдик.

Ҳар иккала дарслик зарварағида ҳам қуйидаги сўзлар битилган. Рус тилида: «Учебник для неполной средней и средней школы. Утверждено Наркомпросом РСФСР». Ўзбек тилида: “То‘liqsiz o‘rta va o‘rta maktablar uchun darslik. OzSSR MXK tasdiq etgan.

Рус тили грамматикасига проф. Л.Б. Щерба, проф. Д.Н. Уманков, проф. Р.И. Абанесов ўқитувчи Е. И. Кореневсий ва Учпедгиз ходими Ф.Ф. Кузмин, ўзбек тили грамматикасига эса А. Ғулом ва П. Шамсиевлар муҳаррирлик қилганлар.

Биз ушбу ишда мазкур дарсликларга ёзилган сўз боши, кириш ҳамда “Гап ҳақида тушунча” деб номланган фасллари киёслаб ўрганамиз.

I. С.Г. Бархударовнинг «Предисловие» сида М.Б. Ломоносов, А.Х. Востоков, Ф.И. Буслаев, А. Потенбя, А.А. Шахматов, Н.Я. Маррларнинг суратлари, улар ҳақида мухтасар маълумотлар берилган. О. Усмоннинг “So‘zboshi”сида бундай маълумотлар йўқ ва бу тушунарли. Унда грамматика, фонетика, морфология ва синтаксисга таъриф берилган. Уларда ўқувчини фикрлашга ундайдиган ҳолатлар ҳам йўқ эмас. Шунинг учун ҳар иккала сўзбошини рус ва ўзбек тилларида келтирамыз.<sup>1</sup>

Рус тилида: «Грамматика – слово греческое (грамматике) и первоначало обозначало просто « умение читать и писать». Однако в древнейших времен это слово стало обозначать особую науку , которая изучает законы того или другого языка. Уже этого одного факта видно, что без грамматики, т.е. без науки о языке нельзя было с успехом, занимается литературным языком. *Ўзбек тилида:*<sup>2</sup> Grammatika aslida grekcha so‘z bo‘lib, dastlabki vaqtlarda “oqus va jazabilis” manbaalaridagina qo‘llangan. Mexanika qonunlarini bilish qanchalik zarur bolsa, adabiy tilni ayniqsa, yozuv tilini to‘la organishda, egallashda tilning qonunlarini bilish shunchalik zarur.

II. С. Бархударовнинг дарслигида “Кириш” қуйидаги мавзуларни ўз ичига олган. (Таржимасини берамиз) §1. Гап ҳақида тушунча. §2. Сўроқ, дарак ва ундов гаплар. §3. Гапнинг бош бўлаклари. §4. Гапнинг иккинчи даражали бўлаклари. §5. Аниқловчи, тўлдирувчи ва ҳол. §6. Содда ва қўшма гап. Энди юқорида даъво қилинган мавзуларни ёритишга ҳаракат қиламиз ва энг аввало, дарсликлардаги назарий маълумотларни киёслаймиз.

С. Бархударов

- §1. Понятие о предложении
- §2. Вопросительное, восклицательное и повествовательное предложения
- §3. Главные члены предложения
- §4. Второстепенные члены предложения
- §5. Определение, дополнение, обстоятельство
- §6. Простое и сложное предложения

О. Усмон

- §1. Гап ҳақида тушунча.
- §2. Сўроқ, дарак ва ундов гаплар.
- §3. Гапнинг бош бўлаклари
- §4. Гапнинг иккинчи даражали бўлаклари.
- §5. Аниқловчи, тўлдирувчи ва ҳол.
- §6. Содда ва қўшма гап.

Маълумки, ўзбек тили грамматикаси рус раматикаси асосида шаклланган. Шунинг учун ундаги терминларнинг аксарияти таржима, айримлари айнан олинган. Ўзбек тили товуш қурилишига хос хусусиятлар тўлиқ ўз аксини топмаган. Фикримизни исботлаш учун 1938 йилда Москвада ҳамда 1939 йилда Тошкентда чоп этилган рус ва ўзбек тиллари грамматикаларида берилган фонетикага оид материалларни киёслаб ўрганишга ҳаракат қиламиз.

Дастлаб ҳар иккала дарсликда берилган фонетикага доир мавзуларни киёслаймиз:

- |                  |                   |
|------------------|-------------------|
| 1. Звуки речи    | 1. Нутқ товушлари |
| 2. Звук и буква  | 2. Товуш ва ҳарф  |
| 3. Алфавит       | 3. Алфавит        |
| 4. Гласные звуки | 4. Унли товушлар  |

<sup>1</sup> Фикр баёини соддалаштириш мақсадида “ Рус тили грамматикаси” ўрнида С. Бархударов, “Ўзбек тили грамматикаси” ўрнида О. Усмон фамилияларидан фойдаланамиз.

<sup>2</sup> Ўтган асрнинг 30-йилларида амалда бўлган лотин имлосини ўқиш қийин бўлганлиги учун уни кирилл ёзувида беришни лозим кўрдик.

- |                                      |                                   |
|--------------------------------------|-----------------------------------|
| 5.Согласные звуки                    | 5. Ундош товушлар                 |
| 6.Звонкие и глухие согласные         | 6. Жарангли ва жарангсиз ундошлар |
| 7.Твердые и мягкие согласные         | —                                 |
| 8.Правописание гласных после шипящих | 7.Баъзи унлиларнинг имлоси.       |
| 9.Слог и неслоговые и                | 8. Бўгин ҳақида тушунча           |
| 10.Разделительные                    | 9.Бўгин тузилиши.                 |
| 11.Ударение                          | 10.Ургу.                          |
| 11.Апострофнинг қўлланиши.           |                                   |

Кўринадики, фонетик материал ўзбек тилидаги каттиқ ва юмшоқ ундошлар бўлмагани учун бу ҳақда маълумот берилмаган. Шунингдек, шипилдоқ ундош ва с товушидан кейин келган унлилар ёзувига доир далиллар ҳам тушуриб қолдирилган. Бироқ «Ўзбек тили грамматикаси»да «Баъзи унлилар имлоси» анча кенг берилган. Мазкур таҳлиллар профессор И.Мирзаев тадқиқотларига асосланди.

Энди ўзбекча ва инглизча грамматик терминларнинг қиёсига эътибор қаратамиз. Аслида ўзбек ва инглиз тиллари бир оилага мансуб бўлмагани учун грамматик терминлардан ҳам муайян фарқлар сезилиб туради, бироқ асосий атамалар деярли бир хилдир.

**Масалан қуйидаги грамматик терминлар айнан мос келади:**

*kinds of sentences* — гап турлари (ифода мақсадига кўра)

*declarative sentence* — дарак гап

*interrogative sentences* — сўроқ гап

*imperative sentences* — буйруқ гап

*exclamatory sentences* — ундов гап

*affirmative sentences* — тасдиқ гап

*negative sentences* — инкор (бўлишсиз) гап

*word order* — сўз тартиби (гапта)

*the subject* — эга

*the predicate* — кесим

*direct word order* — тўғри сўз тартиби

*the principal parts of the sentence* — гапнинг бош бўлаклари

*proper noun* — шахс оти

*common noun* — ўрин - жой оти

*countable noun* — аниқ от

*uncountable noun* — ноаниқ от

*abstract noun* — мавҳум от

*material noun* — нарса оти

*collective noun* — жамловчи от

*pronoun* — олмош

*numeral* — сон

*adjective* — сифат

**Энди тиллар морфологик жиҳатдан ўзига хос фарқланишга эга бўлгани сабабли айрим фарқлар ҳам яққол кўзга ташланади:**

*gerund* — ҳаракат номи

*simple verbal predicate* — содда феъл кесим

*compound verbal predicate* — қўшма феъл кесим

*finite verb* — соф феъл

*phraseological unit* — фразеологик бирикма

*nominal predicate* — от-кесим

*verbal predicate* — феъл кесим

*link verb* — ёрдамчи феъл

Тиллар ўзига хос морфологик таркибга, тузилишга эга бўлгани боис ҳеч бир лисоний бирлик муайян тилгагина хос бўлмайди. Шунингдек тилшунослик атамалари ҳам шу

жиҳатдан бир-биридан кескин фарқ қилмайди. Ўзбек тилшунослиги, хусусан, грамматикасига доир терминлар шаклланишида рус тилининг таъсири катта бўлгани маълум. Албатта, инглиз тилида қўлланиладиган грамматик терминлар асосан, лотин тилига ёки юнон тилига мансубдир.

#### Адабиётлар:

1. Мадвалиев А. Ўзбек теминологияси ва лексикографияси масалалари. Тўплам. Тошкент, 2017. – 384 бет.
2. Йўлдошев Б. Ўзбек лингводидактикаси тараққиётида ўқув лексикографиясининг ўрни масаласига доир // НавоийДПИ ахборотномаси, 2015, 1-сон. – Б. 66-72.;
3. Йўлдошев Б. Ўзбек тилшунослигининг мустақиллик йилларидаги тараққиёти хақида//Хорижий филология. №3, 2016 йил. –Б. 9-15.
4. Uluqov N. Lingvistik kompetentlikni shakllantirish omillari. “Til va adabiyot ta’limi”, 2018-yil, 6-son. –В.16-18.
5. Менглиев Б.Р., Баҳриддинова Б.М. Ўқув лугатчилиги: талаб ва эҳтиёж / «Айюб Ғулум ва ўзбек тилшунослиги масалалари». Илмий тўплам. – Тошкент, 2009. – Б.34-41
6. Қиличов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Бухоро: 1999., 226 б. –Б.125-126
7. Герд, А. С. Терминологическое значение и типы терминологических значений Текст. / А. С. Герд // Проблематика определений терминов в словарях разных типов. Л. : Наука, 1976. - С. 101-107.
8. Глинкина, Л. А. Историко-лингвистический комментарий фактов современного русского языка Текст. / Л. А. Глинкина, А. П. Чередниченко. -М. : Флинта. Наука, 2005. 208 с.
9. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО КОРПУСА В ОБУЧЕНИИ ЯЗЫКУ(The use of the linguistic corpus in language teaching)  
ЛР Раупова, РР Сайфуллаева, ХХ Хамраева, НМ Зарипбоева, Academy, 2019 - 1 цитирование[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=nkh8lwoAAAAJ&citation\\_for\\_view=nkh8lwoAAAAJ:d1gkVwhDpl0C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=nkh8lwoAAAAJ&citation_for_view=nkh8lwoAAAAJ:d1gkVwhDpl0C)
10. Logical and grammatical relations in word categories: the factor of difference and incarnation КХ Сафарова Гузал Кудратовна, Раупова Лайло Рахимовна, Ботирова Адиба, Мусулманова Наргиза, International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 2020<https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=17387754250602338412&btnI=1&hl=ru>

## ALISHER NAVOIY IJODIDA ETNONIMLARNING QO‘LLANILISHI

DOI: 10.53885/edinres.2021.99.82.053

*Maftuna Zoir qizi Safarova*

BuxDU o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** *Etnonimlar o‘zbek tilida uzoq o‘tmishda yuzaga kelgan nomlar sanaladi. Shuning uchun ham qabila, urug‘ va shahobchalarining nomlarida ko‘plab qadimiy turkiy tilga, uning uzoq tarixiga oid leksemalar saqlanib qolgan. O‘zbek etnonimlari uzoq davr taraqqiyotini boshidan kechirgan bo‘lib, ularda qadimiy turkiy qabila va urug‘lar o‘zbeklarning ko‘hna davr ajdodlari amal qilgan urf-odatlar, falsafiy-diniy e‘tiqodlar, qadimiy madaniyat izlari, so‘z yasaliş usullari o‘z ifodasini topgan.*

**Kalit so‘zlar:** *etnonimlar, qabila, urug‘ va shahobchalarining nomlari, davr taraqqiyoti*

Etnonimlar haqidagi qarashlar bir necha davrlar oldin ham bo‘lganligini qimmatli manbalar orqali bilib olishimiz mumkin. Turkiy etnonimlar haqidagi ma‘lumotlar qadimgi turkiy tilga oid yozma bitiklarda, M.Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asarida, Mir Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abulg‘oziy Bahodirxonning asarlarida, shuningdek, o‘rta asrlarga mansub arab va fors tillarida yozilgan bir qator tarixiy bitiklarda saqlanib bizgacha yetib kelgan [3;20].

Bulardan tashqari, o‘zbek xalqining urug‘ va qabilalari haqidagi materiallar Mirxondning “Ravzat us-safo”, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” kabi mashhur tarixiy asarlarida ham aytib o‘tilgan. Ammo bu materiallar to‘liq o‘rganilgan emas. Hazrat Alisher Navoiy tarix ilmi bilan maxsus shug‘ullanmagan bo‘lishiga qaramasdan, o‘zbek xalqining tarixi haqida, xususan, uning etnografiyasi, o‘zbek xalqining urug‘ va qabilalari, ularning o‘sha davrda tutgan o‘rni, mavqeyi haqida katta ma’naviy xazina qoldirgan deyishimiz mumkin.

Alisher Navoiy o‘zining ko‘pgina asarlarida o‘zbek urug‘lari, ularning nomlanish hamda kelib chiqish sabablari haqida fikr yuritgan, ayniqsa, uning “Chor devon”ida o‘zbek xalqining urug‘ va qabilalariga ko‘pgina qimmatli va har tomonlama e‘tiborga arzirli fikrlarni aytib o‘tgan. Masalan, Navoiyning

Ey Navoiy, manga bas ul sanami lo‘livash,  
Bekka *qipchoqu og‘ar*, shahg‘u *qiyotu bilgut*.

Yoki: Menga tilab husn, vale shoh tilab asl-u nasab,  
Menga lo‘li bila hindu, anda *qo‘ng‘irotu qiyot*.

kabi misralari o‘zbek xalqining *qipchoq, og‘ar, qiyot, bilgut, qo‘ng‘irot* singari urug‘lari haqida ma’lumot berish bilan bir qatorda, shu urug‘larning o‘sha davrdagi temuriylar davlatida tutgan mavqeyi xususida ham qimmatli tarixiy ma’lumotlar bermoqda. Bu ma’lumotlar o‘zbek xalqining tarixini, urug‘ va qabilalarini, ularning tarkibidagi etnik guruhlarni o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Navoiyning ushbu baytlari ham o‘zbek xalqining urug‘ va qabilalarini o‘rganish jihatidan ahamiyatlidir:

Sanamlar husnidin maqsud yor o‘lmish Navoiyg‘a,  
Agar *barlos*, agar *tarxon*, agar *arlot*, agar *sulduz*.

Chun Navoiy jonig‘a ofat erur lo‘livashe,  
Sog‘inur g‘uli biyobon ko‘rsa *qo‘ng‘irotu qiyot*.

Navoiy, ista mazohirda chehram maqsud,  
*Arab* va gar *chig‘atoy*, yo‘qsa *turkmanu xaloj*.

Ey Navoiy, chu gadosen, senu bir lo‘livash,  
Shohga mirzou mirak, xonga *qiyotu qo‘ng‘irot*.

Yuqorida qayd qilib o‘tilgan *qipchoq, og‘ar, qiyot, bilgut, qo‘ng‘irot, barlos, tarxon, arlot, sulduz, arab, chig‘atoy* kabi so‘zlar o‘sha davrda ma’lum bir qabila va urug‘ nomi ekanligi misralar orqali ma’lum bo‘ladi. Toponimist olim T.Nafasovning “Qashqadaryo qishloqnomasi” kitobida keltirilgan ma’lumotlarga qaraydigan bo‘lsak, unda Navoiy baytlarida keltirilgan bu so‘zlar etnonim ekanligi o‘z isbotini topadi. Masalan, yuqoridagi baytda qo‘llangan *qipchoq* so‘zi turkiy xalqlarning eng yirik qabilalar va xalqlar ittifoqi, o‘zbek xalqi tarkibidagi eng yirik va ko‘p sonli elat bo‘lishgan. Qipchoqlar O‘zbekiston hududiga, asosan, 16-asrdan boshlab ko‘chib kelishgan. Qipchoq – viloyatimiz hududiga 16-asrda Dashti Qipchoqdan kelgan va qishloq joylariga o‘rnashgan aholining umumiy nomi. Qipchoqlarning qoratikan, o‘lmas, elaton, og‘im, chiyal, qoramo‘yin kabi urug‘lari nomlari viloyatimizda qishloq nomlariga aylanganligini ko‘rish mumkin. Abulg‘ozi Bahodirxonning yozib qoldirishicha, “qayonning ma‘nosi seliki, tog‘din kuch birlan yildam quyiga kelgay. Elxonning o‘g‘li tez kishi erdi. Aning uchun Qayon derlar”. Matndan ma’lumki, Qayon – kishi ismi. Qayon so‘zining jamlik shakli qiyot. Qayonning avlodi – qiyot. Qiyot – umumturkiy qabila nomi ekanligi anglashiladi.

Bulardan tashqari, Alisher Navoiyning “Chor devon”i, ba’zi ilmiy tanqidiy asarlari va “Xamsa” asarida, shuningdek, Boburning “Bobornoma”sida “o‘zbek” so‘zi(etnonimi)ning anglatgan ma’nolari, “o‘zbek” so‘zi anglatgan tushunchaning o‘sha davrdagi chegarasi va shuningdek, “o‘zbek”, “turk”, “chig‘atoy” singari terminlari ma’nolarining ochilishiga yordam qiluvchi faktlar ham borki, ularning hammasini yig‘ib, qunt bilan o‘rganish xalqimiz va tilimizning tarixini to‘laroq yoritish sohasida juda ajoyib samaralar berishi shubhasiz. Masalan, Alisher Navoiy bir joyda “o‘zbek mo‘g‘ul o‘lg‘ay aning ollida musulmon” deb “o‘zbek” etnonimi bilan “mo‘g‘ul” etnonimini bir qo‘yadi. Bu esa biz yuqorida Rashiddinga tayanib qisman eslatib o‘tgan fikrni, ya’ni o‘zbek qabilalaridan bir qismining mo‘g‘ul deb atalib kelganligi ularning kelib chiqish jihatidan mo‘g‘ul bo‘lganliklari uchun emas, balki ular ilgari Mo‘g‘iliston hududida yashaganliklari uchun va mo‘g‘ullar boshliq bo‘lgan siyosiy birlashmaga qo‘shilganliklari uchundir degan fikrni tasdiqlashga yordam beradi [1;38].

Shoir she’rlarining ba’zi bir til xususiyatlari (masalan: “ollindaki”, “allida” kabilar) Alisher Navoiy tilining ko‘p jihatdan hozirgi Buxoro atrofidagi shevalarga va barlos shevalariga o‘xshab ketishidan darak beradi. Bu, albatta, etnonimlar talaffuzida va bugungi kungacha yetib kelishida ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi.

Hazrat Navoiy etnonimlarning turli xil variantlarda uchrashi yoki asl ma’nosidan uzoqlashib bugungi kunda tushunarsiz holga kelib qolganligini shevalar ta’sirida ekanligini ham alohida ta’kidlab o‘tadi. Shunday ekan, xalqimiz va tilimizning tarixini, ularda yuz bergan barcha o‘zgarishlar, har xil davrda yuzaga kelgan sharoitlar hamda har xil jarayonlar bilan uyg‘un tarzda o‘rganib chiqish kerak.

Navoiy asarlari orqali uning zamonida Andijon bilan Buxoro, Samarqand va hatto, Hirot kabi shaharlarning shevalari o‘rtasida farqlar oz bo‘lgan bo‘lsa kerak. Vaqt o‘tishi bilan har xil sharoit va har xil tarixiy o‘zgarishlar natijasida (xususan, qipchoq-o‘zbeklarning O‘rta Osiyoga har xil davrda, turli miqdorda kelib kirishi va har xil territoriyada turli vaqtda o‘troqlashib, o‘sha yerdagi aholi bilan munosabatga turlicha kirishuvi natijasida) bu shaharlarning shevalario‘rtasidagi farqlar tobora orta brogan va ular o‘rtasidagi ajralish tobora kuchaya brogan bo‘lishi mumkin. O‘rni kelganda shuni aytish kerakki, ba’zi olimlar, hatto, Navoiy “O‘zbek” degan so‘zni ishlatgan emas, deb da’vo qiladilar [1;31].

X.Doniyorovning mulohazalariga ko‘ra, ba’zi olimlar, Navoiy “o‘zbek” degan so‘zni bilmagan, ana shuning uchun u o‘z asalarida bu so‘zni ishlatgan emas, deb da’vo qiladilar. Masalan, M.K.Hamroyev 1963-yilda Olmaotada nashr qilgan “Turk she’riyatining tuzilish asoslari” kitobining 14-betida “Alisher Navoiyning asarlarida “o‘zbek” so‘zining uchramasligi hammaga ayondir”, deb yozadi. Holbuki, bu fikr haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Chunki, Alisher Navoiyning asarlarida “o‘zbek” so‘zi bir necha martalab qo‘llangan. Chunonchi, “Sa’ddi Iskandariy” dostonida Doroga qarshi kurashgan bir qancha qabila va elatlar qatorida Alisher Navoiy o‘zbeklarning ham qatnashganligini aytadi:

Samarqanddin toki sarhadi Chin  
Burong‘or ango hayli mashriq zamin.  
Yuz ellik ming ul sori qalmoq ham  
Yana yuz ming o‘zbek, mo‘g‘ul, barlos ham.

Faqat bugina emas, Alisher Navoiy qipchoq-o‘zbeklarni sodda, mehnatkash kishilar sifatida shoh-u tojlarga qarama-qarshi qo‘yadi va o‘ziga eng yaqin mehribon suyanchiq kishilar deb biladi:

Shohu toju xil’ate kim men tomosha qilg‘ali  
O‘zbekim boshida qalpoq, egnida shirdog‘i bas.

Mazmuni: Men shoh, toj va xil'atlarni tomosha qilamanmi (ularning menga nima keragi bor), menga boshida qalpoq (do'ppisi), egnida shirdog'i (yaktagi) bo'lgan o'zbekimning o'zi bo'lsa bas [2;74].

Hazrat Alisher Navoiyning bizga qoldirgan boy ma'naviy xazinasi orqali barcha sohalar uchun qimmatli ma'lumotlar olishimiz mumkin. Xususan, o'zbek tili lug'at fondining bir qismini tashkil etuvchi, bugungi kunda ma'nosi biroz unutilayotgan urug', qabila nomlari xususida ham ma'lumotlar uchrashi haqida yuqorida bilib oldik. Bu singari faktlar o'zbeklarning temuriylar davlatidagi mavqeyini o'rganishda, shubhasiz, muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda etnonimlarni ilmiy jihatdan o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki tarix, etnografiya, madaniyat, axloqshunoslik, ruhshunoslik kabi sohalar uchun ham ahamiyatlidir.

#### **Adabiyotlar:**

1. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Фан, 1968.
2. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977. – 174 б.
3. Маркаев К. Ўзбек тили этнонимларининг лисоний тадқиқи. Диссер. – Тошкент. 2007. –205 б.
4. Kilichev B.E. Uzbek national folk tales and the nature of anthroponyms in live communication. Middle European Scientific Bulletin, Volume 12 May 2021.
5. Kilichev B.E. Lingvoculturological characteristics of anthroponyms used in artistic works. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. Volume 2, Issue 5 May, 2021.
6. Kilichev B.E., Safarova M.Z. Toponyms formed on the basis of nation names. International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT) ISSN:2509-0119. Taraz.2021 B. 104-107.
7. Kilichev B.E., Safarova M.Z. Bukhara region's typical toponyms transformed by means the names of nations. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science <http://T-Science.org> Philadelphia, USA. 2021. B.43-46.

### **MARGARET MITCHELLNING “SHAMOLLARDA QOLGAN HISLARIM” ASARIDAGI FRAZEOLOGIZMLARNING FUNKSIONAL-DISKURSIV XUSUSIYATLARI**

**DOI: 10.53885/edinres.2021.29.16.054**

*Mohinur Raxmiddinova Sayliyeva*  
BuxDU Xorijiy tillar fakulteti  
Ingliz adabiyoti va stilistika kafedrası  
o'qituvchisi

**Annotatsiya.** *Ingliz tili ming yillik tarixga ega bo'lib, u davomida juda ko'p iboralar, nutqning maxsus turg'un birliklar to'plangan. Iboralarning ma'nosini tushunish, ularni nutqda to'g'ri ishlatish nutq ko'nikmalarini takomillashtirish va til madaniyatining yuqori ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, ushbu sohaga bo'lgan qiziqish juda katta bo'lgan. Frazzeologik birliklarni o'rganish doimo katta ahamiyatga ega bo'lgan, shuning uchun ko'plab olimlar frazzeologik birlikni aniqlash orqali frazzeologiyaga o'z hissasini qo'shishga intilganlar.*

**Kalit so'zlar:** *frazzeologik birliklarning qo'llanilishi, Margaret Mitchellning “Gone with Wind” asari*

Frazzeologiya asoschisi shvetsariyalik olim Charlz Balli. Xo'sh, frazzeologik birlik nima? Charlz Balli frazzeologik birlikka umumiy ta'rif berdi: "tilda mustahkam o'rnatilgan kombinatsiyalar frazzeologik iboralar deb ataladi". Rus tilshunoslari Sergey Ivanovich Ozhegov va Natalya Yuliyevna Shvedova frazzeologik birliklarni idiomatikaga yaqin mustaqil ma'noga ega barqaror ifoda sifatida ta'riflaydilar. Lev Lvovich Nelyubin frazzeologik birlik (frazzeologik birlik, frazzeologik aylanma, frazzeogramma) leksik jihatdan bo'linmaydigan, tarkibi va tuzilishi bo'yicha barqaror, ajralmas ibora, tayyor nutq birligi shaklida ko'paytiriladi, deb hisoblagan.



Frazeologizm, shuningdek, soʻzma-soʻz boshqa tilga tarjima qilinmagan nutqning barqaror burilishi yoki idioma sifatida ham taʼriflanadi. Ammo idioma frazeologik birlikdan farq qiladi, chunki u sintaktik va semantik tuzilishi bilan tilning oʻziga xos va noyob xususiyatlarini ochib beradi. Frazeologik birliklarning tarjimasiga har doim eng katta qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Tarjimonning vazifasi nafaqat maʼnoni yetkazish, balki frazeologik birlikning obrazlilikini aks ettirish, maqsadli tilda eng maqbul soʻz yoki iborani topishga harakat qilishdir. Ushbu tadqiqot taniqli amerikalik yozuvchi Margaret Mitchellning "Gone with the Wind" romanidan biz tanlagan frazeologik birliklarning tarjimasiga bagʻishlangan. Ushbu asar, bizning fikrimizcha, har xil iboralar va frazeologik birliklar bilan toʻldirilganligi uchun yaxshi misoldir.

Mazkur tadqiqotning maqsadlaridan biri frazeologik birliklarning badiiy asarlarda qay tarzda qoʻllanilishidan iboratdir. Biz olib qaraydigan asarimiz Margaret Mitchellning "**Gone with Wind**" boʻlib, ushbu asarda iboralarning oʻrni, ularning asar oʻqilishidagi taʼsiri ona tilisi boshqa til boʻlgan oʻquvchi nuqtayi nazaridan kuzatib boriladi.

Margaret Mitchellning badiiy asari Gone with the Windning oʻziga xosligi shundan iboratki, u nafaqat adabiy nuqtayi nazardan diqqatga sazovor manba sifatida qaraladi, balkim lingvistik jihatdan ham frazeologik birliklarni oʻzida qamrab oluvchi boy kitob desak, yanglishmagan boʻlamiz. Ushbu badiiy asarni misol tariqasida koʻrib chiqarkanmiz, undagi barcha iboralar kontekstual ravishda eʼtiborga olinadi.

Tadqiqot ishining maqsadiga erishish uchun quyidagi yoʻnalishlarga amal qilindi. Birinchidan, ushbu badiiy asar qayta-qayta oʻqildi va iboraga monand soʻz birikmalari alohida belgilandi. Keyin esa mana shu belgilangan soʻz birikmalari ibora tushunchasiga toʻgʻri kelish yo kelmasligi asosida oʻrganib chiqildi. Bu ishni amalga oshirishda lugʻatlardan foydalanildi. Shu asosda oldin belgilangan soʻz birikmalarning ibora yoki ibora emasligi aniqlandi.

Shuni taʼkidlab oʻtish joizki, matnlarda uchraydigan iboralar turli xilliligi uchun bitta xulosaga kelish mumkin, iboralar tilda tez-tez uchraydigan leksikologiyaga kiruvchi boy turkumdur. Lekin har bir iborani tahlil qilish jarayonida ularning koʻpsi asardagi qahramonlar, ularning ichki kechinmalari holatini tasvirlashda qoʻllanilganligi maʼlum boʻldi.

Asarda koʻp miqdorda odam tana aʼzolari yoki tana harakati ishtirokidagi iboralar ham uchraydi. Masalan, *to hold one's tongue*, [1, 4]. *to take one's foot on one's hand* [2, 6]. *to set foot on somewhere*, [3, 8]. *to put out someone's tongue*, [4, 9]. *to have eye for* [5, 11]. *to turn a sharp eye*, [6, 191-b]. *wipe one's eyes*, [7, 293]. *rack one's brain*, [8, 289]. *roll one's eyes*, [9, 332].

Asar qahramonlari bilan bogʻliq boʻlgan iboralar 65%ni tashkil etadi. Vaziyatni tasvirlovchi iborali birliklar ham anchagina boʻlib, ularni aniqlab olish qiyin emas. Yuqorida koʻrsatib oʻtilgan statistik maʼlumotlardan shuni xulosa qilsak boʻladiki, asar qahramonlariga tegishli boʻlgan iboralar miqdori muhit vaziyatni tasvirlovchi frazeologik birliklardan ancha koʻp ekanligini koʻrish qiyinchilik tugʻdirmaydi, chunki asarda sodir boʻlayotgan voqealar qahramonlarga bevosita tegishli ekanligi namoyon boʻladi. Faqat ayrim holatlarda atrof-muhit va sujetni ifodalovchi iboralarning ishlatilishini kuzatish mumkin.

Iboralarning asar qahramonlarining oʻzaro soʻzlashuvlarida, yaʼni dialoglarida va asarning aytib berilish jarayonida koʻp marotaba ishlatilganligi kuzatiladi. Miqdor jihatdan olib qaraladigan boʻlsa, iboralarning 30% qahramonlar tilidan ishlatilgan, 70% muallif tomonidan vaziyatni tasvirlashda qoʻllanilgan.

Asarda koʻp iboralarning takror qoʻllanilganligini taʼkidlab oʻtish joizdir. Quyidagi iboralarning takror qoʻllanganligiga guvoh boʻldik:

1. *impose upon*
2. *be upon one's shoulder*
3. *tide one's over*
4. *set foot on*
5. *put one's hand*
6. *to be sweet on*

7. *turn loose someone*
8. *drag someone down/ away*
9. *lay eye on someone*
10. *throw a glance*

Takror qo'llangan iborali birikmalar asarda 80% ni tashkil qiladi. Iboralarning tildagi o'rni ularning kerakli informatsiyani shinam va boy tarzda tarzda yetkazib berish xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bundan tashqari iboralarning mazmunini ularga ma'no jihatidan o'xshash so'zlardan ko'ra tezroq anglash mumkin, chunki ular xalq orasida oddiy so'zlardek tushuniladi.

Avvalambor, iboralar vositasida ko'p so'zli gaplar qisqa so'z birikmalari orqali ifodalaniib matn mazmunini ham o'zgartirmaydi. Ular suhbatga tejamkorlik alomatini qo'shadi. Ayrim iboralar atigi ikki so'zdangina iborat bo'lsa-da, lekin gapning mazmun mohiyatini yo'qotmaydi. Lekin biz tahlilga tortgan asarimizda ikki so'zdan iborat iboralar kam foizni tashkil qiladi. Uch va undan ortiq so'zdan tashkil topgan iborali birikmalar asarimizda ancha. Ushbu ikki xil kategoriyani yanada yaxshiroq ko'z oldimizga keltirish uchun ularni misol sifatida keltirish bilan kifoyalanamiz:

- |  |                        |
|--|------------------------|
| 1. <i>lay eyes on someone</i>          | 1. <i>throw smile</i>  |
| 2. <i>to hold one's temper</i>         | 2. <i>draw courage</i> |
| 3. <i>drop someone's eyes</i>          | 3. <i>take strap</i>   |
| 4. <i>hold the rein</i>                | 4. <i>suit oneself</i> |
| 5. <i>from the cradle to the grave</i> |                        |
| 6. <i>draw a deep breathe</i>          |                        |

Iboralar tildagi oddiy fikrni ifodalashda har tomonlama tasvirlashda qo'l keladi. Bu jihatdan iboralar so'z va ma'noga boy bo'lib aniq bir fikr yoki vaziyatni yetkazib berishda juda muhim rol o'ynaydi.

Asarda hayvonlar hamda insonlar bilan bog'liq metaforik tarzda qo'llanilgan iboralar ham bor : *rear like a horse*, [1, 191]; *come down on somebody like a swarm*, [2, 550]; *gad about like a man* [3, 542]; *swell up like a toad*, [4, 565]; *scramble into somewhere like a rabbit* [5, 541].

Asarimiz inson ichki kechinmalari hissiyotlari tasviri bilan uzviy bog'liq bo'lganligi sababli hissiyotni ifodalovchi frazeologik birliklar hamda idiomalar asarda ko'p qismni tashkil etadi.

Masalan, asarda bir hissiy holat ma'nosini bildiruvchi bir necha xil iboralar ishlatilganini ko'rib chiqdik:

- (1) *lay on eyes on someone*
- (2) *throw a glance*
- (3) *turn a sharp eye*
- (4) *drop someone's eye*
- (5) *have an eye*

Yuqorida ko'rsatilgan, bu iboralar **qaramoq**, **nazar tashlamoq**, **razm solmoq** degan ma'noni bildiradi. Unga mazmun jihatdan oid elementlarni ifodalagan. Ayrim paytlarda ikkita ibora bir xil guruhiga taalluqli bo'lsa-da, kontekstual jihatdan mazmun-mohiyatida ular bir-biridan biroz farq qilish mumkin bo'lgan holatlari kuzatilgan.

Iboralar mazmun mohiyati jihatidan qaysi davr yo vaqtga qarashli tasvirlovchi vosita sifatida qaralsa ham ajab emas Chunki tilimizda oldin ishlatilgan va hozirda kamdan kam uchraydigan bu kabi so'z birikmalari matnning eski vaqtga yoki qadimgi davrlarga taalluqli ekanligini bildiradi. Shu o'rinda zamonaviy iboralarni uchratib tursak, matnda ishlatilgan tilning zamonaviyroq ekanligini tushunishimiz mushkul emasdir.

Iboralar asarning o'qilishiga boshqa yo'llar orqali ham ta'sir etishi mumkin. Asarni o'qiyotgan shaxsning xayoliga kelmaydigan tomonlar borki, ularni tasvirlashda alohida iboralar tanlangan. Margaret Mitchell asar qahramonlarining dunyoqarashi, ma'naviyati, madaniyatiga xos ibora, maqol, idiomalarni mahorat bilan qo'llaydi. Ular qahramonlarning xarakterini, ijobiy

va salbiy xususiyatlarini ochishga xizmat qiladi. Bir soʻz bilan aytganda, muallif iboralardan unumli va oʻrinli foydalana olgan.

#### **Adabiyotlar:**

1. Gone with the Wind by Margaret Mitchell A project Gutenberg of Australia eBook <http://gutenberg.net.au>. (2002).
2. Oxford Advanced Learner's Dictionary of Current English (2005).
3. Longman Dictionary of Idioms (1979).

### **TIBBIY REKLAMALARNING STRUKTUR XUSUSIYATLARI**

**DOI: 10.53885/edinres.2021.85.93.055**

*Sobirova Dilnoza Rasulovna*

Buxoro davlat universiteti

tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada reklamalarning oʻziga xos tuzilishi xususida soʻz boradi. Tibbiy reklamalarning boshlanma (sarlavha), asosiy reklama matni, exo-ibora, slogan kabi tarkibiy qismlari ommaviy axborot vositalari orqali eʼlon qilingan tibbiy reklamalar misolida asoslanadi.*

**Kalit soʻzlar:** *tibbiy reklama, struktura, boshlanma, sarlavha, asosiy reklama matni, exo-ibora, slogan*

Taniqli kopirayter O.Xakslı: “Bitta samarali reklama matnini yaratishdan koʻra oʻnta sonet yozish osonroq”, – deya taʼkidlagan edi. Haqiqatda samarali reklama matnini yaratish uchun kopirayterdan alohida bilim va isteʼdod talab etiladi. Reklamani struktur jihatlaridan xabardorlik esa reklama matnini yaratishni birmuncha osonlashtiradi. Reklamalarning struktur xususiyatlari qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Serdobinseva fikriga koʻra, reklama matnining ikkita tarkibiy qismi mavjud:

a) ajratilgan matn;

b) asosiy matn [5; 24].

Ajratilgan matn bu oʻquvchi bir qarashdayoq payqagan barcha elementlarni oʻz ichiga qamrab oluvchi reklama matnidir. Bu elementlar, odatda, eʼtiborni jalb qilish uchun katta oʻlchamda (soʻzlar bosh harflarda, qalinlashtirilgan shaklda, yorqin ranglarda) beriladi. Asosiy reklama matni esa adresat tomonidan oʻqilishi yoki tinglab tushunilishi lozim boʻlgan kichik bir axborotni oʻz ichiga oladi.

I. Imshinetskayaning “Креатив в рекламе” nomli risolasida reklamani uch komponentdan tarkib topishi xususida soʻz boradi. Olima birinchi komponentni zachin (boshlanma), ikkinchisini ART (asosiy reklama matni), uchinchisini esa exo-ibora deb nomlaydi [1].

E. Serdobinsevaning reklama tili va qurilishiga bagʻishlangan tadqiqotida reklamalar ideal holda, uch qismdan: ochilish, asosiy matn va exo-iborasidan tashkil topishi qayd etiladi. Sarlavha – reklama matnini ochadigan qisqa reklama iborasi. Uning bitta asosiy vazifasi bor, u ham boʻlsa, qiziqish uygʻotish. Asosiy reklama matnining tuzilishi uning mualliflari tanlagan aloqa strategiyasini aks ettiradi va kommunikatsiya modellari asosida har xil yoʻllar bilan qurilishi mumkin, masalan, taqqoslash, dialog, koʻrsatmalar, topishmoqlar va boshqalar. Exo-iborasi – bu matnda tugaydigan qisqa reklama iborasi [2; 9].

Tadqiqotchi D.Mamirova reklamalarning sotsiologik xususiyatlari tadqiqiga bagʻishlangan tadqiqotida auditoriya, reklama vositasi (gazeta, jurnal, radio, televideniye va hokazo) va mahsulotlarning tabiatiga qarab reklama matnining tuzilishi turlicha boʻlishi mumkinligini qayd etadi. Olimaning fikricha, soʻzli matnlar slogan, sarlavha, asosiy reklama matni va exo-iboradan tarkib topadi [3; 42].

Tibbiy reklamalarning tuzilishi haqida soʻz borar ekan, uning boshqa (oziq-ovqat, maishiy texnika, koʻchmas mulk v.b.) reklamalar kabi asosan toʻrt tarkibiy qismdan iborat ekanligini taʼkidlash lozim: 1) boshlanma (sarlavha); 2) asosiy reklama matni; 3) exo-ibora; 4) slogan.

Bosma shakldagi tibbiy reklamalarda reklama qilinayotgan mahsulotning muammolardan xalos qiluvchi ekanligiga auditoriyani ishontirishni sarlavhadanoq boshlash lozim. Sarlavha reklama samaradorligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy reklama otasi sifatida nom qozongan Devid Ogilvi shunday deb yozgan edi: "Menga sarlavhasiz reklamani taqdim etadigan kopirayterga hasad qilmayman". Bunday kopirayter joyida ishdan ketadi. Qani, bizning agentliklar ham bu amaliyotni qabul qilsalar edi! [4] Bosma shakldagi tibbiy reklama sarlavhasi: *Yana joningiz rohatda bo'ladi! Terbizil. (Terbizil dori vositasi reklama matnidan).*

Televizion reklamalarda sarlavha har doim ham qo'llanmaydi. Buni adresat e'tiborini ovozli xabar, yorqin tasvirlar orqali jalb qila olish imkoni mavjudligi bilan izohlash mumkin. Shu sababdan tibbiy reklamalarning dastlabki tarkibiy qismini boshlanma deya nomlashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Tibbiy reklamalarning boshlanmasi odatda inson salomatligi bilan bog'liq muammolarni so'rash, eslatish (xabar), bartaraf etish usulini tavsiya qilish mazmunlarida bo'ladi.

1. Tibbiy muammolarni so'rash mazmuni bilan boshlanuvchi tibbiy reklamalar:

– *Ortiqcha vazndan qanday qutulishni bilmayapsizmi?(Vest braun shop tibbiy asbobi reklama matnidan).* – *Sizda artrit yoki asteoxandroz bormi? Yumshoq to'qimalar shikastlandimi? (Nimid gel vositasi reklama matnidan).*

2. Tibbiy muammolarni eslatish (xabar) mazmuni bilan boshlanuvchi tibbiy reklamalar:

*Beldagi og'riqlar... Bo'g'imdagi og'riqlar... (Bol-nol relaks gel reklama matnidan)*  
*Kasallik doim to'satdan kelib, bizni esankiratib qo'yadi.(Rinomaks dori vositasi reklama matnidan)*

*Tizzalardagi og'riq – bu har doim kutilmagan hodisa. Lekin men bunga ko'nikmayman. (Terafleks krem vositasi reklama matnidan).*

3. Tibbiy muammolarni bartaraf etish usulini tavsiya qilish mazmuni bilan boshlanuvchi tibbiy reklamalar:

*Burun bitsa va grippni davolash kerak bo'lsa, nazaferondan foydalaning.(Nazaferon dori vositasi reklama matnidan)*

*Shamollash va grippning birinchi alomatlarida Звёздочкани oching. (Звёздочка vositasi reklama matnidan)*

Tibbiy reklamalarning asosiy reklama matni (ARM) qismida reklama qilinayotgan dori vositasi (shuningdek, tibbiy asboblari, tibbiy xizmatlar)ning o'ziga xos xususiyatlari tavsiflanadi. Bunda reklama qilinayotgan tibbiy vosita qanday tibbiy muammoning yechimi bo'la olishi, afzalliklari hamda qabul qilish shartlari xususida so'z boradi: *Ekzoderil lak! Haftada atigi bir marotaba surtiladi. Tirnoq ichiga chuqur kirib zamburug'ga hujum qiladi. Tirnoq rangining o'zgarishi, qalinlashishi va deformatsiyalanishi bilan kurashadi. (Ekzoderil lak dorisining asosiy reklama matni)*

Exo-ibora butun bir reklamaning xulosalovchi qismi hisoblanadi. Unda asosiy reklama matnida keltirilgan ma'lumotlar umumlashtirilib, xulosalanadi. Yana ham aniqrog'i, exo-ibora reklama matnida keltirilgan asosiy fikrni takrorlab, tugallangan tus beradi: *Jigaringizni bugundan avaylashni boshlang! (Essensiale forte N dori vositasi reklama matnidan)*

Reklama matnining eng muhim ajralmas tarkibiy qismi slogan hisoblanadi. Slogan keltcha "slaugharm" so'zidan olingan bo'lib, shior degan ma'noni anglatadi. Slogan atamasi shior, lozung deb ham yuritiladi. Slogan reklamaning esda qolarli, shu bilan birga, reklama matnining boshqa tarkibiy qismlaridan mustaqil holda qo'llana olinishi bilan ajralib turuvchi qismidir: *Hayotni butun jigaringiz bilan seving! (Essensiale forte N dori vositasi reklama matnidan).* *Qorinda yig'ilsa dam, shifodir espumizan! (Espumizan dori vositasi reklama matnidan)* *Trombopol – yurakka g'amxo'r! (Trombopol dori vositasi reklama matnidan).*

Exo-ibora va slogan reklama matnining bir-biriga juda yaqin va o'xshash tarkibiy qismlaridir. Ammo ularni farqlash lozim: *Tempalgin turli xildagi og'riqdan samarali vosita (exo-ibora).* *Asab tarangligisiz Tempalgin (slogan).* *(Tempalgin dori vositasi reklama matnidan).*

Ko'p o'rinlarda exo-ibora bilan slogan teng kelib qolishi(bir xil bo'lishi) mumkin. Lekin ular aynan bir narsa emas. Boisi exo-ibora reklama matnini xulosalovchi, tugal tus beruvchi tarkibiy

qismidir. U boshlanma, asosiy reklama matni bilan bir butunlik hosil qiladi va yakka holda qo'llanmaydi. Slogan esa reklama strukturasi mustaqilligi va shu bilan birga yakka holda qo'llanishi bilan ajralib turadi. Slogan yakka holda qo'llanganda reklama matni avvaldan adresatlarga tanish bo'ladi. Bunda slogan eslatuvchi xarakterda voqelanadi.

Xullas, reklama matnining barcha tarkibiy qismlari (boshlanma, asosiy reklama matni, e-xibora, slogan) mavjud bo'lganda, tibbiy reklama yanada jozibali, ishonchli bo'ladi, shuningdek, ular mohirona tarzda bir-biriga uyg'un holda yaratilsa, reklama matnining samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Имшинецкая И. Креатив в рекламе. Серия «Академия рекламы». М.: Рип-холдинг, 2004 <http://evartist.narod.ru/text11/58.htm>

2. Иванова А. А. Строй текста рекламной пропаганды: на материале английского языка тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 10.02.04, кандидат филологических наук. 2009. С. – 9. [л https://www.dissercat.com/content/stroi-teksta-reklamnoi-propagandy](https://www.dissercat.com/content/stroi-teksta-reklamnoi-propagandy)

3. Мамирова Д. Ўзбек реклама матнларининг социолингвистик тадқиқи. Филология фанлари доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. Самарқанд, 2021. Б. – 42.

4. Репев А.П. Язык рекламы. Часть II. [http://www.repiev.ru/articles/ad\\_lang\\_II.htm](http://www.repiev.ru/articles/ad_lang_II.htm)

5. Сердобинцева Е. Н. Структура и язык рекламных текстов: Учебное пособие. Флинта, наука. Москва, 2010. С. – 24.

6. Шахобиддинова Ш., Рустамов Д., Попов Д., Рустамова Д., Абдуллаев Б., Миралимова Ш. Оммавий лисоний маданият. Мулоқот маданияти ва саводхонлиги. Жамоавий монография. – Андижон, 2021. 150 б.

### **RUS GURUHLARDA SINONIMLAR VOSITASIDA NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH**

**DOI: 10.53885/edinres.2021.88.48.056**

*Mahira Rasulevna Saidova*

BuxDU rus tili va adabiyoti kafedrası  
dotsenti

*Jasmin Ulug'bekovna Kurbanova*

BuxDU filologiya fakulteti 2 -kurs talabasi

**Annotatsiya.** *O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishi uning nufuzini yanada yuqori ko'taradi. Davlat, xalq xo'jaligi, madaniyat hamda san'at sohasida uning qo'llanish ko'lami kengaydi. Natijada, rusiyazon shaxslarda bu tilning nozik qirralarini yanada chuqurroq o'rganish uchun ehtiyoj tug'ildi. O'zbek tilining nozik qirralaridan biri nutqdagi sinonimiya masalasidir. Darhaqiqat, sinonimlarga xos qo'shimcha ma'no bo'yoqlarini to'la egallamay turib chiroyli, mantiqli, aniq, madaniy nutq so'zlash amrimahol.*

**Kalit so'zlar:** leksik sinonimlar, frazeologik sinonimlar, morfologik sinonimlar, sintaktik sinonimlar

Ma'lumki, sinonimlar leksik, frazeologik va grammatik (morfologik, sintaktik) ko'rinishlarga ega. Biz bu o'rinda rus va o'zbek tillarga leksik sinonimiyaga xos ma'no nozikliklarini chog'ishtirish orqali talabalarning nutq boyligini takomillashtirish haqida fikr yuritimiz.

O'zbek tilida ham, rus tilida ham sinonimlar, eng avvalo, shu tillarning ichki imkoniyatlari asosida paydo bo'lgan so'zlar hamda boshqa tillardan olingan so'zlar asosida paydo bo'ladi. Shuning uchun talabalarga biror so'zning sinonimini izlashda quyidagi ko'rgazmaga ular diqqatini jalb qilamiz.

Rus tilida: 1. лицо, образ, рожа, морда, печаль, грусть, горесть, скорбь, тоска.

O'zbek tilida: 1. yuz, bet, aft, bashara, turq, chehra, oraz.

Jadvaldagi ikki tilga xos sinonim soʻzlarni qiyoslab, nutqiy aloqa jarayonida har bir sinonimik qatordagi soʻzlarning qoʻshimcha maʼno boʻyogʻini toʻla anglagan holda oʻz oʻrnida tanlab qoʻllashni mashq qildiramiz.

Ikkinchi bir oʻrinda, nutq madaniyati, soʻzlash madaniyati bilan bevosita bogʻliq boʻlgan «pardali soʻzlar»— evfemizmlar va oddiy soʻzlar sinonimiyasi haqida fikr yuritib, ikkinchi koʻrgazmani talabalar hukmiga havola qilamiz:

Rus tili:

1. Вместословау мер:  
скончался, отправился к  
праотцам, протянул ноги

Oʻzbek tili:

1. Oʻldi soʻzi oʻrnida koʻz yumdi,  
dunyodan oʻtdi, qazo qildi, va  
fot etdi.

Sinonimlar badiiy nutqda tasvirlash vositasi boʻlib xizmat qiladi. Yozuvchilar sinonimlar vositasida kishilar xarakterini, voqea – hodisalarni, manzaralarni aniq va ravshan, jozibali qilib tasvirlaydilar. Sinonimlardagi bunday xususiyatlarni XV asrdayoq A.Navoiy sezgan edi. Oʻzining «Muhokamat ul-lugʻatayn» asarida «ichmoq» soʻzining oltita, «yigʻlamoq» soʻzining yettita sinonimini keltiradi: yigʻlamoq, ingramoq, singramoq, siqtamoq, oʻqimoq, inichkirmoq, hoy-hoy yigʻlamoq. A.Navoiy bu sinonimlar bir-biridan oʻzining nozik maʼno ottenkalari bilan farq qilinishini sheʼriy misralar bilan tushuntiradi.

Dard bilan yashirin, ohista yigʻlamoq, «ingramoq», «singramoq»dir,

Istasam davr ahlidin ishqingni pinhon aylamoq,

Kechalar goh ingramoq odatiy, goh singramoq.

Qattiq ovoz bilan baqirib yigʻlashga hoy-hoy yigʻlamoq deydilar. Navoiy, ul gun uchun hoy-hoy yigʻlama koʻp.

Darsda kulmoq, iljaymoq, tirjaymoq, xoxolamoq, qiqirlamoq kabi sinonimlar ishtirok qilgan soʻzlar vositasida turli nutq uslublariga xos gaplar tuzdiriladi. Uy vazifasi qilib, «chiroyli, goʻzal, xushroʻy, yoqimli, koʻrkam» soʻzlari ishtirok etgan kichik hikoya yozib kelish topshiriladi.

Dars xulosasida talabalarga rus va oʻzbek tillari sinonimlarga boy ekanligi, ularning har biri oʻz maʼno qirrasiga ega ekanligi taʼkidlanib, ularni ana shu maʼno qirralarni toʻla anglab, oʻz nutq boyligi va madaniyatini yanada yuksaltirishlariga daʼvat etiladi.

#### Adabiyotlar:

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yuldasheva D. Hozirgi oʻzbek tili. Darslik. – Buxoro: Durdon, 2021.–555 b.
2. Rasulov R., Narziyev M. Leksikologiyani oʻrganish. –T., 1992.
3. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/119111> Tilshunoslikka kirish
4. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/119110> Hozirgi oʻzbek tili

## ШАХСЛАРАРО МУЛОҚОТ ТИЗИМИ

DOI: 10.53885/edinres.2021.43.91.079

*Ш.Х.Шаҳобиддинова,*

АДУ профессори, филология фанлари доктори

*Д.А.Рустамов,*

АДУ доценти, филология фанлари бўйича фалсафа

доктори (PhD)

Инсоннинг моҳияти мулоқотда очилади. Мулоқот инсонни ижтимоийлаштиради. Шунингдек, айнан жамоа инсонни мулоқотга чорлайди. Жамият ва йирик ижтимоий гуруҳлар таъсирининг шахсга бевосита йўналтирувчиси кичик гуруҳдир. Бу бирон бир умумий фаолият билан шуғулланадиган ва бир-бири билан бевосита мулоқотда бўлган одамларнинг (2-3 дан 20-30 кишигача) кичик бирлашмаси, жамиятнинг бошланғич бирлигидир. Инсон ҳаётининг катта қисмини шу гуруҳларда ўтказди. Инсон учун энг муҳим бўлган **кичик гуруҳларга оила, мактаб синфлари, меҳнат жамоаси, яқин дўстлар жамоаси, танишлар гуруҳи ва бошқалар** киради.

Кичик гуруҳлар ҳажми, индивидуал таркиби, қадриятлари, аъзолар ўртасидаги муносабатлар табиати ва тузилиши, нормалари ва қоидалари, фаолиятнинг мақсади ва мазмуни жиҳатидан турлича бўлиши мумкин.

Шахслараро мулоқот тизими, шахсий маълумотлар алмашинуви таъминловчи коммуникация каналлари, шахслараро муносабатларнинг ахлоқий ва эмоционал жиҳатлари гуруҳнинг **психологик иқлими** дейилади [2; 532]. Биз бу атамани **этнопсихоллингвистик иқлим** деб аташни маъқул деб ҳисоблаймиз. Чунки шахслараро мулоқот характерини этник, психологик ва лингвистик омиллар узвийлиги белгилаб бериши замонавий тадқиқотларда ўз исботни топмоқда.

Р.С.Немовнинг таъкидлашича, гуруҳ ичидаги муносабатлар таркибида ҳар бир инсоннинг ўрнини аниқроқ тавсифлаш учун психологлар «позиция» («ўрин»), «мақом», «ички муносабат» ва «рол» тушунчаларидан фойдаланадилар [2; 533].

**Позиция** – бу муносабатларнинг маълум бир қуйи тизимидаги шахснинг расмий ўрнини билдирадиган тушунча. У одамнинг гуруҳнинг бошқа аъзолари билан муносабатини, уларнинг ҳаракатларига потенциал таъсир даражасини, мавқеини белгилайди [3].

Позициядан фарқли ўларок, шахснинг **мақоми** унинг гуруҳ ичидаги муносабатлар тизимидаги позициясининг ҳақиқий ижтимоий-психологик характеристикаси, қолган иштирокчиларга нисбатан ҳақиқий вақолат даражасини белгилайди [3]. Масалан, ўзбек оилаларида етакчилик мақоми отада бўлиб келган.

*Бедазорни иккинчи марта айланиб чиқишганда, ўлжанинг сони ўн бештага етди. Обид аканинг кайфи чоғ эди.*

- Қалай, ов тузукми? - деди нонушта қилгани ўтиришганда,
- Зўр, - жилмайди Абдулла.
- Аслида ишимни ташлаб овчиликка ўтиб қўя қолсам ҳам бўлар экан.
- Ҳали ҳам трактор ҳайдайсизми?
- Сал баландроқдан кел. Ҳамма **тракторчиларнинг бошлигиман** ҳозир.
- Ўсибсиз-да, - деди Абдулла иштаҳа билан гўшт ер экан.
- Ўсганда қандоқ! Ўн йилда **бригадир** бўлдим, яна йигирма йилдан кейин **раис** бўлсам ажаб эмас.

*Иккови кулишди. (Ў.Умарбеков «Одам бўлиш қийин»)*

Гуруҳ ичидаги муносабатлар тизимидаги инсоннинг **ички муносабати** унинг ҳақиқий мавқеи, обрўси ва гуруҳнинг бошқа аъзоларига таъсир даражаси қандай баҳоланишини шахсий, субъектив идрок этишидир. Ҳақиқий ҳолат ва инсоннинг ўзи томонидан идрок этилиши мос келиши ёки фарқ қилиши мумкин.

*Эсингдами, ўглинг Хусанхонни айтиб келиб, йиглади?! Нега йиғлаганини энди билдингми? Хусанхон ўшанда, боролмайман, деган. Шунга йиглади ўглинг. Агар шундай демаганида ҳалигача келарди.*

- Энди, айтиб кел, деманг, - деди Шаҳодат опа. - Яна қийналади.
- Айтмайман. Мен ҳеч қачон Хусанхон шундай қилади, деб ўйламаган эдим. Ўттиз йиллик ўртоқ-а...
- Қўйинг, ўйламанг, - юпатди эрини Шаҳодат опа. - Соғайиб кетганингизда ўзи уялиб қолади. Бахтимизга ўглингизнинг умри узоқ бўлсин.
- Ўшанда бекор қилдим айтиб кел деб, - хўрсинди Фафуржон ака. - Ўшандан бери хомуш, серфикр бўлиб қолди.

*Чиндан ҳам шу воқеа Абдуллани ўзгартириб юборган эди. У энди фақат ўзига ишонилганга, дунёда ёмон одамлар йўқ эмаслигига, яхши ўқиб, катта обрўли одам бўлиб этишилганга астойдил қарор қилган эди. (Ў.Умарбеков «Одам бўлиш қийин»)*

Шахснинг гуруҳдаги мавқеини тавсифловчи навбатдаги тушунча – бу **роль**. Ижтимоий психологияда роль гуруҳда маълум бир позицияни эгаллаб турган кишидан кутилган хатти-ҳаракатлар меъёри ва жамоа томонидан тан олинган намунаси сифатида қаралади. Ролни расмий позиция орқали ёки гуруҳ томонидан белгиланиши мумкин.

Одамлар бир-бирлари билан мулоқот қилишда турли хил ролга киришадилар: оилада: (ота-онасига нисбатан ўғил, аёлига нисбатан эр, фарзандларига нисбатан ота) мактабда (ўқитувчи, ўқувчи), дўконда (сотувчи, олувчи), клиникада (шифокор, ҳамшира, бемор, хизматчи) ва ҳоказо.

Ижтимоий роль – бу ижтимоий шаклланган, жумладан, нутқий фаолиятни ҳам ўз ичига олган хатти-ҳаракатлар мажмуи. Қайси вазиятларда қайси ролларни бажариш, қандай тилда гаплашиш кераклиги ҳақидаги тасаввурлар инсон улғайгани сари шакллана боради. Бу лингвистик ижтимоийлашув ҳисобланади [1; 41] ва турли ижтимоий доиралардаги мулоқот жараёнида юзага чиқади.

## АДАБИЁТЛАР

1. Бебриш Н.Н, Жильцова Т.П. Социальная дифференциация языка города: учебное пособие / Краснояр. гос. пед. ун-т им. В.П. Астафьева. – Красноярск: 2007. - С. 41. Немов Р.С. Психология: Учебник для студ. высш. пед. учеб. заведений: В. 3.
2. кн. - 4-е изд. – М.: ВЛАДОС, 2003. – С. 528-529.
3. Позиция // <https://www.psychologies.ru/glossary/15/pozitsiya/>
4. Социальные роли и статусы // <https://foxford.ru/wiki/obschestvoznanie/sotsialnye-rol-i-statusy>.

### JON STEYNBKNING “JAVOHIR” ASARI XUSUSIDA

DOI: 10.53885/edinres.2021.84.10.080

*Ergasheva Maftuna Bayramaliyevna*

Buxoro davlat universiteti talabasi

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada Nobel mukofoti sovrindori Jon Steynbekning “The Pearl” (“Javohir”) asarida ilgari surilgan mavzular tahlilga tortilgan.*

**Kalit soʻzlar:** *Jon Steynbek, qissa, jamiyat, gʻoya, manaviyat, qahramon, adabiyotshunos, mavzu.*

Jon Steynbek AQSh adabiyotida eng muvaffaqiyatli va koʻp sonli oʻquvchilariga ega yozuvchilaridan biridir. A.Mulyarchik, M.Mendelson singari rus adabiyotshunoslari, Tetsumaro Hyashi singari yapon hamda Rafrat Shakil kabi hind munaqqidlari aynan yozuvchi qissalarining badiiy xususiyatlari toʻgʻrisida qimmatli fikrlar bildirishgan. Mazkur maqolada ham “Javohir” qissasining oʻziga xos badiiy qirralari xususida ayrim mulohazalar bayon etiladi.

“Javohir” – jahon adabiyotining ajoyib durdona asarlaridan biri sifatida bejiz tan olinmagan. Chunki bu dramatik qissada inson ozodligi, erki masalasining muhimligi oʻziga xos shaklda badiiy talqin etiladi. Unda mustamlaka tuzumi sharoitida yashayotgan insonlarning erksizligi, nochor hayoti, achchiq qismati faol aks ettiriladi. “Javohir”dagi voqealar ingliz mustamlakachilari tasarrufidagi Meksika sohillarida istiqomat qiluvchi marvarid izlovchilar oilasi hayotidan olib yozilgan. Qissaning bosh qahramoni insoniylik erki mustamlakachilar tomonidan boʻgʻib qoʻyilgan, juda nochor kun kechiruvchi oddiy xalqning tipik vakili – Kino va uning rafiqasi Xuana misolida tasvirlanadi.

Muallif asarlarida keng koʻlamda ijtimoiy, siyosiy, madaniy va axloqiy muammolarni yoritish bilan bir qatorda, amerikaliklarning quyi va oʻrta sinflarini mubolagʻalarsiz, oʻz holicha tasvirlay oldi. Adibning “Javohir” qissasi jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizliklarni aks ettiruvchi haroratli qissadir. Bu asarning yozilishiga Steynbekning Meksika gʻarbiy sohillariga ikki oylik sayohatidan olgan taassurotlari sabab boʻlgan. Unda manaviyat unutilib, pul, boylik mohiyati bilan inson mohiyati qorishib ketgan jamiyatda kechgan fojiali voqealar haqida hikoya qilinadi. Tanqidchilarning fikricha, “Javohir” aslida, gʻoyaviy va badiiy jihatdan Steynbek asarlarining orasida eng mustahkam qissalardan biridir [4, 18]. M.Mendelsonning fikricha, javohir – bu nafaqat insonlar uchun goʻzallik va jozibadorlik, balki ularning oʻlimiga sabab boʻladigan yovuzlik va hasadning ildizidir. Meksikalik oila Kino, Xuana va chaqaloq Koyotito dunyo ochkoʻzligining begunoh qurbonlaridir. Shu bilan birga, Mendelson Kinoning adolatsizlikka



qarshi kurashish uchun tayyor ekanligini alohida takidlaydi [4, 18] Yozuvchi ishonchli tarzda jamiyatdagi ajoyibotlar ham qayg‘u va azob-uqubatlarga sabab bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Marvarid maftunkorligi sababli u juda qadrlı va boylikning halokatli kuchini o‘zida mujassam etadi. Yovuz insonlar marvaridni Kinodan tortib olishga urinib, uning ortidan tushishadi. Steynbek shunday yozadi: *“The news stirred up something infinitely black and evil in the town; the black distillate was like the scorpion, or like hunger in the smell of food, or like loneliness when love is withheld. The poison sacs of the town began to manufacture venom, and the town swelled and puffed with the pressure of it”* [6, 30]. Mazkur parchada muallif bosh qahramon hayotidagi o‘zgarishlar, taqdirining ayanchli tus olishini yangilikning tarqalishi misolida tasvirlaydi. Ulkan marvarid haqida sovuq xabar tarqalishi, inson tanasida zahar tarqashiga mengzaladi. Va har ikkala holatda ham inson hayotiga tahdid soluvchi voqeaga ishora qilinadi. Kino zo‘ravonlikka zo‘ravonlik bilan javob beradi, ammo Steynbek qahramonini ayblamaydi. Aksincha, adib jamiyatdagi insonlarni naqadar manfaatparastligini yanada ochiqroq tasvirlaydi. Dunyodagi eng ulkan marvarid topilganligi haqidagi xabarni turli ijtimoiy tabaqa vakillari turlicha qabul qilib, uni har xil talqin qiladilar. Bu xabarni eshitganlarning hammasi undan manfaat izlay boshlaydi. Shu boisdan, o‘zi va Kino o‘rtasidagi munosabatini yaxshilash haqida o‘ylay boshlaydi. Masalan, ruhoniylar bunday marvarid qancha turishi mumkinligini taxmin qilar ekan, Kinoning bolasini cho‘qintirgan-cho‘qintirmaganligini, Kino va xotiniga nikoh o‘qiganmi-yo‘qligini eslashga urinadi. Xabar do‘kon sohiblariga yetib kelganda, ular do‘kon taxmanlarida uzoq turib qolgan erkaklar kiyimlariga nazar tashlaydilar.

Qissada shu kunning dolzarb muammosi – insonlar orasida ma‘naviyatning tanazzuli masalasi xalq og‘zaki ijodi orqali yetib kelgan afsona va rivoyatlar bilan singib, ajib bir badiiy yaxlitlikni tashkil etadi. Asarda inson, koinot, ona yer, suv, umuman tabiat o‘zaro yaxlit aloqadorlikda bir butunlikda badiiy ifoda etiladi. Unda poklik va adolat, xunrezlik va uning axloqiy ildizlari milliy an‘analar va insoniy qadriyatlar badiiy talqin qilinadi. Adib asarida oiladagi bola obrazining, ya‘ni toza umid va insoniy poklikning halokatini bejiz tasvirlamaydi. Jon Steynbek asarida buni Kinoning yolg‘iz o‘g‘li Koyotitoning o‘limi misolida aks ettiradi.

Qissadagi e‘tiborga molik obrazlardan biri Doktordir. U boylikka chanqoqlik ramzi sifatida tasvirlanadi. Uning barcha harakati insonlar hayotini saqlash emas, balki moddiy manfaatga erishishga qaratiladi. Jamiyatdagi bunday kimsalarga nisbatan oddiy xalqning qalbida nafrat mujassam, ammo ular tobe bo‘lganligi tufayli qarshi isyon ko‘tara olmaydi. *“Kino hesitated a moment. This doctor was not of his people. This doctor was of a race which for nearly four hundred years had beaten and starved and robbed and despised Kino's race, and frightened it too, so that the indigene came humbly to the door. And as always when he came near to one of this race, Kino felt weak and afraid and angry at the same time. Rage and terror went together. He could kill the doctor more easily than he could talk to him, for all of the doctor's race spoke to all of Kino's race as though they were simple animals.”* [6, 12] Steynbek mazkur parchada mustamlaka tuzum sharoitida inson qadrining toptalishini namoyon etadi. Bosh qahramon Kino ham bunday toifadagi kishilar anchadan buyon oddiy xalqning xo‘rlanishiga sabab bo‘layotganini bilsa ham, ular bilan taqqoslanganda qadrsiz bir kimsa ekanini, jonzotga ko‘rsatilgan muomala va munosabatda bo‘linsa ham, hech nima qila olmasligini yaxshi anglaydi.

Kino dunyodagi eng ulkan marvaridni topib olgan kundan boshlab, xayoli o‘zgaradi. U tizginsiz orzular girdobiga g‘arq bo‘ladi. Kino hali topilgan marvaridni sotmay turib, o‘zini boy-badavlat his etib, turli orzularga beriladi. *“My son will read and open the books, and my son will write and will know writing. And my son will make numbers, and these things will make us free because he will know - he will know and through him we will know”* [6, 33] Mazkur parchada Kinoning orzular olami qalamga olinadi. Kino marvaridda goh Koyotitoni ko‘tarib olgan Xuana va o‘zining cherkovdagi baland mehrob oldida tiz cho‘kib turganini, ruhoniylar ularni nikohlayotganini ko‘z oldiga keltiradi. Goh u javohirda o‘zlarining yangi, hashamatli kiyimlarda bo‘lishlarini ko‘radi. Goh o‘zi ega bo‘lishni juda-juda istagan boshqa buyumlar dastasi, xalqachali yangi temir gardun, ov miltigi haqida xayol surib, marvaridga qaraydi. Goh uni sotib, puliga yolg‘iz o‘g‘li Koyotitoni o‘qimishli qilishni niyat qiladi. Ammo Kino inson ozodligi

bo'g'ib qo'yilgan, haq-huquqi, erki toptalgan, mustamlaka yurtda, mustabid tuzumda yashayotganligi tufayli hayotiga tasodifan kirib kelgan boylik o'zi istaganicha, o'zi bilganicha foydalana olmaydi. Bunga hukmron tuzum vakillari yo'l bermaydi. Qaytaga bunday hayotda Kino tasodifan erishgan boyligi tufayli kulfatga, g'amga duch keladi.

Kino va va undan qimmatbaho marvaridni tortib olishni istaganlar o'rtasidagi ziddiyat keskin shaklda ifodalanadi. Steynbekning yozishicha, Kino bilan bo'lib o'tgan voqealar boshqa asarlarda bo'lgani kabi inson qalbiga singib ketgan yorug'lik va zulmat, oq va qora, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurashdir [6, 1]. Ushbu qissada insonlar baxtli va xotirjam xayot kechirishi uchun tabiatdagi hayoti va jamiyatdagi o'rni uchun soddalik va shu bilan birga murakkab tanlovi borasida so'z boradi. Steynbek ushbu asar orqali boylik ortidan quvish qayg'u va fojia bilan yakun topishini mahorat bilan ko'rsatadi. Marvarid – bu inson dilemmasi; insonlarni jalb etgan boylikning azobli tasviri [3].

Xulosa qilib aytganda, “Javohir” barcha asarlar qatori o'zida oddiy mehnatkash kishilar taqdirini badiiy aks ettiradi. Unda sodda kishilar boshidan kechgan turmush voqealari, ularning orzu-intilishlari, umid va armonlari, baxt va baxtsizliklari misolida butun insoniyatni tashvishlantirayotgan muammolar ko'tarib chiqiladi. “Javohir” qissasida Jon Steynbek inson ozodlikdan mahrum, mustamlaka va mustabid tuzumda yashaganda tasodifan hayotiga kirib kelgan kulfat va boylik uni qay ko'ylarga solgani haqida hikoya qilinadi. Asardagi samimiy harorat, hissiy yolqin kitobxonni o'z og'ushiga oladi. Bosh qahramon Kino qalb qulog'i bilan ilg'agan kuyni asar oxirigacha birga eshitib, u bilan barcha og'ir va sarxush damlarni birga kechiradi, beixtiyor kitobxon ham o'z hayoti davomida hamroh bo'layotgan muqaddas kuyini kashf etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Батулин С.С. (1984) Джон Стейнбек и традиции американской литературы. – М.: Художественная литература.
2. Ganieva, O. K. (2020). The essential literary criticism of John Steinbeck's “The pearl” and Odil Yakubov's “Mukaddas”. ISJ Theoretical & Applied Science, 05 (85), 747-750.
3. Manish Singh (2013) Deconstructing America: Reading John Steinbeck; Department Of English Aligarh Muslim University Aligarh (India)
4. Мендельсон М. О (1963) Джоне Стейнбеке и двух его повестях // Стейнбек Дж. Жемчужина; Квартал Тортилья Флэт: Повести. – М.: Гослитиздат.
5. Steinbeck J. (1970) “The Pearl” New York: “Bantam Books”.

#### **O'ZBEK TILINING INTRALINGVAL LAKUNALARI**

**DOI: 10.53885/edinres.2021.28.36.057**

*Aziza Raimjanovna Shaymardanova*

Termiz davlat universiteti o'zbek til va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada lakuna tushunchasi, uning tasnifi hamda muloqotda namoyon bo'lishi to'g'risida fikr yuritilgan.

**Аннотация:** В статье рассматривается понятие лакуны, ее классификация и проявление в коммуникации.

**Abstract:** The article discusses the concept of "lacuna", its classification, as well as the manifestation of a lacuna in the communication.

**Kalit so'zlar:** lakuna, muqobilsiz leksika, muloqot, tushunchaning ifodalanishi.

**Ключевые слова:** лакуна, без эквивалентная лексика, коммуникация, выражение концепции.

**Key words:** lacuna, in equivalent vocabulary, communication, communication, expression of the concept.

Lakunarlik hodisasi tilning leksik tizimining o'ziga xos xususiyatidir. Bu hodisa bevosita tilning tizimli tabiati bilan bog'liq bo'lib, uni tilshunoslar turlicha ta'riflashadi. Biz turli qarashlarni o'rganib, lakunarlik deganda, tushuncha bor, lekin nomlovchi so'zning yo'qligi ("0" shakl), tushuncha va nomlovchi so'z bor, ammo hammaga ma'lum emasligi kabi qarashlarga to'xtaldik.

Tillararo lakunalar faqat bir til birligining boshqa til uchun begonaligi sifatida tasvirlangan bo'lib, qiyoslanayotgan tillar ichida ajralib turadi. Bunday lakunalar, boshqa hodisalardan ko'ra, ma'lum bir tilning xususiyatlarini boshqasiga nisbatan tavsiflaydi. Lakunarlik hodisasi dunyoning deyarli barcha tillarida mavjudligini ta'kidlashimiz joizdir.

Jahon tilshunosligida lakunar birliklarni tasniflash va konseptlar asosida tadqiq etish tilshunoslar diqqatidan chetda qolmagan bo'lib, lakunarlik muammosi qiziqish, yangi izlanishlarni talab qiladi va oldinda turgan masalalardan sanaladi. Bu esa til sistemasida qaysi elementlarning zaifligi va unga begona ekanligini hisobga olgan holda belgilanadi hamda uning holati, mavjudligi va faoliyati har bir sinxron bo'lagida "to'liqligi" hisobga olingan holda baholanadi. Ushbu omillar mazkur tizimning o'xshash tizimlarga nisbatan o'ziga xosligini uning funksiyasi, keyingi rivojlanish tendensiyalarini ham ma'lum darajada belgilaydi.

Lakunalar milliylikning o'zga xos ko'rinishi bo'lib, tillar qiyoslanganda namoyon bo'ladi. Madaniyatshunoslik kontekstida uning tabiati, mohiyati va vazifalarini ochib berish muhim ahamiyat kasb etib, falsafiy, lingvistik, etnopsixolingvistik va lingvokulturologik tadqiqotlar bilan bog'liq holda, obyekt sifatida olinib, tahlil qilishni talab etadi. Shu sababli, tilning sistemaviy unsuri hisoblangan ushbu lingvomadaniy birliklarning tadqiqi, ayniqsa, leksikologiya, leksikografiya, lingvokulturalogiyada tez-tez ko'zga tashlanmoqda.

Dunyo lingvistikasida ushbu atama olimlar tomonidan bir-biriga zid ravishda talqin qilinib, madaniy birlik sifatida semantik, sintaktik va pragmatik jihatdan tekshirish, turlar asosida tasniflash muammosi to'liq hal etilganicha yo'q. O'z navbatida, bir qancha tillarni qiyoslash natijasida lakunalogiya fanining rivojlanishi jadal kechayotganiga qaramay, unga xos bo'lgan tushunchaviy-terminologik jihatlarini ishlab chiqish, til va madaniyatlar orasidagi farqlarni ko'rsatib, kommunikatsiya jarayondagi to'siqlarni yengish o'z yechimlarini kutayotgan muhim masalalardan biri bo'lib turibdi.

Tillararo lakunalar bilan ichki (intralingual) lakunalar o'zaro farq qiladi. Ichki (intralingual) turdagi lakunalar hali tilshunoslar tomonidan aniq tadqiq etilganicha yo'q.

Ushbu masalani o'rganish zarurligi tilshunos olim G.V.Bikova tomonidan ilgari surilgan bo'lib, ichki lakunarlik hodisasining lingvistik mohiyatini ochib berishda muhim hissa qo'shgan.

Intralingvistik lakunalar bir til(monolingual) doirasida aniqlanadi va u tushunchani ifodalash uchun so'zning yo'qligida kuzatiladi. Masalan: Yaqinda turmush qurganlarni *yosh oila* deymiz, ammo uzoq vaqt turmush kechirganlarni ifodalash uchun so'z yoki birikma topa olmaymiz.

Har bir tilda semantik jihatdan o'xshash leksemalar mavjud bo'lishi mumkin. Bu bir necha tillarni qiyoslanganda ko'zga tashlanadi. O'z navbatda, bir tilning leksik va frazeologik tizimida ko'plab ichki lakunalarini, ya'ni bo'sh, to'ldirilmagan o'rinlar mavjudligini ham ta'kidlash joizdir. Misol uchun, o'zbek tilida tez-tez ishlatiladigan so'z *qog'ozboz(lik)* so'zini [f. کاغذباز – *bo'lar-bo'lmasga xat yozishni yaxshi ko'radigan, qog'ozbozlik – amalda emas, qog'ozdagina ish bitirish, qog'ozboz kabi ish tutish*] olsak, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da amaliy ish o'rniga keraksiz yozishmalar olib borish, qarorlar chiqarish bilan ovora bo'ladigan, shu tarzda ishlashni yaxshi ko'radigan shaxs, rasmiyatchi ma'nosida izohlanilgan. Ish *bo'lmaydi, kimki bo'lsa qog'ozboz, Qog'ozbozlik bilan o'tgay qishu yoz.* (Habibiy)[ O'TIL, 358-bet]. Xuddi shunday, *majlisboz* –majlis o'tkazishni yaxshi ko'radigan, majlisbozlikka berilgan odam [O'TIL, 523-bet.]. **Majlisbozlik** mavhum ot bo'lib, biror sabab-maqсад bilan bir yerga yig'ilish ma'nosini anglatadigan tojikcha *boxtan* fe'lining *boz* hozirgi zamon asosini (TjRS, 82, 75) qo'shib hosil qilingan sifatga o'zbek tilida –lik qo'shimchasini qo'shib yasalgan; bo'lar-bo'lmasga majlis o'tkazaverish ma'nosini anglatadi (O'TIL, I, 440) [Rahmatullaev Sh. 129-b.]. *Maynavozchilik* (oti o'zbek tilida tovush o'zgarishlariga uchragan. Aslida, *maynabozchilik*

[Rahmatullaev Sh. 130-b.) Yuqorida keltirilgan *qog'ozboz*, *majlisboz*, *maynavoz* kabi so'zlarning zidi qanday ataladi?

Hozircha bu tushunchalar leksik birliklar bilan to'ldirilgan va u "bo'sh" emas, ya'ni hozirgi real vaziyat bilan izohlanadigan ichki lingvistik lakunadir. So'zlarning antonimik munosabatlariga e'tibor qaratsak, ayrim hollarda tushuncha bor lekin, atovchi so'zning mavjudmasligiga duch kelamiz. Aytaylik, suvsagan odam *chanqadim* deydi. Biroq choy, suv, qahva ichgisi kelmagan odamga shu ichimlik uzatilsa nima deydi? Biroz sovuq qotsak, isinishimiz kerak, deymiz. Kun isib, terlab boshlagan odam nima deydi? Turmush qurishga shoshilganlarni "*xotinsirabdi*", "*ersirabdi*" deyishadi. Umuman oila qurish istagi yo'qlar nima deb ataladi. *Oilaparvar*, *bolajon* so'zining (oilaga, xalqqa nisbatan) zidi nima? Bunda tushunchalar bor, ammo ifodalovchi so'z yo'q, ya'ni "0" shaklda. Tirbandlikning zidi– 0, biz o'z ishi, kasbi, hunarining texnikasini mukammal egallagan odamni (*ishbilarmon*, *mohir*, *chevar*, *usta*) deymiz, ammo o'z kasbini, biznesini to'g'ri o'zlashtirmagan odamlarni nomlash uchun hech qanday so'z topa olmaymiz. *Ishtonbog'* bu – rezinkadir, ammo boshqa kiyimlarning turli joylarida ham rezinka qo'yilishi mumkin (masalan, ko'ylakning yengiga, bel qismiga...) ular qanday nomlanadi?

Tildagi ichki voqelanuvchi lakunalar bir til paradigmaları ichida aniqlanadi. Bunga "*chilla*" so'zini (yozgi chilla va qishki chillaning alohida nomlari mavjudmikan, ular qanday ataladi?) misol sifatida keltirish mumkin.

Tilimizda ot so'z turkumiga oid lakunalar ko'proq uchraydi. Masalan, o'zbek tilidagi "opa" so'zi "*egachi*" so'zi bilan ifodalanadi. Bir ota-onadan tug'ilgan qizlardan kattasi (kichigiga nisbatan; tarixan va ba'zi shevalarda o'g'il ukaga nisbatan ham qo'llanadi). *Zaynab egachisi Xushruydan yetti yosh chamasi kichik edi*. (A.Qodiriy, "O'tgan kunlar"). *Bobur Samarqandga ketishda o'z onasi va egachisiga «O'shdagi hujradan xabar olursizlar», deb tayinlab ketgan edi*. (P. Qodirov, "Yulduzli tunlar") [ЎТИЛ, 19-6]. Egachi– qizning kattasi [Navoiy A., 2014:23] Egachi– "yegiche" termini esa qadimgi "ög" (ona) terminiga "acha" terminini qo'shish natijasida ög + acha, ögacha, egacha, egachi formasida shakllangan bo'lishi mumkin. Bu so'z ham keyingi davrlarda so'z yasash natijasida vujudga kelgandir. Chunki qadimgi yodgorliklarda bu so'z termin yoki so'z turkumi sifatida ham uchramaydi. Egachi (yegiche) terminlari asosan bir ota-onadan tug'ilgan, sutdosh, yosh jihatidan katta ayol jinsidagi qarindoshiga nisbatan, kichik yoshdagi uka, singillari tomonidan u shaxsning o'ziga nisbatan kim ekanligini ko'rsatuvchi termindir [Исmoilов И.А.,1966:66]. Turli tillardagi qon-qarindoshlik atamalarini chog'ishtirish jarayonida bu singari lakunalar ko'p uchraydi. Masalan, "*abog'a*"–otaning og'a-inisi, "*tag'oyi*"– onaning og'a-inisi (A.N. "Muhokamat ul-lug'atayin" 23-b.) kabi so'zlarni keltirishimiz mumkin. Boshqa tillarda bu tushunchalarga nisbatan ishlatiladigan murojaat so'zi mavjudmikan.

Introlingvistik holatda leksikadagi lakunarlik hodisasi, albatta, qiziq jarayon, ammo ichki tillardagi lakunalarni izlash va aniqlash juda qiyin. Sababi o'zbek tilida ichki lingvistik lakunalarni aniqlash uchun hech qanday metodologiya ishlab chiqilmagan.

Adabiyotlar:

1. ЎТИЛ, 358-бет.
2. ЎТИЛ, 523-бет.
3. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yuldasheva D. Hozirgi o'zbek tili. Darslik. – Buxoro: Durdona, 2021.–555.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. –Т., 2009. –Б.130.
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. ИИИ (Форсча, тожикча бирликлар ва улар билан ҳосилалар). "Университет" нашриёти. –Т.: 2009. –Б.176
6. ЎТИЛ, 19-б.
7. Навоий А. Муҳокамат ул-луғатайин. –Тошкент, "Тафаккур", 2014, 23-бет.
8. Исmoilов И.А. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. (ўзбек, уйғур, қозок, қирғиз, қорақалпоқ, туркман тиллари материаллари асосида). –Тошкент: Фан, 1966, 66-б.

## ТЕРМИН НЕОЛОГИЗМЛАР ХУСУСИДА

DOI: 10.53885/edinres.2021.42.14.058

*Оттабек Улашевич Шукуров*

Қарши давлат университети доценти,  
ф.ф.н.

**Аннотация.** *Мақолада термин неологизмлар ўрганилган бўлиб, ўзлашишининг бугунги кундаги ҳолати таҳлил этилган. Унда фанлар кескин тармоқланаётгани ва турли фанлар яқинлигида оралиқ фанлар юзага келиши билан боғлиқ масалалар ёритилган. Таҳлиллар ўзбек тили лексикаси доирасида бўлиб, неологизмларни ўзлашишининг асосий омили сифатида глобаллашув феномени кўрсатилган.*

**Калит сўзлар:** *термин неологизм, ўзлаштириши, ўзбек тили, тилларнинг ўзаро таъсири, тил бойитиши, ижтимоий тараққиёт, глобаллашув*

Тараққиёт фан ва унинг соҳалари ривожига бевосита боғлиқ ҳодисадир. Инсоният XX асргача бўлган даврда чегараланган фанлар доирасидагина ихтиролар қилди, ўзлаштирган билимларни амалиётда қўлади. XX асрда фанлар чегараси анча кенгайди, дифференциациялашди. Улар асосида янги кашфиётлар юзага келди. Фанларнинг туташ нуқталари белгилаб олинди, ўзаро алоқадорлик кучайди. Янги фанлар янги инновацияларга асос бўлди. XXI аср эса нанотехнологиялар даври билан бошланди. Ўтган юз йилликдаги соҳаларо дифференциациялашув янги интеграциялашувга йўл очди. Фанлар, йўналишлар, тармоқлар, ихтисосликлар ва ҳоказоларнинг бўлиниши олимларни ўзига тобаро жалб қила бошлади. Уларнинг ўз чегаралари, майдонлари аниқлана бошланди. Тадқиқотларнинг юксак самарадорлиги фанлар, соҳаларнинг нозик туташ нуқталари ва уларнинг оралиғидаги илмий изланишларни талаб қилиши маълум бўлди. Нанофан, нанотехнология, наноэлектроника, ҳатто нанолингвистика терминлари инглизча, русча, ўрни билан ўзбекча мақолаларда, монографияларда учраши табиий ҳолга айлана бошлади.

Фанлар интеграцияси жараёни шунчалик тезлашдики, бир вақтнинг ўзида ғоялар ҳам назарияда, ҳам амалиётда қўллана бошлади. Янги ғоялар татбиқи ишлаб чиқаришни тезлаштириб юборган бўлса, янги-янги соҳаларга доир монографиялар ҳам қичқа муддатларда ёзила бошланди. Соҳалар миқдори кенгайиб, янги соҳаларни номлайдиган терминлар ҳам тиллар кесимида ранг-баранг кўринишларни касб эта бошлади.

Фан соҳаларининг сони масаласида эса аниқ рақамлар йўқ. Интернет саҳифаларида уларнинг номини биргина *-ology* шакли билан ҳосил қилувчи 1078 та термин (1) кўрсатилган. Бироқ бу соҳалар сонини аниқ кўрсатмайди. Негаки бу шаклсиз ҳам соҳа номлари топилиши мумкин. Бундан ташқари, янги пайдо бўлаётган соҳаларнинг барчаси бу ўриндан жой олмаган. Қисқача айтганда, XXI аср фан ва соҳалар учун хилма-хиллик, аниқ ихтисослашиш, индивидуализация, бирлашиш, интеграциялашув даври бўлди десак, адашмаймиз.

Ривожланган давлатлардаги таълим сифати, илм-фан ривожланиши ва ишлаб чиқаришнинг ўзаро ҳамкорлиги мустаҳкам йўлга қўйилган. Уларнинг мустаҳкам ҳамкорлиги сабаб жаҳон майдонида янги инновацияларнинг жадал оммалашиши кузатиляпти. Бу каби инновациялар ўзининг ички тузилишига эга яхлит бутунлик бўлиб, улардаги референтлар янги тушунчалар ифодалайди. Тушунчани ўзида акс эттираётган атов бирликлари, неологизмлар эса инновацияни бошқараётган тилнинг сўзлари билан номланиши шартланган.

Неологизмларнинг тилларо бугунги кундаги оқимини “бўлинган дунёни қайта тақсимлаб олишга ҳаракатланаётган куч”ларга ўхшатиш мумкин. Неологизмлар таҳдиди тилларга таъсир этар экан, мавжуд луғат лексикасига *атама неологизм, нейм неологизм, термин неологизм* сифатида фарқланиб, ўрнашиб олишга интлаётганини сезиш қийин эмас. Ҳаттоки кундалик ҳаётимизда ишлатаётган оддий мулоқот сўзларини ҳам ижтимоий тармоқларда тарқалаётган хорижий сўзларга осонгина алмаштириб юборилиши аҳамиятсиздек кўриняпти. Афсуски, уларнинг сони кўп, давомийлиги эса интернет

саҳифалари ахборотларида бардавом, ҳар бири ўзига хос ёт маданият ва реалияларга боғланган.

Терминология муайян тил тараққиётидаги муҳим бир жараёни ўзида акс эттириши табиий. Замонавий дунёда уч мингдан ортиқроқ тил мавжуд, аммо илмий терминологиянинг ривожланиши фақат 60 та тилда кузатилади ва уч юздан ортиқ касбий фан соҳаларини қамраб олади, алоҳида тилда терминологик ишлаб чиқилган соҳа унчалик кўп эмас [2;709].

Маълумки, мустақилликдан сўнг ўзбек терминологияси ўзига хос даврни бошдан кечирди. Негаки жамиятдаги турли ўзгаришлар миллий терминология масаласи қайта кўриб чиқишини тақозо этарди. Кўп йиллик собиқ иттифоқ тузумининг бу соҳадаги ҳукмронлиги ҳам барҳам топган эди. Мутахассислар терминологияда, ўз соҳалари доирасида, истиқболли йўлни танлаб олишлари учун кўплаб терминларни тилнинг миллий табиатига мувофиқ онгли тарзда муомалага киритишлари зарур эди. Энг муҳими, киритилаётган бирликлар соҳа талабларига жавоб бериши мақсад қилинди, бунинг баробарида, тилда мавжуд бўлиб турган халқаро терминларни имкон қадар сақлаб қолиш масъулияти ҳам юкланди. Истиқлолга қадар назарий масалаларни фақат рус тилшунослари ҳал қилиб берган, бошқа тилшунослик вакиллари унга эргашган бўлсалар, мустақиллик шароитида ўзбек тилшунослари назарий муаммоларни ҳал қилишга дадил қўл ура бошладилар [3;8].

Шу кабилардан келиб чиқиб соҳа мутахассислари, терминолог ва тилшунослар ўз вазифалари доирасида бир неча аҳамиятга молик ишларни амалга оширишди. Улар илмий мақолалар, монография ва дарсликларда ўз исботини топган. Шунга қарамай, узоқ давр мобайнида йиғилган соҳа муаммолари, халқаро термин танлаш принципларидан узоқлашиш, тилдаги атамаларни миллийлаштиришга безътибор қараш, дублетларни ўз вақтида тартибга олмаслик кабилар таъсирида хануз терминологиянинг долзарб муаммолари кўзга ташланади.

Инчунин, соҳалар миқёсида қўлланаётган сўзлар ихтисослашуви ҳам ўзига хос бўлиб, уларни муайян соҳанинг умумистеъмол сўзлари (атамалари), шунингдек, соҳа терминлари сифатида фарқлаб, белгилаб олиш ҳам кун тартибидаги масалалардандир. Акс ҳолда, тадқиқотчилар соҳалар майдонини терминологик нуқтаи назардан чегаралаб ўрганишда айрим мураккабликларга дуч келишлари тайин.

Неологизмлар ўзлашишига сабаб бўлаётган асосий омиллар мавжуд бўлиб, глобаллашув, ахборот технологиялари, интернет дискурси, таълим ва ижтимоий тармоқларни муҳим факторлар қаторига қўшиш мумкин. Мазкур омиллар жамият аъзолари нутқида ўрни билан у ёки бу даражада таъсир қилиб туради. Масалан, ижтимоий тармоқлар интернет дискурсида мойиллиги бор, қизиқиши яқин ёшларни мотивация қилса, таълим жараёни донор тилларни ўрганишга талаб қўяди, ахборот технологиялари феномени эса узоқ масофадан туриб ёлланма ишчи (freelancer) сифатида пул топиш учун қулай вазият яратади.

Неологизмлар қамрови ўзига хос бўлиб, уларни термин неологизм, нейм неологизм ва атама неологизм сифатида фарқлаб ўрганиш мумкин. Уларнинг орасида термин неологизмлар инсонларнинг онгли ҳаракатлари таъсирида (сунъий равишда) фанга олиб кирилади ва оммаланиши эса маълум бир соҳа доирасидагина амал қилади.

Айрим соҳалар борки, жамиятдаги ўрнига кўра ўзини янгилаб боришни, тез ўзгаришни, халқаро стандарт терминологияга мослашиб, замонавий терминлар билан иш кўришни талаб этади. Хусусан, ахборот коммуникацион технологиялари, иқтисодиёт, ҳуқуқ-тартибот, медицина соҳаларини шулар жумласидан бўлиб, улар кундалик вазифаларини ўз терминлари орқали амалга оширади. Албатта, фаннинг ривожланиши соҳа майдонида терминларнинг тартибга солиниши билан ҳам боғлиқдир.

Терминологик манбаларда таъкидланганидек, илм-фан ва касбий фаолият учун хизмат қилаётган ҳар бир термин, албатта, сўз мақомида бўла олади, бироқ учрайдиган ҳар бир сўз эса термин эмас.

Ўзлашаётган термин неологизмларнинг катта бир оқими ахборот технологиялари соҳаси билан боғлиқ. Негаки инсонларнинг саводхонлик даражасини белгиловчи

мезонлар қаторига АКТ билимлари ҳам келиб қўшилгани муболаға эмас. Улар глобаллашув жараёнини ҳаракатлантирувчи куч, жамиятдаги фан-техника, инновация ва технологиянинг қуроли сифатида кўриляпти.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, термин неологизмларни тартибга солиб бориш тил тараққиётидаги муҳим бир доимий жараён бўлиб, глобаллашув феноменида уларни ўз вақтида ўрганиш, имкон қадар муқобил вариантини миллий тил базаси асосида шакллантириш ёки ўзбек тилининг миллий табиатига мувофиқ қабул қилиш масалалари муҳим аҳамиятга эга.

Адабиётлар:

1. [https://en.wikipedia.org/wiki/List\\_of\\_words\\_ending\\_in\\_ology](https://en.wikipedia.org/wiki/List_of_words_ending_in_ology)
2. Абдурахманова М. Юнон-лотин тилига асосланган тиббий атамаларнинг лингвистик тадқиқи. Сўз санъати халқаро журнали. –Т., 2020. 3-махсус сон. 751 бет.
3. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. – 384 бет.

**ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ МИЛЛИЙ КОРПУСНИ ЯРАТИШДА ЛИНГВИСТИК  
МОДЕЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ  
DOI: 10.53885/edinres.2021.45.12.059**

*Гули Ибрагимовна Тоирова*

Бухоро давлат университети  
филология фанлари бўйича фалсафа  
доктори(PhD), доцент

**Аннотация:** Мақолада сўз ясалиши ва унинг тарихи билан боғлиқ маълумотлар таҳлил этилган. Ушбу мақолада лингвистик дастурларнинг мустақил таркибий қисмларидан бир лингвистик модул ва алгоритм ҳамда унинг турлари таҳлил қилинган. Лексик-грамматик кодни шакллантириши мақсадида қўшма сўз ясалиши қоидалар бўйича алгоритм зарурияти илмий асосланган. Ўзбек тили миллий корпусининг лингвистик базасини тузишда қўшма сўзнинг лингвистик модулларининг аҳамияти ёритилган.

**Калит сўзлар:** корпус, модул, лингвистик модул, қўшма сўзнинг модуллари, сўзли алгоритм, формулалар алгоритм, жадвалли алгоритм, графикли алгоритм

Ривожланган мамлакатлар бугунги кундаги тараққиётга кўплаб омиллар билан бирга инновация жараёни – илғор ғоялар, ишланмаларни ўз вақтида ҳаётга татбиқ этишга берилган эътибор туфайли эришгани ҳеч кимга сир эмас. Чунончи, инновация – тараққиёт гарови. Илм-фанда инновацион технологияларнинг тараққий этиши натижасида тилга ташқи манба ҳисобидан янги атамаларнинг кириб келиши, улардан фойдаланиш кўлами кун сайин ортиб бормоқда. Жумладан, ўзбек компьютер лингвистикасига ҳам хорижий компьютер лингвистикасидан ўзлашган сўзлар эвазига бойиб бораётганлигини кузатамиз.

Ҳозирги ўзбек адабий тилида сўз ҳосил қилиш усуллари беш турга бўлинади:

- 1) аффиксация усули;
- 2) фонетик усул;
- 3) семантик усул;
- 4) композиция усули;
- 5) аббревиация усули;

**Аффиксация усули.** Яшаш асосига аффикс қўшиш орқали янги сўз ҳосил қилиш **аффиксация усули** дейилади: *асос-ла, асос-ли, асос-сиз-лик, астар-ли, астар-сиз, астар-лик, этик-дўз-лик, этик-чи* каби. Ўзбек тилида аффиксация усули билан янги сўз яшаш от, сифат, феъл ва равиш сўз туркумлари учун хосдир.

“Ўзбек тили миллий корпуси”нинг лингвистик базасини яратишда ясама сўзларнинг моделларини тузиш аҳамиятлидир. Бу ўринда М.Абжалова таклиф этган лингвистик модуллардан фойдаланиб, аффиксация усулида 3 хил кўринишдаги қуйидаги сўз яшаш моделини таклиф этиш мумкин:

Бундан: А=асос, N=ҳосила сўз

1. N= асос + ли

N= асос + ла

N= асос + сиз

N= асос + лик

N= асос + чи

N= асос + хон

N= асос + дон.....

Аффиксация усули билан сўз ясашда аффикслар, одатда, асосдан кейин қўшилади. Шунга кўра бу усул билан ҳосил бўлган ясама сўзлар «асос + қўшимча (суффикс)» тарзида бўлади (*маза-ли, маза-сиз, мазлум-лик, сабза-вот, сабзавот-чи, сабзавотчи-лик, супур-ги* каби).

2. N= бе+асос

N= но+асос

N= ҳам+асос

N= бад+асос.....

Ясама сўзлар «олд қўшимча(префикс) + асос» шаклида ҳам бўлади. Бу ҳодиса асосан тожик тилидан ўзлашган аффикслар орқали сўз ясашда учрайди: *бе-лаззат, бе-ҳикмат, бе-ҳисоб, бе-ҳол, бе-ҳузур, бе-ҳужжат, сер-барака, сер-бар, сер-иштаҳа, сер-мазмун, но-инсоф, но-умид, но-қулай, но-муносиб* каби.

3. N= бе+асос +лик

N= но+асос +лик

N= ҳам+асос +лик

N= бад+асос +лик.....

Ясама сўз таркибида сўнг қўшимча (суффикс) ҳам, олд қўшимча (префикс) ҳам келиши мумкин: *бе-сабр-лик, бе-парво-лик, бе-саранжом-лик, бе-сарийшта-лик, ҳам-жиҳат-лик, ҳам-нафас-лик, но-инсоф-лик, но-мард-лик, но-маъқул-чилик, но-махрам-лик, но-аниқ-лик, бад-бахт-лик* сингари.


Аффиксация ўзбек тилида сўз яшанинг энг унумли усули ҳисобланади. Бу усул орқали содда ясама сўзлар ҳосил қилинади. Аффиксация усули билан сўз ясашда одатда ўзбек тилининг сўз ясовчи аффикслари қўлланилади. Шу билан бирга бошқа тиллардан (жумладан, тожик тилидан) қабул қилинган аффикслар ҳам ишлатилади: *китоб-хон, газал-хон, палов-хўр, пора-хўр, чой-хўр, сомса-фуруш, нос-фуруш, туз-дон, ўрмон-зор, бетўхтов, но-тўғри* каби. Бундай ясовчи воситалар дастлаб тожик тилидан кирган сўзлар таркибида ишлатилган бўлса, кейинчалик ўзбек тилидаги сўзларга ҳам қўшилиб, янги сўзлар ясай бошлайди.

“Ўзбек тили миллий корпуси”нинг маълумотлар базасини шакллантиришда оддий Excel жадвалларидан фойдаланилади:

Намуна:

soch I ( <i>fe'l</i> ) →	soch-il- <b>ma</b> Soch-il-uv- <b>chan</b> Soch- <b>iq</b> → sochiq- <b>lik</b> Soch- <b>ma</b>	tashabbus → <table border="0" style="display: inline-table; vertical-align: middle;"> <tr> <td style="border-left: 1px solid black; padding-left: 5px;">tashabbus-<b>kor</b> →</td> <td style="border-left: 1px solid black; padding-left: 5px;">           tashabbuskor-<b>lik</b>            tashabbuskor-<b>ona</b> </td> </tr> <tr> <td style="border-left: 1px solid black; padding-left: 5px;">tashabbus-<b>chi</b> →</td> <td style="border-left: 1px solid black; padding-left: 5px;">tashabbuschi-<b>lik</b></td> </tr> </table>	tashabbus- <b>kor</b> →	tashabbuskor- <b>lik</b> tashabbuskor- <b>ona</b>	tashabbus- <b>chi</b> →	tashabbuschi- <b>lik</b>
tashabbus- <b>kor</b> →	tashabbuskor- <b>lik</b> tashabbuskor- <b>ona</b>					
tashabbus- <b>chi</b> →	tashabbuschi- <b>lik</b>					
soch II ( <i>sochi qora</i> ) →	soch- <b>bog'</b> soch- <b>li</b> soch- <b>siz</b> soch- <b>popuk</b> soch- <b>tarosh</b> <b>be-soch</b> → besoch- <b>lik</b> <b>ser-soch</b>	tashakkur → tashakkur- <b>noma</b> tashkil → <table border="0" style="display: inline-table; vertical-align: middle;"> <tr> <td style="border-left: 1px solid black; padding-left: 5px;">tashkil-<b>iy</b></td> </tr> <tr> <td style="border-left: 1px solid black; padding-left: 5px;">tashkil-<b>ot</b> → tashkilot-<b>chi</b> → tashkilotchi-<b>lik</b></td> </tr> </table> tashla → <table border="0" style="display: inline-table; vertical-align: middle;"> <tr> <td style="border-left: 1px solid black; padding-left: 5px;">tashla-n-<b>diq</b></td> </tr> <tr> <td style="border-left: 1px solid black; padding-left: 5px;">tashla-n-<b>ma</b></td> </tr> </table> tashna → tashna- <b>lik</b> tashqari → tashqari- <b>gi</b> tashrif → tashrif <b>buyurmoq</b> tashviq → tashviq- <b>ot</b> → tashviqot- <b>chi</b> → tashviqotchi- <b>lik</b>	tashkil- <b>iy</b>	tashkil- <b>ot</b> → tashkilot- <b>chi</b> → tashkilotchi- <b>lik</b>	tashla-n- <b>diq</b>	tashla-n- <b>ma</b>
tashkil- <b>iy</b>						
tashkil- <b>ot</b> → tashkilot- <b>chi</b> → tashkilotchi- <b>lik</b>						
tashla-n- <b>diq</b>						
tashla-n- <b>ma</b>						





**Композиция усули.** Икки ва ундан ортиқ сўзнинг қўшилиши орқали янги сўз ясашга **композиция усули билан сўз яаш** дейлади. Ўзбек тилида композиция усули билан янги сўз яаш феъл, от, сифат ва равиш сўз туркумлари учун хосдир.


Мазкур усул билан асосан қўшма сўзлар ясалади: *гулбеор, кўзойнак, Бешёғоч, Қорақамиш, олтингузурт, томорқа, гултожсхўроз.*

Қўшма сўзларнинг кўпчилиги тарихан сўз бирикмаларининг яхлитланишидан келиб чиққан. Тил таракқиёти жараёнида сўз бирикмалари қисмларининг маъно ва грамматик жиҳатдан яхлит ҳолга келиши, унинг қисмлари орасидаги синтактик муносабатнинг йўқолиши ҳамда уларнинг бир маъно марказига бирлашиши натижасида қўшма сўзга айланади. Бундай пайтларда қўшма сўз қисмлари ўзининг алоҳида лексик маъносини йўқотиб, янги тушунчани англатади. Чунончи, *ошқозон, белбоғ, гулгунча, оттўрва, оққуш, музёра, Олтинсой* каби.

Композиция усули билан сўз яашда қўшма сўзнинг умумий маъноси таркибидаги сўзлар маъноси билан боғлиқ бўлиши ҳам (*тоққайчи, анжиршафтоли, асалари*), боғлиқ бўлмаслиги ҳам (*иккиқат, бошқоронги, қўзиқорин*) мумкин.

**Таклифлар.** Тил корпусини яратишда композиция усулини ҳам моделлаштириш имкони мавжуд. Сўз туркумига боғлиқ ҳолда уларнинг қуйидаги кўринишларини таклиф этиш мумкин:

1)



а) [F]+[F]= QS ; [феъл]+[феъл]= қўшма сўз

б) [I ]+[F]= QS; [исм]+[феъл]=қўшма сўз. “Исм” деганда сифат, от, таклид сўз, ундов сўз ҳисобга олинган.

## |ОТ ЯСАЛИШИ

[ИСМ+ИСМ]=қўшма сўз

[ИСМ+ФЕЪЛ]=қўшма сўз.

[ОТ+ОТ]=қўшма от

[ОТ+ФЕЪЛ]=қўшма от

[СИФАТ+ОТ]=қўшма от

[ФЕЪЛ+ОТ]=қўшма от

[СОН+ОТ]=қўшма от

[ФЕЪЛ+ФЕЪЛ]=қўшма от

[ОТ+СИФАТ]=қўшма от

[СОН+ФЕЪЛ]=қўшма от

[СИФАТ+СИФАТ]=қўшма от

[СИФАТ+ФЕЪЛ]=қўшма от

[УНДОВ+ОТ]=қўшма от

[СИФАТ+ТАҚЛИД]=қўшма от

[от+от] тузилишидан иборат қўшма отлар: *асалари, аждаргул, айиқмурут, айиқтовон, арпабодиён, арпапоя, тошқўмир, чаёнгул, илонгул.*

Тил корпус кидирувига “кидирув” топшириғи берилганда, қуйидаги натижага эришилади:

**Аччиқтош**– алюминий, хром, темир сингари металлларнинг сульфат кислота билан ўзаро таъсиридан ҳосил бўлган тузлар. Саноатда кўнчиликда ва халқ таъбиотида ишлатилади. Масалан, *Бир куни дошқозонда аччиқтош сувига қаҳрабони солиб қайнатаётган эди, саройдан фаррош келиб: –Зоти олийлари сизни чақираёттирлар, – деди.* (Миркарим Осим. «Карвон йўллари»дан)

[сон+от] тузилишидан иборат қўшма отлар: *Учқудуқ, Учкўл, Учқўрғон, Тўрткўл, Бешариқ, Бешбалиқ, Беширабот, Еттисой, Еттисув, бешбармоқ, бешпанжа, саккизоёқ.*

[от+феъл] тузилишидан иборат қўшма отлар: *ўринбосар, отбоқар, куркабоқар, товуқбоқар, қуёнбоқар, итбоқар, чўққабоқар, молбоқар, қўйбоқар, қуртбоқар, бўрибосар, дунёқараиш, бешиктерватар.*

Тил корпус кидирувига “кидирув” топшириғи берилганда, қуйидаги натижага эришилади:

**Бешиккертти**– қадимги миллий удумлардан бири бўлиб, одатда, янги туғилган болаларни бешикка солаётган пайтларидаёқ унаштириб қўйишган. Ҳозирда бу эскирган одат ҳисобланади. *Турғун ака Ҳамидани чақалоқлигида бир дўстининг ўғлига «бешиккертти» қилиб қўйган.* (Ойбек. «Олтин водийдан шабадалар»дан)

[феъл+от] тузилишидан иборат қўшма отлар: *айирбоиш, тураржой.*

[сон+феъл] тузилишидан иборат қўшма отлар: *бешкўтарар, бешотар...*

**Хулоса.** Хулоса ўрнида шуни айтиш лозимки, маълумотлар базаси – маълумотларни сақлаш, янгилаш, кидириш ва етказиб беришни таъминловчи ахборот, дастурий таъминот бўлиб, у аппарат ва ходимларнинг комбинациясини ифодаловчи автоматлаштирилган тизим ҳисобланади. Табиий тилдаги энг яхши ишлов берилган, тезкорлик ва аниқлик учун хизмат қиладиган асл матнлар она тилимизнинг сунъий интеллектини бойитадиган лингвистик база – бу тилшуносликнинг асосий воситалари матнни кейинги таҳлил қилиш учун тайёрлайдиган, самарали кидирув ёки ишлов беришга имкон берадиган морфологик қурилиш блок ҳисобланади. Лингвистик базани тузишда лингвистик моделлаштиришнинг аҳамияти бекиёски, шу боис компьютер иши жараёнида бошқариладиган кўрсатмаларни ишлаб чиқаришнинг асоси алгоритм ҳисобланади. Морфологик разметкалаш алгоритминини тузишда ҳар бир сўз туркумини разметкалаш орқали махсус лингвистик модель шакллари ишлаб чиқиш муҳим аҳамият

касб этади. Қўшма сўз ясашида моделлаштириш лингвистик базани шакллантириш учун муҳим саналади. Қўшма сўз ясашида феъл, от, сифат ва равиш сўз туркумларида мавжуд бўлиб, нутқимизда қўшма отлар ниҳоятда кўп эканлиги билан ажралиб туради.

#### Адабиётлар:

1. Абжалова М. Ўзбек тилидаги матнларни таҳрир ва таҳлил қилувчи дастурнинг лингвистик модуллари (расмий ва илмий услубдаги матнлар таҳрири дастури учун): филол.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD)...дис.–Фарғона, 2019.–Б.22.
2. Авлиёкулов Н.Х. Касбий фанларни модулли ўқитиш технологияси. – Т.:Янги аср авлоди, 2004. –106 б Степанов А.Н. 6.3. Архивация файловых объектов // Информатика: базовый курс: для студентов гуманитарных специальностей вузов. – Питер, 2010. – 719 с.
3. Ванюшкин А. С., Гращенко Л. А. Оценка алгоритмов извлечения ключевых слов: инструментарий и ресурсы // Новые информационные технологии в автоматизированных системах. – 2017. – № 20. – С. 95–102.
4. Ақобирова З. Сўз яшаш қолиплари, уларда унумлилик ва маҳсуллилик.// Ўзбек тили ва адабиёти. 2001, №6. Б. 68-70.
5. Бердиалиев А. Ўзбек тилида соддалашган қўшма аффикислар// Ўзбек тили ва адабиёти. 1969, №5.
6. Бегматов Э., Неъматов Х., Расулов Р. Лексик микросистема ва унинг тадқиқ методикаси (Систем лексикология тезислари)// Ўзбек тили ва адабиёти. 1989, №6. Б. 35-40.
7. Жўрабоева М. Ҳозирги ўзбек тилида окказионал сўз ясаши. - Т., 1983.
8. Б. 68-70.;
9. Замонавий ўзбек тили. II жилд. Морфология. Масъаллар: Ҳ.Ф.Неъматов, Р.Р.Сайфуллаева. - Т.:Мумтоз сўз, 2008. 468 б.
10. Убаева Ф. Сўз яшаш усуллари (ўқув қўлланма). - Бухоро, 1958.
11. Кутузов А.Б. Корпусная лингвистика. – (Электрон ресурс): Лицензия Creative commons Attribution Share-Alike 3.0 Unported (Электрон ресурс) - //lab314.brsu.by/kmp-lite/kmp-video/CL/CorporeLingva.pdf
12. Маматов Н. Қўшма сўзларнинг ясаши // Ўзбек тили ва адабиёти. 1979, №6. Б. 31-36.
13. Мирзакулов Ш. Ўзбек тилида сўз ясаши маъноси ва парадигмаси: филол.фан.номз...дисс.автореф. – Сам., 1995.-21 б
14. Нигматов Х. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII веков. Т., 1989, 181 стр.;
15. Неъматов Х. Сўз яшаш қолипи, ясалган ва ясама сўз хусусида// Ўзбек тили ва адабиёти. –2007, №1. Б.
16. Toirova G. About the technological process of creating a national corpus. // Foreign languages in Uzbekistan. Electronic scientific-methodical journal. - Tashkent. 2020, № 2 (31), – В.57– 64. <https://journal.fledu.uz/uz/millij-korpus-yaratishini-tehnologiya-zharayoni-hususida/>
17. 11. Toirova G. The importance of linguistic module forms in the national corpus // Current problems of modern science, education and upbringing (Current problems of modern science, education and upbringing in the region) (Electronic scientific journal), - Urgench. 2020, № 5, –В.155-166. [http://khorezmscience.uz/public/archive/2020\\_5.pdf](http://khorezmscience.uz/public/archive/2020_5.pdf)
18. Toirova G. The importance of the interface in the creation of the corpus. International Scientific Journal «Internauka», // Mejdunarodnyy nauchnyy zhurnal «Internauka». - 2020. - №7. Online magazine. <https://doi.org/10.25313/2520-2057-2020-7-5944>
19. Toirova G. The Role Of Setting In Linguistic Modeling. // International Multilingual Journal of Science and Technology. ISSN: 2528-9810 Vol. 4 Issue 9, September - 2019, -P.722-723 <http://imjst.org/index.php/vol-4-issue-9-september-2019/>

# СУРХОНДАРЁ МИТРАУМЛАРИ ТОПОНИМИКАНИНГ ЎРГАНИШ ОБЪЕКТИ СИФАТИДА

DOI: 10.53885/edinres.2021.35.47.060

Ш.Д. Турдикулов

Термиз давлат университети  
Ўзбек тилшунослиги кафедраси  
Ўқитувчиси

**Аннотация.** Бугунги кунда жаҳон тилшунослигида топонимик номларга ҳатто жамиятнинг мафкуравий ҳаётида аҳамиятли унсурлар сифатида қаралмоқда [2,3]. Топонимик объектлар миллат тарихи ва маданиятининг шаклланиш босқичи, миллатнинг миллат сифатида раванқ топишига гувоҳ бирликлар ҳисобланади. Хусусан, Сурхондарё вилоятида 15 мингга яқин топонимлар мавжуд бўлиб, шундан 1 мингга яқини аҳоли яшаш жойлари сифатида аҳоли номи билан боғлиқ аталади. Вилоятнинг турли ҳудудларида жойлашган Қоратена, Фаёзтена, Зурмала, Далварзитенадаги буддавийлик иншоотлари, Зулкифл мақбараси, Оқостона бобо мақбараси, Султон Саодат мақбаралар мажмуи, **Жарқўтон олов ибодатхонаси, Хўжамайхона, Омонхона, Сангардак шаршараси** сингари топоним, гидроним, некроним сингари ономастик гуруҳ унсурлари орасида теотопонимлар жиддий тадқиқ этиганича йўқ. Зотан, теотопонимлар бошқа турдаги жой номлари орасида миллат мифологик, диний-этиқодий қарашларининг шаклланиш илдизларига ойдинлик кирита олувчи объектлар саналади.

**Калит сўзлар:** топоним, топонимика, некроним, гидроним, ономастик гуруҳ

Теотопонимларни некронимлардан фарқлаш зарур. Теотопонимик объект одатда, кишилик жамиятининг шаклланиш давларида алоҳида аҳамият касб этган мифологик қараш маҳсули саналади ва дастлаб илоҳий аҳамиятга эга бўлган, сўнграқ ақидавий хулосалардан келиб чиқиб илоҳийлаштирилган жой номини ифодалайди. Масалан, Сурхондарёдаги қабристон, қадимий ибодатхона, мақбара ва зиёратгоҳлар асосан тепаликларда қад ростлаган, бу мазкур жойда абадий кўним топган азизу-авлиёларга ерлик аҳоли ҳурматининг рамзи ҳисобланади. Бироқ қатор теотопонимларнинг жойлашув ўрни кишилар томонидан танланиш жиҳатига эга эмас ва географик жойлашувига кўра турли-туманликни акс этади. Шундай теотопонимларга вазият тақозоси билан гидронимик объектлар орасида, Амударёнинг Сурхондарё ва Афғонистон чегарасидан оқиб ўтувчи қисмида жойлашган *Пайғамбаророл*, шунингдек, аҳоли яшаш пунктдан иборат *Вахишвор* қишлоғи, *Хўжамайхона, Омонхона* гидронимлари сингари объектларни мисол қилиш мумкин. Шунингдек, бир вақтлар некроним вазифасини ўтаб, давр билан илоҳийлаштирилган айрим жой номлари ҳозирда теотопоним сифатида тадқиқ этилиши мумкин. Жумладан, бу илоҳлар, пайғамбарлар, авлиёлар номини абадийлаштириш мақсадида қилинган зиёратгоҳ, мазор ёки бирон бино, қалъа, катта дарахт ёки катта бир тош бўлиши ҳам мумкин: *Сулоймонота, Омонхонота* (Омонхона), *Хўжа анқо каби*). Сурхондарё вилоятида жойлашган *Гароббобо* теотопоними (“гарм” – иссиқ ва “об” – сув сўзларининг бирикувидан ҳосил бўлган) мўъжизавий аҳамиятга эга объект бўлиб, ҳозирда бу ҳудудга бориладиган йўллар чегарачилар томонидан кўриқланади. Шунингдек, тоғ ёнбағридаги *Бибишир остона* ҳам айнан одамлар ихлос билан ният қилиб, туюқликлар атайдиган зиёратгоҳ ҳисобланади. Кўринадики, теотопонимлар бошқа турдаги топонимлардан аҳоли орасида мўъжизавийлик, илоҳийлик аҳамиятига эга эга объект саналади.

Мақоламиз учун тадқиқ объекти сифатида танлаганимиз – Қора камар митраумлари ҳам, бизнингча теотопоним сифатида қаралишга муносиб жой номидир.

Қора камар – қарийб икки минг йиллик тарихга эга ажойиб ғор мажмуаси бўлиб, Ўзбекистон ва Туркменистон чегарасидаги Шерободнинг кенг тепалигида тошли қояларда ўйилган [3: 291]. Биринчи марта ғор 1875 йилда машҳур географ ва саёҳатчи Н.А.Маев томонидан Шарқий Бухоро йўлларини рекогносцировка қилиш даврида ихтиро қилинган

[4,5]<sup>1</sup>. Машҳур тарихнавис Э.Ртвеладзе топонимик объектлар орасида Қора камарга алоҳида эътибор қаратиб, унинг бағрида илк мифологик қараш илдизларининг мавжудлигига ишора беради. Бу ернинг митраумларида лотин тилида битилган илк ёзувлар топилган.

Жумладан, Ю.В.Виноградов ва Ю.Б. Устинова ғор митра-музларидаги лотин ёзувини ҳақиқий деб ҳисоблайди, бироқ Д. Браунд ўзининг кичик мақоласи якунида бунга нисбатан шубҳасини яширмайди: «Лотин матнларини бу ерга ташриф буюрган замонавий меҳмонлар битганлигига гумон йўқ. Лотин ёзувидан хабарсиз одам буни амалга ошириши даргумон, ваҳоланки, гап Шарқ, хусусан, Қора-Қамар ҳақида кетаётган бўлса... Ҳозирча (бу ёзувларни) талқин қилишдан ва шошма-шошар хулосалардан қочган маъқул»[6]. Агар Д. Браунд Қора камардаги ғор мажмуасидаги ёзувларни ҳозирги замон одамига тегишли деб ўйласа, Э. Уилер ва Е.С. Перевезенцев бу ёзувларнинг ҳақиқийлигига шубҳа билдирди ва уларни кечиккан тақлид деб ҳисоблади.

Бинобарин, лотинча жумла таркибидаги “G. Rex” ёзуви “George Rex V” (1913-1934) нинг қисқартмаси бўлиб, унинг муаллифи ўша даврдаги халқ ҳаракати вакили ва Анвар пошонинг инглиз ёрдамчи бўлгани ҳақида тахминлар бор. Бунинг учун Шарқий Бухоронинг чекка бурчагидаги ушбу жойнинг собиқ шўро инқилобидан олдин нима бўлганини аниқлаш лозим бўлади. Э.Ртвеладзе лотин матнларига тақлид қилиш учун фақат лотин алифбосини эмас, балки Рим легионлари тарихини ҳам билишни шарт деб ҳисоблайди. Бундан ташқари, бу ёзувларда на Қора камарнинг замонавий меҳмонларига ва на Анварпошонинг афсонавий инглиз ёрдамчисига таниш бўлмаган «I.M» (Invicto Mithrae – «Енгилмас Митра») деган қисқартма бор.

Қора камар ғор иншоотлари оддий яшаш шароитларига эга бўлмаганлиги сабабли турар жой вазифасини ўтай олмаган, шунингдек, мазкур манзиллар Кўҳитог (Кўҳитанг)нинг олис ва танҳо бурчагида, аҳоли пунктларидан узоқда барпо этилган. Маълумки, 1-2-асрларда Шимолий Бақтриянинг шаҳарлари ва аҳоли пунктлари ёки уларга яқин жойда қад ростлаган диний аҳамиятга молик иншоот ва бинолар буддавий ва зардуштийлик динига тааллуқли бўлиб, уларнинг христиан динига алоқадорлигини исботловчи бирорта археологик маълумотлар мавжуд эмас[7]. Э.Ртвеладзенинг Қора камар ғор иншоотлари бўйича изланишлари уларнинг Шимолий Бақтриядаги замин ва ғор тузилмаларини бирлаштирган Эски Термиздаги Қоратепа ягона буддавий ибодатхонасига олиб чиқади. Сабаби Қора камар ва Қоратепа оралиғи атиги 70 м масофани ташкил этади. Аммо маълум ўхшашлик билан (гумбазли шип, деворга ишлов бериш усули), Қора камар ғор тузилмалари меъморий лойиҳаси бўйича Қоратепадаги бинолардан тубдан фарқ қилади.

Бу далил Қора камар ғор тузилмаларини буддистлар динининг тарафдорлари қурганига ишонишга имкон бермайди. Буддизм ва зардуштийлик биноларида ўхшашликнинг йўқлиги лотин ёзувларини ўқишдан олдин ҳам митраистларнинг муқаддас жойлари бўлган Митраумнинг мавжуд бўлганини тасдиқлайди. Шарқда вужудга келган Эрон нур ва шартнома худоси Митра культи Римга Флавиайлар даврида киритилган.

---

<sup>1</sup> Қора камар мажмуаси тузилиши Шарқдаги бошқа сунъий ғорлар ичида ягона ҳисобланади. У тўлиқ равишда ғорли шаҳар бўлиб, учта катта зал ва кўплаб майда хоналардан таркиб топган. Ғор ичидан бақтрия, грек, араб ва бошқа тиллардаги ёзувлар топилган. Бу ерда икки уч сатрли лотин ёзуви илмий дунёда катта шов шувга сабабчи бўлди. Сабаби Бақтрия Рим империясидан анча минг километр узоқда эди. Ёзувларда 15-рим легиони “Аполинарис” номи бўлмиш, “Гай Рэкс” исмини аниқлаш мумкин. 15-Паннон легиони эр.авв. 53 йилда Юлий Цезарь томонидан ташкил этилган ва у эр.авв. 37 йилда рим империясининг бутунлай тор-мор этилиши ҳамда таслим бўлишига олиб келган Антонияга парфян юрушида иштирок этган. Парфян қироли Ород II асирга тушган римликларни Сўғд ва Бақтрия чегарасидаги Марғиёнда жойлаштирган. Аммо Фраат IV эр.авв. 20 йилда уларни Августга қайтарган. Диққатга сазовор жойи шундаки ушбу легион кейинчалик битта ҳам рим-парфян урушларида фаол иштирок этмаган. Бироқ бошқа тахминларга кўра, Гай Рэкс Кушон Бақтриясига йўналтирилган рим савдо ёки дипломатик вазифа иштирокчиларидан бири бўлган. Ғор мажмуаси эрамиздан аввал пайдо бўлган, синкретик дини, Митра мухлисларининг ўзига хос ибодатхонаси ҳисобланган митреум деб номланмиш иншоот билан ўхшашлиги мавжуд. У легионерлар орасида пайдо бўлиб, кейинчалик бутун Рим империяси бўйлаб тарқалган.

Мазмуни ва мистик маросими билан у Рим империясидаги турли қатламларнинг кайфиятига мос эди, лекин унинг тарафдорларининг аксарияти Рим легионерлари орасида бўлганлигидан улар ушбу культнинг Римда пайдо бўлишига ҳисса қўшганлар. Митраистларнинг ер ости ибодатхоналари митреум ("митра музейлари") деб аталади, митреумлар Рим империясининг Буюк Британиядан тортиб Месопотамиягача бўлган кенг майдонларида кўп миқдорда қурилган[8].

Митраизм узоқ вақт давомида Рим империясида христианликнинг асосий рақиби сифатида мавжуд бўлган, ҳатто митраизмнинг жаҳон динига айланишига ўша даврда бир баҳя етмаган, холос[9].

Митра музейларининг тузилиши жуда оддий бўлган – ғор ичида ибодат этувчилар учун тош ўриндиқлар ўрнатилган, ғор ичи эса илоҳий нурни эслатувчи махсус лампалар билан ёритилган. Ушбу митреумларнинг лойиҳаси Сурия ва Месопотамияда топилган митреумларга яқиндир[8] (м., Римдаги Санта-Приска ва Санта-Мария Капуа Ветере митреумлари[10]).

Бинобарин, тарихий асосларга кўра, митраумларда доимий равишда жониворлар қурбонликка келтирилган, турли зиёфатлар уюштирилган, Италиядан топилган митраумдаги археологик изланишлар эса, ҳатто бу ерга ташриф буюрувчилар онги психотроп гиёҳлар эвазига бошқарилганига ишора беради[11]. Ажабмас, Қора камардаги эсга олиб ўтилган махсус лампалар ана шундай руҳий ҳолатни янада кучайтиришга хизмат қилган бўлса.

Баён этилганлардан хулоса қилиш мумкинки, Сурхондарёда топилган айрим микротопонимик объектлар бугунги кунда теотопонимлар сифатида ўрганилишга муносиб. Қора камар билан боғлиқ илмий маълумотлар эса бизнинг митраумларнинг теотопонимик объект эканлигидан иборат қарашларимизга тўлиқ мос келади.

#### **Адабиётлар:**

1. Петешова О.В. Идеологическая антонимия как способ согласования топонимов при переименованиях географических объектов. <https://scipress.ru/philology/articles/ideologicheskaya-antonimiya-kak-sposob-soglasovaniya-toponimov-pri-pereimenovaniyakh-geograficheskikh-obektov.html>.
2. Казакова М.В. Идеологический аспект общественно-политической лексики и его отражение в словаре современного немецкого языка (на примере языка национал-социализма) // *Lingua Mobilis*. 2011. № 3. – С. 108 – 114.
3. Ртвеладзе Э.В. Великий индийский путь из истории важнейших торговых дорог Евразии. – Тошкент: «Zamon Press Info» нашриёт уйи МЧЖ, 2018.
4. <https://meros.uz/uzc/object/qora-kamar-gori>.
5. <http://welcomeuzbekistan.uz/ru/dostoprimechatelnosti/dostoprimechatelnosti-termez/1230-kara-kamar.html>.
6. Braund 1991. P. 190.
7. Litvinskiy, Vorobyova-Desyatovskaya. 1992. – Б. 427–508.
8. Turcan 1981. P. 4-5, rasm. 1-2.
9. Borichevskiy 1929. – Б. 3.
10. Buqa 1978. S. 75.
11. <https://bestlj.ru/178844-Mitraum-iz-cvetnogo-mramora-v-chest-rimskogo.html>

#### **BAYON – ONA TILI TA'LIMINING PRAGMATIK-DIDAKTIK VOSITASI**

**DOI: 10.53885/edinres.2021.50.61.061**

*Zulfiya Nozimovna To'yeva,*

Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

*Annotatsiya. Ta'lim maqsadi bilimdon, barkamol shaxsni yetishtirishni nazarda tutsa, bunda retroskopik usullar, deduktiv ta'lim yetakchilik qilishi shubhasizdir, chunki ta'lim*

*maqsadi shuni taqozo etadi. Ta'lim ijodiy tafakkur sohibi, tadbirkor shaxsni tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan bo'lsa, unda bunday maqsadni amalga oshirish uchun muammoli va tadqiqotchilik usullari, pragmatik ta'lim yetakchilik qilishi lozim. Bayon maktab ona tili ta'limi jarayonida yozma nutqni tartibga soluvchi hamda tafakkurni rivojlantiruvchi pragmatik-didaktik vositadir.*

**Kalit so'zlar:** maktab, ona tili ta'limi, ta'lim usuli, ijodiy tafakkur, bayon, pragmatik-didaktik vosita

O'zbek maktablarida ona tili ta'limi fundamentalizm va akademizm yo'nalishida bilimdon ijrochi shaxsni tarbiyalash tizimidan pragmatik yo'nalishda tadbirkor va ijodiy tafakkur sohibi bo'lgan shaxsni tarbiyalash tizimiga o'tdi. Ona tili ta'limining istiqloq sharofati bilan yangilangan maqsadi, mazmuni har bir o'quv soatida o'quvchilarga qanday bilimlarni va qanaqa malaka-yu ko'nikmalarni singdirishni talab qilmoqda? Didaktika tarixidan ma'lumki, bilim, ko'nikma, malaka hamda ijodkorlik har doim bir-birini taqozo qiladigan hodisalardir [3]. Shu o'rinda respublika birinchi Prezidentining: "Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o'z yo'liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir" degan so'zlarini eslash kifoyadir. Demak, bugungi kundagi ona tili ta'limi mazmuni sirasida o'quvchilarga taqdim etilayotgan bilimlar ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondira olishi, ularni ijodkorlikka, bunyodkorlikka unday olishi lozim.

O'quvchining egallagan bilimi, ko'nikma-yu malakasi uni qay darajada ijodkorlikka, bunyodkorlikka unday olishini ko'rsatuvchi ta'limiy me'yorlardan biri bayon yozdirishdir. Bayon umumiy o'rta ta'lim tizimida ham og'zaki, ham yozma nutqni o'stirish vositasi sifatida uzoq yillardan buyon muhim o'rin tutishini bilamiz. U ijodiy ishning asosiy turlaridan biri bo'lib, muayyan matn yoki matndan olingan parcha mazmunini o'quvchi tomonidan "o'z so'zi", "o'ziga xos uslub" asosida qayta bayon etish yoki boshlanishi berilgan matnni o'sha uslub, o'sha mazmunda davom ettira olish mahoratidir. Zero, umumiy o'rta ta'limning DTS talablariga ko'ra tuzilgan o'quv dasturida ijodiy ishlar uchun 5-sinfda 18 soat, 6-sinfda 18 soat, 7-sinfda 12 soat, 8-sinfda 16 soat, 9-sinfda 12 soat qo'shimcha vaqt ajratilgan [2].

Bayon o'qituvchining nazorati nuqtayi nazaridan ta'limiy va tekshiruv bayonlarga bo'linishini bilamiz.

Ta'limiy bayonni og'zaki shaklda ham, yozma shaklda ham o'tkazish mumkin. Tekshiruv bayon esa (bayon matni o'qituvchi tomonidan o'qib berilgach, mazmun o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilib og'zaki so'zlab berilsa-da) yozma shaklda o'tkaziladi. Bayon matnini tanlashning ham o'ziga xos jihatlari bo'lib, unda matn tanlashda o'quvchilarning yosh xususiyatlari va bilim saviyalari hisobga olinadi, ayniqsa, matnning tarbiyaviy jihatiga, davr talablariga qay darajada mosligiga alohida e'tibor beriladi.

Bayonlar o'tkazilish maqsadi va tartibiga qarab bir necha turlarga bo'linadi. Chunonchi, matnga yaqinlashtirib bayon yozish, qo'shimcha topshiriqli bayon, saylanma bayon, ijodiy bayon, ixcham bayon kabilar shular jumlasidandir [4]. Matnga yaqinlashtirib bayon yozish o'quvchidan diqqat-e'tiborni, o'zaro yaqin hodisalarni jamlay bilishni, masalaning tub mohiyatini anglay olishni taqozo etsa, qo'shimcha topshiriqli bayonda matn mazmunini to'g'ri anglay olish, uni belgilangan me'yorda yoritib berish kabi talablardan tashqari, masalan, o'tilgan muayyan grammatik qonun-qoida asosida olingan bilimlarning pragmatikasiga ham e'tibor qaratiladi.

Saylanma bayon yozishda o'quvchilarga ijodiy erkinlik beriladi: o'quvchilarga bir necha qismli matn tavsiya etiladi va ularga matnning istalgan bir qismi yuzasidan bayon yozish topshiriladi.

Bu holat o'quvchida umumiylikdan xususiylikni ajrata olish sezgirligini tarbiyalaydi.

Ixcham bayon yozishning ahamiyati shundaki, o'quvchining yosh xususiyatiga, psixologiyasiga, shuningdek, mentalitetga, milliy mafkuraga mos ravishda tanlangan matn mazmunini umumlashtirib asosiy g'oyani lo'nda ifodalash o'quvchini faollikka, mustaqil fikrlashga undaydi. Shuningdek, ular o'quvchilarda saylanma bayonlardagi kabi umumiylikdan xususiylikni ajrata olish malakasini shakllantiradi.

Bayon turlari ichida ijodiy bayon ona tili ta'limining bosh maqsadi bilan hamohangdir, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bunday bayonda o'quvchidan yo matn mazmuniga o'z munosabatini bildirish, yo boshlanishi berilgan matnni mazmunga mos ravishda davom ettirish talab qilinadi. Bundan tashqari, ijodiy bayonlar berilgan hajman kichik matn mazmunini kengaytirib bayon etish, voqeaband she'rlar mazmunini hikoya shaklida yoritish, dialoglarni umumlashtirib yozish, shaxsini o'zgartirib yozish kabi shakllarda ham o'tkazilishi mumkin. Masalan, 6-sinf o'quvchilarida turdosh ot va uning ma'noviy guruhlari to'g'risida tasavvur paydo qilingach, ularga ta'limiy bayon sifatida quyidagi maqollarni o'qib berish va maqollar mazmuniga o'z munosabatini bildirish talabini qo'yish o'rinlidir:

*Suv – yorug'lik.* (Suv bo'lgan joy gullab yashnaydi va kishilarning turmushiga yorug'lik olib kiradi.)

*Suv –oltindan aziz.* (Inson qimmatbaho zer-u zarlarsiz, masalan, oltinsiz yashashi mumkin, ammo suvsiz also kun kechira olmaydi.)

*Suv-zar, suvchi-zargar.* (Zargar zarning qadrini bilgani kabi suvchi ham suvning qadr-qimmatini biladi.)

*Suv keldi – nur keldi.* (Suvsiz joyga obi hayotning yetishi qorong'i joyga nur – yorug'likning kelishiga mengzaladi.)

*Oy suluvi – nur, soy suluvi – suv.* (Oy shu'lasi, taratayotgan nuri bilan, suv o'zani soy esa suvi bilan go'zal ko'rinadi.)

*Suvning qatrasi – oftobning zarrasi.*

*El hayoti yer bilan, yer hayoti suv bilan.*

*Ariqdan suv uzilmasa, savatdan non arimas.*

*Suv toralar tuproqqa, oro berar yaproqqa.*

*Suv yil oqar, olamga gul toqar.*

*Tomchi suvda tol ko'karar.*

*Suvsiz yerda tol bo'lmas, qovoqarida bol bo'lmas.*

*Suvsiz-yer mozor, suvli yer –gulzor.*

*Suvsiz yer-jonsiz jasad.*

*Suvsiz yerga qush qo'nmas.*

*Tashnaning tushiga suv kirar.*

*Suvni qum tagidan qidir.*

*Qum bor joyda suv bor, suv bor joyda jon bor.*

*Suv tilasang, Sulaymondan tila.*

*Suvga – ariq, yo'lga – choriq.*

*Ekin ekmoq oson, suv keltirmoq qayin.*

*Suv keltirar mard kishi, ekin ekar har kishi.*

*Suv keltirgan – mard, suv keltirmagan – nomard.*

*Suv qadrini quduq qazigan biladi.*

*Suv ichsang, quduq qaziganni unutma.*

*Suv bergan – savob, o't bergan – kabob.*

*Suv ichayotganga ilon ham tegmas.*

*Suv onasi – buloq, so'z onasi – quloq.*

*Suvni ich, chashmani bulg'atma.*

*Suv ichadigan qudug'ingga tupurma.*

*Quduqqa tupurma, qaytib icharing bor.*

*Suvni ko'rmay, etik yechma.*

Shu maqollar bilan bog'liq holatda o'quvchilarda atoqli ot va uning ma'noviy guruhlari to'g'risida tasavvur paydo qilingach, suv bilan bog'liq bo'lgan quyidagi gidronimlarni tavsiya etish va har bir qatorni davom ettirish topshirig'ini berish ham mumkin: (Shunda o'tkazilgan ijodiy bayon matni va topshirig'i o'quv dasturidagi keyingi mavzular bilan bog'lanadi.)

a) dengiz nomlari: *Orol dengizi, Kaspiy dengizi, O'lik dengiz, Azov dengizi, Qora dengizi,, Shimoliy dengizi,, Boltiq dengizi...*



b) daryo nomlari: *Qoradaryo, Oqdaryo, Sirdaryo, Norin daryosi, Zarafshon daryosi, To'polondaryo, Vaxsh daryosi...*

d) suv omborlari: Kattaqo'rg'on suv ombori, Chimqo'rg'on suv ombori, Pachkamar suv ombori.....

e) kanal nomlari: *Katta Farg'ona kanali, Janubiy Mirzacho'l kanali, Amu-Buxoro kanali, Amu-Zang kanali .....*

f) soy nomlari: *Oqtepasoy, Ko'ksaroysoy, Ohaklisoy, Oqsoy, Qizilsoy, Kosonsoy, Chodaksoy, Isfayramsoy, Quruqsoy.....*

g) ko'l nomlari: *Dengizko'l, To'dako'l, Chuqurko'l, Kattako'l, Moxonko'l, Shaytonko'l, Aqchako'l, Jarmishko'l, Chuqurko'l, Devonko'l.....*

h) buloq nomlari: *Arashonbuloq, Beshbuloq, Oqbuloq, Oydinbuloq, Sho'rbuloq, Qaynarbuloq, Qo'shbuloq, Mingbuloq.....*

Bizningcha, ona tili dars mashg'ulotlarida foydalaniladigan bayon turlari hamma vaqt ona tili ta'limining bosh maqsadi ro'yobiga bog'lanishi, umumiy dars jarayonidan «ko'richak» shaklida ajralib turmasligi shart. Yana aytish zarurki, dars – bayon o'tkazish – jarayonida ta'limning induktiv usullari bilan birga deduktiv usullaridan ham mahorat bilan foydalanish muhimdir. Zero, muhokama va muammoli ta'lim usuli hisoblangan induktiv usullar deduktiv usullarni rad etmaydi, aksincha, induksiya doimo deduksiya bilan mustahkam aloqada bo'ladi.

Xullas, ona tili ta'limi jarayonida o'quvchining so'z boyligini oshirish, so'zlarning ma'no nozikliklari, farq va o'xshashliklarini his qilish va anglab yetish, bexato talaffuz qilish va yozish, uzilgan fikrning davomini tiklash kabi qator mantiqiy operatsiyalarni bajarish, nutqiy tadbirkorlikni tarbiyalash, nutq vaziyatini to'g'ri baholash va til imkoniyatlaridan unga mos ravishda foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish va malakasini o'stirishda bayonning ham o'ziga xos o'rni bor. Zero, bayon maktab ona tili ta'limi jarayonida yozma nutqni tartibga soluvchi hamda tafakkurni rivojlantiruvchi pragmatik-didaktik vositadir.

### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. 2020-yil 7-avgust.
2. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2020-2021-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv reja. 2020-yil 25-fevral. XTVning 52-son buyrug'i.
3. Коменский Я.А. Буюк дидактика. – Т.: Ўқитувчи, 1975.
4. Yuldasheva D.N. O'zbek tilini o'qitish metodikasi (OO'MTV tasdiqlagan darslik).– Buxoro: Durdona, 2021.–445 b.
5. Dilorom Nematovna Yuldasheva. Problems of national language education at school. Volume 4 Issue 3 BSU 2020 (3) Published by 2030 Uzbekistan Research Online, 2020 <https://uzjournals.edu.uz/buxdu/vol4/iss3/15/>
6. Tueva Zulfiya Nozimovna, Yuldasheva Dilorom Nigmatovna. Statement and about its types. International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA issue 01, volume 93 published January 30, 2021. – Pag.72-77. <http://t-science.org/arxivDOI/2021/01-93/01-93-13.html>
7. Юлдашева Дилором Нигматовна. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури талаблари асосида таълим мақсадини белгилашнинг дидактик асослари: педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация.–Тошкент, 2007.–124 б.
8. Тўева Зулфия Нозимовна, Юлдашева Дилором Нигматовна. **БАЁН ВА УНИНГ ТУРЛАРИ ҲАҚИДА**. «Сўз санъати» халқаро журнали (ISSN: 2181-9297 DOI: 10.26739/2181-9297 [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)) –2021, 1-сон, 4-жилд. –В.:137-146. <https://tadqiqot.uz/index.php/art/article/view/395>
9. Dilorom YO'LDOSHEVA. Eskidan voz kechib, yangiga ko'nikish mashaqqati// <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/3832.htm>
10. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/119112> O'zbek tilini o'qitish metodikasi

**Аннотация.** Мавлоно Жалолiddин Румий яшаган давр билан ҳозирги давр оралигини 800 йил ташиқил этади. “Маснавийи маънавий” манзумаси яратилган замонда форс-тожик тилининг лугат бойлиги, фонетик ва грамматик жиҳати ўзига хос бўлган. Буюк адиб ўздан олдин яшаган шоирлар ижодини чуқур ўрганган ва маънавий меросидан хабардор бўлган. Жалолiddин Румий форс-тожик тилини мукаммал билишдан ташқари, илоҳий китоб, ҳадиси шариф, араб тили, юнон тили, турк тилини қунт билан ўзлаштирган. Пайгамбарлар ҳаёти, шайху сўфийлар ҳолидан яхши хабардор бўлган, халқона урф-одат ва ўйинлар, халқона ривоятларни ёддан билган. Адиб “Маснавий”да ўз кузатишлари, мақсад ва муддаоларини ўқувчига етказиши учун ривоятлар, ҳикоялар, қиссалардан унумли фойдаланган ҳамда юксак шеърини санъатлар орқали бадиий тасвирлашга муваффақ бўлган. Ўрни билан қадимги форс, турк, араб ва юнон афсоналарини ҳам келтириб ўтади. Шу боис асарда архаик сўзлар ниҳоятда кўп учрайди. Мазкур бўлимда биз асарнинг аслияти билан ўзбекча таржимасини қиёсий таҳлил қилиши жараёнида мавзумизга дахлдор масалани ўрганиб ўз мулоҳазамизни баён этишига ҳаракат қилдик.

**Калит сўзлар:** архаизм, истеъмолдан чиқиб қолган сўз ёки иборалар

“Мумтоз асарларни таржима жараёнида уларни замонавийлаштириб юбориш, асар қимматининг йўқолиб кетишига олиб келади. Уларнинг ўтмиш обидаси эканлигини англаиб туриши учун нимадир керак. Ўша нарса қадимий сўз ва иборалар бўлиб, таржимада улардан меъёрида фойдаланиш талаб этилади. Айни пайтда, муаллиф ва қаҳрамон нутқида ўша замонга мос келмайдиган сўзларни ишлатишдан эҳтиёт бўлиш лозим. Нафақат замонавий, балки ҳатто кейинги даврда пайдо бўлган сўз ва тушунчаларни қўллаш ҳам тарихий ҳақиқатнинг бузилишига сабаб бўлади<sup>1</sup>”.

“Архаизм” сўзи юнонча сўз бўлиб, “қадимги”, “кўхна”, “тарихий” деган маънони билдиради. Эскириб, истеъмолдан чиқиб қолган сўз ёки иборалар архаизм дейилади. Тилшуносликда лексик, фонетик, морфологик, фразеологик ва семантик архаизмлар учрайди. Архаизм адабиётда кўпроқ ўтмиш манзарасини акс эттириш, давр руҳини беришда услубий восита сифатида қўлланилади. Моҳир таржимашунос Эргаш Очиловнинг таъкидлашича, таржимада архаизмлардан икки мақсадда фойдаланилади: 1) мумтоз асарларни таржима қилишда; 2) тарихий мавзудаги асарларни таржима қилишда.

“Мумтоз асарларни таржима жараёнида уларни замонавийлаштириб юбориш, асар қимматининг йўқолиб кетишига олиб келади. Уларнинг ўтмиш обидаси эканлигини англаиб туриши учун нимадир керак. Ўша нарса қадимий сўз ва иборалар бўлиб, таржимада улардан меъёрида фойдаланиш талаб этилади. Айни пайтда, муаллиф ва қаҳрамон нутқида ўша замонга мос келмайдиган сўзларни ишлатишдан эҳтиёт бўлиш лозим. Нафақат замонавий, балки ҳатто кейинги даврда пайдо бўлган сўз ва тушунчаларни қўллаш ҳам тарихий ҳақиқатнинг бузилишига сабаб бўлади<sup>2</sup>”.

Мавлоно Жалолiddин Румий “Маснавий маънавий” манзумасини XIII асрда яратган. Ўша давр форс-тожик тили сўз бойлиги лексик, фонетик, морфологик ва фразеологик жиҳатдан ҳозирги давр тилидан анча фарқ қилади. Шунингдек, адибнинг асарда Қуръони карим, ҳадиси шариф, халқона ривоятлардан, ўздан олдин яшаган бир қатор ижодкорларнинг асарларидан моҳирона фойдаланганлиги ҳам асар тилининг ўзига хослигини кучайтиради. Буюк мутасаввуф шоир ўлкамизда тарқалган турли тариқатлардан, кароматлар кўрсатиб, халқ меҳрини қозонган шайхлар ҳаётидан хабардор бўлиш билан бирга, ўз тилининг чуқур билимдони бўлган. Бундан ташқари, қадимий

<sup>1</sup> Эргаш Очилов. Таржимашунослик терминларининг изоҳли луғати. Т.: - Б. 13.

<sup>2</sup> Эргаш Очилов. Таржимашунослик терминларининг изоҳли луғати. Т.: - Б. 13.

юнон тилини яхши билган. Асардаги Диоген билан боғлиқ ривоят фикримизни тўлиқ тасдиқлайди. Муаллиф манзумани яратиш жараёнида форс-тожик тилининг гўзаллигидан фойдаланибгина қолмай, бошқа тилларнинг сўз бойлигини ҳам ўринли ишлата олган. Адабиётшунос Расул Ходизода шундай ёзади: “...Дар ин роҳ вай аз ривояти китобҳои мўътабар ва махсусан, аз ҳикоят, латифа, афсонаҳое, ки дар байни халқҳои Шарқи Миёнаву Наздик (тожикон, эронийн, ўзбекҳо, туркҳо ва ғайра) паҳн шуда буд, хеле бисёр истифода мебарад”. Таржимаси: “Шу тарзда у ҳақиқий китоблардан, айниқса, *Ўрта Шарқ халқлари (тожиклар, эронликлар, ўзбеклар, турклар ва бошқалар) орасида тарқалган ҳикоялар, латифалар ва афсоналардан кенг фойдаланади*<sup>1</sup>”. Тадқиқот жараёнида мавзумизга дахлдор масалани қиёсий ўрганиш мақсадида, учинчи дафтар, яъни учинчи китобни назардан ўтказар эканмиз, анчагина архаик сўзларга дуч келдик, улар қуйидагилардир: **Бихил** – кечирши; **мезаҳад** – таваллуд топиш; **фатил** – ип, чирогнинг ипи; **сақф** – уйнинг шишти, осмондан киноя; **матбах** – ошхона, дунё, қисмат; **амроз** – мараз, касал, турли касаликлар; **аносир** – унсур, тўрт унсур, сув, олов, тупроқ, ҳаво; **мунбасит** – ёйилиш, хурсанд, шод бўлиш; **мултақит** – териб олувчи, ҳаз(қи) – баҳра, насиба, лаззат; **ижлол** – буюклик, эҳтиром қилиш; **дағов** – макр, ҳийла, фирибгар, маккор; **зафт** – семиз, катта жуссали, қўпол; **аккол** – ейдиган, қўп ейдиган; **заҳад** – сувнинг қайнаб ташқарига чиқиши, тугиш, нутфа, тифл, бола; **муқбил** – иқболли киши, бахтли инсон; **мунташир** – ёйилиш; **мустамир** – домий, устувор, муқаррар; **мункатеъ** – кесилган, узилган, айрилиб қолган, одамлардан узоқлашиш; **муҳаллад** – домий, абадий, боқий, ҳамиша; **мужтамеъ** – йиғиштирилган, устига – устак тўпланиш; **ахтор** – хатар, хавф, бим, қўрқиш, қадр, қимат; **хабл** – ип, банд; **сақим** – бемор, касал, мараз, ожиз, нотўғри, хато; **падфўз** – пад – мевасиз дарахт, кўк дарахт; **фўз** – фавз ҳайвонларни бурни; **рағиф** – ноннинг бир бўлаги, айлана нон; **мавқуф** – кейинга ўтказиш, бошқа вақтга ўтказиш, ушлаб туриш, маҳбус; **фатом** – ёш, гўзал, барно; **уқул** – ақл, ейиш, таомлар; **автон** – ватан; **ур** – кийимсиз, кийимсиз одам, камбағал; **газанда** – зарар, зиён; **ҳазин** – гамгин, андўҳ; **мустағос** – бировни ёрдамга чақириладиган, додлаш, ёрдам сўраб чақирши; **роғиб** – рағбатлантириш, мойил, толиб; **қаловуз** – туркча раҳбар, лашкардан олдин борадиган; **сафир** – ҳуштак чалиш, қушларнинг овози, чаҳ-чаҳ қилиши, гичирлаб овоз чиқариш; **макман** – ёширадиган, пинҳон бўлиш; **ҳанин** – нола, йиғлаш; **момазо ё момазо** – ўтган вақт, ўтган нарса; **ҳавоич** – ҳожат; **фурч(ж)а** – очилган, икки нарсани орасидаги очиқлик, вақт, фурсат;

“Маснавий” асаридаги архаик сўзларни таржима қилиш жараёнида Жамол Камол асарни юқорида таъкидланган талабларни ҳисобга олган ҳолда ўзбек тилига ўгирган. Буни қуйида аслият билан таржимани қиёсий ўрганиш жараёнида гувоҳи бўлдик:

Чун дар ў гоме занӣ беэҳтиёт,

Шири ту хун мешавад аз ихтилот (2, 120)

Байтда 2 та тарихий сўз мавжуд. Булар “гом” ва “ихтилот” сўзлари. Биринчисини таржимон “қадам” тарзида ўгирганки, бизнинг фикримизча жуда тўғри. Ҳозирги кунда “гом” сўзи форс-тожик тилида ҳам ишлатилмайди. У архаик сўзга айланиб бўлган. Шу боис мутаржим уни мазмунан “қадам” тарзида ўзбек тилига ўгирган:

Сен қадам қўйсанг агар беэҳтиёт,

Қон қилур оппоқ сутингни ихтилот (2,138)

Мутаржим шоир иккинчи сўз “ихтилот”ни айнан ишлатган, унинг ўзбекча вариантини қўлламаган. “Ихтилот” сўзи аралаштириш, аралашган, яқинлик маъноларини билдиради. Шу боис таржимон иккинчи архаик сўзни аслиятдагидек қолдиришга қарор қилган. Бошқа томондан бу сўз қофия бўлиб келганлиги боис ҳам ўзгартирилмаган бўлиши мумкин.

Қуйидаги аслиятдаги байтда учта сўз архаистик хусусиятга эга дейиш мумкин. Булар “қумош”, “нақд” ва “мизон” сўзларидир. Дарҳақиқат, “қумош” сўзи (тарихда латиф мато, абрешим ва шоҳий материал маъноларида ишлатилган) қадимий сўз ҳисобланади.

<sup>1</sup> Чалолитдин Румӣ. Ҳикоятҳои халқии “Маснавий”. Душанбе. 1963. - Саҳ 11.

“Нақд”нинг луғавий маъноси “пул” ва “мизон” эса “тарозу”, “синаб кўриш” каби маъноси бор. Асрлар давомида бу сўзлар маъно жиҳатидан ўзгариб, кенгайиб, қўшимча маъно касб этган.

Чист дунё? Аз Худо ғофил будан  
Бе қумошу нақдаву мизону зан (1, 40)

Шоир байт таржимасида барча юқорида тилга олганимиз сўзларни келтирган. “Қумош” ва “нақд” сўзи “молу пул” шаклида таржима қилинган. “Мизон” сўзининг таржимаси йўқ. Таржимада янги сўз – “роҳат” киритилган. Айтиш мумкинки аслиятдаги архаик сўзларни таржима қилишда мутаржим ўзгача йўл тутган. У байт мазмунини умумий ҳолда сақлашга ҳаракат қилган:

Не эмиш дунё, эсанг Ҳақ ғофили,  
Не эмишдир роҳати, молу пули (1,42)

Пастдаги байтда “истифтоҳ” сўзи архаик сўз бўлиб, ражаб ойининг ўн бешинчи куни номи ҳисобланади. Бу кунда осмон ва Каъба эшиклари очилади ва дуолар қабул бўлади. Жалолиддин Румий “Маснавий”нинг ёзиб тугатилган кунига ишора қилмоқда:

Маснавий, ки сайқали арвоҳ буд,  
Бозгашташ рўзи истифтоҳ буд.(2, 120)

Бизнингча, байтнинг таржимасида мутаржим эскирган сўзни икки сабаб ила аслиятдагидай сақлайди. Биринчидан, бу сўзнинг ҳозирги замонда синоними, маънодоши йўқлиги, иккинчидан аслиятдаги қофия ва радифни сақлаш иштиёқи шунга ундайди:

Маснавийким, сайқали арвоҳ эди,  
Қайтгани ул рўзи истифтоҳ эди (2,138)

Кейинги байтдаги “соид” сўзи кўп маъноли сўз бўлиб, биринчидан, қўл, қўл ўртаси, қўл бандидан қорингача маъноларида, иккинчидан, сайёд ва овчи маъноларида, учинчидан, юқорилаб борувчи маъноларида ишлатилади.

Байтда шоир иккинчи маънони (сайёд ва овчи) ишлатган. Биринчи мисрадаги “боз” сўзи эса “шикорчи қуш” маъносида келмоқда.

Соиди шаҳ маскани ин боз бод,  
То абад бар халқ ин дар боз бод (2,120)

Байт таржимасида негадир “соид” сўзининг биринчи маъноси танланган ва аслиятдаги биринчи мисрадаги “боз” сўзига умуман эътибор қаратилмаган. Натижада байт мазмунига таъсир қилиб, фикр мантиғи бузилган:

Шоҳ қўли унга макон бўлсин абад,  
Бул эшик элга равон бўлсин абад (2,138).

Қуйида форс-тожик тилидаги байтда “ағёр” ва “дай” сўзлари эскирган сўзлардир. “Ағёр” сўзи “бегоналар, нотанишлар” маъносида келган. “Дай” сўзи эса “қиш, сармо” маъноларида келмоқда:

Хилват аз ағёр бояд, на зи ёр,  
Пўстин баҳри дай омад, на баҳор (2,120)

Мутаржим шоир байтнинг таржимасида “ағёр” сўзини аслиятдагидай қолдиришга жазм этган. Лекин “дай” сўзининг маънодоши ўзбек тилида бўлганлиги боис уни “қиш” шаклида таржима қилган. Натижада таржимадаги байт аслиятдаги байт юқини тўлақонли кўтара олган. Моҳир таржимон байт мазмунини нуқсонсиз ўз ўқувчисига етказган:

Хилват эт ағёрдин, ёрдин эмас,  
Қишда кий пўстинни, иссиқ ёздамас (2,138)

Баъзан таржимон вазн тақозоси ё бошқа сабабдан архаик сўздан воз кечиш ҳоллари ҳам учраб туради. Бу ҳолда маъно озгина бўлса ҳам бузилса-да, умумий руҳ сақланиб қолади. Масалан, қуйидаги байтда “ҳазан” сўзи “ғам, ғусса, андух” маъноларини билдиради. Бу ерда шоир “Жонинг, танангдаги ғам-ғуссаларни акс эттирувчи ойина бу сенинг ёрингдир” демоқчи:

Ёр ойинаст чонро дар ҳазан,  
Дар рухи ойина, эй чон, дам мазан (2, 120).

Таржимада эса негадир “ҳазан” архаик сўзи таржима қилинмай, ундан воз кечилган. Байтнинг мазмуни умумий руҳда ўзбекчага ўгирилган, лекин барибир шоир айтган гап чала таржима қилинганлиги билиниб турибди:

Ёрни сен жонингга чин ойина бил,  
Пок тут ойнани, дам урмагил.(2, 138)

Қуйидаги байтда эса “лиҳоф” сўзи архаистик сўз ҳисобланади. Бу сўз ҳозирги замонда “кўрпа” маъносини билдиради:

Дар хазон чун дид ў ёри хилоф,  
Даркашид ў рўву сар зери **лиҳоф**. (2,121)

Аслиятдаги шеърӣ мисраларни таржимада ифодалаш, анча заҳматни талаб қилади. Мутаржим кўлга қаламни олар экан, доим муаллиф мақсадини тўлақонли қайта яратишни истайди. Аммо бу ҳолат ҳамма вақт ҳам айтгандек чиқмаслиги мумкин. Жамол Камол ҳам бутун қобилиятни ишга солиб шундай асарни ўзбек тилига безавол ўгиришга муваффақ бўлди. Хусусан, мазкур байтдаги архаик сўзни замонавий ва китобхонга аслиятдаги мазмунидек аниқ ифодалаб беришга ҳаракат қилиб, урдасидан чиққан. Моҳир таржимон байт мазмунини тўлалигича сақлаган ҳолда “лиҳоф” архаистик сўзини “кўрпа” тарзида таржима қилиб, ўқувчиларга етказган.

Таъкидлаш жоизки, мутаржим Жамол Камол “Маснавий” таркибидаги архаик сўзларни таржима қилиш жараёнида, асарда тасвирланган давр руҳини аслиятга мувофиқ акс эттиришда, қаҳрамонлар нутқининг табиийлигини таъминлаш мақсадида таржимада муайян даражада тилнинг архаик бойлигидан ҳам фойдаланган.

#### Адабиётлар:

1. Мавлоно Жалолуддин Муҳаммади Балхӣ. Маснавийи маънавий. Бар асоси матни Р. Николсон ва муқобил бо нусхаҳои дигар.- Техрон. Нашри замон. 2001. - Саҳ 727.

2.Мавлоно Жалолуддин Румий. Маснавийи маънавий. Биринчи дафтар, Иккинчи дафтар, Учинчи дафтар. Форсийдан Ўзбекистон халқ шоири Жамол Камол таржимаси. Тузатилган учинчи нашри. –Т.: “Adabiyot uchqunlari”, 2014. – Б. 448.

3. Мавлоно Жалолуддин Румий. Маснавийи маънавий. Тўртинчи дафтар, Бешинчи дафтар, Олтинчи дафтар. Форсийдан Ўзбекистон халқ шоири Жамол Камол таржимаси. Тузатилган учинчи нашри. –Т.: Adabiyot uchqunlari, 2014. – Б. 448.

4.Тўхсанов Қаҳрамон. “Маснавий”да халқ мақоллари ва уларнинг таржимадаги ифодаси. Монография. Т.: “Наврўз”. 2019. – Б. 124.

5. Тўхсанов Қаҳрамон. Ж.Румий “Маснавийи маънавий” асарининг ўзбекча таржимаси. GlobeEdit. 2019. – Б. 150.

6. Tukhsanov Kahramon DjamaI kamal is an experienced translator. International Scientific Journal ISJ Theoretical, Applied Science Philadelphia, USA issue 04, volume 84 published April 30, 2020. Of publication with Impact Faktor. <http://s-o-i.org/1.1TAS-04-84-173>. [https://dx.Doi.org/10.15863/TAS\\_950-956](https://dx.doi.org/10.15863/TAS_950-956) бет.

7.Tukhsanov Kahramon. Folk proverbs in “Masnavi” and their expression in uzbek translation. International Scientific Journal ISJ Theoretical, Applied Science Philadelphia, USA issue 04, volume 84 published April 30, 2020 Of publication with Impact Faktor. 301-306 бет.

8. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yuldasheva D. Hozirgi o`zbek tili. Darslik. – Buxoro: Durdona, 2021.–555.

9. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/119111> Tilshunoslikka kirish

10. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/119110> Hozirgi o`zbek tili

**O`ZBEK TILINI O`QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK  
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANINSHNING AHAMIYATI  
DOI: 10.53885/edinres.2021.13.71.081**

*Tojiyeva Nargizaxon Elmurod qizi*

Alisher Navoiy nomidagi

TOSHDO`TAU 4-bosqich talabasi

mubinatojiyeva1@gmail.com

*Fattoyev Shohjahon Yorqin o'g'li*

Chirchiq Davlat pedagogika institute

4 - bosqich talabasi

fattoyevshohjahon9gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Metod haqida ma'lumot, metodning kelib chiqish tarixi, O'rta Osiyo mutafakkirlarining va Yevropa olimlarining metodning rivojlanishi va taraqqiyotiga qo'shgan hissalari, metodika haqida yozilgan asarlar, metod taraqqiyotida yevropa tajribasi, o'zbek tilini o'qitishda interfaol metodlarning afzalliklari va kamchiliklari, oily va o'rta ta'lim tizimida metodlar qo'llanilishi, o'zbek tili ta'limida o'qitishining ayrim usullaridan foydalanish metodikasini tadqiq qilish, ta'lim bosqichlarida bu usullarning o'ziga xos xususiyatlarini tahlillar asosida qiyosiy o'rganib chiqish kabi masalalarga e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Metod, Metodologiya, Texnologiya, Ona tili ta'limi, darslik, Metodik funksiyalar, interfaol usullar, modellashtirish, Metodlar qo'llashning afzallik va kamchiliklari.

**Kirish.**

**Metod** — so'zi yunoncha "**metodos**" — bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot, voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'lyo'riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli degan ma'nolarni anglatadi.

Metod o'z mazmuni jihatidan amaliy yoki nazariy shaklda bo'lishi mumkin. Metodlar haqidagi ta'limot fanda metodologiya deb ataladi. O'rta Osiyo olimlari Forobiy, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino kabi buyuk siymolarimiz fan metodlarini rivojlantirganlar. Metodlarning inson hayoti va faoliyati uchun ahamiyati beqiyosdir. Ayniqsa o'z ona tilimiz bo'lmish o'zbek tilini o'qitishda zerikarli darslardan chekingan holda darslarni qiziqarli metodlar orqali o'quvchilarni fanga qolaversa o'zbek tiliga muhabbatli qilish va tilning boyligini saqlash uchun metodlar juda katta ahamiyatga egadir.

Jamiyat rivoji fan va texnika, ta'lim-tarbiya taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq. Insoniyat sivilizatsiyasining quyi bosqichlarida shaxsni tarbiyalash, unga ta'lim berishga yo'naltirilgan faoliyat sodda, juda oddiy talablar asosida tashkil etilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ta'lim jarayonini juda qat'iy hamda murakkab talablar asosida yo'lga qo'yish zarurati tobora ortib bormoqda. Masalan, o'zbek tili fanini o'qitishda birqancha samarali metodlar bilan ishlash o'quvchida o'z ona tilini qolaversa o'zga millat o'zga til vakillari uchun esa o'zbek tilini o'zidek anglab, o'zbek tilini hurmat qilib va uni sevishtida eng katta omillardan biri hisoblanadi. Sh sababli o'zbek tili fanidan ta'lim beradigan mutaxassislarni metodlar bilan ishlay oladigan, o'z metodi ustida ishlab uni har bir o'quvchiga individuallashtira oladigan dars jarayoni mohiyatini to'laqonli anglay olgan, favqulotda ro'y beruvchi vaziyatlarda ham yuzaga kelgan muammolarni ijobiy hal eta olish salohiyatiga ega bo'lgan malakali mutaxassis o'qituvchilarni tayyorlash zarurati ta'lim jarayonini ham metodik yondashuv asosida tashkil etish lozimligini taqozo etmoqda.

Metodning kelib chiqish tarixi kishilarning amaliy faoliyatiga borib taqaladi. Biror ishni bajarish metodini egallagan kishi shu ishni boshqalarga nisbatan oson, tez va mukammal bajara oladi. Metodni egallamagan inson esa bu ishni bajarish uchun ko'p vaqt va kuch sarflaydi.[1] Metod o'z mazmuni jihatidan amaliy yoki nazariy shaklda bo'lishi mumkin. Insonning amaliy faoliyatiga oid metodlar ham voqelikka xos bo'lgan qonuniyatlarni anglab yetish, bilib olishga borib taqaladi. [2]Metodlar haqidagi ta'limot fanda metodologiya deb ataladi. Inson dastlab atrofdagi narsa va hodisalarni kuzatish, ularni bir-biriga taqqoslash, o'xshatish, farq qilish

asosida voqelik haqida bilimlarini to'plab borgan. Voqelik haqidagi fanlar rivojlanishi bilan fanlarda qo'llaniladigan yo'l-yo'riqlar, metodlar ham takomillashib borgan.[3] Fanning amaliy (empirik) va nazariy metodlari vujudga keldi. Fan metodlarining asosiy mazmunini amaliyotda sinalgan ilmiy nazariyalar tashkil etadi. Har qanday ilmiy nazariya mohiyati jihatidan metodik funksiyaga egadir. Metod o'z navbatida, yangi ilmiy nazariyalar va qonuniyatlarning ochilishiga vosita bo'ladi. Shu nuqtai nazardan metod va ilmiy nazariya bir-biridan funksiyasiga ko'ra farq qiluvchi ilmiy amal hisoblanadi.[4].

O'rta Osiyo olimlari *Forobiy, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino* kabi buyuk siymolarimiz fan metodlarini rivojlantirganlar. Xorazmiy olimlarni uchga bo'lib, ularning bir qismi ilmiy kashfiyotlarni ochishda qullaniladigan yo'l-yo'riq va usullarni ishlab chiqib boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarini osonlashtiradi, deb yozganida, aynan shu metodlarni ishlab chiquvchi olimlarni nazarda tutgan.

Yaqin davr Yevropa faylasuf olimlari ham metod taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shishdi. *F. Bekon, G. Galiley, R. Dekart, G. Leybnis* singari faylasuflar metodlar haqida maxsus asarlar ham yozishdi.

Hozirgi zamonda har qanday yo'nalishda ko'plab umumiy, xususiy va ilmiy metodlar qo'llaniladi. Ayniqsa, o'zbek tili ta'limi sohasida Texnologiyalar asri bo'lmish XXI asrda modellashtirish va kompyuterlashtirilgan metodlar keng miqyosda qo'llanilmoqda. Darslar o'zbek tili darsliklaridan tashqari mashq va topshiriqlarni o'yin tarzida proyektorlar va shu kabi zamonaviy texnologiyalar orqali tashkil etilayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz.

O'zbek tili darslari zamon talablariga mos bo'lgan metodlarni qo'llash o'quvchilar va talabalarning e'tiborini jalb qila oladigan texnologiyalardan foydalanib darslarni tashkil etishga bo'lgan urinishlar bir qancha metodlarning ommalashishiga asos bo'lmoqda. [5] O'qitishning samaradorligini oshirishda o'quv jarayonida "Blits-o'yin", "Bumerang metodi", "Skarabey metodi" kabilardan ham foydalanish mumkin. Masalan, "Agar men ... bo'lsam", "Men shunday qilgan bo'lardim" kabilalar.



Xulosa qilib aytganda, o'zbek tili darsini tashkil qilishda pedagogik metodlarning o'z o'rnida ya'ni o'quvchilarning va talabalarning yoshiga, yo'nalishiga asoslangan holda qo'llanilishi ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiradi. Ta'limda metodlarning qo'llanilmasligi yoki noo'rin qo'llanilishi oqibatida o'quvchining o'zbek tili fanidan zerikishi, qiziqishlari pasayishiga olib kelishi mumkin. Aksincha darsni tashkil etishda metodlar muvaffaqiyatli qo'llanilganda o'quvchida fanga qiziqish uyg'otib, kelajakda aynan shu fan orqali yutuqlarga erishishiga ishonch uyg'otadi va o'zbek tiliga bo'lgan muhabbati hurmati yuksaladi. Shuning bilan bir qatorda o'zbek tilida, o'z ona tilida to'g'ri yoza oladi, ravon o'qib, adabiy tilda xatosiz gapira olish salohiyati shakllanadi. Darsda mavzularni tez va oson o'zlashtirib oladi hamda metodlar orqali ta'limga o'qishga kitobga muhabbat bilan bog'lanadi. Hozirgi axborot texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan davrda katta hajmli ma'lumotlarni qabul qilish o'quvchida birmuncha qiyinchiliklar tug'diradi.

Shu boisdan o'qituvchi dars jarayonini qiziqarli o'yin, savol javob va turli tarzdagi interfaol metodlar orqali shakllantirishi o'quvchining ma'lumotlarni tez va oson tushunishini ta'minlaydi. Muxtasar qilib aytganda: metod har bir soha vakilining mashaqqatini ozaytirib faoliyatini yengillashtiruvchi bir usuldir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. DTS va o'quv dasturi 6 maxsus son.T.1999
2. Tolipov U. Pedagogik texnologiyalar T. 2005
- 3.Eshmuratov M. Innovatsion texnologiyalar. T.2011 16. Abdukarimov H.,O.Suvonov. Umumiy pedagogika: texnologiya va amaliyot. – T.: o'quv-metodik qo'llanma.2012
4. Bo'ronova Sh. Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish. Uzluksiz ta'lim. 2004. №3, 23-28 b.
- 5.Tojiyeva N. Ta'lim samaradorligini oshirishda pedagogic metodlarning ahamiyati.- Maqola

**Internet materiallari:**

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. <http://books.google.co.uz/books/S.K.Mangal>

**АПЕЛЛЯТИВ ВА ТОПОНИМ**  
**DOI: 10.53885/edinres.2021.79.37.063**

*Усмонова София Алимовна,*  
катта ўқитувчи, Кўкон ДПИ

**Аннотация.** *Апеллятив термини асли лотинча бўлиб, бу грамматик атаманинг маъноси турдош от демакдир. Тилишуносликда бу атама турдош от маъносидан кенг маънода қўлланишга эга [1.49]. Апеллятив нафақат турдош от, балки атоқли отларга оппозицияда турувчи барча сўз туркумлари учун қўлланаверади. Оним атоқли отларга зидланувчи барча сўзлар апеллятив лексикани ташиқил этади [4. 288]. Апеллятив лексика таркибида ўрин-жой маъноли турдош (апеллятив) отлар махсус лексик-семантик гуруҳни ташиқил этади. Апеллятив от ҳам, топоним ҳам жой билдиради, жой бу икки турдаги сўз гуруҳларининг атов объектидир.*

**Калит сўзлар:** *апеллятив, топоним, номинация, географик объект*

Апеллятив отда ҳам топоним (топоном)да ҳам номинация (номланиш) мавжуд. Апеллятив от шартли белги мақомидаги биринчи номинацияга (масалан, ж+а-р – “...”) топоним эса шу турдош от ифодалаган жойлардан бирининг қайта номланиши ёки иккинчи номинациясига эга: жар кўп жарларнинг умумий номи, Кўтон жар(жарлардан бирининг номи). Апеллятив от бир турдаги географик объектни жамлаб кўрсатади, бошқа тур объектлардан фарқлайди, топоним эса бир турга мансуб бўлган ўхшаш объектлардан бирини кўрсатади, бир тур ичидаги яқка объектни ўзига ўхшаган бошқа объектлардан фарқлайди [3]. Юқорида эслатилганидек, апеллятив от ва топонимнинг объекти бир бўлиб, улар умумийлик-хусусийлик, кўплик-бирлик мақомига эга бўлиб, топоним ифода жой апеллятив от англатган жой (жойлар) асосида шаклланади. Бундан кўриниб турибдики, аввало, жойнинг ўзи нима эканлиги, унинг турларини аниқлаш ва шу асосда апеллятив от ҳамда топонимлар семантикасини, апеллятив семантиканинг топоним семантикат (лексик маъно)га айланишини ўрганиш муҳим аҳамиятга эга. Шунинг учун бевосита апеллятив, билвосита топоним асосида турлича жой тушунчасини аниқлашга ҳаракат қиламиз.

Фалсафий жиҳатдан қараганда, жой ёки макон бутун олам тузилиши, моддийлигининг шаклларидадан биридир, хусусан, бутун оламда ҳар қандай нарса ёки ҳодисанинг мавжудлиги (борлиги) унинг от ва макон (жой)га эғалигидир. Бошқача айтганда, ҳар қандай нарса ёки ҳодиса муайян макон (ўрин, жой)га эғалиги учун ҳам мавжуддир. Агар шу объект белги (маконий белги) бўлмас экан, оламда нарса (ҳодиса) лар ҳам бўлмайди. Жой (макон) объективликка, биздан ташқарида мавжудликка эга. Шунинг учун ҳам ҳар қандай, хусусан, ўзбек тилида жойларни реалия, денотат сифатида ўзида акс (инъикос) эттиради ва ўзининг луғатида ўрин-жой отлари лексемалари парадигмаларини ҳосил қилади.

Ўзбек тилининг изоҳли луғати (ЎТИЛ)да апеллятив от ва топонимларнинг маъноларига хизмат қилувчи сўзлар сифатида жой, ўрин, манзил, макон каби синоним лексемалар келтирилади. Ўз-ўзидан тушуниладики, инсон ҳаёти билан боғлиқ бўлган оламда жонли, жонсиз нарса ва ҳодисалар ўта хилма-хил буларга хос бўлган жой тури ҳам бир-биридан фарқлидир. Ана шу хилма хиллик жой лексемасининг вариант ёки полисемияларида акс этган. Аслида ана шу вариант жойлар апеллятив отнинг мазмун мундарижасини ташкил этади ва бу жой номларидан кўплари атоқли от билан аталиш,



топоним лексикага айланиш имкониятига эга. Топонимист ЎТИЛда берилган жой маъноли лексемалар изоҳига шу нуқтаи назардан қараши лозим.

ЎТИЛда жой лексемасининг полисемантик маънолари ёки бу маъноларнинг атов объект (денотат)лари қуйидагича аниқланган: 1) бирор кимса ёки нарса ишғол қилиб турган ер, юза, фазо; 2) маълум бир воқеа-ҳодиса рўй берган ер; 3) маълум бир нарса ёки иш-ҳаракат учун энг қулай, мос ер, ўрин; 4) ер юзининг, фазонинг белгили, бирор хусусияти билан ажралиб турадиган ери, нуқтаси; 5) географик ёки маъмурий ҳудуд; тараф, томон, ўлка; юрт; 6) бирор нарсанинг айрим қисми, ери, бўлаги; 7) бадий асар, муסיқа ва шу кабиларнинг бирор керакли ери; 8) гап, иш, ҳатти-ҳаракат ёки белгиларнинг шахсий баҳо бериш учун асос, дастак бўладиган ери; 9) яшаш, ҳаёт кечириш, ётиш-туриш учун хизмат қиладиган ер; уй-жой, ҳовли жой, бошпана; 10) ўтириш ёки ётиш учун қилинган, солинган, тўшалган ўрин; 11) мерос сифатида қолган, бирор кимсага тегишли ер-мулк, ҳовли-жой; 12) оила, хонадон [4. 99-100] каби.

Апеллятив номларга алоқадор жойларни икки турга ажратиш мумкин: нарсанинг хусусиятига эга бўлган жойлар ва нарсанинг хусусиятига эга бўлмаган жойлар. Аввало, шуни айтиш керакки, ҳар қандай нарса (кенг маънода) жойлик, жой бўла олиш хусусиятига эга. Масалан дарахт, китоб апеллятив отлари нима сўроғига жавоб бўлувчи биологик нарса (дарахт) ва ўқув предмети (китоб)дир. Масалан, Қуш дарахтда (нимада?// қаерда?) турибди. Пул китобда (нимада?// қаерда?) турибди. Ушбу ўринда жой маъноси ўрин келишиги асосида шаклланмоқда. Жой маъносининг бундай йўл билан ҳосил қилинишига морфологик усул дейилади, чунки бунда нарса билдирувчи отларга кўмакчи ва келишик қўшилади. Жой маъноси ҳосил бўлишининг яна бир усули лексик-семантик усулдир. Бунда жой маъноси лексеманинг семалари асосида шаклланган бўлади. Хусусан, қишлоқ –қишлоқ хўжалиги ишлари билан шуғулланувчи аҳоли жойи [4.315]; маҳалла шаҳар аҳолисининг муайян қисми яшайдиган жой [4.572] каби. Шунингдек, жой маъноси ҳосил бўлишининг аффиксал деривация (Ўзбекистон - ўзбеклар яшайдиган жой; гулзор – гуллар жойи) ва синтактик деривация (Муқимий боғи – Муқимий номига қўйилган, кишилар маданий дам оладиган жой; Яқкатут қишлоқ аҳолисининг муайян қисми яшайдиган жой). Бундан ташқари жой номи ҳосил бўлишининг конверсия усули ҳам мавжуд. Масалан, этнонимнинг топонимга айланиши: қўнғирот (уруғ номи) → Қўнғирот (жой номи) каби. Шундай қилиб, жой маъноли апеллятив отлар ўзларига хос семантика ва ясалиш хусусиятларига эга.

Жой маъноли апеллятив сўзлар ва улар асосида ҳосил бўлган топонимларнинг энг муҳим лисоний хусусиятларидан бири уларнинг градуал (даражали), приватив (муайян белгининг мавжуд ёки мавжуд эмаслиги бўйича) ва эквиполент (белгиларнинг нисбий мустақиллигига ёки кучли даражадаги ҳар хиллигига кўра) каби оппозиция (зидланув) ларга эгалигидир [2]. Масалан, оқар сув ҳажмининг босқичли оқиб бориши асосида ариқ → канал → сой → дарё каби, оқмас сув ҳажмининг тадрижий ошиб бориши бўйича ҳовуз → бассейн → сув омбори → кўл → денгиз каби апеллятив отлар шаклланганки, улар асосида топонимлар шаклланган: кўл → Иссиқкўл, дарё → Сирдарё каби.

Жой маъноли апеллятив от, отлашган сўзлар ва уларнинг номлаш объектларнинг хусусиятларини ўрганиш, апеллятив отдан қай бирларининг топонимларга айланиши, булар билан боғлиқ бўлган қонун ва тамойилларни билиш ва шу асосда микротопонимия, мегатопонимия, макротопонимияларни тадқиқ этиш ҳозирги ўзбек тилшунослигининг долзарб масалаларидан ҳисобланади.

#### Адабиётлар:

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. Москва: 1966.
2. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. – Т.: Фан, 1995.
3. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. - М.: Наука, 1973. - 366 с.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II жилд, 99-100 бетлар, III жилд, 572-бет, V жилд, 315-бет.
5. Энциклопедия русского языка. Москва: 1997, стр. 288.

# O'ZBEK TILI PAREMIOLOGIK BIRLIKLARIDA SOMATIK SO'ZLAR SALMOG'I

(Janubiy Surxondaryo o'zbek shevalari misolida)

DOI: 10.53885/edinres.2021.91.17.083

Xamidov Mansur Abdumannobovich

Termiz davlat universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası

o'qituvchisi, erkin tadqiqotchi

Biz yashab turgan olam va undagi hamma narsalar, voqeliklar, hodisotlar zanjirida, uning markazida INSON turadi. Jamiyatdagi turli xil sohalar qatori Tilshunoslikda ham bu asosiy jihat hisoblanadi. Buni “antroposentrik” tadqiqotlarda yaqqol ko'rishimiz mumkin. Ilmiy ishlarning bevosita va bilvosita tadqiq obyektida inson va u bilan bog'liqliklar mujassamlashadi. Buni iboralar, ideomalar, o'xshatishlar, paremiologik birliklar va boshqa lingvistik sohalarda ko'rishimiz mumkin. Biz fikr yuritmoqchi bo'layotgan mavzu ham aynan shu jihta bilan bevosita bog'liq.

Inson hayot kechirar ekan u o'zini o'rab turgan borliqni tasavvurida, tafakkurida idrok etar ekan albatta, taqqoslashlar, o'xshatishlar, shuningdek, kuzatishlar asosida o'rganadi. Buni birinchi navbatda o'zidan boshlaydi. Ya'ni tana a'zolariga nisbatan tahlil qiladi. Biz buni “somatik” atamasi bilan nomlaymiz.

Ilk manba sifatida e'tirof etiluvchi M.Koshg'ariyning “Devonu lug'ati-t- turk” asaridagi “Og'iz yesa ko'z uyalur”, “Tirishqoqning labi yog'li, erinchoqning boshi qonli” [1; 36,41] kabi paremalarda somatik so'zlar salmoqli o'rin egallaydi. Ushbu xususiyatni iboralarda ham uchratishimiz mumkin. [2; 22]. Eng mahsuldorlari “ko'z, bosh, yurak”dir. Bu kabi somatik so'zlar nafaqat o'zbek tilida, shuningdek, hozirgi turkiy tillar uchun ham birdek sermahsul hisoblanadi [3; 6]. Ularda ayrim fonetik farqlar kuzatilsa ham [4; 39] semantik jihatdan o'xshashlik kasb etadi. Bu bo'yicha Sh.Usmonovanning “O'zbek va turk tillarida somatik frazeologizmlar”, U.Rashidovanning “O'zbek tilidagi somatik iboralarning semantik-pragmatik tahlili (ko'z, qo'l va yurak komponentli iboralar misolida)” kabi bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan. Maqol, matal, aforizmlardagi aynan somatik so'zlar bilan bog'liq ishlar frazeologizmlar kabi salmoqdor emas. Shevalardagi paremalar misolida tadqiq qilish esa yanada dolzarb ahamiyatga ega. Chunki sheva axborotchilari bo'lgan kekxa avlod va hozirgi yosh avlod o'rtasidagi ijtimoiy tafovud shuni taqozo qiladiki, biz ayni vaqtda ularni to'plab o'rganmas ekanmiz, avlodlar almashinuvida bu hol yo'qolib ketishi va jonli ichki manbamiz qiymati kamayishi mumkin.

Biz to'plab tadqiq qilayotgan Janubiy Surxondaryo o'zbek shevalari barqaror birikmalar tarkibidagi somatik so'zlarni bir qator xususiyatlariga ko'ra guruhlash lozim deb topdik. Bunda biologik omillar inobatga olindi, shu bilan bir qatorda fanlararo integratsiya hamda tavsifiy, qiyosiy, dissiplinar kabi metodlardan foydalanildi [5; 46, 55].

Inson a'zolarining tanasidagi joylashgan o'rniga qarab somatik so'zlarni 2 guruh, ya'ni **ichki va tashqi** guruhga bo'ldik.

**Ichki – yurak:** “Juragidan uribdi”, “Juragi sel bo'ldi”; **suyaklar:** “Egasini siylasang, itiga suyak tayla”, “Joman qossab enasigayam suyak sotar”, “Suyak (jiligi) baquvvat”, “Oqli kishi – ilikli ishi”; **qon:** “Qon minan kirgan, jon minan chig'ar”, “Ollap un jalar, qossap qon jalar”; muskul (go'sht), **bachadon:** (qursoq-bachadon va qorin ma'nosida: “Qursog'ida bor” – homila yoki farzand, “It o'lib jotibti, ichida (var.: qornida, bachadonida, qursog'ida) bolasi urib jotibti”. Shevada “ursoq” ham deyiladi. Qo'ng'iroq urug'ining “Qoraursoq” dahasi etimologiyasida ham shu ma'no bor); **qorin:** “Qorni ochqa non bo'sa bas, qorni to'qqa dunyo jetmas, “Qorz og'anning qorni to'ymas”; **og'iz:** “Quri qoshiq oviz jirtar”, “Jegan oviz uyalar”, “Ovzi qiyshiq bo'sayam, boyning bolasi gapirsin”; **tish:** “Tishining kovagida soqlamoq”, “Tishini gijlatmoq”, “O'ttiz eki tishding orasidan chiqqan gap, o'tiz eki uruqqa (og'izga ma'nosi ham bor) tarqalar”; **tanqlay:** “Tanqlayini ko'taroq”, “Tanqlayini qoqmoq”; **til:** “Tili toyib ketti”, “Tiliga tersak chiqmoq”; **lunj, tomoq:** “Tomog'i taqillab”; **jig'ildon:** “Jig'ildoniga urmoq”, “Jig'ildog'i qoynamoq”.

**Tashqi** guruhlash yana kichik guruhlarga bo'linadi. 1. Tayanch harakat a'zolari: **qo'l**: “Aqlli ayol jo'liga qorar, esini jegan qo'lig'a”, **oyoq**: “Qo'li sust kosibdan oyog'i chaqqon gadoy joxshi”, “Qo'ldan kegan jov oshar”, “Oxmaq ayog'idan qarir”, “Oyag'i iplas to'r bulg'ar, o'zi iplas el bulg'ar”, “O'tmas pichoq qo'l kesar”, “Qo'lingdan bermasang, jo'lingdan ber”; **tovon** “Otang kim – Ahmad poriq, Enang kim – tovon joriq”; **bel**: “(y)Elimdagi – belimdagi”, “Ichingdan chiqgan ola ilonni belingga bog'la”, “Belida belbog'i bor”, “Qamishdan bel bog'lamoq”; “Bolalining beli buviq, bolasizning beli siniq”; **kindik**: “Kindigidan keladi”; **barmoq**: “Burga tutish uchunam bormoxti xo'llash kerak”; **tirnoq**: “Kimga bormaxtay, kimga tirnaxtay”, “Et-u tirnaq oyrilmas inaq”; **bo'vin**: “Bo'ydoxting bo'ynini bit jer, topqanini it jer”; **bilak**: “Bilak kimniki, kigiz o'shaniki”. 2. Yuz-jag' va boshqa sohalar: **ko'z**: “Ozanda-ya ozanda, bachchaning ko'zi qozonda”, “Ko'rib turganing ko'zi torazi”, “Ishting o'zini bilguncha, ko'zini bil”, “Ko'z to'ymay, qorin to'ymas”, “Qo'shning ko'r bo'sa, ko'zingni qisib jur”; **qosh**: “Suvdan chiqqan shulukday, qoshi-ko'zi pilikday”; **peshona**: “Qosobasi qoltiroq, monglayi joltiroq”, “Peshonasida bori”, “Peshonasi besh qorich”; **bet**: “Bekorichining beti jo'q, qozon osar eti”, “Bachchani so'ksang beti qotar, ursang (y)eti”, “Betimding qolini – jonimding huziri”; **bosh-kalla**: “Kallam kal bo'lsa ham ko'nglim nozik”, “Kal boshka tilla taroq”, “Oxmoq bosh oyaqti tindirmas”; **lab**: “(y)Eplagani ep kerak, puflagani le(a)b kerak”; **burun**: “Burnimda tilla baldoq, oyog'im suvda qotti”; yonoq, **quloq**: “(y)Elding qulag'i ellikta”, “Qulovi ovur”.

Bu kabi paremiologik birliklarni juda ko'plab davom ettirish mumkin. Zero ularning ijodkori bo'lgan xalq mavjud ekan, uning ko'lami kengayib boraveradi. Demak, paremiologik birliklar tarkibida (ayniqsa, shevalarda)gi somatik so'zlarni lingvostatistik va obyektiv-subyektiv holatda tahlil qilganda boshqa til vositalarga nisbatan ko'pligi aks etadi. Bu kabi paremiologik birliklar xalq donishmandligining mahsuli hisoblanib, ular tarkibidagi somatik so'zlar shundan dalolat beradiki, inson o'zi bilan bog'liq bo'lgan har bir narsani o'rganish asnosida til va tafakkur mushtarakligini o'zida mavjud bo'lgan birlamchi vosita bilan taqqoslab anglaydi. Bu nafaqat paremalarda, balki fonetikada nutq tovushlarini klassifikatsiya qilinganda, ko'p ma'noli so'zlarni tahlil qilganda, so'z ma'nosining ko'chish hodisalarida ham somatik vositalar muhim o'rin tutadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M.Koshg'ariy “Devonu lug'ati-t-turk”. Qosimjon Sodiqov nashrga tayyorlovchi. – Toshkent, G'ulom, 2017.
2. A.Mamatov, B.Boltayeva “Frazologik birliklarning lingvomadaniy va semantik-pragmatik tadqiqi”. Monografiya. – Toshkent, 2018.
3. A.Исаев “Соматические фразеологизмы узбекского языка”. Филол.фан. док. ... дис. Автореф. – Тошкент. 1977.
4. E.Vohidov “So'z latofati”. – Toshkent, “O'zbekiston”, 2014.
5. A.Nurmonov “Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari”, uslubiy qo'llanma. – Toshkent, “Akademnashr”, 2010.

#### “DEVONI FONIY”DA SHOIR IJODIY USLUBI

DOI: 10.53885/edinres.2021.86.66.064

*Nigora Xudoyorova*

I.Karimov nomidagi TDTU

Termiz filiali o'qituvchisi, BuxDU tadqiqotchisi

*Xumora Ismoilova*

BuxDU filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Navoiy “Devoni Foni”da ustoz va salafklarining g'azallariga javob-nazira yozganligi, ularning fors-tojik she'riyatidagi o'rni haqida bayon qilingan. Shu bilan birga Navoiy aksariyat g'azallarini Hofiz Sheroziy g'azallariga javob tariqasida yozganligi izohlanadi.

**Kalit so'zlar:** *Foni, Hofiz Sheroziy, hofizona, xayyomona, oshiq, may, nazira, muxtara, g'azal, tatabbu*

Alisher Navoiy she'riyatni bir umr o'ziga yo'ldosh qilib tanlar ekan, uning zamonida keng tarqalgan an'ana – nazirago'ylikni ham o'ziga ulug' maktab deb bilgan. Keyinchalik esa o'zidan oldin o'tgan forsigo'y shoirlar bilan bellashishni ham yuragiga tugib qo'ygan. Navoiy fors – tojik adabiyoti suxan maydonining ajoyib chavandozlar Sa'diy Sheroziy, Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy, Jomiy va boshqalar bilan bellashib ko'rishni, bu sohada balog'at va fasohat ko'rsatishni, so'ng esa o'z ona tili – qadimgi o'zbek tilida lirik va epik asarlar yaratib, o'zbek she'riyatini yuksak badiiyat osmoniga ko'tarish maqsadini oldiga qo'ygan. Navoiyning o'zi kamtarlik bilan:

Tatabbu' kardani Foni dar ash'or,  
Na az da'viyu ne az xudnam ost.  
Chu arbobi suxan sohibdilomand,  
Murodash az dari dilho gadoist.

Tarjimasi :

Foni naziralar yozar ekan, bil:  
Bu na da'vo, na o'zini bozorga solish.

Suxan arboblari saxiyligidan

Murodim – tilanib bir nima olish, -

desa ham, bu asarlariga Foni taxallusini qo'ygan bo'lsa ham, uning tojikcha she'rlari fors - tojik adabiyoti uchun o'tkinchi asarlar bo'lmadi. Mana besh asrdirkim, ular boy an'anali fors- tojik adabiyotining baland cho'qqilaridan biri bo'lib kelmoqda.

Navoiy Hofiz g'azallaridagi mahoratni yuksak baholagan. "Devoni Foni"da Hofiz g'azallari tatabbu'ida 211ta, tavridda esa 20 ta g'azal mavjud. Alisher Navoiy "Devoni Foni"dagi naziralar tatabbu' yo " dar tavri Xoja" Hofiz yo'lidan va "muxtara" usullarida yozilgan. Ularning ko'pida Navoiy o'z salafllari ijodini kengaytiradi. Inson dilining yangi-yangi qirralarini nurlatib ziyo sochtiradi. Navoiy kimga tatabbu qilganligini o'zi devonda ko'rsatib, g'azallariga unvon qo'yib ketgan. "Devoni Foni" fors tojik adabiyoti tarixida sarlavhalarga g'azal misralarida ham u tatabbu qilnayotgan shoir nomini keltirib o'tadi. Masalan:

G'azal guftan musallam shud ba Hofiz shoyad, ey Foni,

Namoyi choshni daryuza on nazmi jahonoro.

Tarjimasi: Hofiz g'azallariga hamma qoyil qolgan, ey Foni,

O'sha jahonni bezagan nazmdan sen ham bir oz tilanib olsang bo'ladi.

Hofiz g'azallaridek Foni g'azallarida ham muhabbat yolqini nur sohib, cholg'u sadosi yangrab, sharob bo'yi anqib turadi. Umuman Navoiy ijodida bo'lganidek, uning Foni devonida ham xayyomona kayfiyatlar, hayot - mamot muammosiga xayyomona falsafiy nazar bilan qarash juda kuchli. Navoiydagi bu ta'sir bevosita Hofiz Sheroziy ijodi orqali o'tgan. Xayyom g'oyalardan fayz topgan misralar Foni devonidan anchagina topiladi. Foni:

Paymonahoi mo zi mai sof pur dihed,

To pur shudan zi hodisa paymonai digar.

Tarjimasi: Boshqa hodisadan paymonamiz to'lmasdan ilgari

Paymonam iznini sof may bilan to'latib bering.

Hofiz:

Xezu dar kosai zar obi tarabnok andoz,

Peshtar on ki shavad kosai zar xok andoz.

Tarjimasi: Bosh kosamizga tuproq to'lmasdan burun zarrin kosani

Shodlik suvi (mayga) to'ldirgil.

Xayyom:

Sahar sado berdi bizning mayxona,

Ki, ey mayxonamiz - rindi devona,

Turgil, paymonamiz to'ldir sharobga,

Hali to'lmay turib bizning paymona.

Foniy ulug' salafлари fayzidan bahramand bo'lib, yangi-yangi asarlar yaratar ekan, g'azalchilik san'atini chuqurroq egallab boradi va bu tatabbularida o'z aksini topganiga guvoh bo'lish mumkin.

Hofiz Sheroziyning: Voizon, kin jilva dar mehrobu minbar mekunand,  
Chun ba xilvat meravand, on kori digar mekunand.

Tarjimasi: Mehrobu minbarda bu jilvani ko'rsatuvchi voizlar,  
Xilvatga kirishlari bilanoq boshqacha ish tutadilar,  
deb boshlanuvchi g'azaliga Alisher Navoiy nazira yozgan. Uning boshlanmasi shunday boshlanadi:

Voizon to chan man'i jomu spg'ar mekunand,  
Chun dimog'i xoshro ham gah -gahe tar mekunand.

Tarjimasi: Voizlar jom bilan sog'arni qanchalik man etmasunlar,  
O'zlari ham ba'zi - ba'zida romog'larini ho'llab turadilar.

Bu g'azalni baytma - bayt solishtiradigan bo'lsak, Foniy Hofiz Sheroziy g'azali libosida o'zini juda erkin tutib, bemalol harakat qiladi va Hofiz fikrini davom ettiradi. Abdug'ani Mirzoyev "Foniy goh Hofizdan sustroq, goh unga teng va goh undan ustunroq g'azallar yaratgan" deb aytgan edi. Bu bilan Foniy bu asariga fors adabiyotini bosib o'tgan Xuroson uslubini ham, iroq uslubini ham yaxshigina egallabgina qolmay, balki Navoiyning o'zbekcha g'azallariga xos bo'lgan yangi fusunkor navoiyona uslubga asos soldi. Hofizning mashhur, 300 ta shoir tatabbu bog'lagan - "Agar on turkiy Sheroziy" g'azaliga Navoiy tatabbu bog'lagan.

Hofiz aytadi: Agar on turkiy sherozi ba dast orad dili moro,  
Ba xoli hinduyash baxsham Samarqanu Buxororo.

Mazmuni: Agar ul sherozlik turk bizning ko'nglimizni olsa, hindu xoliga Samarqand bilan Buxoroni baxsh etaman.

Foniy mazkur baytni g'azal matlasiga shunday tatabbu qiladi:

Gar on turki xitoyi no'sh sozad jomi sahboro,  
Naxust orad so'yi mo turktozi qatlu yag'moro.

Mazmuni: Agar ul xitoylik turk may jomini ichib yuborsa, birinchi navbatda biz tomonga turkcha qatlu g'oratni olib keladi.

"Devoni Foniy"dagi g'azallarining sakson foizi mashhur g'azalnavis fors - tojik shoiri Xoja Hofizga tatabbu shaklida yozilgan. Foniy Xoja Hofizni g'azal bo'stonida eng buyuk va betakror shoir deb bilib, uning g'azallarini boshqalardan ustun ko'rgan. Xoja Hofiz g'azallari qanchalik shuhrat qozongan bo'lsa, ularga bog'langan Foniy tatabbulari ham shuncha mashhur bo'lib, ular fors-tojik va o'zbek adabiyoti tarixida kuchli tatabbu maktabining rivojlanishiga muhim omil sifatida xizmat qildi. Hofiz g'azallarining betakror ohorli g'oyalari asrlar osha qancha davom etib, muxlislarni maftun qilib kelayotgan bo'lsa, Foniy tatabbulari orqali bu jarayon yanada qanot qoqib, hofizona mazmunlarning yoyilishi va parvozigacha kuch-quvvat baxshida etgan.

#### **Adabiyotlar:**

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. 19- tom. Devoni Foniy. – Toshkent :Fan, 2002. – 541-600 b.
2. Mallayev. N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O'qituvchi, 1976.
3. Shodiyev E. Alisher Navoiy va fors - tojik adiblari. – Toshkent: O'qituvchi, 1989.
4. www.ziyo.net
5. www.kh.davron.net.

## SEMANTIK GROUPS OF BEHAVIORAL VERBS IN UZBEK AND ENGLISH

DOI: 10.53885/edinres.2021.32.10.065

*Nurislom Iskandarovich Khursanov*

Teacher, Department of “Intercultural  
Communication and Tourism”,  
Tashkent State University of Uzbek Language  
and Literature named after Alisher Navoi  
E-mail: [nurislomkhursanov92@gmail.com](mailto:nurislomkhursanov92@gmail.com)

**Abstract:** *From birth to death, a person behaves accordingly doing certain things. The set of behavioral principles according to which a single person reacts to life in society is called social behavior. This paper is about semantic groups of verbs of behavior in Uzbek and English.*

**Key words:** *Uzbek and English languages, behavior, human relations, linguistics, psychologists and educators, culturologists, lexico-semantic group*

Features of behavior, human relations with other people are reflected in verbal vocabulary, which is considered as a socially significant fragment of the national picture of the world. In the framework of the study of lexical and semantic groups of verbs of behavior (LSG GP) in Uzbek and English languages seems necessary to consider the concept of “human behavior” from the position of linguistic and humanities as it goes beyond specific scientific discipline.

Philosophers regard behavior as a person’s ability to act in the material, intellectual and social spheres of life, and this usually occurs due to both natural and environmental factors [2]. Psychologists and educators often perceive behavior as an equivalent to the word “activity” that has natural prerequisites; however, at the basis of socially conditioned, mediated by language and other sign-semantic systems, its typical forms are cognition, labor, game, communication; it is a certain organized activity that carries out the connection of the organism with the environment [2]. Lawyers interpret it as “Socially significant behavior of citizens and officials provided with legal norms and entailing certain legal consequences” [3]. Sociologists link human behavior with social programs and value systems, fixed in the material and spiritual culture of society. In this way, this is regulated as an individual and public consciousness, and social institutions and legal norms, morality and politics [4]. In ethics, behavior is the totality of human actions that have moral significance since they can be morally assessed (both intentional and unintentional) [5].

Culturologists define behavior as “a person’s reaction to the perception of the world which is culturally determined” [6; 194]. Each culture gives his idea of the world. Only a person, understanding the idea of others, is able to communicate with them as well as to understand them and their behavior.

Linguists interpret the term “human behavior” as a way of life and actions, a set of actions and their relation to others.

The analysis of philosophical and aesthetic, psychological, social and linguistic literature showed that behavior is a complexity of actions performed by a person. In the minds of each person there are certain stereotypes about the norm of behavior, and, observing the actions of others, he is inclined to compare them with a specific standard adopted in this community, deviations from which are condemned in the minds of people and, as a result, are carried out in a certain point mark. We will consider how these characteristics of human behavior manifest themselves in linguistic units on the example of the lexico-semantic groupings [8].

The lexico-semantic group (LSG) of verbs of action and behavior consists of 156 units in total united by the basic verb-nominalization “to behave”. Behavior verbs are characterized by evaluative connotations, mostly negative (to be illegal, to be rude, to be hypocritical, etc.).

Classifying behavior verbs, Yu. D. Apresyan divides them into three types depending on the types of norms in ethics:

1) Norms of personal behavior (it should be natural and reasonable): to manner, to clown, etc.;

This lexico-semantic grouping of verbs in English language can be equivalent verbs or words belonging to the state verbs and show mostly state or sometimes action in Uzbek language. For example, the verb “to manner” denotes the meaning of “doing something in a certain way”. This can be translated into Uzbek language in the following way “O’zini biror tarzda tutmoq”.

*He behaved/mannered in a reasonable way in this difficult situation. - U o’zini ushbu qiyin vaziyatda juda yaxshi tutdi.*

From these examples, it can be stated that the first sub-group of behavior verbs is closely linked with the inner state, more precisely, conduct of person under circumstances; this action/verbs can differ depending on the person’s character, state of mind or reaction to the situation.

a. Norms of behavior with a partner (it should be cooperative): to be capricious, to break down, to be picky, to be stubborn, etc.;

As has been mentioned above, the lexico-semantic sub-groups of behavior verbs in English language pertain to state or action verbs in Uzbek language. The common characteristics of the very second type of behavior verbs is that such verbs usually show the relation between people or their attitude to each other. To take an example of the verb “To be picky”, this means “to be careful about choosing or accepting things/people, etc.,” with the synonyms of to be fussy, to be choosy” [7]. Nevertheless, this verb, in Uzbek language, is equivalent of “*Injiqlik qilmoq*”, “*Tajanglik qilmoq*”, “*Serdiqqat bo’lmoq*” or “*Nozikta’b bo’lmoq*”. The deeper meaning of this verb can be seen in the following examples:

Because pen collectors are very picky, and some antiques dealers who are not in the pen business can overlook the details of condition, there is occasional friction.

*Ruchka yig’uvchilarning juda ham nozikta’b bo’lganliklari va sohaga aloqasi bo’lmagan ba’zi antikvariat yig’uvchilar detallarni ko’zdan qochirishi tufayli odatiy kelishmovchiliklar sodir boladi.*

With rising ticket prices and new competition from cable TV, some families may be picky about the movies they choose to see.

*Chiptalarning narxi oshishi va telekompaniyalar o’rtasidagi yuzaga kelayotgan raqobat oqibatida ba’zi oilalar film tanlashda serdiqqat bo’lib qolishi mumkin.*

Through the examples of two sentence samples, we can say that, both in English and Uzbek language, verbs of behavior are used to show one’s attitude, perception to surroundings either positively or negatively. The meanings of such verbs are not fixed, but they change depending on the context they are used in.

### CONCLUSION

The simple definition of the language is “*the language is socio-natural process*”. So it means as long as the humanity exists it will too. The first section of the chapter is devoted to the cognitive features of behavioral verbs and their comparisons in Uzbek and English languages. It is worth to mention that we came across with some difficulties finding literatures of materials in Uzbek language. The semantic cognitive features of verbs in Uzbek language is less or partially investigated field; notwithstanding, the English scholars and linguists did great progresses. This section analyzed cognitive features of behavioral verbs from different point of view and provided scenario of it. These four scenarios illustrate the verb property and its function in positive and negative evaluation.

### References:

1. Encyclopedic dictionary of Philosophy. Moscow, 2000. P. 346.
2. Kodzhaspirova G. M., Kodzhaspirov A. Yu. Pedagogical dictionary: for students of higher education and secondary pedagogical institutions. Moscow, 2001. (Коджаспирова Г. М., Коджаспиров А. Ю. Педагогический словарь: для студентов высш. и сред. пед. учеб. заведений. Москва, 2001.)

3. Sanzharevsky I.I. Political science: words.-ref. 2010. URL: <http://www.polit-gloss.narod.ru> (date of access: 05.03.2018). (Санжаревский И. И. Политическая наука: слов.-справ. 2010. URL: <http://www.polit-gloss.narod.ru> (дата обращения: 05.03.2018).)
4. Sociology: Encyclopedia. / comp. A. A. Gritsanov [and others]. Minsk, 2003. (Социология: энцикл. / сост. А. А. Грицанов [и др.]. Минск, 2003.)
5. Dictionary of Ethics / ed. I. Cohn. Moscow, 1981. (Словарь по этике / под ред. И. Кона. Москва, 1981.)
6. Sadokhin A.P. Introduction to the theory of intercultural communication. Moscow, 2005. – p. 194. (Садохин А. П. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Москва, 2005. С.194.)
7. Merriam-Webster Online Dictionary
8. L. Raupova. (2012) YAPISAL DİLBİLİMİNDE BİRLEŞİK CÜMLELERLE İLGİLİ SORUNLAR/Problems About Compound Sentences in Structural Linguistics. Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi. – pp. 37-50.

**ИНГЛИЗ ТИЛИДАГИ МИФОНИМ КОМПОНЕНТЛИ  
ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАРНИНГ СИЁСİY ДОИРАДА ҚЎЛЛАНИЛИШИ**  
**DOI: 10.53885/edinres.2021.39.28.066**

*Ўғлоной Алламуродовна Худайназарова*  
Термиз давлат университети ўқитувчиси

**Аннотация.** *“Инсон қанчалик нопок, ахлоқсиз, ҳатто атеистик бўлмасин, у энг оғир вазиятларда Оллоҳни ёдга олади: Оллоҳ ягона, у бизнинг Худовандимиз” [1;45] – дейди машҳур миссионер ва саёҳатчи В.М.Томсон. Оллоҳга бўлган муҳаббат, жаннат ва дўзах ҳақиқатларини англаш ҳар бир инсоннинг ўзлигини англаш жараёнларида содир бўлади ва бу баъзида қалбимизда кечган туйғулар орқали нутқимизда акс этади. Инглиз сиёсатишунослигида мифоним компонентли фразеологизмларни ўз ўрнида қўллаш АҚШнинг 16-президенти Авраам Линкольн номи билан боғлиқ.*

**Калит сўзлар:** *инглиз тили, мифоним компонентли фразеологизмлар, сиёсий доирада қўлланилиши*

XX аср христиан дини борасидаги баҳс-мунозараларда А.Линкольн Томас Пейннинг(АҚШнинг художўй отаси, ёзувчи, файласуф, муҳаррир) издоши ҳамда христиан дини тарғиботчиси дея тан олинади. А.Линколннинг дин билан йўғрилган фикрлари ушбу динни назм ва насрда идрок этиш имкониятини берди. Уильям Е.Бартоннинг 1920 йилда ёзилган “Авраам Линкольн қалби” номли асарига жавоб тариқасида ўнлаб тарихчилар А.Линколннинг диний ҳаёти ҳақида изох қолдирганлар.[2;6] У ўз нутқида *“Колумб янги қитъани топганда, Исо Масиҳ хоч азобини тотганда – Мусо Исроилга Қизил денгиз орқали ўтганда, Одам Ато ўз парвардигори томонидан яратилганда, қачонки Ниагара бўкириб оққанда каби фразеологик бирликлардан фойдаланган. When Columbus first sought this continent-when Christ suffered on the Cross-when Moses led Israel through the Red –Sea-nay, even, when Adam first came from hand of his maker-then as now, Niagara was roaring here.[3;56]*

Америкалик машҳур тарихчи Оливье Фрайс А.Линкольн ҳақида қўйидаги фикрларни билдиради: *“Lincoln saw in technology an escape from Adam`s curse, and thus his thought about progress in this period had postmillennial tendencies”... - Линкольн технологияда Адамнинг тавқи ланъатдан қочганлигини кўрди ва унинг тараккиёт борасидаги фикрлари минг йиллик тенденцияларга тўла эди.[4;55]*

Сиёсий лексикани фразеологик бирликлар билан бойитиш шунчаки содир бўлмайди, балки нотикдан диний саводхонликни ҳам талаб этади: *At first glance, Lincoln and Bancroft seemed very close in their views of history and human progress. Lincoln too believed in progress, and he sought to give old fogies like Adam and Abraham their due.[5;69]*



Линкольн ва Банкрофтнинг инсоният ривожланиши ва ўтмиши ҳақидаги қарашлари жуда ўхшаш эди. Линкольн ҳам тараққиётга ишонган ва *Одам Ато ва Иброҳим Алайҳиссалом каби ўз гуноҳлари учун ўлгон тўлашга интилган*. Ушбу фразеологик бирликда Одам Атонинг шайтон васвасасига учиб жаннатдан қувилиши ҳамда Иброҳим Алайҳиссаломнинг ўз фарзанди Исмоилнинг онаси – хотинининг жорияси Хожарни қувиб ҳайдаши назарда тутилган.

Nevertheless, Lincoln`s wartime proclamations of fast days, thanksgiving days, and Sabbath observance eventually reflected his absorption of these ideas. The ideal of the “Christian Statesman who recognizes *finger of God* in the affairs of men” was one Lincoln would, with careful qualification, come to embody.

Шунга қарамай, Линкольннинг уруш даврида ҳам Рўза кунлари ҳамда Марҳаматли кунларни эълон қилиши унинг христиан дини арконларига содиқ эканлигини кўрсатарди. *У инсонлар тақдирида Оллоҳ куч-қудратини хис эта олган* диний эътиқодни ўзида мужассамлаштирган “Христиан давлат арбоби” эди.[6;97]

Р.У.Эмерсон ўзининг Америка ҳақидаги иншоларида: “America more often corresponded to *Adam redivivus*, an innocent yet exemplary figure in a new Garden of Eden” дея фикр билдирган. Америка гўёки *Адамнинг қайта тирилишига* қиёс ҳамда у *Жаннат боғидаги беғуноҳ ҳилқатдир* дейди.[7;55] Инглиз сиёсатшунослигида диний тасаввурлар акс этган фразеологик бирликларни нутқда қўллаш америкаликлар учун янгилик эмас: The petition stated that the clergymen “in the name of Almighty God, and his presence, do solemnly protest against the passage of what is known Илтимосномада таъкидланишича, руҳонийлар ” *қудратли Худо номи билан* ва унинг мавжудлиги маълум бўлган нарсаларни инкор этилишига тантанали равишда норозилик билдирадilar.[8;301-304]; “as early as the time of Moses; from which we may safely infer that`s inventors were very old fogies ....*Мусо даврида ҳам*; биз ишонч билан унинг яратувчилари жуда қадимги даврларга боради деб хулоса қилишимиз мумкин; The spirit of God breathes through the combined intelligence of the people. – Худонинг руҳи халқнинг бирлашган ақл-заковати орқали нафас олади; To be the people after God`s own heart – Оллоҳ қалбидан жой олиш; Setting our heart on God`s kingdom – Оллоҳга ўзимизни бахш этиш [9;309] ва б.

Хулоса шуки, сиёсий нутқда диний жумлаларни қўллаш асосан Оллоҳ лексемаси орқали фразеологик бирикма кўринишида намоён бўлади. Инглиз сиёсий оламида Авраам Линкольннинг издошлари сифатида бир қатор олимлар ва тарихчилар теологик ва мифологик образлар воситасида ўз сиёсий фикрларини ҳиссий-таъсирий бўёқдорлигини таъминлашга эришганлар.

#### Адабиётлар:

1. Curiosities in proverbs: A Collection of unusual Adages, Maxims, Aphorisms, Phrases and other popular Dicta from many lands. Marvin, Dwight Edwards.1916.G.P.Putnam`s sons (New York).p.45.
2. Lincoln, religion, and romanticcultural politics. Winger, Stewart Lance. 2003.Dekalb. Nothern Illinois University press. P.6.
3. Lincoln, religion, and romanticcultural politics. Winger, Stewart Lance. 2003.Dekalb. Nothern Illinois University press. P.56.
4. Lincoln, religion, and romanticcultural politics. Winger, Stewart Lance. 2003.Dekalb. Nothern Illinois University press. P.55.
5. Lincoln, religion, and romanticcultural politics. Winger, Stewart Lance. 2003.Dekalb. Nothern Illinois University press. P.69.
6. Lincoln, religion, and romanticcultural politics. Winger, Stewart Lance. 2003.Dekalb. Nothern Illinois University press. P.97.
7. Lincoln, religion and romantic cultural politics. Winger Stewart Lance. 2003. DeKalb: Nothern Illinois University Press. P.55.
8. Ўзбек ва инглиз тилларида мифоним компонент тушунчаси тадқиқи. Сўз санъати халқаро журнали. Худайназарова Ў.А. 2021 йил. 4-жилд. 3-сон. 301-304 бетлар.
9. Encyclopedia of religion in American politics.1999.Phoenix.Ariz.Oryx Press.p 309.

## -ONA AFFIKSLI YASAMA RAVISHLAR, ULARNING LUG‘ATLARDAGI IFODASI

DOI: 10.53885/edinres.2021.89.97.067

*Umida Ibrohim qizi Yahyoyeva*

BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrası 2-kurs  
magistranti.

**Annotatsiya.** O‘zbek tilshunosligida ravishga xos -ona so‘z yasovchi affiksi, uning xususiyati haqida bir qator fikrlar e‘tirof etilgan[3;4;5]. Mazkur affiksning so‘z yasashga munosabati – imkoniyati borasida fanimizda munozarali fikr-mulohazalar ham uchraydi[8]. Yaqin yillarda ravish so‘z turkumi borasida maxsus tadqiqot olib borgan T.Asadov -ona affiksi bilan hosil bo‘lgan yasama so‘zlar muayyan bir so‘z yasash qolipi, ya‘ni [shaxs oti/sifat+ona] qolipi hosilalari bo‘la olishini ta‘kidlaydi va -ona affiksli yangi-yangi so‘zlar (shekspirona, turkona, qahhorona va h.k.)ning “sun‘iy, yasalishning me‘yoriy holatiga bo‘ysunmaydi” qabilidagi e‘tirozlarga qarata shunday yozadi: “To‘g‘ri, bu kabilar yasalishning dastlabki holatida eshituvchiga g‘ayritabiiy tuyulishi mumkin, biroq bu kabi so‘zlar davr bilan bog‘liq ravishda nutqimizga singib, safi ortib bormoqda”[1,67]. Tadqiqotchi [shaxs oti/sifat+ona] qolipining o‘ta unumli emasligini esa quyidagicha izohlaydi: “-ona so‘z yasovchisi affiks sifatida -larcha, -chasisga kabi ravish yasovchi affikslarga teng keladi (mardona – mardchasisga – mardlarcha), -larcha, -chasisga affikslarida so‘z yasovchilik rolining balandligi [shaxs oti/sifat+ona] qolipini unumsizlashtirib turadi”[1,68]

**Kalit so‘zlar:** ravish, yasama ravish, -ona affiksli ravishlar

Tarixiy mansublik jihatdan forsiy tillarga tegishli -ona affiksi va shu shakl bilan yuzaga kelgan so‘zlar miqdoran yuzga yaqin bo‘lib, ters lug‘atda 87 ta so‘z keltirilgan. Bular: beadabona, boadabona, adabona, muhibbona, g‘oyibona, g‘olibona, g‘aribona, g‘aroyibona, raqibona, aybona, donishmandona, rindona, mardona, ojizona, fojiona, go‘dakona, dadilona, odilona, razilona, oqilona, johilona, muloyimona, olimona, zolimona, ma‘sumona, xoinona, pahlavona, qahramonona, majnunona, dilbarona, payg‘ambarona, dilovarona, firibgarona, ig‘vogarona, birodarona, kamtarona, muzaffarona, mutakabbirona, mag‘rurona, ayyorona, mug‘ombirona, bahodirona, botirona, faqirona, tahqirona, mohirona, hiylakorona, devkorona, riyokorona, tajovuzkorona, makkorona, sitamkorona, isyonkorona, fidokorona, xaloskorona, tashabbuskorona, xiyonatkorona, san‘atkorona, ehtiyotkorona, lutfkorona, namoyishkorona, oshkorona, jinoyatkorona, ma‘yusona, mastona, do‘stona, badbaxtona, betarafona, zaifona, xarifona, munofiqona, oshiqona, xalqona ahmoqona, mushtoqona, ablahona, xayrixohona, takabburona, jasurona, iblisona, xolisona, vahshiyona, so‘fiyona, dohiyona, mahfiyona, adibona, zohidona[7;22-24]. Bu so‘zlarning lug‘at qatlamimizda paydo bo‘lishi o‘zbek lug‘atining turli davrlariga xos bo‘lib, ularning katta qismi shu holicha o‘zlashgan bo‘lsa, ayrimlari o‘zbek tili so‘z yasalishi usuliga ko‘ra paydo bo‘lgan. Biroq -ona affiksli so‘zlarning qaysi biri o‘zlashgan qaysi biri o‘z qatlamda, yani so‘z yasalishning ichki imkoniyati (affiksatsiya usuli)ga ko‘ra hosil bo‘lganligini aniqlash mushkul.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da bu so‘zlarning aksariyati mavjud, faqat 17 so‘z o‘z belgisiga ega emas[6]. Bular: *adabona, muhibbona, g‘aroyibona, donishmandona, go‘dakona, johilona, muloyimona, majnunona, dilbarona, dilovarona, firibgarona, ig‘vogarona, botirona, oshkorona, badbaxtona, mushtoqona, maxfiyona*. Mazkur so‘zlarning amaldagi O‘TILdan o‘rin egallamaganligiga bosh sabab, bizningcha, eski O‘TILda bu so‘zlar o‘z ifodasiga ega bo‘lmaganligi bo‘lsa kerak. Kuzatishlar ko‘rsatdiki, yuqoridagi so‘zlar eski O‘TILda ham kiritilmagan. To‘g‘ri, izohli lug‘atlar keng iste‘moldagi so‘zlarni qamrab olishini, ters lug‘atda keltirilib, biroq amaldagi O‘TILda o‘z belgisiga ega bo‘lmagan bu kabi so‘zlarning ko‘pchiligi qo‘llanish doirasi torligi bilan alohidalik kasb etishini inkor etmoqchi emasmiz. Biroq nutqimizda tez-tez qo‘llanuvchi *donishmandona, johilona, muloyimona, majnunona, firibgarona, botirona, oshkorona, maxfiyona* kabi so‘zlarning amaldagi O‘TILda keltirilmaganligi har qanday kishini o‘yga solishi aniq.

Bilamizki, lug‘atchilik an‘anasiga ko‘ra lug‘aviy birliklarga lug‘atlardan o‘rin oladi. Har qanday nutqiy yasalmalar (okkazonal yasalmalar), individual nutq ko‘rinishlari, muallif neologizmlari lug‘arlarga kiritilavermaydi. Lekin yuqorida keltirilgan, O‘TILda kelirilishi lozim ko‘rilgan so‘zlar allaqachon lug‘aviy birlikka aylanib ulgurgan. Buni mazkur so‘zlarning kitobiy uslubda keng qo‘llanilayotganligi ham dalillaydi. Misollarni kuzatamiz: 1. *Mungli tovushiga osurman quloq/ Dovdir majnunona xayolga asir/ Varaqlar ustida mixlandi nigoh/ Yong‘in changalida turibman axir.*(R.Parfi) 2. *Davlat rahbarining qat‘iyati, jasorati, donishmandona strategiyasi va eng muhimi xalqimizning birdamligi, ...butkul yangi O‘zbekistonda shodiyona kunlarni nishonlashga o‘zimizni haqli sanasak bo‘lar.* (“Xalq so‘zi” gazetasi, 2021) 3. *...johilona ish tutishlar millatimiz tarixi va taqdirida xunuk va zararli iz qoldirishi tayin.* (“Xalq so‘zi” gazetasi, 2021)

T.Asadov ravish so‘zlar uslubiyati bilan bog‘liq kuzatishlarida [2;62] *-ona* affiksli so‘zlarning *-larcha*, *-chasiga* affikslariga nisbatan nutq tasirchanligini kuchaytirishi, jozibadorligini ta‘minlashdagi xizmati yuqori ekanligini aytib, mazkur qo‘shimcha hozirgi kunda o‘z faoliyatini to‘xtatgan emasligini ta‘kid etadi. Mazkur affiks bilan bog‘liq quyidagi misollarni keltirib o‘tadi: 1. *Nutqning eng haroratli, eng kuchli joyiga kelganda, artistona harakat qilib, raisga ma‘nodor qarab qo‘yardi.* (S.Nazar) 2. *Qodiriyona – Chehovona hikoyalar yo‘q darajada.* (Mirmuhsin)

Kuzatishlar ko‘rsatadiki, *-ona* affiksi ko‘plab so‘zlar yasashda ishtirok etib kelmoqda. Ayniqsa, bugungi kun adabiyoti va davriy nashrlarida mazkur affiks bilan bog‘liq ko‘plab so‘zlar uchratishimiz mumkin. Ayrim misollarni kuzatamiz:1. *Uchinchi Renessans deyilmish muhtasham qo‘rg‘on sari alpona qadam tashlash vazifasi turibdi.* (“Yangi O‘zbekiston” gazetasi.2021-yil oktabr soni) 2. *Xalqning og‘ir ahvoli Fitratning “Abulfayzxon” asarida zo‘r badiiy mahorat va shekspirona ko‘lamda tasvirlangan.* (“Tarixdan hikoyalar”, 2020-yil, 20-avgust.81-bet) 3. *“Oltin zanglamas”ni o‘qiganimda sezganman, undagi godirona ifodalarga tan berganman.*(O.Mo‘minxo‘ja “Ustozlar va zamondoshlarim haqida”) 4. *Ma‘naviy tahdid sifatida baholanayotgan g‘arbona yashash bizning muqaddas qo‘rg‘onimizga qanchalik salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.*(“Oila-tinchligi-jamiyat farovonligi asosi” maqola ) 5. *O‘zbekona kiyinish madaniyatini targ‘ib qilish, zamonaviy kiyinishimizga rioya qilishni yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib qilish lozim* (“Milliy liboslar-ma‘naviyat ko‘zgusi” -TFL.UZ 2020.20-dekabr)

Xulosa shuki, *-ona* affiksi faol, o‘ta unumli bo‘lmasa-da, mazkur shaklni o‘rta unumlilar qatorida joylashtirish mumkin. Kuzatilgan misollar buni to‘liq dalillaydi.

#### Adabiyotlar:

1. Асадов Т. Сўз туркумлари тизимида равиш. Монография. –Ташкент: Мухарир, 2010.
2. Асадов Т. Ўзбек тилида равишларнинг маъновий-услубий хусусиятлари. Монография. –Бухоро, 2011.
3. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М.-Л., 1960.
4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili (darslik). –Т.: Universitet, 2006.
5. Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. –Т.: Фан, 1975.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Ташкент: “Ўз. мил.энцик.”, 2006-2008.
7. Қўнғуров У., Тихонов А. Ўзбек тилининг терс луғати. – С., 1968.
8. Ҳожиёв А. Ўзбек тилида равиш ясаши тизими масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. 2001, 2-сон, 41–44-б.

## ФРАЗЕМА И ЕЕ СИНТАКСИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

DOI: 10.53885/edinres.2021.98.13.068

Дилором Нигматовна Юлдашева

профессор Бухарского государственного  
университета diloromxon@mail.ru

**Аннотация.** В узбекской субстанциональной лингвистике (ранее воспринимавшейся как «самоочевидное явление», но лингвисты прямо и косвенно сталкиваются на каждом шагу, в каждом предложении) проблема классификации в некоторой степени решена. Однако в узбекском языкознании мы до сих пор сталкиваемся с путаницей в описании и классификации информации, относящейся к лингвистическому и речевому этапам языковых уровней. Обратим внимание на одну из таких «проблем» на уровне синтаксиса - синтаксический анализ фраз, точнее, разделение частей речи в предложениях, содержащих фразы.

**Ключевые слова:** синтаксический фактор, семантический фактор, проблема частей предложения, синтаксический анализ фразеологизмов

Одной из проблем, которая вызвала ряд проблем, поскольку она специально не изучается в формальной (традиционной) лингвистике [3], является проблема лингвистической классификации [3]. Хотя лингвисты сталкивались с проблемой классификации прямо и косвенно на каждом этапе, в каждом предложении они не обращали особого внимания на это как на «классификацию отдельно». Поэтому в науке произошел искусственный беспорядок. Одной из этих «проблем» в формальной лингвистике был синтаксический анализ фраз, или, точнее, разделение фраз на фразы, включающие фразы. Идея заключалась в том, что фраза будет функционировать как одно предложение, основанное на семантической целостности фразы (во всей ее полноте в смысле одного слова), что усложнит процесс анализа. Поэтому такой взгляд делает профессор В.В. Рахматуллаев, который представил и популяризировал узбекскую науку на основе академика В.В.Виноградова, утверждает, что ни одна из его последующих работ немислима [5]. Подход к синтаксическому анализу фразовых выражений в этом контексте нарушает основное требование к логически непротиворечивой классификации – основа классификации. Это потому, что фрезерный станок цельный и цельный. Следовательно, интерпретация его как синтаксического целого эквивалентна игнорированию основного закона логики [5] – закона идентичности: синтаксический анализ (разделяющие части предложения) должен основываться на требованиях и характеристиках, а не на семантике [3]. В частности, *разум не появился (ақл битмади, ақл кирмади); его голова распухла (боши шишиди, мяси говлади)* и д.

Когда пришло известие, арбуз Карима упал под его руку (*Бу хабарни эшитган Каримнинг тарвузи қўлтигидан тушиди*). Когда мы пытаемся синтезировать речь Карима со словами формальной лингвистики, мы сталкиваемся с множеством противоречий. Но какая часть истории есть у Карима в цитате? Если мы полагаемся на специфическое для глагола слово в предложении только в качестве указателя, то естественно спросить Карима, что определяет его идентичность. Формальная лингвистика не может ответить на эти вопросы разумно. Поскольку фраза является чистой семантической целостностью, ее «семантическая целостность» не может быть скопирована в синтаксическое целое – любая фраза (понимаем ли мы это широко или нешироко) должна быть классифицирована в соответствии с синтаксическими критериями. Поэтому, например, *Кошка упал с крыши* кошка должна быть отделена от крыши, как в случае с арбузом.

Слова, которые не используются отдельно от словосочетаний (например, *пах, яблоко, прилив, потеря веса, здание, здание, звон, демон / демон* и т.д.), Цифры во фразе (*щепотка, щепотка, рот / рот*) предложение / v.h) следует разбить на синтаксические разделы. Таким образом, анализируется комбинация успеха.

Утверждение не только предикативно, но и связано с ненаркотическими фразами. Например, жестокие, жестокие, нитевидные иглы и жалюзи также должны интерпретироваться так же, как анализируется синтез каменных мостов, пустых мешков, из дома в университет и четыре свободных соединения.

